

63.3(507)
1194

R.A. Mulladjanova, Z.A. Ilxomov

O'RTA OSIYO SHAHARLARI TARIXI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT PEDAGOGIK UNIVERSITETI**

**Ra'no Abdulladjanovna Mulladjanova
Ziyovuddin Atxamovich Ilxomov**

O'RTA OSIYO SHAHARLARI TARIXI

Metodik qo'llanma

**NIZOMIY NOMIDAGI
TDP
AXBOROT-RESURS
MARKAZI**



933-105

TOSHKENT - 2019

Ushbu metodik qo'llanmada O'rta Osiyoda shahar va shaharsozligi, O'rta Osiyo shaharlarining fortifikatsiyasida o'ziga xosliklari, V-XV asrlarda Buxoro, Urganch, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Shosh, Iloq, O'zbek xonliklari davrida shaharlar va shaharsozlik, O'zbek xonliklari davrida shaharlar va shaharsozlik tarixiga oid yangi manbalar bilan tanishasiz. Shuningdek, "O'rta Osiyo shaharlari tarixi" fanining XVI-XIX asrlarda iqtisodiy va siyosiy markazlar sifatida yangi shaharlarning shakllanishi, O'rta Osiyo shaharlaridagi boshqaruv tizimi: an'anaviylik va o'ziga xoslik jihatlari, O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va uning ixtisoslashuvi haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

Metodik qo'llanma oliy o'quv yurtlari bakalavr bosqichi talabalari, kasb-hunar kolleji va akademik litsey, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari hamda O'rta Osiyo shaharlari tarixi bilan qiziquvchi kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu metodik qo'llanmani yaratishda muhtaram ustozlarimiz, taniqli olimlar T.f.d., professorlar D.Ziyoyevaning "O'zbekiston shaharlari" (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlari), G.Agzamovaning (XVI-XIX asrning o'rtalari), X.Mamadaliyevning "O'zbekiston shaharlari" (IX-XII asrlar), B.Eshovning "O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi" va tadqiqotchi, bo'lajak umidli olim M.Xatamovaning "O'zbekiston shaharlari" (VI-VIII asrlar) nomli fundamental ilmiy asarlaridan foydalanildi. Buning uchun ustozlarimizga chuqur minnatdorchilik bildiramiz.

Tuzuvchilar:

Pedagogika fanlari nomzodi., dotsent R.A. Mulladjanova

Tarix fanlari nomzodi., dotsent Z.A.Ilhomov

Taqrizchilar:

R.Tursunov – O'zMU., Tarix fakulteti., tarix fanlari nomzodi

F.Ismatullayev – Nizomiy nomidagi TDPU., Tarix fakulteti., tarix fanlari nomzodi, dotsent

M.SH.Isoyeva – Toshkent shahar, 304-maktab oliy toifali o'qituvchi.

L.X.Sotivaldiyeva – Toshkent shahar, 304-maktab tarix o'qituvchisi.

Kompyuterda sahifalovchilar: Nilufar Kabulova

Sohiba Normamatova

Gulnoza Unarboeva

Metodik qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy-metodik kengashining 2018 yil "28" avgustdagi №1/3-sonli majlis qaydnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Kirish	4
1-Mavzu: "Kirish. O'rta Osiyoda shahar va shaharsozlik"	5-25
2-Mavzu: O'rta Osiyo shaharlari tarixiy qiyofasi va shaharlarning tarkibiy tuzilishi	25-60
3-Mavzu: O'rta Osiyo shaharlarining fortifikatsiyasida o'ziga xosliklar	60-72
4-Mavzu: V-XV asrlarda Buxoro, Urganch, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Shosh, Iloq	73-104
5-Mavzu: O'zbek xonliklari davrida shaharlar va shaharsozlik	104-118
6-Mavzu: Buxoro amirligi shaharlari. Buxoro shaxrining siyosiy markaz darajasiga ko'tarilishi	118-157
7-Mavzu: Xiva xonligi shaharlari. Urganch va Xiva shaharlarining siyosiy markazga darajasiga ko'tarilishi	158-192
8-Mavzu: Qo'qon xonligi shaharlari. Qo'qon shaxrining siyosiy markazga darajasiga ko'tarilishi	192-221
9-Mavzu: Toshkent shaxri tarixiy qiyofasi, siyosiy va iqtisodiy markazga aylanishi	221-236
10-Mavzu: XVI-XIX asrlarda iqtisodiy va siyosiy markazlar sifatida yangi shaharlarning shakllanishi	236-247
11-Mavzu: O'rta Osiyo shaharlaridagi boshqaruv tizimi: an'anaviylik va o'ziga xoslik jihatlari	248-268
12-Mavzu: O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va uning ixtisoslashuvi	268-298
13-Mavzu: Hunarmandchilik va savdoning qishloq xo'jaligi bilan qo'shib olib borilishi	299-306
14-Mavzu: Ichki va tashqi savdoning shaharlar taraqqiyotidagi roli. Bozorlar va ularning shahar hayotidagi o'rni	306-327
15-Mavzu: Shaharliklar ijtimoiy tarkibining asosiy xususiyatlari. Shahar madaniy hayoti va unda aholining ishtiroki	327-346
Ilovalar	347-366
Xulosa	367
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar	368-371

KIRISH

O'rta Osiyo shaharlari o'zining ko'p ming yillik tarixiga ega bo'lib, eng qadimgi davrlardan oq jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy hayotini o'zida mujassam etgan. Eng qadimgi davrlardan oq insoniyat sivilizatsiyasining markazlari vazifasini bajara boshlagan. Kishilik tarixidagi ilk sivilizatsiya o'choqlari Nil, Dajla va Frot, Hind va Xuanxe daryolari bo'ylarida vujudga kelganligi ko'pgina tarix kitoblarida qayd etilgan. O'zbekistonning turli hududlari olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning natijalari guvohlik berishicha, mamlakatimiz hududida dastlabki shaharlarning "iz"lari salkam uch ming yillarga borib taqaladi. Bu albatta o'z o'rnida mamlakatimiz hududlarida davlatchilikka o'tish jarayonlarining, shuningdek siyosiy va iqtisodiy markazlarning shakllanib borishi jarayonlarining ko'p ming yillik tarixga ega ekanligidan dalolat beradi, ya'ni, davlatlarning paydo bo'lishi va shaharlarning shakllanishi o'zaro chambarchas bog'liqlikda sodir bo'lgan. Shaharlar va ularning shakllanishi, ularning taraqqiy etib borish jarayonlari, ayniqsa ularning iqtisodiy va siyosiy markazlar sifatida alohida hududlarning iqtisodiy madaniy taraqqiyoti darajasini aks ettirishi birmuncha murakkab voqelik bo'lib, ularning tarixiy tadqiqotlari va ta'limiy masalalari anchagina dolzarb masalalardan biridir. Bu borada mamlakatimiz va horij tarixchilari tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar va arxeologik izlanishlar amalga oshirilib, shaxarlar va ularning tarixiy taraqqiyoti masalalari ilmiy jihatdan keng tarzda yoritib berilishiga erishilgan, ayniqsa, o'rta asrlar davrida shaharlarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotdagi ahamiyati masalalarini o'rganishga keng o'rin berilgan. Qo'llanmada V-XV asrlarda Buxoro, Urganch, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Shosh, Iloq kabi shaharlar va ularning mudofaa tizimlaridagi o'ziga xosliklari haqida, shuningdek, O'zbek xonliklari davrida shaxarlar va shaxarsozlik ishlari, Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarida shaharlarning iqtisodiy va siyosiy o'mi, Buxoro, Urganch, Xiva, Qo'qon va boshqa bir qator shaharlarning siyosiy markazga darajasiga ko'tarilishi, Toshkent shaxri tarixiy qiyofasi, siyosiy va iqtisodiy markazga aylanishi kabi masalalar haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. O'rta Osiyoda XVI-XIX asrlarda iqtisodiy va siyosiy markazlar sifatida yangi shaxarlarning shakllanishi, O'rta Osiyo shaxarlaridagi boshqaruv tizimidagi an'anaviylik va o'ziga xoslik jihatlar, shaharlarda hunarmandchilik va uning ixtisoslashuvi, ichki va tashqi savdoning shaharlar taraqqiyotidagi o'mi, bozorlar va ularning shahar hayotidagi o'mi haqida ham bir qator ma'lumotlar berilishi ko'zda tutilgan.

Mazkur qo'llanmani tayyorlashda respublikamiz va horijiy mutaxassislar tomonidan so'nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, nashr etilgan ilmiy asarlar va e'lon qilingan ilmiy maqolalardan keng foydalanilgan. Qo'llanma tarix fakultetlari talabalari va barcha qiziquvchilarga mo'ljallangan.

1-Mavzu: "Kirish. O'rta Osiyoda shahar va shaharsozlik".

Reja:

1. O'rta osiyo shaharlari tarixi faniga kirish.
2. Shaharlar tarixi» fani o'qitilishining dolzarbligi va ahamiyati.
3. O'rta Osiyo shaharlar tarixiga oid yozma manbalar.
4. Ilk shaharlar paydo bo'lishi asoslari va shart-sharoitlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017.
2. Эшов Б.Кадимгми Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.
3. Массон В.М. От редактора // Древние города. Материалы к Всесоюзной конференции Культура Средней Азии и Казахстана в эпоху раннего средневековья. Пенджикент, октябрь 1977 г. Л., 1977. - С. 3.
- 4.Беленицкий А.М., Бентович М.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973; Средняя Азия в раннем редневековье. Археология. Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. М., 1999.
- 5.Бобоёров Г.Б. Ғарбий Турк хоқонлигини давлат тузуми: Тарих фанлари докт. ... дисс.-я. Т., 2012.
- 6.Шониёзов К.Ш. Ўзбек халкининг шаклланиш жараёни. Т., 2001. - 141-150-б
- 7.Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017.

Markaziy Osiyo mintaqasi bir qancha landshaft zonalardan tashkil topgan bo'lib, unda bir vaqtning o'zida u yoki bu darajada ovchilik, chorvachilik va dehqonchilik kabi xo'jalik shakllarini uchratish mumkin. Ayniqsa, dexqon va chorvadorlarning o'zaro yaqin aloqalari mintaqa tarixiy taraqqiyotining muhim jihatlaridan biridir. Chunki bu aloqalar ko'pincha bitta ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma doirasida yuz bergan, to'g'rirog'i, har ikkisi ham biror-bir siyosiy yoki etnosiyosiy uyushmaning asosini tashkil etgan. Shu tariqa dexqon va chorvadorlar o'rtasidagi o'zaro muloqot mintaqa madaniyatining shakllanishi va murakkab etnogenetik jarayonlarida muhim rol o'ynagan. Bu kabi murakkab jarayonlarga milodiy I ming yillikning birinchi yarmi oxirlarida yuz bergan xalqlarning Buyuk ko'chishi ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Mintaqadagi yirik imperiyalar - Kushon, Parfiya va Qang' davlatlari qulab, o'miga vohalarda o'troq va yarim o'troq xalqlarning birlashuvidan tashkil topgan kichik mustaqil hukmdorliklar shakllanadi. Bunday kichik hukmdorliklarni mintaqaga IV-V yuz yilliklar davomida birin-ketin kirib kelgan xionitlar, kidaritlar va eftalitlar osonlik bilan o'zlariga bo'ysundirishadi. Mintaqa tarixining VI - VIII yuz yilliklari o'ziga xos o'rin tutadi.

Bu davrda Yevrosiyodagi birinchi imperiya deb topilgan Buyuk Turk xoqonligi qisqa fursatda sharqda Koreys bo'g'ozi, g'arbda Shimoliy Qora dengiz bo'ylari, shimolda Janubiy Sibir, janubda esa Shimoliy Xindistongacha bo'lgan yerlarda yirik saltanat quradi. Turk xoqonligi qo'shinlari Amudaryo - Sirdaryo xududiga kirib kelgan vaqtda bu yerda *An* (Buxoro), *Sao* (Kabudon), *Shi* (Choch), *Mi* (Maymurg), *Xe* (Kushoniya), *Xo-syun* (Xorazm), *Mao-di* (Bitik yoki Vardona?), *Shi-shi* (Kesh),

Kup (Samarkand) kabi efitlitlarga qaram katta-kichik voqa hukmdorliklari bor edi¹. Turk xoqonligi ushbu voqa hukmdorliklarini efitlitlar qo'ldan tortib olib, ular ustidan o'z hokimiyatini o'matadi.

Shu o'rinda "voqa hukmdorligi" terminiga ham to'xtalib o'tish kerak. Chunki ko'pgina ishlarda ma'muriy-xududiy birliklarni bildirish uchun **"davlat"**, **"davlatcha"**, **"o'lka"**, **"podsholik"**, **"xokimlik"**, **"mulk"** kabi siyosiy-geografik terminlar keng o'rin olgan. Mintaqa voqa hukmdorliklarining ko'pchiligi biror yirik saltanat ichiga kirgan paytda ham o'z nisbiy mustaqilligini saqlashga intilar, o'z sulolasi boshqaruvi dahlisizligini ta'minlash uchun yangi xo'jayinlari bilan kelishish yo'lini tutib kelishar edi. Ularning nisbiy bo'lsa-da, yarim mustaqilligi tanga pullar zarb qilishida ham ko'rinadi.

Ayrim tadqiqotchilar mana shu omillarni ko'zda tutib, **"kichik davlat"** yoki **"davlatcha"** tarzidagi terminlardan foydalanadilar. Aslida bu terminlar unchalik o'zini oqlamaydi. Chunki imperial xarakterdagi Turk xoqonligi qo'li ostidagi bunday siyosiy uyushmalar xoqonlikning vassali bo'lishgan. **"O'lka"** termini siyosiy tushunchadan ko'ra ko'proq geografik mazmunga yaqin kelsa, **"sulola"** termini ostida muayyan urug'dan, avloddan tarqalgan, vorislik, valiaxdlik xuquqiga ega bo'lgan, asosan birin-ketin taxtga o'tirgan podshohlar, amirlar va xonlar nasli tushuniladi².

Shunga o'xshash xolat ma'muriy-xududiy birliklarni ifodalovchi boshqa siyosiy-geografik terminlarning qo'llanilishida xam ko'zga tashlanadi. Jumladan, bugungi kunda muayyan viloyat hisoblanuvchi, ammo o'tmishda, to'g'rirog'i, VI - VIII yuz yilliklarda muayyan davlat uyushmasi maqomida bo'lgan **Choch**, **Farg'ona**, **So'g'd**, **Ustrushona** kabi siyosiy birliklar uchun **"viloyat"** so'zini ishlatish unchalik o'zini oqlamaydi. Chunki **"viloyat"** tushunchasi arab tilidan o'zlashgan bo'lib, arablar bosqiniga bo'lgan yuqoridagiga o'xshash voqa hukmdorliklariga bu termini qo'llab bo'lmaydi.

Shuningdek, **"mulk"** va **"hokimlik"** tushunchalari ham anchayin tor tushunchalardir. Chunki o'rganilayotgan davrda **"mulkdor"** bo'lgan qishloq hokimi xam kimgadir qaram bo'lgan. Yuqorida sanab o'tilgan hukmdorliklarning har birida unga yaqin yoki undan ham ko'p o'zining qaram qishloqlari bo'lgan. Qishlokdardagi yirik yer egalari esa **"hokim"** bo'lib, qishloq o'ziga xos **"mulk"** xisoblangan.

Rus tilidagi ilmiy adabiyotlarda **"vladeniye"** va **"vladetel"** terminlari keng qo'llaniladi; bu termin ostida hokimdan yuqori, ammo oliy hukmdor (bu o'rinda **imperator** yoki **xoqon** ko'zda tutilyapti)dan pastroq bo'lgan shaxs - **"xukmdor"** va uning boshqaruvdagi muayyan siyosiy xudud - **"hukmdorlik"** tushuniladi. Bizningcha, Turk xoqonligidagi yarim mustaqil vassal siyosiy uyushmalarni **"hukmdorlik"** yoki **"voqa hukmdorligi"** deb atash kerak³. Chunki ularda

¹ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. М.-Л, 1950. Т. 2. - С. 310; Chavannez E. Documents sur les Tou-kiue (Turks). Occidentaux // Сборник трудов Орхонский экспедиции. СПб., 1903. - Вып. 4. - Р. 134; Смирнова О.И. Очерки из истории Согды. М.. 1970. - С. 37.

² ЎзМЭ. 8-жидд. Т. 2004. - 123-6.

³ Хатамова М. Ўзбекистон шахарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017.

davlagchilikka xos bir qator xususiyatlar - muayyan xudud, hukmdor, qo'shin, tanga zarbi, ichki va tashqi aloqalar kabilarni ko'rish mumkin.

Turk xoqonligi qo'li ostidagi vassal voha hukmdorlarining soni 20 ga yaqin bo'lgan. Xoqonlik bu voha hukmdorliklarining ichki ishlariga aralashmagan, ulardan faqat o'lpon undirib olish bilan cheklangan, bu davrdagi turkiy unvonlar **“davv modasi”** edi hamda xoqonlik o'z tanga-pul zarbiga ega emas edi mazmunidagi fanda o'rnatilgan qolgan xulosalarning o'rinsiz ekanligini keyingi bajarilgan ishlar ko'rsatmoqda. Xatto, Choch, Farg'ona, Tuxoriston, Kobuliston singari ayrim hukmdorliklar boshqaruviga to'g'ridan-to'g'ri Ashina xonadoni vakillari qo'yilgan va u yerlarda turkiy sulolalar tashkil topgan¹.

Ushbu fanni o'rganishda mintaqadagi 20 ga yaqin voha hukmdorliklari ichida Choch vohasini ham o'rganishga harakat qilamiz. **Birinchidan**, mintaqada turkiy qatlam yuqori bo'lgan xududlar sirasiga kirgan Choch turkiy etnosning urbanizatsiya jarayonlari ilk bor jadal kechgan makon, qoliversa, o'zbek xalqiga xos antropologik tip - “O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi” ilk bor shakllangan xudud deb bilinadi². **Ikkinchidan**, Choch o'zining tabiiy geografik joylashuviga ko'ra dasht bilan tutash xududlardan biri bo'lib, Markaziy Osiyoning shimolidagi chorvador xalqlardan mintaqaning ichki xududlarini nazoratda tutish va himoyalash uchun qulay bo'lgan o'ziga xos bufer zona hisoblangan. Buning ustiga, dextqonchilik uchun ham, chorvachilik uchun ham birdek qulay bo'lgan Sirdaryo havzalari xuddi Amudaryo singari dehqon va chorvador xalqlarning iqdiosodiy va etnomadaniy aloqalaridagi tabiiy retranslyator vazifasini bajargan.

Shuning uchun, bu yerda turk xoqonlarining qarorgohlaridan biri joylashgan edi. **Uchinchidan**, Choch - Turk xoqonligi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri boshqarilgan xududlar sirasiga kirib, u yerda VI - VIII yuz yilliklar davomida Ashina xonadonidan bo'lmish **Teginlar** va ularni nazorat qiluvchi **Tudunlar** sulolalari hukm surgan. **To'rtinchidan**, Choch metallurgiya xom-ashyosiga boy xudud sanalib, vohada eskidan asl metallar va rangli kimmatbaho toshlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan edi. Masalan, vohadagi Kuchbuloqdan oltin, Lashkarak va Shavgardan kumush, Ungurlikkondan esa feruza toshi qazib olingan. Bu esa turk xoqonlarining e'tiboridan chetda qolmagan ko'rinadi. Bizningcha, Choch turk xoqonlarining tanga zarb ettiradigan xududlaridan biriga aylanishi ostida ham xuddi mana shu omil yotgan³.

Sovet davri adabiyotlarida VI - VIII yuz yilliklarga kelib shahar madaniyatining umumiy tushkunlikka uchragani to'g'risida shakllanib qolgan konsepsiya bu davrdagi shaharlarning o'rganilishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Qizig'i shundaki, aynan mana shu davrga kelib, mintaqada yangi shahar va manzilgoxlarning shakllanishi va rivojlanishi kuzatiladi; bu hol, ayniqsa, arxeologik materiallarda yorqin ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik olimlar bu jarayonni turli sabablar bilan bog'lasalar-da, ko'pincha VI - VIII yuz yilliklardagi davlatchilik va urbanizatsiya jarayonlari bilan bog'lik etnosiyosiy holat ko'zda tutilmaydi.

Kishilik tarixidagi ilk sivilizatsiya uchoqlari Nil, Hind, Tigr, Yevfrot va Xuanxe vodiylarida vujudga kelgan. Aynan shu xududlarda birinchi davlatlarning

¹ Бобоёров Г.Б. Гарбий Турк хоқонлигини давлат тuzumi: Тарих фанлари докт. ... дисс.-я. Т., 2012.

² Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Т., 2001. - 141-150-б.

³ Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017.

shakllanishi bilan ilk shaharlar ham paydo bo'lgan. Shu boisdan, ko'pchilik olimlar sivilizatsiyaning vujudga kelishi va rivojlanishiga shaxar va davlatchilikni sabab qilib keltirsalar, boshqa tadqiqotchilar ushbu jarayonni sivilizatsiyaning evolyusion asosiy bosqichlaridan biri deb qaraydilar.

Chundan-da, davlatning paydo bo'lishi va shaharlarning shakllanishi jarayonlari o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq, u o'zida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini aks ettiradi. Shahar madaniyati taraqqiyot jarayonining o'zi murakkab voqelik bo'lib, u bir tomondan umumiy ijtimoiy va iqtisodiy qonuniyatlarni, boshqa tomondan esa siyosiy tarixning aniq bir voqeligini kursatib beradi¹.

Shunga qaramay, tadqiqotchilar shaharlar tarixini o'rganishda ko'pincha alohida bir shaxar (*mas.*, Samarkand, Buxoro, Naxshab kabi), biror geografik yoki tarixiy-madaniy xudud (Yettisuv, Janubiy Qo'zog'iston, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, Janubiy So'g'd va b.), yohud Buyuk ipak yo'li bo'yidagi shaharlar tarzida o'rganib keladilar. Aslida shaharlar tarixini butun davlatni qamrab olgan holda va siyosiy jarayonlar bilan uzviylikda o'rganish kerak. Chochning shahar madaniyatiga doir yozma manbalardagi ma'lumotlar unchalik ko'p bo'lmay, borlari ham qisqa va uzoq-yuluq qaydlardan iborat. Bu borada Xitoy yilnomalari "**Suy-shu**", "**Vey-shu**" va "**Tan-shu**" va xitoylik rohib Chjan Syuan-Szan xotiralari, so'g'diy hujjatlar alohida ahamiyatga ega. Qolaversa, garchi birmuncha keyingi davrlarga tegishli bo'lsa-da, arab geograflaridan Istaxriy, Muqaddasiy, Ibn Xavqal va muallifi ma'lum bo'lmagan forsha "Xudud ul-olam" asarlarida voha shaharlarining tuzilishi va tavsifi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Biroq ularning ko'pchiligi bir-biriga qarama-qarshi yoki oldingi mualliflarning qaydlarini takrorlaydi. Shunga qaramay, arab va fors tillaridagi manbalar O'rta Osiyo shaharlari tarixini u yoki bu darajada yoritishda qo'l keladi.

Markaziy Osiyoning VI - VIII yuz yilliklar davri shahar madaniyatiga doir mintaqadagi barcha tarixiy-madaniy hududlarni qamrab oluvchi ishlar ham bajarilgan². Qo'lga kiritilgan materiallarga tayanib, O'rta Osiyo shaharlarining topografik jihatdan o'ziga xosligi, tuzilishi va moddiy madaniyati to'g'risida ko'plab ishlar qildilar.

Ayniqsa, vohaning o'tmishini o'rganishda M.YE.Massonning olib borgan izlanishlari ahamiyatli. Arxeolog Geologiya qo'mitasi va Tojik-Pomir ekspeditsiyasida bo'lgan paytidayoq Toshkent vohasidan oltin va kumush qazib olingani to'g'risidagi arab geograflarining ma'lumotlariga o'z e'tiborini qaratadi. Shu tariqa bir qator geolog va arxeologlar yordamida M.YE.Masson kumush konini izlash va Chochning tanga zarb qilingan shahri o'rmini aniqlash uchun Ohangaron vodiysini sinchiklab urganadi.

Keyinchalik M.YE.Massonning izidan borgan shogirdi Y.F.Buryakov Choch vohasidagi shahar va manzilgothlar o'rmini aniqlashda davom etadi. 1958 yildan

¹ Массон В.М. От редактора // Древние города. Материалы к Всесоюзной конференции «Культура Средней Азии и Казахстана в эпоху раннего средневековья». Пенджикент, октябрь 1977 г. Л., 1977. - С. 3.

² Белицкий А.М., Бентович М.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973; Средняя Азия в раннем средневековье. Археология. Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. М., 1999.

boshlab arxeolog olim vohadagi eski shaharlar va konlarini izchillik bilan o'rganib keldi.

Umuman, Markaziy Osiyoning VI - VIII yuz yilliklaridagi etnosiyosiy va madaniy jarayonlariga bag'ishlangan bir qator mahalliy va chet el olimlarining ishlarida Choch tarixi ham chetda qolmagan. Ayniqsa, 2007 yili ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Xalqaro islom tashkiloti (YUNESKO) tomonidan "Toshkent islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi, 2009 yili YUNESKO Bosh Assambleyasining qarori bilan Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyining keng nishonlanishi bilan Choch tarixiga doir ishlar yanada ko'paydi.

Keyingi yillarda Choch tarixiga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bunga bir tomondan Choch hududida mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahri joylashganligi, boshqa tomondan esa uzoq vaqt boshqa xududlarga qaraganda kam o'rganilgan Choch bugunga kelib yangi yozma manbalar va arxeologik topilmalar tufayli qayta kashf etilayotganligi sabab bo'lsa kerak.

Yurtimizda ilk shaharsozlik asoslarining paydo bo'lishi, shakllanish bosqichlari asosan yozuvsiz zamonlarga to'g'ri keladi. Bu o'rinda arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati nihoyatda ulkan bo'lib, ilk shaharlar tarixini tadqiq etishning chigalligi va ko'plab bahs — munozaralarga sabab bo'lishi ham ushbu holat bilan izohlanadi. Qadimgi jamiyatlardagi urbanizatsiya jarayonini o'rganish hozirgi kunda o'ta muhimdir. Chunki bu jarayon birinchidan, umumiy ijtimoiy qonuniyatlarni o'zida aks ettirsa, ikkinchidan, bu voqeaning o'zi shu qonuniyatlarni kuchaytiruvchi va mustahkamlovchi omil hisoblanadi.

Shaharlashish jarayonini uch bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqichda yirik markazlarda madaniy va iqtisodiy omillar to'plansa, ikkinchi bosqichda qishloq aholisining shahar madaniyatiga qo'shilish jarayoni kuzatiladi. Uchinchi bosqichda esa vohalardagi yirik aholi punktlari — shaharlar ma'lum bir hududlardagi aholining, jamiyatning hayotidagi asosiy, ajralmas tarkibiy bo'g'inga aylanadi. Ushbu jihatlarni har tomonlama o'rganish ham muhim hisoblanadi.

Qadimgi dunyo tarixi bilan qiyosiy taqqoslaydigan bo'lsak, O'rta Osiyo ilk shaharsozlik masalalari Mesopotamiya, Misr, Hindiston yoki Eronning qadimgi shaharlariga nisbatan kam o'rganilgan¹. O'lkamiz hududlarida bo'lib o'tgan ma'lum davrdagi urbanistik jarayonlar zamida turli yillarda tadqiqot ishlari olib borgan olimlarning ilmiy ishlarini inkor etib bo'lmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu yo'nalish bo'yicha ish olib borgan arxeolog—tarixchi o'z ishlarida masalaning muhim jihatlari e'tibor qaratadilar. Aholining o'troqlashuvi natijasida yirik qishloqlarning paydo bo'lishi urbanizatsiya jarayonining yanada jadallik bilan taraqqiy etishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham shaharlar — rivojlanish jarayoniga faollik bilan ta'sir etuvchi omil va sivilizatsiya bilan bog'liq bo'lgan yangi tarixiy — ijtimoiy munosabatlarning asosiy ifodalovchisidir. Ushbu tarixiy munosabatlarning paydo bo'lishi o'zining betakror ahamiyatiga ko'ra, jamiyat rivojlanishining umummadaniy an'analarida ham kuzatiladi.

¹ Эшов Б.Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.

O'quvchilar shunga e'tibor berishlari lozimki, dastlabki shaharlar o'z davri tarixi uchun jiddiy tarixiy taraqqiyot bosqichi bo'lib, ular boshqaruv tizimida siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlarga aylanadi.

Dastlabki sivilizatsiyalar, shaharsozlik madaniyati va ilk davlat uyushmalari paydo bo'lishi jarayonlari o'rtasida dialektik bog'liqlik mavjud. Ushbu bog'liqlikni o'rganish qadimgi davr tarixini o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ilk shaharlarning paydo bo'lishida ko'plab ijtimoiy — madaniy xususiyatdagi omillar sabab bo'lishiga qaramay turli sharoitlarda u yoki bu guruh sabablar nisbatan ustunlik qiladi. Undan tashqari ilk shahar sivilizatsiyasining muhim ko'rinishlaridan biri turli shakldagi aholi punktlarining paydo bo'lishi va ularning o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Aynan turli shart — sharoitlar, turli shakldagi aholi punktlari, ko'chmanchi aholi yashash hududlari, o'troq aholi bilan ular o'rtasidagi chegaraviy hududlar — bularning barchasi aholi hududiy rayonlashuvining (ma'lum hududlarda ma'lum turmush tarzi yuritgan aholi joylashuvi) asosi hisoblanadi. Shuningdek, aholining ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan (dehqonchilik, hunarmandchilik va boshqa.) faoliyati ham rayonlashuvni belgilab beradi.

Tadqiqotlar natijalarini ilmiy — siyosiy tahlil qilish natijasida O'rta Osiyodagi dastlabki shahar markazlari va uchoqlar rayonlashuvini quyidagi davrlarga ajaratish mumkin:

I davr — mil. avv. III — II ming yillik birinchi yarmi — **Janubiy Turkmaniston (Oltintepa, Namozgoz), Yuqori Zarafshon (Sarazm), Janubiy O'zbekiston (Sopollitepa);**

II davr — mil. avv. II ming yillikning o'rtalari **Janubiy Turkmaniston (Gonur), Janubiy O'zbekiston (Jarqo'ton);**

III davr — mil. avv. II ming yillik oxiri — I ming yillikni o'rtalari — **Surxondaryo, Kashqadaryo, Xorazm, Farg'ona va Toshkent vohasi**¹.

So'nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga qaraganda, mil. avv. III ming yillikning o'rtalariga kelib O'rta Osiyoning Qizilqum, Qoraqum cho'llarining ichkarilari, Pomir hamda Oloy tog'larining etaklari aholi tomonidan o'zlashtirilib boriladi. Bu davrda O'rta Osiyoning shimoli hamda shimoli — sharqida yashagan aholi asosan chorvachilik xo'jaligi yuritganlar. Bu hududlardan topib tadqiq etilgan Andronovo, Tozabog'yob, Zamonbobo, Qayroqqum kabi yodgorliklar bronza davri o'ziga xos jarayonlaridan dalolat beradi. O'rta Osiyoning janubiy qismida yashagan aholi o'troq turmush tarziga o'tib asosan dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Bu hududlarda aholining Namozgoz, Sopolli, Dashli, Oltintepa, Gonur kabi o'troq dehqonchilik madaniyatlari shakllanib taraqqiy etadi. Undan tashqari aynan janubiy hududlarda qadimda Baqtriya, Sug'diyona, Girkaniya, Parfiya, Ariya va Marg'iyona kabi tarixiy — madaniy viloyatlari shakllanadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, o'troq dehqonchilik xo'jaliklari yuritgan aholi bronza davridayoq voha – voha bo'lib yashaganlar. Aholining bunday joylashuv tartibi tabiiy

¹ Эшов Б. Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.

– sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lgan (misol uchun, suv resurslari birmuncha chegaralangan) O‘rta va Yaqin Sharq qadimgi hududlari uchun xosdir².

So‘nggi bronza va ilk temir asri O‘rta Osiyo tarixida keskin ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Bu davr jamiyat hayotida ibtidoiy munosabatlar inqirozga uchrab yangi ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar rivojlana boshlaydi. Aynan mana shu davrdan boshlab jamiyatdagi ijtimoiy – iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan ilk shaharlarning shakllanish jarayoni nihoyasiga yetib rivojlanish bosqichiga o‘tadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar e‘tirof etgan dastlabki sivilizatsiyalar, ilk shaharsozlik madaniyati, davlatlar paydo bo‘lishi jarayonlari o‘rtasida dialektik bog‘liqlikni dastlabki shahar markazlari o‘choqlarining rayonlashuvi jarayonlarini tahlil etganimizda ham kuzatishimiz mumkin.

O‘rta Osiyoning eng qadimgi o‘troq dehqonchilik madaniyati mintaqaning janubi - G‘arbida, Kopetdog‘ning shimoliy tog‘ oldi tekisligida paydo bo‘ladi. Bu jarayonga ikkita muhim omil – kichik vohalarda dehqonchilik rivojlanishi uchun qulay sharoit va dunyo tarixida dastlabki dehqonchilik o‘choqlari bo‘lgan Old Osiyo va Eron bilan qadimiy uzviy aloqalar asos bo‘ldi. O‘tgan asrning 60 - yillarida olib borilgan tadqiqotlar Kopetdog‘ tog‘ oldi tekisliklarida qadimgi Sharq ko‘rinishidagi sivilizatsiya rivojlanganligi haqida masala ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi².

O‘rta Osiyoning janubida keng miqyosda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, Mypg‘ob vohasida ochilgan mil. avv. II ming yillik madaniyati va Amudaryoning o‘rta oqimi madaniyatlari ushbu markazlarning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Bu tadqiqotlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, O‘rta Osiyoning janubiy hududlari qadimgi Sharq ko‘rinishidagi yuqori darajali madaniyat sohiblari bo‘lgan o‘troq jamoalar tomonidan ancha ilgari o‘zlashtirilgan.

Aniqlanishicha, dastlabki dehqonlar Kopetdog‘ tog‘ oldi tekisligi hududlari bilan chegaralanib qolmasdan eng yuqori rivojlanish darajasi jarayonida Murg‘obning qadimgi havzasi hududlarini o‘zlashtirib, Zarafshonning yuqori oqimi hududlarigacha boradilar. Bu hududlardan Janubiy Turkmaniston so‘nggi eneolit davri madaniyatiga xos Sarazm manzilgohi o‘rganilgan. Ushbu ko‘p sonli va turli – tuman ma‘lumotlar O‘rta Osiyo, hech bo‘lmaganda uning janubiy viloyatlari boshqa mintaqalarda bo‘lgani kabi ilk dehqonchilikdan dastlabki sivilizatsiyagacha rivojlanish qonuniy jarayoni bo‘lib o‘tgan mustaqil qadimgi madaniyat o‘chog‘i degan fikrlarni yana bir marta isbotlaydi.

Mil. avv. IV ming yillikning oxiri —III ming yillikning boshlariga kelib qadimgi Baqtriya hududlarida ovchilik, baliqchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan Xisor madaniyati sohiblari kichik va yirik daryolar vohalarini, Boysuntog‘ va Ko‘hitang tog‘larigacha bo‘lgan tog‘ oldi hududlarini o‘zlashtiradilar. Ko‘pchilik tadqiqotchilar bu davr uchun to‘rtta - Sopolli, Beshkent, Vaxsh va turli hududlarda mavjud bo‘lgan bronza davri Dasht madaniyatlarini ajratadilar. Mahalliy chorvadorlar madaniyati bo‘lgan Beshkent va Vaxsh madaniyatlari quyi Kofimihon va Vaxsh vohalaridan topilgan qabristonlar orqali ifodalanadi. O‘troq dehqonchilik madaniyati yoyilgan hududlar asosan O‘zbekistonning janubidagi Ko‘hitang va

² Эшов Б.Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.

² Эшов Б.Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.

Boysuntog' tog' oldi hududlari va qisman Tojikistonning janubiy hududlarini qamrab oladi¹.

Bu hududlarda asoslari yanada qadimgiroq davrlarga borib taqaladigan dastlabki o'troq dehqonchilik manzilgohlari mil.avv. II ming yillikning boshlarida unchalik katta bo'lmagan tog' soylari bo'ylarida paydo bo'lib guruhlasha boshlaydi. E.V. Rtveladzening fikricha, aynan mana shu davrdan boshlab ilk temir asrining boshlarigacha ma'lum chegaralangan hududlarda joylashgan unchalik katta bo'lmagan vohalar tizimi Shimoliy Baqtriya aholi joylashuvining asosiy hududlariga aylanadi.

A. Asqarov shunga o'xshash bronza davriga oid uchta – Sherobod, Bandixon va Sho'rchi vohalarini ajratsa, A. Sagdullayev ularni to'rtta — Ulonbuloqsoy (Muzrabot), Sherobod, Xalqajar (Mirshodi) va Xisor vohalari mavjud bo'lganligini ta'kidlaydi. E. Rtveladze esa, bu tadqiqotchilarning fikrlariga qisman qo'shilsada, vohalarni quyidagicha guruhlaydi:

Ulonbuloqsoy (Muzrabod), Sherobod, Xalqajar va Hisor. Uning fikricha markazlarning rayonlashuvi— voha dastavval, Ko'hitangdan boshlanib qadimda Amudaryoga quyiluvchi uncha katta bo'lmagan Ulonbuloqsoy paydo bo'ladi. Tadqiqotlar natijalarini solishtirib shunday xulosaga kelish mumkinki, bronza davri shimoliy Baqtriya dastlab Ulonbuloqsoy va Sherobod, keyinroq esa- Xalqajar va Xisor vohalari o'zlashtiriladi².

Turli vohalarning o'zlashtirib borilishi aholining o'troqlashuvi va o'troq manzilgohlarning yanada taraqqiy etishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ilk bronza davrida mahalliy jamoalarning ishlab chiqarish salohiyati unchalik kuchli emas edi. Undan tashqari, aholining soni ham ko'p mehnat sarflanadigan yirik daryolar vohalarini o'zlashtirish darajasida ko'p emas edi. Shuning uchun xam aholi dastlab o'zlashtirilishi oson bo'lgan tog' oldi hududlari va kichik daryo vohalarini tanlaganlar.

O'troq aholi tomonidan hosildor vohalarning jadallik bilan o'zlashtirilishi natijasida so'nggi bronza davriga kelib dehqonchilik vohalari yanada kengayib boradi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan xulosa chiqargan SH.B. Shaydullayevning fikricha, so'nggi bronza davriga kelib Shimoliy Baqtriyaning dehqonchilik vohalariga bo'linishi quyidagicha:

1. Sherobod vohasi (Ulonbuloqsoy va Sherobod dehqonchilik tumanlarini o'z ichiga oladi, vohaning markazi Jondavlattepa.

2. Boysun vohasi (Bandixon, Mirshodi, Sangardak —To'palang dehqonchilik rayonlarini o'z ichiga oladi, vohaning markazi Qiziltepa ko'hna shahri.

3. Surxon vohasi (O'rta Surxon va Termiz atroflari dehqonchilik rayonlarini o'z ichiga oladi, vohaning markazi Hayitobodtepa ko'hna shahri.

4. Kofirmihon vohasi (o'ng qirg'oq Kofirmihon, o'rta Kofirmihon, Vaxsh dehqonchilik rayonlarini o'z ichiga oladi, vohaning markazi Qalai Mir ko'hna shahri.

5. Panj vohasi (vohaning markazi Boytudasht ko'hna shahri). O'rta Osiyoning shimoli — sharqiy hududlari, xususan, Farg'ona vodiysida bronza davri boshqa

¹ Эшов Б.Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.

² Эшов Б.Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.

hududlarga nisbatan tarixiy taraqqiyot nuqtai nazaridan o'ziga xos bo'lib unda arxaiik elementlar uzoq davr mobaynida saqlanib qolgan. Vodiylidagi bronza davriga oid bo'lib Chust madaniyati nomi bilan ma'lum va mashhur bo'lgan dehqonchilik madaniyatini tadqiqotchilar turli yillarda goh bronza, goh ilk temir davri bilan sanalab keldilar¹.

Shohimardonsoy — Marg'ilonsoy hamda Kosonsoy havzalarida olib borilgan keyingi yillardagi arxeologik — paleografik izlanishlar Farg'ona vodiysining sug'orma dehqonchiligi tarixiga birmuncha aniqliklar kiritish imkoniyatini berdi. Misol uchun, tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Kosonsoyning quyi oqimida Axsikent vohasining asosiy qismi mil. avv. X – IX asrlarda o'zlashtirilgan bo'lib, Eski Axxi yodgorligi hududida dehqonchilik manzilgohi bo'lganligi aniqlandi.

Tadqiqotchilarning fikricha, Farg'ona vodiysidagi aynan shunga o'xshash ko'plab manzilgohlarning (ma'lum hududlardagi) markazi Dalvarzin bo'lgan bo'lishi kerak. Dalvarzin ilk shahar sifatida Farg'ona vodiysidagi dastlabki davlatning poytaxti bo'lgan bo'lishi ham mumkin².

Bugunga qadar olib borilgan arxeologik ma'lumotlarni solishtirib va tahlil qilib xulosa chiqaradigan bo'lsak, Farg'ona vodiysida qadimgi dehqonchilik madaniyati mil. avv. II ming yillikning so'nggi choragidan boshlanadi. Asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan Chust madaniyatiga oid manzilgohlardan dehqonchilik bilan bog'liq ko'plab ashyolar topilgan. Bu madaniyat aholisi bronza davrida asosan dehqonchilik uchun qulay yerlarni o'zlashtiradilar. Farg'ona vodiysida bu davrdagi aholining suv bo'yidagi unumdor hududlarni o'zlashtirganliklariga qarab quyidagi voha – rayonlarga ajratiladi:

1. G'ovasoy vohasi va Ko'ksaraksoy bo'ylari.
2. Kosonsoy vohasi.
3. Qoradaryoning chap qirg'og'i.
4. Xo'jaobod va uning yaqin atrofidagi hudud.
5. Aravonsoy vohasi.
6. Oqburasoy vohasi.
7. Toldiqsoy va uning irmoqlari bo'ylari.
8. Qoradaryo va Yassi oralig'idagi voha.
9. Aravonsoyning yuqori oqimi va Qirg'iz — Otasoy bo'ylari¹.

Mil. avv. I ming yillikning boshlariga kelib O'rta Osiyo qadimgi xo'jaliklarida sezilarli o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Temiming hayotga jadallik bilan kirib kelishi va keng tarqalishi natijasida alohida jamoalarning ishlab chiqaruvchilik salohiyati jadallashadi. Qator hududlarda madaniy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi hamda tarixan bir - biri bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik yuritish usullari shakllanadi. Bu davrdagi dehqonchilik va chorvador qabilalarning joylashuvi avvalo, tabiiy sharoitning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq edi.

Dastavval, aholi joylashuv hududlari yaqqol ko'rinadigan O'rta Osiyoning janubiy hududlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilk temir davri bu hudud aholisi aniq tarixiy — madaniy joylashuvga ega edi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra,

¹ Эшов Б.Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.

² Эшов Б.Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.

¹ Эшов Б.Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.

bu davrda Murg'obning quyi oqimlarida, Balxobda, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalari hamda ularga qo'shni bo'lgan hududlarda aholi joylashuvining o'troq shakli kuzatiladi. Arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlariga tayangan A.Sagdullayev ilk temir davri O'rta Osiyoning janubidagi aholi joylashuvi rayonlarini quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. Daryo – soylar sohillarida markazlashgan tog' oldi rayonlarining ko'p sonli manzilgohlari.
2. Soy (yoki kanal) yoki bevosita yirik daryo irmog'i bo'yida joylashgan tog' oldi hududlari rayonlarining bitta - ikkita manzilgohlari.
3. Mypg'ob, Zarafshon, Balxob daryolari etaklari va irmoqlari havzalaridagi manzilgohlarning zich joylashuv rayonlari.
4. O'rta Zarafshon va Kashqadaryoning o'rta oqimi hududlaridagi geografik jihatdan qulay bo'lgan (baland adirlar, qum barxanlari bo'lmagan) daryo tekisliklari rayonlari².

Hozirgi kunga kelib Shimoliy va shimoli — shapqiy Afg'oniston, Janubiy va Janubi - G'arbiy Turkmaniston, Janubiy Tojikiston va Janubiy O'zbekiston hududlarida ilk temir davriga oid ko'p sonli o'troq aholi manzilgohlari aniqlangan. Ushbu manzilgohlar o'ziga xos aholi joylashuv rayonlarini tashkil etib, ularning ko'pchiligi dastlabki shahar markazlari edi. Ularning barchasida o'zlashtirilgan maydonlar va sug'orish tartibidan tashqari turar —joylar va manzilgohlar, o'zlashtirilmagan yerlar va yaylovlar mavjud bo'lib, eng muhimi bu yerlarda aholi faoliyat ko'rsatgan. Ushbu joylashuv rayonlarini belgilovchi belgilar birinchi navbatda, tabiiy - geografik, ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy omillar bilan bog'liq edi.

Bu omillarni jamiyat taraqqiyotiga qay darajada ta'sir etishini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, tabiiy - geografik nuqtai nazardan aholi markazlashgan rayon - hudud doimo aholi joylashuvi hamda odamlar jamoalari yashashi uchun moddiy shart - sharoitlar yaratilgan geografik kenglik sifatida shakllanadi. Ushbu geografik kenglikda inson turmush tarzi uchun o'ta zarur bulgan shart - sharoitlar — suv manbalari, yaylovlar, qurilish xom ashyosi, qurilish uchun qulay joylar kabilar mavjud bo'ladi.

Bir hududda uzoq yashash natijasida odamlar o'zlari uchun moddiy va ma'naviy sharoit yaratish bilan birga hududlarga ta'sir o'tkazib uning tabiiy - geografik sharoitlarini mumkin qadar o'zlariga moslab oladilar. Geografik muhit *odamlarning turmush tarzi, madaniyati hamda ishlab chiqarish faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatsada*, ijtimoiy - iqtisodiy nuqtai nazardan aholi rayonlashuvi jarayonlari shunda kuzatiladiki, bu jarayonda markaz - rayon hududi mehnat va ishlab chiqarish obyekti, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish mahsulotlari markazlashgan joy, xo'jalik, madaniy hamda boshqa ijtimoiy munosabatlar markazi hisoblanadi¹.

Rayon - markazlashuvning madaniy omillari nuqtai nazaridan tahlil etsak, bu jarayonda har bir o'ziga xos rayon shu hududda mavjud bo'lgan manzilgohlar va turli ko'ninishdagi turar-joylar, diniy va hunarmandchilik inshootlari, ishlab chiqarish va turmushda ishlatiladigan buyumlar — mehnat qurollari, jangovar qurollar,

² Эшов Б.Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.

¹ Эшов Б.Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.

taqinchoqlar, sopol idishlar mavjudligi hamda turmush tarzining yuqori darajasi va mavkuraviy tasavvurlarning rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, "rayonlashuv", "markazlashuv", "rayon-voha", "rayon-markaz" atamaları fikrimizcha, qadimgi o'troq aholi joylashuvi tartibini u yoki bu darajada nisbatan to'liqroq o'zida aks ettiradi. Bu o'rinda albatta, aholining bir hududda zich yoki tarqoq joylashuvi tartibini ham hisobga olish zarur. Aholi bir hududda nisbatan zich joylashgan hududlar uchun **"rayon — markaz"**, nisbatan tarqoq joylashuv hududlari uchun **"rayon-voha"** atamasini qo'llash maqsadga muvofiqdir².

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, aholi joylashuvi rayon — vohalarning ma'lum ma'nodagi ham ichki, ham tashqi chegaralari mavjud edi. Ichki chegaralar asosan mavjud aholi manzilgohlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan (hududlari, rejaviy tuzilishi, turar - joylarning joylashishi) bog'liq bo'lsa, tashqi chegaralar hududlar oralig'ida joylashgan o'zlashtirilmagan yerlar orqali belgilangan. Bunday yerlarga ma'lum jamoalar egalik qilishga ulgurmagan yoki ular o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan (adir, dasht va boshqa). Atrof muhit haqida turli ma'lumotlar to'plash, aholi sonining doimiy o'sib borishi va nihoyat, yangi yerlarni uzlashtirishga bo'lgan intilishlar aholi yashash hududlari dastlabki chegaralarining kengayishi va o'zgarib turishi uchun jiddiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Shunday qilib, aholi joylashuvining hududiy rayonlashuvi dastlabki shahar markazlarning keyingi taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qadim davrlarda yoz ayrim qabilalar yoki qabila guruhlarining o'ziga xos uslubda bir yerda o'troq markazlashuvi natijasida hududiy birlik yuzaga kelib ilk shaharlar ushbu hududiy birlikning markazlari sifatida taraqqiy etadi.

Shaharlar taraqqiyoti natijasida aholi joylashuvining geografik chegaralari yaqqolroq ko'rina boshlaydi. Undan tashqari hududiy birlik - madaniy, etnik va til birligi uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, hududiy birlik ko'rinishidagi aholi joylashuvining rayonlashuvi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy munosabatlarning keng miqyosda taraqqiy etishi uchun ham jiddiy ahamiyatga ega bo'ldiki, ushbu jarayon dastlabki shahar — markazlardagi o'ziga xos madaniyatni belgilab beruvchi taraqqiyot bosqichlari uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan xulosa chiqarib, O'rta Osiyo o'troq aholi joylashuvi rayonlarini o'ziga xosligi va taraqqiyot hususiyatlariga qarab quyidagi guruhlar va davrlarga ajratish taklif etiladi:

1. Janubiy Turkmaniston neolit — eneolit davri aholisining Kopetdog' etaklari va Murg'ob daryosi vohalarida markazlashuvi (mil. avv. VI — III ming yillik boshlari).
2. Surxon va O'rta Amudaryo vohalarida hamda Zarafshon vohasi bronza davri aholi joylashuv hududlari (mil. avv. III — II ming yilliklar).
3. Xorazm, Buxoro vohasi (mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi).
4. Farg'ona vodiysi so'nggi bronza va ilk temir davri aholi joylashuv rayonlari (mil. avv. II ming yillik so'nggi choragi — I ming yillik boshlari).
5. So'nggi bronza va ilk temir davri Surxon, Balxob, Kofimihon, Panj, Zarafshon, Kashqadaryo vohalari aholi joylashuv rayon — markazlari hamda ularda ilk

² Эшов Б.Қадинги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.

shaharlarning taraqqiy etishi (mil. avv. II ming yillik o'rtalaridan I ming yillik o'rtalarigacha)¹.

Jamiyatdagi ma'lum bo'g'in sifatida ilk shaharlarning paydo bo'lishi butun jamiyat hayotidagi chuqur sifatii o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, ushbu tarixiy – madaniy rivojlanish natijasida shaharlar qishloqlardan ajralib chiqadi. Ushbu ajralish tufayli ikkala qarama – qarshilik birlashuviga asoslangan jamiyat rivojlanishining davr taqozo etgan o'ta muhim yangi qonuniyatlari ma'lum tuzum sifatida o'rnatiladi. Muhim yangi ijtimoiy jarayon sifatida shaharlar shakllanishidagi dastlabki shart-sharoitlar ilg'or va nisbatan jadal rivojlangan (ma'lum tarixiy va tabiiy sharoitlarda, albatta) jamiyatda, ko'p qirrali mehnat taqsimoti jarayonining doimiy chuqurlashuvi natijasida paydo bo'ladi.

Ilk shaharlarning paydo bo'lish asoslari va omillari masalalari bo'yicha turli yillarda **V.M. Masson, B.A.Litvinskiy, A.A.Asqarov, V.I. Sarianidi, E.V.Sayko, I.M.Dyakonov, G.YE.Areshyan, T.SH.Shirinov, E.V.Rtveladze, A.S.Sagdullayev** hamda qator xorijlik olimlar ma'lum darajada tadqiqot ishlari olib bordilar. Ularning turli hajmdagi maqolalari va monografiyalarida ilk shaharlar paydo bo'lish asoslari, omillari va shart-sharoitlar, dunyo tarixidagi qadimgi shaharlar bilan qiyosiy tahlil masalalari ko'rib chiqildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, kammahsul mehnat va ishlab chiqaruvchi kuchlarning nisbatan past darajasi sharoitida mehnat taqsimoti jamiyat rivojlanishining yagona asosi edi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, doimiy tabaqalanish jarayoni va ishlab chiqarish faoliyatining ixtisoslashuvi mehnatning umumiy hajmi va qo'shimcha mahsulot o'sishini ta'minlab, ehtiyojlar tartibining murakkablashuviga olib keladi. Fikrimizcha, bu jarayon esa o'z navbatida ijtimoiy - iqtisodiy hamda madaniy - maishiy munosabatlarning keyingi tabaqalashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga qaraganda, sivilizatsiyaning eng qadimgi uchoqlarida dastlabki dehqonlarning mehnat sharoitlari hamda ta'minoti, mehnatning tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, tobora o'ziga xos bo'lib borayotgan tashabbuskorlik, bunyodkorlik, harbiy va diniy vazifalarning alohida bo'lishiga olib keladi. Ayni paytda, dastlab tabaqaviy tengsizlik ko'rinishida bo'lgan ijtimoiy tabaqalanish bo'lib o'tadi.

Shuningdek, mulkiy tengsizlik va shaxsiy qararnlikning paydo bo'lishi uchun imkoniyatlar yuzaga keladi. Siyosiy jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishning xususiyatlari va darajasini izohlash paytida, turli munosabatlarni emas balki, pyyg' jamoasining ustunlik qilishini hisobga olgan holda qadimgi ko'mish marosimlari, turar-joylar va boshqalardan tabaqalanish haqidagi arxeologik ma'lumotlarning tarixiy tahliliga ehtiyotkorlik bilan yondoshuv talab etiladi. Ko'p qirrali mehnat taqsimotining umumiy tartibda ajralishi va turli ko'rinishdagi boshqaruv vazifalari manzilgohlar turlarining o'lchamlariga ko'ra hamda jamoat ishlarining tashkiliy ahamiyatiga qarab tabaqalanishga imkoniyat yaratdi.

Demak, quyidagi shart - sharoitlar ilk shaharlar paydo bo'lishi uchun asosiy va muhim o'rinda turadi:

¹ Эпов Б.Қадимгии Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.

1. Qishloq (manzilgoh)larning aholi soniga qarab kengayib borishi;
2. Qishloq (manzilgoh)larda aholi tabaqalanishning boshlanishi;
3. Mehnatning markazlashuvi va mehnat faoliyatining chuqurlashib borishi;
4. Mehnatning yangi ehtiyojlarni qondirishdagi zaruriy shart sifatida ixtisoslashuvi¹.

Bronza davridagi mehnatning ikkinchi yirik taqsimoti ilk shaharlar shakllanib boshlanishi uchun muhim imkoniyat yaratibgina qolmay, bu jarayonning asosiy iqtisodiy omili ham bo'ldi. Ushbu mehnat taqsimoti natijasida hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi. Bu jarayon natijasida jamiyatda ishlab chiqarish bo'g'inlarining hususiyatlarida va uning tuzilishida o'zgarishlar bo'lib o'tadi.

Ijtimoiy - iqtisodiy faoliyatdagi ishlab chiqaruvchi xo'jalikning rivojlanishi va ijtimoiy mehnat taqsimoti ilk shahar madaniyati paydo bo'lishining dastlabki shart sharoitlari hisoblanadi. Tarixiy - madaniy va ijtimoiy - tarixiy tadqiqotlar urbanizatsiya jarayoni shakllana boshlangan davrdagi ishlab chiqaruvchi iqtisod darajasi va ijtimoiy mehnat taqsimoti shakllarini aniqlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarning mavjud darajasi alohida boshqaruv ittifoqi va ijtimoiy hayotni boshqarishga bo'lingan jamiyat tashkilotining anchagina tabaqalashgan shakliga mos tushadi.

Dastlabki shaharlarning ijtimoiy hayotdagi sifatiy yangilik darajasi o'ziga xos bo'lib, u har tomonlama qishloq jamoalari turmush tarzidan keskin farqlanadi.

Ilk shaharning paydo bo'lishida ko'plab ijtimoiy-madaniy xususiyatdagi omillar sabab bo'lishiga qaramay, turli sharoitlarda u yoki bu guruh sabablar nisbatan ustunlik qiladi. Fikrimizcha, aniq tarixiy - madaniy sharoitlarda shahar madaniyatining shakllanishi ijtimoiy - iqtisodiy (hunarmandchilik va savdo - sotiqning rivojlanishi), harbiy - siyosiy (mudofaa inshootlariga bo'lgan ehtiyoj) va boshqaruv (boshqaruv tizimining ajralishi) tartiblarining mavjudligi bilan uzviy bog'liqdir.

Mehnat taqsimotini shaharlar paydo bo'lishidagi asosiy sabablardan biri sifatida ko'rib chiqayotgan paytimizda bu jarayonning dastlabki davrda nisbatan tor hudud doirasida yuz berishini ham alohida qayd etish zarur.

Shahar madaniyatining shakllanishi xo'jalik - madaniy tiplar o'rtasidagi mehnat taqsimoti rivojlanib ayrim jamoalar o'rtasidagi mehnat taqsimotiga aylanish darajasiga mos keladi.

Ilk shahar madaniyatining muhim ko'rinishlaridan biri - aholining turli qatlamlari yashovchi turli shakldagi aholi punktlarining paydo bo'lishi va o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Bu o'rinda shunga alohida e'tibor berish lozim bo'ladiki, shahar madaniyatining shakllanishi etnogenetik jarayonlarda sifatiy yangi bosqich boshlanganligidan dalolat beradi.

Mil. avv. IV ming yillikning oxiri — III ming yillik boshlariga kelib O'rta Osiyoning ko'pgina hududlarida o'troq dehqonchilik iqtisodiyoti va aholining o'sishi natijasida yirik aholi manzilgohlari, oziq - ovqat zahirasi, hunarmandchilik faoliyati, jamoa ibodatxonalari hamda hokimiyat organlari markazlashgan hududlar - qishloq xo'jalik viloyatlari yoki vohalarning markazlariga aylanab boradi.

¹ Эшов Б.Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.

Ilk shaharlarning vazifaviy holati hamda ularning ichki tuzilishi o'ziga xos xususiyatlarga, o'z rivojlanish xususiyatiga ega. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bronza davri O'rta Osiyo shaharsozligining shakllanishida sug'orma dehqonchilik asosiy ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsada, O'rta Sharqning ayrim ilk shaharlari bundan mustasno (misol uchun, Afg'onistondagi Mundigakning shakllanishida lojuvard - tranzit yo'li katta ahamiyatga ega bo'lgan).

Jahon tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, urbanizatsiya jarayonlari barcha hududlarda bir xil kechmagan va bu jarayon bir necha davr va bosqichlardan iborat. Misol uchun, mil. avv. IV ming yillikning ikkinchi yarmida Misrda Enxab (Nexen) va Buto shaharlari poytaxt shaharlar sifatida shakllansa, mil. avv. III ming yillik boshlarida Mesopotamiyada Kish, Uruk, Lagash, Umma, Larsa kabi yirik shaharlar mavjud edi.

Qadimgi Elam va Eronda dastlabki yirik shahar markazlari Suza, Anshan, Shazri So'xta kabilar ham mil.av. III ming yillikning boshlariga o'idir. Aynan mana shu davrda Xindistonda Mohenjodaro, Xarappa va Kalibangan kabi yirik shahar markazlari taraqqiy etadi. Dunyo tarixidagi ushbu ilk shahar markazlarining rivojlanishi bir necha davrlarni o'z ichiga oladi.

Dastlabki shaharlar o'sha davr (ya'ni, bronza davri — B.Eshov.) uchun jiddiy ko'rinish bo'lib ular, boshqaruv va turli marosimlar markaziga aylanadi. Ularda xunarmandchilik ishlab chiqarish, aholi ehtiyojlari uchun xizmat qiladigan manzillar, hukmdor va uning ma'muriyati, diniy marosimlar vakillari, shuningdek, atrof qishloq xo'jalik tumanlarida ishlovchilar mavjud edi.

Ishlab chiqarishdagi iqtisodiyotning tashkil topishi, sug'orma dehqonchilik va uy chorvachiligining rivojlanishi, dastlabki metallning (mis, bronza) o'zlashtirilishi hamda ulardan mehnat, jangovar, uy-ro'zg'or buyumlarining tayyorlanishi va nihoyat, dastlabki shaharlarning paydo bo'lishi insoniyat tarixida, jumladan, O'rta Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, O'rta Osiyoning har bir tarixiy-madaniy vohasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va rivojlangan dehqonchilik asosida ilk shahar markazlari paydo bo'ladi. O'zida ilk shaharsozlik belgalarini aks ettiruvchi markazlar sh hozirgi kunda **Janubiy Turkmanistondagi Oltindepa, Namozgohdepa, Ulug'depa, Gonur I, Janubiy O'zbekistondagi Sopollitepa, Jarqo'ton, Shimoliy Afg'onistondagi Dashli 3, Janubiy Afg'onistondagi Mundigak, Janubi-sharqiy Erondagi Shahri So'xta, Shimoliy Erondagi Hisor** kabilarni kiritish mumkin.

Jamiyatdagi mavjud shart-sharoitlar va omillar mil avv. SH ming yillikning oxiri - II ming yillikning boshlarish kelib O'rta Osiyo hududlarida o'zida shaharsozlik madaniyati belgalarini aks ettiruvchi aholi manzilgohlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Dastlabki shaharlarda aholining turli ishlab chiqarishdan kelgan qo'shimcha mahsuloti, yirik inshootlar-saroilar, ibodatxonalar, mudofaa inshootlari kabi qurilishlarda madaniy va iqtisodiy aloqalarda o'zining moddiy aksini topdi.

Jamiyat hayotida mehnatning ikkinchi ijtimoiy taqsimoti yuz berishi natijasida ixtisoslashgan hunarmandchilik taraqqiy etadi. Ko'p sonli arxeologik ma'lumotlar ko'hn shaharlarda hunarmandchilikning turli sohalari - kulolchilik, metallga ishlov berish, zargarlik kabi sohalari ancha rivojlanganligidan dalolat beradi.

O'rta Osiyodagi dastlabki shahar markazlari ulardagi yirik qurilish inshootlari (saroylar, ibodatxonalar va boshq.) ko'plab hunarmandchilik ustaxonalarining mavjudligi mavqei bilan qishloqlardan ajratib turadi.

Shaharlarni jamiyat taraqqiyotining yetakchi omili sifatida yuzaga kelishi insoniyat rivojlanishi tarixidagi muhim voqea bo'lib, bu jarayon ibtidoiy turmushdan sivilizatsiyaga, urug'chilik tuzumidan davlatchilikka o'tishning bosh va asosiy belgisidir. Tadqiqotchilarning ko'pchiligi e'tirof etganlaridek, sivilizatsiya — insoniyat taraqqiyoti bo'lib o'tayotgan jamiyat hayotining ma'lum davrida paydo bo'ladi. Sivilizatsiyaning paydo bo'lishi va yuksak darajada rivojlanishida shaharsozlik madaniyatining ahamiyati beqiyosdir. Chunki, aynan ilk shahar markazlarida sivilizatsiya rivojini ta'minlovchi ko'pgina tarixiy - madaniy jarayonlar bo'lib o'tgan.

Olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilish va solishtirish shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo jumladan, O'zbekiston sivilizatsiyasi ham Sharqdagi dastlabki sivilizatsiyalar Mesopotamiya va Xindistonning Xarappa madaniyati bilan uzviy aloqada shakllangan va rivojlangan.

Bu ikkala mashhur sivilizatsiyalar oralig'ida joylashgan O'rta Osiyo Qadimgi Sharq xalqlarining yagona iqtisodiy va madaniy tizimga birlashuvida hamda ular o'rtasidagi turli aloqalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mil. avv. III ming yillikka kelib O'rta Osiyo daryo vohalarida o'lchamlari jihatdan kattagina bo'lgan jamoat inshootlari, dushmandan himoyalaniish vositasi bo'lgan mustahkam devorlar paydo bo'lishi dastlabki shaharsozlik madaniyati belgilari edi.

III - II ming yilliklarga kelib esa O'rta Osiyo jamiyatida sodir bo'lgan iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari ilk shaharlarning keyingi rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ilk shaharlarning paydo bo'lishi dastlabki davlatchilik shakllanishidagi eng muhim va asosiy omil bo'lib bu ikkala jarayon uzviy bog'liq holda kechgan.


Mil. avv. III ming yillikning oxiri —II ming yillikning o'rtalariga kelib, o'zida ilk shaharsozlik belgilarini aks ettiruvchi markazlar — Oltindepa, Namozgohdepa, Ulug'depa, Sopolitepa, Jarqo'ton kabilar madaniyatining shakllanishi ham jamiyat taraqqiyotida bo'lgani kabi uzluksiz taraqqiyot yo'li bilan rivojlanib boradi. Bu qonuniyatga ko'ra shaharsozlik madaniyati uzoq va bosqichma - bosqich davrlarni bosib o'tgan.

Demak, ayrim tadqiqotchilarning ilk shaharlar bosqichlari va taraqqiyot davrlari haqidagi ma'lumotlarini tahlil etamiz. O'tgan asrdagi ingliz olimi V.Tarnning fikricha, O'rta Osiyoda grek - makedon bosqiniga qadar mustahkamlangan manzilgohlar - shaharlar bo'lmagan.

Tadqiqotchi ushbu fikrini Pompey Trog va Chjan Szyan bergan ma'lumotlariga ypg'y berib Baqtriya va Farg'onaning ko'p sonli shaharlari Grek - Baktriya podsholarining ma'lum siyosati tufayligina paydo bo'lgan deya asoslaydi.

Ammo, S.P.Tolstov uncha ko'p bo'lmagan ma'lumotlarga asoslanib O'rta Osiyoning ahmoniylargacha ham, undan keyinroq, ellinizm davriga oid bo'lgan mustahkamlangan manzilgohlarining istekomlarida hamda ularning ichki rejaviy tuzilishida grek madaniyatining ta'siri sezilmaydi degan fikrni ilgari surdi.

E.V.Rtveladzening fikricha, S.P.Tolstovning bu fikri O'rta Osiyo shaharlari tuzilishi o'ziga xos bo'lib, ularda tashqi ta'sir kam bo'lgan. Ikkinchi tomondan esa o'tgan asrning 50 - yillaridan boshlab Baqtriya va Parfiya hududlarida olib borilayotgan ko'p sonli arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlari O'rta Osiyoning ellinistik va kushon - parfiya davri me'morchiligi va shaharsozligida ellinizmning ta'siri kuchli bo'lganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga bu o'rinda shuni ham alohida ta'kidlash joizki, O'rta Osiyoda hozirgi kunga qadar butunlay ellinizm shaharsozligi an'analariga asoslanib bunyod etilgan shaharlar aniqlanmagan (Oyxonim ko'hna shahrit bundan mustasno).



O'rta Osiyo shaharsozligi madaniyati qadimgi davrlarga borib taqalishi ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan. B.A.Litvinskiy O'rta Osiyo qadimgi shaharsozligi madaniyatini quyidagi bosqichlarga bo'ladi:

- 1) dastlabki shaharmonand (protogorod) manzilgohlar (mil. avv. III-II ming yilliklar);
- 2) eng qadimgi shaharlar (mil. avv. II ming yillikning oxiri — I ming yillikning birinchi choragi);
- 3) antik davr shaharlarining shakllanishi (mil. avv. VI-IV asrlar);
- 4) shaharsozlik dualizmi va O'rta Osiyo ellinistik aralashuvning boshlanishi (mil. avv. IV-II asrlar);
- 5) O'rta Osiyo - Ellinizm — Hind madaniyati umumlashuvi va O'rta Osiyo qadimgi shaharlarining nisbatan rivojlanishi (mil. avv. I - milodiy III - IV asrlar).

V.M.Masson esa O'rta Osiyo urbanizatsiya jarayonini quyidagi ikki davrga bo'ladi:

- 1) qadimgi Sharq (mil. avv. III ming yillikning oxiri mil. avv. I ming yillikning o'rtalari);
- 2) antik davr (mil. avv. III — milodiy IV asrlar).

T.Shirinovning fikricha, tadqiqotchilar tomonidan taklif etilayotgan urbanizatsiya jarayonlarini davrlashtirish juda mushkul. Qolaversa, har bir tadqiqotchining o'rtaga tashlagan fikri o'sha tadqiqotchini o'z materiali va ish uslubidan kelib chiqqan holda yaratiladi. Urbanizatsiya jarayonlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi qay darajada yechilishiga qaramay, tadqiqotchilar bir narsaga umumiy fikr bildiradilar: Markaziy Osiyoda shaharlar boshqa joylarga nisbatan ancha oldin paydo bo'lgan.

Yuqoridagi qadimgi shaharlar rivojlanish bosqichlari va davrlari asosan O'rta Osiyoning janubiy hududlariga xosdir. Chunki, O'rta Osiyoning shimoliy va xususan, shimoliy - sharqiy hududlarida shaharlarning rivojlanishi shakllanishining boshqacha yo'llarini aks ettiruvchi boshqacharoq tarixiy-madaniy sharoitlarda bo'lib o'tgan. Fikrimizcha, O'rta Osiyoning turli tarixiy-madaniy viloyatlaridagi shaharlari ma'lum umumiylikka ega bo'lish bilan birga paydo bo'lishi va rivojlanishi, me'moriy tuzilishi, moddiy va badiiy madaniyati hamda shahar hayoti nuqtai nazaridan bir - biridan keskin farqlanadi. Bu o'rinda, butun O'rta Osiyo uchun xos bo'lgan, bir necha asr mavjud bo'lib keyin inqirozga uchragan ko'hna shaharlar uchun turli bosqichlar va davrlarni boshdan kechirish mustasnodir.

Ko'pchilik tadqiqotchilar fikrlarini qiyosiy va umumlashma tahlil asosida, qadimgi O'rta Osiyodagi urbanistik jarayonlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini quyidagi to'rtta asosiy davrga bo'lish mumkin:

- 1) Janubiy Turkmaniston hududlaridagi eneolit davrining nisbatan rivojlangan dastlabki dehqonchilik manzilgohlari (mil. avv. IV-III ming yilliklar);
- 2) O'zbekistonning janubi, Zarafshon vohasi, Shimoliy Afg'oniston, Janubiy Turkmaniston hududlaridagi bronza davrining rivojlangan manzilgohlari va ularning shaharlarga aylanishi (mil. avv. III-II ming yillikning oxirlari);
- 3) Baqtriya, Sug'diyona, Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi va Xorazm hududlaridagi ilk temir davrining dastlabki shaharlari (mil. avv. I ming yillikning ikkinchining choragi);

4) O'rta Osiyo hududlaridagi ellinistik - antik davr shaharlari (mil. avv. III - milodiy III asrlar).

Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar shaharlar belgilari uchun asosiy hisoblanadi. Undan tashqari shaharsozlik uchun tabiiy-geografik omillar ham muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, shaharning geografik joylashuvi hududi, suv bilan ta'minlanganligi, qazilma boyliklari mavjudligi, savdo-madaniy aloqalari (karvon yo'llari), diniy inshootlar ham muhimdir. **Demak, ko'pchilik tadqiqotchilar "shahar" deb e'tirof etadigan yirik aholi yashash makonida barcha shart - sharoitlar, ya'ni shu hududda aholining uyushib yashashi uchun kerak bo'ladigan barcha dunyoviy, diniy va iqtisodiy uyushmalarning bir butun, yaxlit tashkiloti qaror topadi.**

So'nggi yillarda ilk shaharlar masalalari bilan shug'ullanayotgan T.SH.Shirinov doktorlik dissertatsiyasida bronza davri O'rta Osiyo ilk shaharlarining quyidagi arxeologik belgilari ro'yhatini keltiradi:

1. Yuqori tabaqa vakillari, hokim yashaydigan saroy tizimi;
2. Toat - ibodat qinlinadigan joylar — ibodatxona, topinish va sig'inish bilan bog'liq inshootlar mavjudligi;
3. Himoya devorlari bilan o'ralgan qal'a — arkning alohida bo'lishi, uning ichida hukmdor va uning yaqinlari yashaydigan uy - joylarning bo'lishi;
4. Turar - joylar va boshqa jamoat mahallalari, zich qurilishlar bilan band bo'lgan hududning katta (3 - 6 gektardan kam bo'lmagan) maydoni, ishlab chiqaruvchi kuchlarning bir yerga to'planishi, sug'orma dehqonchilik vohasining markazi;
5. Hunarmandchilik ishlab chiqarishining yuqori darajasi, hunarmandchilik dahalari - kulolchilik, zargarlik, metallchilik, to'quvchilik, qurilish, toshga va teriga ishlov berish kabilarining alohida bo'lishi;
6. "Yo'l boshchilar" dahmalarida qimmatbaho buyumlar, ajralib turuvchi muhf - ramzlar va boylikning mavjudligi;
7. Mahobatli qurilishlarning (saroy, ibodatxona va boshq.) tashqi ko'rinishi, rejaviy tuzilishi va xonalari ishlanish — jihozlash uslublari jihatidan boshqa turar - joylardan keskin farqlanishi;
8. Keng savdo - almashinuv jarayonlaridan darak beruvchi va o'sha hudud madaniyatiga xos bo'lmagan sopol, suyak, tosh, metall buyumlar va qimmatbaho toshlarning mavjudligi.
9. Toshga naqsh o'yish san'ati (**gliptika**), ibtidoiy yozuvning mavjudligi.

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, yuqoridagi arxeologik belgilardan birinchi, ikkinchi, uchinchi, turtinchi, beshinchi va yettinchi belgilar asosiy bo'lib qolganlari ikkinchi darajali hisoblanadi.

Tadqiqotchilar fikrlarini umumlashtiridigan bo'lsak, bronza davriga kelib O'rta Osiyoning keng dehqonchilik vohalari hududlarida aholining alohida joylashuvi tizimi shakllanadi. Bu jarayon o'z navbatida o'zida ilk shaharsozlik belgilarini aks ettiruvchi aholi manzilgohlarining paydo bo'lishi va keyingi rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu imkoniyatlar quyidagi asosiy ijtimoiy - iqtisodiy omillar bilan bog'liq edi:

- o'troq dehqonchilikning paydo bo'lishi natijasida aholining ma'lum hududlarga to'planishi hamda bu hududlarda boshqa hududlarga nisbatan zich joylashuvi;
- mehnatning ikkinchi yirik ijtimoiy taqsimoti, ya'ni hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi natijasida ayrim aholi manzilgohlarida ixtisoslashgan xo'jaliklarining paydo bo'lishi;
- ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarining chuqurlashuvi hamda mavjud jamiyatdagi boshqaruv tizimining yanada murakkablashuvi (aholi yirik manzilgohlarida boshqaruv tizimi shakllanadi va markazlashadi);
- eng qadimgi yo'llarning rivojlanishi natijasida hududlar o'rtasida madaniy va iqtisodiy munosabatlar, xususan, savdo - sotiq aloqalarining taraqqiy etishi (mil. avv. IV-III ming yilliklardayoq Janubiy Turkmaniston hududlarida dastlabki loydan yasalgan g'ildiraklar paydo bo'lgan bo'lsa, mil.avv. III ming yillik o'rtalariga kelib esa tuyaga, ba'zan, ho'kizga qo'shib ishlatadigan aravalar paydo bo'ladi). Transport vositalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi qishloq xo'jaligi hududlarining markazi hamda kundalik zaruriy va qo'shimcha mahsulotni taqsimlovchi markaz vazifasini bajarish imkonini yaratadi.

Shaharlar paydo bo'lishining dastlabki bosqichlarida ijtimoiy - iqtisodiy omillardan tashqari diniy, harbiy - strategik va tabiiy - geografik omillar ham nihoyatda muhimki, fikrimizcha, ular quyidagilar:

- e'tiqod, diniy - mafkuraviy qarashlarning taraqqiy etishi natijasida ibodat inshootlarining shahar markazlarida qad ko'tarishi (shaharlar diniy markaz sifatida);
- qal'alarning paydo bo'lishi va ularda mustahkamlangan manzilgohlarning qo'rg'onlar hamda shaharlarning muhim belgisi sifatida shakllanishi;
- o'z davridagi harbiy - siyosiy vaziyat (atrof ko'chmanchilarning va o'zaro urushlar) tufayli qal'alarning qo'rg'onlarga aylanishi va himoya inshootlari bilan o'rab olinishi;
- ekologik va geografik shart - sharoitlar (dastlabki shaharlarning yashash uchun qulay bulgan daryo vohalari va tog' oldi hududlarida paydo bo'lishi) mavjudligi;

Shaharlar taraqqiyotining keyingi bosqichlarida shaharlarning ayrim tuzilishi belgilari turlicha o'zgarishiga qaramay shaharsozlik ko'rinishining asosiy mohiyati hisoblangan hamda o'zida ijtimoiy va madaniy-maishiy belgilarni mujassamlashtirgan uch qismlik (qal'a hokim maskani; shaharning hunarmandchilik ishlab chiqaruvchi, savdo - sotiq hamda turar-joylar mavjud bo'lgan qismi; shahar oldi-diniy ko'mish marosimlariga oid va ishlab chiqaruvchi qism) aslida o'zgarmasdan avvaligicha qoladi.

Demak, asoslari eneolit davriga borib taqaluvchi O'rta Osiyo shaharsozligining o'ziga xos taraqqiyot yo'li va rivojlanish bosqichlari hamda davrlari mavjud. Ushbu jarayonni davrlashtirishda asosan arxeologik ma'lumotlarga tayanganimiz tufayli u og'ir kechadi hamda ko'p hollarda mukammal emas. Binobarin, bu masala hali to'liq yechimini topgan emas va hali yana ko'plab tadqiqotlar talab etiladigan masala hisoblanadi.

Jahon sivilizatsiyasining ma'lum davrlarida urbanizatsiya jarayonlari jamiyatning har tomonlama taraqqiy etishida nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Shuning uchun ham jamiyatning rivojlanishini shaharlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, shaharlarning rivojlanishi ikkita - tartibsiz bunyod etiladigan inshootlar va bir hudud joylashgan manzilgohlar o'sib shahar uyushmalariga aylanishi, shuningdek, ma'lum davrlarda jamoat, turar - joy, mudofaa inshootlari, ko'chalar va maydonlar kabi omillarning o'zaro ta'siri natijasida bo'lib o'tadi. Shaharlar paydo bo'lishi uchun yuqorida eslatilgan turli-tuman omillar sabab bo'lganidek, shaharlarning o'zi ilk davlatchilikning asosiy va muhim omili sifatida shakllanadi.

Qadimgi sharqning shaharmonand va qadimgi shaharlari haqida ma'lumot

Nomi	Maydoni	Mudofaa devori	Ark-Qal'a	Sanasi	Joylashgan hududi
Oltintepa	25 ga	*	*	Miloddan avvalga III mingyillik	Turkmaniston
Namozgohtepa	70 ga	*	*	Miloddan avvalga III ming yillik o'rtalari	Turkmaniston
Sopollitepa	3 ga	*	*	Miloddan avvalga II ming yillik I yarmi va o'rtalari	O'zbekiston
Jarqo'ton	100 ga	*	*	Miloddan avvalga II ming yillik II yarmi	O'zbekiston
Dalvarzin	24 ga	*	*	Miloddan avvalga II ming yillik oxirlari I ming yillik boshlari	O'zbekiston
Chust	5 ga	*	*	Miloddan avvalga I ming yillik oxirlari	O'zbekiston
Shahri So'xta	80 ga	*	*	Miloddan avvalga III ming yillik II yarmi	Eron
Mehinjo-Doro	260 ga	*	*	Miloddan avvalga III ming yillik o'rtalari	Hindiston
Mundigak		*	*	Miloddan avvalga III ming yillik oxirlari II ming yillik boshlari	Afg'oniston
Chjenchjou	60 ga	*	*	Miloddan avvalga II ming yillik o'rtalari	Xitoy
Godin	25 ga	*	*	Miloddan avvalga II ming yillik I yarmi	Eron

Tayanch so'zlar:

Sivilizatsiya tushunchasi, dastlabki bosqich, sivilizatsiyaning asosiy mezonlari, sivilizatsiyaning asosiy belgilari, taraqqiyotning sivilizatsion ko'rinishi, mahobatli me'morchilik, shaharlar va yozuv, sivilizatsiyaning vujudga kelishi, eng qadimgi sivilizatsiyalar, mentallik, Sharq sivilizatsiyasi, g'arb sivilizatsiyasi, sivilizatsiyaning tiplari, sivilizatsiya davrlari, madaniy aloqalar.

Xududiy rayonlashuv belgilari, rayonlashuv davrlari, bronza davri madaniyatlari, voha bo'lib joylashuv yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar,

joylashuv tartibi, o'troq xo'jaliklar, ko'chmanchi jamoalar, o'troq aholi va ko'chmanchilar munosabatlari, voha tizimi, joylashuvi rayonlari, geografik kenglik, markaz - rayon, rayon - voha, ichki chegaralar, tashqi chegaralar, jamoa yer egaligi, hududiy birlik, madaniy birlik, etnik va til birligi. Sifatiiy o'zgarishlar, tabaqalanish jarayonlari, ishlab chiqarish jarayonlarining ixtisoslashuvi, mehnat taqsimoti, qo'shimcha mahsulot, boshqaruv vazifalari, alohida boshqaruv ittifoqi, uzluksiz va bosqichma - bosqich taraqqiyot, ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy omil, aholining alohida joylashuv tizimi, diniy va harbiy - strategik omillar, shaharlarning tuzilishi.

Savol va topshirshqlar:

- 1.Sivilizatsiyaning asosiy mezonlari haqida gapirib bering.
- 2.Sivilizatsiyalarning vujudga kelishi haqida nimalarni bilasiz?
- 3.Eng qadimgi sivilizatsiyalar haqida ma'lumot bering.
4. Qadimgi madaniy aloqalar haqida gapiring.
5. O'rta Osiyodagi dastlabki shahar markazlari va o'choqlari qaysi davrlarga bo'linadi va bu davrlarga izoh bering?
- 6.O'rta Osiyo qadimgi manzilgohlari rivojlanishining voha tartibini Qadimgi Sharq hududlari bilan qiyosiy tahlil asosida so'zlab bering.
- 7.Qanday shart - sharoitlar ilk shaharlar paydo bo'lishi uchun asosiy va muhim o'rinda turadi?
- 8.Ilk shaharlar paydo bo'lishining asoslari nimalardan iborat?
- 9.Shaharlar paydo bo'lishining ahamiyati va bu jarayonlarning sivilizatsiya bilan bog'liqligi haqida nimalarni bilasiz?

2-Mavzu: O'rta Osiyo shaharlari tarixiy qiyofasi va shaharlarning tarkibiy tuzilishi

Reja:

- 1.Shaharlarning vujudga kelishi va ularning taraqqiy etishi.
- 2.Shaharlar strukturası: umumiylik va xususiylik holatlari.
- 3.Shaharlar boshqaruvining muhim jihatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017.
2. Эшов Б.Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.
3. Массон В.М. От редактора // Древние города. Материалы к Всесоюзной конференции Культура Средней Азии и Казахстана в эпоху раннего средневековья». Пенджикент, октябрь 1977 г. Л., 1977. - С. 3.
- 4.Беленицкий А.М., Бентович М.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973; Средняя Азия в раннем редневековье. Археология. Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. М., 1999.
- 5.Бобоёров Г.Б. Ғарбий Турк хоконлигини давлат тузуми: Тарих фанлари докт. ... дисс-я. Т., 2012.
- 6.Шониезов К.Ш. Ўзбек халкининг шаклланиш жараёни. Т., 2001. - 141-150-б

Mavjud qadimiy shaharlar - Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Qarshi, Termiz kabilarning rivojlanishi bilan bir qatorda ba'zi shaharlarning tanazzulga yuz tutishi, yangi shaharlarning vujudga kelish jarayoni kechdi. Bu davrda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari xududida yangi shaharlarning vujudga kelishi, tahlil etilar ekan, bu jarayonga xos bir qancha umumiy holatlar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Ular siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar bilan uzviy bog'lanib ketgan edi.

Ayrim olingan xududdagi tabiiy-iqlimiy xolat natijasi o'laroq daryolar irmoqlari oqimining o'zgarishi va suvsozlik oqibatida ayrim hukmdorlar davrlarida sun'iy sug'orish, tizimlarining rivojlantirilishi, siyosiy nomutanosibliklar davrida markaziy hokimiyatning susayishi oqibatida chekka yerlarda ayrim siyosiy-iqtisodiy markazlarning shakllanishi, xududiy savdo-iqtisodiy markazlarning shakllanishi yukalarning rivojlanishi, turli yo'llar va ular kesishgan yerlarda yangi markazlarning vujudga kelishi, shuningdek, ayrim hukmdorlarning xoxish-istagi bilan yangi shaharlarning barpo etilishi kabilarni ular jumlasiga kiritish mumkin.

Shaharlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti ko'pincha mavjud tabiiy iqlimiy sharoitlarning turli holatlari bilan bog'liq edi. Ularning asosiysi sifatida turli yelarda shakllangan shaharlarning suv bilan ta'minlanganligi masalasini ko'rsatish mumkin.

O'rta Osiyoning tadbirkor va mehnatkash xalqi juda qadim zamonlardan oq bu hududning asosiy suv tomirlari bo'lmish Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon kabilarning imkoniyatlaridan har tomonlama oqilona foydalanishga harakat qilganlar. Ulardan turli voha va suvsiz yerlarda sun'iy sug'orish kanallarini chiqarib, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Bu suv inshootlari bo'yida o'z navbatida shaharlar bunyod etilgan. Buning yorqin namunasini Xiva shaharlari misolida kuzatish mumkin.

XVI asr boshlarida Xorazmning yirik shaharlari sifatida Vazir mashhur edi. Qayd qilish lozimki, XVI asr mobaynida bu shahar nafaqat yirik savdo-iqtisodiy hayot markazi, xududiy-mamuriy birlikni bildiribgina qolmay, o'z navbatida ayrim shahar va qishloqlarni birlashtirgan siyosiy markaz vazifasini ham o'tagan edi. Bunga Abul'ozining quyidagi so'zlari orqali amin bo'lish mumkin: "Qadim Vazirga taalluqli hokim o'lturaturgan viloyatlar ko'p edi. Buzula-buzula Elbarsxon kelgan choqda uch xokim nishin yer qolib erdi. Avval Vazir, ikkinchi - Yangi Shahar, uchunchi - Tirsak"¹.

Yangi Shahar va Tirsakni tadqiqotchilar Vazir atrofidagi o'nta qaram bo'lgan shaharlar jumlasiga kiritadilar². Shermuxammad Munis esa ularni "Yangi shahar va Tirsak qishloqlari" tarzida qayd etadi. Uning bu ma'lumoti Yangi shahar va Tirsakning Vazir atrofidagi qishloqlar asosida shakllangan, nisbatan kichikroq shaharlar bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrni ilgari surishga imkon beradi. Vazir XVI asrning birinchi yarmidagi ayrim yillarda mamlakatning siyosiy markazi vazifasini ham o'tagan. Xalq ommasining Eron shoxi noiblari - dorug'alarga qarshi ko'targan

¹ Абулғозий. Шажарайи турк. / Нашрга тайёрловчилар К.Муниров., Қ.Махмудов. Тошкент. Чўлпон 1992. 121-122-б.

²Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана// Соч. Т. 3. М., 1965. С. 176; Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Т.: Фан, 1957. С. 174; Толстое С.П. Но следам древнехорезмийской цивилизации. М.: Изд. АН СССР, 1948. С. 314.

harakatlari oqibatida Vazirda xokimiyat tepasiga kelgan Elbarsxonni, tarixchining yozishicha "xon ko'tardilar"¹ va Vazir bir muddat poytaxt vazifasini o'tab turdi. Buni Antoni Jenkinsonning quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi. U o'zi va xamrohlarning 1558 yilning 7 oktabr kuni "uchta birodari bilan yashagan podsho Azimxon" (Xojimxon - G.Agzamova.) istiqomat qilgan "Sellizyur" (Vazir - Gulchehra Agzamova.) qo'rg'oni xaqida yozar ekan, "Sellizyur qo'rg'oni baland tepalikda joylashgan bu yerda xon deb ataladigan hukmdor yashaydi"², - deb qayd etgan edi. Bu ma'lumotni Abulg'ozixon xam tasdiqlaydi. "... tarix xijriy to'qqiz yuz oltmish beshda, yilqi yilining oyoqi erdi.

Xojimxonni xon ko'tardilar. Ul vaqtda o'ttiz to'qquz yoshinda erdi. Taqi Vazimi berdilar"³, - deb yozadi u.

Vazir haqida Antoni Jenkinson yana quyidagilarni alohida qayd etgan edi: "Butun bu mamlakat foydalanadigan suv Oksusdan chiqarilgan ariqlardan olinadiki, bu daryoni qurishiga olib keladi. Shuning uchun u ilgari davrlardagi kabi Kaspiy dengiziga quyilmaydi. Yaqin kelajakda amalda, nafaqat butun bu mamlakat talon-taroj etilib, Oksusning suvi yetishmasligi oqibatida cho'lga aylanadi"⁴.

Darhaqiqat, yevropalik kishining bashoratona aytgan bu so'zlari yaqin kelajakda amalda, nafaqat, Vazir, balki Xorazmning ayrim boshqa shaharlari misolida ham o'z tasdig'ini topdi. Bir vaqtlar sun'iy sug'orish tizimlari rivojlanganligi oqibatida yashnagan shaharlar inqirozga yuz tuta boshladi.

Sun'iy sug'orish tizimlari shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ular shaharlar iqtisodiy hayotining rivojlanishi bilan bir qatorda bu markazlar xo'jalik aloqalarining rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega edi.

Shaharlar bir-birlari bilan turli yo'llar bilan bog'langan edilar. Xususan, suv yo'llari shular jumlasidan bo'lib, tarixchining yozishicha, "Kema ul vaqtda Urganch bilan Vazirning orasidan yurur edi"⁵. Shaharlarni bog'lagan va ularning xo'jalik hayotida muhim o'rin tutgan ushbu suv yo'li o'z o'zanini o'zgartirishi oqibatida bu, shaharlar suvsizlikka duchor bo'ldilar. Abulg'ozining yozishicha, bu voqea (yuqorida ta'kidlanganidek, uning tug'ilgan yilidan (1603) o'ttiz yil oldin sodir bo'lgan edi. Oqibatda, Urganch singari Vazir ham suvsizlikka duchor bo'ldi.

Vazir ahli ham Urganch aholisi kabi shaharni birdaniga tashlab ketganlari yo'q. Urganchda bo'lgani kabi Vazirda ham hukmdorlar shahar hayotini bir maromda ushlab turishga harakat qilganlar. Xususan, Abulg'ozining otasi Arabmuxammadxon.

Tuk qal'asi yuqorisida bu shaharlarni suv bilan ta'minlagan ariq qazdirgan. Bu haqida muarrix: "Bizning xon Tuk qal'asining yuqorisidan bir ariq qazdirib tururlar. Faqir dunyoga kelmasindin Bir yil burun Mezon bo'lganda saqasini ko'marlar erdi. Suvning oyoqi Quyg'ur bordi. Andin Achi tengiziga bordi. Yolg'iz bug'doy ekilur erdi. Otli kishi o'n kunda bug'doyning toshindin aylanib kela bilmas erdi"¹, - deb qayd etadi. 1593 yilda Vazimi qamal qilgan Buxoro hukmdori Abdullaxon ham

¹ Agzamova G. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўrtalari). Toshkent. 2017.

² Agzamova G. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўrtalari). Toshkent. 2017.

³ Agzamova G. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўrtalari). Toshkent. 2017.

⁴ Agzamova G. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўrtalari). Toshkent. 2017.

⁵ Agzamova G. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўrtalari). Toshkent. 2017.

¹ Agzamova G. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўrtalari). Toshkent. 2017.

suvsizlikka uchragan shaharni suv bilan ta'minlashga harakat qildi. Uning buyrug'i bilan qurigan ariq irmog'i yoqalab quduqlar qazilib, suv masalasi nisbatan hal qilindi. Lekin tez orada qattiq jazirama oqibatida ular ham qurib qoldilar. Bu harakatlar nafaqat Vazimi, balki Urganch va Katni ham suvsizlikdan qutqarib qola olmadi, ularning aholisi yashash joylarini tashlab ketishga majbur bo'ldilar. Abulg'ozixon 1646 yilda Urganch aholini ular uchun qurilgan yangi qal'aga ko'chirdi. Yangi qal'a bu yerda shakllangan shahar - Yangi Urganchga asos bo'ldi.

Bu voqea xaqida XIX asr muallifi quyidagilarni qayd etadi: "U (xon - G. A.) Urganch aholisini ko'chirdi, Xonqadan g'arbda qal'a qurib (ko'chib kelganlarga) ko'p yer berdi. Hozir Urganch - juda obodonlashtirilgan va gullab-yashnayotgan yer bo'lib, Xorazmning bosh savdo markazi hisoblanadi". Eski Urganch esa shu davrdan boshlab "Ko'xna Urganch" deb atala boshladi.

Ko'xna Urganch aholi tomonidan tashlab ketilib, shahar tanzzulga yuz tutgan bo'lsada, XIX asrning birinchi yarmida uning qayta tiklanish jarayoni yuz berganini kuzatish mumkin.

1851 yilda Xorazmga kelgan Eron elchisi Rizaqulixonning xisobotidan aniqlanadiki, bu davrda Ko'hna Urganchga kanal o'tkazilgan bo'lib, unda turkman-yomutlar dehqonchilik bilan shug'ullanar edilar.

"Xiva xoni Muhammad Aminxonning harakatlari bilan Ko'hna Urganch hozirda madaniy ahvolga kela boshladi" - deb yozadi u. XIX asrning 40-yillarida M.Ivanin xam Ko'xna Urganch xaqida yozar ekan: "Bu yerda yaqinda bozor ta'sis etildi va aholi ko'chib kela boshladi"², - deb qayd etadi.

Suvsizlikdan tanazzulga yuz tutgan shaharlar aholisini barpo etilgan qal'alarga ko'chirish va yangi shaharlarni bunyod etish ishlari Abulg'oziyning merosxo'ri Anushaxon (1663-1687) davrida o'zining yuqori nuqtasiga ko'tarildi. Bu hukmdor suvsizlikdan aziyat chekkan Vazir, Kat aholisini boshqa yerlarga ko'chirib, ular uchun yangi shaharlarga asos soldi. Xususan, bu hukmdor davrida Vazir ahli yangi bunyod etilgan Kichik Vazir va Chig'atoyga ko'chirilgan edi. Bu voqeani muarrix quyidagicha sharhlaydi: "O'sha asrda Vazir ahli ikki guruhga bo'linib (shahardan) ko'chdilar: bir gurux Gurlandan shimolroqda qal'aga asos soldilar, boshqasi esa xozirda Chigatoy nomi bilan mashhur Anbar va Shoxobod o'rtasida qal'a qurib, shu yerda joylashdilar".

Anushaxon davrida Yangi Kat shahriga ham asos solingan. Bu markaz ham Xorazmning boshqa shaharlari kabi suvsizlikdan iztirob chekar edi. XVII asrda Mahmud ibn Vali ob-havosi ancha salqin bo'lgan bu shahar haqida yozib, "uning bug'doyi va mevalari yaxshidir", ammo "hozirda u tashlab ketilgan", - deb ta'kidlaydi. Shaharning tashlab ketilishi sabablari haqida XIX asrga oid manba mullifi quyidagicha ma'lumotni beradi: "Anushaxon davrida Kat daryosi ko'rib qoldi va uning aholisi (farovonligi) tanazzulga yuz tutdi.

Yetti Gumbazdan shimolroqda xon ular uchun kuchli qal'a qurdi, Yormish deb atalgan ariq qazdirib, uni Oq ko'lga yetkazdi"¹. Uzunligi 96 km. ni tashkil etgan bu

² Отчет о посольстве в Хорезм Риза-Кули-хана / Материалы по истории туркмен и Туркмении. XVI-XIX вв. Иранские, бухарские и хивинские источники. Т. Под ред. В.В.Струве, А.К.Боровкова, А.А.Ромаскевича, П.П.Иванова. М.-Л.: Изд. АН СССР, 1938. С. 293.

¹ Фирдавс ал-иқбал // МИХХ. С. 454.

kanal Amudaryodan qazilgan bo'lib, Urganchdan 15 km sharqdan o'tar va Oq ko'lga quyilar edi². Shahar ahli ko'chirilgan qal'a bu davrdan boshlab Yangi Kat deb atala boshladi va shu tariqa yangi shaharga asos solindi. Xuvillab qolgan eski Katda aholi bu yerda joylashgan shayx Abbos mozorini ziyorat qilish uchun kelib turar edi. Akademik Y.G'. G'ulomovning ta'kidlashicha, XIX asrda bu yerda yana yangi Shayx Abbos (Shabbos) nomi bilan shahar vujudga keldi³.

Anushaxon davrida boshqa yangi shaharlarga ham asos solindi. Ulardan biri Shohobod edi. Anushaxon Xurosonning Mashxadini bosib olgach, "shix" unvonini qabul qildi. Bu voqeadan so'ng 1681 yilda Xiva hukmdori "Xonqadan shimolroqda va Yangi Urganch va Yangi Katdan janubroqda katta ariq qazdirib, uni Anbar va Manakka yetkazdi va suv yubordi. Anbardan sharqda u katta qal'a qurdiridi va uni Shohobod deb atadi. Pur Fayz ariqning nomi bo'lsada, hozir u Shohobod arig'i sifatida mashhur"⁴, - deb yozadi tarixchi. XVII asming ikkinchi yarmida Xiva xonligida yana bir shahar - G'ozibod vujudga keldi. Y.G'.G'ulomovning ta'kidlashicha, harbiy-strategik ahamiyatga ega bo'lgan bu shahar Abulg'ozixon nomidan qurilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas edi⁵.

Shu tariqa bu davrda Xiva xonligida Xazorasp, Xiva, Xonqa, Urganch, Shoxobod, Kat, Gurlan, Vazir va G'ozibod shaharlari mavjud edi. XVIII asming 20-yillarida Florio Beneveni Xivada beshta shahar mashhur sanalib, ular asosan, "Xiva, Azaris (Xazorasp), Kurland (Gurlan), Organch (Urganch) va Kanaxa (Xonka)"dan iborat ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Bu shaharlar, asosan, har biri loy devor bilan o'ralgan qal'alardan iborat bo'lib, odatda mahalliy muarrixlar bu holatdan kelib chiqqan holda Xiva xonligini "Besh qal'a mamlakati" deb ataganlar⁶. Poytaxt shahar Xiva esa "Besh qal'a"ga kirmagan. XIX asr muallifi Abdulkarim Buxoriyning yozishicha, Besh qal'aga - Xazorasp, Xonqa, Urganch, Kat va Shoxobodlar kirgan⁷. Xivaning Besh qal'aga kirmaganligini Munisning "Xivaga buysungan Besh-qal'a mamlakati"⁸, - deb qayd etgani ham buni tasdiqlaydi. Albatta, buni qat'iy chegaralash deb aytish mumkin emas.

Chunki, Besh qal'adan tashqari, Xiva xonligida boshqa shaharlar ham mavjud edi. Bu xususda yozgan akademik V.V. Bartold haq edi. Uning qayd etishicha, "Besh qal'a" termini Nodirshoxning 1740 yidagi yurishlari bayoni bilan eslatib o'talgan bo'lib, "u davrdan beri qal'alar soni ancha ko'paygan bo'lsada, hozir ham ishlatiladi va "besh" soniga qaysi qal'alar kirganligi haqida bahs chiqishi mumkin. Xatto, 1740 yilgacha ham ularning soni ko'p edi".

Yangi shaharlarning kelib chiqishida savdoning ahamiyati katta edi. Turli hududlar orasidagi savdo aloqalarining rivojlanib borishi oqibatida uncha ahamiyatga molik bo'lmagan ayrim qishloqlar va yashash joylarining shaharlarga aylanish jarayoni kechdi. Buxoro xonligida bunday jarayon yaqqol kuzatiladi. Buni Kattaqo'rg'on va Sherobod kuzatish mumkin. Ilgarilari uncha ahamiyatga ega

² Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Т.: Фан, 1957. С. 200;

³ Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Т.: Фан, 1957. С. 200;

⁴ Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Т.: Фан, 1957. С. 207;

⁵ Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Т.: Фан, 1957. С. 207.

⁶ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўrtalari). Тошкент. 2017.

⁷ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўrtalari). Тошкент. 2017.

⁸ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўrtalari). Тошкент. 2017.

bo'lmagan bu yerlar XIX asrning birinchi yarmida savdo atoqalarining o'sishi, iqtisodning taraqqiy etishi natijasida rivojlanib borib, shahar tusini ola bordi.

Shaharlar va shahar hayoti keng rivojlangan xududlardan biri Farg'ona vodiysi edi. XVI-XIX asrning o'rtalarida bu yerda bir qancha shaharlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari kengayib bordi, yangilari vujudga keldi. Ular jumlasiga Andijon, Axxi, O'zgan, Koson, Qo'qon, Namangan, Shahrixon, Asaka va boshqalarni kiritish mumkin. XVII asrda Maxmud ibn Vali: "Farg'ona - keng viloyat va islom chegaralaridandir. Unga tobe ko'pgina yerlarga egadir va (ularning ichida) eng mashhurlari Axsikat, Koson, O'zgan...dir... (Farg'onaning mashhur shaharlaridan) biri - Andijon bo'lib, u hozirda viloyat poytaxti vazifasini o'taydi"¹, - deb yozgan edi.

Qo'qon xonligining tashkil topishi bilan yangi poytaxt shahar Qo'qonning rivojlanib borishi oqibatida ilgarilari Farg'onat vodiysining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yetakchilik qilgan Andijonning mavqei pasayib bordi. Xonlikning siyosiy va iqtisodiy rivojlanib borishi oqibatida ayrim kishloqlar asosida yangi shaharlarning vujudga kelish jarayoni yuz berdi. Ulardan biri Namangan bo'lib, u Zaxdriddin Muhammad Bobur tomonidan - "G'aznoui Namongon" sifatida tilga olinadi². Bu shahar XVII asrga oid hujjatlarda qishloq tarzida qayd etiladi. Xususan, Buxoro hukmdorlari tomonidan Koroskon qishlog'idagi Sulton Sayid mozorining shayxlari nomiga 1643 yilda berilgan vaqf hujjatlarida Namangan qishloq sifatida tilga olindi. Tadqiqotchi I.Qosimovning fikricha, XVIII asrda esa bu qishloq o'mida shahar shakllangan³.

Qo'qon xonligida shakllangan shaharlardan yana biri Shahrixondir Bu shahar 1818 yilda Qo'qon xoni Umarxon buyrug'i bilan bunyod etilgan edi. Buxoro amirligi bilan O'ra-tepa uchun bo'lgan janglarda qo'li baland kelgan Qo'qon hukmdori Umarxon shoir Dilshod Barnoning xabar berishicha, 1816 yilda bu markazga yurish qilgan va shahar aholisining 13,5 mingini o'zi bilan olib ketgan. Olib ketilgan o'ratepaliklar xon amri bilan Qo'qondan sharqda joylashib, hukmdor sharafiga atalgan Shahrixon shahriga asos soldilar⁴. Xudoyorxon tomonidan Asaka shahriga asos solinishi bu shaharni suv bilan ta'minlagan daryo suvining yangi shaharga kelishiga va Shahrixonning suvsizlikka uchrashiga olib kelgan⁵.

Shunday qilib, O'zbekistonda XVI-XIX asrning o'rtalarida bir qator shaharlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari ba'zi siyosiy, tabiiy iqlimiy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga ko'ra tarix sahnasidan yo'qola bordilar. Ularning o'miga yangi shaharlar vujudga kela boshladi va Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynadilar. Yuqorida tahlil etilgan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, yangi shaharlarning vujudga kelish jarayonida davlatning roli katta edi. Hokimiyat tepasida turgan xukmdorlarning say-harakatlari bilan yangi shaharlarning rivojlanishi uchun kerakli moddiy asoslar yaratilgan,

¹Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. (География) Введ., пер. Б.А. Ахмедова. Т.: Фан, 1977. С. 65.

²Захриддин Мухаммед Бабури. Бабури-наме. (Записки Бабури. Пер. М. Салье. Г.: Глав. ред. энцикл., 1993. С. 51, 119. Бартольд В.В. Фергана. В.В. Бартольд. Соч. 1.3. М., 1965. С. 535.93-6.

³Жувонмардис А. XVI-XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига дойр Т.: Фан, 1965. 127, 137, 149-6.

⁴Косимов Й. Наманган ғарихидан лавҳалар. Т.: Фан, 1990. 16-6.

⁵Турсунов Н.О. Развитие городских и сельских поселений северного Таджикистана в XVIII-начале XX в. Душанбе: Дониш, 1991. С. 43.

tanazzulga yuz tutgan shaharlar aholisi yashash uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lgan yerlarga ko'chirilgan. Yangi shaharlar davlatning rahnamoligi, shahar jamiyatining turli ijtimoiy qatlamlari vakillari va unda yashagan aholi iqtisodiy faoliyati rivojining samarasi sifatida taraqqiy etib bordilar va Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari hayotida muhim rol o'ynadilar.

Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari shaharlari xududi, ichki tuzilish va tashqi ko'rinishi bilan bir qator umumiy va ayrim o'ziga xos tomonlarga ega markazlar edi. Shaharlarning ko'plariga xos umumiy xususiyatlardan biri - ularning mudofaa devorlari bilan o'ralganligida edi. Shahar devorlari ularni turli xarakterdagi tashqi xavfdan himoya qilish, shahardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni, qolaversa, undagi tartib, aholini tinch hayoti va sog'lom turmush tarzini bir maromda ushlab turishda muhim o'rin tutgan.

Devorlar aholini tashqi havfdan himoya qiluvchi vosita sifatida mahobatli va mustahkam qurilgan. Bu o'rinda XVI asrda xirotlik Zayniddin Vosifiyning Samarqand devori haqida mubolag'a bilan aytgan quyidagi so'zlari o'rindir: "Karvon Samarqand shahar darvozasiga yetkach, shunday bir shaharni ko'rdilarki, g'oyat mustahkam va mahkam. Devorning balandligi shu qadarli ediki, agar falak xo'kizi uning tepasidan o'tganda kungurasining keski qomini yirtgan bo'lardi"³.

Shaharlar devorlarining atrofi ham o'z navbatida xandaqlar bilan o'ralib, suv bilan to'ldirilgan. Xandaqlar turli chuqurlikka ega bo'lishlari mumkin edi. XVI asr muallifining yozishicha, Samarqandda shahar xandaqining chuqurligi shu qadar ediki, yer osti xo'kizi uning qari sabzavorida o'tlab yurardi"⁴.

Xandaqlar bilan birgalikda devorlar shaharlarning eng yaxshi himoya vositasi hisoblangan. Bunga muarrix Mirza Maxdixon Astrabodiyning Xazorasp xaqida yozgan quyidagi so'zlari orqali amin bo'lish mumkin: "Xandaqqa ega bo'lganligi va mahkam devor bilan mustahkamlanganligi uchun... bu qal'aga hujum qilish sog'lom fikrdan uzoq ish edi¹. Shuning uchun Nodirshox qal'ani ishg'ol qilishdan voz kechdi"². Bu ma'lumotni XIX asrga oid quyidagilar ham tasdiklaydi. Unga muvofiq, Xazorasp Xivadan keyin xonlikning eng yaxshi himoyalangan shahri hisoblanib, u ancha baland va qalin devorga ega edi.

Shahar devorlari, odatda, loydan qurilgan, ba'zan esa devor qurilishida xom g'ishtdan ham foydalanganlar. Buni 1697 yilda Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan Fedor Skibinning quyidagi ma'lumotidan ko'rish mumkin. U "Buxoro shahri qurilishi va va balandligi bilan Turkistondek", "Turkiston va boshqa shaharlar ... loy devor (paxsa G. Agzamova) bilan o'ralgan", - deb qayd etadi. Shu bilan, "ular ustiga xom g'ishtdan devor o'rnatilganligi, devorning ... balandligi 3 yarim sarjish, qalinligi esa bir sarjindan oshiq yoki kamligi, ba'zi shahar chor atrofi faqatgina g'ishtsiz loy devor bilan o'ralganini ko'rsatib o'tgan edi³.

³ Зайниддин Восифий. Бадосъ ал-вакоъ //Форсийдан Н. Норкулов тарж. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. 16-6.

⁴ Зайниддин Восифий. Бадосъ ал-вакоъ //Форсийдан Н. Норкулов тарж. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. 16-6.

¹ Мирт Мехди-хан Астрабадский. Тарих-и Надири. Перевод извлечений под ред. А.Н. Болдырева //МИТТ. С. 138.

² Мирт Мехди-хан Астрабадский. Тарих-и Надири. Перевод извлечений под ред. А.Н. Болдырева //МИТТ. С. 138.

³ Сыскное дело 1697 года о дороге в Хиву // Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. М.-Л.: Изд. АН СССР, 1932. С. 399-400.

Bu holatni “baland devor bilan o’ralgan”² Buxoro va xonlikning boshqa shaharlari misolida ham kuzatish mumkin. Xususan, B.Skibinning Buxoro devorining “loy va g’ishtdan” qurilganligi haqidagi fikrini keyingi davr mualliflari ham tasdiqlaydilar.

F.Beneveni shahar atrofidagi devor “loy va xom g’ishtdan qurilgan”⁴ deb qayd etadi. Bu ma’lumotni Mir Izzatullaning habari ham tasdiqlaydi. Shahar “devorlari xom g’ishtdan qurilgan” deb yozadi u. XIX asrda Buxoroda bo’lgan boshqa mualliflar shahar devorini “loy devor” deb ta’riflaydilar.

XVIII asrga oid xabarga ko’ra uzunligi 10-12 km.ni tashkil etgan Buxoro shahri devorining “pastdagi qalinligi” 2 sarjin, yuqoridagisi bir sarjin bo’lgan⁵. XIX asrning 20- yillarida ruxoniy Budrinning ko’rsatishicha, shahar “pastdagi qalinligi 3,5 sarjin, tepadagi qalinligi bir sarjingga ega loy devor bilan o’ralgan edi”⁶.

Xonlikdagi paxsa devor bilan o’ralgan shaharlardan biri Samarqand bo’lib, u xaqida yozgan Hofiz Tanish Buxoriy Amir Temur “xijriy yetti yuz uchinchi yilda hozir mavjud bo’lgan shaharbandni qurishga kirishdi va qisqa vaqt ichida qurib tamomladi”⁸, - deb qayd etgan edi. Bu devor keyingi asrlar davomida ham saqlanib, shaharning yaxshi himoya vositasi vazifasini o’tagan. Samarqand devori xaqida XIX asr muallifi “uning devorlari yaxshi holatda saqlangan”, - deb yozar ekan, uning ham Buxoro devorini eslatishini qayd etsa, Mir Izzatulla, “shahar devori ... loydan kurilgan”, - deb guvohlik beradi¹.

Buxoro xonligining yirik shaharlaridan biri bo’lgan Termiz ham “mustahkam devorlar bilan o’ralgan” edi. U ham “loydan” bunyod etilgan bo’lib, XVI asr muallifi Hofiz Tanish Buxoriyning ko’rsatishicha, u “juda qudratli” edi².

Xonlikning boshqa katta va kichik shaharlari ham paxsa devorlar bilan o’ralgan edi. Buni ko’rilayotgan davrga oid ko’pgina manbalarning ma’lumotlari tasdiqlaydi³. Jumladan, XIX asr o’rtalarida Buxorodan asirlikdan qaytgan Kornilo Suvorovning guvohlik berishicha, Kattaqo’rg’on, Ziyovuddin, Karmana, Yangiqo’g’on, Kerki, Qarshi, Jizzax ham “loy devor” bilan o’ralgan edi. Bu ma’lumotni shu asrning boshqa mualliflari ham tasdiqlaydilar.

Xususan, ulardan biri Jizzax hakida yozar ekan⁴, uni “shahar mamavqeiga yetishuvchi katta qishloq” deb atab, uning paxsa devor bilan o’ralmaganligini qayd

² Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 316.

⁴ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 316.

⁵ Российского унтер-офицера Ефремова ныне коллежского Ассессора десятилетние странствование и приключения в Бухарин, Хиве, Персии, Индии и возвращение оттуда через Англию и Россию. СПб. 1736. С. 66-67.

⁶ Русские в Бухаре в 1820 году (Записки очевидца) // Туркестанский сборник. Т. 239. СПб., 1880. С. 21.

⁸ Хофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад Бухорий. Абдулломома (Шарафномаи шокий)/ Форс. С. Мирзаев тарж.; Нашрга гайерловчи. сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б.А. Аҳмедов.Т.: Фан, II жилд. 1969. 241-6.

¹ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 336.

² Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 326.

³ Путешествие Мир Иззет Уллы от границы Кокандского ханства до города Самарканда // Труды САГУ. Новая серия. Вып. ХС. Ист. Кн. 14. Сер. История. Т., 1957. С. 201.

⁴ Хофиз Таниш Бухорий. Абдулломома. - II жилд. 241-6.; Хафиз-и Таниш Бухари. Шарафнома-йи шахи. 4.2. С. 231.

etadi⁵. Buxoro xonligining "loy devor bilan o'ralgan shaharlaridan yana biri Qorako'l⁶ va "juda katta devor va chuqur handaq bilan o'ralgan Kattaqo'rg'on edi.

Chegaralarda joylashgan shaharlarni juda mustahkam himoya qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Shunday shaharlardan biri Amudaryoning ikki qirg'og'ida joylashgan Kerki shahri edi. Xonlikning "chegara qal'asi" hisoblangan bu shaharning bir qismi, XIX asr malumotlariga ko'ra, daryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan bo'lib unda faqat to'rtta to'p bor edi. Shaharning asosiy qismi esa daryoning chap qirg'og'ida joylashgan bo'lib, u "uch qavat loy devor va o'n oltita cho'yan va oltita mis to'plar"⁷ bilan himoyalangan.

Buxoro xonligida kuzatilgani kabi, Xiva xonligi shaharlarida ham ularni paxsa devorlar bilan o'rab olish an'anasi mavjud bo'lgan. XVI asrda Antoni Jenkinson Urganch haqida yozar ekan, shahar tekislikda joylashgan va uzunligi 4 mil atrofidagi loy devorlar bilan o'ralganligini qayd etadi⁸. Bu o'rinda XVI asr hukmdori Sufiyonxonning o'g'li Yunus-xonning "Urganch devorining xodalari orqali" undan o'tganligini va "shahar ichiga kirganligi hakidagi ma'lumot diqqatga sazovor⁹.

XVIII asrda Xivada bo'lgan rus geodezista I.Muravin Xivaliklar hukmronligi ostida sakkizta loydan qurilgan shahar bor, (ularning) devorlarining balandligi besh va olti sarjin va atrofida kanallar (xandaqlar - G.A.) qazilgan"¹, - deb qayd etgan. Bu ma'lumotni XIX asrning 20-yillariga oid materiallar ham tasdiqlaydi. Ularga ko'ra Xiva xonligining yirik shaharlari jumlasiga Xazorasp, Xonqa, Gurlan, Xujaylilar ham kirgan bo'lib, "o'sha yerdagi boshqa shaharlar kabi ularning xammasi loy devor va xandaqlar bilan o'ralgan"² edi. Bu davrdagi mualliflardan N.Muravyev Kat va Shovot shaharlarining ham devorlar bilan o'ralganini eslatib o'tadi³.

Xiva xonligi shaharlarini o'ragan devorlar xaqidagi ancha aniq ma'lumotlar XIX asrning 40-yillariga oid bo'lib, ularga ko'ra xonlikning ko'pgina shaharlari paxsa devorlar va xandaqlar bilan o'ralgan edi⁴. Jumladan, Yangi Urganch "225 sarjin uzunlikka, 200 sarjin kenglikka ega loy devor bilan o'ralgan edi"⁵. Xonlikning kuchli qal'alaridan bir hisoblangan Xozorasp esa "turt burchak ... loy devor bilan o'ralgan. Devorning har tomoni 185 sarjin uzunlikka va 2 sarjin balandlikka ega" edi. Xonqa shahri esa kvadrat shaklidagi ... loy devor bilan o'ralgan bo'lib, ... devorning har tomoni 100 sarjin"dan iborat edi. Xonlikning Shoxobod shahri ham "to'rtburchak loy devor bilan o'ralgan bo'lib... Uning balandligi 2,5 sarjin, har tomonining uzunligi 200 sarjindan iborat" edi.

⁵ Путешествие Мир Изет Уллы от границы Кокандского ханства до города Самарканда // Труды САГУ. Новая серия. Вып. ХС. Ист. Кн. 14. Сер. История. Т., 1957. С. 4.

⁶ Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Военное рекогносцировка части Бухарского ханства, произведенная в 1883 г. ГИИ. Капитаном Архизоном. СПб., 1884. С. 218.

⁷ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 33б.

⁸ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 33б.

⁹ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 33б.

¹ Гладышев и Муравин. Приложения к показаниям Муравина... Журнал описаниям киргиз-кайсакам, каракалпакам, аралыкам и хивинцам... Описание месяца ноября 1740 г. С. 74.

² О нынешнем состоянии некоторых областей и городов в Средней Азии // Азиатский вестник. СПб., 1826. С. 26.

³ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. М., 1822. С.31.

⁴ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. М., 1822. С.31.

⁵ Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства // Записки Императорского Русского Географического общества. СПб, 1851. Кн. 5. С. 103.

Kat shahri ham “uzunligi 500 sarjinga teng to’rtburchaklı devor bilan o’ratgan” edi⁶.

Xonlik poytaxti - “zabt etib bo’lmaydigan qal’a”⁷ sifatida mashhur bo’lgan Xiva ikkita devorga ega edi. Shaharning asosini tashkil etgan ichki shahar - Ichon qal’ani qamrab olgan devorni turli mualliflar o’z asarlarida qayd etib o’tadilar. Xususan, XVIII asrning 40-yillarida shaharga tashrif buyurgan geodezist D.Gladishevning ko’rsatishicha, bu markaz mustahkam devor bilan o’rab olingan edi⁸. 1753 yilda Xivada bo’lgan savdogar Danila Rukavkin shahar “To’rtburchak shaklidagi loydan qurilgan devor bilan himoyalangan, burchaklarda, shuningdek, xavfli yerlarida “korovullar uchun budkalar (minoralar - G.A.) o’rnatilgan”, - deb ko’rsatib o’tadi⁹.

XIX asrning 20-yillarida esa “Poytaxt Xiva shahri katta emas, atrofi uchta darvozali g’isht devor bilan o’ralgan bo’lib, qalinligi 10 sarjin, chuqurligi 2 sarjin, Amudaryo suvi bilan to’ldiriladigan kanal (xandaq - G.A.) bilan o’ralgandir, - deb qayd qilinadi. XIX asrning 40-yillarida Xivada bo’lgan shohidlardan biri shaharning ichki qismi - Ichon-qal’a devorining ancha aniq ta’rifini beradi. Uning yozishicha, Ichon-qal’a devori “shaharning asosiy qismining chegaralab, uncha katta bo’lmagan tepalikda qurilgandir va ancha uzunchoq to’g’ri to’rt burchak shakliga ega... Burjlarida to’rtta minora bo’lib, uning uzunligi 320, kengligi 200 sarjin bo’lib, aylanasi uzunligi “2 chaqirimu 40 sarjinga teng devorning balandligi 3,5 sarjin, eni past qismida 4 sarjin, tepa qismida 1 juftdan iborat” edi. (chaqirim 1,06 km.ga teng). Bu devorning “qachon qurilganini hech kim eslamaydi”¹, - deb qayd etgan edi XIX asr muallifi.

Xivaning tashqi qismi - “Dishan qal’a” devori esa 1842 yilda oliy hukmdorning “Buxoroga yurishidan bir oy oldin” qurilgan edi.

Devor ichki shahar bilan birga uning tarkibiga kirgan chekka hududlarni qo’shib o’rab olgan edi. Yangi devor oval shaklida bo’lib, uning aylanasi 6 chaqirimu 100 sarjin, uning boshqa o’lchamlari ichki devor bilan bir xil - deb qayd etgan edi shaharni tekshirgan va aniq ma’lumotlar qoldirgan G.I.Danilevskiy. Boshqa bir muallifning ko’rsatishicha, shahar tashqi devorining balandligi 1 sarjin, qalinligi esa devorning pastki qismida “to’rt fut”, yuqori qismida esa “bir fut”dan iborat edi². Bu devor atrofi ham handaq bilan o’ralgan bo’lib, “juda kam suv” bilan to’ldirilgan edi.

⁶ Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства // Записки Императорского Русского Географического общества. СПб, 1851. Кн. 5. С. 103.

⁷ Мирза Мехди-хан Астрабадский. Тарих-и Надири. Перевод извлечений под ред. А.Н.Болдырева//МИТТ. С.138.

⁸ Агзамов Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 346.

⁹ Путешествие из Оренбурга в Хиву самарского купца Рукавкина в 1753 году с приложением разных известий о Хиве с отдаленных времен доныне // Туркестанский сборник. Т. 386. СПб. 1883. С. 389

¹ Костенко Л. Город Хива в 1873 году // Военный сборник. 1879. №12. С. 321-340.

² Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства // Записки Императорского Русского Географического общества. СПб, 1851. Кн. 5. С. 103.

Ayrim Xiva shaharlari devorlar bilan o'ralmagan edi. Shohidlarning guvohliklariga ko'ra, ular jumlasiga "devorlari yo'q Toshxovuzni kiritish mumkin edi"³.

Xiva xonligi shaharlarini o'rab olgan devorlarning qurilishi ham diqqatga sazovordir. Ularni qurishda mahalliy xom ashyo – daraxt ustunlari butular va tuproqlardan foydalanilgan. Devor, XIX asrning 40-yillariga oid ma'lumotlarga ko'ra, quyidagi usulda qurilgan. Har "o'n sarjindan" keyin yerga terak ustunlari mustahkamlangan. Ular orasiga bir-biriga bog'langan butalar qo'yilgan. Shu tariqa vujudga keltirilgan devor asosi loy bilan chaplangan. Bunday devorning pastki qismi "4 sarjingacha qalinlikda" bo'lib, devorning qalinligi tepasiga tomon torayib borgan. Unga har "10-25 sarjindan keyin" loy tirgovuchlar qo'yilgan. Bu himoya vositasining balandligi asosan "4 sarjindan" iborat bo'lgan. Devorda qurol uchun tuynuqlar qilingan edi⁵.

Qo'qon xonligi shaharlari devorlar bilan o'ralishi jihatidan Buxoro va Xiva xonliklaridan farq qilar edi. XIX asr rus mualliflari Qo'qon, shaharlarining devorlar bilan o'ralmaganligini qayd etadilar. Xususan, A. Kun "...Marg'ilondan boshlab, biz devor bilan o'ralgan shaharlarni juda kam uchratamiz"⁶, - deb yozadi. XIX asr mualliflarining bu tarzda fikrlari Qo'qon xonligining asosan yangi shaharlariga taalluqlidir. Chunki, XVIII asr boshlaridagina Buxoro xonligidan ajralib chiqib, tashkil topgan Qo'qon xonligida Farg'ona vodiysining qadim va yangi shaharlari joylashgan edi. Ularning ko'plari devorlar bilan o'ralgan edi¹. Shunday shaharlardan biri Andijon bo'lib, uning devor bilan o'ralganligi xaqida Zahiriddin Muhammad Bobur ham guvohlik beradi². "Uch darvozasi bor"³, - deb yozadi u. XVII asr muallifi Shox Mahmud ibn Mirza Fozil Churas ham 1660 yilda Andijonning mo'g'ul xoni Abdullaxon tomonidan qamal qilinishi voqealari bayonida shahar devorlariga o'rnatilgan Xoqon va Mirza darvozalarini eslatib o'tadi. Xususan, bu muallif "xon o'z qo'shinlari bilan Xoqon darvozasi qarshisida, Yo'lbarsxon va Shoxbozbek esa Mirza darvozasi qarshisida turdi"⁴, - deb qayd etadi. Andijon kabi Marg'ilon ham devor bilan o'ralgan edi. XIX asr boshlarida bu shahar xaqida Mir Izzatulla: "Shahar loy devor bilan o'ralgan bo'lib, u hozirda buzilib ketgan"⁵, - deb qayd etgan edi. Bu ma'lumotni keyingi davr muallifi ham tasdiqlab, "shahar devor bilan o'ralgan"⁶, - deb yozadi.

XIX asr boshlarida Qo'qon xonligi tasarrufiga kiritilgan shaharlardan yana biri Toshkent bo'lib, u ham devor bilan o'rab olingan edi.

³ Дневник переводчика Армянина Турпасава посланного в 1834 г. из Ново-Александровского укрепления в Хиву. С. 131.

⁴ Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства // Записки Императорского Русского Географического общества. СПб., 1851. Кн. 5. С. 102.

⁵ Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине // Военный сборник. СПб., 1876. С. 417.

⁶ Путешествие Мир Иззет Уллы от границы Кокандского ханства до города Самарканда // Труды САГУ. Новая серия. Вып. XC. Ист. Кн. 14. Сер. История. Т., 1957. С. 201.

² Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. Т.: Юддузча, 1990. 6-6.

³ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. Т.: Юддузча, 1990. 6-6.

⁴ Путешествие Мир Иззет Уллы от границы Кокандского ханства до города Самарканда // Труды САГУ. Новая серия. Вып. XC. Ист. Кн. 14. Сер. История. Т., 1957. С. 48.

⁵ Путешествие Мир Иззет Уллы от границы Кокандского ханства до города Самарканда // Труды САГУ. Новая серия. Вып. XC. Ист. Кн. 14. Сер. История. Т., 1957. С. 48.

⁶ Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине // Военный сборник. СПб., 1876. С. 425.

Shahar devoriga oid ancha aniq ma'lumotlar Nur Muhammad Alimovga tegishlidir (1735). "Shahar to'rtburchak g'ishtin devor bilan o'ralgan bo'lib, "shahar devori shunday kengdirki, unda ikki kishi bemalol yura oladi, qorovullar hujum qilib kelayotgan dushmani ko'rishlari bilan otda chopib himoyaga tayyorgarlikka chaqiradilar"⁷, - deb qayd etadi u. Shaharda 1800 yilda bo'lgan M.Pospelov va T.Bumashevlar "balandligi 26 fut, qalinligi qalinligi tepasida 3 fut, pastda esa 6 futga yetuvchi devor bilan o'ralgan, uning aylanasi 18 chaqirimga teng" - deb ko'rsatadilar⁸. Toshkent devorlari haqida yozgan xorijlik Potanin esa uning uzunligi "20 chaqirim atrofida" ekanligini ko'rsatadi⁹.

Xonlikda devorlar bilan o'ralgan shaharlar bilan birga bunday himoya vositalari bo'lmagan savdo-iqtisodiy markazlar ham mavjud edi. Buni yangi shakllangan shaharlar misolida ko'proq kuzatish mumkin. Ulardan biri Namangan edi. XIX asr boshlarida F.Nazarov "Namangan ham xech qanday istehkomga ega emas", - deb yozgan edi. Bu ma'lumotni shu asrning 60-yillariga oid quyidagi ma'lumot ham tasdiqlab, unda shunisi qiziqarliki, u hamma Qo'qon shaharlari kabi hech qanday istehkomlarga ega emas, - deb xabar beriladi.

1812 yilda shaharda bo'lgan Mir Izzatulla xonlik poytaxtini "Devorlar bilan o'ralmagan katta shaxar", - deb ta'riflaydi. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, "Qo'qon Sirdaryo yaqinidagi keng pasttekislikda joylashgan"¹. Uning atrofida xech qanday istehkom yo'q"² edi. Bu ma'lumotlarni YE.K.Meyendorfnng XIX asrning 20-yillarida yozilgan quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi: "Shahar atrofida, saroyini o'ragan loy devordan boshqa devor ko'rinmaydi".

Poytaxt shahar faqat 1842 yildagina devor bilan o'rab olindi. Bu o'rinda Buxorodan asirlikdan qaytgan Ivan Marchenkovning Qo'qon devorlarini qurishga Buxoro amiri asos solganligi xaqidagi ma'lumoti diqqatga sazovordir. Uning guvohlik berishicha, shaharni zabt etgan amir "Qo'qonga shahar devorlarini qurish uchun o'z ustalarini yuborgan"³. Bu devorning XIX asr ikkinchi yarmidagi holati xaqida "Shahar istehkomi hamma O'rta Osiyo shaharlariga xos loy devordan iborat bo'lib, ayrim joylarda, ayniqsa, shaharning janubida joylashgan Kattakon sharsharasi va shimoldagi Sarmozor darvozasi oldida ancha yomondir. Bir so'z bilan aytganda devor tagidan Katta shahar va Kattakon soylar shaharga kirgan va undan chiqqan yerlarda" yomon edi⁴, - deb qayd etilgan edi.

Shaharlar devorlari burj va kunguralar bilan ishlanar edi. Bu o'rinda Samarqand devori xaqidagi N.Xannikovning quyidagi ma'lumoti diqqatga sazovordir: "U anchagina to'g'ri to'rtburchak, aniqrog'i trapetsiya ko'rinishida ... Bu devor ko'p jihatdan Buxoroning devoriga o'xshaydi: o'sha balandlik va qalinlik, o'sha tuynuklar va burjlar deb ataluvchi ayrim aylana tarzida turtib chiqqan do'nglar"

⁷ Агзамова Г. Узбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 376.

⁸ Поездка Поспелова и Бурнашева в Ташкент в 1800 году // Туркестанский сборник. Спб., 1833. Т.343. С. 27.

⁹ Агзамова Г. Узбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 376.

¹ Агзамова Г. Узбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 386.

² Нынешнем состоянии некоторых областей и городов в Средней Азии // Азиатский вестник. Спб., 1826. С. 229.

³ Агзамова Г. Узбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 386.

⁴ Хорошан А.П. Очерки Коканда // Сборник статей, касающихся Туркестанского края // Туркестанский сборник. 1.116. Спб., 1876. С. 40.

- deb yozadi⁵. Qadimdan mavjud bo'lgan shahar devorlarining burjlar va kunguralar bilan ishlanganligini Xiva xonligi shaharlari misolida xam kuzatish mumkin. 1819-1820 yillarda Xivaning besh shahari: Xiva, Urganch, Shovot, Kat va Gurlanning "devorlar bilan o'ralgani va shuning uchun xivaliklar tomonidan qat'a deb atalishi" xaqida yozgan N.Muravyev "devorlarning ayrim yerlarida minoralar ko'rinish, ular o'rtaida yarim dumaloq burjlar o'rnatilgan edi", -deb qayd etadi.

Shahar devorlari doimo ta'mirlanib turilgan. Bu ishga aholining barcha qatlamlari jalb etilib, ular orasida devorlarni tuzatishda ishtirok etishni ham nazarda tutgan "shahar majburiyati" bor edi⁶. Xususan, Toshkent devori shaharning turli qismlari aholisiga taqsimlab berilgan bo'lib, ular uni doimo ta'mirlab turganlar. Shahar devorlarini, ayniqsa, markaziy xokimiyat kuchli bo'lgan yillarda ta'mirlash ishlari faol olib borilgan. Jumladan, Buxoro xukmdori Abdullaxon II tomonidan ko'p shaharlarda devorlarni tiklash, ta'mirlash ishlariga katta e'tibor qaratilgan. Muarrix Hofiz Tanish Buxoriyning yozishicha, oliy xukmdor Shahrisabzga kelgan chog'ida "uning buzilgan devorlarini qayta tiklashni buyurgan". Shaharlar rivojlanib, kengayib borishi natijasida shahar devorining ayrim qismlari qayta qurilgan. Buni Buxoroga oid aniq misollar orqali kuzatish mumkin. Bu shahar xududi shayboniylardan Ubaydullaxon, uning o'g'li Abdulazizxon va Abdullaxon II davrlarida ancha kengaygan. Xususan, Abdulazizxon xukmronlik qilgan yillarda shaharning yangi devori qurilib, Abdullaxon II davrida esa, uning g'arbiy qismi qaytadan tiklangan¹. Ayniqsa, bu qismdagi shahar devorlari nari surilib, Sumiton qishlog'i shahar xududiga kiritilgan edi². Bu holatni boshqa shaharlar misolida ham kuzatish mumkin. Xususan, Buxoroning chegara shaharlaridan biri hisoblangan Kerkida Maxmud ibn Valining ko'rsatishicha, XVII asrda shahar devori buzulib ketgan edi³.

XIX asr muallifining ushbu shaharni o'ragan uchta devor xaqidagi ma'lumoti bu o'rinda diqqatga sazovordir. Uning ko'rsatishicha: "Devorlar loydan qilingan bo'lib, ancha mahkam edi. Ayniqsa, pastki devor mahkam bo'lib, uning qalinligi besh fut, balandligi o'n ikki futdan iborat edi". Bu habar bir tomondan Buxoro xonligida chegara shaharlariga katta e'tibor bilan qaraganliklari, ularni himoyalash maqsadida bir nechta devorlar bilan o'rashga harakat qilganliklariga ishora bo'lsa, ikkinchi tomondan, shahar xududining qisman kengayib borganligidan datolat beradi. Bunday xolni boshqa shaharlar misolida xam kuzatish mumkin. Xususan, XIX asrning 40-yillarida N.Xanikov Qarshi xaqida yozar ekan, shahar "uchta konsentrik devor bilan o'ralgan bo'lib... ularning birinchisi shaharni qo'rg'onidan ajratib turadi, ikkinchisi eski shahar chegarasi vazifasini o'taydi, uchinchisi esa yangi shaharni atrofdagi qishloqlardan ajratib turadi"⁴, - deb qayd etgan edi.

Mamlakatdagi siyosiy hayot taqozosi va tashqi xavf kuchaygan davrlarda ayrim shahar hamda qishloqlarni devorlar bilan o'rab olish ishlariga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, XIX asrning 40-yillarida Buxoro xonligi bilan munosabatlari keskinlashib ketgan Xiva xoni ayrim shaharlarni devorlar bilan o'rab olish haqida

⁵ Ханыков Н. Самарканд. Рассказ очевидца // Русский инвалид. 1868. № 161. С. 201.

⁶ Шишкин В.А. Архитектурные памятники Бухары. Т.: УзФан. 1936. С. 77.

¹ Гребенкин А.Г. Родословная Мангытской династии // Гуркестанские ведомости. 1871. №4.

² Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўрталари). Тошкент. 2017. 386.

³ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўрталари). Тошкент. 2017. 386.

⁴ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўрталари). Тошкент. 2017. 396.

buyruq bergan. Shu davr muallifi Pitnak haqida yozar ekan, “Olloqulixon 1842 yilda uni devor bilan o‘rab olishga buyruq berdi, lekin ish boshidanoq to‘xtab qoldi”, - deb yozadi. Buni Buxoro xonligi shaharlari misolida xam kuzatish mumkin. Xususan, Doniyolbiy davrida “Zarafshonda ... talonchilar to‘dasi xujumidan saqlash maqsadida juda ko‘p qo‘rg‘onlar qurilgan. Xatto, kichkina qishloqlar ham devorlar bilan o‘ralgan edi”. Ayrim shaharlarni yangi devorlar bilan o‘rab olinishiga qaramay, XUSH-XIX asrning birinchi yarmida ba‘zi shaharlar devorlari puturdan ketib borar edi. Xususan, Florio Beneveni XVIII asrning 20-yillaridayoq “loydan qurilgan” Buxoroning shahar devorlarin “tez-tez tushib turishi”ni qayd etgan bo‘lsa⁵, XIX asrning 40-yillarida “Shahar devori butun uzunligi davomida tashqi tomondan ancha yaxshi holatda, ichki tomondan esa u nurab bormoqda”, - deb ko‘rsatilgan edi. XIX asr muallifi Samarqand haqida yozib, uning “boshqa O‘rta Osiyo shaharlaridagi kabi ayrim joylarida nurab tushayotgan loy devor”ini eslatib o‘tadi⁶.

Shahar devorlarining XIX asr o‘rtalariga kelib nurab borganligini Qo‘qon xonligida asirlikda bo‘lgan sibirlik kazaklar Milyushin va Batarishkinlar (1849-1852) ham tasdiqlab, Turkiston shahri “ko‘p yerlari nurab ketgan devor bilan o‘ralganini” qayd etganlar. XIX asrning 20-yillariga oid ma‘lumotlardan ayon bo‘ladiki, Toshkent devorining ayrim qismlari ham bu davrga kelib “nurab borayotgan” edi¹.

Xiva xonligidagi shahar devorlari ham XIX asr o‘rtalarida ancha puturdan ketgan edi. Buni shu asr muallifining quyidagi so‘zlari ham tasdiqlaydi “Darvozalar oldida qorovullar turishiga qaramasdan o‘g‘irlangan otlar osonlik bilan nurab tushgan shahar devorlaridan olib o‘tiladi.

Xonlikdagi ayrim shaharlar devorlari butunlay puturdan ketgan hollar ham kuzatilgan. Buni Gurlan misolida kuzatish mumkin. XIX asrning 70-yillarida “Qachonlardir bu yerda shahar atrofida devor bor edi, lekin hozir faqat qayerlardadir uning izlari ko‘rinadi, shuningdek, shimoliy tomonda yarim xarobaga aylangan shahar devorlari saqlanib qolgan”², - deb ta’kidlangan edi.

1840 yilga oid ma‘lumotlarga ko‘ra Yangi Urganch shahrining devorlari ham puturdan ketgan edi. 1834 yilda Xivaga kelgan arman tarjimoni Turpayevning ko‘rsatishicha, Shovot shahrining devorlari ham “qisman buzulib ketgan” edi³.

XIX asrning birinchi yarmiga kelib, ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, shahar devorlari o‘zlarining harbiy istexkom sifatidagi ahamiyatini yo‘qota borgan va shaharni mirshablar nazorati ostida saqlash imkonini beruvchi vosita vazifasini o‘tagan⁴. Buni shu davr mualliflari bir necha bor ta’kidlab o‘tganlar.

Xususan, Buxoro devori haqida yozgan N. Xanikov, “u xech bir holatda ham shahar himoyasi bo‘lib xizmat qila olmaydi”⁵, - deb ko‘rsatgan edi. Xiva shaharlari

⁵ Хорошхин А.П. Самарканд (Листки из памятной книжки) // Сборник статей. касающихся до Туркестанского края А.П. Хорошхина. Спб., 1876. С. 208.

⁶ Показания сибирских казаков Миллюшина и Батарышкина, бывших в плену у коканцев с 1849 года по 1852 году // Вестник ИРГО. 1856. Т. 17(11). С. 26.

¹ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўрталари). Тошкент. 2017. 39б.

² Кун А. Культура оазиса низовьев Аму-Дарьи // Материалы для статистики Туркестанского края. Спб., 1876. Был. IV. С. 240.

³ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўрталари). Тошкент. 2017. 41б.

⁴ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўрталари). Тошкент. 2017. 41б.

⁵ Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. С. 79-80.

devorlari haqida yozgan G.I.Danilevskiy, ular "hech qanday harbiy ahamiyatga ega emas", - deb qayd etadi⁶.

Shahar devorlari uni egallash mumkin emasligi haqida tashqi taassurot tug'dirsada, amalda u faqat ushbu markazda mirshablar nazoratini o'rnatish, boj va boshqa soliqlarni undirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Harbiy harakatlar avj olgan paytlarda esa, u shahar himoyasi vositasi sifatidagi rolini bajara olmagan. Devorlar oldida, Buxoro shahri misolida kuzatilganidek, bojxona, saroy qo'riqchilari, qo'shin ham joylashishi mumkin edi. Ayrim shaharlarning devorlari uncha katta va qalin emas edi.

Ulardan biri Shahrisabz bo'lib, bu markaz haqida XIX asr o'rtalarida shunday yozilgan edi: "Shahar yupqa, odam bo'yi balandligidagi loy devor bilan o'ralgan"¹. Bu ma'lumotni shohidlardan biri quyidagi tarzda tasdiqlaydi, shahar odam bo'yidan biroz balandroq yupqa loy devor bilan o'ralgan"².

Bir qator umumiy xususiyatlarga ega Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari shaharlari devorlari ayrim o'ziga xos tomonlari bilan bir-birlaridan farq qilar edi. XIX asming 30-yillarida I.V. Vitkevich "Xiva shaharlarining devorlari juda yomon"³, - deb ko'rsatgan bo'lsa, Xiva shaharlari haqida yozgan shu asr rus mualliflaridan biri ularning loy devorlar va suv to'ldirilgan xandaqlarga egaligi, lekin bu devorlarning Buxoro va Qo'qon xonligi shaharlari devorlaridan past va yupqaroq ekanligini qayd etgan emas⁴.

Xonliklar shaharlarining devorlari qo'shni mamlakatlar devorlariga o'xshar edi. Xususan, YE.K.Meyendorf "Buxoro devorlari Eronning ko'pgina shaharlarini uragan devorlarga o'xshaydi", - deb ko'rsatib o'tgan edi⁵. Devorlarga darvozalar o'rnatilgan bo'lib, ulardan boshlangan yo'llar shaharlarni yaqin qishloqlar, qo'shni shaharlar, uzoq va yaqin mamlakatlar bilan bog'lar edi. Darvozalar soni ko'p xollarda shaharlarning katta-kichikligi, ularning savdo – iktisodiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi mumkin edi. Xususan, Buxoroda bir qancha darvozalar bor edi. Fedor Skibinning (1697) ko'rsatishicha, Buxoroda "unga kirish uchun o'n ikkita darvoza" mavjud bo'lgan⁶. XVIII asming 20-yillarida Buxoroda bo'lgan F.Beneveni ham shahar darvozalarining sonini 12 ta deb ko'rsatadi. 1812-1813 yillarda Mir Izzatulla esa "Buxoro 11 darvozaga ega"⁷, - deb habar beradi. Uning bu ma'lumotini XIX asming 30-yillarida I.V.Vitkevich ham tasdiqlar ekan: "Aytishlaricha, darvozalar 12 ta. Men buxoroliklarni ularni nomma-nom aytishga majbur qilganimda doimo bitta darvoza yetmas edi. Keyinchalik eshitdimki bitta darvoza tuproq bilan berkitib tashlangan ekan", - deb qayd etadi⁸.

⁶ Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства // Записки Императорского Русского Географического общества. СПб, 1851. Кн. 5. С. 103.

¹ Маньковская Л.Ю. Типологические основы: зодчества Средней Азии (IX-начало XX в.). Т.: Фан, 1980. С. 67.

² Галкин М.Н. О Шехри-Сабзской области Бухарского ханства // Известия Императорского Русского Географического Общества. 1865. Т.1. С. 134.

³ Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демсёна и И.В. Виткевича). М.: Наука, 1983. С. 92.

⁴ Соболев Л.Н. Обзор доступов к Хивинским ханству и краткие сведения о нем. Военно-статистический очерк // Военный сборник., 1873. Кн. 5-6. С. 161.

⁵ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга Бухару. С. 95.

⁶ Сыское дело 1697 года о дороге в Хиву. С. 400.

⁷ Путешествие Мир Иззет Уллы от границы Кокандского ханства до города Самарканда // Труды САГУ. Новая серия. Вып. ХС. Ист. Кн. 14. Сер. История. Т., 1957. С. 200-201.

⁸ Записки о Бухарском ханстве. С. 98.

XIX asr birinchi yarmida shaharda bo'lgan shohidlar uning darvozalarining quyidagi nomlarini keltiradilar: **Mozor, Samarqand, Imom, O'g'lon, Talipoch, Shergaron, Qorako'l, Shayx Jalol, Namozgoh, Sallaxona, Kavola yoki Qarshi**⁹. Ba'zi tadqiqotchilar bu darvozalarining ayrimlari, xususan, Shayx Jalol, **Qorako'l, Shergaron va Talipoch** Abdullaxon II davrida qurilgan bo'lishi mumkinligini qayd etib o'tadilar¹⁰.

Xonlikning boshqa shaharlari ham o'z darvozalariga ega edi. Jumladan, XVI asr muallifi Samarqandning janubida joylashgan So'zangaron, g'arbida joylashgan Choharraxa, shimoliy tomonida joylashgan - Oxanin darvozalarining nomlarini keltiradi¹. Zahiriddin Muhammad Bobur ham Samarqandning **Oxanin, So'zangaron, Shayxzoda, Feruza, Gozuriston** darvozalari nomlarini sanab o'tgan².

Samarqand darvozalarining nomi davrlar o'tishi bilan o'zgarib turgan. Masalan, Hofiz Tanish Buxoriy eslatib o'tgan "Qozuriston" darvozasi "Karizgoh" darvozasi nomi ostida ham ma'lum bo'lib, u Namozgoh, Andgoh, Xo'ja Axror darvozasi sifatida ham mashhur edi³.

Buni XIX asr muallifi Abu Toxirxoja Samarqandiyning quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi. U "Korizon darvozasi boshqa ot bilan aytganda Xoja Axror darvozasi"ning nomini o'z asarida keltiradi⁴. Ayrim kichikroq shaharlarda darvozalar soni kamroq edi. Ulardan biri Jizzax bo'lib, asirlikdan qaytgan Kornilo Suvorovning yozishicha, uning to'rtta darvozasi bor edi. Shohidlardan biri Kattaqo'rg'onning "Payshanba darvozasi"ni eslatib o'tadi. Yirik savdo-iqtisodiy markazlardan bo'lgan Toshkent ham bir qancha darvozalariga ega edi. Karl Miller (1739) esa undagi darvozalar sonini 8 ta deb ko'rsatdi. Bular - Samarqand; Beshyog'och, Terserek, Shixan-Tauger (Shayxantahur), Taxtapus (Taxtapul), Tarsaxan, Kapkan, Kochki (Ko'kcha)⁵. XIX asr boshlarida shahar devori bo'ylab 12 ta darvoza mavjud edi. Buni 1813-1814 yillarda Toshkentda bo'lgan F.Nazarov ham tasdiqlab, "shahar devorida 12 ta darvoza borligi haqida habar beradi. XIX asr oxirida, tarixchi Muhammad Solih Toshkandiyning ko'rsatishicha, shaharda 12 ta darvoza bo'lib, ular ma'lum urug'larga topshirilgan edi. Shuning uchun darvozalar bu urug'lar nomi bilan atalishini qayd qilar ekan, muarrix darvozalarining quyidagi nomlarini keltiradi: Qiyot, Turklar, O'zbek, Taxtapul, Qorasaray, Chig'atoy, Su'boniyon, Ko'kcha, Kamondaron, Qang'li, Beshyog'och, Qatag'on⁶.

Toshkent darvozalari haqida keltirilgan bu turli ma'lumotlar shaharning XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida kengayib borganligi va uning savdo-iqtisodiy aloqalari doirasi o'sib borganligidan dapolat beradi. Samarqand misolida kuzatilgani kabi bu shaharda ham darvozalarining nomi o'zgarib borgan. Buni quyidagilardan yaqqol

⁹ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 95; Записки о Бухарском ханстве. С. 56-57,99.

¹⁰ Ремпель Л.И. Из истории градостроительства на Востоке (Материалы по планировке старой Бухары) // Искусство зодчих Узбекистана. Т., 1962. С. 220.

¹ Хафиз-и Таниш Бухари. Шарафнаме-йи шахи. Ч. 2. С. 195.

² Захриддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Нашрага тайёрловчи П. Шамсиев. Т.: Юдузча, 1990. 6-6.; Захриддин Мухаммад Бобур. Бобурнома 72-75 б.

³ Хафиз-и Таниш Бухари. Шарафнаме-йи шахи. Ч. 2. С. 197.

⁴ Абу Тоҳирхожа Самарқандий. Самария. 37-б.

⁵ Рассказ сарта Нур-Мухамета. С. 57; Рычков П.И. Топография Оренбургская, то есть обстоятельное описание Оренбургской губернии. 4.1. С. 32.

⁶ Мухаммаджонов А.Р. Қадимги Тошкент. Тарихий ва археологик халқалар. Т.: Фан, 1988 57-б.

kuzatish mumkin. Keyingi davr mualliflari bu darvozalarning quyidagi nomlarini keltiradi: Qo'ymas, Qo'qon, Qashqar, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag'bon, Chig'atoy, Ko'kcha, Samarqand, Kamolon va Beshyog'och⁷. Ulardan to'rttasi - Labzak, Qashg'ar, Qo'qon va Qo'ymas darvozalari sharq tomondan shaharga qo'shib olingan qismda qurilgan edi⁸.

Qo'qon devorining ham 12 ta darvozasi bo'lib, ulardan biri G'azavlik, yana biri esa Marg'ilon darvozasi deb atalar edi.

Xiva xonlari shaharlari ham bir necha darvozalariga ega bo'lib, bu ularning yaxshi mustahkamlanganligidan dalolat beradi. Bu o'rinda XVII asr muallifining Urganchning Xuroson, Mirza, Vazirning Ur darvozasi va "Xevak darvozasi" haqidagi ma'lumotlari diqqatga sazovordir¹.

Shovot shahrining esa ikkita darvozasi bo'lib, ulardan biri shimolga, ikkinchisi janubga qaragan edi. Kat shahri esa "shimoliy darvoza" deb ataladigan yagona darvozaga ega edi².

Shahar darvozalarini qurishda asosan yog'ochdan foydalanganlar. Bu o'rinda XVII asr muallifining Toshkentni Imomqulixon qo'shinlari tomonidan bosib olinishi haqidagi ma'lumoti ahamiyatga molikdir. "Kunlardan birida erta tongda qamal etuvchilar shahar darvozalaridan birini yoqib yubordilar va u yonib ketdi. Qo'shin u orqali shaharga kirdi"³, - deb yozadi muarrix.

Buxoroda shahar darvozalari "ancha chiroyli gumbazlar bilan birlashtirilgan ustunli" darvozalar sifatida ta'riflanadi. Shohidlaming yana biri esa shahar darvozalarini "Ularning hammasi g'ishtdan qurilgan, har tomonida dumaloq minoraga ega", -deb ta'riflaydi. Xivada ham shahar devoridagi darvozalar atrofiga g'isht bilan ishlov berilgan edi. Darvozalar mirshablar tomonidan qo'riqlangan. Jumladan, kechqurun 8 dan keyin yopib qo'yiladigan Buxoro darvozalarini qo'riqlash uchun qorovullar - darvozabonlar mavjud bo'lib, ular uchun shahar devorining ichkarisida darvoza yonida maxsus xonalar qurilgan edi⁴. Ular shahar darvozalarini yopganlaridan so'ng (xususan, Buxoroda) uning kalitlarini mirshabxonalarga topshirganlar. Poytaxt shahar darvozalari haqida yozgan YE.K. Meyendorf: "Odatga ko'ra, ular askarlar otryadi tomonidan qo'riqlanadi. Ular quyosh chiqqanda ochilib, kun botganda yopiladi"⁵, - deb yozadi.

Shahar darvozalarini qo'riqlash topshirilgan darvozabonlar soni bir nechta bo'lishi mumkin edi. Masalan, XIX asrda Xivaning Paxlavyon darvozasi 7 ta, Bog'cha darvozasi ham 7 ta, Ota darvozasi esa 8 ta mirshab va navkar tomonidan qo'riqlangan⁶.

Darvozalar shahar himoyasida muxim o'rin tutgan. Ularni zabt etish juda qiyin vazifa hisoblangan. Turli markazlarni egallashga harakat qilgan kuchlar ularni qo'lga kiritishga intilganlar. Bunga XVI asrga oid quyidagi ma'lumot orqali amin bo'lish

⁷ Маев Н. Азиатский Ташкент // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. IV. СПб., 1876. С. 262.

⁸ Мухаммаджонов А.Р. Қадимги Тошкент. Тарихий ва археологик лавҳалар. Т.: Фан, 1988. 57-б.

¹ Абулғозий. Шажаъайи турк. 125, 148, 167-б.

² Кун А. Культура оазиса Аму-Дарьи. С. 245.

³ Мухаммад Юсуф Мунши. Мухимханская история. С. 87.

⁴ Шишкин В.А. Архитектурные памятники Бухары. С. 36.

⁵ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 95.

⁶ XIX asr Xiva davlat hujjatlari. T. 11 T.: Fan, 1960. 101-б.

mumkin. Samarqandni zabt etishga bel bog'lagan Abdullaxon II bu markazni qo'lg'a kiritishda quyidagicha yo'l tutgan. U shaharning "darvoza va minoralarini sultonlar va amirlar o'rtasida bo'lib" bergan.

Jumladan, Choxarraxa davozi qarshisida shaxzoda Abulfatx Ibodulla sultonni, Shayxzoda darvozi qarshisida Do'stim Muhammad sultonni, Abdullatif sultonni esa Oshanin darvozi qarshisida joylashtirgan⁷.

Shaharga dushman yaqinlashganida uning darvozalari, ko'p hollarda, tuproq bilan to'ldirilib, berkitib qo'yilar edi. Xususan, Amir Xaydar davrida Xiva xoni Eltuzarxonning bosqinchilik yurishlaridan o'zini himoya qilgan samarqandliklar, tarixchi Mirza Shams Buxoriyning ko'rsatishicha, "shahar darvozalarini tuproq bilan to'ldirib qo'rganlar"¹. Bunday xolni Xiva shaharlari misolida ham kuzatish mumkin. Jumladan, XVIII asrning 40-yillarida D.Gladishev, qizilboshlar hujumi munosabati bilan berkitib qo'yilgan Xiva darvozalarini eslatib, "shahar darvozalariga kelganimizda u tuproq bilan berkitib qo'yilgan edi"², - deb ta'kidlaydi.

Ko'chalar shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida va ularning tuzilishida katta ahamiyatga ega edi. Shaharlarda ko'pdan-ko'p uzun va kalta keng va tor ko'chalar mavjud edi. Ular, odatda, shahar bozorlarida kesishar edi. Bozorda tutashgan shahar ko'chalari, "u yoki bu darajada keng yo'llarni" eslatib, qo'shni qishloqlar, boshqa shaharlar, uzoq-yaqin mamlakatlarga olib boruvchi yo'llarga qo'shilib ketar edi. Toshkentni tadqiq etgan N.G. Mallitskiy shahar ko'chalarining bu holati Moskvani eslatishini va "shahar kimdir tomonidan chizilgan aniq bir plan asosida qurilmagani, balki tabiiy yo'l bilan bunyodga kelgani"³ ni qayd etadi.

Shahar ko'chalari, odatda, uning darvozalaridan boshlanar edi. Ular keng bo'lib, yo'lining davomida kichikroq ko'chalarga bo'linib ketar edi. Bozorga olib boradigan bunday ko'chalardan biri haqida XIX asr o'rtalarida Xivada bo'lgan savdogar Abrosimov: "Shaharga kirganimizdan so'ng dastlab biz keng ko'chadan, so'ngra tuya zo'rg'a qator bo'lib yura oladigan juda tor ko'chadan yurdik"⁴, - deb qayd etadi.

Buni XIX asr yirik savdo-iqtisodiy markazga aylangan Kattaqo'rg'on misolida ham kuzatish mumkin. "Biz masjid darvozasidan Payshanba bozoriga olib boruvchi ancha keng yo'ldan bordik", - deb qayd etadi shu asr muallifi.

Markaziy ko'chalar shaharlarning bosh maydonlarida tutashar edi. Jumladan, Qarshida "Registonga shaharning asosiy bo'lgan to'rt ko'chasi chiqar edi" va bu ko'chalarning yana biri o'rda darvozalariga olib chiqar edi⁵.

Shaharlar markazida tutashgan asosiy keng ko'chalardan tashqari, ularda ko'pdan-ko'p boshqa ko'chalar ham bo'lib, odatda, ular ancha torroq edi. XIX asrning 20-yillarida "juda tor" deb ta'riflangan Buxoro ko'chalariga oid aniq konkret

⁷ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 476.

¹ Мирза Шемс Бухари. О некоторых событиях в Бухаре и Кашгаре. Записки Мирзы-Шемсы Бухари / Пер. и прим. В.В. Григорьева. Казань, 1861. С. 8.

² Малицкий Н.Г. Ташкентские махаллы и мауэ // В.В. Бартольд – туркестанские друзья, ученики и почитатели. Т. 1926. С. 108

³ Малицкий Н.Г. Ташкентские махаллы и мауэ // В.В. Бартольд – туркестанские друзья, ученики и почитатели. Т. 1926. С. 108.

⁴ Рассказ торговца Абросимова о поездке его в Хиву // Туркестанский сборник. Т. 54. Спб. 1873. С. 17.

⁵ Маев Н. От Шахрисабза до Бухары // Туркестанские ведомости. 1875. №5-6.

ma'lumotlar xonliklar shaharlari ko'chalari haqida ma'lum bir tasavvur hosil qilishda yordam beradi. XIX asrning 40-yillariga oid ma'lumotlarga ko'ra, shaharda 360 ta ko'cha bo'lgan⁵. "Odatda, Buxoro ko'chalari 5-8 fut kenglikka ega... Eng keng ko'chalar, odatda, 10-12 futdan ortiq emas"⁶, - deb qayd etgan edi shu asr mualliflaridan biri. Ko'hna Urganchda arxeologik qazishlar olib borgan tadqiqotchilar esa shahar ko'chalaridan birining kengligi 3 metr atrofida ekanligini ko'rsatadilar¹.

Ayrim ko'chalar, xususan, bozorlardagi ko'chalarning ba'zilarining usti yopiq bo'lgan. Ko'chalarning ustini turli usullarda yopish va ulardan savdo rastalari sifatida foydalanish an'anaviy xarakterga ega edi. XVI asr o'rtalarida Antoni Jenkinson Urganch haqida yozar ekan, "bitta uzun ko'cha usti yopilgandir, u bozor vazifasini o'taydi"², - deb ko'rsatadi. Bu shaharda qazish ishlari olib borgan arxeologlar ham ko'chalardan birining usti yopiq bo'lganligi ehtimoldan holi emasligini qayd etadilar. XVIII asr o'rtalarida Xivada bo'lgan D.Rukavkin "har bir ko'cha bitta tom" bilan yopilganligini ta'kidlab o'tadi³.

Shahar ko'chalarining usti yopilganligini Toshkent bozorlaridagi ko'chalar misolida ham kuzatish mumkin. XIX asr mualliflaridan birining ko'rsatishicha, shahardagi "bozorda ko'chalar va do'konlar oldidagi o'tish joylarining usti qamish va buyra bilan yopilar edi"⁴.

Ko'chalar ayrim hollarda hususiy xam bo'lgan. XVI asrga oid hujjatlarning birida Buxoroda begonalar uchun "o'tish mumkin bo'lmagan xususiy ko'cha" eslatib o'tiladi. Shuningdek, "umumiy foydalanish uchun ko'chalar" ham mavjud bo'lganligi ushbu hujjatlardan ayon bo'ladi. Odatda, shahar darvozalaridan uning markazi tomon yoki bir qismidan boshqasiga yo'nalgan ko'chalar, bitta umumiy nom bilan atalmagan. O.A.Suxareva ko'chalarning ayrim qismlari bozor rastalari, me'moriy yodgorliklar yoki shahar kvartallarining nomi bilan atalganligini ko'rsatib o'tadi⁵. Buni Buxoro xonligiga oid XVI asr hujjatlari ham tasdiqlaydi. Jumladan, ularda "Mavlono Amir masjidi ko'chasi", "Mulla Amir bozori ko'chasi", "Mavlana Raxmatulla masjidi ko'chasi", "Kosagaronlar masjidi ko'chasi", "Xofiz Moxoni masjidi ko'chasi" kabi Buxoro ko'chalari nomlari keltiriladi.

Shaxarlar hududi turli qismlarga bo'lingan bo'lib, ularning soni ayrim mualliflarning ko'rsatishicha, har xil bo'lishi mumkin. Masalan, Samarqand, Marg'ilon kabi markazlar to'rt qismga⁶.

Shahrisabz esa ikki qismga bo'lingan edi. Qo'qon shahri esa shaharning 12 darvozasiga muvofiq ravishda 12 qismdan iborat bo'lgan. Toshkent esa to'rt qism -

⁵ Ханников Н. Описание Бухарского ханства. С. 82.

⁶ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўрталари). Тошкент. 2017. 486.

¹ Вакгурская Н.М. Раскопки городища Ургенч в 1952 г. // Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции (1949-1953). М., 1958. С. 418.

² Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўрталари). Тошкент. 2017. 486.

³ Путешествие из Оренбурга в Хиву самарского купца Рукякина с приобщением разных известий о Хиве, с отделенных времен до ныне // Туркестанский сборник Т. 386. С. 389.

⁴ Корреспонденция из Ташкента // Туркестанский сборник. Т. 7. С. 91.

⁵ Сухарева О.А. О терминологии, связанной с исторической топографией городов Средней Азии (куй, махалла, гузар) / ИАА. 1965. №6. С. 101.

⁶ Турсунов Н.О. Развитие городских и сельских поселений северного Таджикистана. С. 92.

daxaga bo'lingan bo'lib, ular - Ko'kcha, Sebzor, Shayxontoxur, Beshyog'ochdan iborat edi⁷.

Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari shaharlarining turli qismlari o'z navbatida ancha kichikroq xududiy-ma'muriy birliklarga bo'linar edi. Shahar kvartallarini - aholi yashaydigan qismlarini anglatadigan birliklar turli shaharlarda har xil atalgan. Jumladan, Buxoroda aholi yashaydigan qismlar - **ko'y, mahalla, guzar** atamasi ostida mashhur bo'lgan.

Ularning dastlabki ikkitasi - **ko'y va mahalla** Buxoro kvartallari ma'nosida XU-XU1 asrdan keyin asta-sekin muomaladan chiqqan boshlagan va XVII asrda o'z o'imini yangi atama - **guzarga** bo'shatib bergan.

Jumladan, "Ko'yi xonaqa", "Ko'yi dirax", "Ko'yi Murkush" atamalari shahardagi eski kvartallarni anglatish uchun ishlatilgan. Shuningdek, shaharda alohida olingan kvartallar - juhudlar mahallasi, shahar atrofidagi tatar mahalla, Afshar mahalla va boshqalar ham mavjud bo'lgan¹.

XVII asrdan boshlab guzar atamasi Buxorodagi kabi Samarkand, Urgut, Jizzax, Shaxrisabz, Qarshi, Kitobda shahar kvartalini anglatish uchun keng ishlatilgan. Bu atama Toshkent va Qo'qon xonligi shaharlarida boshqacha ma'no kasb etgan. "Ikki Daryo oralig'ining sharqiy xududlarida kvartalni anglatish uchun maxalla termini o'mashib qoldi. Guzar esa bu yerda boshqa ma'noni kasb etdi - deb yozar ekan O.A.Suxareva, - Guzar deganda bu yerda qo'shni kvartallar kesishgan yerda vujudga kelgan chorraxa tushnilib, bu yerda kichkina bozorcha bo'lib, shu kvartallar aholisiga xizmat qilgan"², - deb qayd etadi.

Shaharlardagi har bir aholi yashaydigan qism - kvartal qanday atalishidan qat'i nazar, ular qoshida albatta masjid bo'lar edi. P.I. Demezov Buxoro haqida yozar ekan, "Shahar 366 kvartalga bo'lingan bo'lib, uning har birida ... masjid, imom, muazzin va oqsoqol bor", - deb yozadi³. Masjidlar, odatda, kvartal o'rtasida, yonida hovuz bilan qurilar edi. Kvartal ichidagi ko'chalar kesishgan yerlar va tor ko'chalar "**chaqar**" deb atalar edi. Ba'zi tor ko'chalar asosiy kuchalardan kechasi darvoza bilan berkitib qo'yilar edi⁴.

Odatda, shahar guzarlari va mahallalari ko'p hollarda ular joylashgan yeming topografik holati, undagi tarixiy obidalar, aholining mashg'ulot turlari, ayrim savdo-iqtisodiy inshootlarga yaqinligi bilan xam xarakterlangan va bu holat mahalla nomida o'z aksini topgan.

Mahallalar ko'p hollarda ularning tabiiy-topografik joylashuvini o'zida aks ettirgan nomlar - Orqa ko'cha, Jar ko'cha, Qator terak, Qishloq tepa, Quduk boshi, Qora tut, Qumloq, Tik ko'cha, Oq tepa, Qo'sh tut, Chuqur qishloq, Qoratosh, Quvir arik va boshkalar bilan atalgan. Ayrim hollarda mahallalar nomida ular joylashgan yerlardagi tarixiy obidalar, masjidlar, ko'priklar va boshkalar aks etgan. Ular orasida - Oq masjid, Oltinlik masjid, Baland masjid, G'isht masjid, Sirlik masjid, So'gal

⁷ Маллицкий Н.Г. Ташкентские махалла и маузе // В.В. Бартольд — туркестанские друзья, ученики и почтители. Т. 1926. С. 108.

¹ Сухарева О.А. О терминологии связанной с исторической топографией городов Средней Азии. С. 101-103.

² Сухарева О.А. О терминологии связанной с исторической топографией городов Средней Азии. С. 101-103.

³ Записки о Бухарском ханстве. С. 57.

⁴ Турсунов Н.О. Развитие городских и сельских поселений северного Таджикистана. С.96.

masjid, Yopug'lik mozor, Pushti hammom, Sari xumdon, Xotin masjid, Ko'k masjid va h.k. uchratish mumkin.

Toshkent mahallalarining ko'plarini nomlari ularda yashaydigan aholining mashg'ulotini ham o'zida aks ettirgan. Xususan, ularning orasida Degrez, Egarchi, O'qchi, Parchabof, Ko'nychilik, Temirchilik va boshqalar bor edi.

Mahallalarning ko'pchilik qismi ayrim hollarda ular yaqinida joylashgan bozor nomlari bilan xam atalgan. Bazzozlik, Beda bozor, Bulg'or bozor, Egar bozor, Ipak bozor, Eski bozor, Qassob bozor, Kafshfurushlik, Kulf bozor, Chopon bozor, Yugan bozor, Chit bozor, Ketmon bozor, Namad bozor, Xoda bozor, G'o'za bozor, Etik bozor, Kepak bozor, Mosh bozor, Nonvoy bozor, Paxta bozor nomlari bilan ataladigan mahallalarni kiritish mumkin¹.

Toshkent mahallalaridagi kabi shahar kvartallarining turli nomlar bilan atalishini boshqa markazlar misolida ham kuzatish mumkin. Xususan, XVII asrda Samarqandda Degrezlik, Kemuxtgaron, Attoron, Sangtaroshon kabi guzarlarning mavjudligi haqida shu davr muallifi Malexo xabar beradi. Guzarlarning bu nomlari ularda yashovchi aholining- hunar turlaridan darak bersa, shu muallifning shahardagi Hovuz-i sangin, Mir-Shox Malak madrasasi nomli guzarlarning tabiiy-topografik va turli inshootlar nomi bilan atalganligidan datolat beradi².

Shahar kvartallarining nomi ko'p xollarda ularda yashovchi aholining mashg'ulot turlariga qarab belgilanganligini Shahrisabz misolida ham kuzatish mumkin. Bu yerda charmgarlar yashagan - Katta, Kichik Charmgar va meshgarlar, kulollar yashagan - Kulolchilik, degrezlar yashagan - Degrezlik, telpakdo'zlar yashagan - Telpakdo'zan guzarlari mavjud bo'lgan³.

Shunday qilib, turli xonliklar xududida o'rin olganligiga qaramay, shaharlarni birlashtirib turuvchi bir qator jihatlar mavjud edi. Ulardan biri sifatida shaharlar strukturasi va u bilan bog'liq ayrim masalalarni ko'rsatish mumkin. Devorlar bilan o'rab olinishi, ularning darvozalar bilan ta'minlanganligi, shaharlarning ichki tuzilishi, shahar ko'chalari va ularning joylashuviga ko'ra ham Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida bir qator umumiy jihatlar mavjud edi. Shu bilan birga xonliklar shaharlarida bu holatlardan farq qiladigan ayrim xususiyatlar ham shakllangan edi. Shaharlar mavjudligini ko'rsatuvchi - himoya devorlari, darvozalari va ichki tuzilishiga ko'ra XVI-XIX asr o'rtalarida O'zbekiston shaharlari o'z rivojlanishida umumiy holatlar va ayrim xususiy sifatlar ega bo'lganligini ko'rsatadi.

XVI-XIX asrning o'rtalarida xonliklarda shaharlarni boshqarishning o'ziga xos shakllari vujudga kelgan bo'lib, ular bu davrga xos siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqeilikdan kelib chiqar edi. Xususan, turli hukmron sulolalar davlat siyosatining boshida turgan Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida shaharlar va ularni boshqaruv borasida bir qator umumiy holatlar vujudga kelgan edi.

Odatda, oliy hukmdor ayrim mulkka egalikni da'vo qilgan o'z qarindosh-urug'lari, yaqinlarini ayrim olingan xudud chegarasida hokimiyat bilan ta'minlash,

¹Маллицкий Н.Г. Ташкентские махалла и маузе // В.В. Бартольд - туркестанские друзья, ученики и почитатели. Т., 1926. С. 108.

²Суҳраева О.А. О терминологии, связанной с исторической топографией городов Средней Азии (куй, махалла, гузар) /НАА. 1965. №6. С. 137-138.

³Суҳраева О.А. О терминологии, связанной с исторической топографией городов Средней Азии (куй, махалла, гузар) /НАА. 1965. №6. С. 137.

boshqaruv uchun ularga ma'muriy markazlar-viloyatlar va shaharlarni topshirishga harakat qilgan.

Muarrixniig aniq ta'kidlashicha, hukmron sulola vakillariga doimo Viloyat, el va mol kerak" bo'lgan. Xon tomonidan tayinlangan bunday hukmdorlar viloyat va unga qarashli shaharlarni boshqarganlar. Bu holatni Buxoro xonligi misolida ham, Xiva va Qo'qon xonliklari misolida ham kuzatish mumkin¹. Jumladan, Muhammad Shayboniyxon amalga oshirgan ayrim ishlar haqida yozgan XVI asr tarixchisi Kamoliddin Binoiy quyidagilarni fayd etgan "U har bir viloyatni yirik sultonlar va amirlarga ularning adolatligi va qonunchiligi ta'siri ostida hamma hududlar gullab-yashnasin deya boshqaruv uchun berishga e'tiborini qaratdi"².

Uning ta'kidlashicha, jumladan, Turkiston viloyati Kuchkunji sultonga Toshkent uning ukasi Suyunchxoja sultonga, Andijon Jonibek sultonga, Shoxruxiya Yoqub Vafodorga topshirilgan edi.

Davlat yerlarining boshqaruv uchun xon tomonidan o'z qarindosh-urug'lariga bo'lib berilish tajribasi keyingi asrlarda ham davom ettirildi³. Buni XVIII asrga oid "Tuxfat al-xoniy" asarining mualliflari ham tasdiqlaydilar. Ularning yozishicha, Buxoroda hokimiyat tepasiga kelgan Mang'itlar sulolasining vakili Muhammad Rahim Samarqand shahri va uning viloyati hokimi etib ukasi Barotbiy mang'itni tayinlaydi⁴. Bunday holni XVIII asr boshlarida tashkil topib, mavqei asta-sekin o'sib borgan Qo'qon xonligi misolida ham kuzatish mumkin. XIX asr muallifi Qo'qon xonligidagi viloyat va shaharlarni ko'p xollarda "xonning qarindosh-urug'lari va o'g'illari tomonidan boshqarilganligini" e'tirof etadi⁵. Buni Qo'qon xonligidan o'tgan hindistonlik Mir Izzatullaning quyidagi ma'lumoti ham tasdiqlaydi. Bu muallif Marg'ilon haqida yozar ekan, "Qo'qon amirining o'g'li uning hokimidir", - deb qayd etadi⁶.

Ayrim hollarda (buni XVIII-XIX asr ma'lumotlaridan ko'proq kuzatish mumkin). viloyat va shahar hokimligi nafaqat hukmron sulola vakillari, balki oliy hukmdorning harbiy harakatlarida faol ishtirok etgan ba'zi mansabdor shaxslar, shuningdek, turli urug'lar vakillariga ham berilgan. Xususan, XVIII asr muallifi Mir Muhammad Amin Buxoriy oliy hukmdor Ubaydullaxon tomonidan Balhni qo'lga kiritishdagi xizmatlari evaziga "Farxodbiy o'tarchiga Shahrisabz, Muhammad Rahim otaliqqa Qarshi shaharlari xukmronlik uchun berilganligi" haqida xabar beradi.

XVII asr muallifi Xoja Samandar Termiziy ham shunday xususiy xollardan biri haqida yozadi. Uning ko'rsatishicha, oliy hukmdor Subxonkulixon tomonidan Samarqand viloyatini boshqaruvi Xujaku libiy o'tarchiga, "Nasaf viloyatini" boshqaruv esa Muhammadjonbiy - yuzga topshirilgan edi.

Ayrim olingan viloyatni boshqarish topshirilgan mansabdor shaxslar uning poytaxt shahri hokimi ham sanalar edi. Shaharlar va viloyatlarda markaziy hokimiyat siyosatini yuritish uchun mas'ul etilgan bu shaxslarni XVI-XIX asr o'rtalarida turli

¹ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 536.

² Камалиддин Бинай. Шейбанинома // МИКХ. С. 127; Мухаммад Солих. Шайбонийнома. 276-6.

³ Михайлов М. Наманган (очерк) // Литературная библиотека. 1867. №1-2. С. 204.

⁴ Ахмедов Б. А. Историко-географическая литература Средней Азии. С. 118.

⁵ Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине. С. 437.

⁶ Путешествие Мир Иззет Уллы от границы Кокандского ханства до города Самарканда // Труды САГУ. Новая серия. Вып. ХС. Ист. Ки. 14. Сер. История. Т., 1957. С. 200-201.

nomlar bilan atalganligini kuzatish mumkin. Bunday shaxslarga nisbatan ko'p hollarda "hokim" atamasi qo'llanilganligi manbalarda tez-tez eslatib o'tiladi. Xususan, XVI asr muallifi Abdullox bin Muhammad bin Nasrulloxiy Shayboniyxon tomonidan Xamza sulton va Maxdi sultonlardan Hisor viloyatini tortib olinishi haqida yozar ekan¹, "u yering hokimi etib Ubaydulla-sultonni tayinladi"², - deb qayd etadi. XVIII asr muallifi Xujamquli-bek Balhiy viloyatlardan birini boshqargan shaxslardan biri Abdul Ali tarxonni - "xokim" nomi ostida qayd etib o'tadi³.

Viloyat va shahar xokimlariga nisbatan ayrim hollarda **"voliy"** atamasi ham qo'llanilgan. Odatda, bu atama viloyat xokimligi in'om etilgan sultonlar va amirlarga nisbatan ishlatilgan. Shunday hollarning biri haqida XVI asr muarrixii Hofiz Tanish Buhoriy Abdullaxonning Sayram viloyatida bo'lishi voqealari bayonida xabar beradi "U yering voliysi bo'lgan Xorazmshox sultonning o'g'li Abdukarim sulton tashqari chiqib, qimmatbaho sovg'a-salomlar taqdim qildi. A'lo hazrat marhamat va shafqat yuzasidan u viloyatni uning o'ziga in'om qildilar"⁴, - deb yozadi u. Ushbu muallifning O'ratepa va Samarqand voliylari", "Balx viloyati... voliysi" kabi eslatmalarini ko'rsatib o'tish ham bu yerda o'rinlidir. Shuningdek, bu o'rinda XIX asr muallifi Munisning Avanes-honning o'g'li Muhammad Sultonning XVI asrda "Urganch voliy"si bo'lganligi haqidagi ma'lumot ham diqqatga sazovordir.

Shaxar va buning atrofidagi viloyat boshqaruvi topshirilgan shaharlarga nisbatan **"hokim"** bilan birgalikda boshqa atama - **"bek"** va **"biy"** atamlarining keng ishlatilganligini, ayniqsa, XIX asr materiallaridan yaqqol kuzatish mumkin. Xususan, Qo'qonda, viloyatlarda xokimlar va beklar boshqargan bo'lib, ularning hokimiyati bir xil kuchga ega edi. "Bek va hokim o'rtasidagi farq shundan iborat ediki, - bek xon avlodidan edi, hokim esa oddiy fuqarolardan edi"⁵.

Odatda, o'zbek urug'lari boshliqlariga nisbatan qo'llanilgan "biy" atamasining **"hokim"** ma'nosida qo'llanilishi ularning Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari siyosiy hayotidagi mavqeini tiklashda yordam berdi. Chunonchi, XVIII asrning birinchi yarimda xonliklarda kuzatilgan siyosiy boshboshdoqlik oqibatida turli urug' vakillarining hokimiyat tepasiga kelishi shaharlar va viloyatlar boshqaruvida **"biy"**larning roli o'sib borishiga asos bo'ldi. Buni Buxoro amirligi va Xiva xonligi misolida ham kuzatish mumkin.

Xususan, shu asrning 50-yillarida Xiva haqida batafsil ma'lumotlar qoldirgan M.Ivanin "Biylar... ularga topshirilgan shaharlarni boshqaradilar" - deb habar beradi. Hokimlar oliy hukmdor tomonidan nafaqat hukmron sulola vakillari va urug'-qabila boshliqlaridan, balki ayrim hollarda past tabaqa vakillaridan ham tayinlangan. Buning yorqin misoli sifatida XVIII asr o'rtalarida Buxoroda davlat tepasiga kelgan Muhammad Rahim "O'ratepa hokimi etib o'z g'ulomi Kunshiboybiyni" tayin etgani haqidagi ma'lumoti diqqatga sazovordir. Qabilalar amirlariga e'tibor bermagan va ular qimmatini tushirishga harakat qilgan Buxoro amiri Nasrulloxon esa "Kichkina xato uchun hokimlarini mansablaridan olib tashlab, mollarini musodara qilgan,

¹ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 346.

² Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 546.

³ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 546.

⁴ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 546.

⁵ Саттар-хан Абдул Гафоров. Краткий очерк внутреннего состояния Кокандекого ханства перед завоеванием его русскими // Туркестанские ведомости. № 26. 1892, С. 108.

ularning o'rniga esa bozor qora ahlidan bo'lgan kishilarni tayin etgan". Shaharlar boshqaruvida muhim o'rin egallagan amaldor shaxslardan biri - "doruq'a"lar edi. XVI-XVII asrlarda ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan bu mansab egalari shaharlar hayotida muhim o'rin egallaganlar¹. Harbiy to'qnashuvlar va o'zaro urushlar tez-tez sodir bo'lgan davrlarda shaharlar va viloyatlar boshqaruvi topshirilgan bu shaxslarni undagi tartib-intizom uchun to'la javobgar bo'lgan harbiy komendantlar bilan qiyoslash mumkin. Bu mas'ul shaxslarning, ayniqsa, XVI asrda shaharlar hayotida tutgan o'rni haqida shu davr manbalarida tez-tez eslatib o'tiladi. Xususan, XVI asr boshida Samarqandni qo'lga kiritgan Muhammad Shayboniyxon shaharning doruq'asi etib "Jon Vafo-biy"ni tayin etganligi haqida Muhammad Solih xabar beradi². Bu haqida Bobur mirzo ham yozib, quyidagilarni qayd etadi: "Samarqand doruq'aligini Jonvafo mirzoga berib edi. Besh-olti yuz kishi bilan Samarqand qo'rg'onining ichida edi"³.

Shaharlar boshqaruvi topshirilgan doruq'alar ixtiyorida ko'p sonli harbiy kuchlar mavjud bo'lib, ular yordamida bu yerda davlat siyosati amalga oshirilgan. Doruq'alar qo'l ostida, odatda, 100 tadan 500 tagacha harbiylar bo'lganlar. Bu holatni Zaxiriddin Muhammad Bobur va uning zamondoshi Fazlullox ibn Ro'zbexon Isfaxoniy ham qayd etadilar. Jumladan, Fazlullox ibn Ro'zbexon Isfaxoniy qozoqlarga qarshi kurashga otlangan Muxammad Shayboniyxonning qo'shinlariga dashtda "atroflardagi mulklarning amir va doruq'alari ko'p sonli qo'shinlari bilan birlashdilar"⁴, - deb yozadi.

Doruq'alarning shaharlarning ma'muriy boshqaruvidagi XVI asrda kuzatilgan bu roli keyingi asrlar mobaynida o'z ahamiyatini yuqota borgan. Ma'muriy jihatdan huquq va majburiyatlari hokimning huquq va majburiyatlari bilan deyarli teng bo'lgan doruq'alarning mansab doirasi keyingi yuz yilliklar mobaynida chegaralanib, o'zining dastlabki ma'nosini yo'qota borgan.

Doruq'alarning shahar hayotida tutgan o'rni haqida XVIII asrdagi Buxoroga oid manbada shahar "rabodi ichidagi tungi nazorat qilish" yuklatilgani eslatib o'tiladi. Shaharlar va ularga tegishli viloyatlar boshqaruvi topshirilgan hokimlar, odatda, bu yerda markaziy hokimiyat siyosatini amalga oshiruvchi shaxslar edi. Ular shahar va viloyat boshlig'i sifatida katta qo'shinga ega bo'lib, oliy xukmdorning yurishlarida qatnashishlari lozim edi. Shuningdek, ular qo'shin ehtiyojlari haqida qayg'urar, turli soliqqlarning bir qismini uning moddiy ta'minotiga sarf qilardi. Buni tasdiqlovchi faktik ma'lumotlar manbalarda ko'plab uchraydi. Jumladan, XIX asrning boshlarida Andijon haqida yozgan F. Nazarov "Shahar hokimining qaramog'ida qo'shin bo'lib, u keltirilgan mollardan tushadigan soliqning bir qismini uning ehtiyojlariga sarflaydi", - deb qayd etadi. Shu asrning boshqa bir muallifi esa Xiva haqida yozar ekan, biylar faoliyatiga to'xtab, tinchlik vaqtlarida ularga topshirilgan shaharlarni boshqarganlar va harbiy harakatlar avj olgan vaqtda esa ularda ishtirok etganlar, - deb ko'rsatadi.

¹Мирза Бади-диван Маджма ал аркам (Предиссание фиска). (Приемы документации в Бухаре XVIII в.) // Факсимиле рукописи. Введение, перевод, примечания и приложения А.Б. Вильдановой. М.: Наука, 1981. С. 95.

² Захириддин Мухаммад Бобур. Бобуринома. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. Т.: Юддузча, 1990. 6-6.

³ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобуринома. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. Т.: Юддузча, 1990. 6-6.

⁴ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобуринома. 74-6.; Захириддин Мухаммад Бобур. Бобур-наме. С. 101.; Фазлаллах ибн Рузбехан. Исфахани. Михман наме-йи Бухара. С. 90.

Buxoroda esa shahar hokimi Amirming harbiy yurish boshlash haqidagi qarorini bozorlarda osdirib qo'yishi va askarlarni ro'yxat bo'yicha to'plashi lozim edi¹.

Qo'qon xonligi haqida yozgan mualliflardan biri - A.Xoroshxin: "Har bir bek o'z shahrida xondir. Odat bo'yicha shahar o'rdasida (qo'rg'onida) o'tirib, u o'z hokimiyati va qurol kuchining salobati bilan aholining hayoti va mol-mulki ustidan hukmronlik qiladi", - deb qayd etadi.

Hokimlar mas'ul etilgan vazifalardan biri shahar va viloyatlardan yig'iladigan soliqlar edi. Buxoroda xatto "xirojni yig'ish ham shahar hokimining vazifasi edi". Shahar hokimlari, odatda, ma'lum miqdordagi soliqni yig'ib, uni markaziy hokimiyatga yetkazib turganlar. Shu bilan hokim va beklar yiliga bir yoki ikki marta oliy hukmdor huzuriga tortiq - "qimmatbaho egar-jabduklar bilan egarlangan otlar, tuyalar, to'nlar, po'stin, qurol-aslaha, Kur'on (qo'lyozmalari), oltin va kumush tanga va yombilar, ov qushlari kabilardan iborat sovg'a bilan tashrif buyurganlar"². Bu holatni biroz keyingi davrlardagi ma'lumotlardan ham kuzatish mumkin. Xususan, 1871-72 yillarda Xudoyorxonga "egar-jabduqlar", "matolar", "do'ppi, kiyim-bosh" kabilar "tortiq" qilish uchun Qo'qon begi o'rdasida mirzaboshi tomonidan bitilgan pattalar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shahar hokimlari tomonidan "tortiq" qilish holatlarini Buxoro xonligi misolida ham kuzatish mumkin. XIX asr muallifi N.Mayevning yozishicha, amir biror-bir shaharga har gal kelganida "bek o'z hazratiga bir ot va bir bo'g'cha (to'qqizta) to'ndan" iborat sovg'a taqdim etgan. Shahardan ketganida esa, amir bekdan "14 ta ot, 14 bo'g'cha (to'qqiz) to'n va 40-50 tangadan" iborat tortuq olgan"³. Buxoroda shahar hokimlari doimo oliy hukmdor bilan yaxshi aloqalarni ushlab turishga harakat qilganlar va "uning do'stligi va e'tiborini qozonish uchun guruch, ot va xatto pul tarzida sovg'alar qilganlar"⁴, - deb yozadi YE.K. Meyendorf.

Xiva xonligida ham shaharlar boshqaruvi va soliqlar yig'ishda ham o'ziga xos holatlar shakllangan edi. Xonlikdagi "shaharlar va ularga qarashli yerlarga" oliy hukmdor tomonidan" hokim tayinlanar edi. Xon oldida hisobot berishga mas'ul etilgan, shahar va uning atroflari aholisini boshqarish" topshirilgan bu shaxslarning xizmat doirasi XIX asr o'rtasida yozilishicha, "birgina kuchsiz politsiya nazorati va e'tiborga arzimasi juda mayda" muammoli masalalarni hal qilish bilan chegaralangan edi. Shu bilan birga, ular soliqlar yig'ish uchun mas'ul edilar. Bu holatni tasdiqlovchi ma'lumotlarga ko'ra, xonlikda soliqlar va zakot yig'ish davlatning ikki mansabdor shaxsi - mamlakatning shimoliy qismi boshqaruvi ishonib topshirilgan qushbegi ixtiyorida, mamlakatning janubiy qismi mehtarga topshirilgan bo'lib, ular o'z navbatida soliqlarni yig'ish ishini shahar hokimlariga topshirar edilar¹.

¹ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 586.

² Саттархан Абдулғаффаров. Краткий очерк внутреннего построения Коканского ханства. С. 108; Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Коканском ханстве. С. 113; Показания сибирских казаков Миллюшина и Батарышкина. С. 26.

³ Масв Н. Очерки Бухарского ханства. С. 111.

⁴ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 606.

¹ Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства. С.133; Иванин М. Хива и река Аму-Дарья. С. 70; Заметки о Хивинском ханстве, записанные со слов Мат-Мурага, бывшего диван-бегя ханства в 1873 г.// СПб. вед. 1874. №115.

Buxoro amirligida ham shaharlar boshqaruvida Mang'itlar sulolasining davlat tepasiga kelishi bilan mavqei ortib borgan qushbegilarning roli beqiyos edi. XVIII asrda Buxoro xonligi ma'muriy boshqaruvida muhim o'rinlardan birini egallagan qushbegi, shuningdek, poytaxt shahar va uning viloyati hokimi ham sanalgan. Buxoro viloyati va shaharidagi tinchlik, osoyishtalik uchun javobgar shaxs bo'lgan qushbegi mamlakatdagi boshqa viloyatlar va shaharlar hokimlari buysunadigan shaxs edi². Qushbегining shahar boshqaruvida tutgan o'rni va uning vazifalari haqida N.Xannikov jumladan shunday yozadi: "Vaziming (qushbegi - G.A.) shahar boshqaruvidagi qatnashuvi savdoni tashkil qilishdagi g'amxo'rliги, shaharning tashqi xavfsizligini ta'minlash" va boshqalardan iborat edi³. Qushbegi shuningdek, shahar va viloyatdan tushadigan turli soliqlar va zakot yig'ilishi uchun mas'ul edi. 1820 yilda Buxoroda bo'lgan shoxidning ko'rsatishicha qushbегining vazifalari doirasiga **"mollardan soliq to'plash, jarimalar va jazo tayinlash, shaharlarda tinchlik va osoyishtalik bo'lishiga qarashi"** kirar edi⁴.

Xonlikning boshqa shahar va viloyatlarida ham soliqlar hokimlar tomonidan to'planar edi. Xokim o'ziga topshirilgan shahar va viloyatda to'la hukmdor bo'lsada uning huquqlari xam chegaralangan edi. **"Hokimlar - viloyatlar yoki shaharlar boshliqlari xonning ruxsatisiz zo'rlik amalga oshiruvchi kuchli hukmdorlarga aylana olmaydilar"**, - deb yozar ekan, YE.K. Meyendorf, buning sabablaridan biri sifatida, hokim ustidan shikoyat bilan oliy hukmdorga murojat qilish uchun poytaxt shaharga hamma shaxslarning o'zlari kelishlari mumkinligini ko'rsatib o'tadi⁵.

Shaharlarning ma'muriy tuzilishi va ularni boshqarish tizimida diniy mansabdor shaxslar - shayxulislom, muftiy, qozilarning roli katta edi. XVIII asr muallifi Mirza Badi Devon Buxoroda turli hujjatlarni rasmiylashtirishga oid asarida mansabdor shaxslarni to'rt guruhga bo'lib, ular ichida birinchi guruh vakillari - qozilar, muftiyar, muxtasiblar, mudarrislarining shahar hayotida alohida ahamiyatga ega ekanligini bayon etadi. Mamlakat va shaharlar boshqaruvida hokimdan keyin ahamiyati nihoyatda kuchli bo'lgan bu guruh vakillarining mansab doiralari turlicha bo'lgan. Ularning ichida shayxulislomlar alohida mavqega ega bo'lganlar. Ko'pgina munozarali masalalarda ular qozilar murojaat etadigan yuqori mansab egalari edilar. Shayxulislom haqida Antoni Jenkinson "Buxoroda diniy boshliq bo'lib (metropolitane), u qonunga (shariat - G.A.) qattiq rioya qilinishini kuzatib turadi"⁶, - deb yozadi. Nafaqat, Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari, balki qo'shni Sharq davlatlarida ham keng tarqalgan shayxulislomning xizmat doirasiga fuqarolarning ziddiyatli masalalarini hal etish, ularning arz-dodiga quloq tutish, aholini yaxshi ishlarga undash, yomonliklardan qaytarish kabi vazifalar ham kirar edi. Nikoh ajrimlari ham uning ishtirokida amalga oshirilardi. Ayrim hollarda shahardagi

² Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Труды АН Тадж.ССР. Вып. II. Сталинабад. 1954. С. 54.

³ Ханыков Н. Городское управление в Средней Азии / Журнал Министерства внутренних дел. СПб. 1844. Книжка пятая. С. 340-354.

⁴ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 60б.

⁵ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 60б.

⁶ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 61б.

yetimlar va yo'qolgan kimsalar mol-mulki bo'yicha hukm chiqarish ham uning xizmat doirasiga kirar edi¹.

Eron shayxulislomlari faoliyatiga oid bu holni Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari misolida ham kuzatish mumkin. Qozilar chiqargan hukmlar va ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi shayxulislomlar xonliklarning ma'muriy- boshqaruv tizimida katta o'rin egallaganlar. Xususan, muarrix Munis XVII asrda Xivada hokimiyat tepasiga kelgan Abulg'ozixon davlat boshqaru vini isloh kilar ekan, "ikki shayxulislom"ga o'z yonidan joy berganini eslatib o'tadi².

"Shayxulislomlik" mansabi nafaqat markaziy hokimiyat, balki ba'zi viloyat va shaharlar boshqaruvida ham mavjud bo'lgan. Oliy hukmdor tomonidan tayin etiladigan bu shaxslar ularda diniy boshliq sanalib, intizom va tartibni shariat qonunlari bo'yicha saqlab turishga harakat qilganlar. Bu holatni tasdiqlovchi ma'lumotlar so'nggi o'rta asr manbalarida ko'plab topiladi.

Jumladan, ulardan birida - 1634 yilda Sig'noq ahliga yuborilgan yerlik matnida viloyat shayxulislomi etib "Junayd shayx" tayinlanganligi eslatib o'tiladi³. Shunday hujjatlardan yana biri 1539 yilda Sayramga yuborilgan yorliq va nishonda Kamoliddin shayximga shayxulislomlik mansabi berilgani haqida xabar qilib, hamma unga itoat etishi zarurligi uqitirib o'tiladi.

Muhammad Solih Samarqandni Muhammad Shayboniixon tomonidan qamal qilinishi haqida yozar ekan, "Bor edi shahraro shayxulislom"⁴ deb qayd etadi. Shaharda keyingi davrlarda xam o'z shayxulislomi bo'lganligini Hofiz Tanish Buxoriyning "Samarqand shahri shayxulislomi" Ali Asqar haqidagi ma'lumoti ham tasdiqlaydi⁵.

Xoja Samandar Termiziy XVII asr oxirgi choragidagi voqealar bayonida Qarshida bu vazifani bajargan "Mirza Xonxo'ja shayxulislom"ni eslatib o'tadi. 1722-1782 yillar mobaynidagi Buxoro xonligi tarixiga bag'ishlangan asar - "Tuxfat al-xoniy"ning muatliflari Muhammad Vaf o ibn Muhammad Karminagi va Domullo Alimbek ibn Niyozqulibek eshonlar Samarqand va uning viloyati shayxulislomi etib hukmdor Muhammad Rahim mang'it tomonidan Xoja Ahrorning avlodi Shahobiddin xoja tayin etilgani haqida xabar beradilar⁶.

Shayxulislomlik mansabi avloddan-avlodga meros tariqasida o'tib turgan. Buxoro xonligining siyosiy hayotida mavqei juda kuchli bo'lgan Juybor shayxlarining ko'p namoyandalari bu lavozimni egallaganliklari buning yorqin dalilidir. Xasanxoja Nisoriyning yozishicha, XVI asrda Ubaydullaxonning vaziri, Xoja Jamoliddin Hoshimiy Siddiqiyning "...balogardon Buxoro viloyatining nomdor shayxulislomlik mansabi alarning sharif xonadoni qo'lida bo'lgan"¹. Uning o'g'li shayxulislom Xoja Nizomiddin Yaxyo Xoshimiy "Mana necha muddatdirki Buxoroning shayxulislomlik mansabida o'tiribdi", - deb qayd etadi yana shu muallif. XVII asr muallifi Mahmud ibn Vali Termiz sayidlari haqida yozar ekan, "Viloyatning

¹ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 616.

² Грамоты из Сыгнака. Грамота Абулгази Убайдулла-хан-бахадур-султана // МИКХ. С. 319.

³ Мулли Муса бен Мулла Айса (Иса) ходжа Сайрами. Тарих-и Амнийа // МИКХ. С.490.

⁴ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 616.

⁵ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 626.

⁶ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 626.

¹ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 626.

shayxulislomlik mansabi qadimdan to hozirga qadar ularga tegishlidir” - deb yozgan edi.

Juybor shayxlari timsolida, ayniqsa XUI-XUP asrlarda mavqei kuchayib ketgan, “Podshoga qaraganda unga ko’proq quloq tutiladigan”² shayxulislomlik mansabi asta-sekin o’zining ahamiyatini yo’qota borgan. XIX asrda esa davlatni, shu jumladan, shaharlarni boshqaruv tizimida shayxulislomlarning roli A.Semenovning ko’rsatishicha pasayib borgan va ahamiyati jihatidan “nasab, ya’ni kelib chiqishi, payg’ambar va uning dastlabki izdoshlari va safdoshlariga borib taqalishini ajrim qilishni talab etgan shikoyat va arizalarni ko’rish kabi”³ mayda masalalar yechimi bilan chegaralanib qolgan edi.

Shayxulislomlarning XIX asrda boshqaruv tizimidagi roli pasayib borishini Xiva va Qo’qon xonliklariga oid ma’lumotlardan ham kuzatish mumkin. Qayd etib o’tish lozimki, bu davrga oid manbalarda shayxulislomlik lavozimini egallagan bir necha shaxslar nomlari keltiriladi. Jumladan, XIX asrga oid Xiva hujjatlaridan birida Fozil Xo’ja shayxulislom nomi tilga olib o’tiladi⁴.

Shu davrga mansub Qo’qon hujjatlarida ham shayxulislom mansabi eslatib o’tiladi. Biroq, XIX asrga oid boshqa manbalarda (Buxoroda ham, Xivada ham, Qo’qonda ham) shaharlarning ma’muriy boshqaruvida shayxulislomlar tutgan o’ringa ishora qiluvchi ma’lumotlar juda ozdir. Masalan, rossiyalik savdogar Pichuginning XIX asrda keltirgan ko’rsatmasida Xivadagi amaldor shaxslar orasida shayxulislomlar yodga olinmaydi⁵. Ruhoniylar zimmasiga sud ishlaridan tashqari xalqni ma’rifatparvar qilish vazifasi ham yuklatilgandir⁶, - deb qayd etiladi. Keltirilgan bu ma’lumotlar A.D.Semyonovning fikrini tasdiqlab, vazifalari doirasi chegaralanib borgan shayxulislomlarning davlat va shaharlar boshqaruv tizimidagi roli pasayib borganligiga ishora qiladi.

Xonliklarda shakllangan ma’muriy boshqaruv tizimining ajralmas qismlaridan biri - fuqarolarning arz va shikoyatlari, talab va iltimoslari asosida shariat qonunlariga suyangan holda sudlov ishlarini amalga oshirishdan iborat edi. Bu ishlarga mas’ul bo’lgan shaxslar qozilar edi.

Buxoro, Xiva va Qo’qon xonliklarida qozilar va ular faoliyatiga doir o’ziga xos xususiyatlar shakllangan edi. Xususan, Buxoro xonligi shaharlarida ma’muriy boshqaruv tizimida qushbegi, hokim, shayxulislomdan keyin ahamiyati nihoyatda katta bo’lgan qozilar oliy hukmdor - xon tomonidan tayinlanar va poytaxt shahar – Buxoro qozisiga buysunar edi¹. Poytaxt shahar qozisi o’z navbatida bosh qozi “qozi kalon” deb ham atalar edi. Shaharda, shuningdek, harbiylarning munozarali masalalarini hal etuvchi “qozi askar” va umumiy masalalar bo’yicha “qozi mutlaq” ham bor edi².

² Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию. С. 182.

³ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 626.

⁴ Серебренников А.Г. Туркестанский край. Сборник материалов для истории его завоевания (1840-1852). Т.П. Т.: Турк. издат, 1914. С. 117.

⁵ Серебренников А.Г. Туркестанский край. Сборник материалов для истории его завоевания (1840-1852). Т.П. Т.: Турк. издат, 1914. С. 117.

⁶ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 636.

¹ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 696.

² Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 636.

Shaharlarga qozilar tayinlashning ushbu tajribasi Xiva xonligida ham mavjud edi. XIX asr boshlarida N. Muravyev: "Har bir shaharda bittadan qozi bordir, ular bosh ruhoniya bo'ysunadilar"³, - deb qayd etadi. XIX asr o'talariga oid ma'lumotlar ham bu holatni tasdiqlaydi. Ulardan biriga ko'ra, "ancha chalkash ishlar", odatda, bosh qozi - xonlikdagi birinchi ruhoni shaxsga jo'natilgan⁴. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Qo'qon xonligida ham qozi kalonlik mansabi mavjud bo'lib, uning egasi ham poytaxt shaharda o'tirar edi.

Shaharlarga qozilar tayinlash borasida xonliklarda bir qator xususiy xolatlar ham mavjud edi. Jumladan, Qo'qon xonligida, Buxoro va Xiva xonliklaridan farqli o'laroq, shahar qozilari "xon yorlig'iga binoan" shahar hokimlari tomonidan tayinlanar edi. XIX asr muallifining yozishicha, xonlikdagi shaharlar beklari huzurida ilmiy munozaralar tashkil etilib, unda o'zining bilimlarini ko'rsata olgan o'qimishli kishilarga bek "mullalik, muftiylik, qozilik, mirzalik va mudarrislik lavozimlarini bergan".

Ko'p xollarda bu toifadagi amaldorlarni tayin etishda ularning qozilar avlodidan ekanligiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Bu o'rinda, XVI asr muallifi Xasanxoja Nisoriy o'z zamondoshi Fatxulla Xoja qozi haqida "Tijduvon qoziligi qadim zamonlardan beri uning ulug' ajdodiga taalluqli bo'lib kelgan"⁵, - deb yozishi diqqatga sazovordir.

Mir Muhammad Amin Buxoriyning quyidagi ma'lumoti ham bu o'rinda xarakterlidir. Uning yozishicha, oliy hukmdor Ubaydullaxon Ashtarxoni, kelib chiqishi sayidlardan bo'lgan "marhum qozi amir Jalolning o'g'li amir Shahobiddinga... "qozi kalon" unvonini berib, uni poytaxt qozisi etib tayin etgan" edi⁶.

Shariat qonunlari va urf-odatlar asosida fuqarolarning turli masalalarini hal etuvchi qozilar xazinadan maosh olmaganlar. Mavjud ma'lumotlar ko'rsatishicha, bu mansab egalari, odatda, turli qozilik hukmlaridan, xususan, nikoh o'qitilishi, har xil hujjatlarning rasmiylashtirilishi va x.o. kelib tushadigan daromadlarni hisobiga yashaganlar. Davlat tomonidan qozilarning maosh bilan ta'minlanmaganligi ayrim hollarda qozilar orasida turli salbiy harakatlarning kelib chiqishiga olib kelar edi. XVII asr muallifi Xoja Samandar Termiziy shunday xususiy hollardan biri - Nasaf qozisi Badiyning nojo'ya harakatlari haqida yozib, "O'n tangadan oshmaydigan pora zangi qozining sof qalbini bulg'adi"⁷, - deb qayd etadi. Shunday shaxslardan biri haqida XIX asrda Axmad Donish ham eslatib o'tadi. Uning yozishicha, bu Buxoroning qozi-kaloni Nizomiddin bo'lib, u "kelib chiqishi buyuk sayidlardan bo'lganligiga qaramay, ochiqchasiga tamaki chekar, sharob ichar, zo'ravon va poraxo'r edi".

Qozilar shaharlar va viloyatlarda sudlov ishlarini amalga oshirish bilan birga, oliy hukmdor, shahar hokimi oldida javobgar shaxs ham edilar. Hokimlar ular faoliyatini nazorat qilar edilar. Shu bilan birga, ba'zan shahar va viloyat xokimlari

³ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўртalari). Toshkent. 2017. 626.

⁴ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўртalari). Toshkent. 2017. 646.

⁵ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўртalari). Toshkent. 2017. 686.

⁶ Мир Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдуллонаме / Пер с перс.-тадж. А.А. Семенова. Т.: Фан, 1957. С. 43.

⁷ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўртalari). Toshkent. 2017. 656.

o'z xatti-harakatlarida qozi bilan hisoblashlari, ular xukmiga bo'ysunishlari ham lozim bo'lgan holatlar haqida manbalarda ma'lumotlar saqlanib qolgan. Jumladan, sibirlik kazaklar Milyushin va Batarishkinlarning yozishicha, Avliyootada asir etilganidan so'ng Toshkent qushbegisiga topshirilgan kazaklarni sarkorlardan biri qatl etishni maslahat beradi. Qush bek uni qozi oldiga yuborib, bu ish qonunga zid bo'lmashligini surishirib kelishni¹ buyuradi¹.

Qozilarning hukmlaridan norozi fuqarolar xon yoki hokimlarga arz bilan murojaat qilishlari mumkin edi. Ayrim og'ir jinoiy ishlarni ko'rib chiqish va hukm chiqarish ko'p hollarda oliy hukmdorning vazifasi hisoblangan. Xususan, Xiva xonligida devonbegilik vazifasini bajargan Matmurodning guvohligiga ko'ra "Muhim sud ishlari xon tomonidan amalga oshirilgan, qozi hukmidan norozilar unga ishini qayta ko'rib chiqishni so'rab murojaat etganlar"².

Qozilar huquqiy masalalarni hal qilish bilangina shug'ullanib qolmasdan, shahar va viloyatlar hokimlari yo'q bo'lgan chog'larda ularni boshqarganlar. Tarixiy manbalarda bunday holatlarni tasdiqlovchi ma'lumotlar talaygina. Ulardan biri XVI asrga mansub bo'lib, u haqida shu asr muallifi Kamoliddin Binoiy xabar beradi. Muarrir Arqo'q qozisi Mavlono Shamsiddin Muhammad bikchik haqida yozar ekan, u bu yerga yaqinlashgan Muhammad Shayboniyxonga "viloyatning aholisi va ulug'lari bilan birgalikda peshvoz chiqib, unga sovg'alar berdi va Aqo'q qal'asiga olib kirdi" - deb qayd etadi. Shu asming boshqa bir muallifi Fazlulloh ibn Ro'zbexon ham qozilarning bu turdagi faoliyati haqida quyidagi ma'lumotni keltiradi. Uning qayd etishicha, g'olib Shayboniyxon qo'shinlarining Sirdaryodan kechuvlarini ta'minlash maqsadida Turkiston qozisi va Sayram qozisiga ... Sayxunda sollar boylash va kemalarda o'tish joyi va ko'prik qurish oliy hukmdor tomonidan amr etilgan edi"³. Bu holat keyingi asrlar davomida ham kuzatiladi.

Xususan, XIX asrda Xiva xonligida qozilar "beklar shaharlarda yo'qligida uning o'mini egallaganliklari"ni bu davr mualliflaridan biri eslatib o'tadi⁴. Shahar va viloyatlar ma'muriy tizimida qozilar bilan bir qatorda muftiylar ham katta rol o'ynaganlar. Muftiylar lavozimini egallagan shaxslar qozilar kabi shariat asoslari va islom qonunshunosligi bo'yicha keng qamrovli bilimga ega bo'lishlari lozim edi. Odatda, muftiylar turli munozarali masalalar bo'yicha shariat, hadislar asosida "fatvo" va "rivoyatlar" tuzganlar. Qozilar munozara olib borayotgan tomonlar vakillariga bunday "fatvo" va "rivoyatlarni" ko'rsatganlar, muftiylar ularga o'z muhrlarini bosganlaridagina hukmlarini chiqarishda inobatga olganlar¹. Muftiylarga XIX asrda quyidagicha ta'rif berilgan: muftiy ikkinchi darajali ruhoniylar amaldordir. U qozikalonga yordamchi sifatida, arz va iltimosnomalar bo'yicha Qur'ondan dalillar

¹Заметки о Хивинском ханстве, записанные со слов Мат-Мурата, бывшего диван-беги ханства в 1873 г.// СПб. вед. 1874. № 115.

²Трактат Ахмада Дония "История Мангытской династии" Н Перевод, предисловие и примечания И.А. Наджафовой. Душанбе. 1967. С. 27.

³Некоторые сведения о Бухарии // Луний Б.В. История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и ученых XVI - пер. пол.XIX в. Т.2. Ташкент: Фан. 1988. С. 217.

⁴Агзамов Г. Узбекистон шахарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 646.

¹Некоторые сведения о Бухарии // Луний Б.В. История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и ученых XVI - пер. пол.XIX в. Т.2. Ташкент: Фан. 1988. С. 217.

chiqaradi va kim hak, kim nobakligidan guvohlik bildiradi, hukm chiqarish qozikalonga tegishlidir”.

Odatda, muftiylar oliy xukmdor tomonidan tayin etilgan. Bu hol amalda keng qo'llanilganligini manbalar ma'lumotlari bilan ham tasdiqlanadi. XVIII asr boshlarida Ubaydullaxon tomonidan “diniy ilmlar va dunyoviy bilimlar” egasi sifatida mashhur qozi Xoja Salim Ma'niyni muftiyluk lavozimiga tayin etganligi haqidagi ma'lumot bu holatni tasdiqlaydi². A.A.Semyonovnin- yozishicha, XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asrlarda esa muftiylarni tayinlash huquqi Buxoroning qozi-kaloniga berilgan edi. Muftiylar ichida ham o'ziga xos tabaqalanish mavjud bo'lib, ularning yuqori toifasi - **a'lam** deb atalgan. A'lamlar ham ikkiga bo'linib, ularning kattasi - **oxund**, keyingisi **a'lam** deb atalgan³.

Mir Muhammad Amin Buxoriyning yozishicha, oxund Sadriddin A'lam ana shunday shaxslardan biri bo'lib, nasaflik bu mavlononi Ubaydullaxon poytaxt shahar Buxoroda a'lamlikning yuqori martabasiga tayin etgan edi⁴.

Muftiylar, odatda, turli madrasalarda dars berganlar, a'lam esa poytaxt shahar mudarrisi vazifasini ham bajargan⁵.

XIX asrning 20-yillarida qayd etilishicha, Buxoro qozi kaloni ixtiyorida “ikkita muftiy bo'lib”, ular “muhr bosish uchun haq olganlar” Buxoro xonligining boshqa shaharlari qozilari huzurida esa bittadan muftiy bo'lgan.

Buxoro xonligi shaharlari boshqaruvidan farqli o'laroq, Qo'qon xonligidagi shaharlarda muftiylar qozilar tomonidan emas, balki shahar hokimlari tomonidan, ilmiy mushoiralarda o'zini ko'rsatishga muvaffiq bo'lgan madrasalar mudarrislari va shariat qoidqlarini yaxshi bilgan o'qukimishli kishilar safidan tayinlangan.

Shaharlar ma'muriy boshqaruvida ahamiyati katta bo'lgan muftiylar dunyoviy hukmdorlar - xon, amir yoki shahar, viloyat hokimlaridan ayrim masalalar bo'yicha “izoh talab qilish” huquqiga ham ega bo'lganlar.

Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari boshqaruv tizimidagi markaziy siymolardan biri **rais** edi. Bu shaxsning shaharlar hayotidagi ahamiyati juda katta edi. Rais klassik Sharq mamlakatlaridagi ma'muriy mansab egalari muxtasiblar kabi bir xil vazifalarni amalga oshirganlar - “kishilarni yaxshi ishlarni amalga oshirishga undaganlar va shariat man etgan harakatlardan saqlanishlarini nazorat qilib borganlar”⁶.

Shahar raislari zimmasiga katta vazifalar yuklatilgan edi. Ular aholining yurish-turishi, axloqiy sifatлари, shaharlardagi tartib-intizom ustidan nazorat olib borar ekanlar, aholi tomonidan diniy urf-odatlariga rioya qilinishi, xususan, ularning besh vaqt namoz o'qishlari, musulmonlar shariat asosida tarbiyalanishlariga e'tibor qaratishlari lozim edi. Bu o'rinda ular o'zlari qo'l ostidagi shaxslar yordamida shaharlarda tartib o'rnatishga harakat qilganlar. YE.K.Meyendorfning yozishicha, Buxoroda, bunday amaldorlar masjidlar imomlaridan “namozni kanda qilgan shaxslarni aniqlab va kuch ishlatib uyidan haydab chiqarar edilar. Dars kech soat 16-

² Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари (XVI-XIX asrning ўрталари). Тошкент. 2017. 646.

³ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўрталари). Тошкент. 2017. 676.

⁴ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўрталари). Тошкент. 2017. 696.

⁵ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ўрталари). Тошкент. 2017. 706.

⁶ Мирза Бади-Диван. Маджма ал-аркам. С. 92.

00 larda Registonda namoz vaqtida ... sotuvchilar va oluvchilarni haydab, masjidga jo'natganlar"¹.

Raislar, shuningdek, shahar aholisining mast qiluvchi turli ichimliklar ichmasliklari, tamaki va boshqa zararli narsalarni chekmasliklarini ham nazorat qilib borishlari kerak edi. Bu holatni yaqqol namoyon qiluvchi ma'lumotni Antoni Jenkinson keltiradi. Uning yozishicha, Buxoroda "... suv va biya sutidan boshqa biror narsani ichish man etilgandir va bunday qonunni buzgan kishi topilgan taqdirda, uni bozorlarda savalab va urib olib o'tadilar.

Buning uchun alohida amaldorlar bo'lib, ular hamma uylarga kirish va uning egasida aroq, sharob... bor-yo'qligini tekshirish huquqiga egadirlar"². Bunga o'xshash holatlar keyingi davrlarda ham kuzatiladi. XIX asr muallifi P. I. Demezov: "Shaharda qanday bo'lmasin ko'ngil ochish man etilgan va shariat man etgan o'yinlarni o'ynash, kulish, tamaki chekish mumkin emas"³, - deya tasdiqlaydi.

Shohidlardan biri Buxoroda bo'lgan vaqtda kazaklarga aroq sotgan yaxudiyning rais buyrug'iga binoan turmaga tashlanganligi, "oilasidan 150 tilla" undirib olingani va uning o'zi yana "60 darra" bilan kaltaklanganligini qayd etib o'tgan edi⁴.

Xiva va Qo'qon xonligi shaharlarida xam raislar aholining ahloqi, turish-turmushini kuzatib turuvchi shaxs sifatida ularning "tamaki chekmasligi, namoz paytida uxlamasligi"ni nazorat qilib turganlar⁵.

Raislar o'g'il va qiz bolalar, kimning farzandi bo'lishidan qat'iy nazar, 7 yoshidan boshlab maktabga berilishini nazorat etib turishlari lozim bo'lgan. Shuningdek, ular hamma musulmonlar salla o'rashi, masjidlar imomlari bilimlari va shaxsiy namunasi bilan aholini haq yo'liga boshlashlarini kuzatib borishlari lozim edi.

Qo'qon xonligi misolida, shahar "ko'chalari va maydonlarida tozaalikka rioya qilinishi", aholining shaxsiy imoratlari "ko'chalarni to'sib qo'ymasligini" nazorat qilish ham raislarning vazifalari sirasiga kirar edi⁶. Ular zimmasiga (buni Buxoro xonligi shaharlari misolida kuzatish mumkin) ko'chalardan o'tuvchilarga zarar keltiruvchi turli tasodiflarning" oldini olish maqsadida aholining uy-joylarini ta'mir etishni nazorat qilish vazifasi ham yuklatilgan edi. Xiva xonligida kuzatilganidek, rais "yo'llar va ko'priklarning yaxshi holatda" tutishlarini ham kuzatib borgan¹. Raislar zimmasiga yuklatilgan vazifalar jumlasiga o'quvchilar bilan yomon muomalada bo'lgan o'qituvchilarni lavozimlaridan bo'shatish, qarzdor kishilarga qarzlari haqida eslatish kabi vazifalar ham kirar edi.

¹ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 143.

² Джонкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию. С. 182.

³ Записки о Бухарском ханстве. С. 60.

⁴ Агзамова Г. Узбекистон шаҳарлари. (XVI-XIX asrning ertalari). Toshkent. 2017. 686.

⁵ Костенко Л. Город Хива в 1873 г. С. 336; Калмыков А. Хива. С. 55; Сан тар-хан Абдуль Гафаров. Краткий очерк внутреннего построения Кокандского ханства. С. 108.

⁶ Костенко Л. Город Хива в 1873 г. С. 336; Калмыков А. Хива. С. 55; Сантар-хан Абдуль Гафаров. Краткий очерк внутреннего построения Кокандского ханства. С. 108.

¹ Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного управления. С. 45.

XIX asr muallifining qayd etishicha, Buxoroda "Raislar madrasalarga kirish va mudarrislarining qabul qilingan kurslarga Muhammadning sof ta'limotiga yot ... g'oyalarni aralashtirmasliklarini kuzatish huquqiga ega edilar"².

Raislar bozorlardagi savdo-sotiq jarayonida ma'lum tartib-intizomga rioya qilinishini kuzatib borishlari ham lozim edi. Xususan, ular savdo ahli xaridorlarning xaqqiga hiyonat qilmasliklarini, ya'ni gazmollarni kam o'lchamasliklari va tarozidan urib qolmasliklarini qattik nazorat ostita olganlar. Bu mas'ul shaxsning bozorlarni aylanishi chog'ida mazkur holatlar aniqlanganida, qattiq choralar qo'llanilgan. Qo'qonda kuzatilgan shunday holatlardan biri haqida F.Nazarov "mening oldimda hamma ko'chalar bo'ylab yalang'och bir odamni qamchin bilan savalab olib o'tdilar" - deb yozar ekan, unga xaridorning haqqiga hiyonat qilganini baqirib aytishga majbur etganliklarini, qayd etib o'tadi. Raislarning oldi-sotdini tartibga solish borasidagi bu say-harakatlari so'nggi o'rta asrlarda boshqa Sharq mamlakatlaridagi muxtasiblarining faoliyati bilan uyg'unlashib ketadi. **Muxtasiblik mansabi** mazmun mohiyati jihatidan rais mansabi bilan bir bo'lsada, XUSH-XIX asr ma'lumotlariga ko'ra, ularning faoliyati faqatgina bozordagi oldi-sotdi jarayonini tartibga solish, xunamandlar ishlab chiqargan maxsulotlarning sifatini tekshirish bilangina chegaralangan edi³.

Shaharlar raislari zimmasiga musulmon bo'lmagan aholining o'zini tutishi, shahar ichki tartibiga bo'ysunishini, ya'ni xindlar, yaxudiylar va boshqalarning shahar ichida otda yurmasliklari, salla o'ramasliklari, bellariga arqon o'miga belbog' bog'lamasliklarini kuzatib turish vazifasi ham yuklatilgan edi⁴. Ba'zi holatlarda o'zga din vakillarini islom diniga kirgizish ham raislar vazifasi hisoblangan. Sibirlik kazaklar Milyushin va Batarishkinlar o'zlarining Qo'qondagi asirliklari haqida yozar ekanlar, "Xon Musulmonqul-mingboshiga sochlarmizni olib, bizlarni musulmon diniga kirgizish uchun raisga topshirishni amr qildi"⁵, - deb qayd etadilar.

Raislikka nomzodlar, odatda, sayidlar va payg'ambarlar avlodi vakillaridan, namunali axloqiy sifatlarga ega shaxslardan tanlangan. Buxoro va Xiva xonliklarida bunday shaxslar oliy hukmdorlar tomonidan tayin etilar edi. Qo'qonda esa, shahar va viloyatlar raislari ayrim hollarda xon, ayrimlarida esa shahar hokimlari tomonidan tayinlanar edi. Poytaxt shahar Buxoro raisi boshqa viloyatlar raislari bo'ysunadigan shaxs edi¹. Qo'qon shahrida raislik vazifasini ham bajarar edi.

Katta shaharlarda bir nechta raislar bo'lishi mumkin edi. Xiva xonligi shaharlarida bittadan to'rttagacha, Qo'qon xonligi shaharlarida esa 2-3 tadan rais bo'lishi mumkin edi².

Raislar ayni vaqtda madrasalarda mudarrislik vazifasini ham o'taganlar. Ba'zan raislar qozilar safidan tayinlanib, ayni vaqtda ular qozilik vazifasini ham bajarganlar.

² Ханыков Н. Городское управление в Средней Азии. С. 79.

³ Мухаммад-Рафи Ансари. Дастур ал-мулк. С. 73.

⁴ Саттар-хан Абдуль-Гафаров. Краткий очерк внутреннего построения Кокандского ханства. С. 108.

⁵ Показания сибирских казаков Миллюшина и Батарышкина. С. 28.

¹ Семенов А. А. Очерк устройства центрального административного управления. С. 45.

² Калмыков А. Хива. С. 55, Саттар-хан Абдуль-Гафаров. Краткий очерк внутреннего построения Кокандского ханства. С. 108.

Faol xizmat ko'rsatgan raislar hukmdorlar tomonidan taqdirlanib, yuqori lavozimlarga ko'tarilganlar, qarama-qarshi holatlarda esa jazo choralari chetlab o'tmaganlar. Buning yorqin misoli sifatida XIX asrga oid quyidagi ma'lumot diqqatga sazovordir. Unga ko'ra, Nuralixon "Miskin raisni vazirlikka ko'targan". Savdogar Pichuginning 1845 yilda ko'rsatishicha, Xivada Ermiyoz rais "xonning g'azabiga uchrab, mansabidan tushirilgan, hamma mol-mulki musodara qilingan va sotib yuborilgan, uning o'zi esa qattiq kaltaklangan"³.

Raislar turli soliqlar, jumladan bozordan tushadigan soliqlar hisobiga yashaganlar. Aholining turli to'y-ma'raklarida ularga to'nlar sovg'a qilingan. Bundan tashqari, raisga Qo'qon xonligi shaharlarida kuzatilgani kabi xon yoki bek tomonidan kiyim-bosh va egar-jabduklari but ot sovhg'a qilinar edi.

Shahar hayotini tartibga solishda raislarning kunda bir necha marta shahar ko'chalarini va bozorlarini o'ziga tegishli mulozimlar bilan aylanib yurishi qonunbuzarlik holatlari aniqlanganida ularni shu yerda jazolashida muhim o'rin egallagan. Odatda, "ikki marta - ertalab va kechga yaqin" bir necha mulozimlari bilan shaharni aylangan rais uning hayotini kunduzi tartibga solib turuvchi amaldor hisoblangan⁴. Boshqaruv tizimining muhim qismlaridan birini ulardagi politsiya nazorati - mirshablar faoliyati tashkil qiladi. Mirshablar shaharlardagi tartib-intizomni saqlash uchun raislar kabi javobgar bo'lib, ular o'z faoliyatlarini raislardan farqli o'laroq tunda olib borganlar. "**Mirshab**" so'zining o'zi ham tungi hukmdor ma'nosini anglatadi.

Tarkib toptan tartib-qoidalarga binoan shaharlarda kechqurun va tunda yurish mumkin emas edi. Shahar bozorlarida savdo (ayrim hollardan tashqari) kechqurun to'xtatilar va shahar darvozalari ham kechqurun qulflanib, mirshablar tomonidan qo'riqlanar edi. Buni Xivaga oid quyidagi ma'lumotlar orqali kuzatish mumkin. XIX asr o'rtalariga mansub bo'lgan bu ma'lumotlarga ko'ra Xiva shahrining Paxlavon darvozasini Banot mirshab yetti navkari bilan, Bog'cha darvozasini Eshniyoz mirshab yetti navkari bilan, Ota darvozasini Eshniyoz mirshab sakkiz navkari bilan, Tosh darvozasini Xakim mirshab yetti navkari bilan, Ark darvozasini esa Vays mirshab o'n uch navkari bilan qo'riqlagan⁵.

Mirshablar tunda o'z yordamchilari bilan shahar ko'chalarida aylanib, bevaqt yurgan kishilarni to'xtatib, mirshabxonaga olib kelganlar¹. Bu kimsalardan ertasiga ertalab turli jamoat ishlarini bajarish, xususan, hammomlarga o't qalash, uning xonalarini tozalash kabi ishlarda foydalanganlar². Shunday hollardan biri haqida Muhammad Yusuf Munshiy: mirshab bir nechta qorovullari bilan o'g'rilar va jamoat tartibini buzuvchilarni tutish maqsadida ko'chalarni tekshirib yurgan edi", - deb qayd etadi. Mirshablar xonliklarning barcha shaharlarida mavjud edi. Bu borada ayniqsa Buxoro shahri ajralib turar edi. Ruhoniy Budrin, bu yerda politsiyaning juda qatiqqo'lligi haqida yozar ekan, kech kirishi bilan hech kim o'z uyidan tashqariga

³ Показания купца Пичугина. С. 142.

⁴ Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. С. 191.

⁵ XIX аср Хиве давлат хужжатлари. 101-6.

¹ Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного управления. С. 78.

² Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного управления. С. 48.

chiqa olmasligi, “300 kishidan iborat politsiya xizmatchilari esa tuni bilan shaharni aylanib yuradilar va uchragan har kimsani nazorat ostiga oladilar”³, - deb qayd etadi.

Buxoro shahriining bosh mirshabi ham oliy hukmdor tomonidan tayin etilib, u ham boshqa shaharlar mirshablari ustidan turuvchi mas’ul shaxs xisoblangan. Bu o’rinda Mir Muhammad Amin Buxoriyning Ubaydullaxon tomonidan Paxlavon Orif ismli kimsaning Buxoro mirshabi etib tayinlanganligi haqidagi xabari xarakterlidir.

Mirshablarga bir qancha oddiy xizmatchilar - “shogirdlar” bo’ysunar edilar.

Buxoro xonligida bo’lgani kabi Xiva xonligi shaharlarida ham mirshablar “tunda hamma ko’chalami aylanib chiqqanlar va tunda yurganlarni hibs etganlar”. Agar o’g’rini tutsalar, XIX asr ma’lumotlariga ko’ra, uni qattiq jazolar edilar. Ko’p hollarda bunday shaxslarga nisbatan o’lim jazosi qo’llanilar edi”.

Qo’qon xonligida xam politsiya nazoratining o’ziga xos ko’rinishi shakllangan bo’lib, har bir shaharda politsiya nazorati boshlig’i - **qo’rboshilar** va oddiy politsiya nazoratchilari - **mirshablar** bo’lganlar⁴. 1830 yilda Qo’qon xonligi xaqida yozar ekan, xorijiy Potanin ularni Toshkentda hokimning qaytishi munosabati bilan qo’rboshi kutib olganligini qayd etib o’tadi. Buxoro, Xiva va Qo’qon xonliklari shaharlarida shakllangan boshqaruv tizimi ulardagi bir qator umumiy va xususiy holatlarga qaramasdan mohiyati jihatidan yagona maqsadga yo’naltirilgan edi.

Shahar hayotida tutgan o’rni va ahamiyatiga mos ravishda ma’muriy boshqaruv tizimining turli bo’g’inlari xilma-xil tarkibdagi shtatlarga ega edi. Davlat shaharlar va viloyatlarda o’z siyosatini amalga oshirishda, asosan, mana shu boshqaruv organlariga tayanib ish ko’rgan. Ularning faoliyati shaharlar aholisi hayotiga foyda keltirishi, uning bir maromda kechishiga xizmat qilishi lozim edi.

Keltirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, ko’pincha amalda bu holatning aksi yuz bergan. Ayrim amaldorlar o’z mavqelaridan foydalanishga, umumiy tartib-qoidalariga rioya qilmaslikka harakat qilganlar.

Shunday qilib, **Buxoro, Xiva va Qo’qon xonliklari** shaharlarida o’ziga xos boshqaruv tizimi vujudga kelgan bo’lib, ular bir qator umumiy xususiyatlar va rivojlanish yo’liga ega edi. Shu bilan birga shaharlar boshqaruv tizimining aynan bir xonlikkagina xos xususiyatlari mavjud bo’lib, ular shaharlarning ma’muriy tuzilishidagi xilma-xilliklarni belgilaydi va tarixiy voqelikni to’g’ri anglashga yordam beradi.

Tayanch so’zlar:

Qo’rboshi, mirshab, politsiya xizmatchilari, viloyat raisi, poytaxt shaharlari, yozma manbalar, jome’ masjidi, miyonrudiya, katta rabad, mentallik, Kubo kasabasi, hukmdor saroyi, Koson darvozasi, farsax, madaniy aloqalar, mintaq, ajam, iqto, me’rojnoma, pahlaviy yozuvi, dariy tili, ruhna- hovli, maydon, as-sahla - “tekislik”, Al-hadid - “Temir darvoza”, hufra - “chuqurlik joy”, darb - “darvoza”, markaz - rayon, rayon - voha, G’irqand rustaqi.

³ Muhammad Юсуф Мунши. Мухимханская история. С. 85.

⁴ Кун А. Очерки Коканского ханства. С. 64, Саттар-хан Абдуль-Гафаров. Краткий очерк внутреннего построения Кокандского ханства. С. 108.

Savol va topshirshqlar:

1. Ushbu mavzuga oid Istahriyining qaysi asarini bilasiz?
2. Buxoro shahristonining nechta darvozasi bo'lgan?
3. Suboshitegin ismli turkiy hukmdor tomonidan barpo etilgan istehkom haqida nima bilasi?
4. Registon darvozasi haqida gapiring.
5. O'rta Osiyodagi dastlabki shahar markazlari haqidagi M.P.Sobitning fikrlari to'g'risida nimalar bilasiz?
6. Zarafshon vohasining yana bir shaharlaridan biri - Buxoro haqida gapiring.
7. Buxoroning poytaxt shaharlarini sanang.
8. Farg'ona vodiysi shaharlari haqida A.Anarbayevning fikr mulohazalari haqida nimalar bilasiz?
9. A.Anarbayevning fikricha X asrda Axsikat shahrining maydoni qancha bo'lgan?

3-Mavzu: O'rta Osiyo shaharlarining fortifikatsiyasida o'ziga xosliklar

Reja:

1. O'rta Osiyo shaharlarining fortifikatsiyasi
2. Harbiy mudofaaga mo'ljallanib, maxsus qurilgan shaharlar (No'g'oyqo'rg'on, Xonobod, To'qaytepa, Oq-ota va Quloqlitepa shahar harobalari).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017.
2. Эшов Б.Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.
3. Массон В.М. От редактора // Древние города. Материалы к Всесоюзной конференции Культура Средней Азии и Казахстана в эпоху раннего средневековья». Пенджикент, октябрь 1977 г. Л., 1977. - С. 3.
4. Беленицкий А.М., Бентович М.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973; Средняя Азия в раннем средневековье. Археология. Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. М., 1999.
5. Бобоёров Г.Б. Ғарбий Турк хоқонлигини давлат тузуми: Тарих Ғанлари докт. ... дисс-я. Т., 2012.
6. Шониезов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Т., 2001. - 141-150-б

Odatda o'z ichiga ulkan xududlar hamda bo'ysunuvchi yoki mustamlaka o'lkalarni olganligi bilan boshqa davlat shakllaridan ajralib turuvchi imperiyalarning markazlari - poytaxt va qarorgohlari o'zida siyosiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy munosabatlarni eng ko'p aks ettirishi bilan ahamiyatli. Biroq bu kabi qarorgohlar tez-tez o'zgarib turganligidan ba'zan ularning soni bir nechtagacha ham yetishi mumkin edi¹. Bunday ko'ppoytaxtlik udumi Yevrosiyo mintaqasidagi ko'plab imperiyalar uchun xos bo'lgan.

Mintaqaning ana shunday imperiyalardan biri bo'lgan Turk xoqonligining ma'muriy-siyosiy markazlari alohida o'rganilmaganligi uchun xoqonlik tarixiga doir adabiyotlarda uning faqat ikkita poytaxti: - **Utukan** va **Suyab** bo'lganligi to'g'risida

¹ Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 109б.

soʻz yuritiladi. Biroq ulkan hududlarni qamrab olgan hoqonlikning ikkita qanotga boʻlinganligi, oʻz oʻmida ular ham yana ikkiga ajralganligi, chorvadorlar udumiga koʻra mavsumiy qarorgohlar va hukmdor xotinlarining alohida qarorgohlarga ega boʻlganliklari kabi omillar koʻzda tutilsa, bunday markazlar aslida anchagina boʻlgan koʻrinadi. Buni oʻsha davr yozma manbalarida xoqonlarning bir qancha oʻrdu - qarorgohlari va poytaxt shaharlari toʻgʻrisidagi qaydlardan ham bilsa boʻladi. Qizigʻi shundaki, ushbu va poytaxtlarning koʻpchiligi Toshkent vohasi, Janubiy Qozogʻiston va Yettisuvda joylashgan edi. Masalan, soʻnggi yillarda turk xoqonlari oʻz tangalarini boshqa biror joyda emas, aynan Chochda zarb etgani, ayrim turk xoqonlari oʻzaro taxt talashuvlari paytida Chochdan boshpana topishgani ham ushbu xulosaning anchayin ishonarli ekanligini koʻrsatadi.

Jabgʻukat va Xotunkat - xoqonlarning qishlik qarorgohlari, Arab va fors manbalarida berilishicha, Chochdan shimolga - Isfijobga olib boruvchi asosiy karvon yoʻli “Turk yoʻli” yoki “Shosh yoʻli” deb atalgan². Binkat (bugungi Toshkentdagi Eski shahar oʻmi)ning shimolrogʻidan, dasht bilan chegara xududda dehqonchilik vohalarini chorvachilik hududlaridan ajratib turuvchi devor oʻtgan boʻlib, u sharqda Soylik (Soblik) togʻidan oʻtib, gʻarbda Sirdaryogacha tutashgan edi³.

Bu yoʻlda, devorning ichkarisida joylashgan ilk shaharlardan biri **Jabgʻukat** boʻlib, uning aynan mana shu yoʻlda joylashganligi ham shunchaki emas edi. Chunki shahar dasht bilan tutash, qolaversa, **Ming-buloqqa** yaqin joyda boʻlgan.

Istahriy (X yuz yillik) uni Chochdan Iloqqa olib boruvchi yoʻldan sharqda, Turk (Chirchiq) daryosi vodiysida, devorning ichkarisidagi shaharlar qatorida tilga olgan va Binkatdan Turk daryosining qirgʻogʻidagi Jabgukatgacha boʻlgan yoʻlni 2 farsax (chamasi 6 km) deb koʻrsatgan. Umuman olganda shahar va qishloq manzilgohlarining tuzilishida integratsiya kuzatiladi. Bunda shaharning **fortifikatsiya** qismi muhim rol oʻynagan.

Buni quyidagi manbaalar ham tasdiqlaydi: “Xudud ul-olam” asari (X yuz yillik)da ham Binkatdan 2 farsax uzoqlikda joylashgan Jabgukat “chiroyli shahar boʻlib, eskida Chochning gʻarbiy lageri (lashkargoh) edi” deb tavsiflangan¹. Shuningdek, Qudama ibn Jaʼfar va Muqaddasiy kabi arab geograflari (X yuz yillik) ham uni “**ichki mudofaa** devoriga ega **harbiy lashkargoh**” deb taʼriflashgan.

Oldin Jabgʻukatning etimologiyasiga toʻxtalsak. Ilk bor V.V.Bartold ushbu shahar nomini turkcha **yabgʻu (jabgʻu)** unvoni bilan bogʻlab, lugʻaviy jihatdan uning “Jabgʻu shahri” maʼnosini anglatganligi va shahar harobasi Boʻzsuv qishlogʻi yaqinidagi sobiq Niyozbek qalʼasi oʻmida boʻlganligini chamalagan edi. Keyinrok Y.F. Buryakov ham Jabgʻukatni xon qarorgohi oʻmidan qad koʻtargan turkiy nomdagi shaharlardan biri boʻlganligini yozgan. Gʻ.B.Boboyorov esa Jabgʻukat Choch vohasi Turk xoqonligiga kirgan paytda (VI-VII yuz yilliklar) “ilk turk hukmdorlari qarorgohi sifatida paydo boʻlgan” deb masalaga yanada oydinlik kiritgan.

Bilamizki, turkiy xalqlarda eskidan **poytaxt** yoki **qarorgoh vazifasidagi** shahar nomini **hukmdor unvoni** bilan atash udumi boʻlgan. Bunga, Jabuykad,

² Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017.1096.

³ Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017.1096.

¹ Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017.1106.

Xatunkat, Xatunbaliq, Xanbaliq kabi bir qancha shahar nomlarining turkiy unvonlardan yasalganligi misol bo'ladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, shahar nomlarining bu kabi unvonlardan yasalishi boshqa xalqlarda kam uchraydi².

Jabg'ukatning Choch vohasidagi qaysi shahar harobasiga to'g'ri kelishini va unga qachon asos solinganligini arxeologik materiallar orqali oydinlik kiritishi mumkin. O'tgan yuz yillikda Toshkent vohasini o'rgangan arxeologlar Jabg'ukatni birinchi Toshkent shahrining shimoli-sharqdagi Do'mnon qishlog'idan 4 km janubda joylashgan Tugaytepa (aslida **To'qaytepa** bo'lishi kerak - M.X.), keyinroq, uning shimolidagi **Oq-ota** shahar harobasi o'mida bo'lganini aniqlashgan³.

Chunki manbalarda Binkatdan 2 farsax uzoqlikda bir-biriga yaqin ikkita shahar: Jabg'ukat va Xotunkatning joylashganligi ularning o'mini aniqlashda biroz qiyinchilik tug'dirgan.

Shunga qaramay, barcha ma'lumotlarni sinchkovlik bilan o'rganib chiqqan YU F.Buryakov Binkatdan shimoli-sharqda joylashgan Jabg'ukat Oq-ota shahar harobasiga, undan janubi-sharqda joylashgan Xotunkat esa To'qaytepa yodgorligiga to'g'ri kelishini ilgari surgan. Lekin arxeolog M.I.Filanovich Jabg'ukatni Xonobod shahar harobasi bilan, arxitektor A.Ziyayev esa Quloqlitepa shahar harobasi bilan tenglashtirishgan⁴.

5-6 m balandlikdagi sitadelga ega bo'lgan Oq-ota harobasining umumiy maydoni 18 ga bo'lib, yodgorlik ilk bor 1940 yilda M.E.Voronets tomonidan o'rganilgan¹. Afsuski, arxeologlar yodgorlikda keng qazish ishlarini o'tkazishmagan, biroq stratigrafik shurf orqali tekshirilganida, u yerdan VII - VIII, X - XII va XV yuz yilliklarga tegishli materiallar topilgan². Yodgorlikning yuqori qismi ekinlar, qabriston, inshootlar va yo'llar tufayli anchayin buzilgan. Uning uncha qalin bo'lmagan ilk qatlamidan V - VII yuz yilliklardagi sarg'ish va qizg'ish angob berilgan sirlanmagan sopol parchalari topilgan. Yodgorlikning eski markaz qismi - ilk o'rta yuz yilliklarga oid sitadeli, aynqksa, aniq ajralib turadi.

Sitadeldagi arxeologik tekshiruvlar natijasida uning pastki qismidan paxsali binolar uyumi hamda kamroq miqdorda sirlanmagan sopol buyumlari topilgan. Shuning uchun, ayrim arxeologlar Oq-otani shahar emas, balki manzilgoh deb baholagan bo'lishlariga qaramay, Y.F.Buryakov uning shaharcha bo'lganligiga shubha yo'q, deb qaragan.

Shunday qilib, manzilgoh 1 ming yillikning ikkinchi yarmi boshlarida gullab-yashnaydi. X yuz yillikka kelib esa, u uncha katta bo'lmagan shaharga aylanadi. XI - XII yuz yilliklarda u yanada o'sadi, turli xil topilmalarga ega mustahkam arxeologik qatlami aynan shu davrlarga tegishli. Jabg'ukat to'g'risidagi yozma manbalar va arxeologik materiallardagi juda oz sonli ma'lumotlar qisqacha shular.

Demak, Oq-ota shahar harobasidagi arxeologik tekshiruvlar uning eng pastki qatlamidagi materiallarning V yuz yillikka tegishli ekanligini ko'rsatgan. Aynan shu

² Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII asrlarda). Тошкент. 2017.1116.

³ Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII asrlarda). Тошкент. 2017.126.

⁴ Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII asrlarda). Тошкент. 2017.1136.

¹ Буряков Ю.Ф. Археологические материалы к этнической истории бассейна Средней Сырдарьи в древности и средневековье // Материалы к этнической истории населения Средней Азии. Т., 1986. - С. 50-51.

² Буряков Ю.Ф. Археологические материалы к этнической истории бассейна Средней Сырдарьи в древности и средневековье // Материалы к этнической истории населения Средней Азии. Т., 1986. - С. 50-51.

davrda u manzilgoh bo'lib shakllana boshlagan. Yodgorlikdagi sitadelning ilk o'rta yuz yilliklarga tegishli ekanligi uning Turk xokonligi bilan bog'lik holda qad ko'targanini ko'rsatadi.

Endi shu va boshqa manbalardagi ma'lumotlar asosida Jabg'ukat qachon, nima uchun va kim tomonidan qurilganligiga oydinlik kiritish kerak. Bu borada VI - VII yuz yilliklarda Chochda yuz bergan siyosiy voqealar ham ancha qo'l keladi.

Yozma manbalarga ko'ra, 555 yilda Istemi eftalitlarga qarashli yerlardan birinchi Choch hukmdorligini qo'lga kiritadi³. Bizningcha, aynan shu vohalar bilan bog'liq holda Jabg'ukat birinchi harbiy maqsadlar -**qo'shin saqlash, qo'shinning harbiy tayyorgarligi** va boshqalar uchun mo'ljallab qurilgan. Balki Istemi boshchiligidagi turklarning eftalitlarga qarshi keyingi yurishlarida Jabg'ukat harbiy baza, qo'rg'on vazifasini o'tagandir. Chunki arxeologik qazishmalar unga VI yuz yillik o'rtalarida asos solinganligini tasdiqlaydi. Qolaversa, xuddi shu davrda Istemi va uning davomchilari bo'lmish xoqonlar **"jabg'u"** unvoni bilan yuritilganligi ko'zda tutilsa, shahar nomi shunchaki **"Jabg'u shahri"** ma'nosini anglatmaganligi oydinlashadi⁴.

Bilamizki, chorvador xalqlarda skiflar davridanoq havf-hatar, chorva, don-dun, oziq-ovqat zahiralari asrash kabi yuzaga kelgan shart-sharoitlar tufayli mudofaa inshootlarini qurish udumi bo'lgan. Bunday mudofaa inshootlari odatda chegaralar yaqinida, strategik ahamiyatga ega joylarda qurilgan bo'lib, ularning devorlari juda pishiq va mustahkamligi bilan ajralib turgan.

Olimlar bunday mudofaa inshootlarining ikki turda bo'lganligini ilgari surishadi. Birinchi turi - ichida hech qanday qurilish inshootlari -saroy, ibodatxona va boshqalar bo'lmay, faqat askarlarning chodir uylaridan tashkil topgan va atrofi mustahkam devorlar bilan qurshalgan mudofaa inshootlaridir.

Bir qator arxeologik izlanishlar chorvadorlarda ham shaharchilik bo'lganligini va shaxarchilik an'anasi keyinchalik dehqonchilik va urbanizatsiya markazlari bo'lgan eski Sharq madaniyatlariga ham ko'chganligini ko'rsatmoqda⁵. Xususan, O'rta Osiyoning ko'chmanchi va o'troq madaniyatlari orasidagi o'ziga xos bufer tutash xududlar - masalan, Choch va Farg'onada chorvadorlar eskidan o'z manzillarini xandaqlar va tuproq qo'rg'onlar bilan o'rashgan².

Ikkinchi turi esa, atrofi mustahkam devorlar bilan qurshab olinib, ichida askarlarning chodir uylaridan tashqari hukmdor saroyi ham bo'lgan mudofaa inshootlaridir. Bunday turdagi mudofaa inshootlariga Arkaim (Chelyabinsk), Shaganor-3 (Tuva), Mag'i qo'rg'on-(Mo'g'uliston), Buzuq (Ostona), Jabg'ukat (Toshkent) kabi yodgorliklarni kiritish mumkin.

³ Буряков Ю.Ф. Археологические материалы к этнической истории бассейна Средней Сырдарьи в древности и средневековье // Материалы к этнической истории населения Средней Азии. Т., 1986. - С. 50-51.

⁴ Moravcsik G. Byzantinoturcica T. 2. Berlin 1958. - P. 130-131, 290;

⁵ Зданович Г.Б. Аркаим - культурный комплекс эпохи средней бронзы южного Зауралья // Российская археология. - М., 1997. - №2. - С. 47-62;

⁶ Абдуллаев Б.М. Қадимги Фарғона мудоғая иншоотларида кўчманчилар маданиятлари излари // Ўрта Осиёнинг қадимги ва Ўрта асрлар шаҳар маданияти аъвалари. Ўзбекистон Миллий университети Археология кафедрасининг 70 йиллигига бағишланган илмий анжуманига йўлланган маърузулар тўплами. Т., 2010. - 27-28-б.

Jumladan, Oq-otaga oʻxshash shahar harobalarini Tuva va Janubiy Qozogʻiston hududlarida oʻrgangan arxeologlarning fikricha, atrofi mustahkam devorlar bilan oʻralgan, bir nechta darvozasi boʻlgan, oʻrtasida sitadel, uning atrofida esa qoʻshinning chodirlari joylashgan mudofaa qoʻrgʻonlari birgina harbiy maqsadlar uchun emas, balki vaziyat talab qilganida maʼlum vaqt oliy hukmdorlarning yashashi uchun ham moʻljallangan. Shuningdek, urushlar paytida uning atrofidagi **chorvador aholiga yashirinish imkonini beruvchi** bunday qoʻrgʻonlarda madaniy qatlam unchalik qalin boʻlmagan³. Shunga oʻxshash harbiy qarorgoh yoki qoʻrgʻonlar eski turkiy tilda **qorriyan, turuy, tura, ton, berik** kabi nomlar bilan yuritilgan⁴.

VI - VIII yuz yilliklarda Mingoʻrik yodgorligi atrofida 5 ta shaharcha qad koʻtargan boʻlib, ular gʻarbda **Noʻgʻoyqoʻrgʻon**, janubda **Xonobod**, sharqda **Toʻqaytepa**, shimoli-sharqda **Oq-ota** va shimoli-gʻarbda esa **Quloqlitepa** shahar harobalaridir⁵.

Ular orasida Xonobod shahar harobasi arxeologik jihatdan boshqalariga qaraganda toʻliqroq oʻrganilgan. Ushbu yodgorlikning devorlarini oʻrganish jarayonida mutaxassislar shahar harbiy mudofaaga moʻljallanib, maxsus qurilganini qayd etishgan. Umuman, beshala shahar harobalarining maydoni unchalik katta boʻlmasa-da, ular oʻzining juda mustahkamligi bilan ajralib turgan⁶. Demak, Jabgʻukat ham ana shunday mudofaa inshooti oʻlaroq qurilgan boʻlib, unda sitadelning ham boʻlganligi bir vaqtning oʻzida u oliy hukmdorning muayyan muddat yashash joyi boʻlib xizmat qilganligini koʻrsatadi. Lekin bu oliy hukmdor kim boʻlishi mumkin?

Garchi baʼzi tadqiqotchilar Jabgʻukatni Tun yabgʻu-xoqon (618-630)ning qishlik qarorgohi boʻlgan deb topgan boʻlsalar-da, boshqa mutaxassislar uning ancha oldinroq - VI yuz yillikning oxirgi choraklarida qurilganligi ehtimoli yuqori ekanligini ilgari suradilar¹. Chunki keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar xoqonlik Gʻarbiy qanoti oʻzining shakllanish jarayonida quyidagi 3 ta bosqichni bosib oʻtganligi aniqlandi:

Yabgʻulik davri (VI yuz yillikning 60-yillari va oxirgi choragi) - hukmdorlar **yabgʻu** unvoniga ega boʻlib, markaziy hokimiyatga, yaʼni Sharqiy xoqonlikka tobe boʻlganlar;

2) **Yabgʻu-xoqonlik** davri (VI yuz yillikning oxirlari – VII yuz yillikning 30-yillari) - Gʻarbiy qanot siyosiy jihatdan deyarli mustaqil, Markaziy xoqonlikka esa nomigagina boʻysungan va hukmdorlar **yabgʻu-xoqon** unvonini qoʻllashgan;

3) **Xoqonlik** davri (VII yuz yillikning 30-yillari - VIII yuz yillikning ikkinchi choragi) - 630 yilda Tan imperiyasi tomonidan Markaziy (Sharqiy) xoqonlik tugatilgach, Gʻarbiy qanot toʻla mustaqil davlat - xoqonlikka aylangan. Endi uning hukmdorlari oliy hokimiyatni anglatuvchi **xoqon** unvoni bilan yuritilgan².

³ Кызласов Л.Р. История Южной Сибири в средние века. М., 1984. - С. 145-147.

⁴ Хатамова М. Ўзбекистон шахарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 1176.

⁵ Хатамова М. Ўзбекистон шахарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 1176.

⁶ Хатамова М. Ўзбекистон шахарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 1186.

¹ Хатамова М. Ўзбекистон шахарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 1186.

² Бабаяров Г., Кубатин А. Древнетюркские топонимы Чачского (Ташкентского) оазиса // Историко-культурное наследие и современная культура Сборник материалов международного научно-практического семинара

Agar yuqoridagi bosqichlardan kelib chiqilsa, u holda Jabg'ukat uning ilk bosqichi - **Yabg'ulik** davri (VI yuz yillikning 60-yillari va oxirgi choragi)da paydo bo'lgan va shahar hukmdorlarning bu davrdagi odatiy boshqaruv unvonlari bo'lgan "jabg'u" nomi bilan atalgan. Shunday ekan, shaharga Tun yabg'u-xoqondan oldinroq asos solingan. Chunki Tun yabg'u-xoqon davrida hukmdorlar jabg'u unvonining o'zi bilangina cheklanib qolmay, balki **jabg'u-xoqon** tarzidagi qo'shaloq unvonni qo'llay boshlashgan³. Buni o'sha davming yozma manbalari ham, Toshkent vohasidan topilgan numizmatik materiallar xam ko'rsatadi⁴. Albatta, keyinroq Sheguy, Tun yabg'u kabi xoqonlar Jabg'ukatdan qishlik qarorgoh o'rinda foydalangan bo'lishlari kerak.

Endi Xotunkat shahriga to'xtalsak. Bilamizki, eski turkiy udumga ko'ra, **xotun** (eski turk - **qatun**) **unvoni**⁵ xukmdorning onasi yoki uning bosh xotinining ismiga qo'yilgash. (Izoh: "Hukmdorning onasi" deganda uning chinakam onasi emas, balki "katta onasi", to'g'rirog'i, otasining katta xotini tushunilgan. Eski qadimgi turkiy udumga ko'ra, taxt vorisi otasining o'limidan keyin uning katta xotini, ya'ni "katga onasi"ga uylanishi kerak edi. Biroq bu nikoh fakat ramziy ahamiyatga ega bo'lgan, xolos va ma'lum bir siyosiy maqsadlarni ko'zlar edi). (Smimova O.I. Tyurkologicheskiye zametki // SNV. - Vip. 11.-M., 1971. -S. 64-65).

Turk xoqonligida ushbu unvon bilan yuritilgan hukmdorning birinchi, ya'ni ilk va bosh xotini xoqondan keyingi eng yuqori o'rinda turgan va davlat ishlarida faol qatnashgan. Xususan, xoqon vafot etgudek bo'lsa, o'rmini egallaydigan o'g'li kichik yosh bo'lsa, **xotun** uning nomidan hokimiyatni boshqargan. Harbiy safarlar chog'ida xam xotunlar hukmdorlar yonidan joy olganlar, shuningdek, ular xukmdor saroyda bo'lmagan paytda saroyni boshqarib, elchilarni ham qabul qilganlar. Turk xoqonlari tomonidan VI - VII yuz yilliklarda bostirilgan mis tangalarda hukmdor rasmi bilan birga ko'pincha uning turmush o'rtog'i - **xotunning** ham tasvirlanishi shunchaki emasdi¹. Tangalarning o'ng tomonida xukmdor va malika tasvirlangan, orqa tomonida esa so'g'diy yozuvida **MRY** ("hukmdor") va **x'twnh** ("xotun") jumalari chekilgan. Bu ham eski turk davlatchiligida malikalarning nufuzi yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.

Qatun atamasini "**Afrosiyob qizlaridan bo'lganlarning nomi**" deb tushuntirgan Maxmud Qoshg'ariy² Afrosiyob qizlarining bir qancha shaharlarni qurdirganligini ham keltirib o'tgan³. Garchi Mahmud Qoshg'ariyning bu

«Историко-культурное наследие и современная культура». 30 ноября 2012 г., г. Алматы. А. 2012. - С. 168-182.

³Бабаев Г., Кубатин А. Древнетюркские топонимы Чачского (Ташкентского) оазиса // Историко-культурное наследие и современная культура / Сборник материалов международного научно-практического семинара «Историко-культурное наследие и современная культура». 30 ноября 2012 г., г. Алматы. А. 2012. - С. 168-182.

⁴Бабаев Г., Кубатин А. Древнетюркские топонимы Чачского (Ташкентского) оазиса // Историко-культурное наследие и современная культура / Сборник материалов международного научно-практического семинара «Историко-культурное наследие и современная культура». 30 ноября 2012 г., г. Алматы. А. 2012. - С. 168-182.

⁵Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017.1196.

¹Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 1186.

²Бабаев Г. Чач в период Тюркского каганата // Археология и история Центральной Азии. К 70 летию Ю.Ф.Буякова. Самарканд, 2004. - С. 28-36;

³Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 1196.

ma'lumotlari afsonaviy mazmunga ega bo'lsa-da, aslida uning ostida muayyan tarixiy haqiqat yotadi. Chunki Markaziy Osiyo va unga tutash xududlarda **xotun-qatun** unvoni bilan bog'liq ko'plab joy nomlari uchraydi. Mutaxassislarning fikricha, ushbu joy nomlarining kelib chiqishi eski turkcha **xotun** so'zi bilan bog'liq.

Yozma manbalarda xukmdor xotunlarining alohida turar-joylari bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlar turli davrlarga tegishli bo'lishiga qaramay, ular deyarli bir xil mazmunga ega.

Jumladan, xitoy yilnomachilari eftalitlar to'g'risida shunday yozishadi: "Odatlari tukyue (turk)larnikiga birmuncha o'xshab ketadi. ... Xukmdorning xotinlari bir-biridan 200-300 li uzoqlikda alohida yashashadi. Hukmdor tartib bilan ularni aylanib chiqadi. Har oyda bitta joyda bo'ladi, qishki sovuq vaqtda uch oy sayyohat qilmaydi⁴.

Ayrim olimlar turk xoqonlari o'z xotin va bola-chaqalarini vodiylarning ichkarisidagi mustahkam joylarda qoldirishgan, deb hisoblaganlar va bunday qarorgohlar urush paytida hukmdorning xotini va bola-chaqalarini himoyalash uchun qurilganidan umumiy "xotun shaharlari" deb yuritilgan⁵. Bunday "xotun shahar"lari, ayniqsa, eskidan turkiy xalqlar keng tarqalgan hududlarda yaxshi saqlanib qolgan. Masalan, Sharqiy Turkistondagi **Xotun-baliq**, **Xotun-sini**, Chochdagi **Xotunkat**, Mo'g'ulistondagi Urdu-baliq (Qorabolg'asun) yaqinidagi uyg'ur malikalari shahri **Xotun-baliq** nomli shaharlar shular sirasiga kiradi.

Demak, Turk xoqonligi shaharchiligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu - xukmdor xotini o'zining alohida qarorgoh-shahriga ega bo'lishidir. Bu shahar nomi ostida ham eski turkiy udum - davlat boshqaruvida bosh hukmdor - xoqon bilan birgalikda doimo uning ayoli - **xotun** unvonli malika joy olishi udumi yotganligini ko'rish mumkin.

Albatta, xukmdor qarorgohi yaqinida, u bilan yonma-yon uning ayoli - xotun qarorgohining ham bo'lishi udumi Turk xoqonligi davridagina paydo bo'lib qolmagan. Uning ildizlari **xun va syanbilar** davriga borib takaladi¹. Itil (Volga) daryosi sharqidagi hazar shaharlaridan birining nomi **Xatip-valuu** tarzida tiklangani bu udumning g'arbda xazarlar tomonidan ham keng yoyilganligini ko'rsatadi². Keyinchalik uyg'ur, kidan, mo'g'ul kabi mintaqaning boshqa xalqlarida ham xotunlarning o'z shahar-urdulari bo'lganligi to'g'risidagi qaydlar manbalarda saqlanib qolgan.

Biroq turkiy xalqlarda **Xotun-baliq** - "Xotun shahri" nomi bilan yuritilgan bunday shaharlar bir vaqtning o'zida turli yerlarda joylashgan bo'lishi mumkin edi. Shuning uchun, bunday "xotun shahar"larining o'rmini aniqlash va ularning qaysi davrga tegishli ekanligini belgilashda mutaxassislar qiyinchiliklarga uchraydilar. Bu kabi "xotun shahar"laridan biri Chochda joylashgan edi. Bu shahar ilk bor xitoy manbalarida 640-yillarda El-Bilga Turk xoqoni (**xit**. Ibi Dulu kexan; 638-642)ning

⁴Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах М.-Л, 1950. Т. 2. - С. 310.

⁵Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 121б.

¹Ал-Идриси. Ктаб нузхат ал-муштак фи-хтирак ал-афак (Развлечение истомленного и странствование по областям [Вселенной]) / Пер. с араб. Ш.Закирова // Материалы по этнической истории тюркских народов Центральной Азии. Т., 2003. - С. 52.

²Толстов С.П. Города гузов // СЭ. - М., 1947. - №3. - С. 72.

Chochga qochib borib, u yerdagi **Koxotun-chen** shahridan boshpana topishi voqeasi ilan birga tilga olinadi³. Ushbu ma'lumotga ilk bor o'z e'tiborini qaratgan O.I.Smirnova **Ko-xo-tun-chen** aslida Xotunkat ekanligini ilgari surgan.

Keyinroq bu shahar arab-fors manbalarida *Xotunkat* shaklida ham bir necha bor berilgan. Jumladan, Istaxriy o'z asarida quyidagi ma'lumotni qoldirgan: "Kalosning orqasidagi Parak daryosi va Shosh devori orasida joylashgan Xotunkat bosh shahardan (bu yerda Binkat ko'zda tutilyapti - M.X.) 2 farsax uzoqlikda qad ko'targan, Barkush esa Xotunketdan xuddi shu yo'nalishda 3 farsax uzoqlikdadir. Undan Xarg'ankatgacha sharqqa tomon to'g'ri yo'l bo'ylab 4 farsaxdir⁴. Arxeologlar tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar Xotunkat shahri harobasi bo'lmish To'qaytepa (Toshkent shahrining shimoli-sharqidagi Do'rmon qishlog'idan 4 km janubda) ning to'g'riburchak shaklda (380x250 m) bo'lganini va burchaklari to'rt tomonga qaratilganini ko'rsatadi. Shaharning sharqiy burchagida kvadrat shakldagi balandligi 6 m, devorlari bilan birga 60x60 m bo'lgan hamda shahristondan sun'iy xandaq orqali ajralib turuvchi sitadel joylashgan. Yodgorlikning uncha qalin bo'lmagan ilk qatlamidan VI - VII yuz yilliklarga oid sarg'ish va qizg'ish rang bilan pardozlangan sirlanmagan sopol buyumlari topilgan. Shuningdek, shahar hayotining oxirgi bosqichi bo'lgan XI - XII yuz yilliklardagi anchagina qalin qatlamidan xilma-xil sirlangan naqshinli sopol buyumlar, moviy rangdagi takinchoqlar va Qoraxoniylar davriga tegishli pishiq g'ishtlar chiqqan. Shunday qilib, I ming yillikning ikkinchi yarmi boshlarida asos solingan ushbu yodgorlik X yuz yillikka kelib uncha katta bo'lmagan (10 ga kamroq) shaharchaga aylangan, XI - XII yuz yilliklarda esa u yanada gullab-yashnagan⁵.

Keltirilgan ma'lumotlardan nima uchun turk xoqonlari O'tukan, Suyab, Besh-baliq yoki Talas kabi o'zlarining poytaxt shaharlari qolib, aynan Chochda, ichida sitadeli ham bo'lgan mustahkam qarorgoh - Jabg'ukat va uning yaqinida Xotunkat shahrini qurishgan degan savol tug'iladi. Har qanday hukmdor o'z qarorgohining har tomonlama qulay bo'lgan xududlarda joylashishini istaydi. Turk xoqonlari ham o'zlariga markaz tanlashda bir tomondan stragegik maqsadlarni, boshqa tomondan esa dehkonzilik va chorvachilikka birdek qulay bo'lgan xududlarni ko'zda tutgan bo'lishgan ko'rinadi. Choch o'zining geografik joylashuviga ko'ra, xoqonlik G'arbiy qanotidagi aynan shunday qulay xududlardan biri sanalgan. Shuning uchun, Choch - Turk xoqonligining siyosiy markazlaridan biri joylashgan xudud bo'lgan⁶.

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib quyidagi xulosalarga kelish mumkin: **birinchidan**, arxeologik va qisman yozma manbalardagi ma'lumotlar Jabg'ukat (Oqota) shahrining aynan VI - VII yuz yilliklarda qad ko'targanligini ko'rsatar ekan, u Turk xoqonligi bilan bog'lik holda birinchi qo'rg'on o'laroq paydo bo'lgan; **ikkinchidan**, uning xoqonlik G'arbiy qanoti boshqaruvchilariga xos **jabg'u** unvoni

³ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. М.-Л, 1950. Т. 2. - С. 288.

⁴ Ёйи Хаввал. Китоб сураг ал-ард: Моваруннахр / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011.

⁵ Бураков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Т.: Фан, 1975. Ст.73.

⁶ Бобоев Г.Б. Чоч Ғарбий Турк хоқонлигининг бошқарув марказларидан бири сифатида // Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Халқаро илмий конференция маърузалари. Т., 2009. - 118-125-б.

bilan "Jabg'ukat" deb nomlanligi shaharning poytaxt-qarorgoh vazifasini bajarganligini ko'rsatadi, **uchinchidan**, Jabg'ukat bilan bir vaqtda, unga yonma-yon qurilgan Xotunkat (Tuqaytepa) shahrining ham bo'lganligi bu shaharning uzoq vaqt xoqonlar qarorgohi o'laroq xoqonlikda katta o'rin tutganligini ko'rsatadi.

Bing-yul - Ming-buloq (Merke) - xoqonlarning yopiq qarorgohi. Turk xoqonligi qo'shinlarining g'arbga yurishi **Muqan xoqon va Istemi yabg'u** nomlari bilan bog'liq. 563 yilda **Muqan xoqon** markaziy boshqaruvni ham, poytaxtni ham O'tukanga ko'chiradi. Xuddi shu yili **Istemi** ham o'z qarorgohini Tangritog'dagi Yulduz vodiysiga quradi va **Si-miyen** - "G'arbga qarovchi, mas'ul" nomini oladi³.

Keyingi turk xoqonlaridan Apa xoqon (Dalobyan 583-587) ham o'ziga boshqaruv markaz deb Yulduz (Ying'- r'o) vodiysini⁴ tanlagach, biri shimolda, boshqasi esa janubda joylashgan ikkita "kichik xoqonlik" yuzaga keladi. Shimoldagi "kichik xoqonlik"ning qarorgohi Besh-baliq (E.Shavannga ko'ra, Kuchaning shimolidagi Yulduz vodiysida) yaqinida, janubdakiniki esa Ming-buloqda joylashgan edi. Apa xoqonning nevarasi Churi xoqon (603-610) ham xuddi shunga o'xshash "kichik xoqonlik"lar tashkil etib, ularning qarorgohlarini ham aynan shu xududlarda quradi¹. Churi xoqondan keyin yana bir turk xoqoni Sheguy (611-618) ham o'z markazini Kucha xukmdorligining shimolidagi **San-mi-shan** tog'ida quradi².

Bundan boshqa "**Tan-shu**"da G'arbiy Turk xoqonligining eng qudratli hukmdorlaridan biri Tun yabg'u-xoqon (618-630) o'z xokimiyatining ilk yillaridayoq qarorgohini **Shi** (Choch) hukmdorligining shimolidagi Syan-syuan mavzesiga ko'chirgani va bu yerdan turib, vassal G'arbiy o'lkalar ustidan nazoratni kuchaytirganligi uktiriladi. Tun yabg'u-xoqonning siyosiy markaz mohiyatidagi qarorgohini Yettisuvdan Choch vohasigat ko'chirishidan maqsadi, xar holda vohaning strategik jihati bilan bog'liq bo'lsa kerak. Xususan, Choch o'zining geografik joylashuviga ko'ra, mintaqaning shimoli-sharqiy qismidagi chorvador xalqlar bilan uning janubi-g'arbiy qismidagi dehqon xalqlari orasida siyosiy-madaniy va tijoriy aloqalar uchun ko'priq vazifasini o'tardi. Ayniqsa, bu hudud xoqonlik qo'li ostiga o'tgach, vohada tijoratning gurkirab o'sa boshlashi xoqonlar e'tiborini tortmasdan qolmasdi. Qolaversa, Choch vohasida qarorgoh qurish dasht va vohalar ustidan boshqaruvni yanada qulaylashtirishga olib kelardi.

Demak, buning ostida xoqonlarning strategik maqsadlari yotgan. Tun yabg'u-xoqonning Shimoliy Xindiston, Shimoli-Sharqiy Eron va Kavkaz hududlarida olib borgan siyosati shuni ko'rsatadiki, uning bosh strategiyasi G'arbiy o'lkalarda o'z hokimiyatini kuchaytirish bo'lgan. Chochning o'ziga xos jihatlari Tun yabg'u-xoqondan oldin o'tgan hukmdorlarning ham e'tiboridan chetda qolmagan edi. 603-610 yillarda hukmronlik qilgan Chulo xoqon xam xuddi shunday qilgan.

Shuningdek, 651-657 yillarda xoqonlikning Ashina sulolasidan bo'lgan so'nggi mustaqil hukmdorlaridan biri Ishbara xoqon (Ashina Xelu; 651-657) ham o'ziga qarorgoh deb **Ming-buloq**ni tanlagan. Shundan so'ng, "**O'n O'k**" kabilalarining

³ Мори М. Политическая структура древнего государства кочевников Монвлии. М., 1970.-С. 2.

⁴Хатамова М.М. Турк хоқонларининг Чочдаги қароргоҳлари: Жабғукат ва Хетункат // Ўзбекистон тарихи. Т.. 2009. -№ 1. -3-13-6.

¹Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 124б.

²Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 121б.

barchasini o'z qo'li ostiga to'plashga erishadi va jangovar qo'shinining soni bir necha yuz mingdan oshadi³.

Turk xoionlarining yozlik qarorgohlaridan biri o'laroq aynan Ming-buloqning tanlanishi shunchaki emas edi.

Xitoyshnos olim **Y.A.Zuev** Qang' hukmdorlarining yozlik qarorgohlarini Ming-buloq bilan tenglashtirgan. Uning fikricha, Qang' hukmdorining xun shanyuysi Chji-chjiga Talas daryosi bo'yida qo'rgon qurib berganligining sabablaridan biri ham ana shu yozlik qarorgohni qo'riqlash bo'lgan⁴. Chunki Ming-buloq bu paytda Talas ichida bo'lgan. Demak, Qang' saltanati hukmdorlarining yozlik qarorgohi keyinchalik mintaqadagi boshqa bir saltanat - Turk xohonligining ham qarorgohlaridan biringa aylangan. Bunda ham o'ziga xos legitimatsiyani kurish mumkin. "Tan-shu" yilnomasida yozilishicha, keyinchalik ham **Talasda Choch hukmdorlari** harbiy gamizon saqlagan¹.

Ming-buloq to'g'risidagi kengroq ma'lumotni xitoy rohibi **Syuan-Szan** qoldirgan:

"Suy-yedan g'arbga tomon 400 li (200 km)dan ko'prok yurib, Syan-Syuan degan joyga keldik. Syan-Syuan yeri 200 liga yaqin maydonni egallaydi. Uning janub tomoni Qorli tog' (xit. Nseh-shan, Kun-lun Pomir)² boshqa uch tomoni esa tekis dasht bilan o'ralgan. Bu joyning yeri nam, qalin o'rmonzor.

Har xil gullar bahor oylarida xuddi naqshinkor ipakka o'xshaydi. Bu yerda minglab buloq; va ko'llar bo'lib, shuning uchun ham joy nomi shunday ataladi. Tus-zyue xoqoni har yili yozning jazirama issig'idan shu yerda panoh topadi. U yerda kiyiklar to'dasi bo'lib, ko'pchilik tasmalarga osilgan qo'ng'iroqchalar bilan bezatilgan. Kiyiklar odamlarga o'rgangan va shuning uchun, ulardan unchalik ko'rqishmaydi va qochishmaydi. Tus-Zyue xoqoni ularni yaxshi ko'radi va o'z qo'li ostidagilariga ularni o'ldirishini ta'qiqlashgan. Kim ularni o'ldirsa, u ayovsiz qatl etiladi. Shuning uchun kiyiklar to'dasi bugungacha saqlanib, yashab kelmoqda"³.

Xitoy rohibi tilga olgan **Syan-Syuan** joyi aslida turkcha "Ming-buloq" toponimining kalkasidir⁴. "Syuan-Szan biografiyasi"da Syan-Syuan nomi **Pin-yu Bing-yo'l** tarzida keltirilgan. Xitoyshunos P.Pellyo Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'at at-turk" asaridagi ma'lumotga tayanib, xitoycha Pin-yu eski turkcha Bing-yo'l ekanligini o'rtaga tashlagan edi⁵. YA'ni, bing - "ming" ma'nosini bildirgan Bing-yo'l xitoycha Syan-Syuan toponimi bilan bir xil.

Eski turkcha "buloq, chashma" ma'nosidagi jul atamasi xakas, salor va chuvash tillarida bugungacha saqlanib qolgan bo'lib, ba'zan "daryo" ma'nosida ham

³Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. М.-Л, 1950. Т. 2. - С. 289.

⁴Зуев Ю.А Ранние тюрки... - С. 95.

¹ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. М.-Л, 1950. Т. 2. - С. 314.

² Хатамова М. Ўзбекистон шахарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 122б.

³ Хатамова М. Ўзбекистон шахарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 127б.

⁴ Хатамова М. Ўзбекистон шахарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 129б.

⁵ Хатамова М. Ўзбекистон шахарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 126б.

keladi⁶. Ayrim tadqiqotchilar Janubiy Sibir toponimiyasida keng o'rin olgan bu atamani Yenisey tilidan kelib chiqqan, deb uqtiradilar⁷.

Demak, Talas vodiysidagi Ming-buloq xitoy manbalarida bir vaktning o'zida turkcha *Bing-yul/Bin-yu* tariqasida, ba'zan *Syan'-Syuan'* ("Ming-bulok") shaklida xitoychaga o'girilgan (kalka) holda qayd etilgan bo'lsa⁸ (Ushbu joy nomi ba'zi arab geograflari asarlarida Abarjoj, Abarjox shakllarida berilgan. Buni arab grafikasida nuqtalar o'rining almashib qolganligi bilan tushuntirish mumkin).

Arab geograflarining asarlarida ham xuddi shu yer *Azar-xax* (so'g'd. *azar* - "ming" va *xax* - "buloq") deb berilgan⁹. Bu esa o'rganilayotgan davrda bu hududlarning aholisi ikki tilli - turkiy va sug'diy bo'lganligini ko'rsatadi.

Ming-buloqning uni borasida turli fikrlar bildirilgan. Chunki mintaqada "Ming-buloq" nomli toponimlar ko'p bo'lib, masalan, O'zbekiston va Qozog'iston chegarasida joylashgan Qorjontov tizmasidagi tog' nomlaridan biri bugun ham *Ming-buloq* deb ataladi¹.

Jumladan, xitoyshunos S.Billning fikricha, agar Talas daryosi bo'yidagi Avliyo-ota (Jambul) Talas shahri bo'lsa, Syuan-szan aniq Qoragati bilan Yar-su daryolarining manbalaridan o'tgan va bu yer Syan-Syuan bo'lgan². Yana bir xitoyshunos T.Uatters esa Oqsu va Avliyo-Otaning orasida joylashgan Aleksandrovskiy tog'ining shimolidagi kichik daryolarga to'la mavze Syan-Syuan bo'lganligini o'rtaga tashlagan³. Ba'zilar esa uni VIII yuz yillikning o'rtalarida *Shi-go* ("Tosh podsholigi qal'asi") sanalgan Choch atrofidagi hudud yoki Talas o'lkasida joylashgan, deb uqtiradilar⁴.

Umuman, ko'pchilik xitoylik olimlar *Suyab* bilan *Talas* orasidagi *Ming-buloq* nomli joyni *Syan-Syuan* ularoq qabul qilishmokka⁵.

Xitoy manbasiga kura, Syan-Syuan nomli joy *Suy-yedan* 400 li va Do-lo-sigacha 150 li uzoqlikda joylashgan⁶. *Syuan-Szan* esa Talas shahrining Ming-buloqdan 150 li (70-75 km) uzoqlikda joylashganligini yozib qoldirgan. "*Sin Tan-shu*"da Ming-buloqning kengligi 200 li ekanligi uqtirilgan.

Arab mualliflarining qoldirgan manbaalariga ko'ra, Ming-buloq (arab. *Alif aup*) Isfijobdan Tarozga olib boruvchi yo'lda, Tarozdan 7-8 farsax (50 kmga yaqin; 1 farsax chaması 6-8 kmga tent.) uzoqlikda bo'lib, kengligi 6 farsax edi. Isfijobdan Tarozga eltuvchi yul bugungi katta trassadan emas, balki undan chaması 30 kmilar janubdagi dovon orqali, bugungi Groznyoye qishlog'i yaqinidan o'tgan. Syuan-Szan Suyabdan Talasga aynan shu yo'l orqali o'tgan, ya'ni o'tmishda ham, bugun xam bu yo'l Talasdan shimolda joylashgan edi.

⁶ Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 1376.

⁷ Молчанова О.Г. Топонимический словарь горного Алтая. Горно-Алтайск, 1979. - С. 40-43.

⁸ Ekrem E. Hsuan Tsang. Seyahetnamesi' ne gore Turkistan... -119-121-s

⁹ Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 1296.

¹ ЎзМЭ. 5-жид. Т., 2003. - 672-6.

² Beal S. Si-Yu-Ki. - P. 29. N 93.

³ Watter T. On Yuan Chwang's Travels in India. 629-645 A.D. Vol. London. 1904. -P.-72-74.

⁴ Зуев Ю.А. Ранние тюрки ... - 94-95; Xue, Zongzheng. Anxi and Beiting Protectorates; A Reseach on Frontier Policy in Tang Dynasty's Western Boundary. Harbin. 198.-P. 284-285.

⁵ Ekrem E.Hsuan-Tsang 'Seyahetnamesi' ne gore Turkistan... -119-s... 1-n.

657 yilda Tan sulolasi lashkarboshisi Su Din-fan xoqon Ashina Xeluni tor-mor qilish uchun yo'lga chiqqan. Bu paytda xoqon qarorgohi bo'lgan Syan-Syuanga yetib kelgan xitoy qo'shinlari bir qator janglardan so'ng Ashina Xeluni Suyab daryosi bo'yida yengadilar. Ashina Xelu va uning o'g'li Shiyun Choch hukmdori Shuneu She (shad)ning oldiga qochib borib, u yerdagi Sudu (Ushturkat) shahriga berkinadilar. Bu ma'lumotlardan Ming-buloqning Suyab yaqinida joylashganligini chamalash mumkin. Ammo ko'pchilik tadqiqotchilar Ming-buloqni Avliyo-Otadan 75 km sharqda yoki Merke shahri yaqinida bo'lgan deb qaraydilar.

Sunggi yillarda arxeolog olim A.Dosimbayevaning Merke dashtidagi uzoq izlanishlari tufayli aynan Merke shahri va uning atrofidagi Merke tog'i turk xoqonlarining yozlik qarorgohi bo'lmish Bing-yo'l ekanligini ko'rsatgan⁴.

IX – X yuz yilliklarda yashagan arab geograflari Merkeni o'rta o'lchamdagi mustahkam sitadelga ega shahar deb ta'riflashgan. Xususan, "Xudud ul-olam" asarida Merke quyidagicha tasvirlangan:

Xalluxlar yashaydigan va tez-tez savdogarlar keladigan shahar. Kulon va Mirki orasida xalluxlarning uchta qabilasi - **Bistan, Xaym va Barishlar** joylashgan..... **Shelji, Tarozi, Takabkat, Mirki, Navikat** - ham musulmonlar, ham turklar yashaydigan qishloqlardir. Bu joylar savdogarlar uchun qulay, qariuqlar darvasidir. **Farunkat, Mirki va Navikatda** turklar ko'p.

Merke shahri harobalari Merke qishlog'ining o'rtasida joylashgan bo'lib, yodgorlik V.V.Bartold, A.N.Bernshtam va A.Dosimbayevlar tomonidan o'rganilgan. To'g'ri burchak shakldagi yodgorlikning janubi-g'arbida sitadelning qoldiqlari tepalikka turtib chiqqan. Sitadel shahristondan devorlar bilan ajratilgan, devor burchaklari aylana shaklidagi minoralar bilan mustahkamlangan.

Yodgorlikdagi bosh kirish yo'li sitadelning shimoliy tomonida bo'lib, baland mudofaa devorlari yarim yoysimon joylashgan aylana shaklidagi burjlarning qo'llari saqlanib qolgan. Sitadel ikki qatorli mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Sitadelning g'arbiy va shimoliy tomonlari **Qolto'g'on** daryochasidan suv oluvchi chuqur o'ra bilan mustahkamlangan.

To'g'ri burchak shaklga ega bo'lgan shahriston aylana shaklidagi mudofaa burjlarining izlari saqlanib tashqi devor bilan o'ralgan. Merke shahrining topografik tuzilishi uchun tashqi devorlarga ham ega bo'lish xos bo'lgan. Bugungi kunda yodgorlikning "uzun" devorlari buzilgan va zamonaviy imoratlar tagida qolib ketgan¹.

Bilamizki, Choch uzoq vaqt G'arbiy qanot hoqonlarining strategik ahamiyatga ega hududlaridan biri bo'lib kelgan. VIII yuz yillik o'rtalarigacha bu yer xoqonlarning yozlik qarorgohi vazifasini bajarishda davom etganligini **Abu Ja'far at-Tabariyning "Tarix ar-rusul va-l-muluk"** asaridagi ma'lumotlardan ham bilish mumkin. Ushbu muallif 736 yil voqealarini yozar ekan, turk xoqoniga tegishli yaylovlarga boy tog' – qo'ruq borligini, unga biror kishining yaqinlashishi yoki ov qilishi ta'qiqlanganini va bu joy jang paytida xoqonlik qo'shiniga zahira yetkazib berishga mo'ljallanganini uqtirib o'tgan yozlik qarorgohida yozgi savdo

¹ Западный Тюркский каганат. Атлас ... - С. 456-457.

ko'rgazmalari uyushtirilib, uning orqasidan ular yaxshigina foyda o'urishlari mumkin edi².

Odatda hukmdor r'dusi uchun (o'rdasi bo'lishi kerak) daryo bo'ylari, tog' etagidagi toza havoli joylar, buloqlarga ega eng unumdor yerlar tanlangan. Bu tomonlama olganda Ming-buloq o'zining soya-salqin havosi bilan hukmdorlar e'tiborini tortgan va ularning issiqdan saqlanadigan joyi - yozlik qarorgohi, yaylovi bo'lgan. So'g'd savdogarlarining Ming-buloqqa qiziqishlari ham katta bo'lgan bo'lishi kerak. Chunki hoqonning yozlik qarorgohida yozgi savdo ko'rgazmalari uyushtirilib, buning orqasidan ular yaxshigina foyda ko'rishlari mumkin edi¹.

Xulosa qilib aytganda, G'arbiy qanot hukmdorlarining yozlik qarorgohlaridan biri - Ming-buloq va uning yaqinidagi Merke shahri Choch hukmdorligida joylashgan edi. Bunday yozlik qarorgoh hoqonning hashamatli o'tovi va amaldorlarning ko'plab chodir-uyalaridan iborat o'ziga xos "shaharcha" bo'lgan.

To'g'rirog'i, hoqonning qarorgohi bo'lmish "urdu" ga amaldorlar mablag' masalasida ham, yorliqlar olish uchun ham borishgan, shuningdek, chet el elchilari ham aynan shu yerda qabul qilingan. Shunday qilib, bu kabi "shaharchalar tom ma'noda siyosiy hayot markazi sanalib, o'zida davlat boshqaruvini jamlaganligi bilan ahamiyatli edi.

Tayanch so'zlar:

Qolto'g'on, Bistan, haym, Xuroson, maskan, zamok, ko'handiz, poytaxt, zindon, devon al-xaraj, farsax, Xifqara, ark, rabad, G'uriyon, alaf, koh, qachr, buxor-xudot, qo'rg'on, istehkom, Haqqroh, ustun, tosh ustun, at-Tavovis, mardkushon, moh, ko'cha, xonaqoh, saroy, kent, qant.

Savol va topshiriqlar:

1. Oq ota xarobasi kim tomonidan o'rganilgan va nechanchi yillar?
2. Arxeologlar Oq ota xarobasidan nechanchi asrga oid arxeologik manbaalar topganlar?
3. Jabg'ukat qanday shahar bo'lgan?
4. Yabg'u- Jabg'u unvoniga batafsil tushuncha bering.
5. Oq ota nechinchii yillar gullab yashnagan?
6. O'rta Osiyodagi mavjud harbiy qarorgohlar haqida nimalar bilasiz?
7. Xonobod shahar yodgorligi haqida ma'lumot bering.
8. Qatun unvoni haqida ma'lumot bering.

² "История" ат-Табари". Избранные отрывки / Перевод с арабского В.И. Беляева. Дополнения к переводу О.Г. Большакова и А.Б. Халидова. Т. 1987. -С 242. Stark Komaden und Sebhaite in Mittelasiien und Zentralasiien // Grenzüberschreitungen. Formen des Kontakts zwischen Orient und Okzident im Altertum. Stuttgart, 2002. -P.393-394.

¹ Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017. 1316.

4-Mavzu: V-XV asrlarda Buxoro, Samarqand, Nasaf, Kesh, Farg'ona, Andijon, Urganch, Shosh, Iloq

Reja:

1. Buxoro va Samarqandning mintaqaviy joylashuvi va ma'muriy-hududiy tuzilishi.
2. Nasaf, Keshning mintaqaviy joylashuvi va ma'muriy-hududiy tuzilishi.
3. Farg'ona, Andijonning mintaqaviy joylashuvi va ma'muriy-hududiy tuzilishi.
4. Urganchning mintaqaviy joylashuvi va ma'muriy-hududiy tuzilishi.
5. Shosh, Iloqning mintaqaviy joylashuvi va ma'muriy-hududiy tuzilishi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 55б.
 2. BGA. 2 parz. Ibn Naukal Abu-l-Kasim an-Nasibi Opus geographicum.. - P. 483.
 3. Бартольд В.В. Сочинения. Т. 1, — М.: Из-во Восточной литературы. 1963. — С. 151.
 4. История Бухары с древнейших времен до наших дней. Под редакцией академика АН Узбекской ССР И.М.Мунинова. -Ташкент: Фан, 1976. -С. 84.
 5. Ибн Хордадбех. Книга путей и стран / Перевод с арабского, коммент., исслед., указатели и карты. Н. Велихановой. - Баку: Элм, 1987. - С. 34.
- 36.
6. Анарбаев А. Ахсикент - столица Древней Ферганы. Ташкент: Тафаккур, 2013. — С.24.
 7. Байхаки А. Ф. История Масъуда / Пер., прим. и комм. А.К. Арендса. - Ташкент, 1962. -С. 805.

Zarafshon vodiysining yana bir shaharlaridan biri - **Buxoro bo'lib**, IX - XIII asrlarda ham bu shahar mintaqaning asosiy poytaxt shaharlaridan biri bo'lib qolavergan. Ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, Buxoro tarixini o'rganish tarixchilar va arxeologlar e'tiboridan ko'p vaqtlar davomida biroz chetda qolgan. Ularning fikricha, biz tadqiq, etayotgan davr Buxoro shahri tarixini o'rganish xududning siyosii, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jarayonlarni tadqiq etish kontekstida o'rganilgan¹.

Buxoro shahri tarixini o'rganishda arab tilidagi manbalarni har tomonlama keng va qiyosiy o'rganish yangi ma'lumotlarni beradi. O'rta asrlarda Buxoro O'rta Osiyoning eng yirik siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo'lgan - X asrga kelib, esa Somoniylar davlatining poytaxtiga aylangan. Somoniylar Movarounnahr va Xuroson noiblari hisoblanganlar. Buxoro Samarqanddan farqli ravishda hozirgi joylashgan o'rta turli tarixiy davrlarda mavjud bo'lib kelgan. Shaharning rejasi shaharga bir necha bor ko'chmanchilar hujum qilgan bo'lishlariga qaramasdan ming yillar davomida o'zgarmasdan qolgan. Somoniylar davrida shahar ark (Qo'rg'on), shahriston va rabaddan iborat bo'lgan. Shaxriston qo'rg'on yaqinida suv bormaydigan tepalik, yerda joylashgan.

Istahriyning ma'lumoti ko'ra, "Buxoroning poytaxti **Numujkas(t) bo'lib**, uning shaharlari esa **Baykand, Tavovis (Tovuslar), Zandana, Bumijkas(t)**,

¹ Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 55б.

Xujodo, Mag'kon, Xargonkas(t), Xudim(a)nkān, Arvon, Xassun (Xisvan), Sikas(t), Jargar, Shitkos(t). Aryomis(t)an, Varaxsho, Zarmis(t)an, Kamajkas(t), Fag'arsin, Kishfag'n, Navidak (Nuydak) va Vardak. Uning Kesh degan nohiyasi bor. Unga Navqal, Quraysh, Sunaj, Askifag'n kabilar qarashli, Nasafga Bazda va Kasba kabilar tegishli².

Ibn Xavkalning ma'lumot berishicha, "butun Xuroson uchun boshqaruv idorasi Buxoroda - Movarounnahr yerlaridagi tekis bir joyda joylashgan keyin u bilan ulanib ketuvchi yerlar keladi, ularning [biri] nomi Bumijkas, u daryo satxi bilan bir tekislikda, uning binosi yog'ochdan (ulama yog'ochdan), bu yog'och binoni qasrlar, bo'stonlar, mahallalar, tosh yotqizilgan yo'llar, 20 farsaxgacha ulanib ketgan qishloqlar o'rab turadi¹. Ularning hammasini bu qasrlar, binolar, qishloqlar va kasabani (poytaxtni) jamlovchi devor o'rab turadi. Ularning qatorida tushib ketgan, buzilgan va vayrona joy kuo'inmaydi. Bu devor tashqarisida kasabaniki hisoblangan qasrlar, maskanlar va joylar ulanib ketadi, ularda poytaxt (kasaba) ahlidan bo'lgan odamlar yoz va qishda yashaydilar². Bu devor ortidan u kabi bir farsax atrofidagi boshqa devor keladi, uning ichida mustahkam devor bilan o'ralib turuvchi shahriston bor, unda shahriston tashqarisida unga ulanib ketgan ark (ko'xandiz) bor. U kichkina shahriston miqdoricha va unda qal'a va bu arkda Somon oilasidan Xurosonda hukmronlik qilayotgan podshohlar maskanlari joylashgan. Shahardagi ark (ko'xandiz) eshiklari ortida keng va uzun rabad, hamda jome' masjidi bor, uning zindoni ark (ko'xandiz) ichida, bozorlari rabadning ichidadir³.

Xuroson va Movarounnahrda Buxoro kabi tarmoqlanib ketgan (yoki kuch bobida undan o'tadigan boshqa biror shahar yo'q, aholi soni bo'yicha ham unga teng keladigani mavjud emas. So'g'd daryosi uning rabadini va bozorlarini kesib o'tadi, hamda u So'g'dning oxirgi daryosi bo'lib, tegirmonlar, qishloqlar va ekinzorlar bo'ylab o'tadi. Uning qoldig'i Poykand yonida Farabga yaqinlashib, Som Xosh nomli joy yaqinidagi suv to'plamiga tushadi⁴.

Zamonaviy shaharshunos olim M.P.Sobtning fikricha esa, Ko'xandiz islomdan avvalgi vaqtda asosan mudofaa vazifasini bajargan bo'lib, bu yerda hukmdorning saroyi joylashgan.

Somoniylar davriga kelib, Registon maydonidagi ko'xandiz asosan ma'muriy vazifani bajargan. Shu sababdan V.V.Bartold mudofaa tuzilmasiga ega bo'lgan Buxoro arkini (ko'xandizini) "qasr-qo'rg'on" (rus tilida "**zamok**") deb atagan, Narshaxiyda esa u "kox" deb ataladi. O'z asarini 985-997 yilda yozgan Muqaddasiy esa, ko'xandizda oxirgi Somoniy hukmdorlarining faqatgina g'azna va hibsonalari (zindon) joylashganligini ta'kidlaydi. Ko'xandiz ichida joylashgan Kutayba tomonidan qurilgan Jome' masjidi Somoniylarning oxirgi hukmdorlari davrida "**Devon al-xaraj**" bo'linmasiga aylantirilgan⁵.

"Hudud al-Olam" muallifi **Buxoro, Samarqand, Marv, Nishonur, Hirot va Balh** kabi shaharlar tavsifiga alohida e'tibor qaratganligi va ushbu 6 ta shaharning

² Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 556.

¹ Бартольд В.В. Сочинения. Т. I, — М.: Из-во Восточной литературы. 1963. — С. 151.

² Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 556.

³ BGA. 2 parz. Ibn Naukal Abu-l-Kasim an-Nasibi Opus geographicum... - P. 483.

⁴ BGA. 2 parz. Ibn Naukal Abu-l-Kasim an-Nasibi Opus geographicum... - P. 483.

⁵ Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 566.

barchasi o'zining islomdan oldingn tarixiga ega ekanligiga e'tibor qaratgan. Ularning qiyofasi va shakli mintaqada hukmronlik qilgan **Parfiya, Kushon va Eftalitlar** sulolasi vakillarining ta'siri ostida o'zgarishlarga uchragan. Bu yerda M.Sobtning fikriga ko'ra, ikki narsa muhim hisoblanadi.

Birinchisi, bu shaharlarning qal'a yoki ark (ko'handiz), shahar markazi (shahriston) va shahar cheti (rabad) kabi qismlar mavjudligi hamda ular katta bir shaharning ichidagi qismiy birliklar, ya'ni muayyan ma'muriy, tijoriy va boshqa vazifalarni bajaruvchi minishaharchalar (kichik shaharchalar) ekanligiga e'tibor qaratilishi bo'lsa, ikkinchisi "Xudud al-olam"da yuqoridagi 6 shaharning barchasining maydoni hajmi, ya'ni kengligi va egallagan o'lmi qanday o'lchamga ega ekanligiga e'tibor qaratishdir. Masalan, Buxoro 12 farsaxga 12 farsax o'lchamga ega deb yozilgan (1 farsax 5-7 km, ba'zan 10 kmgacha deb belgilangan)¹.

Registonning shimoliy sharqiy burchagida Ko'handizning shimolida Juy Muliyon kanalida saroy qurilganligi to'g'risida Narshahiy ma'lumot beradi².

Buxoro shahristonining Samarqand, Balx va Marvnikidan farqli tarzda yettita darvozasi mavjud bo'lgan. Jumladan, Ibn Xavqalning qayd etishicha, "ular Shahar darvozasi, Nur darvozasi, Haf(q)ara (Xif(q)ra) darvoza, Temir darvoza, Qo'rg'on (ko'xandiz) nomli darvoza, Bani Asad nomli darvoza va u Muhr darvozasidir. U Bani Asad darvozasi nomi bilan tanilgan.

Uning qo'rg'onining (ko'handizining) ikki darvozasi bor, biri Registon nomli, ikkinchisi Jome' masjidiga qaratilgani uchun Jome' darvozasi deyiladi³. Shahristonning darvozalari Istahriy va Narshahiyalarda quyidagicha ro'yhatda beriladi:

1) Bozor darvozasi (Istahriyda "Temir" darvoza deb nomlangan), oqibatda u keyinchalik "Attorlar darvozasi" deb ataladi - (Attoron).

2) Shahriston darvozasi (Istahriyda Bob al-madina).

3) Banu Sa'd darvozasi.

4) Banu Asad darvozasi, islomgacha bo'lgan davrda ushbu darvoza Muhra darvozasi deb atalgan.

5) Qo'rg'on darvozasi.

6) Xaqq-roh darvozasi.

7) Yangi darvoza, ushbu Darvoza boshqa darvozalardan ancha keyin bunyod etilgan.

Qo'rg'onning darvozasi shahriston darvozalari ichida eng mustahkami xisoblangan va uning yonida qandaydir Suboshitegin ismli turkiy hukmdor tomonidan barpo etilgan istehkom mavjud bo'lgan. Xaqq-roh darvozasi esa o'z nomini 6u yerda yashagan va 217/832 yilda vafot eggan mashhur Abu Hafs ismli olim tufayli olgan. Aholi ushbu olimga doimo bahsli masalalar yuzasidai murojaat qilganlar va qoniqarli yechimlarni olganlar.

Arkning (ko'handiz) tuzilishi hozirgiga qaraganda ancha bonqacharoq bo'lgan, uning ikkita darvozasi g'arbiy darvoza - "Registon darvozasi", sharqiy darvozasi

¹ Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 576.

² BGA. 2 parz. Ibn Haukal Abu-I-Kasim an-Nasibi O'pus geographicum. - P. 484; Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 576.

³ Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари IX-XII асрларда Тошкент. 2017. 576.

“Jome’ masjidid darvozasi” deb atalgan. Sharqiy darvoza Narshaxiyda “G’uriyon darvozasi” deb ham ataladi. Registon darvozasi esa XII asrda “Somon sotuvchilar darvozasi (Alaf-Furushon yoki Kox furushon)” deb atalgan. G’arbiy va Sharqiy darvozalar o’zaro ko’cha orqali tugashgan. Ark ichkarisida, Istahriyning malumotiga ko’ra, yana bir qo’rg’on bo’lib, u Somoniy hukmdorlari uchun qarorgoh vazifasini o’tagan. Bu yerda Narshahiy tomonidan qayd etilgan **buxor-xudot Bidun** tomonidan VII asrda qurilgan qasr (kox) zikr etilayotgan bo’lishi mumkin. Ushbu hukmdor qo’rg’onning quruvchisi va qayta tiklovchisi hisoblanadi.

Bidunning ismi ko’p vaqtlar davomida qasming eshigiga o’matilgan tseirplitada saqlangan. Rivoyatlarga ko’ra, qasr bitkazilguniga qadar bir necha marta o’z-o’zidan buzilib tushadi va dono odamlarning maslahatiga ko’ra qasming Katta Ayiq yulduzlari soniga muvofiq tarzda yetti tosh ustun bilan mustahkamlashadi. Shundan so’nggina qurilishni nihoyasiga yetkazish mumkin bo’ladi. Biroq, keyinchalik ark (qo’rg’on) va qasr vayron bo’ladi va XII asrda **Arslon-xon Muhammad** tomonidan qayta tiklanadi. 534/1139-1140 yilda qo’rg’on **xorazmshox Otsiz** tomonidan buzib tashlangan, 536/1141-1142 yilda esa shaharning qoraxitoy noibi Alp-tegin tomonidan qayta tiklangan. 538/1143-1144 yillarda u yana g’uzlar tomonidan buzib tashlangan. Uning materiallari 560/1165 yilda Buxoro rabadini qurishda ishlatilgan. 604/1207-1208 yilda xorazmshox tomonidan qo’rg’on qayta tiklangan va u 1220 yil Chingizxon tomonidan vayron etilguniga qadar mavjud bo’lgan¹.

Shahristonlar bu davrda sekin-asta shaharning iqtisodiy va siyosiy markazi sifatidagi o’mini yo’qota boshlaydi, shaharlardagi asosiy xayot rabadlarga ko’chadi. Bu esa shaharlarning iqtisodiy-ijtimoiy va topografik qiyofasida bir qator o’zgarishlar sodir bo’lishiga olib kelgan².

Buxoro shahristonining taqdiri esa Samarqand va Marv shahristonlaridan farqli tarzda kechgan. Uni aholi hech qachon tark etmagan va unda harobaga aylanish holati kuzatilmagan.

“Shahristonning o’lish” holati bu yerda uning hududining tashlab ketilishi bilan emas, balki undagi hayotning to’liq reorganizatsiyasi bilan izohlanadi. Shahriston sekin-asta yangi shaharning ajralmas bir qismiga aylangan. Uning hududidan bozorning bir qismi, savdo-hunarmandchilik ixtisoslashgan mahallalar, masjidlar, karvonsaroylar va aholi boy qatlamining hususiy uylari joy olgan.

Muqaddasiyning ma’lumotiga ko’ra esa, “Buhoro juda keng bo’lmagan, aholisi ko’p va beshta shaharchasini kengligi o’n ikki farsax devor o’rab turuvchi shahardir. Unda ishlov berilmagan yer va jonsiz qishloqning o’zi yo’q. Uning asosiy shahri Numujkas(t), va uning shaharlari **Baykand, at-Tavovis, Zandana, Bumijkas(t), Xujoda, Magkon, Xargonkas(t), Xudimankan, Arvon, Sikas(t), Jargar, Sishakas(t), Aryomis (t)an, Varaxsha, Vazarmisan, Kamujkas(t), Fag’risin, Kashfag’n, Navidak, Varki** va uning Kash nohiyasi bo’lib, uning Navkad Quraysh, Sunaj, Askifag’n va Nasaf, va uning Bazda, Kasba, As-Sag’oniyon va uning Dorazanji, Bosand, Bahom, Zinur, Burob, Rikdasht, Bosob, Shumon, Hanbok, Dastajird, uning un olti ming qishlog’i bor”³.

¹ Бартольд В.В. Сочинения. Т. 1. — М.: Из-во Восточной литературы. 1963. — С. 152.

² Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 606.

³ Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 616.

X asr muallifi **Ibn Xavqal**ning fikricha, "rabadidan bir qancha yo'llar (yoki ko'chalar) boshlangan. Ulardan Xuroson(ga) ketuvchi yo'li (ko'cha) bor va u Maydon yo'li deyiladi, Mashrqqa qaragan darvoza bor, Ibrohim yo'li (ko'chasi) deb nomlanadi, bundan keyin Riyu nomli yo'l (ko'cha) keladi, undan keyin Mardkushon nomli yo'l (ko'cha), undan keyin Kallapaz yo'li (ko'chasi) keladi. Bu darvoza va Mardkushon darvozasidan Nasaf va Balxga boriladi. Kallapaz yo'li (ko'chasi)dan keyin Navbahor yo'li (ko'chasi), undan keyin Samarqand va butun Movarounnahrga boradigan Samarqand yo'li (ko'chasi) keladi. Samarqand yo'lidan keyin G'oshkur yo'li, undan keyin Romisna yo'li, undan keyin Jadasrun yo'li keladi. U Xorazm yo'liga olib boradi. Undan keyin G'ashj darvozasi keladi. Rabadning ichidagi bozorlarda bir qator yo'llar bor. Ulardan Temir darvoza yo'li (ko'chasi), undan keyin Chiroyli ark yo'liga, undan keyin Mox yo'liga olib keluvchi ikki darvoza bor"¹.

M.Sobitning fikricha, Somoniylar davrida Buhoroning ko'handiz, shahriston va rabad qismlari yagona shahar devori ichida joylashgan alohida maxsus shahar hududlarini tashkil etgan. Somoniylarning Jome' masjidi 1068 yilda to'liq yonib ketgan va u bir yil o'tib qayta tiklangan. Binoning yuqori qismlari kuygan g'isht bilan qayta tiklangan. Ko'handiz va shahriston o'rtasidagi oraliq joyda 794-795 yilda yangi Jome' masjidi qurilgan. Ismoil Somoniy 902 yilda uni ancha kengaytirgan. Buning uchun hukmdor tomonidan atrofda uylar sotib olingan. Nasr (914-943) hukmronligining dastlabki yillarida masjid ikki bor jiddiy shikastlangan. Bundan keyin masjid qayta tiklangan va minora qurilgan. X asr va undan keyingi davr geografllari tomonidan aynan shu masjid ta'riflangan. Muqaddasiy uni bir necha ichki hovlilarga ega bo'lgan inshoot sifatida tasvirlagan. Inshootning atrofida mashhur tiroz - aslzodalar uchun qimmatbaho matolar to'qishga ixtisoslashgan ustaxonalar to'g'risida Narshahiyning ma'lumoti ham fikrimizni tasdiqlaydi. Shahristonda masjidlar qurish an'anasi 951-952 yillarda Amir Nux bin Mansur masjiddan boshlangan².

Buxoro shahristonidan g'arbda yoki aniqrog'i Arkdan g'arb tomonida Somoniylar davrida Registon deb atalgan maydonda hukmdor saroyi joylashgan. Arablar istilosining dastlabki yillarida zardushtiy savdogar va tujjorlar shahriston hamda unga yaqin yerlarni tark etganlar. Ular shahriston va arkdan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 700 ta ko'shk qurganlar. Bu katta hududni o'z ichiga olgan va oxir-oqibat shahar devori bilan o'rab olingan³.

Shahristondagi ikkinchi yirik masjid bu **Arslonxon Muhammad** qo'l ostida 1121 yilda qurilgan - Jome' masjidi bo'lib, u tepa tomondan avvalgi masjidda yaqin bo'lgan. Shu sababdan, bu jarayonni yangi masjid qurilishi emas, balki mavjud bo'lgan Jome' masjidining kengaytirilishi desa ham bo'ladi. Juda katta va dabdabador bo'lgan ushbu masjid minorasining qurilishi 1127 yilda tugallangan. Masjid mo'g'ullar davrida omon qolgan hamda Temuriylar va Shayboniylar davrida ta'mirlangan.

¹ Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 616.

² Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 626.

³ История Бухары с древнейших времен до наших дней Под редакцией академика АН Узбекской ССР И.М.Мумиянова. -Ташкент: Фан, 1976. -С. 84.

*Mug'larning (zardushtiy koxinlar) saroylarida shaxristondagidan ko'ra ko'proq aholi yashagan. Shahaming ushbu xududi to'g'risida rabadning birinchi qadimiyroq devori ichida joylashgan "Sikkati mug'on" darvozasining nomlanishi ham guvohlik beradi*¹.

Arkdan g'arb tomonga qarab, islomdan avvalgi paytdan boshlaboq, kichik saroylar qad rostlagan. Registonda buxor-xudot saroyi janubiy garbiy qismda esa Abul Hoshim al-Kinoniy saroyi joylashgan. Butun xudud, ayniqsa, uning markazi va shimoliy yarmi Buxoro aslzodalari yashaydigan boy mahallalarni o'z ichiga olgan.

Dastlab Buxoro amirining qarorgohi ko'handizda (arkda), yoki buxorxudot saroyida joylashgan bo'lishi mumkin. Buxorxudotlar, Narshaxiyga ko'ra, shahristonga ko'chib o'tganlar va dehqon Xina tomonidan barpo etilgan mustaxkam **kohda** istiqomat qilganlar. Keyinchalik ular yana va ko'p vaqtga ko'handizga ko'chib o'tganlar².

Ko'handizda Qutayba tomonidan ilk masjid barpo etilgan. Buning uchun qadimgi ibodatxona qayta qurilgan bo'lishi mumkin. Birinchi masjid "**Banu Xanzal masjidi**" deb atalgan.

Unga asosan Buxoroda yashagan arablarning **banu hanzal** qabilasi qatnaganligi sababli u shunday atalgan bo'lishi mumkin. Buhoroning shimoliy qismida musulmon avliyolari bilan bog'liq joylar yuzaga kelgan. Shahaming shimoliy darvozasi yaqinida bir necha masjid va xonaqohlar joylashgan bo'lib, ularning eng mashhuri arablarning quraysh qabilasi masjidi edi.

Arab istilosi ta'sirida **Buhoro, Samarqand, Panjikent va Poykand** kabi shaharlar 625-750 yillarda katta ahamiyat kasb eta boshlaganlar va keyingi uch asr mobaynida (675-975) ushbu shaharlarda katta o'zgarishlar yuz bergan. Ular Markaziy Osiyoning noyob ijtimoiy oykumenalari rivojlanishi uchun sharoit yuzaga keltirgan. Shaharlarning shaklan o'zgarishi asosan ularda islomni targ'ib qiluvchi institutlarni yuzaga keltirishga qaratilgan bo'lib, ko'p jihatdan keskin o'zgarishlarga olib kelmagan. Somoniylar sulolasi arab-musulmon madaniyatini targ'ib qilib va rivojlantirishni davom ettirib, 820-975 yillarda **Buxoro, Samarqand, Panjikent va Poykand** kabi shaharlardan poytaxt sifatida foydalanganlar va bir kator viloyat markazi darajasidagi shaharlarni vujudga keltirganlar³.

Somoniylar Nasr ibn Axxmad zamonida (914-943) Registonda katta amir saroyi va davlat boshqaruvining markaziy idoralari hisoblanmish o'nta devonning binolari qurilgan. Registon **X asrdagi Buxoro ma'muriy markazi vazifasini o'tagan**.

X asrda zardushtiy savdogarlari tomonidan qurilgan ko'shklarning faqatgina ikki uchtasi qolgan va ular joylashgan katta maydon Ko'shki mug'on nomi bilan shahar tarkibiga kirgan. Somoniylar davrida bu joy zodagonlar mahallasi hisoblangan va Narshahiyning ma'lumotiga ko'ra, undagi yerlar juda qimmat turgan.

Buxoro yer egalari bo'lmish amirlar nafaqat Buxoroning o'zida balki shahar atrofida ham saroylar qurganlar. Narshaxiy shahar atrofidagi ikkita qarorgoh Juy Muliyon va Karay Alaviyon to'g'risida ma'lumot beradi. Ayniqsa u Juy Muliyondan

¹ Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 636.

² Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 646.

³ Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 656.

hayratlarini yashirmaydi. U Buhoro shaxristoni va Registondan 3 kilometr shimolda joylashgan edi.

Musulmon ruhoniylari ushbu davr shaharlarida katta ta'sirga ega bo'lganlar. Somoniylar davri Buxorosida ko'plab masjidlar, maqbara va xonakohlar mavjud bo'lgan. Muftiylar, qozilar va boshqa shu kabi mansab egalari bevosita va bilvosita katta vaqf mulklari va yerlarni boshqarganlar.

Ibn Xavqalning fikricha, "Ruhna (Raxna) nomli darvozadan keyin Abu Xishom al-Kanoniyy qasri yonidagi darvoza, undan keyin Suvabaqa ko'prigi yonidagi darvoza, undan keyin Forjak nomli darvoza, undan keyin Darvozja darvozasi, undan keyin Samarqand ichiga boradigan yo'l keladi. Ularning shaharlari va qo'rg'onlari ichida ularga yetib boradigan oqar daryo yo'q, ularning ichimlik suvlari Samarqanddan oqib keluvchi azim daryodandir.

Yana ushbu muallifning ma'lumotiga ko'ra, "Qavoriyylar Jubori nomli daryo al-Ariz (To'g'on) masjidi degan joydagi bir daryodan boshlanadi, ayrim rabadlarni sug'oradi u Bigar (Begor) daryosidan sersuvroq va hayotga boy. Jugashj nomli daryo al-Ariz masjidi yaqinidagi daryodan boshlanadi, Nukandaga chiqquncha ayrim daryolarni sug'oradi U al-Arid (To'g'on jubori tomonda. Poykand daryosi degan daryo Xata' yo'li boshidagi shahardan boshlanadi. Ayrim rabadlar (u bilan) suv ichadi va Nukandada tugaydi, Nukanda daryosi Xamduna maydonida boshlanadi, uning suvlari ozayib ayrim rabadlarni sug'oradi va cho'lga undan hech kim foydalanmagan holda singib ketadi. Undan keyin Toxuna (Tegirmon) daryosi keladi. Navbahor degan joydagi shahardan boshlanadi, u yerda rabadlar ayrim aholisining uylari bor. Poykandga yetguncha ko'pgina qo'l tegirmonlarini aylantiradi va undan ahli Poykand suv ichadi"¹.

Tarixiy taraqqiyotning mahsuli bo'lgan rabadlar bu davrda shaharlarga qo'shilgan muhim tarkibiy qism edi. Yerga egalik qiluvchi zodagonlar kamayib borib, hunarmandlar sinfi ko'payib borgan sari shaharning asosiy hayoti shahristondan rabadga ko'chgan. IX - X asrlarda shahriston va rabad o'rtasida farq amalda yo'qdek tuyuladi. Rabad bu paytda oddiy shahar cheti emas, balki shaharning ajralmas qismi hisoblangan va ko'pincha devorning ichida, huddi Samarqanddagi kabi joylashgan.

Arab mualliflari shuningdek, suv inshootlari to'g'risida ham ma'lumot berganlar. Jumladan, Ibn Xavqalning yozishicha, "Kishna (Gushna, Kashana, Gishna) degan daryo Navbahor yaqinidagi shahardagi daryodan suv oladi, rabadlardagi Navbahor ahli undan suv ichadi va u bir qancha qal'alar, ko'pgina qishloqlar va bog'rog'lardan o'tadi, natijada Kishna Moymurg'ga quyiladi. Ribox nomli daryo Registondagi taniqli daryodan boshlanadi va ayrim rabadlarni sug'oradi va Ribox qasriga o'tadi, mingga yaqin bog'lar, o'sha yerdagi qasrlar va bog'lardan boshqa ko'p yerlarni sug'oradi.

Registon daryosi Registon yaqinidagi daryodan boshlanadi, undan Registon ahli, qo'rg'on (ko'xandiz) ahli va davlat idorasi Jaloldiza qasriga yetguncha foydalanadi. Hamduna ko'prigi yonidagi yer ostida shahar daryosidan boshlanadigan daryo Bani Asad darvozasidagi hovuzlargacha bo'lib, uning qoldig'i qo'rg'onni

¹ Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 65б.

ikkiga ajratib turadi, Zag'orkanda nomli daryo Varag' degan joydagi daryodan boshlanadi. Darvozja darvozasiga qarab oqadi, unda Samarqand darvozasigacha Darvozja uylari bor, natijada Sabezmoshaga o'tadi, u bir farsax atrofidadigan oshadi, unda qasrlar, bog'-rog'lar va ko'pgina yerlar bor. Bu daryoning va uning bog'larini o'rab turadi.

Rabadning devori islom davrida aynan 235/849-850 yilda qurilgan va 11 ta darvozaga ega bo'lgan. Istahriy ularning nomlarini quyidagi tarkibda, ya'ni janubiy-g'arbiy yo'nalish bo'ylab keltiradi: **1)Maydon darvozasi, u Xuroson yo'li tomonda bo'lgan; 2)Ibrohim devori, birinchisidan Sharq tomonga keggan; 3)Riv; 4)Mardkushon (tarixiy manbaalarda - Mardkusho deb keltiriladi); 5)Kallabod; 6)Navbahor; 7) Samarqand, u yerdan Samarqand va Movarounnahrning boshqa hududlariga ketadigan yo'l boshlangan. 8)Fag'askun; 9)Romitan; 10)Xadshirun, bu yerdan Xorazmga qarab ketgan yo'l boshlangan; 11)Gushaj'.**

Yana bir boshqa muallif Muqaddasiyning yozishicha "Numujkat Buxoroning kasabasidir. Tuprog'ining chiriganligi va qoraligi bo'yicha hamda bozorlarning kengligi jihatidan Fustotga, binolarining ko'pligi va boshqa shu kabi narsalar bo'yicha esa Damashqqa o'xshaydi. Uning shahristonida hayot gullab yashnaydi va uni yetti darvoza o'rab turadi. Ular Nur darvozasi, Hufra (Chuqurlik joy) darvozasi, al-Hadid (Temir) darvoza, Ko'handiz darvozasi, Banu Sa'd darvozasi, Banu Asad darvozasi, Shahriston darvozasi, uning orqa tomonida Ko'handiz bor. Unda sulton hukmronlik qiladi. Ko'handizda g'azna va hibsxona joylashgan. Uning ikki darvozasi bor, ular As-sahla (Tekislik) darvozasi va Jome' masjidi darvozasi deb nomlanadi. Jome' masjidi shahristonning ichidadir.

Rabadning 9 darvozasi (darb) bo'lib, bular - **Maydon darvozasi, Ibrohim darvozasi, Mardkushon darvozasi, Kaloboz(d) darvozasi, Navbahor darvozasi, Fag'oskun darvozasi, Al-Romisniya, Xudsharun darvozasi, Ushaj darvozalaridir.** Avvalgi zamonlarda ushbu darvozalarning ba'zilarining nomlari boshqacha bo'lgan. Hukmdorning saroyi Ko'handiz qarshisidagi tekislikda va orqa tarafi qiblaga karagan.

Eski shahar (Somoniyargacha bo'lgan davr, Abu Muslim davriga oid bo'lishi mumkin) boshqa devor bilan o'rab olingan va 11 ta darvozasiga ega bo'lgan: **1) Temir; 2)Xassan ko'prigi darvozasi; 3) va 4) Mox masjidi yaqinidagi darvoza; 5) Ruxna darvozasi (Istahriyda Ruxba (hovli, maydon)); 6) Abu Hishom al-Kinoniy qasri yonidagi darvoza; 7) Kichik bozor (suvayqa) ko'prigi yonidagi darvoza; 8)Forjak; 9)Darvozja, 10)mug'lar ko'chasi darvozasi; 11) Samarqand (ichki) darvoza.** Narshahiyning ma'lumotiga ko'ra 325/937 yilda katta yong'inda yonib ketgan Forjak madrasasi shaharning asosiy anhoridan shimol tarafda joylashgan, Mox masjidi esa undan janubda joylashgan.

Shaharning asosiy anhori Narshahiyning ma'lumotiga ko'ra, Rudi zar (Zar, tilla ariq) deb nomlangan. Yana Muqaddasiyning e'tirof etishicha "buhoroliklar ipak va shoyidan libos kiyadilar, oltin va kumush idishlarda ichimliklar ichadilar, din ishlarida tor emaslar. **Tavovis shahri** qudratli shahar, unda yil bo'yi ishlab turuvchi bozor bor, ushbu shaharning qo'rg'oni vayron bo'lgan. Zandana u shimol tomonda,

¹ Бартольд В.В. Сочинение. Том I. Москва, 19, С. 154.

uning qo'rg'oni bo'lib, uning Jome' masjidi va odamlarga to'la rabadi bor. **Xujodo** katta shahar bo'lib, kichik qal'asi mavjud.

Xususan, IX - X asrlarda Buxoro aholisining etnik tarkibi haqida gap ketar ekan, arab tilidagi manbalar ma'lumot berishlaricha, Buxoroning tili so'g'd tili bo'lgan. Biroq ayrim (so'zlari) buzilgan holda, ularning tili dariy tilidir. Uning ahli odob, ilm, fikh, diyonat, sadoqat, xushxulqlilik, go'zal muomala qilishga, yomonlikni ozaytirishga, yaxshilikni ifoda etishga, o'ta saxiylikka, pokiza niyat va pok vijdonlikka moyildir. Bu narsalar ularni Xuroson boshqa yerlaridan ajratib turadi. Yuqoridagi malumotlardan bir holat diqqat e'tiborni tortadi. Buxoroning aholisi so'g'diylardir emas, balki Buxoroning tili so'g'd tilidir deb ma'lumot berilyapti¹.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, bu davrda Buxoroning aholisi etnik jihatdan turli tuman bo'lib, so'g'd tili ularning bir-birlari bilan muloqot vositasi tili bo'lgan. Shuningdek, bu davrda O'zbekiston hududida ko'plab shahar aholisi, shaharlarda ko'plab turkiylar yashaganlaridan va turkiy ko'chmanchilar bilan kuchli savdo-iqtisodiy aloqalarni olib borganliklari sababli turkiy tilini ham bilganlar. Arab manbalarida muayyan bir shahar tavsifi keltirilganda, shahar tili so'g'd tili deb ta'riflansa-da, bu davrga kelib so'g'd tili faqatgina ayrim uzoq qishloq va tog'li joylarda saqlanib olgan. Arab manbalari So'g'd atamasini etnik ma'noda emas, balki geografik ma'noda qo'llaganlar.

Buxoro va Samarqandning me'morchiligi shahar qudrati bilan mos tarzda o'sib rivojlanib borgan. Buxoroda arablar tomonidan arkda eski ibodatxona o'mida masjid barpo etilgan. VIII asming ikkinchi yarmidayoq bu masjid barcha namozxonlarni o'zida sig'dira olmasdan ancha eskib qolgan. Shu sababli 770 yili halifaning noibi **Fazl ibn Yahyo** tomonidan kalta devorlari tashqarisida yangi masjidga asos solingan. Jome' masjidi 902 yilda Ismoil Somoniy, 951 yilda **Nuh ibn Nasr** tomonidan amalga oshirilgan. Nasr II tomonidan 943 yilda Registonda katta saroy va 10 ta devonxona binolari qurilgan. Shuningdek, masjid, hammom va Madrasa ham qurilgan.

Qoraxoniylar davrida ham me'morchilik ishlari rivojlantirilgan. Qal'adan uzoqroqda yangi jome' masjidi qurilgan. 1127 yilda Minorai Kalon qad rostlagan. XI asrda shahar darvozalaridan tashqarida ov maydonida Shamsobod saroyi qurilgan. Uning o'mida 1129 yilda hayit namozlari uchun Namozgoh masjidi qurilgan.

XI - XII asrlarda arxitektura yangi tendensiyalar ko'zga tashlanadi. Bu binolarni kurishda pishiq g'ishtning asosiy qurilish va dekorativ material keng ishlatilganligi bilan izohlanadi. Me'morlar pishiq g'ishtning nafaqat texnik-konstruktiv imkoniyatlaridan, balki badiiy imkoniyatlaridan ham keng foydalanganlar.

Dastlab bu shaharlar o'zining islomgacha bo'lgan ko'p xususiyatlarini musulmonlar va Somoniylar tashabbusi bilan amalga oshirilgan o'zgarishlar bilan uyg'unlashtirgan holda saqlab qolganlar. bu narsa esa shaharning o'sha paytdagi zamonaviylashgan shaklini yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan va bu shakl XII asrda ro'y bergan mo'g'ullar bosqiniga qadar o'zining taraqqiyot bosqichiga chiqqan. Ikkinchidan ushbu "yangi turdagi" shahar o'zining an'anaviy markaziy qismi, ya'ni shahristonning emas, balki shahar chetidagi rabadlarning rivoji bilan tavsiflanadi. Natijada, **M.P.Sobtin**ing fikricha, musulmon davri shaharlari taraqqiyotiga katta

¹ Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда Тошкент. 2017. 786.

ta'sir o'ttkazgan arablarning asosiy shahri va "amsar" tubdan zamonaviylashgan. Shahar aholisining to'lib toshgan shahristonlarga emas, balki shahar chetidagi rabadlarga ommaviy tarzda joylashishga intilishi bevosita o'sha davrda jamiyatda katta o'zgarishlar ro'y berganligini ko'rsatadi. Ushbu jarayon rivoji uchun o'sha davr O'rta Osiyo shahar muhitida yuzaga kelgan yuksak ma'muriy barqarorlikni ko'rsatish mumkin. Ushbu barqarorlik shaharlarga ko'plab yer egalari dehqonlarni va oddiy ziročhilarni shahar tomon chorlagan va ular shahar aholisi asosni tashkil etganlar.

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, IX -XII asrlarda Zarafshon vodiysi shaharlari, xususan, Samarqand, Buxoro va boshqa bir qator shaharlar musulmon olamining yirik iqtisodiy, madaniy-ma'naviy va siyosiy markazlariga aylanganlar. Shaharlarning umumiy tuzilishida islomdan oldingi uch qismlilik, ya'ni shaharlarning ko'handiz yoki kichik qal'a (hishn), madina (shahriston) va rabadlarga bo'linish holati saqlanib qolgan bo'lsa-da, shaharlarning ichki tuzilishida, ularning arxitekturasida katta o'zgarishlar ko'zga tashlanadi.

Jumladan, jome' masjidlari, minoralar va boshqa shu kabi inshootlar shaharlarning tarkibiy qismidan muhim joy olganlar va katta ahamiyat kasb eta boshlaganlar. Shu bilan birgalikda, hunarmandchilikning rivojlanishi shaharlardagi asosiy hayot markazi shahristonlardan rabadlarga ko'chishiga, hamda shaharlarda turli xil hunar turlariga ixtisoslashgan maxsus mahallalarning vujudga kelishiga olib kelgan.

Zarafshon vodiysi shaharlari yuqorida jarayonlarning vujudga kelishi va rivojlanishida katta o'rin tutganlar.

Zamonaviy O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ham qadimdan ko'plab katta-kichik shaharlar mavjud bo'lgan. Ulardan biri - **Nasaf** IX - XII asrlarda gullab yashnagan. Bunga ushbu davrga shahar hududidan topilgan hunarmandchilikka oid arxeologik topilmalar ham, manbaviy ma'lumotlar bilan birgalikda guvohlik beradi. Qashqadaryo xududi bu davrda So'g'd deb atalgan va ko'proq Samarqand hamda Buxoroga yaqin hudud sifatida tasvirlangan¹.

Manbalarda Nasaf viloyatida Kasbex va Bazdex kabi joylarning nomlari ham qays etilgan. V.V.Bargold va S.B.Luninning fikriga ko'ra, *Bazdex Nasafdan* xattoki katta bo'lgan.

An-Nasafiy Nasafdagi ichki shahar (al-madina ad-daxila) nomini qayd etgan va uning Maqsura darvozasidagi Jome' masjidini qayd etgan. O'rta asr arab adabiyotida shahar darvozalarini anglatish uchun "bob" va "darb" atamalaridan foydalanilgan. "Bob" - darvoza atamasi faqatgina ichki shahar (madina) darvozalariga nisbatan qo'llanilgan, Rabad darvozalarini atash uchun "darb" atamasi qo'llanilgan. Biroq, Istaxriy tomonidan zikr etilgan Nasaf shahrining 4 ta darvozalari ichida bunday nomdagi darvoza qayd etilmagan.

Ichki shaharda (madinada) an-Nasafiy tomonidan 5 ta ko'cha (sikka) nomi qayd etilgan:

¹ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия - С. 190, Лунин С.Б. Города Южного Согда. - Ташкент: Фан, 1984. - С.23.

Abu Ia'lo ko'chasi. Ushbu ko'cha mashxur hadisshunos olim Abu Ya'lo Abdul Mo'min ibn Xalaf ibn Tufayl ibn Zayd at-Tamimiy Al-Ommiy an-Nasafiy (346/957-958 y. v.e.) nomi bilan tanilgan.

Boyon kuchasi. Sam'oniyning ma'lumot berishicha, bu ko'chada imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxori Nasafga tashrif buyurgan vaqtda istiqomat qilgan. Bu yerda shuningdek, u namoz o'qiydigan masjid ham bo'lgan.

Vassof ko'chasi.

Zoxidlar kuchasi. Unda Abu Abdurrahmon Muaz ibn Ya'qub al-Kosoniyning xonadoni joylashgan. Sam'oniyning ma'lumotiga ko'ra, bu sufiy shayx Nasaf viloyatidagi Koson qishlog'idan bo'lib, u 219/834 yilda bu yerda sufiylar uchun jome' masjidi va taxorat qilish uchun suv inshooti bunyod etgan. U masjid va suv inshootini qurgan. Ko'cha dastlab uning nomi bilan atalgan bo'lsa-da, keyinchalik Zohidlar ko'chasi degan nom olgan.

Harb (Urush, jang) ko'chasi va boshqa manbalarda ushbu ko'cha to'g'risida ma'lumot berilmagan.

Bu viloyat aholisining aksariyatini turkiylar tashkil qilgan. Buni quyidagi ma'lumotdan ham ko'rish mumkin. Nasr Ahmad zamonida O'zbekistonda islomdagi sunniylikka, ya'ni, hanafiy mazhabiga zid bo'lgan ta'limotlarning ta'siri kuchayadi. Bunga dastlab Qarshida yashab, u yerda saroy xojibi Oytosh va boshqa bir qator oqsuyaklar tomonidan botiniylik ta'limotining qabul qilinishiga sababchi bo'lgan Muhammad Naxshabiyning ta'siri kuchli bo'ladi.

Nasafda 7 ta masjid bo'lib, ularning nomi an-Nasafiyning asarida keltirilgan:

1. Abu Ya'lo masjidi. Boshqa manbalarda ushbu masjid nomi zikr etilmagan. Masjid X asrda yashagan mashhur hadisshunos nomi bilan atalgan.

2. Abu al-Yusr masjidi. Mashhur hadisshunos Abu al-Yusr Abdul Mutal ibn Abdul Mannon ibn Xalaf ibn Tufayl at-Tamimiy an-Nasafiy (358/968-69 y. v.e.) sharafiga qurilgan.

3. Nasaf Jome' masjidi. Maysura darvozasi yonida bo'lgan. XII asrda Nasafda ikkita Jome' masjidi bo'lgan. Ulardan biri 219/834 yilda sufiy shayx Abu Abdurrahmon Muaz ibn Ya'qub al-Kosoni tomonidan qurilgan va G'ubdin darvozasi yonida joylashgan deb, X asr arab geograflari tomonidan qayd etiladi. XP asrda Nasafda yangi Jome' masjidi qurilgan bo'lishi mumkin, as-Sam'oniyy Zuxxod ko'chasidagi Mu'az al-Kosoniyy masjidini eski Jome' masjidi (al-Jome' al-'atik) deb ataydi.

4. Mu'az al-Kosoniyy masjidi.

5. Al-musallo masjidi. Bu bayram namozlari uchun mo'ljallangan shahardan tashqaridagi masjid. Ibn Xavqalning ma'lumot berishicha, u Buxoro darvozalari ichkarisidagi rabadning devorlari ichkarisida joylashgan.

6. Sinon bin Yasor masjidi. U al-Axmar qudug'i (Bi'r al-axmara). Boshqa manbalarda bu masjid zikr etilmagan. Sinan ibn Yasorning Nasaf aholisi ichida ko'plab mavlolari bo'lganlar. U VII - VIII asrlarda yashagan va Nasafga ko'chib kelgan arablarning dastlabkilaridan bo'lgan bo'lishi mumkin.

Nasafning sug'orish tizimi daryoga bevosita bog'lanib qolmagan. Manbalarda qayd etilishicha, daryo yilning ma'lum vaqtida qurib qolgan va aholi sug'orish uchun quduqlar suvidan foydalanganlar. Shulluktepada shahriston va rabad hududida daryoning o'ng va chap qirg'oqlarida ko'plab IX - X asrlarga tegishli quduqlar

aniqlangan va ularning tepadan pastki qismiga qadar pishiq g'isht yotqiziqlari bilan bezalgan.

7. **Al-Xulkoniyyun, ya'ni, Eski-tuskichilar masjidi.** YA'ni bu masjid eski-tuski narsalar sotiladigan bozor yaqinida joylashganligi sababli shunday nom olgan.

Shuningdek, Nasafda shahar zindoni (al-sijn), al-Javbak raboti, Mahfuz raboti, Nonvoylar rastasi (Xonut al-Xabboz) va bozorcha (as-suvayqa) bo'lib, ular to'g'risida an-Nasafiy tomonidan ma'lumot berilgan.

Kesh shahri to'g'risida an-Nasafiy tomonidan hech qanday ma'lumot keltirilmagan, ammo Kesh viloyatida joylashgan bir qator shahar va qishloqlar to'g'risida unda ma'lumotlar uchraydi qa ular quyidagilardan iborat: 1) **al-Aqaba** - bu Kesh viloyatidagi tog'li dovon hisoblanadi. 2) **G'aznayo** - bu yerda G'aznayon va Gardiyon deb nomlangan qishloqlar mavjud bo'lgan. 3) **Duruzdax** - bu Nasafning qishloqlaridan biri bo'lib, Keshdan Samarqandga ketadigan yo'l bo'yida joylashgan. 4) Zorbi (yoki Dorbiy, baryatu Zorbi) - u Xushminjakas qishlog'i yaqinidagi cho'l bo'lib, unga sulton Mahmud ibn Sabukteginning 1025 yil 25 aprelda 416 yil safar oyining 23 kunida Movarounnahr hukmdori Ilekxon bilan uchrashgani kelganda, ko'plab qo'shin va fillardan iborat qo'shini harbiy lageri joylashtirilgan. 5) Mudo yoki Mudi, shuningdek Muduvo deb ham nomlangan. 6) Nava, Aqaba perevaliga yaqin joylashgan qishloq, 7) Navkad, 8) Xushminjakas(t).

Bu davrning boshqa olimi Ibn Xurdodbeh Kesh haqida quyidagilarni qayd eggan, "**Kess** deb atalgan shahar Samarqanddan ikki kunlik masofadan joylashgan bo'lib, ushbu ikki shaharni baland qiya tog' ajratib turadi. Kessning ortida baland qorli tog'lar ko'rinib turadi va bu tog'lardagi qorlarning yillik qatlamlari ko'rinib turadi. Ushbu qorlarning suvidan Samarqandga oquvchi **Nahr Jiro**t arig'i va Buxoro daryosi to'yinadi".

IX - XP asrlarda janubiy vohada **Termiz, Kubodiyon va Chag'oniyon** kabi kichik mulklar mavjud bo'lgan, hamda ular ma'muriy jihatdan Movarounnahr hududiga kirgan. IX dan boshlab arab geografik manbalari **Termiz, Kubodiyon va Chag'oniyon** mulklari to'g'risidagi dastlabki to'liq va mukammal ma'lumotlarni bera boshlaganlar.

Muqaddasiyning ma'lumotiga ko'ra, **Sag'oniyonda** 16 mingta qishloq, manzilgohi mavjud bo'lib, boyligi va shaharlarining buyukligi jihatidan Xuttaldan orqada bo'lgan. Viloyatning asosiy shahri shu nom bilan atalgan va **Termizdan** 24 farsax 4 kunlik, **Kubodiyondan** esa 3 kunlik masofada joylashgan.

O'rta asr mualliflari shuningdek, **Kubodiyon** viloyati to'g'risida ham ma'lumotlarni bergan. Jumladan, ushbu viloyat Termizdan ancha kichik bo'lgan. Al-Ya'qubiy **Kubodiyon** ham Jayhunning Termiz joylashgan qirg'og'ida ekanligi to'g'risida ma'lumot bergan. Uning **Fazz, Navdiz, Voshjird, Shumon** kabi shaharlari bo'lgan.

Chag'oniyon arab manbalarida **Sag'oniyon** tarzida atalgan. Arab mualliflarining, jumladan, Ibn Xavqalning ma'lumot berishicha, Chag'oniyon Termizdan ko'ra kattaroq shahar bo'lgan, ammo Termiz aholisi Chag'oniyonga

¹Ибн Хордадбех. Книга путей и стран / Перевод с арабского, коммент., исслед., указатели и карты. Н. Велижановой. - Баку: Элм, 1987. - С. 34.

qaraganda o'sha davrda boyroq deb e'tirof etilgan. Chag'oniyonda ham ko'handiz mavjud bo'lgan.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, yuqoridagi o'rta asr geograflarining deyarli barchasi janubiy vohaning yirik markazlari bulgan **Nasaf, Kesh, Termiz, Kubodiyon, Chag'oniyon** kabi mulklari tavsifiga alohida to'xtalganlar. Ular voha hududi, aholisi, shaharlari, ularda shahar mavjudligini tasdiqlovchi elementlar, shaharlar infrastrukturasini masalalariga oydinlik kirituvchi muhim ma'lumotlarni keltirgan holda bu xududlarda kechgan shaharlashish jarayonlariga o'z sharhlarini berib o'tganlar. Ushbu fikrlarning hammasini jamlagan holda yuqorida ko'rsatilgan shaharlar, kichik mulklarning davlatchilik rivoji tarixidagi o'rini chuqur o'rganish mumkin.

X asrda Bag'dodda yashab ijod qilgan olimlar qatori Al-Istahriy va Ibn Xavkal ham asarlarining vujudga kelishi geografik bilimlarning eng yuksak rivojlangan davriga to'g'ri keladi.

Jumladan, Istaxriyning yozishicha, **Farg'ona** mintaqaning burchagida chadagi joylashgan o'lkadir... uning qirg'at minbari (masjidi) bor. Uning bosh shahri **Axsikat bo'lib, Miynoruziyya, Nasroboz(d), Manora, Ranjad, Shiki(a)t, Zorkoy, Xayralom, Bishbishon, Ushtiqon, Zarandaromish, Uzgand** kabi shaharlari bor.

Nasoiylaridan O'sh, Qubo, Ba(i)ra(i)nk, Marg'inon, Rishton, Vonkat, Kandni ko'rsatish mumkin, Vog'iziylariga Bukand, Koson, Bob, Jorak (Xorak), Asht, Tubkor, Uvol, Dakarkard, Nukad, Miskon, Bi(a)ykun, Jidgil kabilarni ko'rsatish mumkin¹.

Ibn Xavqal o'z asarini yozishda al-Istaxriy asarining aynan bizgacha saqlanib qolmagan to'liq arabcha matnidagi foydalangan. Asarda Movarounnahr viloyatlari tavsifiga juda katta keng o'rin ajratilgan So'g'd, Xorazm, Ushrusana va Shosh shaharlari bilan birgalikda Farg'ona shaharlarining ham o'sha davrdagi to'liq tavsifi keltirilgan. Jumladan, asarda Farg'ona haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Farg'ona mamlakat (viloyat)ning nomi bo'lib, u boy shaharlar va qishloqlarni o'z ichiga olgan keng viloyatdir. Uning poytaxti Axshikat shaxridir. Bu - Shosh daryosining bo'yida, tekislikda joylashgan shahardir. Shahar bilan tog'lar orasidagi masofa taxminan bir farsaxni tashkil qiladi.

Shahar daryoning shimol tomonida joylashgan. Shaharda shahriston ichida joylashgan qo'rg'on bor, shahriston yonida rabad joylashgan. Bayram namozlari o'tkaziladigan yer - Shosh daryosining bo'yida, shahar bozorlari shahristonda va rabadda joylashgan. Shahriston bozorlari boshqalariga nisbatan kengroqdir. Shaharning uzunligi taxminan uchdan bir farsaxni tashkil qiladi. Uning binolari loydan qurilgan. Rabad devor bilan o'ralgan. Shahristonning beshta darvozasi bor, ulardan biri Bujayr darvozasi, qolganlari - Madkishiy darvozasi, Koson darvozasi, Jome' masjidi darvozasi va Garov darvozasi deb ataladi. Shahristonda va rabadda oqar suvlar va ko'p sonli hovuzlar mavjud. Rabadning barcha darvozalari oqar suvli qalin bog'larga chiqqan bo'lib, bu bog'lar shahardan kamida ikki farsax masofadagi yergacha davom etadi. Shosh daryosidan kechib o'tilsa, shaharning qarshisida

¹Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 78б.

o'tloqlar va ko'p sonli yaylovlar, shuningdek, bir kunlik yo'l masofadagi yerda qumlar yotibdi².

A.Anarbayevning fikricha, Axsikent shahri Somoniylar va Qoraxoniylar davrida Farg'ona shahri deb ham atalgan, ya'ni ushbu shaharning bu davrda ikkita nomi bo'lgan. Ibn Xurdodbex, vodiylar karvon yo'llarini tasvirlar ekan, ushbu yo'l **Xo'jand, Bob (Pop), Farg'ona, Qubo, O'sh, O'zgand, Otbosh shaharlaridan o'tganligi** to'g'risida ma'lumot keltiradi.

O.G.Bolshakov X asr geografllari Istaxriy va Muqaddasiylarning ma'lumotlari asosida Farg'onada 39 shahar bo'lganligi to'g'risida ma'lumot keltiradi. Biroq A.Anarbayevning aniqlashicha, matnda u haqida ancha batafsil ma'lumotlar keltirilganligiga qaramasdan, jadvalda nimagadir Axsikent shahri aks ettirilmagan. Olimning fikricha, agar Axsikent ushbu jadvalga kiritilsa, Farg'ona shaharlari soni 39 ta emas, balki 40 ni tashkil etadi³.

Ibn Xavqal Farg'onaning 26 shaharlari nomini keltirgan. Muallifi noma'lum **"Xudud al-Olam"** asarida esa Farg'onaning 19 shahri nomi qayd etilgan. Muqaddasiyning fikricha, Axsikent Ramladan 1,5 barobar katta bo'lgan. Shaharning maydoni uchdan bir farsaxga teng bo'lgan. 90 yillarda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida A.Anarbayev xulosa qilishicha, X asrda Axsikent shahrining maydoni 400 ga teng bo'lgan¹.

Jumladan, arab mualliflari Farg'ona vodiysining asosiy shaharlari haqida quyidagi fikrlarni qayd etganlar, "Axsikatdan keyin kattaligi jihatdan Qubo shaxri turadi, u Axsikat yaqinidagi mintaqasi eng bahavo shaharlaridan biridir. Shaharda ark qo'rg'on, shahriston va rabad mavjud.

Jome' masjidi qo'rg'onda, shahar bozorlari - rabadda, hukmdor saroyi bilan qamoqxona ham rabadda joylashgan. Rabad atroflari devor bilan o'ralgan, uning yonida ko'p sonli bog'lar va ariqlar mavjud. Bog'lar va oqar suvlar ko'pligi bilan **Qubo shahri** Axsikatdan ustun turadi. Qubodan keyin kattaligi jihatdan O'sh shahri turadi.

Unda shahriston va qo'rg'on mavjud bo'lib, ularning ikkalasi ham buzilmagan. Hukmdorning saroyi bilan qamoqxona qo'rg'onda joylashgan. Shahriston yonida rabad joylashgan, uning atroflari devor bilan o'ralgan. Bu devor toqqa borib taqaladi, tog' ustida esa *turklarning din* (islom) uchun jang qiluvchilarning jangovar harakatlarini kuzatib turuvchi soqchilari joylashgan. Shaharning uchta darvozasi bor: Tog' darvozasi, Daryo darvozasi va Mug'kada darvozasi. Shahar darvozalari mustahkam qurilgan. Uning yonida bog'lar va oqar Suvli ariqlar mavjud. Movarounnahrda kattaligi bo'yicha Farg'onaning qishloqlarga yetadigani yo'q. Ba'zan odamlarning ko'pligidan, shuningdek, chorva va yaylovlarning ko'pligidan bir qishloqning hududlari bir kunlik yo'l masofaga cho'zilgan bo'ladi.

Ibn Xavqalning yozishicha, "Farg'ona viloyatining tumanlari qatoriga quyidagilar kiradi: Yuqori Nasya, Quyi Nasya, Asbara, Na(u)qod, Miyon, Rudon, Jid'gil, Urast, Bisfar va Asht.

² Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 83б.

³ Анарбаев А. Ахсикент - столица Древней Ферганы. Ташкент: Тафаккур. 2013. — С.24.

¹ Анарбаев А. Ахсикент - столица Древней Ферганы. Ташкент: Тафаккур, 2013. — С.24.

Quyi Nasya - Farg'onaga Xo'jand viloyati tomondan kirganda, uning birinchi tumanidir. Bu yerda quyidagi shaharlar bor: Vonkat, So'x, Xoqand va Rishton. Bu tumanga Quyi Nasya tumani bevosita tutashgan bo'lib, unda Marg'inon Zandaromish, Najrang U(a)stikon va Andukon nomli shaharlar bor. Bu ikkala tuman yaylovli tekis o'tloqlardan iborat bo'lib, ular orasida tog' yo'q. Asosan, tekislik va tog'larda joylashgan, unda **Tamoxus va Bomkoxush shaharlari** bor. Sux tog' tomonida joylashgan shahar, uning atroflarida 60 ta qishloq bor. Bu alohida joylashgan tog'li tumandir. **Avol** - shaharning nomi, uning yonida qishloqlar mavjud. U alohida bir tumanning markazidir. Naqod tog' o'lkasi - bu tumanda **Miskon nomli shahar** joylashgan, unda boshqa shaharlar yo'q. **O'sh va Qubo shaharlarning** nomlari, ularning atroflarida ko'p sonli qishloqlar mavjud. Qubo yaqin atrofida undan boshqa birorta ham shahar yo'q. O'sh yonida esa **Madvo** nomli shahar mavjud. **O'zgand** - shaharning nomi, uning atroflarida qishloqlar joylashgan, lekin uning tumanida boshqa shahar yo'q.

Koson - shaharning nomi, shuningdek, ko'p sonli qishloqlari bor tumanning nomidir. **Jidg'il** - tumanning nomi, unda **Ardalonkat** nomli shahar mavjud, uning tumanida boshqa shaharlar yo'q. **Miyon Rudon** - tumanning nomi, unda qishloqlar ko'p. Uning bosh shahri Xaylom shahridir, bu Abulhayming avlodidan (xonadonidan) bo'lgan Abu-l-Xasan Nasr ibn Axmadning tug'ilgan yeridir. **Karvon** shaharning nomi, uning atroflarida qishloqlar joylashgan¹.

Najm ham shaharning nomi, uning atroflarida ham ko'p sonli qishloqlar mavjud. **Urast** yonida ham ko'p sonli qishloqlar joylashgan. **Astiyogand va Shalosh** atroflarida ham qishloqlar joylashgan, bu ikkala shahar turk mamlakatining darvozalaridir. Bu shaharlarning viloyatiga Miyon Rudon tomonidan boriladi. O'zgand ilgari turklarga Qarashli bo'lgan va yaqinda, faqat bizning zamonamizda, fatx qilingan. Bu joy O'zgandga yaqin yerda joylashgan bo'lib, uning axolisi islom dinini qabul qilgan.

Farg'onada, Naqod, Axsikat va boshqa shaharlarning atroflarida oltin va kumush konlari mavjud. **So'x** shaharlarida simob qazib olinadi. Yuqori Nasya yonida qatron, toshpaxta, oltin, kumush, feruza toshi, sariq mis va qalay konlari bor. Asbarada qora toshlardan Iborat tog' bor bo'lib, bu toshlar ko'mirga o'uxshab yonadi. Ularning kuli bilan kiyimlar oqartiriladi. Farg'ona tog'larida Tabarxun tarxun buta o'simliklari o'sadi, uning urug'lari ziravor sifatida ishlatiladi va barcha mamlakatlarga olib ketiladi, shuningdek Kuzanjon Kulkana nomli o'simlik o'sadi. Bu mamlakatda va turklar viloyatida ko'p mikkorda novshadir olinadi.

Fargona shaharlari xakida Istaxriy "Axsikat bu Farg'onaning kasabasidir, u katta daraxtzorlar bilan o'rab olingan va unga sersuv daryolar oqib keluvchi, aholiga obod, yerlari serhosil va arzonchilik bo'lgan muhim buyuk viloyatdir.

Uning bir necha kanalchalar bilan bog'langan ichki shahristoni mavjud, va ular hovuzlarga quyiladi. Ularda yaxshi pishiq g'isht va gips mavjud. Uning Jome' masjidi va mu'azzam imoratlari mavjud. Ulami keng rabad o'rab turadi va uning

¹ Анарбаев А. Ахсикент - столица Древней Ферганы. Ташкент: Тафаккур, 2013. — С.24.

ko'handizi va bozorlari mavjud. Uning yarmi tuproqli hududlarga ulanib ketadi. Xayrli jihatlari ko'p va aholisi qo'polroq hamda yuzlari qizil" - deb yozadi².

Marg'inon ham kichik shahardir, uning Jome' masjidi bozorlardan uzoqdadir, uning bir darvozasi soyning ustidadir. **Rishton** esa kattadir, uning Jome' masjidining bir darvozasi bozorga qaragan bo'lsa, boshqasi maydonga olib chiqadi. **Vonkas(t) shahri** ham xuddi shunaqadir.

Bakanda esa soy shundoq bozorlarning o'rtasida oqib o'tadi. Istaxriy tomonidan bu o'lkaning shaharlari sanalganda, ularning soni qirqtani tashkil etgan. "**Xo'jand** ajoyib, go'zal shahar bo'lib, ushbu atrofda undan yaxshisi mavjud emas, uning o'rtasidan oqar daryo o'tadi va unga tog' ulanib ketadi. U chegaraning boshi bo'lib, uni olimlar va shoirlar madh va vasf etganlar"¹.

O'zbek davlatchiligi taraqqiyotida katta o'rin tutgan shaharlardan biri IX - XII asrlarda gullab yashnagan va Farg'ona poytaxt shaharlarida qatorida turgan - **Axsikent shahri** hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu shahar harobalari Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumani hududida joylashgan. Axsikent Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan bo'lib, uning harobalari **Gulqishloq va Shahand qishloqlari** oralig'idadir.

Umuman olganda, Axsikent shahrining IX - XII asrlardagi Markaziy Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida tutgan mavqei to'g'risidagi ma'lumotlarni shu davrga oid arab, xitoy va qisman fors tilidagi manbalardan olish mumkin.

Axsikent shahri haqida IX dan boshlab arab geografik manbalar dastlabki to'liq va mukammal ma'lumotlarni bera boshlaganlar.

"Farg'onaga kelsak, u sizga pastga burilishga yetmasingizdan avval sharqiy qismda mintaqaning burchagidagi joylashgan viloyatdir. U gullab yashnagan viloyat bo'lib, aytishlaricha unda 40 dan ziyod masjid bor. Uning poytaxti Axsikat bulib, uning shaxarlari ichida Miyonrudiyya (Miyon Rudon), Nasrobod, Manora, Ranjad, Shikit, Zorakon, Xayralom, Bishabishon, Ushteqon, Zarandaromish, Uzkand kabilar uchraydi. Naso shaharlari qatoriga **O'sh, Qubo, Birink, Marg'inon, Rishton, Vonkat, Kand** kabilar o'rin olgan. Vog'az shaharlariga kelsak, ular **Bukand, Kosoy, Bob, Jorak, Usht, Tubkor, Uvol, Dakarkard, Navkod, Muskon, Bikon, Ishxijan, Jidg'il, Shovadon** hisoblanadi. Isfijob viloyatni chegarasiga yaqin bo'lib, tekislikda joylashgan viloyatdir".

Axsikent shahrida mustahkam devor bilan o'rab olingan ko'handiz qal'a va rabad bo'lganligi aytiladi. Shahriston qismiga to'rtta darvozadan kirilgan. Bu paytda Axsikent deyarli barcha arab manbalarida Farg'ona viloyatining poytaxt shaharlaridan biri sifatida tasvirlanadi. Jumladan, Istaxriy, Ibn Xavqal, al-Muqaddasiy va boshqa bir qator mualliflar shimoliy Farg'onada joylashgan Axsikentni asosan siyosiy elita yashaydigan poytaxt shahar sifatida tasvirlagan bo'lsalar, **Quva (Qubo)** ko'proq iqtisodiy rivojlangan poytaxt tarzida izohlangan. Qoraxoniylar davrida Farg'ona viloyatida O'zgan shahrining mavqe'i oshib ketganligiga qaramasdan **Axsikent va Quva shaharlari** ham o'z mavqeini yo'qotmagan edilar.

² Анарбаев А. Ахсикент – столица Древней Ферганы. Ташкент: Тафаккур. 2013. — С. 24.

¹ Мамадалиев Х. Узбекистон шахарлари IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 836.

Axsikent shahrida ilm-fan ham rivojlangan bo'lib, unda bir qator madrasalar faoliyat ko'rsatgan. Ko'chmanchi qirg'izlar, Qashqar, Pomir vakillari Axsikent madrasalarida ta'lim olganlar. Axsikentlik olimlar mana shu davrda butun musulmon olamida shuhrat qozonganlar. Mana shu paytdagi mashhur shoirlardan **Asir ud-din Abu-l-Fazl Muhammad ibn Toxir Axsikatiy**ni ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, 520/1126 yilda vafot etgan mashhur tilshunos va tarixchi **Abu-l-Vafo Muhammad ibn Muhammad ibn al-Qosim al-Axsikatiy**, hamda uning inisi **adib va shoir Abu Rashid A'xmad ibn Muhammad ibn al-Qosim al-Axsikatiy**lar **Axsikent**dan yetishib chiqqan o'z zamonasining mashhur insonlaridan hisoblanadilar.

XII asrning oxiri XIII asrning boshlaridan boshlab, O'zganddan tashqari markazlari **Koson va Marg'ilon** bo'lgan yana ikki mustaqil mulk mavjud bo'lgan. Bularning hammasi G'arbiy Qoraxoniylar davlatining tanazzulini anglatardi va ushbu davlatning batamom tarix sahnasidan yo'q bo'lishi Muhammad Xorazmshox nomi bilan bog'liqdir.

IX - XII asrlarda yozma manbalar mualliflari keltirgan ma'lumotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, Farg'ona urbanizatsion jarayonlar faol kechgan hudud hisoblanib, unda qirqta shahar mavjud bo'lgan va Axsikent, O'sh, O'zgan, Quva kabi shaharlar mintaqa siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy- ma'naviy hayotida alohida o'rin tutgan.

Hokimiyat egalariining davlatni markazlashtirishga urinishlariga qaramay Somoniylar davrida butun O'rta Osiyoda udel tartibi elementlari qattiq o'rnatilib qolgan va viloyatlar hokimlari ko'pincha yarim mustaqil bo'lganlar. Shunday viloyatlardan biri **Xorazm** edi, u Amudaryoning ikki qirg'og'idagi ikki viloyatdan iborat edi. Poytaxti **Urganch** bo'lgan chap qirg'og'ida arab noiblari sulolasi **Ma'muniylar** hukmronlik qilgan bo'lsalar, markazi **Kot shahri** hisoblangan o'ng qirg'og'ida xorazmiy Afrig'iylar sulolasi hukmronlik qilganlar.

Xorazmda Ma'muniylar sulolasi (995-1017) vakillari 995 yilda hokimiyat tepasiga kelganlar. Sulolaning ilk hukmdori Ma'mun ibn Muhammad (995-997) edi. Ushbu suloladan oldin hukmronlik qilgan Afrig'iylar sulolasi (305-995) hukmdorlari xorazmshoxlar deb atalgan. Ma'muniylar ham hokimiyat tepasiga kelgach, ushbu unvonni saqlab qolganlar. X asrda O'rta Osiyoda, xususan Xorazmda davlat boshqaruvi umumiy arab-musulmon an'analari asosida yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, bir qator o'ziga xosliklarga ega bo'lgan. Masalan, Ma'mun ibn Muhammad xorazmshox, shuningdek, u amir deb ham atalgan. Ma'muniylar davlati poytaxti Jurjoniya (Gurganch, hozirgi Ko'hna Urganch shahri bo'lgan. 995 yilda Urganch amiri Ma'muniylar sulolasining asoschisi Ma'mun ibn Muhammad tomonidan oxirgi Afrig'iy hukmdor Abu Abdullox Muhammad asir olingan va o'ldirilgan. Uning yerlari (Kot, ushbu shaharning harobalari Qorakalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida joylashgan) Ma'mun ibn Muhammad tomonidan o'z mulkiga qo'shib olingan va Xorazmda poytaxti Urganch (hozirgi Ko'hna Urganch) bo'lgan yagona markazlashgan davlat yuzaga kelgan. Ma'muniylar davri davlat boshqaruviga oid ma'lumotlar ko'p saqlanmagan, ammo keyingi sulola xorazmshox-anushteginiylar (1097-1221) hukmronligi davrida mavjud bo'lgan ko'plab lavozim va devonlar Ma'muniylar davridan mavjud bo'lib kelganlar.

Ma'muniylar hukmronligi davrida Xorazmda ilm-fan, san'at yuksak darajada taraqqiy etgan. Buni quyidagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Mahmud G'aznaviyning Xorazmshoh bilan munosabatlari yomonlashganda, u Xorazmga qarshi qo'shin tortishga taraddud ko'radi. Sulton Mahmud G'aznaviy urushni to'xtatish uchun Xorazm hukmdoriga uchta talab qo'yadi. Shularning birida u Xorazmdagi ko'zga ko'ringan olimlar, imomlar, fikix va boshqa o'uz sohasi bilimdonlaridan o'z davlatiga yuborishni talab sifatida qo'yadi.

Xorazm shaharlari to'g'risida gap borar ekan IX - XP asr mualliflarining bergan ma'lumotlariga alohida to'xtalib o'tish lozim. Ushbu davr manbalarida Xorazm "Xuvorizm" yoki "Xvorizm" shaklida yozilgan. Jayhunning ikki qirg'og'ida joylashgan ushbu viloyatning eng katta kasabasi **Haytal** (Eftal so'zining arabcha yozilishi, arablar Movarounnahr tomonni, ya'ni Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlarni atashda "Xaytal" nomini ham keng qo'llaganlar). Xorazmning boshqa qasabasi Xurosondadir (ya'ni daryoning chap qirg'og'ida) va ular ikki hudud aholisidan (Movarounnahr va Xuroson) rasm-rusumlarda, tilda va xulq-atvorda farq qiladilar. U keng qudratli viloyat bo'lib, uning manzilgohlari **Rum, Sajiston va Kozarungacha** cho'zilib ketgan.

Unda uylar, bog'u bo'stonlar, ekinzor, daraxt va mevalar bir-biriga ulanib ketadi. Xorazm tijorat bilan shug'ullanuvchilar uchun foydali va hayratlanarli narsalarga to'ladir.

Bayhaqiy Xorazm da islom madaniyati tarqalgach, ayniqsa **Mahmud G'aznaviy** zamonida ushbu davlat gullab yashnaganligini yozadi. Muqaddasiyning ma'lumot berishicha ham, "... u saksonga sakson farsax masofada kenglikda joylashgan. U baliqlarga liq to'la va yaylovlarni suv bilan ta'minlovchi anhorlar hayot beruvchi ko'pilab manzillarni o'z ichiga oladi. Uning eng katta qasabasi nomi **Kos(t)** bo'lib, uning **Haytal** (ya'ni Movarounnahr, **Haytal** bu Eftal nomining arabcha talaffuzi) tomonida (11 ta) **Gu(a)rdmon, Voyxon, Arzaxiva, Nukfog', Ku(a)rdar, Mazdoxon, Jashira, Sadur, Zardux, Barotakin qishlog'i, Madkaminiyya**, kabi shaharlari bor. Ularning Xuroson tomonidagi poytaxti nomi al-Jurjoniya va uning jami 21 ta: **Nuzvor, Zamaxshar, Ruzund, Vazormand (yoki Zormand), Daskoxon, Xos, Xushmis(t)an, Madomis(t)an, Xiva, Kardaronxos, Xazorash, Jikrband, Vajoz (yoki Joz), Darg'on, Jit, yana bir boshqa Kichik Jurjoniya, Sadfar, Masoson, Korder va Andari(a)ston** kabi shaharlari bor"¹.

Gurganj Xorazmiing yangi poytaxti sifatida IX asrda yuzaga kelgan. Bu yerda Movarounnahr (**Buxoro - Varaxsha - Amu o'ng qirg'og'i - Kot - Gurganj orqali**), Xurosondan (**Marv - Amu chap qirg'og'i - Xazorasp - Gurganj**) va Mesopotamiyadan (**Nisa - Qoraqum - Zmuxshir - Gurganj**) keladigan eng muhim savdo strategik yo'llar kesishganlar va Ustyurt orqali Volgabo'yi va Qoradengizning sharqiy sohillaridagi yo'llardan keladigan karvon yo'llari bilan tutashganlar.

Gurganj xorazmshoxlarning poytaxti bo'lib, u yerda Beruniy, Ibn Sino, Abu Sahl Masixiy, Abu Nasr ibn Iroq, tib olimi Abulxayr, tarixchi Ibn Miskovayx kabi olimlar istikomati qilganlar. Shuningdek, Abu Bakr Muhammad al-Xorazmiy, Abu Said Shabibiy, Abul Xasan Ma'mun, Abu Abdullox Tojir al-Vazir, Abu Muhammad

¹ Байхаки А. Ф. История Масъуда / Пер., прим. и комм. А.К. Арсенса. - Ташкент. 1962.-С. 805.

Rakkoshiy, Abu Abdullox Xorazmiy, Abulqosim Zirg'am kabi shoirlar ham ushbu shaharda istiqomat qilganlar.

Xazorasbning yog'och darvozalari va xandaqi bor. **Jikrband** xuddi Xivadek daryo qirg'og'ida va ko'plab daraxtlari va bo'stonlari bor. Uning katta va gavjum **Jome'** masjidi u tomonda va uni ikkiga ajratib turadigan katta to'g'ri ko'chasi bor. **Joz (Vajoz)** katta kichik qo'rg'on, keng xandaq, ko'priklar, hamda bir tashqi darvozadan ikkinchi tashqi darvozagacha cho'zilgan shahristoni bor. Katta to'g'ri ko'chasi undan uzilgan katta **Jome'** masjidi u tomondadir. **Darg'on** al-Jurjoniyaning keyin ularning eng kattasi unda tevarak atrofda unga tengi yo'q yaxshi **jome'** masjidi bor. Unga nafis javohirlar va yaxshi naqshlar bilan ishlov berilgan. Qirg'oq bo'ylab **Farsxon** deb atalmish uzumlar yetishtiriladigan va mayiz sotiladigan qirg'oqqacha besh yuzlab tok uchraydi. Jit shahri katta bo'lib, uning cho'lga tutashib ketgan keng rustaklari bor va u G'uzlar chegarasidagi istehkom bo'lib, u yerdan g'uzlar yeriga kiriladi.

Xiva X asrda Xeykanik kanali oxirida joylashgan kichik shahardan iborat bo'lgan. Muqaddasiyning ma'lumot berishicha bu chiroyli qilib qurilgan **Jome'** masjidiga ega keng shaharni tashkil etgan. Istaxriyning ma'lumot berishicha, **Safardiz** qishlog'i orqali Xivadan poytaxt **Kotga** borilgan. Ushbu qishloq va Xiva o'rtasidagi masofa 5 farsaxni, **Safardizdan Kotgacha** masofa 3 farsaxni tashkil etgan. Xivadan **Gurganjga** ketishda esa **Ardaxushmisan shahri** joylashgan. Undan Xivagacha bir marhala masofa bo'lgan.

Xorazmshox Ma'mun ibn Ma'mun Beruniyga quyidagi fikrlarni aytib o'tgan "Ilm-fan eng hurmatga loyiq soha va barcha ilm fanga qarab intiladi, ilmdan hech bir narsa ustun emas"¹. **Abul Abbas Ma'mun ibn Ma'mun** (999-1016) saroyida o'ziga xos "**akademiya**" yuzaga kelgan va u yerda tez-tez ilmiy bahslar va muzokaralar bo'lib turgan.

Xorazmda juda qadim zamonlardan boshlab, turkiy va eroniy xalqlar yonma-yon yashab kelganlar. Lekin IX - X asrlarda, Xorazmda, sharqiy eroniy tillardan eski xorazmiy tili saqlanib qolgan bo'lsa-da, XI - XII asrlarga kelib, yangi fors va Xorazm turkiy tillari hukmron mavqe'ga chiqib boshlagan. Davlat ishlari fors tilida olib borilgan.

Xorazmda G'aznaviylar zamonida **kujat, jigrak, qipchoq** va boshqa turkiy qabilalar yashaganliklari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, xristian jamoalari ham saqlanib qolganlar, ular asosan, nestorianlardan iborat bo'lgan. Ular **Marv, Xorazm, Samarqand** va boshqa joylarda mavjud edilar. Biroq ular son jihatidan juda oz bo'lganlar va shu bilan birga ular zardushtiylar va xurramiylar kabi ta'sirga ega emas edilar. **Abu Rayxon Beruniy** Xorazmda xristian jamoalarining yashaganliklarini va ular "**Kalandas**" degan bayramni sayl sifatida nishonlaganliklarini, bunda kichik bolalar uyma-uy yurganliklarini va aholi ularni bu bayramda vino va shirinlik bilan siylaganliklari haqida ma'lumot bergan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Xorazmning eng katta shaharlaridan bo'lgan **Kot, Urganch (Jurjoniya, Gurganj)** va boshqa bir qator shaharlar IX - XII asrlarda Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy-madaniy

¹ Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 1176.

hayotida asosiy markaz vazifasini o'taganlar. Bu yerdan yetishib chiqqan hamda bu yerda faoliyat yuritgan ilm-fan, madaniyat va san'amin yirik namoyondalarining kamol topishida ushbu shaharlardagi o'sha davrlarda mavjud holat va yaratilgan shart-sharoitlar katta o'rin tutgan.

Shosh va Sirdaryo boylari qadimdan faol urbanizatsion jarayonlar kechgan hudud hisoblanadi. Bu yerda mavjud bo'lgan shaharlar va shahar hayoti haqida IX - XII asrlar mualliflari muhim ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Xususan, arab manbalarida Toshkent **al-Shosh** tarzida berilgan.

Beruniy va Mahmud Qoshg'ariyning malumotlariga ko'ra, Toshkentniig nomi turkiycha Toshkand (Qoshg'ariyda Tarkan variantga ham mavjud) dan kelib chiqqan va "**Tosh shahar**" ma'nosini bergan.

Arab mualliflaridan al-Muqaddasiy Shoshni Isfijobdan keyin tasvirlagan va uning "**G'arjand, G'annoj, Jabuzan, Varduk, Kabarna, Namdavonak, Nujkat, G'azaq, Anuzkat, Bishkat, Barkush, Xotunkat, Jabg'ukat, Farankad, Kadok, Nakolak, Boriskat, Ushturkat, al-Baykat, Kaboskat, G'annoj, Dex Kuron, Gal Avsh, G'uzkard, Zaronkat, Darvo, Faradkat, Ajax** kabi shaharlari mavjud bo'lib, Iloq unga tutashib ketadi, markazi Tunkatdir. Uning shaharlari: **Shovakat, Bonxosh, Dukat, Arbilax, Namudlag', Tukkan, Xumrak, Sokat, Kuxsim, Adaxkat, Xos, Xujakat, G'arjand, Somsirak, Biskat** deb ma'lumot beradi.

Yuqoridan Shoshning **Xotunkat, Jabg'ukat, G'uzkard** va boshqa bir qator shaharlari toponimiyasida turkiy xalqlarga aloqadorlik mavjudligini ko'rish mumkin.

Istahriyning yozishicha esa, "Shoshga kelsak, uning poytaxti Binkatdir, uning shaharlari esa **Nukkas(t), Jinonjkas(t), Nujokas(t), Banokas(t), Xarashkas(t), G'arjand, G'annoj, Jabuzan, Varduk, Kabarna, Namduvank, Nujkas(t), G'azak, Anuz(d)kat, Bishkat, Barkush, Xotunkat, Jabg'ukat, Farankad, Kadok, Nakolik, Boriskas(t), Ushturka(s)t, Albaykas(t), Kaboshkas(t), Dex Kuron, Tall Ush** (yoki Avsh, tarjimasi O'sh (yoki Avsh) tepaligi), **G'uzkard, Zaronkas(t), Darvo, Far(a)dkas(t).**

Iloq Shoshning bir nohiyasi xisoblanadi, uning poytaxti esa **Tunkat bo'lib, Shovakas(t), Bonxosh, Nukas(t), Boloyon, Arbalix, Namuz(d)lig', Tukkas(t), Xumrak, Sikas(t), Ko'xisim, Adaxkat, Xos, Xijokas(t), G'arjand, Som, Sarak va Biskat** kabi shaharlardan iborat"¹.

Shoshning yaqin shimoliy tomondagi qo'shnilaridan biri hisoblangan - **Isbijob**, shahar atroflarida ko'p qishloqlari mavjud, muhim poytaxt shahar bo'lgan. Shahar yaxshi rivojlangan, savdogarlar uchun qo'nalg'alar mavjud bo'lib, u yerda paxta bilan savdo qiluvchi savdogarlarning bozori joylashgan. Masjidning to'rtta katta darvozasi bo'lgan, hamda ular **Nujakat darvozasi, Farruxon darvozasi, Shokrona va Buxoro darvozalari** deb atalgan. Uning har bir soqchilik punktida **naxshabliklar raboti, buxoroliklar raboti, samarkandliklar raboti va qoratakin raboti** kabilar bo'lgan. Bu juda muhim savdo markazi xisoblangan. Savron yetti qavat himoya devori va devorlar oralig'ida turar joylari mavjud bo'lgan shahar. Masjid ichki shahriston ichidadir.

¹ Маматалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари. IX-XII асрларда. Тошкент. 2017. 95б.

Turor Zarox Savrondan keyin ochiq maydondagi, turklar qarshisidagi shahardir. U ko'handizli (qo'rg'onli) kichik himoya qal'asidir. **Zarox** chekka mintaqadagi qishloq joyidir. Barukat Boloj bilan birga qo'rqitish yo'li bilan islomga kiritilgan **turkmanlarga qarshi chegarada joylashgan katta shahardir**. Bundan **Isbijob viloyatida** bir qator turkiy urug'larning shaharlari va qishloqlari bo'lib, ular u yerda qisman o'troq hayot kechirganlar, deb xulosa qilish mumkin.

Endi alohida **Choch - Iloq** haqida to'xtalsak. Qadimgi Turonning ikkinchi yirik suv manbai hisoblangan Sirdaryoning o'rta havzasida shakllangan Choch – qadimda O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy hududlaridagi yirik mulklardan biri bo'lgan. Chirchiq va Ohangaron vohasidagi unumdor yerlarni o'z ichiga olgan Toshkent vohasi uning markazi edi. Bu voha uch tomondan, shimoli-g'arb, sharq va janub tomondan G'arbiy Tyanshan, Chotqol va Qurama tog'lari bilan o'ralgan. Chochning tog'lari turli qimmatbaho ma'danlarga boy bo'lishi bilan birga chorvachilikning rivoji uchun ham qulay edi.

Geografik jihatdan Choch Markaziy Osiyo xalqlarining savdo-iqtisodiy va madaniy-etnik chorrahasidagi qulay joyda joylashgan bo'lib, bu hudud ziroatkor ellatlar va ko'chmanchi qabilalar yashaydigan dashtlari yaqinidagi faol aloqalar zonasi edi. Ikkinchi tomondan, Chotqol, Qurama va Qoramoszor tog'laridan qazib olinadigan ma'danlarning, avvalo, qimmatbaho toshlarning ko'pligi ham vohaga xos xususiyat edi. Chunonchi, oltin, kumush va feruza Chochning Sharq va Yevropa mamlakatlari chiqazadigan asosiy xom ashyosi hisoblangan.

Choch-Iloq vohasining qadimgi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu yerda dastlabki ziroatkorlar taxminan bundan uch ming yil ilgari paydo bo'ladi. Mil. avv. IX-VII asrlarda hozirgi Tuyabo'g'iz suv ombori o'mida ilk dehqonlarning manzilgohlari mavjud edi. Ularning moddiy madaniyati Burgulik (Burkanlik) soy bo'yidan ilk marotaba aniqlanib, shu nom ostidagi madaniyat sifatida fanga kiritilgan.

Ilk yozma manbalar Sirdaryo-Yaksart havzasini dehqonchilik aholisi va ko'chmanchilar o'rtasidagi chegara sifatida izohlaydi. Strabonning ma'lumot berishicha, Yaksart sug'diylar va ko'chmanchilarni ajratib turadi. Dionisiy Periget esa Sug'diyona ortida Yaksart oqimi bo'ylab saklar joylashganligi haqida yozadi.

Mil. avv. I mingyillik Toshkent vohasidagi ko'chmanchi aholi haqida ma'lumotlarga ega bo'lsak-da, Ohangaron va Chirchiq vohalarida Burgulik madaniyati misolida o'troqlashgan chorvadorlar maskanlari kuzatiladi. Bu madaniyatga oid turarjoylar yerto'la va yarim yerto'lalardan iborat bo'lsa, moddiy madaniyat buyumlari qo'lda ishlangan sopol idishlar, bronza mehnat qurollari, jangovar qurollar va taqinchoqlardan iborat. Ularning moddiy madaniyati g'arbda Sirdaryoning chap qirg'og'i, sharqda Yettisuv, Oltoy va Sibirgacha bo'lgan hududlardagi madaniyat bilan o'xshashlik topadi.

Burgulik madaniyatining so'nggi bosqichida Toshkent vohasining janubi-g'arbidagi yarim yerto'lalar o'mida mustahkam qal'a va qal'a devorlariga ega bo'lgan **shahar qad ko'taradi**. Ushbu ko'hna shaharning devorlari va minoralari kvadrat shaklidagi g'ishtlar va paxsalaridan bunyod etiladi. Ko'hna shaharning rejayiy tuzilishi, **mudofaa inshootlari** uslublari va bu qatlamdan topilgan sopol buyumlar qadimgi dehqonchilik madaniyatining G'arb antik me'morchilik an'analarini eslatadi.

Bundan xulosa chiqargan Y.F.Buryakov, ushbu **ko'hna shaharni** manbalarda eslatilgan va mil. avv. IV-III asrlar qal'asi Yaksart orti Antioxiyasi bilan bog'laydi.

Yuqorida eslatganimizdek, antik davr mualliflari Yaksart-Sirdaryoni sug'diylar va saklar o'rtasidagi chegara sifatida tasvirlab, o'troq sug'diylardan farq qilgan holda, saklarning ko'chmanchi turmush tarzida hayot kechirganligini ta'kidlaydilar. Arxeologik ma'lumotlar natijalariga ko'ra, ko'chmanchi saklar o'troqlashib, **Burgulik madaniyatiga** asos soladilar. Ammo, mil. avv. III asrga kelib, bu madaniyat qishloqlari bo'shab qoladi. Chunki aynan mana shu davrda Yevroosiyo dashtlaridagi xalqlarning katta ko'chishlari (migratsiya) bo'lib o'tadi va bu migratsiya jarayonlari O'rta Osiyo hududlariga yangi qabilalarning kirib kelishiga sabab bo'ladi.

Yozma manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Sirdaryo-Yaksartning yuqori oqimi bo'ylab Toshkent vohasiga qadimgi dunyoning kuchli uyushmalaridan biri bo'lgan **dahlar konfederatsiyasiga** kiruvchi qabilalar guruhi kirib keladi. Bu konfederatsiyaga kiruvchi ayrim qabilalar Sirdaryoning quyi oqimlarida, Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasi ta'sirida bo'lmagani bois, mil. avv. IV-II asrlardayoq ular shahar madaniyatidan xabardor edilar. Tadqiqotchilarning fikricha, Toshkent vohasiga kirib kelgan ko'chmanchilar to'liqini Burgulik madaniyati qishloqlariga chek qo'yadi. Shu bilan birgalikda, bu hududlarda ko'p sonli aholining o'z madaniyati, dehqon-chorvachilik ko'rinishidagi an'analari asosidagi o'troqlashuv jarayonlari bo'lib o'tadi.

Bu vohaga **ilk shaharsozlikni** Sirdaryo-Yaksartning quyi oqimlaridan chiqqan, o'zlari bilan xom g'isht va paxsa qurilishi an'analarga ega aholi olib keldi. Nisbatan **qadimgi shaharlardan** biri Sirdaryo-Yaksartdan 80 km uzoqlikda, uning o'ng qirg'og'ida bunyod etilgan **Qanqa shahridir**. Ayrim tadqiqotchilar bu ko'hna shaharni Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida deb hisoblaydilar. Hozirgi Toshkent shahri hududlarida ham mil. avv. II asrga kelib, shahar – manzilgohiga asos solinadi. Toshkent hududidagi halqa devorlar bilan o'rab olingan **Shoshtepa** aynan mil. avv. II asrga oiddir.

Xitoy manbalaridan **“Katta Xan sulolasi tarixi”** ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent vohasi **Yuni yoki Yuynichen** nomi ostida tilga olinadi. Yosha (Yaksart) daryosi bo'yidagi bu mulk yarim ko'chmanchi Qang' itifoqining beshta kichik mulki tarkibida bo'lgan. **Qang' tarkibida** Yuni ko'plab mustahkamlangan **qishloqlari va shaharlari** bo'lgan urbanizatsiyalashgan mulklardan biri hisoblangan.

Toshkent vohasining Qang' tarkibida bo'lishi ichki iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga turtki bo'lgan bo'lsa, uning karvon savdo yo'llari tutashgan joyda joylashganligi urbanizatsiya jarayonlarining rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yo'l Xitoy va Sharqiy Turkistondan O'rta Osiyo vohalari orqali Yaqin Sharq, Kavkaz, Janubiy va Sharqiy Yevropaga olib borgan. Ilk bosqichlarda asosiy trassalar O'rta Osiyoning janubiy hududlarida shakllangan bo'lsa-da, ayni vaqtda, o'sha ilk shakllangan davrdan boshlab, savdo yo'lining tarmoqlaridan biri Sirdaryo orqali o'tgan. Bu yo'llar madaniyatlar almashinuvi va iqtisodiy aloqalarda katta ahamiyatga ega bo'lib, bu holatni Toshkent vohasidagi urbanizatsiya jarayonlarida ham kuzatishimiz mumkin.

Urbanizatsiyaning ilk bosqichlarida Yuni mulkining nisbatan yirik **ilk shaharlari Qanqa, Shohruhiya** kabilar bunyod etiladi. Yuni mulkining poytaxti Yuynichen shahrini ayrim tadqiqotchilar hozirgi Toshkent o'rnida joylashtirsalar, ayrimlari Yosha Yaksart vohasidagi **Qanqa** shahri o'rnida deb biladilar. Fikrimizcha, ikkinchi taxmin to'g'ri bo'lishi mumkin. Chunki yozma manbalar ham bu davrga oid shu hududlardagi yagona **shahar markazi** haqida ma'lumotlar beradi. Aynan mil. avv. I asrdan boshlab, bu **ko'hna shahar** kengayib boradi va **Qovunchi madaniyati** davriga kelib, maydoni 150 gektarga yetadi. **Qanqa Baqtriya va Sug'dning shaharlari** kabi chunonchi, quyi va o'rta Sirdaryo havzasidagi eng **yirik shaharlardan biri edi**.

Ayrim tadqiqotchilar Qanhani Qang' hukmdorlarining qishki qarorgohi bo'lgan deb hisoblaydilar. Xan sulolasi Xitoy solnomalari ma'lumot berishicha, "Qang' hukmdori Qanqaga tez-tez tashrif buyurishdan mamnun bo'lgan".

Sosoniylar davri manbalarida Toshkent vohasi **Choch (Chochiston)** nomi bilan tilga olinadi. Bu voha ko'p qirrali iqtisodiyot va urbanizatsiya jarayonlarining rivoji uchun qulay hudud hisoblangan. Shu bilan birga muhim savdo-iqtisodiy aloqalar va etnik ko'chishlar chorrahasida joylashgan. Mintaqa tog'larini turli foydali qazilmalar va ma'danlarga, avvalo, oltin va kumush hamda foydali minerallarga nihoyatda boy edi.

Arxeolog M.I. Filanovich yozma va moddiy ma'lumotlarni qiyosiy o'rganishi asosida mil. avv. I asr oxirlarida **Toshkent o'rnida shahar mavjud bo'lganligi** haqida xulosa chiqaradi. Uning fikricha, bu davrda **shahar Mingo'rik hududlaridan** chiqib, ancha kengayadi. Poytaxt ko'chishining asosiy sabablaridan biri – Buyuk ipak yo'li asosiy tarmoqlaridan biri yo'nalishining shimol tomonga o'zgarishi hisoblanadi. Xitoy manbalarida hozirgi **Toshkent o'rnidagi shahar Shi** nomi bilan tilga olinadi. Manbalardan ma'lumki, bu mulk kelib chiqishi mahalliy qabilalardan bo'lgan zodagonlar tomonidan boshqarilgan.

Shi dastavval **Qang'** tarkibiga kirgan bo'lib, III-VI asrning boshlarida bu davlat kichik mulklarga bo'linib ketgach, **Shi-Choch** uncha katta bo'lmagan mustaqil davlatga aylanadi. Ammo, oradan ko'p o'tmasdan O'rta Osiyo hududlarida ulkan davlatga asos solgan eftalitlar tomonidan bosib olinadi.

Choch vohasining qadimgi ajralmas qismi va mulki Ohangaron vodiysidagi **Iloq** edi. **Mustaqil siyosiy uyushma sifatida Iloq ilk o'rta asrlar**, ya'ni VII asrga oid manbalarda eslatiladi. 630 yilda Choch orqali o'tgan Xitoy missioner-buddaviysi Syuan TSzyanning ma'lumot berishicha, Iloqda "o'z harbiy guruhlariga ega bo'lgan zodagonlar vakillari ko'p, ular o'zaro urushlar olib boradilar va asosan Turk xoqoniga bo'ysunadilar". Aftidan, aynan mana shu davrdan boshlab, Iloqdagi "hukmron dehqon"larning salohiyati iqtisodiy hayotda, birinchi galda, oltin va kumush konlariga saфарbar etiladi. Ilk o'rta asrlar Ohangaron vodiysida tog'-kon ishlarining jadal rivojlanishi shaharsozlik madaniyatiga ham ta'sir etdi.

Ta'kidlash lozimki, ma'danlar qazib olishning keng ko'lamda bo'lishi Arab xalifaligi uchun ham muhim edi. Chunki arablar Movarounnahrni fath qilgach, VIII asrdayoq mulklardan markaziy hokimiyat foydasiga maxsus soliqlar joriy etilgan. Qizig'i shundaki, ushbu mulklar orasida **Choch-Iloq** va uning kumush konlari alohida soliq to'lovchi mulk sifatida ajratilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Choch mulki

180 ming dirham soliq to'lagan bo'lsa, uning konlari uch marta ortiqcha, 607 ming dirhamgacha soliq to'lagan.

Asosiy konlar **Ohangaron daryosi** havzasida joylashgan bo'lib, ulardagi qazilmalar **Iloq tog'-kon hunarmandchiligi**ning asosini tashkil etgan.

IX-X asrlarga oid arab geograflarining asarlarida **Iloqning Chochdan** mustaqil siyosiy **viloyat** bo'lganligi nisbatan aniqroq kuzatiladi. Ammo, har ikkala viloyat ushbu manbalarda birgalikda, yagona tarixiy-madaniy va siyosiy uyushma sifatida eslatiladi. Bular orasida X asrning birinchi yarmida yashab o'tgan yirik arab geograflaridan biri Istaxriyning ma'lumotlari ayniqsa, diqqatga sazovordir. Uning ta'kidlashicha, Movarounnahrda **Choch va Iloq viloyatlari** mavjud bo'lib, har ikkala viloyatning hududi 2-3 kunlik yo'l va "butun Movarounnahrda aholi soniga ko'ra bu viloyatlarga teng keladigan viloyat yo'q". Istaxriy asarining arab tilidagi matnida berilishicha, "bu viloyatlarda qishloqlar, o'zlashtirilgan yerlar va jome' masjidлари (arablarda machitlar shaharlarning asosiy belgilari hisoblangan – M.M.) juda ko'p va ular tekislikda joylashmagan, yaylovlari va chorvalari ham juda ko'p. **Chochda** (arabchada – Shosh) va **Iloqda** darvozalari, devorlari rabotlari va **qal'alari bo'lgan shaharlar** ko'p, kanallar shaharlar ichidan oqib o'tadi".

Istaxriy o'z asarida har ikkala viloyatning umumiy chegaralarini berib, barcha shaharlarni sanab o'tadi va Turkistonda Shoshdan katta viloyat yo'qligini ta'kidlaydi. Uning yozishicha, "**Shosh va Iloq** qo'shilgan bo'lib, ular o'rtasida hech qanday bo'linish yo'q. Qurilishlar, bog'lar, bo'stonlar Iloqdan to Choch vohasigacha (fors matnida) uzluksiz cho'zilib boradi. Iloqda oltin va kumush konlari joylashgan".

Oradan yarim asr o'tgach, bu mintaqani yaxshi bilgan yana bir arab geografi Abulqosim ibn Havqal Istaxriy ma'lumotlarini deyarli to'liq takrorlaydi.

Choch va Iloq haqida gapirar ekan **Ibn Havqal** bu viloyatlarda boy shaharlar ko'pligini ta'kidlaydi. Choch-Iloqning shahar madaniyati rivoji asosan, tog'-kon metallurgiyasi ishlab chiqarishi bilan bog'lanadi. Vohadagi shaharlarning nisbatan to'liq ro'yxati va ularning tasnifi, shahar madaniyatining gullab-yashnashi X asr geograflari tomonidan (10 dan 17 tagacha shahar markazlari) eslatiladi.

Tadqiqotchilar tomonidan ayrim shahar markazlari Tunket, Abrlig', Namudlig', Kuxisim kabilarni o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlar o'tkazilgan.

Ayrim shaharlar tadqiqotchi mintaqadagi kon markazlari haqida olingan yangi ma'lumotlar natijasida Iloq shaharsozligini yangi asoslarda o'rganish va uni **Choch – Iloq** urbanizatsiyasi rivojlanishidagi o'mini belgilash imkonini berdi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, vohada ilk shaharsozlik Sirdaryoning madaniy zonasida shakllanadi. Bu siyosiy-iqtisodiy hamda etnomadaniy aloqalarda katta ahamiyat kasb etadi. **Chirchiq va Ohangaronning** o'rta oqimlarida **Choch va Iloqning** asosi bo'lgan shaharsozlik madaniyati jadal rivojlanishida tog' sohasi bilan bog'liq hunarmandchilik va vohadagi ziroatchilik muhim o'rin tutgan.

Tayanch so'zlar:

Harbiy qarorgoh, lashkargoh, qishgi lashkargoh, Shon yo'li, turk yo'li, fortifikatsiya, yabg'u, jabg'u, jabg'ukat, qoriyan, tura, berik, Xonobod, Yabg'ulik davri, xoqonlik, qishloq qarorgoh, xaroba, jabg'u-hoqon, yabg'u-hoqon, shahar hukumdori, mudofaa inshooti, qishloq qarorgohi, qatun, xotun, tukyue, xotun-baliq,

xotun-sini, Xotunkat, xun, siyanbilar, Koxotunchen, Qatun shaharlar, Ibi Dulu Kexan, Kalos daryosi, Parak daryosi, Shosh devori, Xargankat, farsax, Merke, Tan-shu, Shi - Choch, Talas.

Test topshiriqlar:

1. Quyidagi javoblardan Turk xoqonligining poytaxtini ko'rsating.

A. Utukan va Suyab.

V. Utukan va Yabg'ukat.

S. Suyab va Jabg'ukat

D. Xotunkat va Suyab

2. Quyidagi javoblarda Turk hoqonligining qishlik qarorgohlari bo'lgan shaharlarni toping?

A. Jabg'ukat va Xotunkat

V. Mingbuloq va Jabg'ukat

S. Oq ota va To'qaytepa

D. Utukan va To'qaytepa

3. "... Choch vohasi turk hoqonligiga kirgan paytda, "ilk turk hukmdorlari qarorgohi sifatida paydo bo'lgan..." - Bu fikrlar qaysi tarixchiga tegishli?

A. G'.B. Boboyorovga tegishli

V. Y. F. Buryakovga tegishli

S. M. I. Filanovichga tegishli

D. M. E. Voronetsga tegishli

4. "Oq ota" xarobasining umumiy maydoni qancha?

A. "Oq ota" xarobasining umumiy maydoni - 18 ga

V. "Oq ota" xarobasining umumiy maydoni - 20 ga

S. "Oq ota" xarobasining umumiy maydoni 30 ga

D. "Oq ota" xarobasining umumiy maydoni 22 ga

5. "Oq ota" xarobasi qachon va kim tomonidan o'rganilgan?

A. 1940 yil, M. E. Voronets tomonidan o'rganilgan

V. 1941 yil, G'. B. Boboyorov tomonidan o'rganilgan

S. 1942 yil, Y. F. Buryakov tomonidan o'rganilgan

D. 1943 yil, M. I. Filanovich tomonidan o'rganilgan

6. "Oq ota" xarobasi qachon gullab yashnadi va qachon shaharga aylandi, qachon yanada rivojlandi?

A. "Oq ota" xarobasi xarobasi I ming yillikning ikkinchi yarmida gullab yashnadi va X yuz yillikka kelib shaharga aylandi, XI-XII yuz yilliklarda yanada rivojlandi.

V. "Oq ota" xarobasi xarobasi I ming yillikning birinchi yarmida gullab yashnadi va IX yuz yillikka kelib shaharga aylandi, XII-XIII yuz yilliklarda yanada rivojlandi.

S. "Oq ota" xarobasi xarobasi I ming yillikda gullab yashnadi va IX yuz yillikka kelib shaharga aylandi, XIII yuz yilliklarda yanada rivojlandi.

D. "Oq ota" xarobasi xarobasi I ming yillikning IV choragida gullab yashnadi va IX yuz yillikka kelib shaharga aylandi, XI yuz yilliklarda yanada rivojlandi.

7. Harbiy mudofaa inshootlari necha turga bo'lingan?

A. Harbiy mudofaa inshootlari ikki turga bo'lingan

V. Harbiy mudofaa inshootlari uch turga bo'lingan

S. Harbiy mudofaa inshootlari umuman bo'linmagan, yagona bo'lgan

D. Harbiy mudofaa inshootlari to'rt turga bo'lingan

8. Quyidagilardan turkiy tilda qarorgoh qanday nomlanganligini toping?

A. Qorriyan, turuy, tura, ton, berik

V. Qoriyan, ko'y, mahalla, ko'cha, qo'rg'on

S. Turuy, qo'rg'on, ark, ko'y, berik

V. Ton, berik, ark, qo'rg'on

9. Turk hoqonligining g'arbiy qanot shakllanishi jarayoni necha bosqichdan iborat?

A. Turk hoqonligining g'arbiy qanot shakllanishi jarayoni 3 bosqichdan iborat

V. Turk hoqonligining g'arbiy qanot shakllanishi jarayoni 2 bosqichdan iborat

S. Turk hoqonligining g'arbiy qanot shakllanishi jarayoni 4 bosqichdan iborat

D. Turk hoqonligining g'arbiy qanot shakllanishi jarayoni 5 bosqichdan iborat

10. "Hoqon" lik davri to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A. VII yuz yillikning 30-yillari – VIII yuz yillikning ikkinchi choragi

V. VI yuz yillikning 60-yillari oxiri

S. VII yuz yillik 30- yillari

D. VIII yuz yillikning 20- yillari va IX yuz yillikning boshlari

4-mavzuga qo'shimcha ma'lumot.

<http://shosh.uz>

Toshkent-2200. Qadimgi Choch – Iloq urbanizatsiyasi tarixidan

TOSHKENT QADIMDA VA O'RTA ASRLARDA

Toshkent shahri va vohasining muqaddas tuprog'i, butun yurtimiz zamini kabi, dunyodagi eng qadimiy tsivilizatsiya beshiklaridan biri hisoblanadi. Bu yerda olti yuz ming yildan ziyod vaqt avval madaniy hayot nishonalari paydo bo'la boshlagan - daryo sohillari hamda buloqlar atrofida aholi manzilgohlari yuzaga kelgan. Arxeologlar tomonidan o'rganilgan qadimiy **Ko'lbuloq va Obirahmat** manzillari shunday xulosa chiqarishga asos beradi. Xususan, bundan 90-50 ming yillar oldingi davrlarga mansub Obirahmat g'oridan topilgan mehnat qurollari, odam suyaklarini o'rganish natijasida O'rta Osiyo hududidagi qadimiy jamoalarning migratsiyasi va ularning neandertal tipdagi kishilar bilan aralashib ketgani to'g'risida katta ahamiyatga molik ilmiy kashfiyot qilindi. Miloddan avvalgi III ming yillikdan boshlab vohadagi chorvadorlar ruda konlarini o'zlashtirib, metall eritish, jezdan mehnat va jang qurollari yasashni o'rgangan.

Bundan uch ming yilcha muqaddam Toshkent vohasida, Ohangaron daryosining o'ng irmog'i - Burganlisoy sohilida ilk dehqonchilik jamoalari paydo bo'lgan, arxeologlar ularning madaniyatini burganli madaniyati, deb atashgan. Hozirgi Tuyabo'g'iz suv ombori o'nida qishloqlar ko'p bo'lgan. Aholi soni ko'paygach, odamlar kun kechirish uchun qulay hududlarni izlab ketgan. Shu tariqa Chirchiq daryosining Kurkuldak va Jo'n irmoqlari oqimidagi yerlar, janubda esa Sirdaryo bo'ylari o'zlashtirilgan. Bo'lajak Toshkent shahri hududida ham shunday manzilgohlar yuzaga kelgan. Shulardan biri Choshtepa ko'chasi bo'ylab Jo'n arig'i yoqasida joylashgan **Shoshtepa shahristoni** edi.

Toshkent hududida dastlabki shaharsozlik an'analari 2200 yil avval yuzaga kelgan. Toshkent vohasining qulay tabiiy va gidrografik sharoiti dastlabki milodiy asrlardan boshlab turli manzilgohlar, shu jumladan, shaharning jadal rivojlanishiga ko'maklashgan. Salor kanali bo'yida joylashgan **Mingo'rik shahristonidagi** manzilgoh mudofaa devori va qal'asiga ega bo'lgan haqiqiy shaharga aylangan.

Sirdaryo - Yaksart zonasi miloddan avvalgi dastlabki asrlardan boshlab Qang' davlati tarkibiga kirgani fors va xitoy manbalaridan ma'lum. Toshkent vohasi miloddan avvalgi III asr oxiri va II asrlarda uning tarkibiga kirgan. Qang'ning urbanizatsiyalashgan negizi, ehtimol, asta-sekin shu tomonga siljib kelgan, shundan so'ng Yueni uning qishki poytaxtiga aylangan. Sirdaryo sohili yaqinida, hozirgi Toshkentdan 70 kilometr janubi-g'arbda qad ko'targan **Qanqa shahristoni** uning poytaxti bo'lgan. Bu nafaqat Toshkent vohasida, balki butun Sirdaryo vodiysida ham antik davrga mansub eng qadimgi va yirik shahar markazidir. Milodning ilk asrlarida shahar poytaxtga aylanib, Choch (xitoycha Shi, Chjeshi) nomini olgan. Bu paytda Chotqol va Qurama tog' tizmalaridan oltin, kumush, mis, chaqnoq toshlar jadal qazib olinib boshlagan. Chirchiq daryosi vodiysi jadal o'zlashtirilgan va Mingo'rikdagi shahar Qang'ning yirik savdo hamda diniy markaziga aylangan.

«Choch» nomi ilk bor 262 yilda Eron shohi Shopur Birinchining g'alabasi munosabati bilan bitilgan fathnomada qayd etilgan. Fathnomada sosoniylar saltanati tarkibiga kirgan shaharlar va mulklar tilga olingan. Choch nomi Chochning o'zida zarb qilingan tangalarda ham, So'g'd tangalarida ham uchraydi. Sharqshunoslarning ko'pchiligi Choch atamasi xitoy manbalarida «shi» - «tosh» sifatida berilganiga asoslanib, uni «tosh shahar», «tosh qal'a» deb atashgan. Lekin shahar nomining bunday talqini ishonchli emas, chunki vohada toshdan qurilgan shahar devori ham, toshdan yasalgan o'tish joylari ham bo'lmagan. «Shi» - tosh so'zi qurilish materialini emas, balki qimmatbaho toshni ham bildirgan bo'lishi mumkin. Qadimgi turkiy tilda «choch» (ses) so'zi shunchaki asl toshni emas, balki feruzani ham anglatadi. Xitoyliklar feruzani «eron chaqnoq toshlari» deb atashgan. Choch tog'larida arxeologlar qadimgi ulkan feruza koni -O'ngurlikon qoldiqlarini topishdi. Bu konda chaqnoq toshlar milodning dastlabki asrlaridan boshlab qazib olingan. Bularning barchasi Choch feruza toshga boy o'lka sifatida mashhur bo'lgan va bu keyinchalik uning turkiycha nomi - «Toshkent»da ham o'z aksini topgan, deb hisoblashga asos beradi.

Chochning iqtisodiy o'imi qanchalik muhim bo'lganini ko'rsatadigan yana bir dalil milodiy I—III asrlarda bu davlatning o'z tangalarini zarb eta boshlagani bilan bog'liq-Toshkent vohasidan topilgan mingdan ziyod tanga bu fikmi tasdiqlaydi.

VI asrning o'rtasida Choch turk hoqonligi tarkibiga kirgan, VII asr boshida esa vohaning poytaxti, afidan, siyosiy vaziyat tufayli, Qanqadan Mingo'rikdagi shaharga ko'chgan.

IIk o'rta asrlarda Toshkent mikrovohasida, ya'ni hozirgi Toshkent hududida 4 ta shahar, 20 ta qasr va qishloqdan iborat ma'muriy hudud shakllangan. Poytaxt shahar - Madinat ush-Shosh ular orasida markaziy o'rin tutgan. Mingo'rik shahristonida xarobalari saqlanib qolgan bu shahar IX-X asrlarga oid arab tilida bitilgan manbalarda shunday atalgan. Arab alifbosida «ch» harfi bo'lmagani uchun «Choch» «Shosh» shaklini olgan. VII-VIII asrlarda Mingo'rikdagi shahar bag'oyat ravnaq topgan. Uning atrofida aholisi gavjum keng hudud yuzaga kelgan bo'lib, bu hudud hozirgi Toshkent shahrining markaziy qismida joylashgan.

Chochning Buyuk ipak yo'lidagi xalqaro savdo aloqalariga faol qo'shilgani uning madaniy-iqtisodiy salohiyati rivojida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

IIk o'rta asrlarda, ayniqsa, turk hoqonligi davrida Chochda savdo munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilgan. Bu paytda Buyuk ipak yo'lining asosiy savdo yo'llari So'g'd poytaxti taxti - Samarqanddan bevosita Choch poytaxtiga borib, u yerdan sharqqa - Iloqning ruda va metallurgiya markazlariga hamda hozirgi Janubiy Qozog'iston va Xitoy hududlariga qarab tarqalib ketgan.

Arxeologik qazishmalar natijasida Chochda chilangarlik, zargarlik, suyaktaroshlik, qurilish, kulolchilik kabi hunarmandlik turlari rivojlangani ma'lum bo'ldi. Yozma manbalarga qaraganda, Choch qalqon, shoshiy egarlar, ot abzallarini tayyorlashda qo'llanadigan teriga ishlov berish san'ati bilan ham mashhur bo'lgan. Bu erdan charm kiyim va chodirlar tovar sifatida Buyuk ipak yo'li bo'ylab tashilgan. Misr, Qora dengiz bo'yi, Xitoy va Vizantiyadan keltirilgan buyumlar hamda tangalarning topilishi Chochda savdo-sotiq bilan bog'liq faoliyat jadal rivojlanganidan dalolat beradi.

Bu davrda shaharlar faol ravnaq topadi hamda Sharq va Evropa mamlakatlari, shuningdek, Tanlar hukmron bo'lgan. Xitoy bilan savdo aloqalari jadal rivojlanadi. X asr Sharq geograflari Istaxriy, Ibn Havqal va Maqdisiy Movarounnahming juda muhim iqtisodiy mintaqalaridan biri bo'lgan Choch-Iloq boyliklarini hayrat bilan tavsif-lashgan. «Turkiston hududida joylashgan barcha viloyatlar ichida Shoshdan ko'ra ahamiyatliroq birona viloyat yo'q. Shosh va Iloq bir-biri bilan bog'liq», deb yozgan Istaxriy.

VIII asrda arablar Chochga kirib kela boshlagan. IX-X asrlarda shahar yana somoniylar, XI-XII asrlarda esa qoraxoniylar davlatining eng yirik iqtisodiy markazlaridan biriga aylanadi U avvalgidek Shosh, Madinat ush- Shosh deb yuritilgan. IX-X asrlarga oid arab yozma manbalarida uning yana bir nomi Binkat deb qayd etilgan. Shahar hozirgi Toshkentning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan, markazi Chorsu, Eski Jo'va va Navoiy ko'chalari oralig'ida bo'lgan. Arab manbalarida ta'riflanishicha, Binkat yirik ma'muriy va savdo-hunarmandchilik markazi, suvga serob shahar bo'lgan.

IX-X asrlarda Binkat iqtisodiy jihatdan jadal yuksalib, XI asrga kelib juda ravnaq topadi. Evropadan Xitoygacha asosiy savdo aloqalari Shosh orqali amalga oshirilgan. Chotqol va Qurama tog'laridagi konlardan aynan shu davrda ruda faol qazib olingan va bu temirchilik rivojiga ko'maklashgan. Kumush shu qadar jadallik

bilan qazib olinganki, kumush tanga - dirhamlar shaharlardagina emas, balki konlardagi zarbxonalarda ham zarb qilingan hamda savdo yo'llari orqali G'arbiy Evropa va Skandinaviyagacha etib borgan.

Arab sayyohlari, geografлари hamda tarixchilari Istaxriy, Ibn Havqal va Maqdisiy gilamdo'z, shishasoz, shoyi to'quvchi ustalar, ayniqsa, kulollar san'ati yutuqlarini yuqori baholashgan. Shoshda o'ta rang-barang epigrafik, handasaviy, islamiy, zoomorf bezaklar bilan ajralib turgan sirkor sopol buyumlar tayyorlanishi natijasida IX-X asrlarda uy-ro'zg'or idishlari chinakam islomiy san'at namunasi darajasiga ko'tarilgan.

Shoshning poytaxti, avval ma'lum bo'lgan Binkat nomi bilan bir qatorda, «Toshkand» nomi bilan ilk bor X asr oxirida Abu Rayhon Beruniy asarida qayd etilgan. XI asrning ikkinchi yarmida «Toshkand» nomi buyuk qomusiy alloma Mahmud Qoshg'ariy asarida uchraydi. Shosh so'zi esa XVIII asrgacha Toshkent nomi bilan barobar ishlatib kelingan.

IX asrning oxiri - X asrning boshidan Toshkent islom madaniyatining yirik markazi sifatida rivojlanib, bu zamindan buyuk islom ulamolari etishib chiqq boshlaydi.

Toshkentda tug'ilib o'sgan, Hazrati Imom nomi bilan shuhrat topgan, fiqh va hadisshunoslikka oid asarlari butun musulmon olamida hozirga qadar ham mashhur bo'lib kelayotgan Abu Bakr Muhammad Qaffol Shoshiy (976-977 yilda vafot etgan) shunday allomalardan biridir.

X asrda Shoshda islom madaniyatining yana bir namoyandasi - Xo'ja Alambardor (Rasulullohnin bayroqdori)dir. Shuningdek, bu er da musulmon ilohiyoti sohasida butun bir maktab ish olib borgan haqida ma'lumotlar bor.

O'sha davrda Binkatda ham, boshqa musulmon mamlakatlaridagi singari, islom an'analari ruhida monumantal me'moriy inshootlar qurila boshlaydi. X asrda Istaxriy va Ibn Havqal shaharning bosh jome masjidi ark devori yaqinida joylashganini qayd etgan. X asrdan boshlab shaharda mashhur ulamolar, "shayx va imomlar qabriga dastlabki maqbaralar qurishga kirishiladi. O'rta asrlarda shahar atrofidagi qishloqlarda ham aziz-avliyolar qabrlari negizida me'moriy majmualar yuzaga keladi.

Toshkentning g'arbida, shahar tashqarisida joylashgan Ko'yi Orifon (Donishmandlar mahallasi) shunday qishloqlardan biri edi. Shayx Zayniddin bobo nomi shu qishloq bilan bog'liq. 1214 yilda tavallud topgan alloma tasavvufdagi suhravardiya tariqatining asoschisi shayx Shahobiddin Abu Xoja Suhravardiynin farzandidir. Rivoyatlarga ko'ra, Shayx Zayniddin bobo hozir ham saqlanib qolgan chillaxonada umrguzaronlik qilgan. Vafotidan so'ng qabri ustiga chortoq qurilgan. Binkat va Toshkent IX-X asrlarda musulmon madaniy qadriyatlarini tizimiga shu tariqa uzviy ravishda ko'shilgan.

Sirdaryo bo'yidagi boshqa shaharlar qatori mo'g'ullar tomonidan g'oyat shafqatsizlik bilan vayron qilingan Toshkent XIII asrning o'rtalariga kelib tiklana boshlaydi Savdo munosabatlarining jonlanishi va zarbxonalar faoliyatining yo'lga qo'yilgani shundan dalolat beradi.

Movarounnahrda markazlashgan davlatga asos solgan Sohibqiron Amir Temur shimolga yurishlari paytida Toshkentga bir necha bor kelgan. Uning davlat siyosatida Sirdaryo bo'yidagi shaharlar saltanat sarhadlarining tayanch istehkomlariga aylangan.

Bu mintaqada dehqonchilik xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash, shaharlar, jumladan Toshkentning mudofaa devorlarini tiklash yoki qayta qurish hamda qo'shimcha qal'alar barpo etishga alohida e'tibor beriladi. Sohobqiron Toshkentda so'nggi bor 1404 yilda bo'ladi. Bundan avval u ulkan saltanatining shimoli-sharqiy uluslarini nabiralari - Shohruhning o'g'illariga taqsimlab beradi. Sirdaryo bo'yidagi shaharlar va markazi Toshkent bo'lgan hudud alohida viloyatga ajratilib, to'qqiz yashar Muhammad Tarag'ay Ulug'bekka ulus qilib beriladi. Sohobqiron vafotidan keyin Movarounnahrning shimoli-sharqiy darvozasi bo'lib xizmat qilgan Toshkent Ulug'bekka bo'ysundiriladi, XV asr oxirida esa temuriy shahzoda Umarshayx, so'ng Yunusxon tasarrufiga o'tadi.

XVI asr boshida, aniqrog'i, 1503 yildan boshlab Toshkent, Movarounnahrning boshqa shaharlari singari, Shayboniyxon tomonidan fath etiladi. U Jonibek sultonni Toshkent hokimi etib tayinlaydi. Keyinchalik shaharni Ulug'bekning nabirasi Suyunchxo'jaxon (1509-1524) boshqaradi. Shahar uning avlodlari qo'lida Abdullaxon II hukmronlik qilgan davrgacha (1557-1598) qoladi. Abdullaxon II Toshkentni 1582 yilda, ettinchi bor yurishdan keyingina qo'lga kiritadi.

XIV-XVI asrlarda Toshkent shahriston devori bilan o'rab olingan ark va shahar atrofidan iborat edi. Shahardagi ko'plab monumental inshootlarning barpo etilishi naqshbandiya tariqati vakili, o'z davrining nufuzli siyosiy va diniy arbobi shayx Xoja Ahror Valiy nomi bilan bog'liq. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, alloma shahar jome masjididan tashqari, ikkita masjid va madrasa, Ko'kchadagi Ko'nchilik mahallasida ko'priq qurdirgan.

Hunarmandchilik shahar hayotida juda muhim o'rin tutgan. Hunarmandlar, an'anaga ko'ra, mahalla va bozorlardan qaysi kasb-korga mansubligiga qarab joy egallashgan. XIX asrda shaharda Degrez (qozon quyuvchi), Miskarlik, Parchabof, Egarchi, Charxchi, Temirchilik, Zargarlik singari mahallalar bo'lgani ham buni tasdiqlab turibdi.

Shaharda mahalliy hunarmandlar tayyorlagan buyumlardan tashqari, Xitoy, Eron, Hindiston va boshqa mamlakatlardan keltirilgan hamda bu erdan savdo-sotiq jo'shqin bo'lgan Oltin O'rdaga olib ketiladigan mollar ko'p bo'lgan.

Temuriylar davrida Toshkent atrofida qo'rg'onlar, bog'-rog'lar bilan birga, muqaddas maqbaralar atrofida me'moriy majmualar ham barpo etilgan. Sohobqironning ko'rsatmasi bilan XIV asr oxirida Shayx Zayniddin bobo qabri ustidagi chortoq o'rnida muhtasham maqbara qad rostlaydi, shuningdek, XIV asrda Toshkent yaqinida Oyxo'ja ibn Toshxo'ja - Zangiota va uning umr yo'ldoshi Anbar bibi maqbaralarini o'z ichiga olgan yodgorlik majmuasi barpo etiladi.

Shayx Xoja Ahror Valiy homiyligida Toshkent shahrining sharqiy chekkasida ul zotning bobokaloni Shayx Xovand Tohur (vafoti - 1359 y.) maqbarasi barpo etila boshlanadi. XV asrning oxirida Toshkent hukmdori Yunusxon sharafiga barpo etilgan yodgorlik bilan birga u yaxlit majmua ko'rinishiga ega bo'ladi.

Toshkent Amir Temur va temuriylar davridagi madaniyat, ilm-fan, adabiyot va san'at sohalarining rivojiga betakror hissa qo'shadi. XIV asrda bu zaminda atoqli alloma va xattot Jamshid Shoshiy tug'ilib, kamol topib, yashab o'tadi. XV asrning buyuk shoiri va mutafakkiri, o'z davrida bu zaminda bo'lgan Abdurahmon Jomiy toshkentlik shoir va san'atkorlar bilan doimiy fikr almashib turgan.

Shunday qilib, Amir Temur va temuriylar zamoni Toshkent tarixida iqtisodiy va madaniy yuksalish davri bo'lib qolgan.

Ashtarxoniylarning Buxoro xonligida hokimiyat tepasiga kelishi ham janglar bilan kechadi. Bu esa xonlik, jumladan, Toshkent iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Vayron etilgan sug'orish tarmoqlari, buzilgan devor va binolar shahar ahlining fidokorona mehnati va qat'iyati tufayligina qayta quriladi, vayron bo'lgan xo'jalik tiklanadi.

Shahar va uning atrofida Zax (Zog'ariq, Zolariq), Kaykovus (keyinchalik u Bo'zsuv, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Barzun deb ham atalgan) va Salor (Xoja Ahroming vaqf hujjatlarida Rudak deb nomlangan) kanallari qazilib, ishga tushiriladi.

Shahar atrofida bog'-rog'lar, uzumzorlar, gulzorlar barpo etiladi. Zayniddin Vosifiy bu bog'larda olma, nok, behi, shaftoli, anor, anjir, uzum kabi shirin-shakar mevalar o'sishi, ariqlar bo'yida binafshalar barq urib gullab yotishini qayd etgan.

XVI asming 40-yillarida bu hududda feruza konlari vaqti-vaqti bilan ishlab turgan. Shu davrda va keyingi asrlarda bu erda toshko'mir, tuz, qora marmar qazib olingan. Aholi Chirchiq daryosi qumidan oltin ajratib olish bilan ham shug'ullangan.

Savdo aloqalari qisqarib ketganiga qaramay, Toshkentda shaharsozlik va me'morlik davom etadi. XVI asming eng yirik me'moriy inshootlaridan biri Hazrati Imom (Hastimom) yodgorlik majmuasidir. Majmua hududida joylashgan va XVI asming ikkinchi yarmida Baroqxon madrasasi tarkibiga kirgan Suyunchxo'jaxon maqbarasi ulug'vorligi hamda hashamatli bezaklari bilan mashhur. Baroqxon madrasasi Suyunchxo'jaxonning o'g'li Navro'z Ahmadxon sharafiga qurilgan. Shu davrning o'zida Hazrati Imom qabri ustida maqbara qad ko'targan, XVIII asrda esa uning qarshisida Hazrati Imomning avlodi shayx Bobohoji maqbarasi barpo etilgan. Bu maqbara saqlanib qolmagan.

Ta'kidlash kerakki, Hazrati Imom majmuasi 2007 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan butunlay qaytadan barpo etildi va obod qilindi.

XVI asming 60-yillarida Toshkentning hozirgi Eski shahar qismida Ko'kaldosh madrasasi quriladi. Madrasaning me'moriy echimida milliy mumtoz me'morchiligimizga xos xususiyatlar alohida o'rin tutadi.

XVI-XVII asrlardagi o'zaro urushlar, ko'chmanchi qabilalarning hujumlari, bosqin va talon-torajlar shaharning iqtisodiy va madaniy rivojini to'xtatib qo'yadi va uning inqiroziga sabab bo'ladi.

Ayniqsa, XVIII asming boshi og'ir va notinch bo'ladi. Biroq asr oxiriga kelib shahar hayoti yangitdan tiklana boshlaydi. Toshkentda shu davrda Sharq xalqlari hayotida ilgari kuzatilmagan noyob idora tizimi - chorhokimlik - to'rt hokim boshqaruvi yuzaga keladi. Shaharning to'rt dahasi - Sebzor, Ko'kcha, Shayxontohur va Beshyog'och dahasining har birini alohida hokim boshqarar edi. Hokimlar o'rtasidagi raqobat va kurashda Shayxontohur dahasi boshlig'i Yunusxo'janing qo'li baland kelib, u butun shaharni o'ziga bo'ysundiradi, pirovardida Toshkent davlatini tuzadi. Bu davlat siyosiy-iqtisodiy mavqei mustahkamlab, hatto, o'z hududini kengaytirish uchun kurash ham olib boradi.

Bu paytda Kaykovus arig'i Toshkentning shimoliy chegarasi hisoblanar, sharqiy chegarasi Anhor suvi bo'ylab o'tar, janubiy sarhadi Beshyog'och maydonidan Samarqand darvoza ko'chasi orqali Ko'kchagacha davom etar edi. Shaharning g'arbiy chegarasi Ko'kchadan boshlanardi. XVIII asrda ana shu hudud doirasida joylashgan shahar «Katta shahar» deb atalgan va mustahkam devor bilan o'rab olingan.

Biroq shunday mustahkam devorga ega bo'lsada, Toshkent Qo'qon xonligining hujumlariga dosh berolmaydi va uning tasarrufiga o'tadi. Ayni mahalda xalqaro savdo markazi sifatida nisbiy mustaqillikni saqlab qoladi. Shaharda karvonsaroylarning ko'p bo'lgani ham shundan dalolat beradi.

Manba: Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag'ishlangan Xalqaro Imiy konferentsiya materiallari.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, «Fan» nashriyoti, 2009 yil.

5-Mavzu: O'zbek xonliklari davrida shaharlar va shaharsozlik

Reja:

1. Buxoro, Samarqandning xonlik poytaxtiga aylanishi va shaharsozlik.
2. Xivaning xonlik poytaxtiga aylanishi va shaharsozlik.
3. Qo'qonning xonlik poytaxtiga aylanishi va shaharsozlik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. Т.: Шарк баёзи, 1993. 586.
2. Ҳасанхожа Нисорий. Музакири ахбоб (Дўстлар ёдномаси) / Форс тилидан Исмоил Бекжон тарж. Т.: Мерос, 1993. 276.
3. Фазлаллах ибн Рузбехан Исфохани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя) / Пер. Р.П. Джаалиловой. Под. ред. А.К. Арендса. М.: Наука. 1976. С. 66.
4. Хафиз-и Таныш ибн Мир Мухаммад Бухари. Шараф-наме-йи шахи (Книга шахской славы) / Факсимиле рукописи Д. 88. Пер. с перс., введ., прим. и указатели М.А. Салахетдиновой. М.: Наука, 1983. Ч. 1. С. 82.
5. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди // Материалы по истории казахских ханств XV-XVIII веков (Извлечения из перс. и тюрк. соч.) / Сост.: С.К.Ибрагимов, Н.Н. Мингулов, К.А. Пищулина, В.П. Юдин. Алма-Ата: Наука, 1969. С. 212.
6. Мухаммад Юсуф Мунши. Мукимханская история / Пер. с перс.-тадж. А.А. Семенова Т.: Фан, 1956. С. 54.
7. Сейди Ата Раис. Миръотул мамолик (Мамлакатлар кўзгуси) / Таржима ва изоҳлар Ш.Зуннуновки. Т.: Фан, 1963. 976.
8. Абу Тохирхожа Самаркандий. Самария / Форсчадан А.Сатторий таржимаси. Масъул муҳаррир С.Айний, Б.Ахмедов // Мерос. Т., 1991. 26-286.

XVI-XIX asming o'rtalarida O'zbekiston hududida hajmi, aholisining soni va joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan, madaniy taraqqiyotning ayrim jihatlari bilan bir-biridai farqlanuvchi ko'plab katta va kichik shaharlar mavjud edi. Bu davrdagi shaharlarning katta-kichikligi haqida oz bo'lsada ba'zi manbalarda ayrim ma'lumotlar mavjud.

Jumladan, XVI asming o'rtalarida ko'pgina Yevropa shaharlarini ko'rgan, **Moskva va Rus davlatining** boshqa shaharlarini bosib o'tgan ingliz Antoni Jenkinsonning Buxoro haqida: *Shahar juda katta*¹, - deb ta'rif berishi diqqatga sazovordir. XVI asr muallifi Hasanxoja Nisoriy Buxoro haqida yozar ekan: "Buxoro yerining masofasi o'n ikkiga o'n ikki farsaxdir"², - deb qayd etib o'tadi.

Shaharlarning yirik masshtablarini boshqa manbalarda keltirilgan fikrlar ham tasdiqlaydi. Bu o'rinda XIV asr muallifi Ibn Battutaning **Ko'hna Urganch** haqidagi quyidagi ma'lumoti ilgariroq davrga taalluqli bo'lsada, o'rta asrlardagi shaharlarning kattaligini yorqin namoyish etadi: "Bu turklarning katta, muhim va chiroyli va ulug'vor shahri bo'lib, ajoyib bozorlari, keng ko'chalari, juda ko'p imoratlar va jozibador, ko'rkam joylari bor. Shaharda hayot qaynaydi, aholisi shunchalik ko'pki - u mavjlanib turgan dengizni eslatadi"³.

Jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida shaharlarning tutgan o'rni turli darajada bo'lib, ularning ichida poytaxt shaharlar alohida ajralib turadi. Ularda **oliy hukmdor - xon boshliq** hukmron doira vakillari, turli amaldorlar, ruhoniylar kabi siyosiy kuchlar to'plangan bo'lib, barcha ichki va tashqi siyosat shu markazlardan turib amalga oshirilgan. Poytaxt poytaxt sifatida ular mamlakatning asosiy savdo-iqtisodiy va madaniy hayot markazlari vazifasini ham o'tab kelganlar. Ular jumlasiga **Samarqand, Buxoro**, ayrim davrlarda **Urganch, Xiva va Qo'qon shaharlarini** kiritish mumkin. Poytaxt shaharlarning kamol topishida sissiy va ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyat juda muhim rol o'ynagan.

XVI asr bo'sag'asida kechgan suronli voqealar mobaynida Movarounahrda yangi sulola davlatchiligiga asos solgan Muhammad Shayboniyxon davrida poytaxt shahar mavqei Samarqand tomonida saqlanib qoldi. XVI asr boshlarida muarrix **Fazlulloh ibn Ro'zboxon** "Samarqand - Jo'jixon avlodi bo'lgan chingiziy xonlar taxtining tayanchi, o'zbeklar va chig'atoy xonlari mamlakatining va Movaraunnahrga tutash viloyatlarning poytaxtidir", - deb qayd etgan edi. Bu shaharni qo'lga kiritish uchun bir necha bor uringan **Zahiriddin Muhammad Bobur** ham Samarqandning poytaxt shaharligiga e'tibor qaratib: "Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahar kamroqdur... Shahari Samarqandur, viloyatini Movarounnahr derlar Temurbek poytaxt qilib erdi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshox Samarqandni poytaxt qilg'on emastur", - deb yozgan edi.

Movaraunnahming "katta shaharlaridan" bo'lgan va undan "ko'plab olimu fozilalar" yetishib chiqqan Samarqand Shayboniylar davlati tarixida muhim rol o'ynadi. Movarounnahr va unga tutash yerlarni bo'ysundirgan Muhammad

1 Дженинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560 гг. // Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. Пер. с англ. Ю.В. Готье. М., 1938. С. 182.

2 Ҳасанхожа Нисорий. Музакири ахбоб (Дўстлар ёдномаси) / Форс тилидан Исмонил Бекжон тарж. Т.: Мерос, 1993. 276.

3 Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. Т.: Шарқ баёни, 1993. 586.

Shayboniyxon "otimizning egari - bizning poytaxtimiz"¹, deb aytada Samarqand hokimiyat tepasiga kelgan yangi sulolaning bosh shahri vazifasini o'tayverdi. Muhammad Shayboniyxon, muarrix **Hofiz Tanish Buxoriy**ning yozishicha, o'g'li **Muhammad Temursulton**ni o'z merosxo'ri etib tayinladi va "unga xon unvonini berib, Samarqandni boshqarishni unga topshirdi va bu bilan uning obro'sini juda baland ko'tardi"². Bu xabarining to'g'riligini Fazlulloh ibn Ro'zboxon ham tasdiqlab, "shavkatli qo'shin boshlig'i Shayboniyxonni" poytaxt shaharda valiahd Muhammad Temursulton tomonidan dabdaba bilan kutib olingani haqida habar beradi³.

Muarrixning yozishicha, Shayboniylar go'zal Samarqand shahrini yana adolatli harakatlar va hayrli hamda e'tiborli ishlar manbaiga aylantirdilar⁴. Yangi sulolaning ichki va tashqi siyosati shu markazdan turib amalga oshirildi. Muhammad Shayboniyxonning nisbatan qisqa hukmronligi davrida shaharda ayrim sohalarida jonlanish sodir bo'ldi. Oliy hukmdor poytaxt shahardagi qurilishlarga alohida e'tibor karatdi. Bu hukmdorga zamondosh tarixchi, Shayboniyxon "shaxsan o'zi qurdirgan **"Madrasa-yi Oliy"** ga borganini qayd etib o'tadi¹.

Muhammad Shayboniyxonning fojeali o'limidan so'ng (1510 yil) Zahiriddin Muhammad Boburning **Eron shoxi Ismoil Safaviy**ning ko'magiga tayanib Movarounnahrni qo'lga kiritish borasidagi harakatlari besamar ketdi. Bu kurashda alohida faollik ko'rsatgan Muhammad Shayboniyxonning jiyani **Ubaydulla sulton**ning siyosiy mavqei kuchayib bordi. U Muhammad Shayboniyxon tomonidan boshqaruv uchun berilgan Buxoro viloyatining hukmdori **Mahmud sulton**ning o'g'li bo'lib, XVI asr tarixchisining ko'rsatishicha, 1512 yilda Bobur bilan uning o'rtasida "Buxoro yaqinida jang bo'lib o'tdi. Ubaydullaxon g'alaba qozondi"². XVII asr muallifi **Muhammad Yusuf Munshiy** bu voqeadan so'ng "... butun Movarounnahr Shayboniylar hukmronligiga o'tdi. Ular hamma viloyatlarni o'zaro taqsimlab oldilar, buning natijasida Ubaydullaxonga hukmronlik uchun **Buxoro, Karmana va Miyonqol** tegdi"³, - deb qayd etadi. Bu habar XVI asr muallifi Hofiz Tanish Buxoriyning Movarounnahr oliy hukmdori bo'lgan **Kuchkunjixon** (1510-1530) tomonidan turli viloyatlar Shayboniylar sulolasi vakillariga ulashib berilgani va "Ubaydullaxonning merosiy mulki bo'lgan Buxoroni boshqarishni Ubaydullaxon hazratlariga topshirdi. Mukofot tarzida esa unga **Qorako'l va Qarshini** ham berdi" - degan, ma'lumotini tasdiqlaydi. Shu tariqa, Movarounnahrning yirik viloyatlaridan biri - Buxoroda hukmronlik qilgan Ubaydulla sulton 1533 yilda oliy hukmdorlik unvoniga erishgach, davlatni Buxorodan turib boshqardi. Buni XVII asr muallifi Mir

¹ Фазлаллах ибн Рузбехан Исфахани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя) / Пер. Р.П. Джаалиловой. Под. ред. А.К. Арендса. М.: Наука. 1976. С. 66.

² Хафиз-и Таныш ибн Мир Муҳаммад Бухари. Шараф-наме-йи шаҳри (Книга шахской славы) / Факсимиле рукописи Д. 88. Пер. с перс., введ., прим. и указатели М.А. Салахетдиновой. М.: Наука, 1983. Ч. 1. С. 82.

³ Фазлаллах ибн Рузбехан Исфахани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя) / Пер. Р.П. Джаалиловой. Под. ред. А.К. Арендса. М.: Наука. 1976. С. 150-151.

⁴ Фазлаллах ибн Рузбехан Исфахани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя) / Пер. Р.П. Джаалиловой. Под. ред. А.К. Арендса. М.: Наука. 1976. С. 66.

¹ Фазлаллах ибн Рузбехан Исфахани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя) / Пер. Р.П. Джаалиловой. Под. ред. А.К. Арендса. М.: Наука. 1976. С. 151.

² Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди // Материалы по истории казахских ханств XV-XVIII веков (Извлечения из перс. и турк. соч.) / Сост.: С.К.Ибрагимов, Н.Н. Мингулов, К.А. Пищулина, В.П. Юдин. Алма-Ата: Наука, 1969. С. 212.

³ Мухаммад Юсуф Мунши. Мухимханская история / Пер. с перс.-тадж. А.А. Семенова Т.: Фан, 1956. С. 54.

Muhammad Salim ham tasdiqlab, u tomonidan poytaxtning Samarqanddan Buxoroga ko'chirilish sanasi 1532-1533 yillarga to'g'ri kelishini ko'rsatadi⁴.

Ubaydullaxon davrida mamlakatning poytaxti rasman **Samarqand** sanalsada, amalda **bu vazifani Buxoro** bajarar edi. Samarqand davlat poytaxti va hukmron sulolaning eng katta vakili xonning qarorgohi sifatida qoldi. Ammo xon etib tayinlangan hukmdor o'z qo'lida merosiy yerini saqlab qolishga harakat qildi. Shu bois, tabiiyki, u o'zining mulkiy qarorgohiga davlat poytaxtiga qaraganda ko'proq e'tibor qaratdi⁵. Bu XVI asr muallifining quyidagi so'zlari bilan ham tasdiqlanadi: "Ubaydullaxon baloyu ofatlarni daf qiluvchi Buxoro shahri obodonchiligi va qurilishlari uchun ko'p say-harakatlar ko'rsatdi"⁶. Hofiz Tanish Buxoriy esa, bu hukmdor haqida yozar ekan, "uning oliy hukmdorlik davrida Movarounnahr, ayniqsa, Buxoro viloyati go'zal va jozibali"¹ bo'lib borganligini ta'kidlaydi. Hasanxoja Nisoriy bu xon davrida qurilgan inshootlar jumlasiga "**Mir Arab madrasasi**" (1536) va Ko'hak daryosiga qurilgan "**Mehtar Qosim ko'prigi**" (1536) ni kiritadi².

Ubaydullaxonning o'limidan so'ng Movarounnahrda hukm surgan siyosiy parokandalik oqibatida markaziy hokimiyatning parchalanish jarayoni yuz berdi va ikki hokimiyatchilik vujudga keldi. Natijada, Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon (1540-1550) Buxoro taxtida o'tirgan bo'lsa, Samarqandda oliy hukmdor sifatida Kuchkunjixonning o'g'illari - avval Abdullaxon I (1541 yil, mart - 1541 yil, sentabr), so'ngra Abdullatifxon (1541-1551) hukmronlik qildilar³. Ushbu siyosiy holatga muvofiq ravishda **Samarqand va Buxoro poytaxt shaharlar** vazifasini bajarishni davom ettirdi. Bu davr oralig'ida poytaxt shaharlarning ravnaqi yo'lida anchagina say-harakatlar qilindi. Hususan, Abdulazizxon davrida Buxoroda amalga oshirilgan ishlar haqida yozar ekan, shu davr muallifi: bu xon zamonida "salim ta'bi mamlakat obodligi va yurt qurilishiga kirishib, ko'plab oliy imoratlar bino etdi. Haazrat-qutbul-abror Xojai buzurukvorning xonaqoh va xatirasi shular jumlasidandir"³, - deb qayd etadi. XVIII asr muallifi ham bu ma'lumotlarni to'ldirib, mazkur hukmdor, davrida Buxoroda ko'plab inshootlar qurilgani haqida yozar ekan, ular jumlasiga Shayx Jalol darvozasi yonidagi Madrasa, Jo'ybordagi Juma masjidi va xonaqohlarni kiritadi.

Abdullatifxon o'limidan so'ng Samarqandda Baroqxon nomi bilan Navro'z Axmadxon (1551-1556), Buxoroda esa Ubaydullaxonning nabirasi Buxon sulton taxtga o'tirdilar. Davlat boshqaruvi sohasida yuzaga kelgan ikki hokimiyatchilikni bu davrda Movarounnahrda bo'lgan turk admirali **Seydi Ali Ransning** quyidagi

⁴ Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. (Письменные памятники). Т.: Фан, 1985. С. 108.

⁵ Бартольд В.В. Бухара // В.В. Бартольд. Соч. Т. 3. М., 1965. С. 389.

⁶ Hasanxoja Nisoriy. Muzaqqiri a'xob (Dustlar ednomasi) / Fors tilidan Ismoil Bekjon tarj. T.: Meros, 1993. 266.

¹ Хафиз-и Танаш ибн Мир Муҳаммад Бухари. Шараф-наме-йи шаҳи (Книга шахской славы) / Факсимиле рукописи Д. 88. Пер. с перс., введ., прим. и указатели М.А. Салахетдиновой. М.: Наука, 1983. Ч. 1. С. 87.

² Hasanxoja Nisoriy. Muzaqqiri a'xob (Dustlar ednomasi) / Fors tilidan Ismoil Bekjon tarj. T.: Meros, 1993. 286.

³ История Узбекистана (XVI - первая половина XIX в.). Т. III. Т.: Фан, 1993. С. 50.

⁴ Hasanxoja Nisoriy. Muzaqqiri a'xob (Dustlar ednomasi) / Fors tilidan Ismoil Bekjon tarj. T.: Meros, 1993. 466.

so'zlari ham tasdiqlaydi: "...Samarqand podshohi Abdullatifxon vafot etib, Baroqxon Samarqandda xonlik taxtiga o'tirgan, Balxda Pirmuhammadxon, Buxoroda esa Sayid Burxonxon o'z nomlariga hutba o'qitganlar"⁴.

Baroqxon o'limidan so'ng "Davlatni qo'riqlash, hamma qo'shin va aholining ahvoli haqida qayg'urmagan" **Burxon sultonning** hukmronligi ham uzoqqa cho'zilmadi. 1557 yilda yaqin amirlardan biri tomonidan uyushtirilgan fitna oqibatida u hayotdan ko'z yumdi. Shu davrdan boshlab qatiyatli **Abdulla sultonning** Movarounnahr siyosiy hyotidagi roli ortib bordi. Uning otasi Shayboniylardan bo'lgan **Jonibek sultonning o'g'li Iskandar** edi. Movarounnahrda markazlashgan hokimiyatni tiklashga bel bog'lagan **Abdulla sulton** 1557 yilda Buxoroni egalladi va tarkib toptan an'anaga ko'ra Jonibek sulton avlodidagi eng keksa vakil – **Pirmuhammadxonni** (1557-1560) oliy hukmdor etib taxtga o'tkazdi. Bunga qadar Balxda yashab kelgan bu hukmdor qolgan umrini ham shu shaharda o'tkazdi¹.

Buxorodagi haqiqiy hokimiyat esa Abdullaxon qo'lida to'planganicha qolaverdi. 1560 yilda Pirmuhammad bilan aloqasini uzgan Abdullaxon Buxoro taxtiga otasi **Iskandarxonni** (1560-1583) o'tkazsada, yana amaldagi hokimiyat uning qo'lida qoldi. Bu haqida Xojamqulibek Balxiy quyidagilarni qayd etadi: "Jonibek sultonning o'g'li Iskandarxon o'z o'g'lining harakatlari natijasida shavkatli shaharda taxtga o'tirdi. Hutba va tangalar uning nomi bilan bezandi"². Iskandarxonning o'limidan so'ng esa Abdullaxon Buxoro taxtiga rasman to'laqonli voris sifatida o'tirdi. Davlatni parokandalik va siyosiy boshbodoqlikdan qutqarishga, hokimiyatni markazlashtirishga harakat qilgan Abdullaxon katta hududlarni o'z ichiga olgan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo'ldi. Uning davrida Buxoro uzil-kesil Shayboniylar davlatining poytaxtiga aylandi. Bu haqida davr tarixchisi "Shavkatli shahar Buxoroni u davlat poytaxtiga aylantirdi"³, - deb yozadi. Shaharning uzil-kesil poytaxtga aylanishi XVI asming 70-80 - yillariga to'g'ri kelib, bu davrda Abdullaxon tomonidan **Balx** (1573), **Badaxshon** (1584), **Toshkent** (1582), **Xirot** (1588) va keyinchalik **Xorazm** (1595) bo'ysundirilgan edi.

Movarounnahming yagona hukmdoriga aylangan Abdullaxon Buxoroning poytaxt sifatidagi ahamiyatini oshirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy markaz sifatidagi mavqeini ko'tarish borasida katta ishlarni amalga oshirdi. Tarixchining yozishicha, "U Madrasa, masjidlar, darvishlar xonaqolari, daryolardagi ko'priklar, savdo yo'llarida yaxshi himoyalangan to'xtash joylari (rabotlar) va boshqa foydali binolarni qurishda cheksiz xatti-harakatlarni amalga oshirdi"⁴. Bunday binolar jumlasiga Buxoroda qurilgan **Modarixon** (1566) va **Abdullaxon** (1588-1590) madrasalaridan iborat **Qo'sh-madrasa**, **Xo'ja masjid** (1598), **Ko'kaldosh**

⁴ Сейди Ата Раис. Мирьотул мамодик (Мамлакатлар кўзгуси) / Таржима ва изоҳлар Ш.Зуннуовки. Т.: Фан, 1963. 97б.

¹ Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла Самарканда и Бухары в XVI в. Т.: Фан, 1976. С. 53.

² Ходжамқулибек Балхи. Тарих-и Кипчаки // МИКХ. С. 394.

³ Хафиз-и Таныш ибн Мир Муҳаммад Бухари. Шараф-наме-йи шахи (Книга шахской славы) / Факсимиле рухониси Д. 88. Пер. с перс., введ., прим. и указатели М.А. Салахетдиновой. М.: Наука. 1983. Ч. 1. С. 35.

⁴ Мухаммад Юсуф Мунти. Мукимханская история / Пер. с перс.-тадж. А.А. Семенова Т.: Фан, 1956. С. 60.

madrasasi (1568-1569) kabilarni kiritish mumkin⁵. XVIII asr muallifi Sharafiddin a'lam Nuriddin oxun mulla Farhod bu davrda Buxoroda bunyod etilgan inshootlar jumlasiga **Mavlono Mir Muftiy kutubxonasini** (1558), **Abdullaxon chorbog'ini** (1584), **Buxoro Chorsusini** (1587) ham kiritadi XVII asr muallifi Mir Muxammad Salim esa ular qatorida Abdullaxon farmoyishi bilan Buxoroda qurilgan olti darvozali karvonsaroy (1577) va usti yopiq bozorni (1583) eslatib o'tadi¹.

Abdullaxon II davrida Shayboniylar davlatining poytaxtiga uzil-kesil aylangan Buxoro hududiy jihatdan ham kengayib borish jarayonini o'z boshidan kechirdi. Aslida bu jarayon Ubaydullaxon va uning o'g'li Abdulazizxon davrlaridayoq boshlangan edi. Shahar Hududining kengayishi oqibatida poytaxt devorlarining ayrim qismlari qayta qurilgan edi. Abdullaxon II davrida esa Jo'ybor shayxlariga tegishli Sumitonning Buxoro shahriga kiritilishi munosabati bilan uning devorlari qayta qurilib, bu yerda yangi darvoza - **"Darvozai nou"** qurilgan edi².

Shu tariqa, ushbu shahar Shayboniylar, so'ngra Ashtarxoniylar, keyinchalik esa Mang'itlar sulolasi boshqargan davlat - Buxoro xonligining poytaxtiga aylandi. Bu sulolalar vakillarining olib borgan ichki va tashqi siyosati natijasida poytaxt shaharning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy mavqei va salohiyati yanada rivojlanib bordi.

Ayniqsa, bu boradagi o'sish XVIII asr oxirlari va XIX asr birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bunga qadar siyosiy nizolar, parokandalik va xo'jalikiing izdan chiqishi oqibatida tanazzulga yuz tuta boshlagan poytaxt shahar o'zining ilgari mavqeini tiklab bordi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanishi samarasi sifatida shaharda ko'plab savdo inshootlari, madaniy muassasalar, jamoat binolari qurilishi jadallashib bordi.

Bir muddat Shayboniylar davlatining poytaxti vazifasini o'tagan Samarqand ham ayrim jabhalarda rivojlanish jarayonini o'z boshidan kechirgan bo'lsada, uning bu boradagi odimlari Buxoronikidan ancha yiroqda edi. Bu yerda ham Buxorodagi kabi katta qurilish ishlari amalga oshirilgan bo'lib, Kuchkunixon tomonidan **Alayka-Ko'kaldoshning Juma masjidida marmar minbar** (1528), Juvonmard Alixon tomonidan **hammom** (1574), Qozi **Sokiy madrasasi, Sherdor** (1636) va **Tillakori** (1647-1660) **madrasalari** qurildi³.

Lekin shahar o'z rivojlanishida poytaxt Buxorodan ancha orqada qoldi XVII asr oxirlari - XVIII asrning birinchi yarmida esa Samarqand siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning tanazzuli oqibatida inqirozga yuz tutgan shaharlar jumlasida og'ir damlarni o'z boshidan kechirdi. Rossiyalik Ivan Kirillov tomonidan 1734 yilda qayd etilgan ushbu ma'lumot bu holatni tasdiqlaydi. "Samarqand avvalda shuhratli va kuchli davlat bo'lgan. Hozirda esa... madrasa va ko'plab arabcha va boshqa tildagi kitoblardan tashqari unda hech narsa qolmagandir"⁴. XVIII asr o'rtalaridagi Samarqand haqida yozar ekan, keyingi davr muallifi: "O'rta Osiyoning

⁵ История Узбекистана (XVI - первая половина XIX в.). Т. III. Т.: Фан, 1993. С. 381.

¹ Зияев А.З. "Силсилат ас-салотин" как исторический источник. С. 43.

² История Узбекистана (XVI - первая половина XIX в.). Т. III. Т.: Фан, 1993. С. 105.

³ Абу Тохирхожа Самаркандий. Самария / Форсчадан А.Сатторий таржмаси. Масъул мухаррир С.Айний. Б.Ахмедов // Мерос. Т., 1991. 26-28б.

⁴ Проект обер-секретря Ивана Кириллова об удержании в русском подданстве киргиз и способах управлении ими // Материалы по истории России Сборник указов и других документов, касающихся управления и устройства Оренбургского края 1734. Оренбург. 1900. С. 14.

bir vaqtlar ko'pchilik musulmon Osiyosining madaniyat va sayosat markazi bo'lib o'tgan va chindan "Samarqand firdavsmo'navar" sifatiga arziyotgan bir yo'sunda bezangan Samarqand keyingi zamonlarda buzulub quruq bir cho'lga aylangan edi. Mang'it amirlarining birinchisi bo'lg'on Rahimxon Samarqand muzofotini qo'lga kirguzamen deb kelganda (hijriy - 1166 (milodiy 1752) yil boshlarida) Samarqand shahrida jon egasi yo'q edi, xatto Raboti Xojabandiy to'g'oni buzul'g'on va Samarqand suvdan mahrum qolg'on edi. Rahimxon ushbu safarida (hijriy 1166 y. jumod as-soniy oyida) Rabota Xoja bandiyni tuzatib Samarqandga suv oqizg'on bo'lsa ham odam yo'qligidan obod bo'lmadi"¹, - deb yozgan edi. 1790 yilda shaharda bo'lgan **mitropol Xrisanf** ham undagi bu holatni tasdiqlab: "Samarqand hozirda bo'm-bo'shdir, uni zabt etgan takabbur Buxoro noibi qanchalik harakat qilmasin, uni oldindagidek aholi bilan to'ldirish borasidagi uning mehnati bekordir"², - deb qayd etadi. Bunday ayanchli holga tushgan shahar asta-sekin aholi bilan to'ldirib borildi va XIX asrning 40- yillarida uning aholisi soni 25-30 ming kishiga yetdi³.

Murakkab siyosiy voqealar mobaynida poytaxt shahar mavqei Buxoroga bergan Samarqand hokimiyat tepasiga kelgan oliy hukmdorlarning shaharda joylashgan "**ko'k toshga o'tirish**" rasmiy marosimi o'tkaziladigan markaz sifatidagi aamiyatini saqlab qoldi. **Mir Muhammad Amin** Buxoriy dunyo hukmdorligini orzu qilgan turli hukmdorlar "Samarqandda ... ko'k toshga o'tirar edilar", - deb yozar ekan, Ubaydullaxon Ashtarxoniy ham "mag'rurona va tantanavor tarzda yurib, ko'k toshga o'tirdi... Buxoro va Samarqand amirlari va ruhoniylari baxtli hukmdorning taxtga o'tirishi bilan o'z tabriklarini bildirdilar" - deb qayd etadi.

Oliy hukmdorning Samarqandda ko'k toshga o'tirish an'anasi XIX asrning birinchi yarmida ham davom etdi. Shu asrning 20-yillarida Buxoro xonligida bo'lgan YE.K.Meyendorfning yozishicha, oliy hukmdor taxtga o'tirish marosimini o'tkazish uchun Samarqandga borishi va Mirzo Ulug'bek madrasasida turgan ko'k toshga o'tirishi lozim edi. "Ko'k tosh" to'rtburchak shaklda bo'lib, har tomonining uzunligi bir yarim sarjın, qalinligi bir arshindir. Bu toshni oq kigiz yopib turadi. Xon o'tirgan bu kigizning uchlarini ulamolar, fuqarolar, fozilalar va sayidlar uch marta ko'taradilar"⁴, - deb qayd qiladi u.

XVI asr boshlarida Xorazmda yangi tashkil toptan davlat – Xiva xonligining **Xazorasp, Xiva, Vazir, Urganch, Kat, Yangishahar, Tirsak** kabi shaharlari Movaraunnnahrda bo'lgani kabi oliy hukmdorning og'a-inilari, qarindosh-urug'lariga boshqaruv uchun bo'lib berilar edi. Bu shaharlarning ichida eng azimi Urganch edi. U, Mahmud ibn Valining (XVII asrda) ko'rsatishicha "Qadimgi forslar podsholari

¹ Садриддин Айний. Бошлангич йўсунда бир-икки сўз (Сўз боши) // Абу Тохирхожа Самарқандий. Самария. 136.

² Записки Хрисанфа, митрополита Новопаграсского о странах Средней Азии // Чтения в Императорском Обществе истории и древностей Российских при Московском университете. Повременное издание. М., 1861. С. 17.

³ Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. СПб.: Тип. Акад. Наук, 1843. С. 105.

⁴ Гребенкин А. Родословная Мангытской династии // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Под ред. Н.А. Маева. СПб., 1874. Вып. III. С. 337.

davridan" boshlab **Xorazmning poytaxti** bo'lgan¹. Shaharning mamlakat siyosiy va iqtisodiy hayotidagi mavqei hamma davrlarda yuqori edi.

XVI asr o'rtalariga kelib poytaxt bo'lgan bu shahar mamlakatda hukm surgan siyosiy kurashlar va o'zaro urushlarning markazlaridan biriga aylanib qoldi. Antoni Jenkinson shahar "7 oy mobaynida to'rt marta qo'ldan-qo'lga o'tgan, shuning uchun shaharda savdogarlar juda kam bo'lib, ular juda kambag'al"², - deb ko'rsatib o'tadi.

Shu asming 70-yillariga kelib poytaxt shaharning siyosiy va iqtisodiy mavqeiga barham bergan yana bir voqea sodir bo'lib, u shaharni suv bilan ta'minlagan Amudaryoning o'z yo'nalishini o'zgartirishi bilan karakterlanadi. Bu tabiiy ofat natijasida shahar suvsizlikka uchrab, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotidagi yetakchi mavqeini yo'qota bordi. Xonlikning birinchi shahar mavqeini boshqa markaz - **Xiva** egallay boshladi. Mahmud ibn Vali bu voqea haqida shunday yozadi: "Hozirda, Jayxunning Urganchdan ketishi natijasida poytaxt Xorazmga tegishli Xivaga ko'chirilgan"³. Bu o'rinda Xiva xoni Abulg'ozining ushbu ma'lumoti ham diqqatga sazovordir. U yozadi: "Biz dunyoga kelmasdan o'ttiz yil ilgari Amu suvi, Xost minorasining yuqorisini Qora ayg'ir to'qayi derlar, ul yerdin yo'l yasab oqib, Tuk qal'asina borib, Sir dengizina quyg'on erkandir. Ul sababdin Urganch cho'l bo'lubti. Ra'iyat Urganch cho'l bo'lsa ham ulturub, xon boshliq sipoh xalqi yoz Amu suvinig yoqasinda munosib yerlarda ekin ekib o'tturib, ekinni olgandin Urganch borurlar erkandir"⁴. Keltirilgan bu ma'lumotdan Abulg'ozni tug'ilgan (1603) vaqtdan 30 yillar ilgari - XVI asming 70-yillaridayoq Urganch suvsizlikka uchraganligi ayon bo'lib, xon boshliq sipohlar tomonidan esa suvli yerlarda ekin ekilishi davlat tomonidan iqtisodiy hayotni bir maromda ushlab turishga harakat qilinganligi, shahar birdaniga tashlab ketilmaganligidan dalolat beradi.

Xivaning xonlik poytaxtiga uzil-kesil aylanishi 1611-1612 yillarga to'g'ri kelib, bu davr Arab Muhammadxon hukmronligi bilan xarakterlanadi. XIX asrga oid manbada: "Arab Muxammadxon otasidan so'ng poytaxt shahar Xivada hukmdor bo'ldi", - deb qayd etilgan edi⁵.

Arab Muhammadxonning o'g'li, keyinchalik Xiva taxtiga o'tirgan Abulg'ozining quyidagi ma'lumotiga asoslangan holda Xivaning poytaxt shaharga aylanishi hakida fikr yuritish mumkin.

Buxoro xoni Abdullaxon II Xorazmni o'z tobesiga aylantirgach, xivalik taxt da'vogarlarini bo'lmish Xoji Muhammadxon o'g'li Arab Muhammad bilan Kazvinda Shox Abbos saroyida panoh topganlar, Abdullaxon II va uning o'g'li o'limidan so'nggina Xorazmga qaytib, xonlikni qo'lga kiritganlar.

"Xevak birlan Katni Arab Muhammadxon oldi. Xazorasni Asfandiyor-sultonga berdilar"¹, - deb yozadi u. Otasining vafotidan keyin esa "O'g'li Arab Muhammad sultonni xon ko'tardilar", - deb ta'kidlagan Abulg'ozni, Arab Muhammad o'ziga tegishli Kat viloyatidan Asfandiyor sulton foydasiga voz kechganligini alohida qayd etib o'tadi. Bundan ayon bo'ladiki, xonning ixtiyorida Xiva shahri

¹ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Наука, 1975. С. 90.

² Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Наука, 1975. С. 90.

³ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. С. 43.

⁴ Абулғозий. Шажаарийа турк / Нашрга тайёрловчилар К.Муниров, Қ.Махмудов. Т.: Чўлпон, 1992. 1676.

⁵ Абулғозий. Шажаарийа турк / Нашрга тайёрловчилар К.Муниров, Қ.Махмудов. Т.: Чўлпон, 1992. 1676.

¹ Абулғозий. Шажаарийа турк. / Нашрга тайёрловчилар К.Муниров, Қ.Махмудов. Т.: Чўлпон, 1992. 157-1586.

qolgan bo'lib, u mamlakatni shu yerdan turib boshqargan. Buni murrixning quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi. Uning yozishicha, Arab Muhammad xon bo'lganidan olti oy o'tganidan so'ng Urganchga Yoyiqlik rus kazaklaridan ming kishi hujum qilib shaharni qo'lga kiritgan bo'lib, bu vaqtda esa, "Xonning o'rdusi va sipoh xalqi Amu suvinig labinda erdilar. Xevakda xonga kishi chobturdilar"².

Xiva uzil-kesil xonlikning poytaxtiga aylanguniga qadar ham mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan. XVI-XVII asr boshlarida u hukmron sulola vakillariga boshqarish uchun berilar edi. Ayrim yillarda esa, bu shahar mamlakatning siyosiy markazi vazifasini ham o'tagan. Akademik Y. G'ulomov: "1556 yilda Buchg'axonning o'g'li Do'st Muhammad Xivani o'z poytaxtiga aylantirdi"³, - deb ta'kidlaydi. Buni Abulg'ozining quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi. "Buchg'axonning o'g'lonlari **Esh, Do'st va Buram** Xevak va Xazorasi va Katda bo'ladi... Esh sultonning xotiri uchun akasi Do'stni xon qildilar. Xevak akamniki, menga Urganchni beringlar deb tiladi..."⁴. Muarrix tomonidan keltirilgan bu voqea bayoni davomidan ayon bo'ladiki, Do'st Muhammad mamlakatni shu shahardan turib boshqargan. Buni **Munis**ning quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi. U Do'stxon haqida "Poytaxt shahar Xivakda birinchi bo'lib taxtga o'tirgan kishi", - deb yozgan edi⁵.

Shu tariqa mamlakatning siyosiy markaziga aylana brogan Xivaning savdo-iqtisodiy markaz sifatidagi ahamiyati ham oshib bordi.

Mahmud ibn Vali tomonidan "**keng shahar**" deb ta'rif berilgan bu markaz mamlakat iqtisodiyoti rivojiga katta hissa, qo'shdi. Shaharda turli-tuman hunarmandchilik sohalari ichki savdo bilan uzviy aloqadorlikda rivojlangan edi. Poytaxt shaharning taraqqiyotida ichki savdo bilan birgalikda tashqi savdoning ahamiyati katta edi. Xivalik savdogarlar katta karvonlar bilan Buxoro va boshqa savdo markazlariga, **Huroson, Rum, Qozoq dashtlari, Rossiya** va boshqa uzoq-yaqin yerlarga borar edilar. O'zga yurtlik savdogarlar ham Xivaga turli mollar bilan tez-tez kelib turar edilar.

Shuni alohida ta'kidlab o'tmoq darkorki, Xivaning mamlakat siyosiy, savdo-iqtisodiy markazi sifatida rivojlanish jarayoni so'nggi o'rta asrlar mobaynida bir tekis kechmadi. Turli ichki va tashqi ixtiloflar ko'p hollarda mamlakat iqtisodining, shu jumladan, poytaxt shahar xo'jaligini ham izdan chiqarib yuborgani tarixiy manbalarda tez-tez qayd etib o'tiladi. XIX asr muallifi Munis XVIII asr ikkinchi yarmida Xiva xoni G'oyibxonning o'g'li Jaxongirxon davrida Xivada kuzatilgan holat haqida so'z yuritib, quyidagilarni qayd etib o'tadi: "Uning davrida... Xivada vabo tarqaldi **Besh-Qal'a shaharlari**, ularning asosiysi bo'lgan **Xivak**, tanazzulga yuz tutdilar. Xivakda qirqta kambag'al oiladan boshqa hech kim yo'q edi"⁶.

Mamlakatda, boshqa xonliklarda kuzatilgani kabi, XIX asrning birinchi yarmida yuzaga kelgan nisbiy siyosiy barqarorlik shaharlar shu jumladan Xivaning ham yuksalishiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

² Абулғозий. Шажарайи турк. / Нашрга тайёрловчилар К.Муниров, Қ.Махмудов. Т.: Қўлпон, 1992. 157-158б.

³ Гулямов Я.Г. Памятники города Хивы // Труды Узбекистанского филиала АН СССР. Серия 1. История. археология. Вып. 3. Т., 1941. С. 4.

⁴ Абулғозий. Шажарайи турк. / Нашрга тайёрловчилар К.Муниров, Қ.Махмудов. Т.: Қўлпон, 1992. 157-139б.

⁵ Фирдавс ал-икбал // МЙКХ. С. 445.

⁶ Фирдавс ал-икбал // МЙКХ. 474-6.

Shaharda katta qurilish ishlari olib borildi. Shahar hayotida muhim rol o'ynagan **Ko'rinish xona, Qutlimurod inoq madrasasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Toshhovli saroyi, Ollaqulixon timi, Aminxon madrasalarini**, xonning shahar chetidagi **Rafinek bog'i** va boshqalarni aynan XIX asrning birinchi yarmida qurilgan inshootlar jumlasiga kiritish mumkin².

Shu tarzda, Xiva 1512 yilda tashkil topgan mustaqil davlatning poytaxti sifatida qariyb bir asrdan so'ng tarixiy manbalarda qayd qilinib, u keyingi asrlar mobaynida mamlakatning yetakchi shahari sifatida siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot mujassamlashgan markaz tariqasida rivojlandi va xonlik taraqqiyotiga o'zining katta hissasini qo'shdi.

Buxoro xonligi hududidan XVIII asr boshlarida ajralib chiqqan **Qo'qon xonligining** rivojlanib borish jarayoni bilan birgalikda uning poytaxti vazifasini o'tay boshlagan yangi markaz – **Qo'qon shahri** ham shakllanib bordi. Zahiriddin Muhammad Bobur **Andijon, Marg'ilon, Axxi, O'sh, Isfara, Xo'janddan** iborat Farg'onada yetti shahar "yetti pora kasabasi bor", - deb yozar ekan, Qo'qonni "Ho'qon o'rchini" - "viloyati" ma'nosida o'z esdaliklarida eslatib o'tadi³. Shu bilan birga, Bobur "o'rchin"ning ma'nosi haqida to'xtar ekan, **Samarqandda, Buxoroda** va umuman u o'lkalarda biror-bir yirik viloyat poytaxtiga bo'ysungan kichik viloyatlar tuman: **Andijon, Qashg'ar** va ular orasidagi (yerlar) - "**o'rchin**" deb atalishini qayd etadi⁴.

Ishoqxon Junaydullaxoja Ibratning XIX asrda yozishicha, avvallari "Ho'qanddan ul shahar bo'lmagan vaqtda Ho'qand o'mi to'qay va qamishzor yerlar bo'lub... Bul to'qayzorda har xil huk va to'ng'izlar yurar ekan... alar bu chuqurlar nima, kimlar kavlagan, deganlarida tojiki javob berib, "huk kand" deganda, ya'ni to'ng'iz kavlagan deganda ul yemi nomi "**huq kand**" bo'lgan"⁵. Bu hususda **H.Bobobekovning** shaharni "... ijtimoiy hayotda musulmon dini to'liq hukmron bo'lgan davrda xo'jalarning uni ilgari to'ng'izlar yashab xor qilgan, bo'lg'agan joyda qurishga rozilik berishi dargumon", - degan fikri to'g'ridir⁶.

Qo'qon toponimi ko'rilyotgan davrdan ancha ilgariroq o'rta asr mualliflarining asarlarida joy nomi sifatida eslatib o'tiladi. Xususan, uni **Ibn Hurdodbek** va **Ibn Havkallar "Huvkend"**, Yoqut al-Hamaviy esa "**Huvand**" tarzida eslatib o'tadilar⁷. Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oni o'z asarida **Qo'qonni - "Huvakand"** tarzida keltiradi⁸. XIII asr muallifi Jamol Qarshiy

²Гулямов Я.Г. Памятники города Хивы // Труды Узбекстанского филиала АН СССР. Серия 1. История, археология. Вып. 3. Т. 7, 1941. С. 7-11, 35-366.

³Захириддин Мухаммад Бабура. Бабура-наме (Записки Бабура. У Пер. М. Салье. Т.: Глав. ред. энцикл., 1993. С. 51, 119.

⁴Захириддин Мухаммад Бабура. Бабура-наме (Записки Бабура. У Пер. М. Салье. Т.: Глав. ред. энцикл., 1993. С. 51, 145.

⁵Исхоқхон Жунайдуллоҳжое ўгли Иброт. Фарғона тарихи / Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Бобобеков., М. Хасаний // Мерос. Т., 1991. 283б.

⁶Бобобеков Х.Н. Қўқон тарихи. Т.: Фан. 1996. 136.

⁷Ибн Хауқал. Китаб сурт ал-арз // Материалы по истории Средней и Центральной Азии. Т., 1988. С. 18; Бартольд В.В. Ферғана. С. 531.

⁸Камалиддинов Ш.С. Китаб ал-ансаб Абу Саъда ас Самъани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. Т.: Фан, 1993. С. 114.

ham Ho'qand atamasini qayd qilib o'tadi⁶. Qirg'iz eposi "Manasda ham Qo'qon haqida ba'zi ma'lumotlar saqlanib qolgan

XVIII asr boshlariga qadar Qo'qon o'mida bir qancha qishloqlar bor edi. Muarrixning yozishicha, "Ul vaqtda Ho'qand yo'q, atrofda **Tirg'ov degan Chinkat degan va Saroy qishloqlari** bor edi". Ushbu ma'lumotni 1812-1813 yillarda Qo'qonga kelgan xindistonlik Mir Izzatulla ham tasdiqlab, "ilgarilari u bir qishloq edi"⁷, - deb qayd etadi. **Farg'ona vodiysida** yangi tashkil topgan davlat asoschilari - **Ming urug'i** vakillari bo'lgan Shoxruhbiy va uning o'g'illari xonlikni **Dehqonto'da** degan joydan turib boshqarganlar. Bu haqida XIX asr muallifi **Muhammad Hakimxon** quyidagilarni qayd etadi: "Shohruh otaliqning uch munosib o'g'li - **Rahimxon, Abdulkarimbiy va Shodibiylar** bor edi. Ularning yashash joyi Dehqonto'da nomli joy bo'lib, hozirda u Qo'qon shahrida joylashgandir"⁸. Bu sulolaning dastlabki vakillari say-harakatlari natijasida bu yerda **Eski Qo'rg'on** qurilib, unga hukmdor va amaldorlar ko'chib o'tgan edi⁹. Bu yer 1732 yilga qadar siyosiy markaz rolini o'ynagan.

Shoxruhxonning o'g'li Abduraximbiy davrida (1722-1733) Qo'qon shahri qurilishiga asta-sekinlik bilan kirishildi. Bu haqida Muhammad Hakimxon quyidagicha ma'lumot beradi: "Bu davrda Qo'qon endigina qurila boshlandi va Abdurahimbiy - bu viloyatning obodonligi uchun harakat qildi"².

Bu hukmdor, muarrix Mirza Olim Toshkandiyning ko'rsatishicha, "Dehqonto'da degan joyda qo'rg'on qurdi va o'sha yerda yashay boshladi"³.

Qo'qon shahri rivojining keyingi bosqichi Abdurahimbiyning ukasi, "Qo'qon mulki obodonligi yo'lida g'ayrat qilgan va kurashgan"⁴ Abdulkarimbiy (1733-1747) faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Mulla Niyoz Muhammad ibn Ashur Muhammadning ko'rsatishicha, 1740 yilda u hukmdor qarorgohini Eski Qo'rg'ondan Eski O'rdaga ko'chirdi va u yerda shaharga asos soldi. Yangi shahard saroy ham qurilib, uni devor bilan o'rab olganlar. Shahar devorida **Isfara, Qatag'on, Marg'ilon (Marg'inon), Toshkent (Toshkandiyan) va Haydarbek** darvozalari qurilgan. Bu ma'lumotni Mirza Olim Toshkandiyn ham tasdiqlab, qalmiqlar shaharni qamal qilganlarida, "Abdulkarimbek shaharni mustahkamladi, - deb yozar ekan, - Ular har kuni qal'adan chiqar va hozirda bozor qatorlari va Madrasa joylashgan Eski O'rdada kurashar edilal", - deb qayd etadi. Shu tariqa **Yangi Qo'qon shahri** shakllana borgan.

Qo'qonning poytaxt sifatida rivojlanishida XVIII asr ikkinchi yarmida davlat tepasiga kelgan Erdonabiy (1751-1769) va Norbo'tabiylarning (1770-1800)

⁶ Абу-л-Фадл ибн Мухаммад Джамал ад-Дин Карши. Мулхакат ас-сурах / Материалы по истории Средней и Центральной Азии. Т.; Фан, 1997. С. 122.

⁷ Путешествие Мир Иззет Уллы в Кокавское ханство в 1812 году // Труды САГУ. Новая серия. Вып. LXXVIII. Ист. науки. Кн. 11. Т., 1956. С. 159.

⁸ Мухаммад Хаким-хан. Мунтахаб ат-таварих / Материалы по истории Средней Азии и Центральной Азии. С. 278.

² Бейсембиев Т.К. "Тарихи Шахрухи" как исторический источник. Алма-ата: Наука, 1987. С. 11.

² Мухаммад Хаким-хан. Мунтахаб ат-таварих // Материалы по истории Средней и материалы по Средней Азии и Центральной Азии. С. 280.

³ Мирза Алим Ташканди. Ансаб ас-салатин ва таварих ал-хавакин // Материалы по истории Средней и Центральной Азии. С. 314.

⁴ Мирза Алим Ташканди. Ансаб ас-салатин ва таварих ал-хавакин // Материалы по истории Средней и Центральной Азии. С. 314.

hukmronlik qilgan yillarida amalga oshirilgan ishlar katta rol o'ynadi. Bu davrda poytaxt shaharda katta qurilish ishlari olib borildi. Xususan, unda to'rtta Madrasa va karvonsaroy qurildi⁵. Ulardan biri 1799 yilda bunyod etilgan Mir madrasasi edi.

Poytaxt yangi hukmdorlar - **Olimxon** (1800-1810), **Umarxon** (1810-1822) va **Muhammad Alixon** (Madalixon, 1822-1841) davrida me'moriy jihatdan boyib bordi. Jumladan, Umarxon davrida **Juma masjidi** (1819) va **shifoxona** qurildi. Madalixon davrida esa "**Daxmai shoxon**" (1825) ansambli qurib bitkazildi⁶.

Qo'qon nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy markaz sifatida ham rivojlanib bordi. Shahar aholisi muttasil o'sib bordi. 1813 yilda Qo'qonda bo'lgan F.Nazarov "Shahar juda katta va aholisi ko'p"¹, - deb yozadi. XIX asrning 20-yillarida YE.K.Meyendorff "Sirdaryodan o'n chaqirim narida joylashgan Qo'qon kamida 6000 uyga ega va kattaligi jihatidan Buxoroga tengdir", - deb ko'rsatgan edi².

"Ho'qandi latif" nomi bilan mashhur bu poytaxt shahar A.Vamberining ko'rsatishicha, "Xivadan olti marta, Buxorodan ikki marta Texrondan to'rt marta katta" bo'lgan³. Albatta, bu poytaxt shahar mashtabini bo'rttirib ko'rsatilgan namunasidir. "Aylanasiga 25 chaqirimdan iborat"⁴ bu shahar Sirdaryoning chap qirg'og'idan 30 chaqirim narida joylashgan soylar - Kattasoy va Kichiksoylarning qurigan irmoqlarida joylashgan bo'lib, XIX asrning birinchi yarmida bu yerda bo'lgan Vasiliy Pshenichnikovning ko'rsatishicha, "Qo'qon kattaligi jihatidan Buxoroga teng"⁵ edi.

Poytaxt shahar aholisi xonliklarning boshqa shaharlaridagi kabi, ular turli xalq vakillaridan iborat edi. Shahar aholisining XVIII asr mobaynida son jihatdan o'sib borganligini isbotlovchi aniq ma'lumotlar boshqa shaharlar misolida kuzatilganidek, deyarli yo'qdir. XIX asrning 30-yillariga oid ma'lumotlar esa shahar aholisining soni haqida ayrim tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Bu davrda Qo'qonda bo'lgan Potanin: "Ayollardan tashqari aholi 15.000 dan iborat"⁶, - deb yozadi. Shu asrning 50- yillarida shahar aholisining soni 30000 atrofida ko'rsatiladi⁷.

Qo'qon shahrining rivojlanishiga doir yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, juda qisqa vaqt ichida shahar yirik siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazga aylandi hamda hudud hayotida markaziy o'rinlardan birini egallab bordi.

Shunday qilib, **Buxoro, Xiva va Qo'qon** xonliklarining siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida poytaxt shaharlar alohida ahamiyat kasb etdilar. Davlatni ma'muriy boshqarish markazlashgan tarzda amalga oshiriladigan, hukmron sulolaning butun ichki va tashqi siyosati faol olib boriladigan, ijtimoiy-iqtisodiy

⁵Баргольд В.В. Коканд // Соч. Т.3. М., 1965. С. 462.

⁶История Узбекистана (XVI - первая половина XIX в.). Т. III. Т.: Фан, 1993. С. 206.

¹Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. М.: Наука, 1968. С. 51.

²Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Изд. А.И. Мамотова, 1867. С. 159.

³Вамбери А. Путешествие по Средней Азии (Из Тегерана через турк. пустыню по вост. берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканд, предпринятое в 1863 году с научною целью по поручению венгер. академии в Пеште, членом ея А.Вамбери. М.: Изд. А.И. Мамотова, 1867. С. 159.

⁴Записки о Коканском ханстве хорунжего Потанина (1830 года) // Военный журнал. 1831. №4. С.281.

⁵Галкин М.Н. Показания русских пленных, возвращенных из Бухары в 1858/59 гг. Этнографические материалы по Средней Азии и Оренбургскому краю / ЗИРГО по отделению этнографии. Т. I. СПб., 1861. С. 67.

⁶Записки о Коканском ханстве хорунжего Потанина. М.: Изд. А.И. Мамотова, 1867. С. 281.

⁷Вильямов-Зернов В.В. Сведения о Коканском ханстве // Вестник Географического общества I. СПб., 1856. Т. 18. С. 109.

hayot tartibga solinadigan markazlar sifatida mashhur bo'lgan poytaxt shaharlar **Buxoro, Xiva va Qo'qon** xonliklari voqeligida muhim rol o'ynadilar. Ular siyosiy barqarorlik yillarida boshqa shaharlarga nisbatan tez sur'atlar bilan rivojlandilar. Poytaxt shaharlarning siyosiy markazlar sifatida tanlanishi va rivojlanishida davlat muhim rol o'ynagan. Oliy hukmdorlarning olib borgan faol ichki va tashqi siyosati natijasida bu shaharlarning nufuzi ortib bordi. Markaziy hokimiyatning salohiyati pasaygan va xonliklardagi tartibsizliklar avj olgan yillarda esa poytaxt shaharlarning boshqa markazlar singari tanazzulga yuz tutish jarayoni amalga oshdi. Davlatda siyosiy barqarorlik hukm surgan davlarda esa, aksincha, boshqa markazlar singari poytaxt shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanish bosqichlarini o'z boshidan kechirdi.

Tayanch so'zlar:

Imorat, Rub'i maskun, Madrasa-yi Oliya, miyonqol, mulkiy qarorgoh, jo'ybor shayxlari, oxund, mulla, tim, mang'it, ko'k tosh, sayid, ulamo, xost minorasi, Ra'iyat, sipoh xalq, muarrix, kazak, sulola, Yoyiq, Xivak, Toshhovli, Besh-Qal'a, inoq, kasaba, o'rchin, huk, Ho'qand Huvkend, Huvand, Huvaqand, Chinkat, Dehqonto'da, mulk.

Test savollari:

1. " ...Buxoro yerining masofasi o'n ikkiga o'n ikki farsaxdir... " Bu fikrlar kimning qalamiga mansub?

- A.Hasanxoja Nasoriyning qalamiga mansub
- V.Antoni Jenkinsonning qalamiga mansub
- S.Z.M.Boburning qalamiga mansub
- D.Fazlulloh ibn Ro'zbehonning qalamiga mansub

2.Muhammad Shayoboniyxon davrida Buxoro poytaxti qayerda edi?

- A. Muhammad Shayoboniyxon davrida Buxoro poytaxti Samarqandda edi.
- V. Muhammad Shayoboniyxon davrida Buxoro poytaxti Buxoroda edi.
- S. Muhammad Shayoboniyxon davrida Buxoro poytaxti Nishopurda edi.
- D. Muhammad Shayoboniyxon davrida Buxoro poytaxti Urganchda edi.

3.Poytaxt shaharlar qayday vazifalarni o'tagan?

- A.Savdo-iqtisodiy va madaniy hayot markazi vazifasini o'tagan.
- V.Faqat siyosiy markaz vazifasini o'tagan.
- S.Iqtisodiy markaz vazifasini o'tagan.
- D.Hech qanday vazifani o'tamagan, balki, shunchaki poytaxt sifatida tanlangan.

4. Samarqandda Shayboniyxon qanday madrasa qurdirgan?

- A. Samarqandda Shayboniyxon "Madrasa-yi Oliya" madrasasini qurdirgan.
- V. Samarqandda Shayboniyxon "Muhammad Temursulton" madrasasini qurdirgan.
- S. Samarqandda Shayboniyxon "Mir Arab" madrasasini qurdirgan.

D. Samarqandda Shayboniyxon "Mehtar Qosim" madrasasini qurdirgan.

5. Quyidagilardan qaysi biri Xiva xonligi shaharlariga tegishli?

A. Xazorasp, Xiva, Vazir, Urganch, Kat, Yangi shahar, Tirsak.

V. Buxoro, Numujkast, Vazir, Urganch, Kat, Yangi shahar, Tirsak.

S. Qo'qon, Rishton, Urganch, Kat, Yangi shahar, Tirsak.

D. Qarshi, Kesh, Termiz, Urganch, Kat, Yangi shahar, Tirsak.

6. Xivaning xonlik poytaxt shahriga uzil kesil aylanishi nechanchi yilga to'g'ri keladi?

A. Xivaning xonlik poytaxtiga uzil kesil aylanishi 1611-1612 yilga to'g'ri keladi.

V. Xivaning xonlik poytaxtiga uzil kesil aylanishi 1613-1614 yilga to'g'ri keladi.

S. Xivaning xonlik poytaxtiga uzil kesil aylanishi 1615-1622 yilga to'g'ri keladi.

D. Xivaning xonlik poytaxtiga uzil kesil aylanishi 1622-1624 yilga to'g'ri keladi.

7. Xiva xonlik poytaxtiga aylanganidan keyin Xazorasp kimning boshqaruviga beriladi?

A. Xiva xonlik poytaxtiga aylanganidan keyin Xazorasp Asfandiyor sultonga beriladi.

V. Xiva xonlik poytaxtiga aylanganidan keyin Xazorasp Arab Muhammadxonga beriladi.

S. Xiva xonlik poytaxtiga aylanganidan keyin Xazorasp Do'st Muhammadga beriladi.

D. Xiva xonlik poytaxtiga aylanganidan keyin Xazorasp Buchg'axonga beriladi.

8. Quyidagilardan qaysi biri Xiva xonligi obidalaridir.

A. Ko'rinish xona, Qutlimurod inoq madrasasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Toshhovli saroyi, Olloqulixon timi, Aminxon madrasasi.

V. Tillakori, Ulug'bek madrasasi, Toshhovli saroyi, Olloqulixon timi, Aminxon madrasasi.

S. Sherdor, Bibixonim, Ko'rinish xona, Qutlimurod inoq madrasasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi.

D. Shohizinda, Sherdor, Bibixonim, Tillakori, Qutlimurod inoq madrasasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi.

9. Quyidagilardan qaysi biri Qo'qon xonligiga tegishli darvozalar hisoblanadi?

A. Isfara, Qatag'on, Marg'ilon, Haydarbek darvozalari

V. Beshyog'och, Taxtapul, Qatag'on, Marg'ilon darvozalari

S. Beshqayrag'och, Salar, Haydarbek, Marg'inon darvozalari

D. Qopqa, O'rda, Isfara, Qatag'on darvozalari

10. Qo'qon xoni Umurxon davrida qaysi masjid qurilgan?
 A. Qo'qon xoni Umurxon davrida Juma masjidi qurilgan
 V. Qo'qon xoni Umurxon davrida Mir madrasasi qurilgan
 S. Qo'qon xoni Umurxon davrida Eski O'rta madrasasi qurilgan
 D. Qo'qon xoni Umurxon davrida Yangi O'rta madrasasi qurilgan

6-Mavzu: Buxoro amirligi shaharlari. Buxoro shaxrining siyosiy markaz darajasiga ko'tarilishi

Reja:

1. Buxoro amirligining ma'muriy hududiy tuzilishi.
2. Buxoro shahar madaniyati. Shaharlar tuzilishi.
3. Beklik markazlari.
4. Buxoro amirligida urbanizatsiya jarayonlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зиёева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX аср иккинчи ярми XX аср бошлари. Тошкент. 2017.
2. Мейендорф К.Е. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисловие Н.А. Халфина. Москва. 1975.
3. Ханников Н. Описание Бухарского ханства, М., 1840. СПб. 123.
4. Губарович А – Радобыльский А Экономический очерк. Бухары и Туниса. Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. С. 143-144.
5. Саид амир Олимхон. Бухоро хонлигининг хасрати тарихи. Тошкент, 1991, 256.
6. Логофет Д.Н. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. СПб, 1990. С. 39.
7. Мухаммад Али Балжувоний. “Тарихи нафойй” (“Фойдали тарих”) // Ўзбекистон тарихи хрестоматияси. 4 жилд. 686.

XIX asming ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo hududida Rossiya imperiyasi olib borgan tajovuzkor harakatlar Buxoro amirligini ham urush domiga tortdi. 1865 yilda Qo'qon xonligiga qarashli Toshkent shahrining bosib olinishi Buxoro amirligining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Toshkent shahrining ruslardan ozod qilish uchun Amir Muzaffar jo'natgan harbiy qo'shin 1866 yil 8 mayda Erjar yaqinidagi mag'lubiyatga uchrach, imperiya qo'shinlari Xo'jand, O'ratepa va Jizzax shaharlarni jang bilan egalladi.

Buxoro amirligi **26 beklikdan iborat bo'lib**, har bir beklik amir tayinlagan **hokim tomonidan boshqarilgan**. Beklar bevosita **qushbegiga bo'ysungan** va uning tavsiyasi bilan amir tomonidan tayinlangan. Bekliklar o'z navbatida **amlokдорlikka bo'lingan** va amlokдорlar tomonidan boshqarilgan. Amlokдорliklar o'z navbati **kentlarga bo'lingan**. Kentlar **arbobliklar**- qishloqlardan iborat bo'lgan (ularni oqsokollar ham deyishgan) tomonidan boshqarilgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Buxoro shahri alohida ma'muriy xudud bo'lib, **kushbegi** tomonidan boshqarilgan.

Buxoro amirligining hududi Zarafshon vohasini, Surxandaryo va Qashqadaryo vohalarini hamda Amudaryoning o'ng qirg'og'ida Chorjo'y, Qarshi va Karki joylashgan yerlarni qamrab olgan edi.

K.YE.Meyendorfnin aniqlashicha, 1820 yildayoq mamlakat aholisi 2,5 mln. Inga yaqin bo'lib, shundan o'zbeklar – 1,5 mln, tojiklar – 650.000, turkmanlar – 200.000, qozoqlar va qorakalpoklar – 6 mln, eronliklar – 40. 000, qalmaqalar 20.000, yahudiylar - 4.000, afg'onlar - 4.000, lo'lilar- 2.000 kishini tashkil qilgan¹.

1840 yilda Moskvada chop etilgan tadqiqotlardan birida Buxoro amirligining aholisi 2,5 mln ekanligi, bu mamlakatda xatto quyi toifa aholi ham juda to'q yashashi, qishloqlarida kamida 100 ta xonadon borligi, shahar va qishloqlar bog'lar bilan o'ralganligi havas bilan ta'riflanadi.

Buxoro amirligi haqida ilk bor ancha batafsil ma'lumotlarni to'plagan N.Xannikov 1843 yilda mamlakat aholisining shahar va qishloqlardagi zichligini ikki hisoblash asosida ikki xil mulohazani ilgari suradi. Vohalardagi ishlov berilgan yerlarda (asosan Amudaryo va Obi Shahrisabz bo'ylarida) aholi joylashuvini nazarda tutib, mamlakatdagi aholi soni 2-2.5 mln atrofida, degan xulosaga keladi. Ayni paytda u poytaxt Buxoro shahridagi aholining zichligi 1,7 tanopga 25, 2 kishi to'g'ri kelishini ta'kidlab, bu mezonlar bilan hisoblaganda butun mamlakat aholisi 3.6 mlnga borishi mumkinligini, ammo mamlakat hududida aholi zichligi bir xil emasligini qayd etib o'tadi².

1866-1868 yillarida Buxoro amirligi tarkibidagi bir nechta shahar va qishloqlarning Rossiya imperiya tomonidan boib olinishi, mazkur hududlarda Zarafshon (keyinchalik Samarqand) viloyatining tashkil etilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritilishi natijasida mamlakat aholisi bir necha yuzga kamaydi. Buxoro amirligining Jizzax, O'ratepa, Xo'jand shaharlari va ularning atroflaridan jami 121.000 ga yaqin aholi, shuningdek Zarafshon okrugi tarkibiga kiritilgan Samarqand, Kattaqo'rg'on, Urgut shaharlar hamda qishloq tumanlarida 221.781 kishi³.

A.N.Sobolovning ma'lumotlariga ko'ra esa Zarafshon okrug tarkibida 280.950 kishi Turkiston general-gubernatorligi tassarrufiga o'tkazildi. Ammo 1885 yillarga oid statistik tadqiqotlarda qayd etilishicha, bu davrda xonadonlar soni 5 ga ko'paytirilganligi aholi sonini aniqlashda noaniqliklar keltirib chiqargan.

Shu bois keyingi tadqiqotlarda xonadonlarda soni 6 ga ko'paytirilishi natijasida Samarqand viloyatida 330.000 kishi yashayotganligi aniqlangan. Shunday hisob-kitoblar asosida Jizzax, Xo'jand uездlarida 200.000 aholi borligi aniqlangan. Ushbu uездlar tarkibidagi yerlarning katta qismi ilgari Buxoro amirligiga tegishli bo'lganligi nazarda tutilsa, Rossiya istilosi natijasida amirlikda deyarli yarim millionga yaqin (400.000 – 500.000) aholi Turkiston general gubernatorligi tassarrufiga o'tganligi ma'lum bo'ldi.

XX asr boshiga kelib Buxoro amirligidagi aholi soni tabiiy o'sishi va boshqa omillar ta'sirida yanada ko'paydi. Buxoro amirligi tarixiga oid ko'pgina tadqiqotlar

¹ Мейендорф К.Е. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисловие Н.А. Халфина. Москва, 1975.

² Ханныков Н. Описание Бухарского ханства. М., 1840. СПб. 123.

³ Зиссва Д. Ўзбекистон шаҳарлари. Тошкент, 2017. 2076.

yaratgan D.N.Logofet XX asr boshiga kelib mamlakat aholisi 3 millionga yetganligini qayd etadi¹.

XX asr boshiga mansub boshqa adabiyotlarda mamlakat aholisi 2,5 million, uzog'i bilan 3 mln kishini tashkil qilishi qayd etiladi². O'sha davrda Buxoro amirligida chop etilgan "Buxoroi sharif" gazetasida 1912 yil berilgan ma'lumotda ham mamlakat aholisi 3 mln. kishini tashkil etishi qayd etilgan.

Buxoro amirligidagi iqtisodiy ahvol va xo'jalik hayotini Tunis bilan qiyosiy tahlil qilgan A.Gubarevich – Radobilskiy o'z tadqiqotida mamlakatdagi umumiy aholi nufuzi 2-2,5 mln.ni tashkil etishini, uzog'i bilan 3.000.000 dan ortmasligini qayd etadi³. Mamlakatdagi soliq tizimi tahlil etar ekan, muallif soliq to'lovchilar soni Zarafshon vohasida (Buxoro shahrini qo'shmaganda) 350.000, Qashqadaryo vohasida 500.000. Hisor tizimida 350.000, Amudaryo vohasida 700.000. qolgan tumanlarda 600.000 jon ekanligini ko'rsatib o'tadi⁴.

Muallif bunda har bir xo'jalikka, aniqrog'i hovliga 4 kishidan hisoblanganligini ta'kidlaydi. Agar A.Gubarevich – Radobilskiy qayd etganidek, Buxorodagi aholini qo'shmasdan, 2.500.000 soliq to'lovchilar soni 4 ga bo'lish orqali mamlakatdagi xo'jaliklar (yoki xonadonlar) soni aniqlansa taxminan 625.500 ta), hamda xo'jaliklar soni mahalliy mezonlar asosida 5 yoki 6 ga ko'paytirilsa, aholi soni mos ravishda 3.127.500 dan 3.753.000 gacha, aniqrog'i esa, o'rtacha esa 3.500.000 ga teng bo'lgan, degan xulosaga olib keladi. Bunda shahar va qishloqlarda aholi zichligi bir xil emasligi, hamda poytaxt Buxoroda ham 100.000 dan ortiq aholi yashashi ham nazarda tutiladi⁵.

Bu fikmi mahalliy manbaalar ham tasdiqlaydi. Zero Buxoro amiri Said Olixon keyinchalik chop etilgan xotiralarida mamlakat aholisi XX asr boshida 3.500.000 kishi bo'lganligini qayd etiladi⁶.

Buxoro amirligi hududida o'zbeklar, asosan Zarafshon, Qashqaryo, Surxandaryo vohalarida, tojiklar sharqiy Buxoroning tog'li hududlarida, turkmanlar Amudaryoning o'ng sohilida - Chorjo'y, Qarshi, Kerki tumanlarida, qozoqlar va qoraqalpoqlar Karmana va Nurota tumanlarida yashaganlar. Bulardan tashqari mamlakatda kelgindi aholi ham bo'lib, ular asosan tatarlar, Buxoro yahudiylari, hindlar, arablar afg'onlardan iborat edi.

Mamlakatda har bir beklik markazi o'ziga xos ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markaz edi. Ular orasida asrlar davomida shahar sifatida shakllanib, mamlakatning iqtisodiy, savdo aloqalarida, ma'muriy boshqaruv tizimida muhim o'rin tutib kelgan **Karmana, Shahrisabz, Qarshi, Kitob, Sherobod kabi kichik shaharlar bilan bir qatorda Denov, G'uzor, Sherobod** kabi kichik shaharchalar ham bor edi.

¹ Логофет Д.Н. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. С-Петербург, 1909. С. 56.

² Зиёева Д. Ўзбекситон шаҳарлари. Тошкент. 2017. 2076.

³ Зиёева Д. Ўзбекситон шаҳарлари. Тошкент. 2017. 2086.

⁴ Губарович А – Радобильский А. Экономический очерк. Бухары и Туниса. Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. С. 143-144.

⁵ Губарович А – Радобильский А. Экономический очерк. Бухары и Туниса. Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. С. 209.

⁶ Саид амир Олимхон. Бухоро хонлигининг хасрати тарихи. Тошкент, 1991, 256.

Ayrim beklik markazlari hududi va aholisining soni jihatidan shahar yoki shaharcha darajasiga yetmagan bo'lsa-da, bek qarorgohiga, harbiy kuchlarga, masjid, madrasa, bozorlarga eshgaligi, devorlar bilan o'rab olinganligi, atrof hududdagi qishloqlarni boshqarishda, beklik doirasida savdo aloqalarida katta rol o'ynar edi.

Aholi zichligi va soni bo'yicha Buxorodan keyingi o'rinlarni **Qarshi, Shaxrisabz, G'uzor, Baljuvon, Chorjo'y, Kerki, Ko'lob, Hisor** kabi shahar va shaharchalar egallagan¹.

Muhammad Ali Baljuvoniyniing qayd etishicha, XX asr boshida Buxoro amirligida tarkibidagi beklik hokimlari quyidagi markazlarda o'tirganlar: **Chorjo'y, Karki, Kalif, Qarshi, Karmana, Nurota, Ziyovuddin, Xatirchi, G'uzor, Shaxrisabz (ya'ni Kesh), Kitob, Yakabog', Chiroqchi, Jomchi va Sherobod, Boysun, Denov (Dehnav), Sariosiyo, (Sarijo'y), Hisor, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Ko'lob, (Xatlon), Qo'rg'ontepa, Qo'bodiyon. Bulardan tashqari Vobkand, G'ijduvon, Vag'onzi** kabi tumanlar ham bo'lgan².

Har bir beklik markazi uni boshqaruvchi bek bilan birga beklik ma'muriyati – qurolli kuchlar, mirshablar, qozi, rais, amlokdorlar, soliq to'plovchilar, yirik diniy ulamolar, turli vazifalarni bajaruvchi amaldorlar guruhi bor edi.

Baljuvoniyniing qayd etishicha, amirlikda o'z hokimiga ega bo'lgan 30 ta shahar bo'lgan³. Shaharlar dahalarga va guzarlarga bo'lib boshqarilgan. Buxoro amirligidagi yirik shaharlar ko'p asrlik tarixi, mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutib kelganligi bilan ajralib turar edi. Deyarli har bir shahar umumiy xususiyatlari bilan bir qatorda o'ziga xos xususiyatlarga ham ega edi.

Buxoro shahrini asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan, uzunligi taxminan 12 km. ga cho'zilgan baland devor o'rab turar, unda 130 ta yarim minora (burj)⁴ va darvozalar uchun 11 ta qo'sh minoralar bo'lgan. Devor ustida minoralar mudofaa maqsadlarida qurilgan bo'lib uning tepa qismidagi ba'zi yerlarining qalinligi, aniqrog'i darvoza atrofidagi 2 metrgacha yetgan, bu tashqi hujum paytida mudofaa uchun to'plarni bemalol olib o'tish imkonini bergan.

Yuqorida qayd etilganidek, shaharning **Hazrati Imom, Samarqand, Shayx Jalol, Mozori Bahovuddin, Qarshi, Namozgoh (Sillohxona (ko'rxona) ham deyilgan), Shergiron (Tirgiron), Talapoch, Qorako'l, Oklon (O'g'lon), Boboi Poraduz** nomli 11 ta darvozalari bo'lib¹, ular orqali sharq, g'arb, janub va shimol yo'nalishlariga chiqib, kirish mumkin edi.

Shahar darvozalarini o'nbo'shilar va sarbozlar qo'riqlagan. Darvozalar kech soat 20 dan tong sahar 6 gacha berkitilgan, darvozalarni qulflagan darvozabon kalitlarni mirshabxonaga topshirgan.

Axmad Donish tomonidan chizilgan shahar tarixiy topografik xaritasida ko'rsatilishicha, **Buxoro shahri** amir saroyi va o'rdasi joylashgan **Ark** va 12 ta

¹ Логофет Д.Н. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. СПб, 1990. С. 39.

² Мухаммад Али Балжувоний. "Тарихи нафой" ("Фойдали тарих") // Ўзбекистон тарихи хрестоматияси. 4 жилд. 68б.

³ Мухаммад Али Балжувоний. "Тарихи нафой" ("Фойдали тарих") // Ўзбекистон тарихи хрестоматияси. 4 жилд. 623б.

⁴ Шубинский П. Очерки Бухары // Исторический вестник. Том XIX, 1892. С. 623

¹ Мухаммад Али Балжувоний. "Тарихи нафой" ("Фойдали тарих") // Ўзбекистон тарихи хрестоматияси. V жилд. 58-бет.

mahalladan iborat bo'lgan². Sharqshunos olim P.I.Lerxning shaxsiy arxividan topilgan, noma'lum mahalliy muallif tomonidan chizilgan shahar topografik rejasida ham Buxoro 12 ta ma'muriy qism - mahallaga bo'lingani qayd etilgan. Ularning nomi quyidagicha bo'lgan: **Koziyon, Murdashuyon, Morkushon, Registon, Chashma-i Ayub, Govkushon, Kulolgaron, Bozori xoja, Juybor, Sufiyon, Xiyobon, Adrasbofon** dahalari³.

XX asr boshida shaharni kuzatgan **A.A.Semenov** shaharni 12 ta joriblikka bo'linganligini qayd etgan⁴. **O.A.Suxareva** bu kichik ma'muriy bo'linmani kichik tuman deb ta'riflagan⁵. Fikrimizcha, o'z davrid joriblik yoki mahalla deb yuritilgan ushbu ma'muriy bo'linma o'sha paytda boshqa shaharlardagi **dahalarga**, bugungi kun nuqtai-nazaridan esa **mikrotumanlar** yoki tumanlarga to'g'ri kelgan.

Buxoro guzarlari bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan **O.A.Suxarevaning** ko'rsatishicha, har bir joriblik tarkibiga 18-20 tagacha guzarlar kirgan⁶. Masalan, **Iskandarxon** joribligi tarkibiga 18 ta, **Kalobod** joribligiga 20 ta guzar kirgan. Iskandarxon joribligi tarkibidagi guzarlarda o'rta hisobda jami 1.660 ta xonadon, Kalobod joribligida taxminan 1.150 ta xonadon bo'lgan. Agar shaharda aholi zichligini, xar bir xonadonda kamida 6-7 kishi yashaganligini nazarda tutilsa, eng kichik guzarda kamida 200 ta, eng kattalarida esa, 1.000 tagacha kishi yashagan. 18-20 tagacha guzarini birlashtirgan katta joribliklarda kamida 6.000 nafardan 10.000 nafargacha kishi yashagan, deb taxmin qilish mumkin.

Shuncha odamni qamrab olgan joribliklarni xududiy va aholisi soni jihatidan tumanlar sifatida qarash to'g'ri keladi. O'sha davrdagi mintaqadagi boshqa shaharlarning 4 dahaga bo'lingan bir sharoitda Buxoro shahrining 12 qismga bo'linganligi bu yerda aholining o'ta zich joylashganligi bilan izohlanar edi.

Shahar atrofi ham dahalar va aholi manzilgoxlari bilan o'ralgan. Shaharning atrofidagi yam-yashil bog'lar chetdan kelganlari doimo hayratga solgan. Shahar atrofida taxminan 10 ta mahalla - **Fayzobod, Dilkusho, Fatxobod, Arabobod, Xakkamozor, O'tror, Shirgiron, Ziribilod, Qalandarxona, Totor** mahallalari joylashgan¹.

O.A.Suxareva olib borgan tadqiqotlar davomida tarixiy adabiyotlar, manbalar, xaritalar, etnografik va topografik izlanishlar, hamda shaxsiy so'rovnomalar asosida shahrdagi har bir dahada 18-20 tagacha guzar, 1000 tagacha va undan ko'proq **xonadon, masjid, boshlang'ich maktab, g'uslxona, taxoradxona, mozor, ziyoratgoh, madrasa, hovuzlar** (ayrim hollarda 2-3 tasiga bitta hovuz) va albatta, kamida 15 tadan to 150-200 tagacha xonadon joylashgan². Shahar markazidagi

² Мухаммаджанов А.Р. Историко-топографический план Бухары Ахмада Дониша // Общественные науки в Узбекистане, 1965, № 5.

³ Мухаммаджанов А.Р. Историко-топографический план Бухары Ахмада Дониша // Общественные науки в Узбекистане, 1965, № 5.

⁴ Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного устройства Бухарского ханства позднейшего времени. // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Сталинабад, 1954. С. 48.

⁵ Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного устройства Бухарского ханства позднейшего времени. // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Сталинабад, 1954. С. 48.

⁶ Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. С.67-264.

¹ Мухаммаджанов А.Р. Историко-топографический план Бухары Ахмада Дониша // Общественные науки в Узбекистане. 1965. № 5.

² Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. С. 67-264

guzarlar nisbatan kichik, chekkadagilari esa, ancha katta edi. Guzar aholisi ijtimoiy kelib chiqishi, kasb-hunari, moddiy ta'minotidan kat'iy nazar, o'zaro jamoaga birlashib yashaganlar, mahalladagi obodonchilik ishlari, to'y-marakalarni birgalashib o'tkazganlar. Avvalgi asrlarda guzarlar alohida darvozalarga ega bo'lib, tunda ular yopib qo'yilgan. Keyinchalik bu darvozalarning ko'pi buzilib ketgan. Guzarlar bir-biridan ko'chalar bilan ajralib turgan.

Arxiv manbalarida Buxoro shahrida 200 dan ortiq guzar qayd etiladi³. O.A.Suxarevaning tadqiqotlari davomida bu davrda Buxoro shahrida 220 ta guzar bo'lganligi aniqlangan⁴.

Shahar guzarlari nomining katta qismi kasb-xunar nomi bilan bog'liq bo'lgan⁵. Masalan, **Kosagaron** (kulollar), **So'zangaron** (ignachi), **Sobungaron** (sovunchi), **Degrez**, **Kemuxtgaron** va **Charmgaron** (ko'nchi), **Korxona** (to'quvchi), **Po'stindo'zon** (po'stindo'zlar) va hakazo. Amaldor va askarlar **Guzari Sipox**, va yana boshqa guzarlarda yashaganligi qayd etilgan.

Hunarmandlar ayrim guzarlarda uyushib yashash bilan birga boshqa guzarlarda tarqoq holda ham yashaganlar. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, to'quvchilar 51 ta guzarda, zargarlar 30 ta guzarda, duradgorlar 33 ta guzarda, etikdo'zlar 32 ta guzarda, xolva va muz tayyorlovchilar 21 ta guzarda yashaganlar⁶.

Maddohlar alohida Maddohlar guzarida yashaganlar. Madrasa talabalari shaharning barcha guzarlari, xususan, madrasalar atrofida ko'p bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi Jafarxo'ja guzarida to'plangan. Har bir masjid va guzar o'z diniy ulamolari — **qori**, **imom**, **so'fi**, **eshon**, **maddoxlariga** ega bo'lgan.

Shaharda yahudiylar alohida guzarlarda, ya'ni ular Buxoroga ko'chib kelganda ajratilgan hududda yashaganlar. Shaharda 3 ta guzar yahudiylarga tegishli bo'lgan.

Shahar xududida teri kasalliklari bilan kasallanganlar uchun alohida **Pesxona guzari** tashkil etilgan. 120 xonadondan iborat ushbu guzarda taxminan 500-600 kishi yashagan. Ularning **o'z imomi**, **hunarmandlari**, **savdogarlari**, **bozori**, **masjidi**, **maktablari**, **mullalari** bo'lgan¹. Pes kasalligiga duchor bo'lgan insonlar bu yerda o'zlarini erkin xis qilib, o'zaro hamdardlikda yashaganlar. 120 xonadondan iborat ushbu guzarda taxminan 500-600 kishi yashagan. Ularning o'z imomi, **hunarmandlari**, **savdogarlari**, **bozori masjidlari** bo'lgan².

Manbalarda qayd etilishicha, shaharda 360 ta uzun va tor ko'chalar bo'lib, ular bir-biriga **labirint** kabi tutashib ketgan. Tong saharda shahar aholisi avval azon ovozidan ko'z ochgan. Yozda shahar ko'chalarini erta tongdan farroshlar tozalab, meshqoplar suv sepganlar.

Shahardagi uylar derazalari hovliga qaratib qo'rilgan, ikki sinchli paxsa devorlar xona haroratini qishda issiq, yozda esa salqin saqlab turgan. Ko'p holatlarda uylar ikki qavatli, boloxonali bo'lgan. Shahar ko'chalarida daraxtlar deyarli yo'q edi. Asosan **hovuzlar**, **masjidlar** oldida **tut**, **chinor** kabi soya beruvchi daraxtlar bo'lgan.

³ Узбекистон тарихи хрестоматияси (1860-1917 йиллар). IV жилд. 112-116 бетлар.

⁴ Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. С. 62.

⁵ Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. Ташкент. 1958. С.90.

⁶ Сухарева О.А. Позднефеодальный город Бухара конца XIX начала XX века. (Ремесленная промышленность). Ташкент, 1962. С.23-30.

¹ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С.659.

² Шубинский П. Очерки Бухары. // "Исторический Вестник". Том 9. С.645-646.

XX asr boshida mamlakatda hayot kechirgan zamondoshlardan biri - **Muhammad Ali Baljuvoni** o'zining bir oz keyinroq yozilgan asarida XX asr boshida shaharda 400 Madrasa, 296 ta besh vaqt namoz o'qiladigan masjid, 18 ta jome' masjidi, 13 ta kutubxona, 96 ta xorixona (qiroatxona) va maktabxona faoliyat ko'rsatishini qayd etgan³. Ammo rus manbalarida Buxoroda 1913 yilda 364 ta masjid borligi qayd etilgan⁴. Shu manbalarda ko'rsatilishicha, Buxorodagi maktab va madrasalarda 10.000 o'quvchi taxsil olgan.

Bundan tashqari, shahar hududida 80 ta qabriston joylashgan bo'lib, ularning ko'pchiligi hukmdorlar va ularning avlodlari, mashhur ulamolar hamda aziz-avliyo sifatida ulug'langai shaxslarga tegishli edi. Ularning ko'pi muqaddas ziyoratgohlarga aylangan.

Buxoro shahri aholisi zich joylashgan shaharlardan edi. 1820 yilda shaharga tashrif buyurgan YE.K.Meyendorf uzoq surishtirishlar asosida Buxoroda 8.000 xonadon borligini va ularda 70.000 aholi yashashini aniqlagan. Bunda har bir xonadonga 8,7 kishidan to'g'ri kelgan. Oradan 50 yil o'tgach, 1870 yilda shaharga tashrif buyurgan **L.Kostenko** ham uzoq surishtirishlar asosida Buxoroda 15 ming xonadon mavjudligini aniqlagan. Ammo bu safar u har bir uyga 5 kishidan hisoblab, Buxoro aholisi taxminan 75.000 kishini tashkil etadi, degan xulosaga kelgan⁵. 50 yil mobaynida uylar soni salkam ikkiga ko'paygan holda, aholi soni bor-yo'g'i 5.000 ga ortganligi mantiqqa ham, real holatga ham to'g'ri kelmas edi.

Shaharga 1880 yillarda tashrif buyurgan **V.Krestovskiy** esa, shahar aholisi 70.000 deb taxmin qilsa-da, aslida odamlarning juda gavjumligidan ularning soni shahar atrof va chekkasidagilarni qo'shmaganda 100.000 dan kam emasligini ta'kidlaydi¹. Oradan 12 yil o'tib, 1892 yilda mamlakatga tashrif buyurgan **P.Shubinskiy** ham shahar da 100 ming aholi yashashini qayd etadi². Bu ma'lumotlar keyingi davrdagi rus adabiyotlariga ham to'g'ridan to'g'ri ko'chib yurgan va XX asr boshida ham Buxoro aholisi 100.000 kishini tashkil etishi qayd etilgan³.

Vaholanki, Buxoroda aholi nihoyatda zich joylashganligi, uylarning ko'pi ikki qavatli qurilgan. Mahalliy an'analarga ko'ra har bir bir xonadonga o'rtacha 7-8 kishidan to'g'ri kelgan. Demak, shahardagi 15.000 xonadonda taxminan 120.000 atrofida aholi yashagan, deb taxmin qilish mumkin. Buxoro shahrida uy-joylardan tashqari madrasalarda doimiy yashab, tahsil olgan 10.000 ga yaqin talabalar, saroy ahli (Buxoro arkining o'zida 3.000 kishi) hamda bir necha yuz harbiy kuchlar bo'lganligi ham inobatga olinsa, shahar aholisi XX asr boshiga kelib 130.000 dan ortiq bo'lgan, deb taxmin qilishga yetarli asos bo'la oladi.

Darhaqiqat, 1920 yilga kelib Buxoro shahrida 150.000 kishi yashayotganligi qayd etiladi⁴.

³ Мухиммад Али Балжувоний. "Тарихи нофeй" ("Фойдали тарих").//Ўзбекистон тарихи хрестоматияси. IV жилд. 58, 71-б.

⁴ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С 659.

⁵ Костенко Л. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 году. СПб., 1871. С.83.

¹ Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского. СПб., 1887. С. 320.

² Шубинский П. Очерки Бухары // Исторический вестник, Том. 9. 1892. С. 624-625

³ Губаревич-Радобильский А. Экономический очерк Бухары и Туниса. Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. С- Петербург, 1905. С.33.

⁴ ЎзР МДА 3-фонд, I -руйхат, 519-йигма жилд. 2-варақ.

Shahar aholisining milliy tarkibida 87,3 foizini o'zbeklar, 7 foizini tojiklar, qolgan qismini esa, **forslar, arablar, yahudiylar, afg'onlar, hindlar, tatarlar, qozoqlar** tashkil qilgan⁵.

Shahar aholisining ijtimoiy tarkibida **amaldorlar, diniy ulamolar, hunarmandlar, savdogarlar** katta o'rin egallaganlar. Shu bilan birga yana turli vazifalarni bajaruvchi yuzlab xizmatchilar ham bo'lgan. Shahar aholisining asosiy mashg'ulotlari savdo va hunarmandchilikdan iborat edi.

Shahar aholisining nufuzli vakillari, yirik amaldorlar va savdogarlar o'zi shaharda yashab turib, uning ichida va atrofida, mamlakatning turli burchaklaridagi qishloqlarda bir nechta yer mulklariga ega edilar. Bu yerlarda dexqonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanilgan xatto mamlakat hukmdori ham savdo bilan shug'ullanar, mamlakat hududida yirik yerlarga egalik qilar edi. XX asr boshiga oid ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro amirining o'zi 1000 desyatina yerga ega edi⁶. Bu yerlar ayni paytda davlat yerlari ham edi. Buxorodagi oddiy aholining taxminan 70.000 nafari umuman yersiz bo'lib, shahar ichida hunarmandchilik yoki oldi-sotti bilan shug'ullangan⁷. Shahar aholisi nihoyatda zich bo'lib, xonadonlar hovlisi juda kichik, uylar esa, aksariyat holatlarda ikki qavatli bo'lgan.

Buxoro arki. Shahar markazidagi **amir saroyi**, ya'ni **Ark Buxoro** hukmdorlari uchun balandligi 20 metr bo'lgan sun'iy tepalikda barpo etilgan bo'lib, hududi 4 gektarni egallagan. Bu yerda **amir saroyi, mahkamasi, hazinasi**, mamlakat hukmdorining oilasi yaqinlari uchun alohida o'rda, mehmonlar uchun **qabulxona** va mehmonxonalar, **masjid, saroy ustaxonalari, zarbxona, aslahaxona, zindon, g'azna, saroy qo'riqchilari** uchun alohida bino mavjud edi. XX asr boshida arkda **hukmdor avlodlari, qo'riqchi va xizmatchilar** bilan birga taxminan 3.000 kishi yashagan.

Ark devorlari turli davrlarda **tosh, pishiq va xom g'isht, paxsalar** bilan mustahkamlangan. O'pirilib tushgan joylari dastlab xom g'ishtdan, keyin pishiq g'ishtdan ta'mir etilgan. Arkning bosh darvozasi dan kirishda **to'pchi boshi (saroy qo'riqchilari boshlig'i)ning maxkamasi, undan nariroqda peshayvonli jome' masjid (saroy masjidi)** bo'lgan. Arkning shimoli-g'arbiy burchagida to'pchi boshining uyi va ta'mir ishlari ustidan nazorat qiluvchi kishi turadigan xona bo'lgan. Masjidning sharq tomonida **oshxona, orqa tarafida zarbxona (oltin, kumush va chaqa tangalar zarb qilinadigan joy)** bo'lgan. Zarbxonaning shimoli-sharqida **zargarxona, janubida esa, devonbining mahkamasi va qo'shbegiga qarashli binolar** bo'lgan. Jome' masjiddan boshlangan tor yo'lak qo'shbegi hovlisi orqali chorsuga tutashgan. Chorsuning chap tomonida tosh yotqizilgan **katta xovli — ko'rinishxona** bo'lgan. Ko'rinishxonada **elchilar** qabul qilingan va amirlarning taxtga o'tirish marosimlari o'tqazilgan. Uning 3 tomoni ayvon bilan o'ralgan. Ikki qator naqshinkor ustunli peshayvondagi taxtiravonda amir marmardan ishlangan taxtda mehmonlarni qabul qilgan. Ko'rinishxona hovlisining janubiy tomonida mehmonxona va korixona joylashgan bo'lib, ularning tagidagi yerto'lalarda hazina saqlangan.

⁵ Суҳраева О.А. К истории городов Бухарского ханства. С.75, 77.

⁶ 10 таноп- 2,5 десятина

⁷ Суҳраева О.А. К истории городов Бухарского ханства. С.33-34.

Buxoro arkining shimoli-sharqida jinoyatchilar saqlanadigan **zindon**, g'arb tomonidagi xovlida esa, **mirzalar va xizmatchilar** uchun ikki qavatli binolar, **salomxona** joylashgan.

Bundan tashqari, ark xududida **mexmonxonalar**, **amir hamda oliy mansabdorlarga qarashli boshqa binolar**, **hammom**, uning yonida **kichkina masjid** joylashgan. Arkning markazida **o'rda** (amir xonadoniga mansub ayollar uchun uylar), shimolida esa, qo'shbegiga tegishli ayollar turadigan uylar, shimoli-sharqiy burchagida **Childuxtaron masjidi** va **Battol G'oziy qabristoni** bo'lgan.

Arkning sharqiy devori bo'ylab **g'ulombachcha**, ya'ni soqchilar **kazarmasi**, janubi-sharqiy burchagida **dorixona**, ya'ni **o'q-dorilar ombori** joylashgan. Arkning markazida yer tagidan ark ichiga qarab ketgan katta **sopol quvurlar** o'tgan bo'lib. Ular oqova suv quvurlarining bir qismi edi. Ark darvozasining chap tomonida **lashkarboshi mexmonxonasi**, shimolida esa, **qurol-yarog'lar tuzatiladigan ustaxona** va aslaxona (**ko'rxona**) bo'lgan.

1990 yillarda arxeologlar tomonidan olib borilgan qazish ishlari davomida arkdagi amir mehmonxonasi hisoblangan xonaqox, uning atrofidagi **hujralarning poydevorlari**, **xovli ichkarisidagi supa**, **toshnov**, **tazar**, **sandal yaxxonalar**, **hammom** topildi. Hammom tuzilish jixatdan murakkab bo'lib, yer osti tazarlari umumiy bir tarmoqqa bo'ysundirilgan va shahar tashqarisidagi zaxkashga qadar cho'zilgan. Unga to'rt tomonidagi gulax (o'txona)lari doimiy ravishda bir xil issiqlik berib turgan.

Yaxxonada esa, muz to kech kuzgacha saqlangan. So'nggi tadqiqotlar davomida Ark hududida yer sathidan 2,5-3 metr chuqurlikda gumbazsimon yer osti yo'li borligi aniqlandi¹.

Buxoro Arkining g'arbida joylashgan **Registon maydoni** bu davrda shahar markazi hisoblanib, o'tmishda bu yerda hukmdor mahkamasi, kasalxona, masjid va boshqa binolar bo'lgan. Ark darvozasi Registon maydonining o'rtasiga olib chiqqan. Bu yerdan ark darvozasiga Taxtapul ko'prigi ko'tarilgan. Ko'pri yonida, masjid qarshisida to'plar joylashtirilgan. **Taxtapul ko'prigida Kanaxona** deb atalgan yerto'la bo'lgan².

Registon maydonida savdo rastalari joylashgan bo'lib, ularda asosan oziq-ovqat, chorva, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotilgan. Savdo rastalaridan **kiyim-kechak**, **ro'zg'or buyumlari**, **qog'oz** ham topish mumkin edi.

Shahami **Shohrud kanali** suv bilan ta'minlagan. Undan 11 ta mayda kanallar shahar xududi bo'ylab tarqalgan. Shaharning eski shahriston qismi nisbatan tepalikda joylashganligi sabab u yerga suv yetib bormagan, shu sababli quduqlar orqali suv bilan ta'minlangan. Shahristonning shimoliy qismidagi **Qozi-kalon hovuzi** va sharqiy qismidagi **Hoji Kalom hovuzi** 8-10 metr chuqurlikda qazilib, yer osti kanali orqali suv tizimiga ulangan. Suv ta'minoti muammoligi bois, shaharning shahriston qismida o'simlik, daraxtlar yo'q edi.

Shaharda 1870 yillarda 80 ta³, 1913 yilga kelib esa, 85 ta⁴ hovuz bo'lib, ularning har birining atrofida 30-40 tagacha suv tashuvchilar yashagan. Ular shahar

¹ Зоҳидов П., Рашидов У. Бухоро арки. // "Ўзбекистан Миллий Энциклопедияси". 2011.

² Садриддин Айний. Бухара. (Воспоминания). Книга I. Душанбе, 1980. С.201.

³ Костенко Л. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 году. С.87.

ko'chalari, bozorlar, savdo rastalarida ozodagarchilikni ta'minlab, **farroshlik, suv tashish, o't o'chirish** bilan shug'ullanishgan. Hovuzlar jamoatchilik to'planadigan joy hisoblangan, ularning ko'pi **masjid, madrasalar** oldida joylashgan. Eng mashhur hovuz chukurligi 5 metr bo'lgan **Labi hovuz** bo'lib, bu yer shahar aholisining eng gavjum yeri hisoblangan.

Hovuz atrofidagi daraxtlar soyasida samovarlari doimo qaynab turuvchi **choyxonalar, sartaroshxona, savdo yoymalari** ishlab turgan. Hovuzga suv **Shoxrud kanalidan** kelib quyilgan. Hovuzdagi suvdan ko'chalarga **sepish, ichish uchun** foydalanishgan. Juda qadimdan bu yerda **bayramlar, xalq sayllari** o'tkazilgan. Yoymalar gilamlar bilan bezatilgan. **Labi hovuz** yaqinida **Nodir Devonbegi madrasasi va xonakoqi, Ko'kaldosh madrasasi** joylashgan.

Buxorodagi hovuzlar kattaligi va qulayligi bilan O'rta Osiyoning boshqa shaharlaridan farq qilardi. Bu hovuzlar asosan tosh bostirilgan va yog'och qoplangan edi.

Shahardagi yirik bozorlar yaqinida doimo gavjum hammomlar joylashgan. Shaharda jami 20 ta hammom bo'lgan⁵. Masalan, **Toqi Sarrofon bozori yaqinida Sarrofon hammomi, Xo'ja Porso yaqinida Xo'ja hammomi, Gavkushon madrasasi oldida Gavkushon hammomi, Furushon gumbazi oldida esa Misgaron, Nav bozori oldida Nav yoki Obi Otash, Qozikalon rastasi yaqinida Qozikalon hammomi, Registonda Tokumduzi hammomi** joylashgan.

Bu hammomlarning ko'pi 300-400 yillik tarixga ega bo'lib, quduqlardan suv bilan ta'minlangan va har biri o'zining suv chiqarish tizimiga ega bo'lgan. Hammomlarning ba'zilar kasbiy atamalar bilan bog'lik nomlangan¹. Masalan: **Polonduzon, Kafshgaron (kavishdo'zlar), Zargaron (zargarlar), Sarrafon, Misgaron hammomlari** shular jumlasidan edi. Ayrımlari esa, **bozorlar yoki o'sha yerning joy atamalari** nomi bilan yuritilgan.

Hammomlarining ba'zilar **yo'llar chorrahasida** joylashgan bo'lib, boshqa binolarga tutashib ketgan. Hammomlar umum shahar va guzar hammomlariga bo'lingan, ayollar va erkaklar kuni alohida bo'lgan.

Buxoro juda qadimdan mintaqadagi **yirik hunarmandchilik** markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu davrga kelib shaharda 250 ta kosibchilik va fabrika matolari sotiladigan yoyma do'konlar, 100 ta choy do'konlari, 70 ga yaqin chinni do'konlari, 50 dan ortiq sarroflar va sudxo'rlar do'koni bo'lgan. Shuningdek, alohida **misgarlar, temirchilar, qassoblar, qandolatchilar rastalari** bo'lgan. Oziq-ovqatlar, ya'ni, **un sabzavot, g'alla, quruq mevalar katta omborlar** – kapponlarda saqlangan. Bulardan tashqari, **o'tin, yog'och, paxta** bozorlari faoliyat yuritgan. Qorako'l savdosi mavsumida teri savdosi juda kizg'in kechgan².

Xonlikda eng ko'p tarqalgan hunarlardan biri **to'qimachilik** bo'lib, **paxta tolasidan chit, doka, adras, beqasam duro'ya, yakro'ya matolari, ipak tolasidan**

⁴ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С.659.

⁵ Кдстенко Л. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 году. С.87.

¹ История Узбекской ССР. Том II. Т.1968. С. 126.

² История Узбекской ССР. Том II. Т.1968. С. 126.

esa, atlas, xonatlas, shoyi kabi matolar tayyorlangan. Buxoro shahrida XX asr boshida 46 ta **to'quvchilik ustaxonasi** bo'lgan³.

XIX asr oxiriga kelib, buxorolik to'quvchilar ipak va yarim ipak matolar ishlab chiqarishga o'ta boshladilar. Buxorolik ustalar tayyorlagan ipak matolar juda xaridorgir edi. XX asr boshiga kelib shaharda 30 taga yaqin **ipak to'qish ustaxonalari** bo'lib, ularda bir necha o'ndan yuztagacha to'quvchi ishlagan. Ayniqsa, shaharning janubiy g'arbida **to'qimachilik** keng tarqalgan. Shahar va uning atrofidagi jami 12000 ta **to'quvchilik dastgohi** bo'lgan. Keyinchalik ipak yigirish ustaxonalarining soni 46 taga yetgan, ularning har birida 200 tagacha ishchilar ishlar edi.

Buxoro shahri bu davrda mintaqadagi yagona zardo'zlik markazi edi. Shaharda saroyga hamda xususiy kishilarga qarashli **zardo'zlik ustaxonalarida** 300-350 tagacha zardo'z ustalar faoliyat ko'rsatib, ular tomonidan **amir va uning oila a'zolari, amaldorlar, yuqori tabaqa vakillari** buyurtmasiga binoan **zardo'zi to'n, etik, kavush, mahsi, ko'ylak, ro'mol, do'ppi** tayyorlangan.

Saroy ustaxonalaridan tashqari Buxoro shahrida yana 20 ga yaqin xususiy ustaxonalar ham bo'lib, ularda asosan mayda buyumlar - **do'ppi, belbog', qopchiqcha, peshonaband, bolalar to'ni** tayyorlangan. Zardo'zlar zar to'n tikishda eng a'lo nav baxmalga, shuningdek, **atlas, movut, charmga zar ip** bilan turli naqsh va gullar tikishgan. Zardo'zlik uchun ishlatilgan zar iplar Rossiyadan olib kelingan⁴. Zardo'zlar asosan **Mir Do'stim va Zardo'zon guzarlarida** yashaganlar.

Buxoro shahri o'sha davrdagi yirik zargarlik markazi bo'lib, bu yerda 400 ga yaqin zargar faoliyat ko'rsatgan. Ular tayyorlagan **taqinchoq va buyumlar** 40 ta do'konda sotilgan. Zargarlik buyumlari bilan savdo qiluvchi **Toqi Zargaron** rastasi butun mintaqada mashhur edi. Zargarlar turli taqinchoqlarni tayyorlashda **tilla, kumush mis hamda qimmatbaxo toshlar - qizil yoqut, la'l, zumrad, feruza, lojuvard, dur marjoy, sadafdan** foydalanishgan. Zargarlikda Rossiyadan keltirilgan yangi materiallar asosida ishlab chiqarish texnikasi nisbatan yangilanishi sababli mahsulotlar arzonlashgan.

Buxoroda ko'nchilik, ya'ni teriga ishlov berish keng rivojlangan. XIX asrning ikkinchi yarmida birgina Buxoro shahrida 150-200 ga yaqin ko'nchi bo'lgan. Terini oshlash jarayonida chiqadigan badbo'y xid aholini bezovta qilmasligi hamda katta miqdorda suv va maydon kerak bo'lganligi sababli ko'nchilar o'z korxonalarini shahar tashqarisida qurganlar, o'zlari esa, shaharning **Eshoni pir, Arabon Mir Ma'sud, Po'stindo'zon, Charmgaron, Kemuxtgaron guzarlarida** yashab mehnat qilishgan.

Shaharda **metallni qayta ishlash sohalari - temirchilik, cho'yangarlik, zargarlik, misgarlik, rextagarlik** kabi sohalari keng tarqalgan bo'lib, jami 150 ta temirchi faoliyat ko'rsatgan.

Misgarlik ustaxona-do'konlarining faoliyati ham juda qizg'in bo'lib, birgina Buxoro shahrida ularning soni 200 ga yaqin bo'lgan.

³ Сухарева О.А. Бухара XIX - начала XX в. (Позднефеодальный город и его население). М., 1966. С. 201.

⁴ Костенко Л. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. СПб., 1871. С. 102.

Shaharda **kulolchilik** keng rivoj topgan qadimiy kasblardan edi. Kulollar **uy-ro'zg'or buyumlari xum, ko'za, xurmacha, piyola, kosa, lagan, tovoq, tandir, quvur, tuvak, oftoba, bolalar o'yinchoqlari – xushtak, ko'g'irchoq** kabi buyumlar tayyorlanganlar.

Tegirmonda **un** tamyorlash ham turmushda zarur kasb xisoblangan. Buxoroda tegirmon toshini aylantirish uchun suv yetarli bo'lmaganligi sababli ot yoki xo'kiz kuchidan foydalanilgan. Bundan tashqari xar bir oilada ko'l tegirmoni bo'lib, oila ehtiyojiga kerakli unni tayyorlashda foydalanish qulay bo'lgan.

Qog'oz tayyorlashda **Buxoro shahri Samarqand, Qo'qondan** keyingi o'rinda tursa-da, o'zining sifati bilan qo'shni mamlakatlarda ham xaridorgir va mashhur bo'lgan. Bu qog'ozlar ipakdan tayyorlangan bo'lib, o'zining silliqligi, yupqaligi bilan arab yozuvi uchun juda qulay bo'lgan². Shaharda maxsus qog'oz bozori bo'lib, u yerda **qog'oz, qalam va qo'lyozma kitoblar** sotilgan.

Bundan tashqari, Buxoroda mahalliy aholi uchun **kiyim-kechak, poyafzal, bosh kiyimi** va boshqa zaruriy ehtiyojlarni qondiruvchi o'nlab kasb turlari, **oziq-ovqat, qandolatchilik** juda keng rivojlangan edi. Xususan, birgina poyafzal tayyorlashning **kavushdo'zlik, etikdo'zlik, maxsido'zlik** kabi turlari keng rivojlangan edi. Etikdo'zlar asosan **Qora Kamol guzarida** yashab faoliyat yuritganlar. Guzar aholisining 90 foizi etikdo'zlar edi. Umuman olganda shahardagi 52 ta guzarda poyafzal tayyorlangan.

Aholi ustki kiyimining asosini tashkil etuvchi erkaklar choponlari (**qishki**) va **yaktaklari (yozgi)** ni tayyorlovchi tikuvchilar asosan **Morkum guzarida** to'planganlar.

Telpakdo'zlik Buxoro shahrida keng rivoj topgan. Shaharda alohida **telpakdo'zlar rastasi - Toki telpakfurushon** bo'lgan Telpak asosan **qorako'l teri, ko'y, tulki, qunduz** terilari va bahmaldan tiqilgan.

Shaharda hunarmandlarning alohida guzarlarda uyushgan tarzda hayot kechirib, faoliyat yuritishi ularning o'zini ham, buyurtmachilarning ham ishini yengillashtirgan. Yuqorida qayd etilganidek, deyarli har bir hunar ustalari shunday yashaganlar. Qo'shimcha ma'lumot sifatida, **Axtachi va Amiri guzarlarida temirchi va chilangarlar, degrez guzarida degrezchilar, Azizon va Qosim shayx guzarlarida misgar va zargarlar, Po'stindo'z guzarida qo'y terisidan po'stin tayyorlovchilar, Mulla-Hokirohi va Xo'ja Tuyg'un guzarida duradgor va boshqa** kuruvchilar yashab, faoliyat yuritganligini qayd etish mumkin. Bundan tashqari, Buxorodagi barcha guzarlarda shahar aholisini oziq-ovqat mahsuloti bilan ta'minlovchi yashagan.

Azaldan **oshpaz, novvoy, qassob, qandolatchilar** hunarmandchilik markazi bo'lib kelgan Buxoro shahrida bu davrda ham an'anaviy hunarlar sayqal topib, xalq ehtiyojlarini qondirib kelgan³. Shaharda jami 100 ga yaqin hunar turlari mavjud bo'lib, ularning mahsulotlari ichki ehtiyojlarni qondirib kelgan. Ayniqsa, mehnat qurollari: **ketmon, o'roq, tesha, bolta, pichoq, ro'zg'or buyumlari, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklar** tayyorlash asosan mahalliy hunarmandlar qo'lida edi.

² Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. СПб., 1885, С. 211.

³ Бухарское ханство под русским протекторатом. СПб., 1911. С. 270-280.

Rossiyadan sanoat mahsulotlarining kirib kelishi natijasida hunarmandchilikning ayrim turlari qisqarib borsa, boshqa bir turlari o'z texnologiyalarini yangilab, yanada rivojlandi.

Hunarmandchilikning **misgarlik, jez quyish** kabi kasblarga ehtiyoj kamaydi, fabrika mahsulotlari bilan raqobatlasha olmagan mayda to'quvchi ustaxonalar kasodga uchraydi, ammo ularning qo'shilishi hisobiga 30-40 tadan 120 tagacha uskunaga ega bo'lgan, o'nlab yollanma ishchilar mehnat qiladigan yirik to'quvchi korxonalar, ipak to'quvchi ustaxonalar yuzaga keldi².

Hunarmandchilikning **gul bosish** turi fabrikaning guldor matolari raqobatiga dosh berolmay, qisqarib ketsa-da, saqlanib qoldi. **Mix, igna, qurol-yarog'** tayyorlash hunarlar qisqarib, yo'q bo'lib ketdi.

XIX asr oxiriga mansub ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroda 6 ta chorsu bozor, 25 ta shahar atrofidagi **savdo shoxobchalari** mavjud bo'lgan³. 1913 yilda esa, shaharda 50 ta karvonsaroy, 50 ta yopiq bozor faoliyat ko'rsatishi qayd etiladi⁴. Shahardagi **Toqi Zargaron, Toqi telpakfurush, Toqi Sarrofon** deb nomlangan savdo majmualari bo'lib, ular asosan turli ko'chalar kesishgan chorrahalarda joylashgan. Bu ko'chalarda 150 tagacha savdo yoymalari joylashgan.

Registon maydonidagi bozorda asosan oziq-ovqat mahsulotlari sotilgan. Shahardagi boshqa bozorlar ham sotiladigan mahsulot turlariga qarab ixtisoslashgan. Masalan, Arabon bozarida **qorako'l savdosi** amalga oshirilgan. Shahar chekkasida esa, katta maydonlarda **chorva bilan savdo qiluvchi bozorlar** joylashgan. Ularning har birida alohida mol turi - **ot, tuya, eshak, qo'y** bilan savdo qilingan¹.

Shahar ichidagi bozorlarda asosan hunarmandchilik va mayda, chakana savdo bilan shug'ullanishgan. Yirik savdo ishlari karvonsaroylarda amalga oshirilgan. Shahardagi savdo rastalari **Labi Hozuvdan boshlanib, Registongacha** davom etgan. Ular mahsulot turlariga qarab joylashgan. **Hunarmand-kosiblar** do'konlari alohida rasta bo'lgan. Bulardan tashqari **usti yopiq savdo rastalari - timlar** ham bo'lgan. Ularning eng kattasi **Abdullaxon timi** edi. Don mahsulotlari keng va soyabon tutilgan maydonchalarda sotilgan.

Rastalar va bozorlar **Nodir Devonbegi** madrasasi orqasidagi **Xo'ja bozordan** boshlangan. Bu yerda **xolvatarlar, baqqollar, jonfurush (muzqaymoq)** sotuvchilar, hovuz oldida na **nonfurushlar** joylashgan. **Ko'kaldosh madrasasi** yo'nalishida **arpa, tuz (namak), noxot, kunjut, mosh, zig'ir** sotilgan. **Ernazar madrasasi** tomonida **choyfurushlar, qandolatchilar, attorchilar** savdo qilgan, shu yaqin o'rtada **ko'mirchilar, kulollar**, ulardan keyingi ko'chada **qassoblar** rastasi joylashgan. **Abdullaxon** timida **parcha, baxmal, ipak va fabrika matolari** sotilgan². Shaharda juda ko'p omborxona va bostirmalar bo'lib ularda savdo mahsulotlari saqlangan.

Buxoroda 1860 yillar ma'lumotiga ko'ra, 30 ta³, 1870 yilda 50 ta⁴, 1892 yildagi ma'lumotlarda esa 150 ta **karvonsaroy** bo'lganligi qayd etiladi⁵. Karvonsaroylar

² История Бухары с древнейших времен до наших дней. Ташкент. 1976. С. 165.

³ Шубинский П. Очерки Бухары // Исторический вестник. Том 9, С. 625.

⁴ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С.659.

⁵ Базарная площадь в Бухаре. // "Нива". 1890, № 15(1). С.393,408.

² Д И Бухарское ханство под русским протекторатом. СПб.1911. С. 270-280.

³ Базарная площадь в Бухаре. // "Нива". 1890, № 15(1), С.393,408.

qurilishi, hashami va sarmoyasining kattaligi bilan O'rta Osiyoning boshqa karvonsaroylaridan ajralib turgan.

Buxoroda turli mamlakat savdogarlari o'z karvonsaroylariga ega bo'lganlar. Rossiyadan keladigan rus savdogarlari o'z tovarlarini 1.500 ta tuya sig'adigan **Olim-saroyda** saqlaganlar, tatarlar esa, 2.000 tuya sig'adigan **No'g'ay-saroyda** afg'onlar va hindlar ham o'z karvonsaroylarida savdo qilishgan⁶. Karvonsaroylarda ulgurji savdo ham olib borilgan, musulmon va rus savdogarlaridan 2,5 foiz, nomusulmon savdogarlardan 5 foiz miqdorda soliq olingan⁷.

Karvonsaroylarda ko'tara va chakana savdo yurituvchi savdogarlar uchun **qo'noq ya'ni yotoq, otxona, omborlar**, shuningdek, pul almashtiruvchi **sarroflar**, va xattoki, tabiblar uchun ham **xujralar** bo'lgan. Ular bu yerga kelib ketib turgan savdo ahliga xizmat ko'rsatganlar.

Karvonsaroylar mahsulot turiga qarab ixtisoslashgan. Masalan, amirga tegishli **Sayfiddin karvonsaroyida ipak, zarbop matolar, duru-gavxarlar, olmos va tilla** bilan savdo qilingan. **Meshsaroy karvonsaroyida ko'nchilik mahsulotlari** bilan. **Buzgunj saroyida bo'yokchilar, Barra va Po'st saroylarida qorako'l** savdosi olib borilgan. Mato va sanoat mahsulotlari **Ubaydullo Hoji saroyida, paxta savdosi paxta saroyida, ho'l mevalar Olim saroyida poyafzal savdosi Ko'hna kavush saroyida** amalga oshirilgan. Shahar tashqarisidagi **Yusufboy va Abdullobek saroylarida esa, qorako'l** quritib sotilgan. **Choy savdosi Ho'ja saroyida, guruch va mayda maxulotlar Amir Sayid va Jannatmakon saroylarida** sotilgan.

Rossiya bilan savdo aloqalari rivojlanib borishi bilan rus savdogarlari va savdo firmalari ham o'z karvonsaroylariga ega bo'lib bordilar¹. Karvonsaroylarda ma'lum mahsulot savdosi bo'yicha yirik va nufuzli savdogarlar **ko'tara savdo** olib borganlar. Masalan, **Sayfiddin karvonsaroyida** tilla bilan savdo qiluvchi boylar faoliyat yuritgan va ustamonligi bilan dovrug'i chiqqan yahudiylar dallollik qilishgan. Karvonsaroyning bir kunlik - savdo aylanmasi 50 ming rublga yetgan.

No'g'ay saroyda ham 30 dan ortiq katta boy savdogarlar faoliyat yuritgan. Bu yerda kundalik savdo aylanmasi 5.000 rublga yetgan, ayrim yirik savdogarlarning bir kunlik savdo aylanmasi 1000 rublgacha yetgan. Karvonsaroyning ikkinchi qavatida chopon tikishgan.

Buxoroga atrof shahar va qishloqlardan tinimsiz karvon qatnagan. Masalan, **Qarshi, Hisor, Shaxrisabzdan** kuniga 10-15 tagacha tuyaga ega bo'lgan mayda karvonlar **natural soliq, ya'ni bug'doy, arpa** va boshqa maxsulotlarni davlatga tegishli karvonsaroylarga yetkazib kelgan.

Har bir karvonni karvonsaroy egasi saroybonning o'zi kutib olib, ularning molini yerto'laga, egalarni bolaxona yoki hujraga joylashtirgan, yuk keltirgan karvon tuyalari shahaming Samarqand darvozasi tomonida joylashgan maxsus saroyga jo'natilgan. Tunda saroybon karvonsaroy darvozasini qulflab, kalitni o'zida saqlagan.

⁴ Костенко Л. Путешествие в Бухиру русской миссии в 1870 году. С-86.

⁵ Шубинский П. Очерки Бухары // Исторический вестник. Том 9. С. 625.

⁶ Костенко Л. Путешествие в Бухиру русской миссии в 1870 году. С-86.

⁷ Костенко Л. Путешествие в Бухиру русской миссии в 1870 году. С87.

¹ История Бухары. С. 168.

Karvonsaroylar turli savdo mahsulotlariga qarab ixtisoslashgan va aksariyati hususiy tadbirkor savdogarlarga tegishli bo'lgan. Karvonsaroylarda yuk tashuvchi, tahlovchi xizmatchilar pul almashtiruvchi sarroflar xizmat qilgan.

Qadimdai Buyuk ipak yo'li chorxasida joylashib Sharq va G'arb o'rtasidagi tranzit savdoda katta o'rin tutib kelgan. **Buxoro shahri** XIX asr o'rtalarida ham mintaqadagi muhim savdo markazi sifatida nafaqat Markaziy Osiyo mitaqasida balki tranzit savdoda katta o'rin tutgan. Buxoro savdogarlari **Eron, Afg'oniston, Hindiston (Kashmir) va Xitoy (Qashg'ar)** bilan keng savdo aloqalari olib borganlar. Buxorodan bu mamlakatlarga kimmatbaho toshlar mahalliy **kumush, oltin, xo'l va quritilgan meva, jun va ipak matolar, paxta, guruch, gilam** olib ketilgan.

Rossiyadan shaharga **movut, parcha, teri, cho'yan, temir**, Afg'oniston va Kashmirdan esa, **ipakli matolar, shifobaxsh giyoxlar, bo'yoq**, Erondan **ingliz chitlari, feruza toshlar**, Kashg'ardan **chinni, choy, xitoy matolari** keltirilgan. Ularning beshdan bir qismigina mahalliy ehtiyojlar uchun, qolganlari tashqariga olib ketilgan. Kaspiy orti temir yo'li ishga tushgunga qadar Buxoroga 40 ming tuya mol kelib, 50 ming tuya mol chiqib ketgan¹.

Shahar va uning atrofida **afg'on, eroniy, hind savdogarlari** ko'p edi. Faqatgina hindlarning o'zi 900 kishi atrofida edi². Buxoroda Afg'onistonga mahalliy maxsulotlardan **qorako'l, jun, chorva, qo'y va echki terisi, tulki terisi, pista, buyoq, gilam, g'o'za, kishmish, qand, mis, cho'yan va po'lat buyumlar** olib borilgan.

Hindisgon bilan savdo aloqalari uzoq tarixga ega edi. Buxoroga Hindistondan har yili 4-5 million rublgacha mahsulot keltirilar, yuzlab tuyalardan iborat savdo karvonlari qatnar edi. Birgina choynig o'zi shahar dagi 6 ta karvonsaroyda joylashtirilgan. Ularning orasida **Abdurashid karvonsaroyi** katta o'rin tutgan. Bu yerga 3.000 tagacha tuya siqqan. **Mirzo G'ulom** saroyiga 1.500 ta, **Badriddin** saroyiga 1.200 ta tuya siqqan. Hindlar nafaqat savdo, balki sarroflik, ya'ni pul almashtirish bilan ham faol shug'ullanganlar.

1881 yilda Turkiston general-gubernatori o'lkaga ingliz mollarini keltirishni ta'qiqlab qo'yishi, 1890 yilga kelib esa Buxoroni Rossiya boj tizimiga kiritilishi Buxoroning qo'shni mamlakatlar bilan savdo aloqalariga katta zarba berdi. Natijada, asrlar davomida rivojlanib kelgan savdo aloqalari keskin qisqarib, endilikda bu aloqalarda imperiya manfaatlarini ustunligi ta'minlandi.

Buxoro bozorlari metropoliya sanoat mahsulotlariga to'lib ketdi va Buxoro rus bozoriga aylandi³. 1894 yilda Buxoro amirligining Rossiya boj tizimiga kiritilishi esa, mamlakat bozorlarini metropoliya savdo manfaatlariga bo'ysundirilishini ta'minlab berdi.

1888 yilda Kaspiy orti temir yo'li - keyinchalik O'rta Osiyo temir yo'li deb yuritilgan, 1906 yilda esa, Toshkent-Orenburg temir yo'li, 1916 yilda Buxoro temir yo'lining bitkazilib, ishga tushishi mamlakatni Rossiyaning ichki bozoriga

¹Шубинский П. Очерки Бухары / Исторический вестник. Том XIX, С. 386-387.

²ЎзР МДА, И-3 жамгарма, 2-руйхат, 25- йиғма жилд, 333-варақ.

³ЎзР МДА, 1 жамгарма, 34-руйхат, 675-йиғма жилд, 60-варақ.

aylantirilishini to'liq ta'minlab berdi. Endilikda temir yo'l orqali Buxoro va Rossiya savdo aloqalari jadal rivojlanib ketdi.

Bu savdo aloqalarida XIX asr oxirlaridanoq paxta katta o'rin tuta boshladi. 1850-1860 yillarda Buxoro eksportida paxta 50 ming pudni tashkil qilgan bo'lsa, 1916 yilga kelib, 2,2 million pudga yetdi. Bu xonlikdan olib ketilgan mahsulotmig 40 foizni, O'rta Osiyodan olib ketiladigan paxtaning 13 foizni tashkil etar edi.

Rossiyaga Buxorodan **qorako'l, jun, inak, quruq mevalar, gilamlar** ham katta miqdorda jo'natilgan. Umumiy eksportning 93 foizni xom ashyo mahsulotlari tashkil etar edi.

Buxoroda paxta maydonlarining kengayishi don va g'allani kamaytirib, ularning Rossiyadan olib kelishi 4 barabobarga ortdi. Shaharga **neft mahsulotlari, metall, to'qimachilik mahsulotlari, chinni yog'och materiallari** olib kelish yil sari ortib borgan.

Rossiyaning Buxoro bilan savdosi rus tijorat kompaniyalari va vositachilari qo'lida edi. Shaharda 7 ta hususiy bank bo'limlari o'z mablag'larini turli sohalariga yo'naltirgan edi. Masalan, Rus banki qorako'l savdosiga, Sibir savdo banki paxta savdosiga, Azov Don banki paxta sanoatiga kredit ajratgan.

Savdo operatsiyalarini kreditlashtirgan banklar asosan paxta savdosiga katta e'tibor qaratganlar. Banklar bilan bir qatorda **xorijlik sarmoyadorlar, mahalliy boylar, xattoki amir** ham savdo sohalariga faol pul tikkanlar.

Shaharda o'nlab **rus va xorijiy firmalar, kontoralar paxta, qorako'l** va boshqa mahsulotlar savdosiga sarmoya tikib, katta daromad ko'rganlar. Shaharda ochilgan Davlat bankining sarmoyasi 90 millionga yetar edi. Buxoroda **Bolshoy Yaroslavl manufakturasi, aka-uka Shlosberglar, Vadyayevlar, Potelyaxovlar, Dyurshmidt, Lyudvig Rabinek, Morozov savdo firmalari** tashkil etildi.

Buxoro shahri qorako'l savdo markaziga aylandi. Bu yerga qorako'l sotib olish uchun rus va xorijiy firmalar, nemis va fransuz sarmoyadorlari kelardi¹. Ular mahalliy junga ham xaridor edi. **"REICHARD VRO"** nomli ingliz firmasining vakili **Reyxardt** jun sotib olgan. Rus savdogarlari bundan tashvishlanib, raqobatga yo'l qo'ymaslik uchun qator kengashlar o'tkazishgan².

Shaharda va shu jumladan, butun mamlakatda ham ko'tara savdo, savdo-kredit tizimi hamda sanoat korxonalari rus sarmoyadorlari nazorati va qo'l ostida edi. Ammo ular mahalliy boylar va savdogarlarni butunlay chetlata olmadilar an'anaviy savdo va hunarmandchilik tizimi ham saqlab qolindi.

Rus sarmoyadorlari paxta xom ashyosini qayta ishlash korxonalariga katta e'tibor qaratganlar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shaharda paxta tozalash korxonalari paydo bo'lib, ularning amirlikda umumiy soni qisqa fursatda 29 taga yetgan. Shulardan 5 tasi Buxoro shahri va uning atroflarida edi. Shuningdek, shaharda **yog'-moy, g'isht, vinochilik, tamaki korxonalari, tegirmonlar** ham paydo bo'ldi. Shaharda jami korxonalar soni 50 taga yetdi³.

¹ Хакимов К.З., Кравец Л.Н. Социально-экономические отношения и классовая борьба в дореволюционном Узбекистане. Ташкент, 1980. С.104-105.

² Хакимов К.З., Кравец Л.Н. Социально-экономические отношения и классовая борьба в дореволюционном Узбекистане. Ташкент, 1980. С. 105-106.

³ История Уз ССР Том Второй. Ташкент. 1968. С. 379.

Paxta tozalash korxonalari faoliyati jarayonida Rossiyaning sanoat markazlari, xususan, **Moskva, Ivanovo, Voznesensk, Lodz** kabi markazlar bilan mustahkam aloqalar yo'lga qo'yildi. Rus sarmoyadorlari katta daromad ilinjida hususiy banklar orqali mablag' tikib, yaxshi foyda ko'rdilar.

Shaharda sanoat rivoji **Staxeyev konserni** faoliyati bilan bog'liq edi. 1916 yilda Staxeyev Buxoro hukumatiga savdo va sanoatning foydali tarmoqlarini rivojlantirish taklifi bilan chiqib amir ruhsati bilan **tegirmon, yog'-moy zavodi, jun yigirunchi fabrika, temir yo'l stansiyalariga muzlatkich** qurishni rejalashtirgan. U tez orada Buxorodagi sanoat ishlab chiqarishni o'z qo'li ostiga olgan, 1917 yilda esa boshqarmasi Buxoroda joylashgan **Rus-Buxoro bankini** ta'sis etishga ruhsat olishga erishadi. Buxoro amiridan paxta uchun yer olib, kanal qurishga kirishadi.

Shu tariqa rus sarmoyadorlari Buxoro bozorlari va resurslarini egallab boradilar.

Mahalliy sarmoyadorlar esa, o'z mablag'larini ishlab chiqarishga emas, balki ko'chmas mulkka sarflaganlar. Shunga qaramay mahalliy aholi o'rtasida yirik tadbirkorlar, savdogarlar paydo bo'la boshladi. Ular katta sarmoya to'plab, rus sarmoyadorlari, banklari va firmalarni monopoliyasidan qutulib, iqtisodiy mustaqillikka intila boshladilar.

Mamlakatda yangi iqtisodiy infratuzilmalar hamda pul-tovar munosabatlarining shakllanib borishi bilan mahalliy aholiga mansub mayda va o'rta savdogarlarning soni ortib bordi, ular asosan **hunarmandchilik, kosibchilik, dehkonchilik va chorvachilik mahsulotlari** bilan savdo qilar edilar. Buxoro shahrida 20.000-50.000 sarmoyaga ega bo'lgan 100 ta yirik savdogar, 100.000 dan bir necha million rublgacha sarmoyaga ega bo'lgan 10 dan ortiq savdogar va sanoatchilar bor edi¹. Buxoro amirining o'zi jahon bozorida **qorako'l savdosi** bo'yicha uchinchi o'rinda turar edi.

1916 yilda buxorolik savdogarlar paxta sotish va sotib olish bo'yicha o'zaro uyusha boshladilar². Mahalliy sarmoyani birlashtirish, Buxoro bozorlarida hukmronlikni o'z qo'llariga olish maqsadida 8 ta mahalliy paychilar tomonidan tuzilgan ushbu jamiyatlar biri 15 so'mlik aksiyalarga ega edi. Uni ana shu 8 paychi a'zolaridan iborat vaqtinchalik boshqarmasi boshqarar edi.

Mazkur savdo uyushmasining dasturida aholini xonavayron bo'lishdan qutqarish, mahalliy kapitalni markazlashtirish, davlat xazinasini boyitish kabi vazifalar belgilangan edi.

Ammo allaqachon bozorlarni egallab olgan rus sarmoyadorlarining hukmronligi sharoitida buni amalga oshirish oson emas edi.

Karmana shahri amirlikning ikkinchi poytaxti xisoblangan, bu hol **shaxzoda Abdulaxad nomi bilan bog'liq** edi. O'n sakkiz yoshda **Karmana begi** etib tayinlangan. Abdulahadxon shahar qurilishiga alohida e'tibor berib, Nurota tog'laridan toshlar olib keltirgan. Shahar paxsa devor va bog'lar bilan o'ralgan. Uning markazida bek ko'rg'oni joylashgan. 1870 yilda shahar da bo'lgan

¹Гафаров Н. История культурно-просветительской деятельности джадидов в Бухарском эмирате. Ходжент, 2000. С. 31

²Гафаров Н. История культурно-просветительской деятельности джадидов в Бухарском эмирате. Ходжент, 2000. С. 33.

Krestovskiyning qayd etishicha, bek kurg'oni xududida 400 ta, kurg'on devorlaridan tashqarida ham 400 ta xonadon bo'lgan³. Demak, shahar aholisining nufuzi o'rtacha 5.000 atrofida bo'lgan.

Karmanada aholi ko'p va zich, suv tanqis bo'lsa-da, Buxoroga nisbatan o'zining sog'lom iqlimi va toza havosi bilan farq qilgan. Shahar keng bog'lar bilan o'ralgan. Zarafshon daryosi bo'ylaridagi to'qaylar esa, ov uchun juda qulay, ovloq joy bo'lgan. 1894 yilda amir Buxoroning ob-havosi va iqlimi sog'lig'iga to'g'ri kelmayotganligini ro'kach qilib, tug'ilib o'sgan shahri **Karmanaga** ko'chib, u yerda o'ziga alohida qarorgoh — saroy qurdirdi va umrining oxirigacha shu yerdan turib, amirlikni boshqardi. **Karmana amir qarorgohiga** aylandi.

Keyinchalik Karmanada amirga qarashli bir qancha **saroylar bog'lar, dala xovlilari** barpo etilgan. Aholisi 10.000 kishidan ortgan. Karmananing iqlimi juda yaxshi va xavosi toza bo'lgan. Aholisi zich joylashgan. Shahar atrofi bog'lar bilan o'ralgan. Karmana shahri atrofidagi bog'larda ko'p asrlik chinor daraxtlari bo'lib, ularning ichida xosil bo'lgan kovaklarga bimalol uch-to'rt kishi siqqan.

Amir Abdulaxadxon davrida Karmanada obodonlashtirish ishlariga katta e'tibor berilgan, yangi bog'lar bunyod etilgan saroylar barpo etilgan. Karmanada amirlik xukmdorlarining **Charmgar chorbog', Gul chorbog', Xayrobod, Sarmishsoy va Uchtutda dala xovlilari** bo'lib, Amir Abdulaxadxon ularni obod qilishga katta e'tibor bergan. Ayniqsa, amirning Karmanadagi Charmgar chorbog' va Gul chorbog' juda yaxshi obod bo'lib, turli navdagi **atirgullari va uzumlari** bilan mashhur bo'lgan. Bu yerga xoriждан ko'plab mevali va manzarali daraxtlar olib kelib eqilgan. Bog' atrofida soyali daraxtlar ekilgan, hovuzlar ham ancha bo'lgan. Abdulahad **Charmgar chorbog'dagi** saroyida mahalliy shoirlar, olimu-fuzalalar ishtirokida she'riy kechalar o'tkazib turilgan.

"Mirzo chorbog'" **dagi saroy** qurilishida yuzlab taniqli ustalar ishlaganlar. Masalan, Usta **Shirin** Karmanada 15 yil davomida **Askarobod, Charmgar chorbog', G'ulzor bog', Bog'i olchin, Jar chorbog', Mirzo chorbog'larni** qurish va bezash ishlarida qatnashgan.

"Mirzo chorbog'" **dagi saroy asosan yog'och va g'isht (cho'pqori)dan** qurilgan bo'lib 20 ta xonasi bor edi. Saroy ichi nafis o'ymakorlik va naqshinkorlik **san'atining** g'oyat go'zal, noyob uslublari bilan bezatilgan. Amir mehmonxonasining g'arbiy tomonida yana bir o'n xonali bino bo'lib, u arxitekturasi jihatidan soda ko'rinishli, bo'lsa-da, murakkab geometrik shaklda qurilgan. Bino xonalarining ichi ham sharqona usulda bezatilgan. Shahar qo'rg'onida bekning alohida karvonsaroyi va hindlarga qarshi alohida karvonsaroy faoliyat yuritgan¹.

Abdulahadxon davrida Karmananing Zarafshon daryosi sohili qismidagi changalzorlar tozalanib, hovlilar, bog'lar uchun yer ajratilgan. **Qalqonota, Uchtut, Ijand** kabi joylarda ekinzorlar ko'payib borgan.

1885 yilning boshida Karmanadan 8 chaqirim janubda temir yo'l o'tkazildi. 1888 yilda bu yo'l **Samarqand shahrigacha** yetkazildi. 1895 yildan temir yo'l yanada uzaytirildi.

³Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского. СПб., 1887. С.412.

¹Остатов О.А. Зарафшон — воясида хунармандчилик, тadbirkorlik va savdo-сотик (XIX asr oхири - XX asr бошларида) Тошкент, 2013.656.

1894 yildan amir Abdulahadxonning ijozati bilan Karmana temir yo'l bekatida paxta tozalash zavodi ish boshladi². Abdulahadxon davrida **Kattaqo'rg'on**dan **Buxorogacha** Karmana orqali telegraf simi tortildi.

1894 yildan umrining oxirigacha Amir Abdulahadxon amirlikni **Karmanadan** boshqargani uchun shahar **ikkinchi poytaxt** bo'lib qoldi.

Qarshi shahri shu nomli beklik markazi bo'lib, Buxoro shahridan janubi-sharqda, **Qashqadaryo quyi oqimining** so'l qirg'og'idagi tekisliklarda joylashgan. Shahar devor bilan uralgan. Shahar nafaqat savdo markazi, balki siyosiy markaz sifatida ham mamlakatda Buxoro shahridan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Qarshi shahrida taxt vorisining qarorgohi joylashgan.

XIX asming birinchi yarmida shahar **O'rda (ark), ko'rg'on va qaladan** iborat bo'lgan. XIX asr oxirlariga kelib shahar xududi ancha kengaygan. Shahar markazidagi maydonda 4 ta madrasa, hammom, masjid, valiaxd, qo'shin va bek joylashgan qarorox bo'lib atrofi minorali va uch darvozali devor bilan o'ralgan. Shahar devori esa, zovur bilan o'ralgan. Shaharga minorali uch darvoza orqali kirilgan. Bu devor tashqarisida beklilikning nufuzli kishilaridan iborat aholi yashagan.

Shaharning mazkur eski qismi 20 dan ortiq guzarlardan iborat bo'lgan. Guzarlar nomi kasb-hunar mahalliy elat va joy nomlari bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, **Temirchi, Xolvagar, Kulol, Chilangaron** mahallalari yoki **Eroni guzar, Xitoy guzar** yoki bo'lmasa **Xonaqo, Beklarbegi** va h.o

Shaharning bosh maydoni - **registonda bozor va savdo rastalari, Madrasa, jomye masjidi, va karvonsaroy** joylashgan. Mazkur hududda **bozorlar, hammom, yuzlab savdo yoymalari, yopiq karvonsaroylar** joylashgan bo'lib, atrofi **dala-hovlilar, uzumzor, poliz va bog'lar** bilan o'ralgan.

Shahar ko'chalari nisbatan keng va ozoda, markaziy ko'chalariga tosh yotqizilgan, ariqlari ko'p bo'lgan. Shahar va uning atrofi bog'lar bilan o'ralgan. Shaharda mingdan ortiq uy joy bor edi, ular orasida ikki qavatli uylar ham bo'lgan¹. Demak, bu davrda shahar aholisi 6.000-7.000 atrofida bo'lgan deb taxmin qilishga asos bor. Qarshi yirik savdo markazi bo'lgani sababli mahalliy bozori juda katta, **rastalar, yoyma do'kon va yopiq saroylar** ko'p edi. 1870 yillarda shahar bozorida 1.400 ta do'kon bo'lib, xaftada bir kun butun chekka hududlardan 10.000-15.000 xaridor kelgan².

Shahar bozorlarida nafaqat mahalliy mahsulotlar, balki **fransuz sovuni, deraza oynalari, sifatli idish-tovoqlarni** ham uchratish mumkin edi.

Qarshi muhim dasht yo'llari kesishgan shahar bo'lib **Termiz, Qarshi, Burdalik, G'uzor, Shaar (Shahrisabz), Samarqand** kabi joylardan keladigan yo'llarni bog'lagan. Buxoroga sharqdan va janubi-sharqdan, Hindisgondan keladigan karvon yo'llari shu shahar orqali o'tib, zakot solig'ini to'lagan va so'ngra Buxoroga yo'l olgan³. Shu bois, shahar mamlakatdagi muhim savdo markazi hisoblangan. Har haftada 1 marta bo'ladigan bozor kunlari 6.000-15.000 bosh **tuya, ot, echki, qo'y** kabi chorva mollari olib kelingan. Bozorga turkman va o'zbek chorvadorlari **gilam,**

²Иноятов С., Юлдашев Н., Хамтова О. Қўҳна тарих гувоҳи. Тошкент, 2000 366.

¹ Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского. С.220.

² "Туркестанские ведомости". 1872, № 34. 29 августа.

³ "Туркестанские ведомости". 1872, №3 4. 29 августа.

polos, egar, echki juni olib kelganlar. Bozorga atrof qishloqlardan nafaqat chorva, balki bog' dorchilik mahsulotlari, arablar to'qigan gilamlar, **don, tamaki** keltirilgan. Shu bozordan atrof qishloqdagilar ko'pchilik mahsulotlari, Rossiyadan keltirilgan sanoat mahsulotlarini olib ketishgan. Shahar atrofi dashtdagi ko'chmanchi turkmanlar uchun eng yaxshi savdo joyi edi.

Qarshida karvonlar uchun yuk tashuvchi otlar ijaraga olingan. Shahar Buxoro vohasini Shahrisabz va Hisor bilan bog'lovchi tranzit punkt ham edi. Shaharda 3 ta karvonsaroy faoliyat yuritgan.

Bozor ko'chasi **Chorsu orqali Registon maydoniga** olib chiqqan, Registonning 2 tomonida esa, **Abdullaxon madrasasi va Jome' masjidi** joylashgan. Qolgan ikki tomoni savdo rastalari bilan to'lgan. Janub tomonida gumbaz ostidagi sardoba va **G'oli madrasasi** joylashgan. Registonga tutashgan 4 ta asosiy shahar ko'chalaridan biri yangi qurilgan **Sher Muhammad madrasasiga** olib borgan. Shahar bozori qarshisida **Ko'k Gumbaz jome' masjidi** joylashgan. Jami 16 ta masjid va 12 ta madrasa bo'lib, ular shahar ning madaniy xayotida muxim o'rin tutgan¹.

Qarshi hunarmandchilik sohasida ham o'z o'miga ega edi. Shahar hunarmandlari olacha **matosi, qog'oz va yarim ipak matolari** bilan mashhur bo'lib, shahar ichida va uning atrofida 5.000 ga yaqin to'qimachilik dastgohlari bo'lgan. Shaharda 25 ta yirik to'kuvchi tadbirkorlar faoliyat yuritgan. Yirik tadbirkorlar qo'lida 40 ga yaqin dastgoh, 60 ga yaqin yollanma ustalar, shogirdlar faoliyat yuritgan.

Shaharda **ko'pchilik** ham yaxshi rivojlangan bo'lib, **qo'y, echki va xattoki eshak** terisiga ishlov berishda katta tajribaga ega bo'lishgan. Bundan tashqari, shaharda **temirchilik, kulolchilik, xattotlik, chilangarlik, misgarlik, yog'och ustachiligi, qandolatchilik** kabi hunarmandchilik turlari keng rivojlangan.

Qarshida jun va jundan tayyorlangan maxsulotlar - **gilam, palos, korjoma, qoplar** juda xaridorgir bo'lib, turkmanlar, dasht aholisi tomonidan sotib olinar edi. Ayniqsa, **Qamashida** tayyorlangan gilamlar mashhur edi.

Tut daraxtlari juda ko'p bo'lsa-da, **ipakchilik** u qadar rivojlanmagan, ipak **Buxoro, Samarqand va Shahrisabzdan** olib kelingan. Qarshida tamakichilik rivojlangan bo'lib, shahar butun mamlakatni ta'minlagan. Bu yerda **nosfurushlar** savdo qilganlar. Qarshi mis buyumlari bilan ham mashhur edi. Shahar aholisi 1911 yilga kelib 70.000 ga yetgan².

Shahrisabz shu nomli beklik markazi bo'lib, kattaligi jihatidan Buxoro amirligida 3 o'rinda turgan. Shahrisabz shahri ham XVIII-XIX asrlarda paxsa devorlar bilan o'ralgan bo'lib 6 ta darvozasi bo'lgan. Shahrisabz begining qo'rg'oni xalq orasida "**Shahrisabz Afrosiyobi**" deb nomlangan³. Shahar markazida qo'rg'on bo'lib, bu yerda Shahrisabz begi va uning yaqinlari istiqomat qilgan. **Bek Qo'rg'oni** oldida shahar maydoni - Registon joylashgan. Shahar markazida **Chorsu bozori** bo'lib, shahar darvozalariga boruvchi yo'llar shu bozordan boshlangan.

¹ Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского. С.220.

² Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. С. 186.

³ Кадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар. Масъул муҳаррир А.С.Сагдуллаев, Тошкент, 1988 йил, 173-бет.

Shahar to'rtburchak shaklidagi devor bilan o'ralgan, har to'rt tomondan jami 6 ta darvoza bo'lgan 4 ta asosiy darvozalardan shahar markazidagi dumaloq shakldagi markazga olib boradigan yo'llar tushgan.

Shahar 52 ta guzarga bo'lingan⁴. Har bir guzarning o'z masjidi bo'lgan. Guzarlarda 20-30 ga dan 100 tagacha xonadon bo'lgan. Jami shaharda 4.000 gacha xonadon bo'lib, aholisi asosan o'zbeklar bo'lgan. 1913 yilga kelib esa, aholi nufuzi 30.000 ga yetgan¹.

Shahar markazidagi guzarlarda imtiyozli ulamolar, **Xazrati shayx, Xazrati imom** yashaganlar. Shimoli g'arbdagi **Eshonguzar va Xojiguzarlarda ham xo'jalar, korilar** ko'p bo'lgan, ammo ular imtiyozli tabaqa bo'lmay, dehkonzilik, hunarmandchilik bilan kun ko'rganlar.

Shahar savdo markazi bo'lgani tufayli mayda va yirik savdogarlar ko'p bo'lgan. Mayda savdogarlarning shahar bozorlarida o'z yoymalari bo'lib, ayni bir tovar bilan savdo qilishga ixtisoslashganlar. Yirik savdogarlar esa, boshqa shaharlar bilan savdo qilganlar. Shaharda 1860 yillarda 7 ta karvonsaroy faoliyat yuritgan². Shaharning savdo aloqalaridagi nufuzi ortib borib, XX asr boshida karvonsaroilar soni 28 taga yetgan³. Chunki Buxoro amirligining barcha qismidan Shahrisabz bozorlariga mahsulotlar keltirilgan. Shahrisabzda boshqa shaharlar bilan savdo qiluvchi yirik savdogarlar bo'lib, ular asosan bozor yaqinidagi markaziy guzarlarda yashaganlar.

Shaharning janubiy sharqidagi **katta charmgar, kichik charmgar va meshgar guzarlarida** ko'pchilar yashagan. Jami 150 xonadonni egallagan ko'pchilar nohush xidli **tagcharm, charm qayroqi (echki terisi)** tayyorlanganligi uchun shahar darvozasiga yaqin yoki yalang joylarda joylashganlar, **kemuxtar (yashil teri)** tayyorlagan ko'pchilar markaziy guzarlarda yashaganlar. Ko'pchilar tayyorlagan teri bozor va tog'li hududlarga ham olib ketilgan. Shaharda **etikdo'z, qamishdo'z, sovungar, shamgar, sandiqchi, kulollar, temirchi, charxchi, telpakdo'z, po'stindo'z** kabi kasb egalari ham faoliyat ko'rsatganlar. Ammo to'quvchilik boshqa shaharlardagi kabi keng rivojlanmagan. Shaharda 2 ta hamom bo'lib, ular davolovchi xususiyatlari bilan mashhur bo'lgan.

Shahrisabz bilan yonma-yon joylashgan **Kitob shahri** shu nomdagi beklik markazi bo'lib, atrofi 4.600 verst uzunlikdagi devor bilan o'ralgan. Shaharga 6 ta darvoza orqali kirilgan, darvozalarni 1.012 ta sarboz qo'riqlagan.

Shahar markazida **bek qo'rg'oni** joylashgan bo'lib, u yerda **saroy, sarbozxona, otxona, masjid, 2 ta kabulxona, ichki xovl (xovuzi bilan), ayvon** mavjud bo'lgan. Ichki hovlida saroy masjidda amir tez-tez bo'lib turar, uning 250 kishilik sarbozlari bu yerda doimiy yashar edi. Qo'rg'on oldida esa, Registon maydoni joylashgan, uning yonida shahar bozori bor edi. Kitob shahri 71 ta guzarga bo'lingan. Shahar aholisi 18.500 kishini tashkil etgan.

Aholining asosiy qismi o'zbeklar edi. Guzarlarning ko'pi kasb-hunar nomi bilan bog'lik bo'lib, bu hol usha davr shaharlarning deyarli barchasiga xos xususiyat

⁴ Кадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар. Масъул муҳаррир А.С.Сагдуллаев, Тошкент, 1988 йил, 173-174-бетлар.

¹ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С.680.

² Кум Л. Очерки Шахрисабского бекства. ЗИРГО. Т. СПб., 1880. С.224.

³ Масальский В.И. Туркестанский край. СПб., 1913. С. 666.

edi. Shaharda **kulolchilik, ip va ipakda gazlama to'qish (bo'z, olacha, ipak), zardo'zlik** kabi hunarlar keng tarqalgan¹.

Ayniqsa, **to'qimachilik** keng rivojlangan. XX asr boshida bu yerda yirik tadbirkor usta Tursunjonning qo'l ostida 1000 ga yaqin to'qimachilik dastgohi bo'lib, 28 ta qozon qaynab turgan. Bu yerda **paxta, ipak, yarim ipak matolar** to'qilib Shahrisabz bozorlarida sotilgan, Rossiyaga olib ketilgan¹.

Kitob shahrida 6 ta karvonsaroy, 1 ta hammom, 3 ta madrasa, qator **bozorlar, masjidlar** bor edi. Kitob shahrida har bir guzarda 1 tadan masjid bo'lgan.

Bundan tashqari, amirlikda bekliklar markazi bo'lgan o'rtacha kattalikdagi **Sherobod, G'uzor, Ziyovuddin, Xatirchi Chorjuy** kabi shaharchalar ham bo'lgan.

G'uzor shahri **G'uzor** bekligining markazi bo'lib, bu yerga odatda mamlakat hukmdorining taxt vorislari bek qilib tayinlangan. Mamlakatning janubiy qismidan to'planadigan soliqlar G'uzorda jamlanib, amir xazinasiga yetkazilgan. G'uzor bekligining yerlari bek uchun **"mulki huri xolis"** qilib berilgan. G'uzordan mamlakatning g'arbiy va sharqiy viloyatlarini bog'lovchi savdo yo'llari o'tganligi sababli G'uzorning mavqei katta edi². G'uzor shahri qo'rg'oni G'uzor daryosi bo'yidagi tepaliklardan birida joylashgan bo'lib, bog'lar bilan qoplangan ozoda, iqlimi yaxshi havosi toza shaharcha edi³. Shaharning **Qarshi, Kunchiqar va Charmgar** nomli darvozasi bo'lgan, atrofi bog'lar bilan o'ralgan edi⁴. **Ko'k darvoza** tashqarisida O'rda joylashgan 40 xona, 2 ta qabulxona mavjud edi.

G'uzor shahrida XIX asr oxirida shahar markazida devorlar bilan o'ralgan **katta qo'rg'on** qurilgan. Asosan beklik hukmdori To'ra va amaldorlar yashaydigan bu qo'rg'onning paxsa devorlarining qalinligi 2 metr, balandligi 4-5 metr bo'lgan.

Qal'a ichida **bozor, uzun ko'cha, maydonchadagi** baland minora va masjidlardan iborat majmua barpo etilgan⁵. 1900 yilda **G'uzor begi** o'zi uchun **Sitorai Moxixosa** saroyiga monand qilib katta bino barpo qilgan. Bino **ustunlar, eshiklar, shift sinchlariga** bezaklar qilinib, pardoz berilgan. Imorat oldida katta bog' - bek uchun oromgoh bo'lib, bu yerga Hindistondan keltirilgan daraxtlar ekilgan, marmar hovuz quriladi. Havfsizlik maqsadlarida qo'rg'onidan oromgohgacha yer osti yo'li o'tkazilgan.

G'uzor shahrining aholisi 10.000 kishi atrofida bo'lib, bu o'sha davrdagi o'rtacha shahar aholisiga to'g'ri kelgan. G'uzorda yahudiylarning o'z ko'cha, mahalla, bozorlari bo'lgan. Ular mato bo'yash va non yopishda tengsiz edi⁶. XX asr boshida **G'uzor shahri** markazida Sultonxon to'ra buyrug'iga ko'ra **"Oqsaroy"** karvon saroyi, usti yopiq bozor barpo etilgan⁷.

¹ Кадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар, 177-179 бетлар.

¹ Абдурасулов Р. Р., Ремпель Л. И. Неизвестные памятники архитектуры бассейна Кашкадарьи // Из материалов искусствоведческой экспедиции института искусствознания АН РУз. 1961 г. Ташкент. 1962. С. 13.

² Логофет Д. Н. В горах и равнинах Бухары. СПб., 1913. С. 62.

³ Очерки Бухарского ханства. Две недели в Шахрисабзе // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Выпуск V СПб., 1879. С. 137-138.

⁴ Яворский И. Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству 1878-1879 гг. СПб., 1882. С. 64.

⁵ Логофет Д. Н. В горах и равнинах Бухары. СПб., 1913. С. 62-63.

⁶ Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству 1878-1879 гг. СПб., 1882. С. 64.

⁷ Чориев З., Жўраев А. Гўзур тарихидан лавҳалар. Қарши, 1997. 96.

Beklikda savdo yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, g'alla va paxtadan katta daromad tushgan. G'uzorda payshanba bozor kuni bo'lib, unda **tuz, yog'och, qoramol va qo'y** savdosi bo'lgan. B u yerga **Qarshi, Buxorodan** savdogarlar mol ayirboshlash uchun kelishgan¹.

G'uzor shahridan janubga savdo yo'llari o'tgan². 1890 yillarda **Samarqand-G'uzor-Termiz** magistral yo'lining qurilishi, 1892 yilda **Buxoro-Termiz temir yo'li** **G'uzor orqali Shaxrisabzgacha yetkazilishi**, 1912-1915 yillarda **Buxoro-Qarshi-G'uzor-Kitob temir yo'li qurilishi** shahar hayotini yanada jonlantirdi. Shaharda pochta tarmog'i³, 1913 yilda esa, **G'uzor-Termiz magistral yo'lining qurilishi**, 1892 yilda esa, bojxona xizmati ochilishi bilan beklikning mintaqadagi mavqei yanada oshdi.

Beklikda **chorvachilik** keng tarqalgan bo'lib, **mayda qoramol, qo'y, echki, teri, jun, sut mahsulotlari** sotilgan⁴, uzum yetishtirilib, undan mayiz tayyorlangan va metropoliyaga jo'natilgan⁵. Shahar markazida **qo'y, qoramol, g'arbda, Qarshiga** chiqishda esa, **ot, tuya va eshak** sotilgan. G'uzor bozorlariga 200.000 ga yaqin **qo'y** kiringan.

G'uzor g'allasi to'yimli, navi pishiq, serhosilligi bilan butun Buxoroda nom chiqargan⁶. Shu sababli G'uzorda g'alla-don mahsulotlari savdosi qizg'in bo'lib, bu yerdan **Xiva, Karki, Chorjo'y va Termizga** g'alla olib ketilgan. G'uzor bekligida qishloq xo'jaligi va chorva mahsulotlari ko'pligi nazarda tutilib, bu yerda **paxta, jun, ipakni** qayta ishlash zavodlari ishga tushirilgan⁷. G'uzorda afg'onlarning alohida savdo do'konlari bo'lgan. G'uzor orqali **hind-ingliz kompaniyalari** ham mamlakatdagi boshqa shaharlar bilan savdoni yo'lga qo'yadilar⁸. Rus ma'muriyati bu shaharga alohida e'tibor qaratib, uni doim o'z nazoratida saqlagan⁹.

Shaharda hunarmandchilikning **shoyi, atlas, surp, movut, olacha** kabi mato tayyorlash turlari, **ko'ncilik mahsulotlari** keng ishlab chiqarilgan va ular sifatli hamda xaridorgirliigi sababli qo'shni shaharlarga ham yetkazilgan. G'uzor aholisi **kashtachilik, ko'ncilik, temirchilik, degrezlik, zargarlik** kabi hunarlarning ustasi edi. Bu yerda **chitga qizil-qora, ko'k nil buyoqda gul bosish** rivojlangan¹⁰. **Naqshli dasturxon va gulko'rpalar**, yanada jimjimador **gazmollar, baxmalsimon, qora, to'q qizil va mato** rangidagi chitlar ajralib turgan¹¹.

¹ Костенко Л. Туркестанский край - опыт военного статистического обследования Туркестанского военного округа. СПб., 1880. С.117.

² Костенко Л. Туркестанский край - опыт военного статистического обследования Туркестанского военного округа. СПб., 1880. С. 118.

³ Логофет Д.Н. Бухарское ханство и его современное состояние. СПб., 1909. С. 139.

⁴ Лукин Б.В. История Узбекистана в источниках: Узбекистан в сообщениях путешественников и ученых (20-80 г. XIX в.) Ташкент. 1990. С.61.

⁵ Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том II, СПб., 1911. С. 104.

⁶ Кашкадарьская область. Т.1. Ташкент, 1959. С.165.

⁷ Сухарева О. А. Бухоро хонлиги шахарлари тарихига доир. Тошкент, 1958. 126б.

⁸ ЎзР МДА, 126-жамгарма, 916-йигма жилд, 2-парақ.

⁹ Галкин А. Краткий очерк Бухарского ханства. //Военный сборник. №11.СПб., 1890. С.67.

¹⁰ Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 гг. С.64.

¹¹ Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 гг. С. 65б.

G'uzorda **zargarlik** ham rivojlangan. Zargarlar **bosh, quloq, peshona, chakka, soch, bo'yin, bilak va kukrak** uchun **bezaklar** tayyorlaganlar¹. Zargarlar **qoplama, zarb, o'yima, durdona, kumush bosish, naqsh berish, kavak, emal, feruza, mozaika** kabi usullarning ustalari bo'lib, kimyoviy bilimlari ham yuqori bo'lgan². Zeb-ziynatlar asosan afg'onlarga sotilgan. O'rta hol aholi uchun **arzon metal va toshlardan** ham nafis taqinchoqlar yasalgan. Shahardagi **bek qo'rg'onining** janubiy qismida **qorixon masjidi**, janubi-sharqiy qismida esa, **Qorixon madrasasi** joylashgan. 1913 yilda **Qorixon madrasasi** o'miga **Elmurodboy madrasasi** qurilgan. **G'uzor daryosining** o'ng tarafidagi **G'uzor masjidi qo'rg'onidan** 300-400 metr janubi-sharqda, **Eskibog' darvozasi** ro'parasida joylashgan.

Sherobod shu nomli beklik markazi bo'lib, **Sherobod daryosi** vohasidagi juda qadimgi shaharlardai edi. Shahar amirlikdagi muhim ma'muriy va savdo markazi edi. Bu yerga **Balx va Buxoro savdogarlari** yashagan. Atrofdan **paxta, qo'y** sotib olinib, **Qarshi va Buxoroga** jo'natilgan. Sherobod vohasi juda boy hudud edi.

Sherobod istehkomi juda baland tepada qurilgan bo'lib, 3 qator devor bilan o'ralgan. Markazda bekning uyi joylashgan bo'lib, u ham bir istehkom hisoblangan. Bu yerdagi mehmonxonadan (ayvoni bilan) butun shahar ko'ringan.

Sherobod juda qadimgi shaharlardan bo'lib, aholisi XX asr boshida ayrim manbalarga ko'ra, 3.000 kishini³, yana bir boshqa manbaga ko'ra, 20.000 kishini tashkil etgan⁴. Shaharda 1 ta karvonsaroy, 34 ta tegirmon faoliyat yuritgan⁵. Aholisi **guruch va paxta** yetishtirish va sotish bilan shug'ullangan. **Chiroqchi** shu nomli beklik markazi bo'lib, Qashqadaryoning chap sohilida joylashgan, serhosil bog'lar bilan qoplangan. Bu yerda muqaddas ziyoratgoh - **Chiroqchi ota** qabri joylashgan. U sopoldan yoritqich tayyorlagani uchun shu hunar sohiblarining biri hisoblangan. Bu shahar bug'doy savdosi bilan mashhur bo'lgan, chunki unga tutash tog' bag'ri hududlari juda serhosil bo'lgan.

Bu yerdagi bozor dashtdagi ko'chmanchilar va vohadagi o'troq aholi o'rtaqidagi vositachilik rolini bajaradi. Davlat ahamiyatiga ega. Shahar yaqinida bir nechta qadimgi qo'rg'onlar janubi-sharqdan keladigan hujumlardan mudofaa qilib turgan. Shahar xududi notekis bo'lib, uylari paxsa devordan qurilgan, derazalari ichkariga qaragan. Faqatgin ustaxonalamiki ko'chaga qaragan. **Chiroqchi bekining O'rdasi** bir necha hovliidan iborat bo'lib, bu yerda shaxzoda **Otajan to'ra** yashagan.

1911 yilda qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, Chiroqchi aholisi 5.000 kishni tashkil etgan⁶.

Karki (Kerki) Amudaryoning chap qirg'og'ida joylashgai bo'lib, Buxoro amirligiga qarashli bu hudud ilgari chegara ahamiyatiga ega bo'lgan. Amir bu hududda hamisha harbiy kuch saqlagan. Baland tepalikda bek qo'rg'oni joylashgan Karki qadimdan muhim savdo markazi hisoblangan. Afg'onistondan keladigan

¹ Суҳарева О.А. Позднефеодалный город Бухара конца XIX - начала XX века. Ташкент. 1962. С.49.

² Кузнецова Н.А. Ремесленные рисале // Краткое сообщение института востоковедения М., 1959. Вып. XIX. С.80-83.

³ Кузнецова Н.А. Ремесленные рисале // Краткое сообщение института востоковедения. С.80-83.

⁴ Гейер Н. И. Путеводитель по Туркестану. С.132.

⁵ Турсунов С. Шерободликлар. Тошкент. 2006. 63б.

⁶ Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. С. 186.

savdo karvonlari shu yerdan o'tib, G'uzor va Shahrisabz orqal Samarqandga borgan¹. Karkidagi Amudaryo kechuvi, Buxoroning Afg'oniston bilan savdo aloqalarida muhim o'rin tutgan. Karki beki huzurida turkmanlardan soliq to'plash, ularning talon-tarojlaridan himoyalaniish uchun doimo sarbozlar va navkarlar xizmatda bo'lgan. Bek qo'rg'onining ostonasida joylashgan zindonda Buxoro amiri surgun qilgan mahbuslar saqlangan².

Shaharchada 5.000 ga yaqin aholi yashagan. Bu yerdagi bozorda **hind, afg'on va buxorolik** savdogarlar qizg'in savdo olib borishgan. Afg'on savdogarlari tuya karvonlari bilan kelib ular bilan savdo bitimlari tuzishgan.

1880 yillar o'rtasiga qadar Karki Buxoro amirligi ixtiyorida bo'lgan. 1880 yillar oxirida bu yerga rus qo'shinlari kelib joylashgan.

Kelif shu nomli beklik markazi edi. Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan. Sohil bo'yida bekning qo'rg'oni joylashgan. Bu yerdan Amudaryo orqali **Sherobod, G'uzor va Qarshidan** kelgan karvonlar o'tgan. Amudaryodan kechuv qayiqalar orqali o'tilgan. Kechuv otlar yordamida amalga oshirilgan. Suv oqimi tez bo'lgan.

Kelifning qarshi tomonidagi sohilda zakot oladigan joy va aholi foydalanadigan masjid bo'lgan. Shaharchada 190 ta xonadon yashagan³. Demak, shaharchadagi mahalliy aholi soni 1000 dan ortgan.

Polizlarda **qovun, tarvuz, mosh, beda** ekilgan. Ammo **don-dun, bug'doy, guruch, arpa** ekilmagan. Afg'onlarga tegishli **Axcha bozori** qirg'oqning narigi betida ular uchun asosiy bozor bo'lib, kelifliklar bu yerga tog'dagi tuz konlaridan tuz sotib olib, **ot, tuya, eshaklarga** ortib olib kelishgan.

Kelif aholisining asosiy daromadi 3 ta – Amudaryo kechuvidan karvonlarni olib o'tish uncha katta bo'lmagan dexqonchilik va tuya savdosi bo'lgan. Kelifdagi kechuv joyida rus bojxonasi tashkil etilgan va bu yerda suv yo'li orqali Afg'onistondan olib kelinadigan **hind, ingliz** mahsulotlari tekshiruvdan o'tkazilgan.

Yakkabog' tog' yon bag'rida joylashgan beklik markazi, Shahrisabz vohasiga tutashgan, Yakkabog' daryosining 2 sohilida tekislikda joylashgan. Janubdan baland tog'lar tutashgan, shaharning o'z qismi va bek qarorgohi bo'lgan eski qo'rg'on tekislikdan ancha baland tepalikda joylashgan.

Daryoning o'ng tarafida bozor, bozor maydoni oldida istehkomga kirishni qo'riqlovchi ikkita chiroyli minora bor edi. Istehkom paxsa devor bilan o'ralgan bo'lib, yaxshi saqlangan. Qo'rg'on o'rtasida bek qarorgohi joylashgan bo'lib, uning atrofi 2-3 qator devor bilan o'ralgan. Qo'rg'on atrofi qalin bog'lar bilan qurshalgan bo'lib, unda bir necha yuz yillik chinor bor edi laylaklar ko'p bo'lgan.

butun Shahrisabz vohasi va Yakkabog' shaharchasi kaftdek ko'rinib turgan. Qo'rg'on qarshisidagi maydonda madrasa joylashgan. Shaharning shimoli-sharqidagi harobalar uning hududi o'z vaqtida ancha katta bo'lganligidan dalolat berib turardi. Yakkabog' shaharchasining atrofi ajoyib bog'lar, manzarali tog'lar, daryolar, archazorlar, chinorlar, bug'doyzorlar va qishloqlar bilan o'ralgan¹.

¹ "Нива". 1894, №10 (3). с. 234.

² Нива. 1889. №30.

³ Масв Н.А. Очерки Гиссарского края. // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Выпуск V. С.316.

¹ "Нива". 1894, №10 (3). с. 234.

Yakkabog' beginning 50 tacha abjir o'zbek yigitlaridan iborat to'dasi har qanday sarbozlardan qolishmas edi. Yakkabog' shaharchasida yashagan aholi o'ziga to'q, ertangi kuniga ishongan, yaxshi chavandoz, o'tni sevadigan kishilar bo'lgan. 1911 yilda qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, shaharcha aholisi 5.000 kishini tashkil etgan².

Boysun shu nomli beklik markazi tog' va tog' bag'rida joylashgan hudud bo'lib, asosan o'zbeklar yashagan. Boysunda baland tepalikda qo'rg'on joylashgan bo'lib, uning atrofi bog'lar bilan o'ralgan.

Boysun aholisini **Xo'jamur baxshi daryosi**, tog' daryolari suv bilan to'la ta'minlagan. O'rta Osiyodagi eng salqin, iqlimi yaxshi, manzarasi go'zal joy bo'lgan bu xududda **tut, yong'oq, jiyda daraxti, teraklar** juda serob edi.

Aholisi 5.000 kishi bo'lib, asosan **qo'ng'iro't urug'iga** mansub o'zbeklardan iborat edi³. Boysunda yaqin atrofdagilar uchun **masjid, maktab va madarasa** faoliyat yuritgan.

Xatirchi. Xatirchi bekligining markazi bo'lgan bu shaharcha qo'rg'oni yetti paxsa devor bilan o'ralgan. Qo'rg'ondagi 2.000 ga yaqin xonadonda 5.000 dan ortiq aholi istiqomat qilgan. Bu shaharcha Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligi chegarasida joylashganligi bois o'lkadagi iqtisodiy jarayonlarga faol tortilgan. Shaharchada usti yopiq bozor – tim, savdo rastalari, do'konlar, afg'onlar, xindlar uchun alohida karvonsaroylar bo'lgan. Rus savdogarlari shaharchaga beklik xududidan keltirilgan paxta jun, teri, meva, tayyor charm, mayiz kabi mahsulotlarni sotib olganlar.

Shahar bozorida **ustaxonalar, novvoyxonalar, choyxonalar** faoliyat yuritgan. Hunarmandchilikning **zargarlik, charmgarlik, sovungarlik, mixchagar, kulolchilik, degrezlik, xolvagarlik** kabi turlari rivojlanganligi bois shaharchadagi guzarlar nomi ham shunday atalgan. Buxoro amiri otlari uchun har yili uzangilar yasalgan. Bu davrda shaharchada 2 ta madrasa va 19 ta masjid bo'lib har bir masjid yonida hovuzlar bo'lgan. **Ariqlar, xovuzlar** ichiga pishshiq g'isht terib chiqilgan, bir-biri bilan **nov yoki sopol quvirlari** orqali tutashirilgan. Bitta ariq suvi Qo'rg'ondagi 30 ga yaqin hovuzga quyilib, aylanib, chiqib ketgan. XIX asming so'nggi choragida qurilgan gumbazli **hammomda umumiy zal, issiqxona, sovuqxona, bug'xonalar** bo'lib, haftasiga 3 kun erkaklarga, 2 kun ayollarga xizmat qilgan. Ishlatilgan suvlar sopol kuvurlar orqali shahardan 2,5 kilometr uzoqlikka, qo'rg'onning g'arb tomoniga chiqarilib, u yerga **tol, terak va qayrag'och** ekilgan o'rmon bunyod etilgan.

Nurota shaharchasi shu nomli beklik markazi edi. Beklikni 1897 yildan boshlab 5 yil boshqargan **Mirza Salimbekning** qayd etishicha, shaharcha aholisi juda savodxon, ilmga intiluvchan edi. Shaharchada 24 ta masjid bo'lib, har bir masjid qoshida bittadan **boshlang'ich maktab** faoliyat yuritgan.

Shaharchada **Mozori Sangandoz (Polvon Axmadi zamchi), Shoy-ris (Bibi Sittam Tagalboz), Mozori bandi kusho (Hoja Burxoniddin Jarrox), Chilla mozori (Hoja Ubaydillo jarrox), Egizak ato, Ixlos ato, Sulfi kabutak, Shayx Abul**

² Лотофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. С. 186.

³ "Нуса". 1894, №10 (3), с. 234.

Xasan Nuriy, Shayx Ilyos, Shayx Abulxasan Rumiy, Boboumar So'fi nomi bilan bog'lik ziyoratgohlar bo'lgan¹.

Nurotada muqaddas buloq bo'lib, bu yerga butun atrof aholisi ziyoratga kelib turgan. Nurota suvining shifobaxshligi qadim zamonlardan buyon ma'lum bo'lgan. Shuning uchun mintaqaning turli yerlaridan bu yerga quturgan hayvon, ayniqsa, quturgan it tishlab kasallangan kishilar kelib, dardlariga davo topganliklari haqida xalq orasida xotiralar saqlangan.

Chashma suvining shifobahshligi, minerallarga boyligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Umuman, beklik hududida **muqaddas buloqlar va ziyoratgohlar** juda ko'p edi. Ayniqsa, **Shayx Abuxasan Nuriy va Axmad Vali Shayx Axmad Qabir maqbaralari** juda gavjum bo'lgan. Payshanba va juma kunlari ziyoratchilar soni 100.000 gacha yetgan.

1911 yilga oid ma'lumotlarga ko'ra, Nurota shaharchasida 4.000 ta aholi yashagan². Shahar aholisi hunarmandchilikning **to'quvchilik sohasi** bilan shug'ullangan, ziyoratchilar faoliyati bilan bog'liq xizmatlar ham shahar aholisining doimiy vazifasi bo'lgan.

Ko'lob shu nomli beklik markazi bo'lib, uncha katta bo'lmagan shaharchada 400 ta xonadon yashagan, atrofi bog'lar bilan o'ralgan. Bek yashaydigan qo'rg'oncha juda ko'rimsiz va past qilib qurilgan³.

Ko'lobda Buxoro amirligining 100 kishilik sarbozlari joylashgan. 1911 yilda qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, Ko'lob aholisi 10.000 kishini tashkil etgan⁴.

Chorjo'y shu nomli beklik markazi bo'lib, ilgari devorlar bilan o'ralgan, o'z qal'asiga ega bo'lgan shaharcha edi. Bu davrga kelib, shahar va istehkom devorlari ancha buzilib ketgan. Shahar aholisi 15.000 kishini tashkil etgan⁵. Shahar Amudaryo bo'yida joylashganligi bois savdo aloqalari juda faol kechgan. Shahar ruslar tomonidan egallangach 2 ga bo'linib qoldi, ammo **eski Chorjo'y**da savdo aloqalari faol davom etaveradi, chunki shahardan muhim **arava yo'llari**, uning yonida joylashgan **yangi Chorjo'y**dan temir yo'l stansiyasi o'tgan edi. Amudaryo qirg'og'ida **Amudaryo floti** kemalari to'xtagan.

Buxoro amirligida **G'ijduvon, Ziyovuddin** kabi yana qator bekliklar markazlari ham bo'lib, ular o'ziga birlashtirilgan hududlarning ma'muriy boshqaruvida muhim o'rin egallagan.

G'ijduvon shaharchasi shu nomli tuman markazi bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy aloqalarda muhim o'rin tutgan. G'ijduvon bozorlari Buxoro bozorlaridan so'ng ikkinchi o'rinda turganligi shundan dalolat beradi. G'ijduvon bozorida **qishloq, xo'jaligi, chorvachilik va hunarmandchilik mahsulotlari** bilan savdo qilingan. XX asr boshida G'ijduvon bozorida 4.000 botmongacha **paxta** sotilgan. Shaharda bir necha xorijiy savdo firmalarining bo'limlari qizg'in faoliyat yuritgan¹.

¹ Иноятов С., Хайитова О. Кармана тарих кузгусида. Тошкент, 2006. 184-185б.

² Логофет Д.Н.Бухарское ханство под русским протекторатом. С.186.

³ Масв Н.А. Очерки Гиссарского края. // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Выпуск. V. С.219.

⁴ Логофет Д.Н.Бухарское ханство под русским протекторатом. С.186.

⁵ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19.С.653.

¹ Остонов О. Зарафшон вождида хунармандчилик, тадбиркорлик ва савдо-сотияк (XIX аср охири - XX аср бошлари). 65б.

G'ijduvon bozoriga qozoq, chorvadorlari har oyda 10.000 bosh chorva mollari keltirib sotganlar².

1911 yilda qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, G'ijduvon aholisi 3.000 kishini tashkil etishi qayd etilgan³.

Denov shaharchasi ham shu nomli beklik markazi bo'lib, bu davrga kelganda uning devorlari buzilib, qo'rg'oni bo'shab qolgan edi.

Shaharda **bozor**, **choyxona**, **2 ta madrasa** faoliyat ko'rsatib turgan. Shaharcha shu nomli beklik hududini boshqarishda, atrofdagi qishloqlar hayotida muhim o'rin tutgan. 1911 yilda qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, uning aholisi 3.000 kishi atrofida edi⁴. Ammo A.Galkin bu shaharcha aholisi 5.000 dan ortiq ekanligini qayd etgan⁵.

Hisor bekligining markazi **Hisor shaharchasi** bog'lar bilan qoplangan. Undagi baland tepalikdagi qo'rg'onchada **bek saroyi** joylashgan. Saroyda bek qarorgohidan tashqari mehmonxona ham qurilgan bo'lib, uning atrofi ham bog'lar bilan qoplangan⁶. A.Galkinning qayd etishicha, shaharcha aholisi 5.000 dan kam bo'lmagan⁷.

Qubodiyon shu nomli beklik markazi mavqeidagi shaharcha bo'lib, aholisi XX asr boshida 5.000 kishi ekanligi qayd etilgan. Qubodiyon o'sha davr sayyohlarining ta'rificha, kattagina shahar bo'lib, aholisi asosan o'zbeklar bo'lgan. Ular sifatli **ipak** yetishtirganlar, shaharchada **tut daraxtlari** ko'p bo'lgan. Shahar bog'larida 100 yillik chinorlar ham bor edi. Shahar aholisi tog'lardan **xandon pista** terib tushgan. Qubodiyon shaharchasining atrofi sholi dalalari bilan o'ralgan edi.

Qorako'l. Qorako'l bekligi markazi bo'lgan bu shaharcha ilgari nihoyatda gullab-yashnagan voha markazi bo'lgan. Ilgari bu yerda ko'plab ko'llar bo'lib, tabiati qushlarga, ko'llar esa, baliqlarga boy bo'lgan. O'lkani Rossiya imperiyasi bosib olgach, **sholichilikka** suv ko'p sarflanishi bois Zarafshon daryosining so'nggi tarmoqlari joylashgan bu hududda suv tanqisligi boshlangan⁸. Natijada vohaning suv ta'minoti kamayib, hamma joyni qumliklar bosgan. Qorako'l suv tanqisligi bois haroblashib, kichik shaharchaga aylanib qolgan. Uning yaqinida **Qorako'l temir yo'l stansiyasi** joylashgan. Rus sarmoyadorlari bu srda vino zavodi va paxta tozalash zavodi tashkil qilishgan. Aholisi 3.000 kishi bo'lib, ilgarigi davrlarga nisbatan ancha kamaygan. Bu davrda boshqa beklik markazlari, xususan **Qorategin bekligi** markazi **Garmda** 4.000, **Ziyovuddin bekligi** markazi **Ziyovuddinda** 3.000 aholi yashagan. Ayrim bekliklar markazlarida aholi nisbatan kam edi. Masalan, **Darvoz bekligi** markazi **Qal'ai-Hambda** 2.000, **Burdalik** bekligi markazida 2.000 aholi yashagan. Bu manzilgohlar ma'muriy markaz bo'lganligi tufayli o'sha davr manbalarida kichik shaharchalar sifatida qayd etilgan.

² Остонов О. Зарафшон воҳисада хунарамандчилик, тadbirkorлик ва савдо-сотиқ (XIX asr oхири - XX asr бошлари). 636.

³ Логофет Д.Н.Бухарское ханство под русским протекторатом. С.186.

⁴ Логофет Д.Н.Бухарское ханство под русским протекторатом. С. 186..

⁵ Галкин А. Краткий очерк Бухарского ханства. С.411.

⁶ Логофет Д.Н.Бухарское ханство под русским протекторатом. С.186.

⁷ Галкин А. Краткий очерк Бухарского ханства. С. 411.

⁸ Мамалыский В. И. Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Настольная и дорожная книга. Том XIX. Туркестанский край. — СПб., 1913.

Bulardan tashkari, mamlakat hududida o'sha davr manbalari hamda adabiyotlarida shahar yoki shaharcha sifatida qayd etilgan qator manzillar bor edi. Ularning eng yirigi **Dushanbe shahri** bo'lib, 1911 yilda bu yerda 20.000 aholi yashashi qayd etiladi¹. Dushanbe shaharchasi amlodkorlik markazi bo'lib, juda go'zal tabiati bilan ajralib turgan.

Shuningdek, **Fayzobod** - aholisi 3.000, **Qoratog'** - aholisi 5.000 kabi kichik shaharchalar ham mavjud edi. Qoratog' shaharchasida 600 ta xonadon bo'lib, 1907 yil 8 oktabrda bu yerda sodir bo'lgan kuchli zilzila natijasida shaharcha vayronaga aylangan².

Manbalarda qayd etilishicha, shahar aholisi asosan **quyi Zarafshon** qismida, ya'ni **Buxoro, Karmana, Qorako'l vohalarida** 14% ga yetib qolgan edi³.

Buxoro amirligi tarixiga oid bir necha yirik tadqiqotlar muallifi **D.N.Logofet** mamlakat hududida poytaxt Buxorodan tashqari 32 ta shahar va shaharchalarni sanab o'tadi. Ularning eng kichigida 1.000-2.000 kishi, o'rtachasida 3.000-5.000 kishi, kattaroqlarida 20.000-30.000 kishi, yiriklarida 70.000-100.000 kishi yashayotganligi qayd etilgan. **D.N.Logofet**ning qayd etishicha, mamlakatdagi jami shahar aholisi - Buxoro shahri bilan birg 300.000 kishini tashkil etgan⁴. Ammo turli tarixiy manbalar va adabiyotlarda qayd etilgan yuqoridagi ma'lumotlarning ko'rsatishicha, mamlakatdagi beklik markazlarida, ya'ni ma'muriy markaz maqomiga ega bo'lib, hokimlar tomonidan boshqarilgan, shahar, shaharcha yoki qo'rg'onlarda yashovchi jami aholi (poytaxt Buxoroni hisobga olmaganda) 260.000 atrofida edi.

Buxoro amirligi bilan Rossiya imperiyasi o'rtasida 1868 va 1873 yillarda imzolangan sulh shartnomalariga ko'ra, rus savdogarlari mamlakat hududida savdo faktoriyalari tashkil etish erkin savdo qilish huquqlarini qo'lga kiritgan edilar. Shu shartnoma asosida mamlakat xududiga ko'plab **rus savdogarlari, sarmoyadorlari** kirib kelib, o'z faoliyatlarini yo'lga qo'yidilar. 1888 yilda mustamlaka ma'murlari qabul qilgan yangi qoidaga ko'ra, yangi Buxoro (Kogon), Chorjo'y, Karkida, 1892 yildan boshlab esa, Termiz shahrida rus aholisiga yer mulklariga ega bo'lish huquqi berildi. Amirlik hududida temir yo'llar qurilib, ishga tushgach bu jarayon yanada faollashdi. Temir yo'l stansiyalarida rus manzilgohlari tashkil etildi. Buxoro amirligi chegaralarida harbiy gamizonlar qurilishi, Rossiya bojxonalarining ochilishi bilan rus manzilgohlari kengayib, rivojlanib bordi.

Buxoro amirligida yashovchi rus aholisining ma'muriy boshqaruvi rus savdogarlari manfaatlarini Turkiston o'lkasini boshqarishi haqidagi Nizomga asosida Rossiya Siyosiy Agentligi tomonidan olib borilgan. Karki va Chorjo'yda rus qalalari, Termiz va Pattakesar qishlog'ida rus harbiy qismlari joylashtirilgan. XIX asr oxiri - XX asr boshida mamlakatda **Yangi Buxoro (Kogon), Forob, Amirobod, Saroy** kabi rus shaharchalari paydo bo'ldi. Bu shaharlarda asosan rus tadbirkorlari, amaldorlari va ularning oilasi yashagan. Bu shaharlarda **banklar, sanoat korxonalari,**

¹ Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. С.186.

² Справочная книжка Самаркандской области. Вступок Х. Самарканд. 1912, С.202-203.

³ Материалы по районированию Средней Азии. кн.1. Территория и населения Бухары и Хорезма, г.1. Бухара. Ташкент, 1926. С.253.

⁴ Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. С.186.

maktablar, tibbiyot muassasalari, kommunikatsiya tizimi, rus ta'lim muassasalari barpo etildi.

1889 yilda qabul qilingan yangi qoidaga binoan, amirlikdagi rus aholisi Yangi Buxorodagi rus sudyasi va Samarqand okrug sudiga bo'ysungan. Ular mahalliy aholi bilan teng huquqlarga ega bo'lib, Turkiston general-gubernatorligi qonunlariga bo'ysunganlar.

Kaspiy orti temir yo'lining qurilishi munosabati bilan 1888 yilda Buxoro shahridan 12 km. masofada joylashgan **Kogon** hududida **Buxoro stansiyasi** ochildi¹. 1888 yil 23 iyunda Buxoro amiri bilan rus hukumati o'rtasida temir yo'l stansiyalari va daryodagi kemalar to'xtash joyida rus manzilgohlari tashkil etish haqida kelishuv imzolandi. O'sha yiliyoq mazkur stansiyada rus manzilgohiga asos solindi. Shaharcha Yangi Buxoro yoki Kogon deb yuritilgan.

Shaharchada ilgari Buxoroda joylashgan Rossiya siyosiy Agentligi joylashtirildi. Tadbirkorlar, savdogarlar Siyosiy agentlik orqali Buxoro amiridan har bir kvadrat sarjin (sajen) uchun 50 kopeyek, ya'ni buxoro tangasi narxida yer sotib olganlar.

Shu tariqa, Buxoro stansiyasida amirlik hududidagi ilk rus shaharchasi yuzaga keldi. Yevropacha usulda qurilgan bu shaharcha iqtisodiy va jug'rofiy jihatdan juda qulay yerda joylashgan bo'lib, bu yerda Buxoro-Qarshi karvon yo'li Kaspiy orti temir yo'li bilan kesishgan edi. Buxoro stansiyasi juda katta yuk tushirish va jo'natish markaziga aylandi va shu munosabat bilan bu yerga ham temir yo'llar ham amirlik hududidan ko'plab aholi kelib, o'mashdi. Stansiyada juda ko'p yuk omborlari, transport kontoralari vujudga keldi.

Shaharchada qisqa fursatda uy-joylar, do'konlar paydo bo'ladi. Bu yerda nafaqat omborxonalar, balki sanoat korxonalari paxta tozalovchi, vino va tamaki ishlab chiqarunchi korxonalar, g'isht va yog'-moy zavodlari yuzaga keldi. 1890 yiida pochta va telegraf muassasalari. 1892 yilda rus aholisi uchun **ilk cherkov va diniy maktab, bojxona, davlat** bankining bo'limi ochildi. Shahar boshqaruvida harbiy ma'muriy va politsiya tizimi uyg'unlashgan holda tashkil etildi. YA'ni Turkiston general-gubernatori tomonidan tayinlangan shahar boshqaruvchisi bir vaqtning o'zida mamuriy boshqaruv, politsiya, sud va ijro hokimiyatini hamda xo'jalik hayotini boshqargan. Shahar byudjeta dastlab 2000 rubl, XX asr boshiga kelib 1200 rubl bo'lgan. Shahar daromadining asosini xususiy mulk egalari tegishli ko'chmas mulk, savdo, sanoat korxonalari va aravakashlar to'lovlar tashkil etgan. Shahar amirlik poytaxti bo'lgan Buxoroning Rossiya bilan aloqalarida katta rol o'ynardi. Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar Buxoro stansiyasida yangi shaharchaga tushirilib bu yerdan ot-ulov, eshak, tuyalarda amirlikka tashib ketilgan. Bunday holat temir yo'lni Buxorogacha cho'zishni taqozo etadi. 1900 yilda amiming roziligi bilan temir yo'l qurilishi boshlanib, 1901 yilda ikki shaharni bog'lagan.

Lekin Rossiya imperiyasi bu bilan qanoatlanmay, mamlakatning janubiy chegaralarida o'z mavqeini mustahkamlash maqsadida amirlikning janubi-g'arbiy va janubi-sharqiy hududlarini bog'lovchi temir yo'l tarmog'ini qurishga kirishdi. 1912 yilning 15 iyunida Buxoro amiri hamda **muxandis Kovalevskiy** o'rtasida Buxoro

¹ "Husa". 1899, №13

amirligida temir yo'l qurish xaqida shartnoma imzolanadi. Ushbu shartnomaga muvofiq temir yo'l liniyasi **Kogon stansiyasidan** boshlanib, **Qarshi-Karki-Kelif-Termiz** yo'nalishlari bo'ylab qurishga kirishildi. Temir yo'l 1916 yildan boshlab ishga tushdi¹.

Yangi temir yo'l tarmog'ining qurilshli, zavod-fabrikalamiig ko'payishi shaharda aholining ko'payishiga olib keldi. Shahar aolisi ruslar hisobiga ko'payib borsa-da, uning ijtimoiy va milliy tarkibi o'ziga xos tarzda hilma xil edi. XIX asr oxirida qayd etilgan ma'lmotlarga ko'ra 2.500 kishidan iborat shahar aholisining ijtimoiy tarkibida amaldorlar, savdo-sanoat firmalarining agentlari asosiy o'rin egallaganlar. Shahar aholisining milliy tarkibi esa, 545 ta ruslar, 345 ta yahudiylar, 865 ta mahalliy aholi, 345 ta eronliklar va bir necha o'n arman, qozoq, nemis millatiga mansub kishilardan iborat edi².

Shahardagi mahalliy aholi esa, asosan Buxoro amirligidagi boylar, zavodlardagi yollanma ishchilar, vokzaldan Buxoroga ot-aravada yuk tashuvchi aravakashlardan iborat bo'lib, 300 dan ortiq edi. Shahar aholisi dastlab 2.500 kishi bo'lsa, 1915 yilda 12.144 kishiga: shundan 9156 nafari erkaklar hamda 2.988 nafari ayollarga yetdi³.

Kogon, Buxoro va Termizga o'tkazilgan temir yo'llar ishga tushirilgach, shaharga xom ashyoning kirib kelishi yana kuchaydi. Shaharda har yili juda katta hajmda - 1 million puddan ortiq paxta qayta ishlanib, **Moskva va Lodz shaharlariga** jo'natilgan⁴. Bir necha banklar va Rossiyadagi yirik banklarning bo'limlari ish olib borgan.

Banklarga nafaqat rus sarmoyadorlari, balki mahalliy savdogarlar ham o'z pullarini qo'yganlar. Hatto Buxoro amiri Abdulaxadxon 27 million rubl mablag'ini Davlat banki bo'limida, 7 million rubl mablag'ini hususiy tijorat banklarida saqlagan⁵.

Shaharchada "**Nadejda**", "**Kavkaz i Merkurii**", "**Vostochnoye Obshestvo**" va "**Rossiyskoye Obshestvo**" kabi kompaniyalarning transport kontoralari, shuningdek, **pochta – telegraf kontoralari** faoliyat yuritgan. Kogondan har kuni 300 tacha ot-arava poytaxt Buxoroga yuk bilan qatnab turgan.

Shaharda 5 ta bug' bilan ishlovchi paxta tozalash zavodlarida har yili bir million puddan ortiq paxta tozalangan, paxta toylari Rossiyaga jo'natilgan.

Shahar o'z infratuzilmasi, binolari bilan Yevropa usulida qurilgan ilk shaharlardan biri edi. Bu yerda rus aholisi uchun **kutubxona, qiroatxona, bosmaxona, jamoatchilik klub** faoliyat yuritgan.

Shaharchaning temir yo'l bo'ylab joylashgan qismida ma'muriy binolar harbiylar kazarmalari joylashgan. Temir yo'ldan ancha narida Buxoro amiri mavritan uslubida qurdirgan mahobatli mehmonxona joylashgan.

¹ Пирумшоев Х. Отражение истории городов и городской жизни восточной Бухары конца XIX - нач. XX вв. в трудах русских дореволюционных исследователей. Душанбе, 1979. С.26.

² "Нива", 1899, №13.

³ ЎЗР МДА, И-3 жамгарма 275-йигма жилд, 124-варак.

⁴ Пирумшоев Х. Отражение истории городов и городской жизни восточной Бухары конца XIX - нач. XX вв. в трудах русских дореволюционных исследователей. Душанбе, 1979. С.26.

⁵ Семенов А. Очерки устройства центрального административного управления управления Бухарского ханства позднейшего времени. Сталинабад 1934. С.9.

Shaharda suv ta'minoti yomon ahvolda edi. Zarafshon daryosidan kanal orqali olib kelingan ichishga yaramaydigan loyqa suv aholiga haftada 1-2 marta ariqlar orqali berib turilgan. Hovuzlarga to'plab olingan suv tindirilib, hafta davomida foydalanilgan. Suv yetishmasligi sababli shaharchada daraxtlar qurib, chang-tuzon juda ko'p bo'lgan.

Termiz shahriga miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida asos solingan bo'lib, qadimiy davlatlar - **Parfiya, Xorazm, Sug'diyona** bilan madaniy va savdo aloqalari olib borgan. Miloddan avvalgi III - IV asrlarda **Baqtriyaning** yirik siyosiy, savdo va madaniy markazi, **Kushonlar davrida** Temirshoxlar poytaxti, XII asrlarda yirik **hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyat markazi** edi. Mo'g'ullar istilosi tufayli harobaga aylangan shahar temuriylar davrida qayta tiklanib, rivoj topgan. Ammo XVIII asrning ikkinchi yarmida yana harobaga aylanib, **Pattakesar va Solihobod qishloqlari** saqlanib qolgan edi. Bu yerda yashovchi mahalliy aholi dexqonchilik bilan shug'ullanar, Amudaryoda qulay kechuv borligi sababli ular yetishtirgan **paxta Buxoroga, ipak esa, Afg'onistonga** olib ketilar edi.

Rossiya imperiyasi mamlakatning janubiy sarhadlarida joylashgan Termiz shahrining strategik ahamiyatini hisobga olgan xolda bu yerni harbiy bazaga aylantirishga kirishdi. 1894 yilda Termiz harobalaridan 8 km narida **Pattakesar qishlog'ida** rus harbiylari uchun mustahkam qal'a barpo etildi. Mahalliy aholi Tuproqqurg'on deb nomlagan shu qal'a atrofida shahar qurilishi boshlandi.

1894 yil oxirida Pattakesar qishlog'iga harbiy qismlar - Amudaryo brigadasi joylashtirildi. 1897 yilda Pattakesarning shimolida harbiy kazarmalar uchun mahalliy aholiga tegishli 43 gektar yer sotib olindi. 1897-1898 yillarda mahalliy aholidan sotib olingan yerlarda rus posyolkasiga asos solinadi, harbiylar uchun kazarmalar barpo etildi¹.

Ammo kelgindi aholining suvdan betartib foydalanishi iatijasida suv tanqisligi muammosi boshlandi, mahalliy aholining ekin yerlari qisqarib ketdi, uning bir qismi ko'chib ketishga majbur bo'ldi. 1897 yil kuzidan bu yerdagi **Salovat arig'i** mahalliy aholi kuchi bilan, xaftasiga 500 kishidan jalb etilib, ta'mirlandi.

Rossiya imperiyasi Termizning strategik ahamiyatini hisobga olgan holda bu yerni harbiy bazaga aylantira boshladi. 1898 yilda mahalliy aholidan yana 135 gektar yer sotib olindi va harbiylar uchun kazarmalar, shtab, ofitserlar uchun uy-joylar qurildi. 1900 yilda Buxoro amiri imperiya ma'murlari talabi bilan 10.514 desyatina yer ajratib berdi. Qurilish ishlari ko'lamli kengayib, 1906 yilgacha irrigatsiya tizimi va Tuproqqal'a deb nomlangan harbiylar shaharchasi qurib bitkazildi. Harbiy shaharcha uch tomondan g'isht devorlar bilan o'ralgan bo'lib, ichkarida 12 ta ko'cha bor edi¹.

Uzoqni ko'zlagan strategik maqsadlarda harbiylar ko'paytirilib borildi. Afg'onistonning shimoliy qismida harbiy ko'chalar ko'pligi bahona qilinib, Termizda harbiy ko'chalar kuchaytiriladi. Istehkomga artilleriya rotasi, o'qchi polkalari kazak drujinalari joylashtirildi.

¹ Жалолiddин Мирзо. Термиз тарихи. Тошкент. 2001. 846.

² Жалолiddин Мирзо. Термиз тарихи. Тошкент. 2001. 876.

Pattakesarda rus fuqarolari uchun uy-joy binolari qurildi. Termizdagi juda ko'p tarixiy obidalar - uch qavatli Madrasa, katta minorali masjidlar vayron qilinib, ularning g'ishtlari qurilishi ishlarida ishlatildi.

Termizda ham boshqa rus manzilgohlarida bo'lgani kabi rus aholisi uchun **maktab, ma'muriyat uchun pochta, telegraf, ilk sanoat korxonalari -paxta tozalash zavodlari, yog' zavodi, metereologiya stansiyasi** qurildi. Termiz shahri **Samarqand, Qobul, Mozori-Sharif** bilan bog'langan eng qisqa savdo yo'li ustiga joylashgani tufayli rus bojxonalari 1894 yilda aynan shu yerda joylashtirildi.

1903 yilda Termiz orqali Rossiyaga 20 mln, Afg'onistonga 2,500 mln, Eron va Hindistonga 700 ming, Buxoro amirligiga 23 mln, jami 46,5 mln. rubl qiymatiga ega bo'lgan mahsulot jo'natilganligi shaharning savdo aloqalaridagi rolin ko'rsatib turar edi.

1916 yilda Buxoro-Qarshi-Termiz temir yo'lining qurilishi bilan shaharning iqtisodiy mavqei yanada ortdi. *Shaharga turli firma va birjalar kirib keladi. Shahar aholisi asosan savdo bilan shug'ullanar edi.* XX asr boshida bu yerdagi rus aholisi soni 6.000 kishidan ortadi. Shahar harbiy boshqarma orqali boshqarilgan. Harbiy gamizon boshlig'i ayni paytda shahar hokimi edi. Bu tartiblar shaharning harbiy qal'a joylashgan shimoliy qismiga tegishli edi. Termizning janubiy qismi -Pattakesarda yashagan mahalliy aholi Buxoro amirligi tartiblariga, rus aholisi esa imperiya hukumati qonunlariga bo'ysunardi. Shu tariqa bitta shahar hududida uch xil boshqaruv va tartib amal qilardi.

Shaharda rus aholisi uchun, ayniqsa harbiylar uchun tegishli shart-sharoit yaratilgan, mahalliy aholi esa e'tiborsiz, arosatda qolgan edi. Buxoro amiri bu yerdagi mahalliy aholidan soliq undirardi-yu, uning ahvolidan habar olmasdi. Mahalliy aholi imperiya hukumati uchun arzon ishchi kuchi edi.

Ilgari Buxoro amirligiga qaragan, istilodan so'ng imperiya tasarrufiga o'tgan bu xududda 1886 yilda dastlab harbiy qo'shinlar joylashtirildi. 1898-1901 yillarda bu yerda O'rta Oyeiyo temir yo'lining Amudaryo stansiyasi quriladi. Temir yo'lining stansiyadan keyingi davomi Amudaryoning ustidan ko'prikl bilan o'tkazildi. **"Chorjo'y ko'prigi"** deb nom olgan bu ko'prikl juda mustahkam kurilgan bo'lib, 1901 yildan ishga tushdi. Amudaryoning chap qirg'og'ida, temir yo'l stansiyasida rus shaharchasiga asos solindi. **Yangi Chorjo'y** deb nomlangan bu shaharcha uncha katta bo'lmasa-da, tezda muhim savdo markaziga aylanadi. Chunki shaharning Amudaryo qirg'og'idagi qismida Amudaryo floti paroxodlarining asosiy to'xtash joyi bo'lib, bu yerdan **Termiz va Petro-Aleksandrovskka** kemalar qatnab turgan. **Afg'oniston, Buxoro va Xivaga** jo'natiladigan mahsulotlar shu kemalarda daryo orqali jo'natilgan. Qo'shni hududlardan kelgan mahsulotlar esa, Amudaryo stansiyasida temir yo'lga yuklangan.

Yangi Chorjo'ydan muhim arava yo'llari ham o'tgan bo'lib, bu pullar shaharchani yaqin atrofdagi manzillar bilan bog'lagan. Yangi Chorjuyda aholining soni dastlab 4.000 dan ortiq bo'lib asosan harbiylar va rus aholisidan iborat edi. XX asr boshiga kelib, aholi soni 10.000 kishiga yetdi. Uning asosiy qismi ruslardan iborat edi. Shaharchada rus aholisi uchun **cherkov diniy maktab, te mir yo'l bilim yurti, erkak va ayollar bilim yurtlari pochta-telegraf kontorasi, bir nechta paxta tozalash zavodlari, transport kontoralari, do'konlar** faoliyat yuritgan.

Rus manzilgohlaridan yana biri Karkida tashkil etilgan. Karki yaqinidagi bek qo'rg'oni o'muda 1889 yilda rus harbiy istehkomi joylashtirildi. Uning atrofida esa, rus shaharchasi barpo etildi. Bu yerda yuzaga kelgan ko'chalarda rus kazarmalari, o'qchi batalyonlar va ofitserlarining uylari bir nechta ko'chani egallagan. Asosiy ko'chaga tutashgan maydonchada **cherkov, yoyma do'konlar** joylashgan. Savdo yoymalari mahalliy bozorchaga tutashib ketgan. Bu bozorcha rus sanoat mahsulotlari bilan to'lib ketgan edi.

1894 yilda Karkida afg'on tovarlari rus bojxonasi tashkil etilgan, bu yerda rus savdo firmalarining omborxonalari, do'konlari bo'lib, ular mahalliy savdo bilan birga Afg'oniston bilan savdo aloqalari olib borganlar. Afg'onistonga asosan rus **sanoat mahsulotlari, kerosin, qand, shakar** jo'natilgan. Karkida 8.000 rus aholisi istiqomat qilardi¹.

Shu tariqa Buxoro amirligi hududida rus aholisi istiqomat qilgan manzilgohlar va ulardagi rus aholisining soni ham ko'payib bordi. Bulardan tashqari, XX asr boshlariga kelib Buxoroda - 6.000, Karmanada - 1.500, Qarshida - 8.000 rus aholisi istiqomat qilgan. Amirlik hududida jami 50.000-60.000 rus aholisi bor edi². Manbalarda shaharchalar sifatida e'tirof etilgan manzilgohlardagi rus aholisi Kogon (Yangi Buxoroda) - 12.000, Chorjo'yda - 10.000, Karkida - 8.000, Termizda - 6.000 kishini, jami 36.000 kishini tashkil qilgan. Ushbu shaharchalarda mahalliy aholi vakillari ham yashagan, ammo ularda rus aholisining soni ko'p edi. Jami rus manzilgohlarida mahalliy va chetdan kelgan boshqa aholi vakillari: yahudiy, tatar va boshqalar bilan 40.000 atrofida aholi yashagan.

Xulosa qilib, shuni qayd etish lozimki, Buxoro amirligidagi shaharlar bu davrda ham ko'p asrlik shahar madaniyati an'analarini saqlab qoldi. Ma'naviy hayotda islom dini markazi, iqtisodiy hayotda savdo va hunarmandchilik markazi bo'lib kelgan, mintaqaning Afg'oniston, Hindiston va Sibir bilan savdo aloqalarida yetakchi mavqega ega bo'lgan Buxoro shahri bu davrda ham o'z nufuzini saqlab qoldi.

Buxoro va beklik markazi maqomidagi shaharlar mamlakat ma'muriy tizimida o'z o'mini saqlab qolgan xolda, iqtisodiy hayotdagi ahamiyati ham kuchayib bordi. Ammo mamlakatdagi **Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzax** kabi shaharlarning Rossiya imperiyasi tasarrufiga o'tishi, Termiz shahrining harbiylashtirilgan rus manzilgohiga aylantirilishi natijasida mamlakatning hududiy yaxlitligi barham topdi. Mamlakat tasarrufidan tortib olingan hududlarda an'anaviy shahar tizimi va madaniyatida, boshqaruv tartiblari va shahar infratuzilmasida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ularning hududida tashkil etilgan rus shaharchalarida iqtisodiy jarayonlar faollashib, kelgindi aholi ko'payib bordi.

Buxoro amirligidagi urbanizatsiya jarayonlari bu davrdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq edi. 1868 yilda mamlakatga Rossiya imperiyasi tomonidan uyushtirilgan harbiy tajovuzlar natijasida Buxoro amirligining hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqilligining barham topishi qator salbiy oqibatlarga olib keldi.

¹ Фомченко А.П. Русские поселения в Бухарском эмирате. Ташкент, 1958. с. 14.

² Фомченко А.П. Русские поселения в Бухарском эмирате. Ташкент, 1958. с. 14.

Mamlakat hududidagi asrlar davomida ilm-fan, madaniyat, savdo va hunarmandchilik markazi bo'lgan Samarqand shahri va boshqa yirik bekliklar markazlari - Jizzax, Kattaqo'rg'on, O'ratepa, Urgut shaharlari Rossiya imperiyasi tasarrufiga tortib olindi. Natijada, mamlakatdagi shaharlar va shahar aholisining soni keskin kamaydi.

Bu davrda Buxoro amirligi xududidagi **urbanizatsiya jarayonlarining** o'choqlari eng avvalo **ma'muriy markazlar** - mamlakat poytaxti hamda azaldan savdo va hunarmandchilik markazlari bo'lib kelgan shaharlarga to'g'ri keladi. Eng avvalo poytaxt Buxoro, keyin esa **Qarshi, Karmana, Kitob va Shahrisabz** kabi shaharlar boshqa ma'muriy markazlardan hududiy kattaligi, aholisi ko'pligi bilan ajralib turar edi. Tarixan savdo yo'llarida joylashgan, muhim ma'muriy, iqtisodiy markaz bo'lib kelgan bu shaharlarda aholi ko'payib borishi avvalo aynan shu omillarga - shahar madaniyati an'analari va tajribasiga, ichki va tashqi aloqa imkoniyatlariga bog'liq edi.

Umuman olganda, Zarafshon vohasida bu davrda kechgan urbanizatsiya jarayonlari turli omillar ta'sirida sodir buldi. Eng avvalo **tabiiy omillar** ta'siriga to'xtalib shuni qayd etish lozimki, Zarafshon daryosining yuqori oqimida suv taqsimotining imperiya tasarrufiga o'tishi salbiy oqibatlariga olib keldi. Ilgari suvsizlik muammosi nimaligini bilmagan hududlarda suv ta'minoti cheklanib, qishloq xo'jaligida hosildorlik kamayib ketdi. Bu esa iqtisodiy salohiyatning pasayishiga olib keldi.

Zarafshon vohasining yuqori oqimida joylashgan Samarqand shahrini o'z tasarrufida saqlab turish orqali Buxoro amirligini o'ziga tobe qilib, izmida ushlab turish mumkinligini fahmlagan imperi hukumati bu imkoniyatdan unumli foydalandi. Samarqand viloyatida ekin yerlari kengayib borgan sari Buxoro amirligida bog'lar, dalalarga suv yetib borishi qiyinlashib bordi. 1916 yilda Buxoro shahri 6 oy suvsiz qolib, hovuzchalargacha qo'rib qoldi.

Ayrim hududlarda suvning sifati yaxshi emasligi, yashash sharoitlarining o'zgarib turishi aholi qo'nimsizligiga sabab bo'ldi. Masalan, Sherobod shahrida suvning sho'rliigi bois aholi ma'lum muddat shaharni tark etishi natijasida shahar hayoti orqaga ketdi. Keyinchalik bu muammo hal etilgach, shahar hayoti yana tiklanib, aholi ko'payib borgan.

Buxoro shahri va uning atrofidagi suv muammolari tufayli shahar aholisining *o'sish tendensiyalari nisbatan sust* kechdi. Shahar xududida o'simlik dunyosi ham juda kam edi. Aholi erta bahordan boshlab hovuzlardan to'plagan yog'ingarchilik suvlari, o'nlab quduqlar qazib, suv ichar, shaharning bosh kanali suvga boy bo'lmaganligidan tashqari xar xil yuqumli kasalliklar uyasiga ham aylangan edi.

Daryo va kanallarga yaqin joylashgan ma'muriy markazlarda suv muammosi bo'lmasa-da, ularning hammasi birdek keng rivojlanmadi. Bunda asosan ularning nisbatan chetda, ayrimlari esa tog' etaklarida va yonbag'rida joylashganligi sabab bo'ldi. Bundan tashqari, dehqonchilik va chorvadorlik zonalaridagi ma'muriy markazlarda shahar aholisining konsentratsiyasi kuchli emas edi. Buning sababi devorlar bilan o'rab olingan shahar ichiga nisbatan uning tashqarisidagi hududlarda xo'jalik yuritish imkoniyatlari kengligi bilan izohlanar edi.

Urbanizatsiya jarayonlariga **an'anaviy shahar tuzilishi** ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Xususan, Buxoro shahrining devorlar bilan o'ralganligi, yerlar allaqachon taqsimlab olinganligi bois shahar xududi kengaymagan holda, aholii zichligi o'sib bordi. Shaharda yer juda qimmatli va tanqis mulk bo'lib, bu holat yer-mulk munosabatlarida o'ziga xos hususiyatlar shakllanishiga olib keldi. Xususan, vaqf mulklari misolida yaqqol namoyon bo'lgan bu jarayonlarda vaqf yerlarining ijaraga berilishi, ijaraga berilgan yerda qurilgan do'kon yoki boshqa obyektlarni yerdan tashqari yana alohida ijaraga berilishi kabi holatlar keng tarqalgan bo'lib, boshqa hududlarda bunday holat, ya'ni ijara ustiga ijara holati deyarli kuzatilmas edi.

Shahar hududidagi yer tanqisligi uning juda baland devorlar bilan o'ralganligi bois chetga qarab kengaya olmaganligi bilan ham izohlanar edi. Shahar hududida madrasalar, saroy inshootlari, masjidlar, qabristonlar, xonaqohlar ko'pligi, ularning katta-katta majmuaga aylanib, ko'p hududni egallaganligi, ko'plab yerlar ularga dahlsiz vaqf mulki sifatida berilganligi bois aholi uy-joylarining kengayishiga imkoniyat yo'q edi. Shu sababli uylarning aksariyati 2 qavatli qurilar, hovlilar uncha katta emas edi.

Shahar aholisi, ayniqsa, yirik amaldorlar, mulkdorlar va ulamolar shahar dan ancha uzoqda joylashgan beklik markazlari va hududlarida yer-mulkka ega bo'lishga harakat qilganlar. Valiaxd va shahzodalar ham alohida beklklarga hukmronlik qilib, o'sha joylarda juda katta yer-mulk egalari hisoblangan.

Boshqa shaharlar ham mudofaa maqsadlarida devorlar bilan o'rab olingan bo'lib, yillar o'tgan sari tabiiy o'sish hisobiga ko'payib borgan aholi shahar atrofidagi hududlarga o'mashib borgan. Ularning aksariyati shaharlarda uy-joylarga ega bo'lib, shahardan chetda ham yer-suv, bog' xo'jaliklariga egalik qilishgan. Ba'zilar esa, shahar chetida yashab, shahar ichida do'kon va ustaxonalarga ega bo'lishgan. Shu bois shahar aholisi hisobini aniqlashda ba'zi holatlarda faqat ichki hudud aholisi hisobga olinsa, ba'zi holatlarda shahar atrofii ham inobatga olingan.

Urbanizatsiya jarayolarida **iqtisodiy omillar** hususan, shaharlarning savdo yo'llarida joylashganligi va savdo aloqalarining kengayishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Siyosiy va tashqi aloqalar olib borishda o'z mustaqilligidan mahrum bo'lgan Buxoro amirligi tez orada savdo, pul va bo'xona sohalaridagi mustaqilligini ham yo'qotdi. Mamlakatda Rossiya imperiyasining iqtisodiy manfaatlarini qaror topib, uning tashqi savdo aloqalari cheklanishi natijasida mintaqaning **Afg'oniston, Hindiston va Sibir** bilan savdo aloqalarida yetakchi mavqega ega bo'lgan Buxoro, Qarshi, Termiz kabi shaharlarning bu boradagi nufuzi pasayib ketdi.

Ayni paytda Rossiya bilan savdo aloqalari kengayib bordi. Boshqa mamlakatlar bilan aloqalar susayib, Rossiya imperiyasi manfaatlarini doirasida amalga oshiriladigan bo'ldi. Buxoro amirligi shaharlarining Rossiya va Turkiston bilan aloqalari jadal faollashib, ularning mamlakat ichki resurslarini metropoliyaga yo'naltirishdagi roli kuchayib bordi. Mamlakat shaharlarida rus sarmoyadorlarining savdo firmalari, turli banklar bo'limlari, xomashyoni qayta ishlash korxonalari, transport kontoralari yuzaga kelib, mamlakat resurslarini metropoliyaga jo'natish bo'yicha qizg'in faoliyat olib bordilar. Bunday sharoitda shaharlar atrof hududlardan, viloyatlardan qishloq xo'jaligi, hususan chorvachilik mahsulotlari, qorako'l terisi, jun

mahsulotlarini to'plab, shu yerdan temir yo'l stansiyalariga va ular orqali metropolianing sanoat markazlariga jo'natish markazlariga aylanib bordi. Shu maqsadlarda shaharlarda yuqorida qayd etilganidek, savdo firmalari, transport kontoralari, banklar, omborxonalar ko'payib bordi. Asosan rus sarmoyadorlari bosh bo'lgan bu jarayonlarga asta-sekin mahalliy vakillar ham tortila boshlandi. Shaharlarning savdo aylanmasi ko'payib bordi, savdo operatsiyalari faol tus olib, qamrovi kengayib bordi. Shaharlarda karvonsaroylar, omborxonalar, Rossiya bilan savdo qiluvchi rus va mahalliy savdogarlar yil sayin ko'payib bordi. Shaharlar metropoliyaga boshqa mahsulotlar, xususan, ipak va ipakchilik mahsulotlari tayyorlab, jo'natishda ham katta rol o'ynagan.

Bu jarayonlarda **temir yo'llar** o'ziga xos o'rin tutdi. Chunonchi 1888 yilda Samarqand, 1906 yilda Buxoro va 1916 yilda Termizgacha bo'lgan temir yo'llarning qurilishi, **Buxoro, Qarshi, Termiz, Samarqand shaharlarini** o'zaro va Toshkent bilan bog'lanishi shaharlarning ichki va metropoliya bilan aloqalarini ancha jonlantirdi. Azaldan savdo markazi bo'lib kelgan shaharlarning nufuzi yanada ortdi. Ular beklik hududidagi dehqonchilik, chorva va hunarmandchilik mahsulotlari savdosidagi roli yanada kuchayish bilan birga rus sanoat mahsulotlarini realizatsiya qilish, mamlakat bozorlariga yetkazib berishda katta ahamiyat kasb eta boshladi.

Amudaryo kechuvi yaqinida joylashgan **Kelif, Karki, Chorjo'y** kabi manzilgohlar daryoda kema va qayiqlar yurishi faollashuvi hamda ular orqali temir yo'llarga chiqish imkonini borligi sababli bu davrga kelib ancha faollashdi.

Ayniqsa, *mamlakatning janubiy hududlarida* joylashgan Termiz, poytaxt Buxoroga yaqin joylashgan **Kogon, ya'ni Yangi Buxoro** kabi rus manzilgohlari temir yo'llar qurilishi bilan aholisi ko'payib bordi.

Buxoro amirligida shahar madaniyatida yuqorida batafsil qayd etilganidek, o'tgan asrlar an'analari saqlanib qoldi va davom etdi. **Shahar infratuzilmasi** ham shunday holatda bo'lib, me'morchilik inshootlari, ustaxona va do'konlar, karvonsaroylar, hammom va boshqa obyektlar son jihatdan ko'payib bordi.

Sifat jihatdan yangiliklar esa, juda tor doirada, katta shaharlarda ko'zga tashlanar edi. Xususan, kommunikatsiya vositalari - pochta, telegraf aloqalarining qurilishi, kasalxona va ambulatoriyaning paydo bo'lishi kabi holatlar shular jumlasidan bo'lib, davlat mablag'i hisobidan mablag'lashtirilgan bu yangiliklar keng quloch yoymadi.

Buxoro, Qarshi, Yangi Buxoro, Chorjo'y, Termiz shaharlariga pochta, telegraf yetib keldi, temir yo'llar stansiyalarida ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalar shakllanib bordi, ilk kasalxona, ambulatoriya va dorixona paydo bo'ldi. Ammo bu yangiliklar Turkiston shaharlariga nisbatan sust rivojlandi. Mamlakatdagi qurilish va bunyodkorlik ishlari saroylar, madrasalar, masjidlar qurilishi, bozorlar ta'miri bilan cheklandi.

Temir yo'l stansiyalarida barpo etilgan rus manzilgohlarida asosan iqtisodiy maqsadlar ustivorligi ma'naviy ehtiyojlarga e'tibor umuman yo'qligi sababli ularda shahar madaniyati, ijtimoiy-madaniy hayot faqatgina o'sha yerdagi rus aholisining minimal ehtiyojlari darajasida rivojlandi, keng tus olmadi. Bu jihatlari bilan mamlakatdagi rus shaharchalari mustamlakachilar izmida bo'lgan Turkistondagi rus shaharchalaridan ancha farq qilardi.

Masalaning yana bir jihatida bu yerda yashayotgan aholi kontinental va moddiy ta'minot masalalari bilan ham bog'liq edi. Turkiston hududida bunday muammolar yangi shaharchalar yonginasidagi eski shaharlar hisobidan hal bo'lar, ularning tajribasi va salohiyati, moddiy resurslardan juda unumli foydalanilar edi.

Mamlakatdagi eng yirik shahar - Buxoro nafaqat hududiy, balki aholisining soni jihatidan ham mintaqada Toshkent shaxridan keyin ikkinchi o'rinda turar edi. Keyingi o'rinlarda Qarshi, Shaxrisabz, Kitob shaharlari bo'lib, ular azaldan mintaqada hududida o'z o'miga ega edi. Ayniqsa, Qarshi shahrining nufuzi baland bo'lib, aholisi, hududi jihatidan Buxoro shahridan keyin ikkinchi o'rinda turgan.

Karmana esa taxt vorislari yoki shaxzodalar yashaydigan shahar bo'lib ma'muriy-siyosiy tizimda poytaxtdan keyingi ikkinchi o'rinda turar edi. Mamlakatdagi **Sherobod, Chiroqchi, G'uzor, Denov, Yakkabog', Boysun, Ko'lob, Xatirchi** kabi shaharlar shu nomdagi yirik bekliklar markazi sifatida savdo, iqtisodiy aloqalarda katta rol o'ynar edi.

Shahar aholisining soni va zichligi ko'p holatlarda uning mavqei va tarixi bilan emas, qulay joylashuviga ham bog'liq edi. Masalan, Zarafshon daryosi vodiysida joylashgan **Karmana, Xatirchi, Buxoro, Qashqadaryo vodiysida joylashgan Qarshi, G'uzor, Chiroqchi, Kitob, Shaxrisabz, Surxon** daryosi vodiysidagi **Denov, Hisor, Amudaryo qirg'oqlaridagi Chorjo'y va Karki bekliklari** boy yerlari hosildor bo'lib, aholisi ham ancha zich joylashgan.

Sharqiy Buxorodagi **Ko'lob, Qorategin Baljuvon bekliklarida** esa, aholi nisbatan kam bo'lsa, **Kelif, Burdalik, Qo'rg'ontepa, Darvoz, Sherobod bekliklarida** aholi ancha siyrak joylashgan edi. Bu shahar va shaharchalarning har birida **harbiy kuchlar, bek ma'muriyati, bozorlar, karvonsaroylar, masjid madrasalar** mavjud edi. Ularning mamlakat iqtisodiy va xo'jalik hayotida o'ziga xos o'rnini bor edi.

Buxoro shahri aholisi zich joylashgan bo'lib, uning ijtimoiy tarkibida savdo va hunarmandlar katta o'rin tutgan, shahar aholining juda katta qismi ichki va tashqi savdo bilan shug'ullangan, butun mintaqaning savdo aloqalarida buxorolik savdogarlar alohida o'rin egallagan.

Asrlar davomida islom dini markazlaridan biri bo'lib kelgan Buxoroda amaldorlar va diniy ulamolar juda katta qatlamni tashkil qilgan. Shahar hududida **madrasalar, masjid, xonaqah, maqbara va ziyoratgohlar** ham juda ko'p edi. Madrasa va masjidlar, xonaqohlar shaharga tarixiy qiyofa baxsh etib turardi.

Mamlakatda beklik markazlari maqomida bo'lgan, aholisi 70.000 ga yetgan **Qarshi**, 30.000 ga yetgan **Shaxrisabz** kabi katta shaharlar, 20.000 atrofida bo'lgan **Kitob, Sherobod, Dushanbe** 15.000 kishi bo'lgan **Eski Chorjo'y**, 10.000 atrofida bo'lgan 5.000 atrofida bo'lgan **Yakkabog', Chiroqchi, Boysun, Qobadiyon, Xatirchi**, 4.000 atrofida bo'lgan **Nuroga va Garm**, 3.000 atrofida bo'lgan **Fayzobod, Qorako'l, Ziyovuddin, Denov, Hisor, G'ijduvon** kabi ma'muriy shahar va shaharchalarda jami 250.000 dan ortiq kishi yashagan. Bundan tashqari aholi si 2.000 gacha bo'lgan **Qal'ai-Xumb, Burdalik, Hisor, Darvoz, Kelif, Baljuvon** kabi ma'muriy markaz sifatida belgilangan, xokimlar va amlodkorlar tomonidan boshqarilgan ma'muriy markazlar ham bor edi. Bu manzillar bilan qo'shib

hisoblaganda jami shahar, shaharcha va ma'muriy markazlar aholisi 260.000-270.000 atrofida edi.

Shaharlar qatoriga qayd etilgan rus manzilgoxlaridagi aholi nufuzi jami 40.000 ga yetar edi. Xonlik hukm surgan so'nggi yillarda Buxoro shahrida 150.000 aholi yashaganligi nazarda tutilsa, mamlakatdagi shahar aholisi xonlik tugatilishi arafasida 450.000 atrofida bo'lganligi ma'lum bo'ladi. Buxoro amirligi hududida jami aholining soni 3,5 mln. atrofida bo'lsa, mamlakatdagi shahar aholisi uning taxminan 13 % ni tashkil qilardi.

Tayanch so'zlar:

Qanqa, Shosh, Choch, Qaffol, Ming o'rik, shahriston, Zog'ariq, karvonsaroy, hokim, daha, kvartal, beklik, Xonobod, Salar, Junariq, qishloq qarorgoh, madrasa, Iloq, inoq, otaliq, qushbegi, oftobachi, xaram, Nishopur, Burg'uluq madaniyati, Shi, baqqol, Romitan, Kitob, infratuzilma, infrastruktura, ma'muriy markaz, amlokdor.

Test topshiriqlar:

1. XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi necha beklikdan iborat edi?

- A. XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi 26 beklikdan iborat edi
- V. XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi 20 beklikdan iborat edi
- S. XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi 18 beklikdan iborat edi
- D. XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi 22 beklikdan iborat edi

2. Quyidan Buxoro amirligining to'g'ri ko'rsatilgan hududini ko'rsating.

- A. Zarafshon vohasi, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarini hamda Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi Chorjo'y, va Karki joylashgan yerlarni qamrab olgan.
- V. Toshkent, Qashqadaryo vohalarini hamda Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi Obi-Shahrisabz va Karki joylashgan yerlarni qamrab olgan.
- S. Zarafshon vohasi, hamda Amudaryoning chap qirg'og'idagi Karki va Obi-Shahrisabz joylashgan yerlarni qamrab olgan.
- D. Amudaryoning chap qirg'og'idagi Karki va Obi-Shahrisabz joylashgan yerlarni qamrab olgan.

3. Buxoro amirligi hududida o'zbeklar asosan qaysi vohalarda yashaganlar?

- A. Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalarida yashashgan.
- V. Sharqiy Buxoroning tog'li hududlarida yashashgan.
- S. Amudaryoning o'ng sohilida – Chorjo'y, kerki tumanlarida yashashgan.
- D. Karmana va Nurota tumanlarida yashashgan.

4. Buxoro amirligi hududida tojiklar asosan qaysi vohalarda yashaganlar?

- A. Sharqiy Buxoroning tog'li hududlarida yashashgan.
- V. Amudaryoning o'ng sohilida – Chorjo'y, Kerki tumanlarida yashashgan.
- S. Karmana va Nurota tumanlarida yashashgan.
- D. Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalarida yashashgan.

5. Buxoro amirligi hududida turkmanlar asosan qaysi vohalarda yashaganlar?

- A. Amudaryoning o'ng sohilida – Chorjo'y, Kerki tumanlarida yashashgan.

- V. Sharqiy Buxoroning tog'li hududlarida yashashgan.
 S. Karmana va Nurota tumanlarida yashashgan.
 D. Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalarida yashashgan.
6. Buxoro amirligi hududida qozoqlar va qoraqalpoqlar asosan qaysi vohalarda yashaganlar?
 A. Karmana va Nurota tumanlarida yashashgan.
 V. Amudaryoning o'ng sohilida – Chorjo'y, Kerki tumanlarida yashashgan.
 S. Sharqiy Buxoroning tog'li hududlarida yashashgan.
 D. Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalarida yashashgan.
7. XIX asrning II yarmida Buxoro shaharida nechta yarim minora mavjud bo'lgan.
 A. 130 ta yarim minora (burj) mavjud bo'lgan.
 V. 120 ta yarim minora (burj) mavjud bo'lgan.
 S. 110 ta yarim minora (burj) mavjud bo'lgan.
 D. 100 ta yarim minora (burj) mavjud bo'lgan.
8. XIX asrning II yarmida Buxoro shaharining nechta darvozasi bo'lgan?
 A. XIX asrning II yarmida Buxoro shaharining 11 ta darvozasi bo'lgan
 V. XIX asrning II yarmida Buxoro shaharining 10 ta darvozasi bo'lgan
 S. XIX asrning II yarmida Buxoro shaharining 22 ta darvozasi bo'lgan
 D. XIX asrning II yarmida Buxoro shaharining 12 ta darvozasi bo'lgan
9. Quyidan XIX asrning II yarmida to'g'ri ko'rsatilgan Buxoro shaharining darvozalarini toping.
 A. Hazrati Imom, Samarqand, Shayx Jalol, Mazori Bahouddin, Qarshi, Namozgoh (Sillohxona (ko'rxona)), Shergiron (Tirgiron), Talapoch, Qorako'l, Oqlon (O'g'lon), Boboi Paraduz.
 V. Hazrati Imom, Shayxontohur, Shayx Jalol, Taxtapul, Qarshi, Namozgoh (Sillohxona (ko'rxona)), Shergiron (Tirgiron), Talapoch, Qorako'l, Oqlon (O'g'lon), Boboi Paraduz.
 S. Besh yog'och, Ko'kcha, Shayx Jalol, Mazori Bahouddin, Qarshi, Namozgoh (Sillohxona (ko'rxona)), Shergiron (Tirgiron), Talapoch, Qorako'l, Oqlon (O'g'lon), Bakardijak.
 D. Beshqayrag'och, Mo'g'ul, Shayxontahur, Mazori Bahouddin, Qarshi, Namozgoh (Sillohxona (ko'rxona)), Shergiron (Tirgiron), Talapoch, Qorako'l, Beshyog'och, Taxtapul.
10. Shahar aholisining milliy tarkibida o'zbeklar necha foizni tashkil etgan?
 A. Shahar aholisining milliy tarkibida o'zbeklar 87,3 % ni tashkil etgan
 V. Shahar aholisining milliy tarkibida o'zbeklar 7% ni tashkil etgan
 S. Shahar aholisining milliy tarkibida o'zbeklar 60% ni tashkil etgan
 D. Shahar aholisining milliy tarkibida o'zbeklar 50% ni tashkil etgan

7-Mavzu: Xiva xonligi shaharlari. Urganch va Xiva shaharlarining siyosiy markazga darajasiga ko'tarilishi

Reja:

1. Xiva xonligining ma'muriy-hududiy tuzilishidagi o'zgarishlar.
2. Beklik (viloyat) markazlari.
3. Amudaryo bo'limi shaharlari.
4. Xorazm vohasida urbanizatsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зиёева Д. Ўзбекистон шаҳарлари. Т. 2017.
2. Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Тошкент 1998. 313-331-бетлар.
3. Иноятов С., Ҳайитова О ва б. Кармана тарих кўзгусида. Тошкент. 2006.
4. Гулямов Я.Г. Памятники города Хивы. Тагкент. 1941.
5. История Хорезма. Под. Ред. Мишнина И.М. Тошкент. 1976.
6. Желябужеский Е. Очерки истории и завоевания Хивы. М., 1875. С.81.

Xiva xonligi Amudaryoning quyi oqimida, qadimgi qudratli Xorazm davlati o'rnida, O'rta Osiyoning janubi-g'arbiy qismida joylashgan edi. XIX asr 70 yillarining boshida xonlik shimolda Rossiya imperiyasining Orenburg general-gubernatorligi, sharqda Turkiston general-gubernatorligi, janubi-sharqda esa, Buxoro amirligi bilan chegaradosh edi.

O'rta Osiyoda Rossiya imperiyasi boshlagan bosqinchilik siyosati rejalarida Xiva xonligiga alohida e'tibor berilgan va tayyorgarlik ko'rilgan. 1717 yilda Bekovich Cherkasskiy, 1839 yilda general V.A.Perovskiy boshchiligidagi rus armiyasi yurishlarining muvaffaqiyatsiz yakuni tufayli **"Turkistonning yengilmas Jazoiri"** deb nom olgan Xiva xonligiga bu safar juda katta va puxta tayyorgarlik ko'ridi.

XIX asrning 60-70 yillarida O'rta Osiyoni keskin harbiy yurishlar bilan egallashga kirishgan Rossiya imperiyasi 1873 yilda xonlikka qarshi 3 yo'nalishda hujum uyushtirib, mamlakat hududini zabt etdi¹.

1873 yil 12-avgustda Gandimiyonda Turkiston general-gubernatori Kaufman hamda Xiva xoni Said Muhammad Rahimxon imzolagan Rossiya-Xiva sulh shartnoma shartlariga ko'ra², Xiva xonligi o'z siyosiy mustaqilligidan mahrum etildi. Xon boshqa davlatlar bilan Rossiya hukumatining ruhsatisiz har qanday aloqa o'rnatish, qo'shni davlatlar bilan mustaqil diplomatik munosabatlar o'rnatish huquqidan ham butunlay mahrum bo'ldi. Shartnomaga ko'ra, xonlikning Amudaryo o'ng tomonidagi yerlari aholisi bilan birga Rossiya tarkibiga o'tkazildi. Bu bilan xonlik umumiy yer maydonning yarmidan ko'prog'i, ya'ni 75.900 kv. verst yerdan mahrum bo'ldi.

Xonlik ixtiyorida 54.690 kv. verst hudud qoldi². Vaholanki, Rossiya bosqini arafasida xonlikning umumiy yer maydoni 138.237 kv. verst edi. 1913 yilga kelib

¹ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Тошкент 1998. 313-331-бетлар.

² Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. Составил генерального штаба полковник ВЛобачевский. Ташкент, 1912.С 1.

Xiva xonligining xududi 59.250 kv.verst ekanligi qayd etiladi³. Xiva xonligining Amudaryo o'ng sohilidagi yerlarining bir qismi (ya'ni Mishoqlidan to Ko'gartligacha) bo'lgan yerlari Buxoro amirligi ixtiyoriga berildi. Bu bilan Rossiya hukumati ikki qo'shni davlat, Buxoro va Xiva o'rtasiga nizo solishni maqsad qilib qo'ygan edi. Chunki keyinchalik bu ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar yaxshilansa, Rossiyaning hukmronligiga havf tug'dirishi mumkin edi⁴. Ayni paytda bu hududdan o'tgan savdo yo'llarining havfsizligini ta'minlash ham Buxoro amirligi zimmasiga yuklatildi.

Rossiya-Xiva sulh shartnomasiga ko'ra, Amudaryoda imperiya hukumatining ruhsatisiz Xiva va Buxoro kemalarining suzishi ta'qiqlandi. Bundan maqsad Amudaryo orqali o'tadigan savdo yo'llarida imperiya hukmronligini ta'minlash edi. Shartnomaga ko'ra, Amudaryoning chap sohilida ruslar o'zlari uchun qulay va zarur deb hisoblagan joylarda kemalar to'xtaydigan bandargohlar ko'rish huquqiga ega bo'ldilar. Ularning havfsizligini ta'minlash esa, xonlik hukumati zimmasiga yuklatiladi.

Xiva xonligi aholisi o'troq va ko'chmanchilardan iborat bo'lib, shulardan o'troq aholi vohadagi qishloqlarda, shaharlarda va Amudaryodan chiqarilgan ko'plab kanallar bo'ylarida yashar edilar. O'zlarining ekin yerlariga ega bo'lgan ayrim turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar yarim ko'chmanchilik tarzida hayot kechirganlar.

Xiva xonligi ko'p millatli davlat edi. Aholining katta qismini o'zbeklar tashkil qilishi o'sha davrdagi barcha manbalarda qayd etiladi. Xonlik aholisining ko'pchilik qismini tashkil etgan o'zbeklar asosan mamlakatning janubiy hududlarida o'troq hayot kechirib, dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Xiva xonligida o'zbeklarning asosan **qo'ng'iro't, nayman, qiyot, uyg'ur, nukus, qang'li, xitoy, qipchoq** va boshqa urug'lari yashar edi. Shulardan qo'ng'iro't urug'i xonlikda hokimiyatni boshqarib kelgan. 1840 yilda Rossiyada chop etilgan statistik ma'lumotlarda Xiva xonligida aholi soni 900.000 atrofida ekanligi qayd etiladi¹.

Istilo arafasida Xiva xonligini strategik maqsadlarda tadqiq eggan M.I.Ivanin esa mamlakatdagi soliq to'lovchilar soni asosida xonlikdagi xonadonlar va o'tovlar sonini 171.000 ta ekanligini aniqlaydi. M.I.Ivanin xo'jaliklar sonini 4 ga ko'paytirish asosida mamlakatdagi aholi nufusi uning tasarrufidagi ko'chmanchi turkman va qozoqlarni qo'shmaganda 800.000 jondan iborat, degan xulosaga keladi². Agar xo'jaliklar soni xonlikdagi XX asr boshiga oid rasmiy mezonlardan kelib chiqib, o'rtacha 7 ga ko'paytirilsa, axoli soni 1,2 mln. ga yetib qolgan edi, degan xulosaga kelish mumkin.

A.L.Kun 1873 yilda qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, bu davrda xonlikda yashagan o'zbeklar 60.000 xonadonni¹, son jihatdan o'zbeklardan keyingi o'mida turuvchi turkmanlar 405 96 ming oilani², son jihatdan uchinchi o'rinda turuvchi qoraqalpotutar 25 ming oilani, qozoqdar 100 ming kishini tashkil qilgan³. A.L.Kun

³ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С.348.

⁴ ЎЗР МДА, 715-жамгарма, 1-руйхат, 57-йигма жилд, 198-варақ

¹ Иванин М.И. Хива и река Амударья. СПб., 1873. С.53-54.

² Туркестанский сборник. Том 6. С.379.

³ Туркестанский сборник. Том 6. С.379.

“o‘zbek, turkman, qozoq xonadon va oilalarini jami 125 000 ta hisoblab, har bir oilaga o‘rtacha 5 kishidan to‘g‘ri kelishini taxmin qiladi. Pirovardida u Xiva xonligida aholi soni 780 ming kishini tashkil etadi”, degan xulosaga keladi⁴. Bu raqamlar keyingi davrda yaratilgan tadqiqotlarda biridan biriga ko‘chib yurib, o‘mashib qoladi.

Agar Xiva xoni arxivida qayd etilganidek, har bir xonadonga o‘rtacha 7 kishi to‘g‘ri keladi, deb nazarda tutsak, u holda 60.000 o‘zbeklar xonadoni, 40.000 turkmanlar oilasi, 25.000 qoraqalpoqlar oilasidan iborat jami 125.000 xonadon 875.000 kishini, qozoqlar bilan esa, 975.000 kishini tashkil qiladi. Bu esa mamlakat aholisi istilodan avval bir million atrofida bo‘lgan, degan xulosaga asos bo‘ladi⁵.

1873 yilda Rossiya imperiyasining Xiva xonligiga tajovuzi natijasida Amudaryoning o‘ng sohilidagi yerlar va ularda yashovchi 130.000 dan ortiq, aholi (32.521 xonadon) Turkiston general-gubernatorligi tarkibida tashkil etilgan Amudaryo bo‘limiga o‘tkazildi. Shu munosabat bilan xonlik hududi qisqarib, aholisi nisbatan kamaydi.

1897 yilda o‘tkazilgan aholini ro‘yhatga olish jarayonida aniqlangan ma‘lumotlarga ko‘ra Xiva xonligining aholisi 600.000 kishini tashkil qilardi. Amudaryo bo‘limidagi aholi soni esa 205.000 kishiga yetgan¹.

XIX asr oxiri - XX asr boshiga kelib xonlikda 1873 yilda aniqlangan 171.000 ta xonadon soni 136.416 taga tushib qoldi. Chunki 1880 yillarda bo‘ysundirilgan turkman qabilalarining katta qismi - 10.000 ga yaqin turkman o‘tovlari (taxminan 50 mingdan ortiq kishi) Turkiston general-gubernatorligi tarkibida tashkil qilingan Kaspiy orti viloyati tarkibiga kiritildi. 12.730 turkman oilasi Amudaryo bo‘limi tarkibiga o‘tkazildi. Natijada, Xiva xonligi tarkibida 1873 yilda qayd etilgan 40.000 turkman oilasidan taxminan 17.270 ta qolgan. Ularning soni taxminan 140 000 atrofida (139.640 ta) edi².

Shuni alohida qayd etish lozimki, o‘sha davr statistik tadqiqotlarida Amudaryo bo‘limi Sirdaryo viloyati tarkibida bo‘lganligi bois uning aholisi ham shu viloyat tarkibida qayd etilardi. Xiva xonligi esa barcha adabiyotlarda alohida ko‘rsatilardi. Masalaga bunday yondoshuv natijasida o‘sha davr adabiyotlarida Xiva xonligi aholisi yarim million atrofidagi juda kichik bir mamlakat sifatida tasavvur shakllanib bordi.

Faqatgina harbiy statistik tadqiqotlarda Xiva xonligi va Amudaryo bo‘limlari yagona Xiva tumanining ikki qismi sifatida qaralgan. Biroq ularning ma‘muriy tuzilishi, aholisi va boshqa statistik ma‘lumotlari alohida yoritilgan. Shunday tadqiqotlardan biri 1903 yilda rus harbiylari - kapitan (keyinchalik esa general-leytenant) V.A. Girshfeld tomonidan tuzilgan Xiva xonligining harbiy statistik bayoni edi. Unda Amudaryo bo‘limi va Xiva xonligida jami 136.416 ta xonadon borligi,

⁴ Туркестанский сборник. Том 6. С.379.

⁵ Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Составлено Генерального Штаба Капитаном Гиршфельдом, переработано начальником Аму-Дарьинского отдела Генерал-Майором Галкиным Ташкент, 1903. Часть II. С.56.

¹ Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Составлено Генерального Штаба Капитаном Гиршфельдом, переработано начальником Аму-Дарьинского отдела Генерал-Майором Галкиным Ташкент, 1903. Часть II. С.56.

² Зиёева Д. Ўзбекистон шахарлари. Т. 2017. 283б.

shundan 103.895 tasi Xiva xonligiga, 32.521 tasi Amudaryo bo'limiga to'g'ri kelishi qayd qilinadi. Biroq muallif nima uchundir xonlikdagi xonadonlar sonini 5 ga, Amudaryo bo'limidagi xonadonlar sonini 6 ga ko'paytiradi va shu asosda Xiva xonligida axoli soni 519.437 kishini, Amudaryo bo'limida esa 194.500 kishini yashaydi, degan xulosaga keladi.

Shu tariqa 1897 yilda 600. 000 kishi hisoblangan Xiva xonligi aholisi sun'iy ravishda yanada kamaytiriladi. Ayni paytda V.A.Girshfeld xonlikdagi aholi 600.000 dan kam emasligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, Xiva xonligidagi xonadonlar ham 6 ga ko'paytirilsa, undagi aholi soni 623.370 kishini, 7 ga ko'paytirilsa 727.265 kishini tashkil qilgan, deb taxmin qilish mumkin.

O'sha davrdagi rus muallifi I.I.Geyer ham 1908 yilda chop etilgan o'z tadqiqotida Xiva xonligining aholisi 700.000 kishi atrofida ekanligini ko'rsatib o'tgan edi.

Oradan bir necha yil o'tgach, 1912 yilda V.Lobachevskiyning Xiva xonligi bo'yicha harbiy statistik tadqiqotida keltirilishicha, mamlakatda 1909-1910 yillarga oid rasmiy ma'lumotlarga ko'ra 107.600 xonadon bo'lgan. Muallif har bir xonadonga 6 kishidan hisoblab, mamlakat aholisini 646.044 kishiga yetgan, deb ko'rsatadi. Ayni paytda V.Lobachevskiy xonadonlar sonini 6 ga ko'paytirish orqali mamlakat aholisi 646.044 kishi, deb qayd etsa-da, "aslida xonlik aholisining ko'lamiga ko'ra, uning soni 700.000 kishidan kam emas" degan fikmi ta'kidlab o'tadi¹.

Shu o'rinda mamlakat aholisining soni haqida Xiva xonligida aniqlangan rasmiy ma'lumotlar alohida qiziqish uyg'otadi. Xiva xoni arxivida saqlanayotgan rasmiy ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, mamlakatda 1910 yilda 106.000 xonadon bo'lib, har bir xonadonga 7 jon to'g'ri kelgan va jami aholi 742.000 ni tashkil qilgan².

Shu davrga oid statistik ma'lumotlarda 1913 yilga kelib Amudaryo bo'limidagi aholi soni 234.291 kishiga yetganligi qayd etiladi³. Agar Xiva xonligi bilan Amudaryo bo'limi axolisi qo'shib hisoblansa, umumiy aholi soni 1913 yilga kelib 1 million atrofida (976 000) bo'lganligini ko'rish mumkin. Agar bunga Kaspiy orti viloyati tarkibiga o'tib ketgan 50.000 dan ortiq turkmanlar ham qo'shib hisoblansa, butun Xorazm vohasi aholisining soni 1 milliondan ortiq bo'lganligi ma'lum bo'ladi. Bu esa Xiva xonligida istilodan avvalgi axoli soniga teng edi.

Xonlikdagi aholi sonining o'sish dinamikasi shuni ko'rsatadiki, 1897-1903 yillarda aholi 27.870 kishiga ko'paygan, bu esa yiliga 4.645 dan to'g'ri kelgan.

V.A.Girshfeld va V.Lobachevskiy tomonidan 1903 va 1909-1910 yillarda qayd etilgan xonadonlar soni haqidagi ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilinsa, ular 6 yil davomida 3600 ga ko'payganligi ma'lum bo'ladi. Bu esa yiliga 600 xonadon ko'payib borganligini ko'rsatadi. Agar xonadonlar soni o'rtacha 7 ga ko'paytirilsa, aholi soni har yili o'rtacha 4.662 ga ortib borganligi ma'lum bo'ladi.

V.Lobachevskiyning aniqlashicha, Xiva xonligidagi aholi tarkibida 61,4 foizi - o'zbeklar (397.000 kishi, 66.300 xonadon), 28,5 foizi - turkmanlar (184.200 kishi, 30.700 ta xonadon), 5,2 foizi - qoraqalpoqlar (34.000 kishi, 5.700 ta xonadon), 3,6 foizi - qozoqlar (23.000 kishi, 3.900 ta xonadon), 0,9 foizi - eroniylar (6.000 kishi,

¹Узбекистан тарихи хрестоматияси (1860-1917 йиллар). IV жилд. Г'шкент. 2014. 1146.

²Обзор Сыр-Дарьинской области за 1913 год. Ташкент, 1916. С. 7.

³Военно статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. 43, 66- бетлар.

1000 ta xonadon), 0,3 foizi- kelgindi aholidan iborat edi. V.Lobachevskiyning ta'kidlashicha, Xiva xonligi va Amudaryo bo'limini ham qo'shib hisoblaganda, butun vohadagi aholining tarkibida o'zbeklar 459.795 kishini (53,3%), turkmanlar 199.025 kishini (23,1%), qozoqlar 66.537 kishini (7,7%), qoraqalpoqlar 12.618 kishini (14,7%), eroniyalar 6.000 kishini (0,7%), ruslar - 5.041 (0,5 %) kishini tashkil etgan¹ (bu raqamlar har bir xonadonga 6 kishidan hisoblashga asoslangan).

Ma'muriy-xududiy jihatdan Xiva xonligi 20 ta bekliklarga bo'lingan: 1) Pitnak 2) Xazorasp 3) Xonqa 4) Urganch 5) Qo'shko'pir 6) Razovot 7) Qiyot 8) Shox Obod yoki Shovot 9) Toshhovuz; 10) Ambar-Manoq 11) Gurlan 12) Mang'it 13) Qilich Niyozboy 14) Qipchoq 15) Porsu 16) Ilyoli 17) Ko'xna Urganch 18) Xo'jayli; 19) Shumanay va 20) Qo'ng'irot². Bekliklar xon tomonidan tayinlanadigan hokimlar tarafidan boshqarilgan. Beklikdagi barcha ma'muriy va siyosiy ishlar hokimlar qo'lida bo'lgan. Bulardan tashqari, Beshariq va Qiyot, Qo'ng'irot nomli ikkita noiblik ham bor edi. Ular xon tomonidan tayinlangan noiblar tomonidan boshqarilgan. Xiva shahri atrofidagi aholi bilan birga alohida ma'muriy beklikka bo'lingan bo'lib, bevosita xon tomonidan boshqarilgan.

Bekliklar masjid qavmlariga ajratilgan edi. Masjid qavmlarini qishloqning obro'li kishilari orasidan saylanib, xon tomonidan tasdiqlangan oqsoqollar boshqarganlar. Ular bevosita beklik hokimiga bo'ysunganlar.

Turkmanlar, qozoqlar va qoraqalpoqlar o'z urug' yetakchilari tomonidan boshqarilgan. Turkmanlarda urug' yetakchilari **katxudo, oqsoqol** deb nomlangan. Qoraqalpoq, qozoqlarda urug' sardorlari otaliq va biy deb atalgan. Biylar kichik urug'larga rahbarlik qilganlar va **otaliqqa** bo'ysungan.

Otaliqlar ana shu bir necha kichik urug'larning yirik urug' birlashmasini boshqarganlar. Otaliqlar o'z navbatida beklarbegiga, beklarbegi esa, o'z navbatida rus amaldoriga bo'ysunganlar. 1873 yili qoraqalpoqlarni ikkita beklarbegi birlashtirib turardi, ulardan biri Qo'ng'irot urug'iga, ikkinchisi Mang'itlarga boshliq yedi. Qoraqalpoqlarning barcha **biy va otaliqlari** shularga itoat qilgan.

Xiva xonligida hokimiyatni o'zbeklarning qo'ng'irot urug'iga mansub xon boshqarardi. Xonlikning boshqaruv tizimi mamuriy, moliya, sud, mirshablik va harbiy idoralardan iborat bo'lib, ularning har biriga shaxsan xon tomonidan mansabdor shaxslar tayinlangan. Xiva xonligidagi eng yuqori lavozimlar **mehtar, qushbegi va devonbegi** lavozimlari edi.

Istilodan avvalgi davrga oid manbalarida Xiva xonligida 32 ta shahar borligi, shahar aholisi taxminan 50.000-60.000 kishini tashkil etishi qayd etiladi. Mintaqadagi boshqa shaharlarga nisbatan ancha kichik bo'lgan bu shaharchalar viloyat va noibliklar markazlari bo'lib, ularning ayrimlari o'troq, aholini ko'chmanchilar hujumidan himoya qiladigan mudofaa markazi - qal'alar edi. Ushbu manzillar devorlar bilan o'rab olinganligi, o'z boshqaruvchisi va harbiy ko'chalari bo'lganligi, masjid, bozorchaga egaligi, ma'muriy, harbiy kishilar va boshqa fuqarolar o'z oila a'zolari bilan yashaganligi bois uy-joylari 50-100 va bir necha yuz nafar bo'lsa ham, shahar sifatida e'tirof etilgan. Bu Xiva xonligidagi shaharlar kategoriyasining o'ziga

¹ Письмо в редакцию // Туркестанский сборник. Том 5. С. 15

² Военно-статическое «описание Хивинского оазиса. Часть II. С. 22-23.

xos hususiyati edi. Shaharlar tipologiyasida faqatgina Xiva xonligiga xos bo'lgan bunday xususiyat xonlik tugatilgandan keyingi yillarda ham inobatga olinib, shahar aholisi, tuman markazlarini belgilashda alohida e'tibor qaratilgan.

Quyida tom ma'nodagi ma'muriy-hududiy birlik-beklik markazlari bo'lgan katta-kichik shaharlar bilan birga ayrim qal'a shaharchalarga yoki katta bozorlarga egaligi bois iqtisodiy markazlarga aylangan shaharchalarga ham to'xtalib o'tiladi.

Xiva shahar madaniyatining o'ziga xos hususiyatlari Xiva o'zining qurilishi, tarixiy o'tmishi me'moriy obidalarining yaxlit tarzda saqlanib qolganligi bilan qadimiy shaharlar orasida alohida o'rin tutadi¹.

Xiva shaharlari mustahkam devorlar bilan o'ralgan bo'lib, uning tashqi devorida 1863 yildagi ma'lumotlarga ko'ra, 9 ta darvoza, 1873 - yildagi ma'lumotlarga ko'ra, 7 ta darvoza bo'lgan². Darvozalarning 4 tasi - **Xazorasp, Bog'cha, Eshik, Urganch** darvozalari asosiy darvoza hisoblangan. Darvozalar oldiga zambaraklar joylashtirilgan. Shaharning ichki devori atrofiga ham yana ikki qator zambarak va muntazam qo'shinlar joylashtirilgan.

Arminiy Vamberi 1863 yilda qayd etgan ma'lumotlarga ko'ra, Xiva shahri ma'muriy jihatdan **Ur, Kaptarxona, Mevaston, Mextarobod, Yangi qal'a, Bola hovuz, Nurullaboy, Bog'cha, Rofinak** deb nomlangan 10 ta mahallaga bo'lingan³.

Xiva shahrining eng kichik ma'muriy bo'linmasi masjid qavmlari bo'lib, boshqa shaharlar misolida olib qaraganda, bu mahalla yoki guzarlarga to'g'ri keladi. Ayni bir masjid atrofida yashagan aholi qavmlarga birlashib, bir jamoani - mahalla ahlini tashkil etgan. Masjid qavmlari soliq to'plash, mahalliy boshqarish, ijtimoiy muammolarni hal etish jarayonida kichik ma'muriy bo'linma sifatida juda qulay bo'lib, muhim ahamiyat kasb etgan. Har bir masjid qavmi o'z qozisi, imom, soliq to'plovchisiga ega bo'lgan, ular shaxar qozisi va boshqa amaldorlariga bo'ysungan. XX asr boshida Xiva shahrida jami 65 ta masjid qavmlari bo'lib, ularning har birida 30 tadan 200 tagacha xonadon istiqomat qilgan. Xivadagi bunday ma'muriy bo'linma Buxorodagi guzar tizimi bilan juda o'xshash bo'lib, ularda ham taxminan shunchadan xonadon joylashgan. Masjid qavmlarini oqsoqollar boshqargan. Oqsoqollar o'sha hududda yashovchi obro'li kishilardan saylanib, xon tomonidan tasdiqlangan. Ularga qozi kalon tomonidan maxsus yorliq topshirilgan. Xiva shahri hududiy jihatdan 2 qismdan - **Ichan qal'a** (ichki shahar) va **Dishan qal'a** (tashqi shahar) dan iborat bo'lib, uning bunday tuzilishi shahar ichidagi shahar manzarasini berardi.

Ichan qal'a maydonining shimoldan janubgacha uzunligi 650 metrga yaqin, eni 400 metrga yetgan va 26 gektarni tashkil qilgan. Ichan qal'aga to'rt darvoza - shimolda Bog'cha (yoki Urganch) darvoza, g'arbda Ota darvoza, sharqda Polvon darvoza (eski nomi Xazorasp darvozasi), janubda Tosh darvoza (yoki Ko'xna bozor

¹ Xiva shahrining Ichankal'a qismiy Markaziy Osiyoda saqlanib kongan birdan bir yaxlit shahar - e'dgorlik bulayb. 1990 yil dekabrda YUNESKO ruyxatiga kabul qilindi. Xiva jahon madaniyat merosiga kabul qilingan yozinchi shahar buldi.

² Костемко Л. Город Хива в 1873 году. // Туркестанский сборник. Том 2. С.321.

³ Travels and Central Asian being the account of a journey from Teheran across the Turkoman desert on the eastern shore of the Caspian to Khiva, Bokhara and Samarkand performed in the year 1863 by Arminius Vambery, Member of Hungarian Academy of Pesth, by whom he was sent on this scientific mission. London John Murray Albemarle Street 1864 P330.

darvozasi) orqali kirilgan¹. Ichan qal'a baland paxsa devor bilan o'ralgan bo'lib, uning aylanasining uzunligi qariyb 2.200 metrgacha, balandligi 7-8 metrga, poydevorining qalinligi esa, 5-6 metrga yetgan.

1863-1864 yillarda Armiy Vamberi Ichan qal'a hududi **Paxlavan, Ulliyo'g'ich, Oqmasjid, Yipakchi, Qo'shbegi** mahallalariga (daxalarga) bo'linishini qayd etgan². Darhaqiqat Ichan qal'ada shimoldan janubga hamda sharqdan g'arbga qarab kesib o'tgan ikki asosiy ko'cha shahar hududini to'rt qismga bo'lgan³. Bu asosiy ko'chalarga turli tomonlarga qarab ketgan ko'p sonli kichik ko'chalar bog'langan. Ularning umumiy soni 33 tani tashkil etgan.

Mayda ko'chalarning ko'pi bostirmali bo'lib, yozda jazirama oftob nuridan, qishda qor-yomg'irdan asragan. Usti yopiq ko'chalar baqqollik va boshqa turli do'konlarning faoliyati uchun juda qulay bo'lgan. Ko'chalar kesishgan joylarda, ya'ni chorsularda do'kon va bozor chalar bo'lgan. Shaharda jami 15 ta chorsu bo'lgan. Shaharning g'arbiy qismida bog'lar, yaylovlar borligi bois aholisi nisbatan siyrak, havosi esa toza edi.

Xiva shahrining kengayib borishi bois uning atrofidagi hudud, ya'ni Ichan qal'a tashqarisidagi yerlar Olloqulixon hukmronligi davrida yana qo'shimcha baland devor bilan o'rab olinadi. Shu tariqa shaharning ikkinchi qismi - Dishan qal'a yuzaga keladi va shahar ikki qismdan iborat bo'lib qoladi.

Dishan qal'a devorining uzunligi 6.250 metr bo'lib, uning **Xazorasp (Qo'y darvoza), Pishkanik, Angarik, Shixlar, Tozabog', Shoximardon, Doshyoq, Gadoylar, Qo'sha darvoza va Gandimyon** deb atalgan o'nta darvozasi bo'lgan. Dishan qal'a qurilishi bilan Xiva shahri hududiy jihatdan ikki qismga bo'linsa-da, uning ma'muriy boshqaruvida yaxlitlik saqlanib qoldi.

Dishan qal'a hududida kosiblar, hunarmandlar va mayda savdogarlar yashagan 34 ta masjid qavmlari, ya'ni mahallalar nomi shu yerda yashayotgan aholining kasb-kori: Chitkarlik, Elakchilik, Kulollar, Misgarlik, G'assollar bilan atalgan. Bu holat Dishan qal'a aholining katta qismi asosan hunarmandlar bo'lganligidan dalolat beradi. Dishan qal'aning sharqiy qismida 34 ta, g'arbiy qismida esa, 42 ta ko'cha bo'lgan⁴. Dishan qal'ada hovuzlar, yam-yashil bog'lar ko'p bo'lib, uy joylari ayvonli, o'ziga xos uslubda qurilgan, yog'och o'ymakorligiga katta e'tibor qaratilgan. Keyinchalik Dishan qal'a aholi turar joylaridan tashqari xonning yozgi qarorgohlari - **Rofanik, Nurullabek va Nurullaboy** bog'lari barpo etilgan⁵.

¹ Гулямов Я.Г. Памятники города Хивы. Ташкент, 1941. С.8.

² Travels and central Asia being the account of a journey from Teheran across the Turkman desert on the eastern shore of the Caspian to Khiva, Bokhara and Samarkand performed in the year 1863 by Arminius Vambery. P.330

³ Нильсон В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистан (XIX начало XX веков) Ташкент 1988. С.151.

⁴ Абдурасулова. Хива (тарихий-этнографик очерклар). Тошкент, 1997. 316.

⁵ Абдурасулов А. Хива (тарихий- этнографик очерклар) Тошкент. 1997. 316.

¹ История Хорезма. Под. ред. Муминова И.М. Ташкент. 1976. С.96.

² История Хорезма. Под. ред. Муминова И.М. Ташкент. 1976. С.96.

³ Болтабаев А. Хива хонлиги тарихига оид материаллар // Ўзбекистон тарихи хрестоматияси. 4-жилд. 496.

⁴ Болтабаев А. Хива хонлиги тарихига оид материаллар // Ўзбекистон тарихи хрестоматияси. 4-жилд. 496.

⁵ Новейшие известия о Хиве. // Туркестанский сборник. Том 382. С.1; Соболев Л. Обзор доступов к Хивинскому ханству. // Туркестанский сборник. Том 82. С. 162.

⁶ Желябужский Е. Очерки истории и завоевания Хивы. М., 1875. С.81.; Туркестанский сборник. Том 85. 1873. С.265.

Xonlikda XX asr boshida 130 ta madrasada 6.500 ta talaba, 1.500 ta maktabda 45.000 o'quvchi o'qigan². Xiva shaxrida esa, 62-63 ta Madrasa faoliyat yuritgan³. Shaxarda jami 79 ta masjid bo'lib, shundan 34 tasi Ichon qal'ada, 45 tasi Dishon qal'ada joylashgan⁴.

1870 yillarga oid rus adabiyotlarida Xiva shahrida 4 mingta uy-joy borligi, ularda 20.000 kishi yashashi⁵, aholi tarkibida o'zbeklar asosiy o'rin tutishi qayd etilgan. Rus mualliflari Rossiyadagi mezonlar asosida har bir xonadonga 5 kishidan hisoblaganlar. Aslida shahar aholisi bundan ancha ko'p edi. Bir necha yil shaharda yashagan rus asirlaridan biri Xivada 1872-1873 yillarda 35.000 aholi yashayotganligini qayd etadi⁶.

Turkiston general-gubernatorligida rasmiy manbalar asosida tayyorlangan statistik tadqiqotlarida 1887 yilda 625 Xiva shahrida aholi soni 30.000 ga yetganligi qayd etiladi⁷.

1903 yilda esa, shaharda 3.840 xonadonda 19.000 dan ortiq aholi yashashi qayd etiladi⁸. Xiva xoni arxividagi 1910 yilga oid rasmiy manbalarga ko'ra esa, shaharda jami 7.000 xonadon bor edi⁹.

1912 yilda qayd etilgan ma'lumotlarga qaraganda Xiva shahri aholisi 50 mingga yetgan. Xon saroyidagi rasmiy malumotlarga ko'ra Ichon qal'a va Dishon qal'ada jami 7.000 xonadon bo'lsa va unda o'rtacha 7 kishidan yashasa, bunga yana saroyda 400 navkar, saroy ahli, xizmatchilari, 60 dan ortiq madrasalardagi **talabalar, qalandarxona, musofirxona**, korixonalarda yashab yurgan musofir hamda uy-joysiz beva-bechoralar, yolg'iz kishilar ham hisobga olinsa, Xiva aholisi o'rtacha 50.000 kishi bo'lganligiga to'la ishonch hosil qilish mumkin bo'ladi.

Ichon qal'adagi asosiy binolar sharqiy va g'arbiy darvozalar, ya'ni **Polvon darvoza va Ota darvozadan** kirish qismida **xon saroylari, masjid, Madrasa va minoralar** joylashgan. Lekin boshqa shaharlardan farq qilib, Ichon qal'ada oddiy fuqarolarning uylari saroylardan juda chetda joylashmagan. Chunki bu uylarda asosan amaldorlar yashagan. Ichon qal'aning g'arbiy qismini egallab turgan Ko'hna ark shaharning eng qadimiy qismi bo'lib, XVII asrda qurilgan. Ko'hna arkda, ya'ni saroy hududida xon va amaldorlarning **uy-joylari, davlat idoralari, xon devonxonasi, ko'rinishxona (qabulxona), xonning xarami, yozgi va qishgi masjidlari, zarbxona, aslaxoxona, o'q-dori tayyorlanadigan ustaxona, xo'jalik xonalari (omborxona, oshxona, otxona)** joylashgan.

Ko'hna arkning bir tomoni Ichon qal'a devori bilan, boshqa tomonlari mahsus devorlar bilan o'rab olingan. Arkka sharqiy darvozadan kirib borilgan. Uning xududi 1 gektardan ziyodroq maydonni egallab, to'rtburchak shaklda: 123x93 metr qilib qurilgan va baland qalin devor bilan o'ralgan. Ko'hna ark bir-biriga yo'laklar orqali o'tiladigan 4 ta hovlidan iborat bo'lib, eng ichkari hovlida xonga qarashli uy-joylar, uning harami joylashgan.

Olloqulixon davrida barpo etilgan Tosh hovli saroyi pishiq g'ishtdan, devorlari baland qilib qurilgan. Saroy asosan uch qismdan - **xaram, ishrat xovli va**

²Сырдарьинская область. Описание, составленное по официальным источникам Е.Смирновым. Санкт-Петербург, 1887. С.59.

³Историческое описание Хивинского оазиса. Часть II. С. 128.

⁴Узбекистон тарихи хрестоматияси (1860-1917). IV жилд. 115-бет.

arzxonadan iborat bo'lgan. Shuningdek, **uy-joy, mexmonxona, arzxona**, hamda boshqa yordamchi va xizmatchi xonalari bo'lgan. Har bir bino oldida ustunli peshayvon bo'lib, an'anaviy yog'och o'yimakorlik naqshlari bilan bezalgan.

Tosh hovli saroyi: 80x80 metr, XIX asr me'morchilik san'atining yorqin namunasi bo'lib, tashqi ko'rinishi va qurilishi jihatidan **Ko'hna Ark** saroyiga o'xshab ketadi. Saroy Ichan qal'aning sharqiy darvozasi yonidagi binolar bilan birgalikda yagona ansamblni tashkil etib, jamoat markazi shu yerga jalb qilingan. Saroy ulkan va hashamatli bo'lib, uzoq muddatda qurilgan. Uni qurish uchun Xorazmning **eng yaxshi ustalari, naqqoshlari, koshinpazlari** safarbar qilingan.

Tosh hovli saroyining baland devorlari pishiq g'ishtdan qurilgan, devoridagi burjlar va darvozalari mustahkamligi saroyini qo'rg'on-istehkomga aylantirgan edi. Saroy uchta katta hovli - ko'rinishxona (arzxona va ishratxona, ya'ni dam olish joyi), mehmonxona, haramdan iborat bo'lgan. Bu yerdagi xonalar soni 160 dan ortiq bo'lgan. Yog'och ustunlar, marmar toshlar, shiplardagi yozuvlardan ma'lum bo'lishicha, saroy 8 yil davomida qurib bitkazilgan.

Ichan qal'ada imoratlar soni ko'payib, yangi va bog'li joylar qurish imkoni kamaygach, Muhammad Rahimxon I tomonidan uning o'g'illari uchun shaharning g'arbiy tomonidan uy-joylar barpo etiladi. Sayid Muhammad to'ra hukmronligi davrida (1856) Nurillaboy bog'ida yangi saroy barpo etiladi. Bayoniy va Ogahiy asarlarida qayd etilishicha, "Nurullaboy" bog'ida yangi qarorgoh kun chiqar tomonida qurilgan bo'lib, bu yerdagi ko'rinishxonada yoz faslida ochiq havoda qabul marosimlari o'tkazilgan. Sayid Muhammadxondan keyin taxtga ko'tarilgan o'g'li Muhammad Rahimxon II (1864-1910) Nurullaboy bog'ida o'g'li Isfandiyorxon uchun katta bir saroy va haram (ichki hovli) qurdiradi. Bu ichki saroy 1896-1904 yillarda qurilgan bo'lib, baland devor bilan o'rab olingan. Saroyga janub tomonda qurilgan maxsus darvoza orqali kirilgan. Darvoza ichkarisida xon mahkamasi shaxsiy qo'riqchilar uchun xonalar, devonxona bunyod qilingan saroydagi Isfandiyor to'ra uchun mo'ljallangan xonalarga Rossiyadan chinni pechkalar keltirilgan. Baland devor bilan o'rab olingan saroy o'zining kengligi, me'moriy uslubi, Xivaga xos ayvonlarning turli tumanligi, qurilish texnikasining betakrorligi bilan ajralib turadi. An'anaga ko'ra, saroy o'rtasida hovuz, gulzor mavjud bo'lib, hovuz atrofiga soyasi kishi taniga orom bag'ishlaydigan g'ujum daraxtlari ekilgan. Saroyning atrofida yozgi va qishki masjid, Madrasa, maktab, otxona, tegirmon bo'lgan. Saroyini gir atrofi bog' bilan o'rab olingan. Saroyda xon mahkamasi, shaxsiy qo'riqchilar uchun xonalar, devonxona bunyod qilingan. Muhammad Rahimxon Feruz vafotidan so'ng taxtga chiqqan Isfandiyorxon (1910-1918) Nurullaboy saroyidagi qurilishlarni davom ettirib, uchinchi hovli - **Qiblai Tozabog'**ni barpo etadi. Xivadagi tarixiy obidalar tizimida alohida o'rin egallagan, an'anaviy hamda yevropacha qurilish uslublarning uyg'unligi bilan ajralib turgan bu qarorgoh uchta hovlidan iborat bo'lib, ulardan ikkitasida xon va uning harami, uchinchisida esa, mehmonxona va qabulxona joylashgan edi. Yangi uslubda qurilgan bu bino loyihasini tayyorlashga Moskvadan rus arxitektorlari jalb etilgan. 1911-1913 yillarda mahsus pishiq g'ishtlardan qurilgan ushbu bino yupqa temir listlar (tunuka) bilan soyabon (uch burchak) shaklida yopiladi. Yetti xonadan iborat binoning eshik, deraza, parket pollarini ishlashga nemis va rus ustalari jalb etiladi.

Mehmonxonada ziyofatlar xonasi, xonning qabulxonasi alohida joylashgan. Xonalar bezagida an'anaviy va yevropacha bezaklardan keng foydalanilgan. Saroyning qish kunlarida isitish uchun Rossiyadan yettita fayans pechkaga, mehmonxona uchun elektr qandillar keltirilgan. Qandillardagi elektr lampochkalarni yoqish uchun o'n olti ot kuchiga ega bo'lgan kichkina dvigitel o'rnatilgan.

Qabulxona qurilishi uchun xazinadan 70 ming tillo (126 ming sum) harajat qilingan. Bu davrda shahardagi inshootlar asosan mahalliy ustalar tomonidan qurilsada, mamlakat hayotida muhim rol o'ynagan ilg'or fikrli bosh vazir Said Islomxo'ja qurilish ishlariga shahardagi nemis mennonitlarini hamda rus me'morlarini ham jalb etadi.

1908-1912 yillarda Said Islomxo'ja Ichon qal'ada Pahlavon Mahmud maqbarasi yaqinida qurdirgan Madrasa 42 ta hujradan iborat bo'lib, 50 ta talaba o'qigan, uning oldingi qismi 2 qavat qilib qurilgan.

Madrasa hovlisiga kirishda o'ng tomonda katta gumbazli masjid va baland minora qurilgan. Minoraning balandligi 56,5 metr, pastki qismining diametri 9 metrni tashkil etgan. Minoraning yuqori qismi juda ingichkalashib, tepasi bejirim karniz va qubbali fonus bilan tugallangan. Fonus yuzasi turli shakldagi sopol-g'ishtchalar bilan hoshiyalangan, ularning orasi esa, rang-barang sirkor koshinlar bilan to'ldirilgan. Fonus va karniz yashil-zangori, lojuvard (moviy) va oq rangdagi sirkor g'ishtchalar bilan qoplangan. Shuning uchun ham minoraning yuqori qismi alohida bo'lib ajralib turar edi. Sirkor bezakli xoshiyalar minoraning konus shaklidagi tanasini bir necha joyidan xalqasimon doira qilib aylangan. Mana shu xolatlar sababli minora "to'rt fasl va o'n ikki oy bezagini aks ettiradi", degan ta'rifga sazovar bo'lgan. Minoraning tepasiga 2,5 metrlik qubba o'rnatilgan bo'lib, u bronza latun va mis aralashmasidan ishlangan. Shu sababli qubba o'z davrida tilladek yaltirab turgan. Minora qubbasi Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi arafasida qayta ta'mirlandi.

Xiva shahrida davlat hazinasini hisobidan ta'minlanadigan mamlakat bo'yicha yagona feldsherlik ambulatoriyasi mavjud bo'lib, unda yevropacha tibbiy xizmat ko'rsatilgan. U yerda xizmat qiluvchilar xonning iltimosi bilan Turkiston General-gubernatori tomonidan jo'natilgan.

Shahardagi bozorlar asosan bir necha turda bo'lgan. Chorva mollari, ko'mir, o'tin, yog'och, yem-hashak bozorlari shahar chetlarida joylashgan. Yirik shaharlarda chorva mollari bozorlari bir nechta joylarda joylashgan. Mol bozorlarida dallollar katta rol o'ynagan. An'anaga ko'ra, chorva savdosida dallolsiz xatto narx ham belgilanmagan. G'alla, bug'doy, ho'l va quruq mevalar rastalari alohida joylashgan. Bunday bozorlarda kapponlar, omborxonalar bo'lgan. Shahar ko'chalari kesishgan chorsularda savdo yoymalari joylashgan. Karvonsaroylarda esa, ulgurji savdo olib borilgan. Xivadagi eng katta savdo majmuasi Olloqulixon timi va karvonsaroyi bo'lib, u XIX asming birinchi yarmida Ichon qal'aning sharqiy qismida barpo etilgan. Bu yerda ilgari mavjud bo'lgan zaxkash arig'i oqava suvidan hosil bo'lgan ko'l hashar usuli bilan ko'milib tashlangach, uning o'mida katta bozor maydoni vujudga kelgan. Bu bozorda don, meva, sovun, sham sotilgan.

Keyinchalik. Olloqulixon, mazkur bozorga chetdan kelayotgan karvonlarni qabul qilish uchun katta karvonsaroy qurdiradi. Karvonsaroyning ikki darvozasi orqali tuyalarda keltirilgan yuklar bemaolol ichkariga olib kirilgan. Bir oz fursat o'tib

ushbu bozorga yondosh qal'a devori yaqinida gumbazli tim, ya'ni usti yopiq bozor barpo etiladi.

Karvonsaroy o'rtasida janubga qaratib solingan darvoza orqali ana shu savdo markaziga o'tilgan. Savdo uyi ikki qavat qilib qurilgan bo'lib, 105 ta hujradan iborat edi. Pastki qavati savdogarlar uchun savdo rastasi vazifasini o'tagan, yuqori qavati esa, mehmonxona hisoblangan. Bino juda qulay va sodda rejalashtirilgan, uning ikki qavatli hujralari keng hovli sahnaga qaragan. Hujralarda chetdan kelib, savdo qiladigan savdogarlar bir necha yilgacha ijarada yashaganlar. Karvonsaroyda mahsus devonxona bo'lib, bu yerda kelib-ketuvchi savdogarlar pul almashtirib beruvchi sarroflar, savdo mahsulotlariga baho belgilovchilar o'tirgan. Shu yerda devonbegi darvozadan o'tgan mollar uchun tamg'a puli olgan va bu pul davlat g'aznasiga emas, 1835 yilda qurilgan Oloqulixon madrasasi kutubxonasini ta'minlashga sarflangan. Hozirgi kunda mazkur karvonsaroy qadimgi an'analarni saqlagan holda "Karvonsaroy savdo markazi"ga aylantirilgan. Karvonsaroylarda, savdo rastalarida hammol, farrosh, yuk tashuvchi, qorovul vazifalarini bajaruvchi yollanma ishchilar bo'lgan.

Doimiy harakatda bo'lgan karvonlar bu savdogarlarni mahsulot bilan ta'minlab turishgan. Shu sababli ushbu bozorda nafaqat mahalliy mahsulotlar, balki rus, ingliz, eron va afg'on mollari ham sotilgan. Bozorda Xiva olachasi, ipak belbog'lari hamda Xorazm zargarlarining betakror zargarlik buyumlari, ingliz movuti, eronning ip aralash shoyilari, ipakli mollar, ko'rpa, kamar, buxorocho etik, xitoy chinnisi, qand, choy kabi turli-tuman mahsulotlarni uchratish mumkin edi. Bozor binosidagi asosiy devorlarda yog'ochdan tokchalar o'rnatilgan, do'koncha peshtaxtalariga sotiladigan mahsulotlar o'yib qo'yilgan. Bozordagi tartib va tosh-tarozini mahsus tayinlangan rais kuzatib turgan va savdo qoidasini yoki tarozi haqini buzganlarni qattiq jazolagan.

Timdan arqning g'arbiy darvozasigacha bo'lgan yerda ham kichkina bozor joylashgan bo'lib, undagi do'konchalar boshqa shaharlardagi do'konlarga o'xshagan oddiy ko'rinishda qurilgan. Bu yerda sotiladigan buyumlar timga qaraganda ancha arzonroq bo'lgan¹.

Yana bir bozor **Xazoras** darvozasi oldida joylashgan bo'lib, bu yerda asosan paxta, sholi, guruch, beda, mol ozuqasi, g'alla sotilgan, uning atrofida mol bozori joylashgan va bu yerda chorva hamda chorva mahsulotlari sotilgan.

Polvon darvozasi ichkarisida joylashgan bozorda go'sht, meva-sabzavot, shirinliklar, sut mahsulotlari sotilgan. Bozorlarning asosan, shahar darvozalari oldida joylashganligi katta qulaylik tug'dirgan. Chorsu savdo rastalarida ham 15-20 tagacha do'konlar bo'lib, ularda kundalik ehtiyoj mollari bilan bir qatorda ayrim savdo mahsulotlariga ixtisoslashuv ham kuzatilgan. Masalan, eng katta chorsu bozori bo'lgan Madanimxon chorsusida 150 ta do'kon bo'lib, ularda tayyor kiyim kechaklar, choponlar, ipak matolar, bo'z, attorlik buyumlari sotilgan². Bozorlarning ayni bir mahsulot turi savdosiga ixtisoslashuvi haridorlar uchun katta qulaylik yaratgan.

¹ Энёева Д. Ўзбекистон шаҳарлари. XIX аср иккинчи ярми XX аср бошлари. Т. 2017. 298б.

² Абдурашулов А. Хива (тарихий-этнографик очерклар). 7) -бет.

Xiva shahri azaldan Xorazmning yirik **xunarmandchilik** markazlaridan biri o'lib kelgan. Xonlikda jami 60 dan ortiq mahalliy ishlab chiqarish turlari mavjud bo'lib, hunarmandlarning aksariyati shaharda va uning atrofida yashagan. To'qimachilik, kiyim-bosh, uy-ro'zg'or buyumlari, oziq-ovqatlar tayyorlashga ixtisoslashgan hunar turlari hunarmandchilikning asosiy sohaları hisoblangan. Temirchilik, misgarlik va zargarlik eng keng tarqalgan hunarlardan edi. Shaharda temirchilikning pichoqchilik, chilangarlik, qulfsózlik, taqachilik, ignasozlik kabi ko'plab mayda tarmoqlari rivojlangan. Xiva hunarmandlari aholini ish qurollari: ketmon, o'roq, belkurak, arra, bolta xamda ro'zg'or, qurilish uchun zarur buyumlar: qulf, mix va boshqalar bilan ta'minlovchi, metallga ishlov berishga ixtisoslashgan kasb turlarini ham yaxshi egallaganlar. Pichoqchilik san'at asari darajasiga ko'tarilgan.

Misgarlar uy-ro'zgor buyumlari tayyorlashda muhim o'rin tutganlar. Ro'zg'or uchun qumg'on, oftoba, choynak, patnis kabi buyumlar yasash, ularga bezak berish bilan shug'ullanadigan qandakorlik juda keng rivojlangan.

Zargarlik ham keng rivojlangan bo'lib, oltin va kumushdan ayollarini turli zeb-ziynat buyumlari san'at asari darajasida ishlangan. Xivada shisha va yog'ochdan buyumlar yasash kabi ishlab chiqarish sohaları keng rivojlangan. XX asming boshlarida Xivada 51 ta yog'ochni qayta ishlash ustaxonasi, 50 ta duradgorlik, 8 ta taroqchilik, 22 ta xarrotlik, 2 ta elakchilik ustaxonalari ishlab turgan³. Yog'ochdan turli xildagi asbob-uskunalar, juvoz, ketmon, bolta dastalari hamda javonlar yasalgan.

Xiva shahrida gilamdo'zlik katta an'ana va tajribaga ega bo'lib, mamlakatda ishlangan gilamlar o'ziga xos hususiyatlari bilan ajralib turgan. Shuningdek, gilamchilik buyumlari - hurjun, joynamoz, ot va tuya anjomlarini to'qish, kigizchilik keng rivojlangan. Shaharda kulolchilik ham yaxshi rivojlangan bo'lib, kulollar idish-tovoqlar, tosh chiroq, guldon, siyohdon, ko'za, tuvak, hum tayyorlaganlar. Sirli sopoldan lagan, kosa, piyola kabi uy-ruzg'or buyumlari tayyorlashgan. Bulardan tashqari kulollar koshinlar, tandirlar ishlab chiqarganlar.

Xivada bundan tashqari to'quvchilik - bo'z, shoyi, chit matolari tayyorlash va chitlarga gul solish hamda bo'yash uchun bo'yoqchilik keng rivojlangan¹. Paxta, ipak, yarim ipak, jundan tayyorlangan turli gazlamalar mahalliy iqlimga mos bo'lib, juda haridorgir bo'lgan. Paxta ipidan matolar to'qish bilan asosan ayollar, shoyi to'qish bilan esa, asosan erkaklar shug'ullangan. Xivalik xunarmandlar bo'yoqchilik, kiyim-bosh tikish, kashtado'zlik, do'ppido'zlik, chopondo'zlik, o'mol tayyorlashda mohir usta edilar.

Shaharda oziq-ovqat va shirinliklar tayyorlashga ixtisoslashgan juvozchi, qandolatchi, novvoy, qassob kabi o'nlab kasb egalari ham faoliyat yuritgan.

Xiva shahrida tayyorlangan ko'ncilik mahsulotlari juda haridorgir bo'lgan. Xususan, po'stindo'z, poyafzal ishlab chiqaruvchi hunarmandlar orasida ko'ncilar tomonidan ishlov berilgan terining turli xillari - sagri, yuft, talatin va boshqa nomdagi terilar haridorgir edi. Hunarmandchilik mahsulotlariga shahar va uning atroflarida talab katta edi. Mahsulotlar savdogarlar tomonidan ko'chmanchilar yashaydigan dashtlarga, qo'shni xonliklarga va uzoq yurtlarga xam yetkazilgan. Xiva

³ Моткова В. Ковры народов Средней Азии конца XIX — нач. XX вв. С. 47.

hunarmandlari mahalliy xom ashyodan aholining kundalik turmushi uchun zarur narsalardan tortib, to yuqori tabaqa vakillarining nozik didlariga mos keladigan kimmatbaho mahsulot turlarigacha tayyorlay olganlar.

Xivada zamon talablari asosida yangi hunarlar - tunukasozlik, uylarga pol qoqish, ayrim yangi oziq-ovqat turlarini ishlab chiqarish turlari paydo bo'ldi. Ayni paytda Rossiyadan tayyor fabrika mahsulotlarining keltirilishi mahalliy hunarmandchilikning ayrim sohaları rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa temir yo'l qurilishi bilan Xiva bozori rus sanoat mahsulotlariga to'lib ketdi. Ayniqsa, xonlikka rus gazlamalarining ko'plab keltirilishi mahalliy to'qimachilikka qattiq zarba berdi. Mahalliy gazlamalar raqobatga dosh berolmay, ichki va tashqi bozordan tobora siqib chiqarildi.

Mahalliy hunarmandchilikning yana bir qancha turlari - to'qimachilik, yog' tayyorlash, metall buyumlar yasash, kosibchilik, ipakchilik kasodga uchray boshlasada, mahalliy talab va ehtiyojlar asosida rivojlanib kelgan ko'pgina hunarlar davom etdi va mahalliy aholining ichki ehtiyojlarni qondirishda asosiy o'rinni saqlab qoldi.

Xiva shahri xonlikning ichki savdo rivojlangan markazlaridan biri edi. Shaharda 1873 yilda 260 ta do'kon¹, bir qancha bozorlar faoliyat yuritardi. Keyinchalik aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, shaharda 15 ta chorsu, 3 ta katta bozor, 400 ta do'kon va yana karvonsaroylarda 105 ta do'kon faoliyat yuritgan. Xiva shahrida olib borilgan savdo aloqalari bir necha yo'nalishlardan - shahar aholisi uchun ichki savdo, ko'chmanchi aholi - qozoq va qoraqalpoqlar bilan savdo va qo'shni mamlakatlar bilan tashqi savdodan iborat edi. Xiva bozorlarida qoraqalpoq, turkman, qozoq, qirg'iz savdogarlari chorva va chorvachilik mahsulotlari bilan savdo qilsa, o'troq axoli o'zi yetishtirgan qishloq xo'jalik va hunarmandchilik mahsulotlarini chorvachilik mahsulotlariga ayirbosh qilardilar. Shaharliklar bilan ko'chmanchilar o'rtasida savdo sherikchiligi juda qadimdan yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu an'ana ularga ota meros bo'lib kelgan. Xonlikdagi bozorlarda savdo jarayonida boshqa shaharlardan kelgan savdogarlarning faol ishtirok etishiga imkon yaratish uchun bozor kunlari mamlakat miqyosida taqsimlab qo'yilgan. YA'ni har bir shahar uchun bevosita xon tomonidan muayyan "bozor kunlari" belgilab qo'yilgan. Xiva shahri uchun haftaning dushanba va payshanba kunlari bozor bo'lishi belgilangan edi. O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida bo'lgani singari Xiva bozorlari o'z tuzilishiga ko'ra mahsulotlarning ayrim turlarini sotishga ixtisoslashgan kichik bozorlarga bo'lingan va ularning nomlanishi ham shunga muvofiq bo'lgan. Shaharda paxta bozori, kunjut bozori, don bozori, guruch bozori, tamaki bozori, sut bozori va boshqa mahsulotlar bozorlari faoliyat ko'rsatgan.

Xiva bozorlarida chorva mollaridan tortib, don mahsulotlari, kiyim-kechak, gazlamalar, dexqonchilik asboblari, ikki g'ildirakli aravalar, egarlar, ot anjomlari, qayiqalar, ko'mir, tuzgacha sotilgan. Savdo-sotiq nakd pul bilan ham, tovar ayirboshlash yo'li bilan ham amalga oshirilgan. Shaharda har yili yirik bozorlarda savdo yarmarkalari uyushtirilib, ularning faoliyati 10-20 kun davom etgan. Yirik savdogarlar mahsus jamoalarga birlashgan, ularni nufuzli oqsoqollar, karvonboshilar boshqargan. Xatto savdo rastalarini ham hunarmandlar oqsoqollari boshqarib, savdo

¹ Абдурашулов А. Хива (тарихий-этнографический очерк). 32-33б.

qoidalarining buzilmasligini, mahsulot sifatini, haridor manfaatini himoya qilib turganlar. Savdo bitimlari yozma holatda bitilgan. Katta savdogarlarning o'z mirzalari bo'lib, ular ulgurji savdoda bitim tuzishgan. Savdo bitimlari tuzishda kosib - hisob-kitob va kredit bilan shug'ullanuvchi kishi ishtirok etgan. Xivada dushanba va payshanba kunlarida bo'ladigan bozor savdosida poytaxtga shahar atrofidan ko'plab odamlar birinchi ehtiyoj buyumlarini sotib olish uchun kelishgan. Bu kunlarda Xazorasp darvozasidan qabristongacha bo'lgan joyni egallagan bu bozorda eng arzon va eng muhim narsalar: sabzavot, guruch, bug'doy, jo'xori, beda, turli xil yeguliklar, qo'y va mol go'shti, kiyim-kechak buyumlari va nihoyat chorva sotilgan. Savdo bevosita qo'lma-qo'l, ham aravada, ham bostirmalar tagida olib borilavergan. Savdoning ikkinchi turi - yopiq do'konlar va tiplardagi bozor savdosida nafaqat mahalliy, balki Rossiya va boshqa xorij mahsulotlari ham sotilgan. Bu bozorlarda nozik didli ehtiyojlarni qondiruvchi narxi baland tovarlargacha topish mumkin edi. Savdoning yana bir turi karvonsaroylarda katta partiyalarda amalga oshiriladigan ulgurji savdo edi. Og'irlikni o'lchashda mahalliy tarozi toshlari qatorida rus tarozi toshlaridan ham foydalanishgan. O'lchov birliklari va tarozi toshlari to'g'riligini diniy ulamo va mirshab vazifalarini o'zida mujassamlashtirgan shaxs - rais nazorat qilgan, u kun davomida vaqti vaqti bilan qo'lida darra bilan bozor aylanib, tarozi va boshqa o'lchovlardan urib qolish holatlarini tekshirib turgan, aybdorlarni o'sha zahoti jazolagan. Xivada asosiy pul birligi kumush tanga bo'lib, to'qqiz tanga bir tilloga teng kelgan. Mayda pul birligi chaqa bo'lib, chaqa - pul deb ham atalgan va bir tanga 60 chaqaga teng bo'lgan. Xivalik savdogarlar rus qog'oz pullarini ham bimalol qabul qilishgan. Kaspiy orti temir yo'lining qurilishi bilan Xiva xonligining Rossiya bilan savdo aloqalari jadal rivojlandi va mamlakat metropoliyaning sanoat mahsulotlari sotiladigan bozorga aylandi¹. Katta iqtisodiyatga ega bo'lgan rus savdo-sotiq doiralari xonlikda o'z faoliyatlarini kengaytirdilar. Xiva xonligi shaharlarida ko'plab savdo firmalarining vakolatxonalari ochildi.

Ulardan ayniqsa, Rabenks, Sindel, Poznanskiy, aka-uka Kraftlar, "Nadejda", "Vostochnaya", "Xiva" va boshqa savdo firmalari Yangi Urganch, Xiva kabi shaharlarda o'z savdo vakolatxonalariga ega bo'lib, xonlikda qizg'in savdo ishlarini olib bordilar. Ular qorako'l, paxta, choy, ipak savdosini qo'lga olib, shahar bozorini Rossiyada tayyorlangan sanoat mahsulotlari bilan to'ldirib tashladilar².

Xiva shahri bozorlarida Buxoro, Turkiston, Eron, Afg'oniston kabi mamlakatlardan olib kelgan turli mahsulotlar - nil bo'yog'i, baxmal, turli idishlar, gilam, pilla, ip-gazlama, choy, dori-darmonlar sotilar edi³.

Rus hukumatining xonlik iqtisodini to'liq Rossiya manfaatlariga xizmat qilishiga bo'ysundirish uchun amalga oshirgan chora tadbirlari ham xalq turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ana shunday chora tadbirlardan biri xonlikni Rossiya boj tizimiga kiritilishi edi. Xiva xonligiga qo'shni davlatlardan, ayniqsa, g'arbiy Yevropa davlatlaridan keltiriladigan sanoat mahsulotlari Rossiya sanoat

¹ Очерки истории формирования и развития предпринимательства в Узбекистане. Отв. ред.: Д.Х.Зияева. Ташкент, 2011. С.118.

² Очерки истории формирования и развития предпринимательства в Узбекистане.Отв. ред.: Д.Х. Зияева. Ташкент, 2011. С.118.

³Тухтаметов Г. Хива и Россия в конце XIX - начале XX вв. . М., 1969. С.114.

⁴Тухтаметов Г. Хива и Россия в конце XIX - начале XX вв. . М., 1969. С.114.

mahsulotlari bilan jiddiy raqobat qilardi. Rossiyaning xukmron doiralari Xiva xonligini faqat rus sanoat mollari sotiladigan bozorga aylantirish uchun xarakat qila boshladilar.

Ana shu maqsadda 1895 yil 1-yanvardan Xiva xonligi Buxoro amirligi bilan birgalikda Rossiya boj tizimiga kiritildi⁴. Shartnoma qoidalariga binoan xonlikka keltirilayotgan chet el mollari cheklanib, rus sanoat mahsulotlariga raqobat qila oladigan tovarlar, hususan ingliz sanoat mahsulotlarini keltirish ta'qiqlanadi. 1895 yil Xiva xonligini Afg'oniston va Eron bilan chegaralariga bojxona postlari joylashtirildi. Tashqaridan keltirilgan mollar shu bojxona postlari orqali boj to'lab olib o'tilishi belgilandi. Boj to'lamay, yashirinch a olib o'tilgan mollar qo'lga tushgan taqdirda noqonuniy deb topib, musodara etilishi belgilab qo'yiladi.

Xiva xonligini Rossiya boj tizimiga kiritilishi natijasida bu yerga xorijdan zarur mahsulotlarni kelishi keskin qisqardi. Xonlikka chetdan keltiriladigan mahsulotlarni ikki turga bo'lish mumkin edi: birinchisi, Rossiyadan keltirilgan mollar bilan raqobat qilmaydigan choy, bo'yoq, doka ro'mol, qand mahsulotlari, mevalar, shirinliklar, qimmatbaho toshlar, hind poyafzallari kirgan. Ikkinchi turdagisi esa, Rossiya sanoat mahsulotlari bilan raqobat qila oladigan ancha sifatli, Yevropa mamlakatlaridan keltirilgan sanoat mahsulotlari bo'lib, ularni mamlakat bozorlariga o'tkazish ta'qiqlangan edi. Bojxona tizimidagi o'zgarishlar birinchi navbatda xonlik aholisining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1895 yildan keyin xonlik aholisi ko'p miqdorda iste'mol qiladigan, faqat chetdan keltiriladigan choy va boshqa mahsulotlarning narxi Xiva bozorlarida bir necha barobar oshib ketdi. Aholi o'zi uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni qimmat narhlarda sotib olishga majbur bo'ldi.

Xiva xonligini Rossiya boj tizimiga kiritilib, uning ichki bozoriga aylanishi Xiva hukumati xazinasiga ham jiddiy zarar yetkazdi. Chunki Xiva xonligi hududi orqali avvaldan juda faol amalga oshirilgan tranzit mahsulot olib o'tish ham keskin qisqarib ketdi. Natijada, mamlakat hazinasi ulardan olinadigan boj hisobidan keladigan daromaddan ham mahrum bo'ldi.

Shuningdek, Xiva savdogarlarining ahvoli ham og'irlashdi, chunki ular chetdan xonlikka mol olib kelganliklari uchun ham xon hazinasiga, ham rus bojxonasiga boj to'lardilar. Rus savdogarlari esa, zakotdan ozod etilgan bo'lib, ancha imtiyozga ega edilar. Bundan foydalangan rus savdogarlari xonlikni tashqi savdosini o'z qo'llariga oldilar.

Rossiya hukumatining Xiva xonligi iqtisodini o'z manfaatlariga xizmat qilishga bo'ysundirish maqsadida amalga oshirgan ishlaridan yana biri pul sohasida bo'ldi. Xiva xonligida mis, kumush va oltindan pul zarb qilingan bo'lib, misdan tayyorlangani "pul", kumushdan tayyorlangani "tanga", oltindan tayyorlangani "tilla" deb nomlangan. Shulardan muomalada tangadan ko'proq foydalanilar edi. Rus savdogarlari orqali xonlikka Rossiya pullari ham kirib keldi. Mahalliy aholi rus pullariga ishonch bildirmay, undan foydalanmadi. Ayrim rus pulini qabul qilganlar ham uni past qiymatda qabul qilardilar.

XIX asr oxirlariga kelib, Xiva xonligida faoliyat olib borayotgan rus savdo-sotiq, doiralari Rossiya hukumatiga xonlikdagi mahalliy pullarni rus pul birliklari bilan almashtirishni taklif qilib, bir necha bor murojaat qildilar¹.

Rossiya imperiyasi hukumati o'z fuqarolarining manfaatini ko'zlab, xonlikda mustaqil pul tizimini tugatgan xolda rus pullarini joriy qilish chora-tadbirlarini ko'rdi. Eng avvalo muomaladagi Xiva pullarini qisqartirish va muomaladan butunlay chiqarish niyatida tovon pulini tangada to'lashni talab qildi. 1898 yil aprelda Peterburgda moliya va tashqi aloqalar vazirliklari, harbiy doiralar vakillari ishtirokida o'tkazilgan maxsus kengashda Xiva xonligi tangalarini narxi 14 kopeyek (tiyin) ga tengligi katiy belgilab qo'yildi.

1900 yil 16 apreldan esa, imperator buyrug'i bilan Xiva xonligida tanga zarb qilish ta'qiqlandi. Shu tariqa mamlakatning pul erkinligi ham cheklandi². Xonlikka katta miqdorda rus pullari keltirila boshlandi. Biroq aholi rus qog'oz pullarini tan olmay, o'zaro hisob-kitob ishlarida avvalgidek Xiva pullaridan foydalanishni davom ettirdilar. Bundan norozi bo'lgan Amudaryo bo'lim boshlig'ining talabi bilan xon aholini rus pullaridan foydalanishga da'vat qilishga majbur bo'ldi. Rossiya hukumati buyrug'i bilan tangani zarb qilish to'xtatilgach, bozorlarda xatto mayda savdo-sotiq operatsiyalarida ham tanga yetishmay qoldi. Shu sababli Said Muhammad Rahimxon Turkiston general-gubernatoriga murojaat qilib, qaytadan pul zarb qilishga ruhsat berishni iltimos qiladi. Rossiya Moliya vaziri xonning iltimosini qat'iy rad etadi. Pul zarb etishga ruhsat olmagan xon uni yashirinch a zarb qilishga buyruq beradi. Rossiya bilan olib borilgan savdo-sotiqda rus pullaridan foydalanilgan bo'lsa-da, keyinchalik ham Xindiston, Eron, Afg'oniston savdogarlari bilan hisob-kitob ishlari Xiva xonligi pul birliklarida amalga oshirilaveradi. Xiva xonligi pul birliklari uzoq vaqt muomalada saqlanib qoldi.

Xiva shahrida Rossiya bilan savdo aloqalari metropoliya manfaatlari doirasida jadal rivojlanib bordi. Rossiya-Xiva savdo aloqalari 1899 yilda 4,5 million rublni tashkil qilgan bo'lsa, 1912 yilga kelib 26 mln. rublga yetgan.

Xiva shahrida 1900 yilgacha 12 ta savdo-sanoat firmalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 1913 yilga kelib savdo aylanmasi 3 mln. dan 20 mln. gacha bo'lgan 22 ta firma ish olib borgan.

Shaharda rus va mahalliy savdogarlarning katta omborlari joylashgan edi. Shu yerdan sanoat mahsulotlari mamlakatning boshqa hududlariga tarqatilar edi.

Xivaga katta miqdorda Rossiya **sanoat mahsulotlari** kirib kelishi bilan bir qatorda, shaharlarda rus ishbilarmonlari tomonidan sanoat korxonalari qurila boshlandi. Korxonalar xom ashyoga dastlabki ishlov beruvchi, ya'ni, asosan paxta tozalash, yog' zavodlaridan iborat edi. 1914 yilga kelib, Xivada 63 ta paxta tozalash zavodi ish olib borardi. Xiva shahrida qurilgan kichik paxta tozalash korxonasi uchun xon xazinasi hisobidan jun dastgohi keltiriladi.

Shaharda sovun, ko'n-teri korxonalari qurildi. Xiva xonligida qurilgan korxonalardagi mehnat sharoiti og'ir edi. Rossianing yuqori lavozimli amaldorlaridan bo'lgan graf Palenning qayd etishicha, rus fuqarolariga tegishli

¹ ЎзР МДА, И-2 жамгарма, 1-руйхат, 204-йғима жилд, 1-варақ, И-2 жамгарма, 1-руйхат, 291-йғима жилд, 99-орқа варақ.

² ЎзР МДА, И-2 жамгарма, 1-руйхат, 98-йғима жилд, 24-25-варақлар.

zavodlarning ko'pchiligi texnika havfsizligi talablariga, gigiyenaga rioya qilinmasdan qurilib, jihozlangan. Bug' qozonlari hech qanday sinovsiz o'rnatilgan, tibbiy xizmat mutlaqo yo'lga qo'yilmagan, ishchilar bilan korxona egalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tartibi belgilab olinmagan edi. Sanoat korxonalarini moliyalashtirish maqsadida shaharda turli banklarning bo'limlari ish yuritadi.

XIX asr o'rtalarida Xiva xonligida mamlakat poytaxti Xiva, Xazorasp, Yangi Urganch, Xonqa, Xo'jayli, Gurlan, Ko'hna Urganch, Toshhovuz (Toshovuz), Qo'ng'iro't, uncha katta bo'lmagan Shovot, Kat kabi katta-kichik shaharlar beklik markazlari sifatida mamlakatning ma'muriy hududiy va iqtisodiy hayotida katta rol o'ynagan.

Har bir shaharda mamlakat boshqaruv tizimiga xos lavozimlar iyerarxiyasida quyidan yuqoriga qarab ketgan bosqich lavozimlari: hokim, qozi, rais, devonbegi, harbiy kuchlar boshlig'i kabi ma'muriy vakillar bor edi. Shaharlarga ma'muriy markaz sifatida o'z atrofidagi qishloqlar birlashtirilgan. Shaxarlar ularni boshqarishda, soliq to'plashda, tartibni saqlashda, ko'chmanchilardan himoya qilishda, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda muhim rol o'ynagan.

Xonlik hududida shaharlar ahamiyati nafaqat ma'muriy markaz, balki mudofaa obyekti sifatida ham muhim rol o'ynagan. Har bir shahar yoki shaharcha, mustahkam qo'rg'on bo'lib, atrofi devorlar bilan o'ralgan qal'a edi. Tashqaridan harbiy hujumlar bo'lganda nafaqat harbiylar, balki beklik aholisi ham shu yerga to'plangan. Ayniqsa, Xiva, Xazorasp, Yangi Urganch, Gurlan, Ko'hna Urganch kabi shaharlar yirik mudofaa markazlari ham edi.

Shaharlarning iqtisodiy markaz sifatidagi ahamiyati ularning savdo va aloqa yo'llarida qulay joylashuvi, bozorlar faoliyati bilan belgilangan. Mamlakatdagi shaharlar ichki va tashqi savdoda o'zining joylashuvi, iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda o'ziga xos o'rin egallar edi. Xususan, Urganch juda katta savdo markazi bo'lib, ulgurji savdoda katta o'rin tutgan. Xonqa, Xazorasp, Xo'jayli shaharlari ichki savdoda faol edi. Qo'ng'iro't, Chimboy kabi shaharlar chorva va chorvachilik mahsulotlari savdosida, Ilyoli esa, yilqi (ot) savdosida katta rol o'ynagan.

Shaharlarning madaniy markaz sifatidagi roli esa, yirik madrasalar, masjidlar faoliyati bilan bog'liq edi. Bu davrda mamlakatda madaniy markaz Xiva shahri bo'lib, barcha intellektual salohiyat, an'anaviy madaniyat va san'at namoyondalari saroy atrofida to'plangan edi. Mamlakat hukmdori Muhammad Rahimxon Feruzning madaniyatga katta e'tibori va qo'llab-quvvatlashi bunda muhim omil bo'lgan edi. Xonlikda yirik Madrasa, maktab, masjidlar asosan shaharlarda joylashgan bo'lsa-da, qishloq va ovullar ham o'z maktablari va masjidlariga ega edi¹.

Xonlikdagi Urganch, Xazorasp, Toshhovuz, Gurlan, Ilyoli, Xonqa kabi shaharlar bu davrga kelib barcha tarixiy manbalarda mamlakatning katta shaharlari sifatida qayd etiladi. Bu shaharlar hududi nisbatan katta, aholisi ko'p, gavjum, atrofi devorlar bilan o'ralgan, savdo munosabatlari rivojlangan edi. Ayni paytda mamlakat hududida qadimiy shaharlar - Ko'hna Urganch, Qo'ng'iro't kabi uzoq o'tmishga ega shaharlar ham bo'lib, ularni ahamiyati jihatidan o'rtacha shaharlarga kiritish mumkin.

¹ Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. С.68.

Beklik markazi maqomidagi **Qipchoq, Kat, Shovot Ambar Manok, Qushko'prik, Qiyot** kabi ma'muriy markazlarda aholi nisbatan kam va hududi kichik manzillar edi. Ularni shahar tipidagi manzillar sifatida ham baholash mumkin. Ular orasida **Qipchoq, Kat, Shovot** mudofaa ahamiyatiga molik ega bo'lgan qal'a manzilgohlar edi.

Xiva xonligi tarkibida **Qo'ng'iroq, Chimboy, Nukus** kabi qadimiy ma'muriy-iqtisodiy markazlar 1873 yildan Amudaryo tarkibiga o'tkazilgach, ularning an'anaviy hayoti davom etsa-da, ma'muriy tizimi va boshqa sohalarida ba'zi bir o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Xiva xonligidagi ayrim hududlar, masalan, **Shox Abbos Vali, Rahmonberdibiy bozori va SHO'raxon** kabi manzillar xonning qarindoshlari, hokim yordamchilari va noiblar tomonidan boshqarilgan mulk yerlari bo'lib, xon xazinasiga hech qanday to'lov to'lamagan, ammo bu yerdagi bozorlar atrof-hududlardan keladigan aholi uchun o'ziga yarasha savdo markazlari bo'lib, qishloqqa nisbatan ancha uyushgan manzilgohlar sifatida atrof hududdagi savdo aloqalarida o'ziga xos o'rin tutgan.

Xiva xonligi shaharlari markazi Osiyodagi boshqa shaharlar, xususan, Turkiston o'lkasi va Buxoro amirligi hududidagi shaharlar bilan tuzilishi, ma'muriy boshqaruv tizimi hamda iqtisodiy, madaniy hayotdagi o'rni bilan o'xshash, ya'ni hususiyatlarga ega bo'lish bilan birga, ayrim jihatdan o'ziga xos hususiyatlarga ham ega edi. Xususan, xonlikdagi shaharlar aholisining nisbatan siyrakligi, tarqoqligi, hududining nisbatan kichikligi bilan ajralib turar edi. Xonlik poytaxti Xiva aholisi eng ko'p shahar hisoblanib, 1873 yilda 20.000 kishi bo'lsa, 1910 yilga kelib 50.000 ga yetgan. Vaholanki, Turkiston va Buxoro amirligida istilo arafasidayoq yirik shaharlar aholisi 100.000, o'rtacha shahar aholisi 25.000-30.000 atrofida edi. XX asr boshiga kelib, eng kichik shaharlarda kamida 15.000-20.000 aholi yashar edi. Xiva xonligining geografik joylashuvi, shaharlar orasi juda uzoqligi, asosan suv va karvon yo'llarining katta ahamiyat kasb etishi shaharlar rivojiga o'ziga xos ta'sir qildi. Shahar aholisi Buxoro va Turkistonga nisbatan ancha kam va siyrak bo'lgan. Tabiiy iqlim sharoitlari, ayniqsa suv muammosi bir necha rivojlangan shaharlarning bo'shab qolishiga, ularga yaqin joyda qaytadan shaar barpo etilib, qurg'oqchilikka uchragan yerdagi aholi o'sha yerga ko'chirilish holatlari tez-tez uchrab turgan. Xususan, 2000 yillik tarixga ega Ko'hna Urganch, yoki Vazir va Kat shaharlari bunga yaqqol misol bo'lib, ular suvsizlik muammosi sababli boshqa yerda qaytadan qad ko'targan. Xiva xonligida shahar aholisining soni asosan shu xududdagi beklik yoki viloyat aholisi bilan qo'shib qayd etilgan, bu esa aniq xulosaga kelish uchun imkon bermagan. Ayrim holatlarda shaharga kelgan rus tadqiqotchilari yoki sayyohlar aniqlagan ma'lumotlaridagina xonadonlar soni yoki aholi taxminan ko'rsatilgan bo'lib, bu ham asosan 1873-1874 yillarga to'g'ri keladi.

Xiva xonligi hududida ayrim beklklar markazi shahar darajasida katta bo'lmasa-da, devorlar bilan o'ralgan qal'a ichida bek qurg'oni, uning sarbozlari, bozor, Madrasa, jome' masjidi, do'konlar, mansabdor amaldorlar - qozi, rais, zakotchi faoliyat yuritgan ma'muriy markaz edi. Ko'p xollarda atrof hudud aholisi tashqi hujumlar vaqtida shu yerga to'planar, ba'zan esa, qishlash uchun kelib, boshqa paytda atrof-hududlarda chorvachilik hamda dexqonchilik bilan shug'ullanar

edilar. Xududi kichik, aholisi kam va ko'proq mudofaa ahamiyatiga ega bo'lganligi sababli ularni qal'a deb ham yuritilar edi. Ba'zilar ilgari mavjud bo'lgan katta shaharlar qoldig'i bo'lganligi sababli o'sha shaharlar nomi bilan yuritilgan.

Amudaryodan 5 km. uzoqlikda Shohobod kanali bo'yida joylashgan Urganch shahrida devorlari mustahkam qal'a bo'lgan.

Urganchda XIX asrning birinchi yarmida 1.500 xonadon mavjud bo'lib, aholisi 5.000 kishini tashkil etgan¹. 1873 yilda shaharda taxminan 15 ta masjid, 300 ta hovli-joy borligi va ularda 2.000 kishi yashashi, aholi asosan o'zbeklardan iboratligi qayd etilgan². Demak, har bir masjid qavmiga taxminan 20 ta xonadon, 120-130 kishi to'g'ri kelgan. Har bir xonadonga esa taxminan 6-7 kishi hisoblangan. 1903 yilda esa, rus tadqiqotchilari shaharda 250 ta xonadonda 1.250 kishi yashashini qayd etadilar³. Biroq ular har bir xonadonga o'rtacha 6-7 kishi emas, balki 5 kishidan xisoblanib, aholi sonini ham, uy-joylar sonini ham 30 yil avvalgi holatga nisbatan ancha kam ko'rsatiladi. Vaholanki, shahar aholisining kamayishi uchun hech qanday sabab yo'q edi. Aksincha, Urganch shahrining savdo markazi sifatidagi nufuzi yil sayin kuchayib borgan. Keyingi yillarda aniqlangan ma'lumotlar ham buni yaqqol tasdiqlaydi. Chunonchi, 1924 yilda Urganchda 1.363 ta xonadon borligi, unda 6.167 kishi istiqomat qilishi aniqlanadi⁴. Demak, XX asr boshida ya'ni, xonlik tugatilishida avval shahar axolisi 5.000 dan kam bo'lmagan, deb hisoblashga to'la asos bor. Atrofi bog'lar bilan o'rab olingan bu shahar daryoga yaqin joylashganligi sababli savdo-sotiq yaxshi rivojlangan. Shahar bozori qaladan tashqarida, janubiy qismda joylashgan bo'lib, u yerda istilo arafasida 300 ta do'kon mavjud bo'lgan. XX asr boshiga kelib shaharning nufuzi yanada ortib, xonlikdagi eng yirik savdo markaziga aylangan. Urganchda ko'tara savdo do'kon va omborxonalari ko'payadi, paxta zavodlari quriladi, Rus Xitoy banki bo'limi, 3 ta yuk ortish jamiyati kontorasi faoliyat olib boradi. Bu davrda shaharda yirik karvonsaroy, xonning bojxonasi hamda mamlakatning eng yirik savdogarlari joylashgan edilar. Chunki shahar Xiva xonligidan tashqi mamlakatlarga mol chiqarib, chetdan mol olib kelib tarqatiladigan yirik ulgurji savdo markazi bo'lgan. Shahar bozorlarida asosan mahalliy mahsulotlar sotilgan va sotib olingan. Tashqi savdo bo'yicha eng katta bitimlar nufuzli va mashhur savdogarlarning uyida amalga oshirilgan. Urganchda katta va boy savdogarlar ko'p edi.

Urganchlik savdogarlarni nafaqat Buxoro va Turkistonda, balki Orenburg, Nijniy Novgorod va Moskvada ham uchratish mumkin edi. Shaharning savdo sohasidagi mavqei shu qadar baland ediki, xonlikning boshqa shaharlaridan chet mamlakatlarga borgan savdogarlarni ham "urganjli" deb hisoblashar edi.

Deyarli har bir uyda ustaxona yoki korxonani uchratish mumkin edi. Bozorga keladiganlarning ko'pchiligi shahardan tashqaridagi qo'rg'onchalarda yashagan. Urganch xonlikning eng sara joylaridan edi. Urganchga qarashli dalalarda **paxta, sholi, bug'doy, beda** mul-ko'l yetishtirilgan, ipakchilik rivojlangan. Urganchlik

¹Хорезм в истории государственности Узбекистана. (Под ред. Акад. Э.В.Ртвеладзе и д.и.н., проф. Д.Алимовой). Ташкент, 2013. С.203.

² Туркестанский сборник. Том 85. С.60.

³ Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II. С. 131.

⁴ Материалы по районированию Средней Азии. Кн.2.Территория и население Бухары и Хорезма. Часть 2.Хорезм. Ташкент, 1926. С.40.

tadbirkor sarmoyadorlar xonlikning barcha ishlab chiqarishini o'zi nazorat qilgan holda Rossiya bilan, asosan Orenburg bilan katta miqdorda savdo-sotiq olib borganlar. **Paxta, choponlar, qisman ipak va quritilgan mevalar** tashqariga olib chiqiladigan asosiy mol turlari hisoblangan¹.

Xazorasp Xiva vohasining eng qadimiy shaharlaridan bo'lib, Juvorxos kanali bo'yida joylashgan. X asr arab geograflari tomonidan eng mustahkam qal'a sifatida ta'riflangan. Bir necha asrdan keyin u harobaga aylangach, uning o'mida Muhammad Niyoz inoq, tomonidan yangi qal'a barpo etilgan. Muhammad Aminxon davrida Ibrohim Devonbegi uning atrofini devor bilan o'rab oladi. Shunday qilib, ko'hna qal'a shahriston vazifasini o'taydi va uni yangi **Qo'rg'on** deb atashadi. Yangi qal'aning janubiy qismi shahristonga tutashgan bo'lib, uning bu qismida bozor joylashgan. Bozor qal'a darvozasidan oldinga chiqib turadi.

Shahristonda Xazorasp xokimining arki joylashgan. Saroy koshinlar bilan (asosiy mehmonxona) bezalgan. Rahmonqulixonning buyrug'iga binoan qurilgan ushbu imoratning qurilishiga ustalar Buxorodan olib kelingan. Xazorasp okrugi 15 manzilgohdan iborat bo'lib, har bir manzilgohning o'z mirobi bor edi. 1874 yilda shaharda 8 masjid, 8 tamaktab va Madrasa, 400 ga yaqin do'kon mavjud bo'lib, aholisi asosan o'zbeklardan iborat bo'lgan². Har bir masjid qavmida taxminan 120-130 kishi yashaganligi nazarda tutilsa, shahar aholisi 1.000 kishi atrofida bo'lganligini tahmin qilish mumkin.

1910 yilga kelib esa Xazorasp bekligi va shahrida 5.000 ta xonadon mavjudligi, ularda 30.000 o'zbeklar yashashi qayd etiladi. Demak, har bir xonadonga o'rtacha 6 jon hisoblangan. 1924 yilda esa Xazorasp shahrida 1.461 kishi yashashi aniqlangan.

Toshxovuz shu nomdagi beklilik markazi bo'lib, Shovot kanalining ung qirg'og'ida joylashgan. Shahar devor bilan o'rab olingan, uning markazida joylashgan shahristonda hokim yashagan. Shahar devorlari 1873 yilda hokim Yoqubbek tomonidan qayta qurilib, mustahkamlangan. Shaharning uchta darvozasi - janubiy darvoza, sharqiy darvoza va saroyga kiruvchi darvozalari bo'lgan.

Shaharga asos bo'lgan qal'a Olloqulixon davrida barpo etilgan. Qal'aga Toshhovuz deb nom berilishining sababi ilgari bu yerda tosh bilan o'rab olingan hovuz bo'lganligi bilan izohlanadi. Toshhovuz xuddi Xazorasp kabi Xivaning eng mustahkam qal'alaridan biri bo'lgan.

1873 yilda Toshhovuzda 6 ta masjid, masjidlar qoshida 6 ta maktab va 1 ta Madrasa, 300 ga yaqin hunarmandlar ustaxona-do'koni, 1 ta karvonsaroy faoliyat yuritgan. Shahar aholisi asosan **bug'doy, g'alla** savdosi bilan shug'ullangan. Bozor haftaning chorshanba va shanba kunlari o'tkazilgan. Bu davrda shaharda 400 ga yaqin hovli-joy bo'lib, o'zbeklarning o'n to'rt urug'i yashagan. Agar xonadonlar soni o'rtacha 6-7 ga ko'paytirilsa, aholi soni taxminan 2,5 mingdan ortiq bo'lgan.

¹ От Гурлена до Ургенджа. Культурный оазис Хивинского ханства. // «Туркестанские ведомости», 1874, № 14.

² Кун А.Л. Город Хазорасп. Культурный оазис Хивинского ханства. // «Туркестанские ведомости». 1874, № 2.

Darxaqiqat, 1924 yillarda shaharda 542 ta xonadonda aholisi 2.521 kishi yashashi qayd etilgan¹.

Gurlan, shahar ikki kanal - Gurlanyop va Yangiyop kanallari bo'yida joylashgan. Shahar Amudaryodan 10 chaqirim masofada joylashgan bo'lib, atrofi paxsa devor bilan o'ralgan, devor atrofiga handaq qazilgan. Shahar chetlari bog'lar bilan o'ralgan.

Gurlanda juda katta savdo markazlari bo'lgan. Shahar hududi keng, bog'lari ko'p edi. Shaharda eski qal'a devorining qoldiqlari, yarim harobaga aylangan qal'a darvozasi saqlanib qolgan. Gurlan qal'asi ellik yil oldin Qutlumurodbek davrida Mahmudbek tomonidan qurilgan. Gurlanliklar bu yerlarga Sirdaryo etaklaridan, aniqrog'i, Gurkistondan ko'chib kelishgan. Bu yerga avval to'rt-to'qson urug'idan bo'lgan o'zbeklar, keyin esa uyg'urlar, ulardan keyin yesa jaloirlar va oxiri nukuslar kelib o'rnatishganlar. Ko'chib kelganlar uch yuz oltmish xonadonni tashkil etgan. 1874 yilda Gurlan va uning yon-atrofida uch yarim mingcha xonadon istiqomat qilgan.

Sobiq qal'a devorlari ichida 1874 yilda 300 ta xonadon, 200 ta do'kon va ustaxona, 6 ta masjid va 2 ta maktab bor edi². Xonadonlar soni 6-7 ga ko'paytirilsa, aholi soni taxminan 2000 atrofida bo'lgan. Gurlan shahri va bekligi aholisini o'zbeklar tashkil qilgan³. 1924 yilda shaxar aholisi 1.142 ta ekanligi³⁴, taxminan 250 ta xonadon borligi qayd etilgan⁴.

Gurlanga shahar atrofida joylashgan 10 ta qishloq - kentlar bo'ysungan. Bu kentlarning 3 tasi naymanlarga, 2 tasi uyg'urlarga, 2 tasi jaloirlar va 3 tasi nukus urug'lariga tegishli edi. Kentlar o'z navbatida masjid qavmlarga bo'lingan. Gurlandagi 10 kent 60 ta masjid qavmini tashkil etgan.

Gurlan bekligining barcha aholisi o'troq bo'lib, ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lgan. Shahar va uning atroflarida dalalar va bog'lar ko'p, tut daraxtlari, sholi, paxta va don ekinlari mo'l-ko'l bo'lgan. Aholi ipakchilik bilan ham shug'ullangan.

Bozorlarda sotilgan tun va ko'rpa ichki ehtiyojlardan tashqari, har yili katta miqdorda Rossiyaga ham olib ketilgan. Shahar aholisi qal'a devorlaridan tashqarida ham yoyilgan holda joylashgan.

Ilyoli shu nomli beklilik markazi bo'lib, ayni paytda mudofaa vazifasini o'tovchi qal'a ham edi. Uning ichki qismi beklilik markazi bo'lib, ayni paytda mudofaa vazifasini o'tovchi qal'a ham edi. Shaharda 1874 yil ma'lumotlariga ko'ra, 160 ta uy-joy mavjud bo'lib, aholisi asosan o'zbeklar, turkmanlar va eroniyatlardan iborat edi¹. Xonadonlar soni 6-7 ga ko'paytirilsa, aholi soni taxminan 1.000 dan ortiq, bo'ladi. Darxaqiqat, 1924 yilda shahar aholisi 1.025 ta ekanligi aniqlangan².

¹ Кун А.Л. Город Хазорасп. Культурный оазис Хивинского ханства // «Туркестанские ведомости». 1874, № 2.

² Кун А.Л. От Рахманберди-бий Базара до Гурлена. Культурный оазис Хивинского ханства // «Туркестанские ведомости», 1874, № 12.

³ Ўзбекистан тарихи хрестоматияси (1860-1917 йиллар). IV жилд. 122-бет.

⁴ Кун А.Л. Ташхауза до Ильяли. Культурный оазис Хивинского ханства // «Туркестанские ведомости» 1874, № 6.

¹ Материалы по районированию Средней Азии. Кн. 2. Часть 2. С. 50.

² Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II. С. 131.

Ilgari qal'aning o'rtasida Muhammad Rahimqulixon tomonidan qurilgan shahristonning qoldiqlari o'rnida 100 ta do'kon va ustaxonalardan iborat bozor joylashgan. Ilyolida savdo-sotiq haftada ikki marta - dushanba va payshanba kunlari o'tkazilgan. Bozorda asosan yon-atrofda yashovchi turkmanlar olib keladigan bug'doy bilan savdo qilingan.

Xonqa shahri Amudaryodan 6 km g'arbda kechuvga yaqin yerda, Xiva shahridan sharqqa tomon 25 verst uzoqlikda, Buxoroga ketadigan karvon yo'lida joylashgan. Shaharchaning nomi qadimiy masjiddan qolgan xonaqoning, ya'ni Xonako – Xonqa nomi bilan bog'liq edi. Xonqada Said ota jome' masjidi va maqbarasi joylashgan. Shaharchaning bir tarafi jarlik, qolgan taraflari bog' bilan o'ralgan. Aholisi va hududi Turkiston shahridan kattaroq bo'lib, mudofaa devorlari yaxshi saqlangan³.

1890 yilda bu yerda rus savdogarlar tomonidan paxta zavodi qurilgan. Xonqa shahri aholisi o'zbeklardan iborat edi²⁴. 1924 -yilda Xonqada 3.270 kishi istiqomat qilishi qayd qilingan³. Shaxar ichida 5 ta masjid, chekkalarida esa 16 ta masjid qavmi borligi, xar biriga 205 tadan kishi tug'ri kelishi ko'rsatilgan.

Kuxna Urganch avvalgi eski shaxarning shimoli-sharqiy qismida, Amudaryoning eski o'zanining o'ng tarafida joylashgan bo'lib, atrofi devor bilan o'rab olingan. Shaxaming uchta darvozasi bo'lgan. Shaxarcha 4 ta oqsoqollik, ya'ni daxalarga bo'lingan. Oqsoqolliklar esa masjid qavmlariga bo'lingan. Shaxar axolisi o'zbeklardan iborat bo'lgan. Shaxar Xonyob arig'i orqali suv bilan ta'minlangan.

Shaxarda boj punkti joylashgan bo'lib, bu yerda kirib kelayotgan karvonlardagi tuyalar xisobga olingan⁴. Bu yerda bozor va 100 ga yaqin do'konlar faoliyat yuritgan. Bozorda asosan voha turkmanlari savdo qilganlar.

Ko'hna Urganchda 1874 yil ma'lumotlariga ko'ra oltita masjid, oltita Madrasa, ikkita maktab faoliyat yuritgan. Masjidlardan biriga Shayx Najmiddin Kubro xoki dafn etilgan. Maqbarani qurish uchun Naqshbandiy talabi bilan Amir Temur tomonidan Samarqanddan mohir ustalar yuborilgan. Ko'hna Urganch bozori Shayx Kubro masjidiga vaqf sifatida birlashtirilgan edi.

Shaharchada 1874 yilda 350 ta xonadon yashagan. Agar xonadonlar soni 6-7 ga ko'paytirilsa, aholi soni taxminan 2.000 dan ortiq bo'lgan¹. Ammo 1902 yilda shahardagi xonadonlar 50 ta ko'rsatiladi. 1924 yilda shaxarda 870 kishi ro'yxatga olingan². Shahar aholisi o'zbeklardan iborat edi. Xo'jayli shahri Amudaryoning chap vohasida, Suyanli kanalining daryoga quyiladigan qismida joylashgan. Suyanli kanali shaharni ikki qismga ajratib turgan. Shahar bog'lar bilan o'rab olingan bo'lib, qal'a devorlariga ega bo'lmagan.

Shahar nomi "xo'jalar eli" degan ma'noni anglatgan. Haqiqatdan ham, shaharda Said Ota avlodlari bo'lgan xo'jalar katta nufuzga ega bo'lib, ularning kelib chiqishi Turkiston shahridagi xo'jalar avlodiga borib taqalar edi. Shahardagi uylar

³ Соболев Л. I обзор Доступных к Хивинскому ханству и краткое сведение о нем // Туркестанский сборник. Том 2. С.161.

⁴ Туркестанский сборник. Том 85. С.60.

¹ Кун А.Л. От Ильялы до Куля-Ургенча. Культурный оазис Хивинского ханства.// «Туркестанские ведомости», 1874, № 6.

² Материалы по районированию Средней Азии. Кн. 2. Часть 2. С. 47.

hashamatli bo'lib, bu hol aholining boyligidan dalolat berib turgan. Shaharchada 1874 yilda 5 ta masjid, shuncha maktab va 1 ta Madrasa faoliyat yuritgan³.

Shahar nafaqat ma'muriy, balki savdo va hunarmandchilik markazi ham edi. 1874 yilda bu yerda 300 ta savdo-hunarmandchilik ustaxonalari va 1 ta karvonsaroy bor edi. Do'konlari ko'p, yopiq bozori bor edi.

Xo'jayli bozorlari atrofdagi qozoq va turkman aholisini bug'doy, un bilan ta'minlab turgan. Xo'jayli Amudaryo sohilida joylashganligi sababli bu yerda baliqchilik yaxshi rivojlangan. Baliq ovlashning ibtidoiy uslublariga qaramasdan, har yili Xo'jayli, Qo'ng'iro't va atrofdagi joylardan Buxoro xonligiga 50 tadan 200 tagacha qayiqda quritilgan baliq, asosan sazan va laqqa baliq jo'natilgan bundan tashqari **Samarqand, Qarshi, Shaxrisabz va Xisorga** ham quritilgan baliq olib ketilgan. Shahar mol yog'i bilan savdo qilishda ham katta o'rin tutgan⁴.

1903 yilda shaharda 20 ta xonadon borligi qayd etiladi, 1924 yilda esa 420 ta xonadonda 1.811 kishi yashashi qayd etiladi. Demak, bu shahar aholisi ham V.A.Girshfeld tomonidan noto'g'ri ko'rsatilgan va bu yerda xonlik tugatilishidan avval o'rtacha 1.800 kishi yashagan, deb hisoblash mumkin.

Bu davrda shahar 16 ta masjid qavmlarga bo'lingan, shulardan 14 tasida o'zbeklar, 2 tasida Chumanaydan turkmanlar hujumidan qochib kelib, o'mashgan qoraqalpoqlar yashar edilar. Xo'jaylida bozor savdosi juda faol bo'lib, bu yerga atrofdan turkmanlar, Amudaryoning o'ng qirg'og'idan qoraqalpoqlar kelganlar. Shahar aholisi hunarmandchilik, bog'dorchilik, polizchilik bilan shug'ullangan.

Qo'ng'iro't - Xiva vohasidagi eng ko'hna shaharlaridan biri bo'lib, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Qo'ng'iro'tning qal'a devorlari past, atrofi sayoz handaq bilan o'rab olingan bo'lib, devorining bir qismiga suv tegib turar edi. Shaharcha dastlab Said Ota maqbarasi yonida, kung'iro'tlar yetakchisi Muhammad Nazarbiy asos solgan qal'a atrofida yuzaga kelgan. Muhammad Nazarbiyning o'g'li Xo'jamurodbiy qo'ng'iro'tlar xoni etib tayinlangach, qal'ani Amudaryoning o'ng qirg'og'iga ko'chirgan.

1873 yilda Qo'ng'iro't shahrida 6.000-8.000 axoli yashashi qayd etilgan¹. Ammo A.L.Kun esa 1874 yilda shaharchada 2 ta masjid, 2 ta maktab, 120 ta do'kon va ustaxona faoliyat yuritishini qayd etadi². Qo'ng'iro't shahrida katta bozor joylashgan bo'lib, bu bozorda baliq, guruch va arpa ko'p bo'lgan. Bu shaharchada qayiqda kelgan mahsulot tuyaga ortilib, Orenburgga jo'natilgan.

Ammo XX asr boshiga kelib, Qo'ng'iro'tda savdo qisqarib ketadi. 1903 yilda shaharning mavqei tushib borayotganligi, unda 68 ta xonadon qolganligi qayd etiladi³. Demak, shahar aholisi taxminan 500 kishi atrofida bo'lgan. Darhaqiqat, 1924 yilda shahar aholisi 515 kishi ekanligi aniqlanadi⁴.

³ Кун А.Л. От Куя –Ургенча до Хожайли // «Туркестанские ведомости», 1874, №6.

⁴ Материалы по районированию Средней Азии . Кн. 2. Часть 2. С.58.

¹ Материалы для статистики Туркестанского края . Выпуск 2. СПб. . 1873. С.36

² Кун А. Л. От Ходжейли до Кунграда. Культурный оазис Хивинского ханства.//«Туркестанские ведомости», 1874, № 6.

³ Постатистическое описание Хивинского оазиса . Часть II. С. 133.

⁴ Материалы по районированию Средной Азии . Кн. 2. Часть 2. С. 64.

⁵ Материалы по районированию Средной Азии . Кн. 2. Часть 2. С. 64.

⁶ Кун А.Л. От Чимбая до Рахманберди-бий Базара. // «Туркестанские ведомости», 1874, №11.

Pignak - kichik qal'acha bo'lib, Xazoraspga nisbatan qo'riqchi ahamiyatiga ega manzil, Amudaryodan yetti chaqirim uzoqlikda joylashgan. Xivadan Buxoroga ketadigan karvon yo'lidagi, Amudaryoning chap qirg'og'ida joylashgan eng chekka joy bo'lib, atrof hududlardagi aholisi bilan hisoblaganda 1924 yilda Pignak shaharchasida 800 kishi yashashi qayd etiladi⁵.

Qipchoq daryoga turtib kirgan quruqlikda joylashgan. Aholisi qipchoq urug'idan bo'lgan o'zbeklardan iborat bo'lib, asosan dexqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Ekin ekinladigan yerlar daryoning ikki qirg'og'i bo'ylab cho'zilib ketgan. Hovliga turtib kirgan quruqlikda joylashgan.

Bu yerda ikkita istehkom - Muxammad Raximxon davrida qurilgan Eski qal'a va uning yonida yovmutlardan himoya qilish uchun qurilgan Yangi qal'a mavjud. Yangi qal'ada bu davrda hech kim yashamagan, aholining aksariyati Eski qal'ada istiqomat qilgan. Shahar va beklik aholisi asosan o'zbeklardan iborat bo'lib, asosan, chorvachilik va dexqonchilik bilan shug'ullanishgan.

1874 yilda shaharda 10 ta do'kon va ustaxona, 120 ta uy-joy, 1 ta masjid va 1 ta maktab bo'lgan⁶. Agar xonadonlar soni o'rtacha 6-7 ga ko'paytirilsa, aholi soni taxminan 700-800 atrofida bo'lgan. 1924 yilda shaharchada 660 kishi borligi aniqlanadi. Demak, shahar aholisining soni XX asr boshida ham o'zgarmay qolavergan.

Kat - Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan bu shahar qal'a XV asrgacha Xiva xonligining poytaxti bo'lib, o'tmishda juda katta shahar edi. Shahar madrasalari, masjid va saroy, hammomlari bilan dong taratgan.

Kat qal'asi Elbarsxon davrida qurilgan, uning devorlari baland va tikka bo'lib, atrofiga handaq qazilgan. Qal'aning shimoliy darvozasidan tashqarida 30 tacha do'konga ega bozor joylashgan. Bu yerda seshanba va shanba kunlari bozor o'tkazilgan. Shahar aholisining aksariyati o'zbeklardan iborat edi. Qal'a ichidagi imoratlarining ko'pchiligi bo'shab qolgan, chunki ularning egalari shahar tashqarisidagi qo'rg'onchalariga ko'chib ketishgan. XIX asr o'rtalarida Katda 1.500 aholi yashashi qayd etilgan¹. Ammo 1874 yilda bu yerda 50 ta xonadon borligi qayd etilgan. 1924 yilda shaharchada 1.120 kishi borligi aniqlanadi², demak, xonlik tugatilishidan avval aholi 1.000 kishi atrofida bo'lgan.

Shayx Abbos Vali - qadimgi Kat harobalari bag'rida qurilgan qal'a avliyo Shayx Abbos Vali nomi bilan bog'liq. Qadimgi shahar hududining chorak qismini qamrab olgan bu hududda avliyo Shayx-Abbos Vali maqbarasi hamda Kechirmas ota qabrlari joylashgan.

Shayx abbos Vali Xorazmda islom dinining yirik targ'ibotchilaridan biri bo'lgan. Bu yerga har yili kuzda yaqin atrofdan yuzlab ziyoratchilar kelgan. Bu yerga kelganlar asta-sekin o'mashib, aholi manzilgohi yuzaga kelgan. 1873 yilda bu yerda 200 tacha xonadon, 15 ta do'kon, 2 ta masjid va 2 ta madrasa bor edi³. Demak, aholi soni 1.500 atrofida bo'lgan. Shayx Abbos Valida hokim bo'lmagan, ularni hokim yordamchisi yoki noib, yoki qozi boshqarganlar. Chunki bu yerlar mulk yerlari

¹ Кун А.Л. От Чимбая до Ракманберди-бий Базара. // «Туркестанские ведомости», 1874, №11.

² Материалы по районированию Средней Азии. Кн. 2. Часть 2. С.64

³ Кун А.Л. от Урганджа до Х. Культурный оазис Хивинского Ханства Туркестанские ведомости 1874 № 14 X

⁴ Туркестанские ведомости 1873 № 32 14 августа.

bo'lib, xonga soliq to'lanmagan. Xonlikda Rahmonberdi Biy bozor va SHO'rxon ham shunday yerlar bo'lib, ular xonning yaqinlariga tegishli bo'lganligi bois, soliqdan ozod edi. Shayx Abbos Vali Rossiyadan Urganch va Xivaga boradigan savdo yo'lida joylashgan. 1873 yilda bu manzil Amudaryo bo'limining SHO'rxon uchastkasiga o'tkazilgan.

G'ozī Obod - ilgari ancha gavjum bo'lgan ushbu shaharcha turkmanlar hujumi natijasida ancha haroblashib, qal'a devorlari vayron bo'lgan. 1873 yil ma'lumotlariga ko'ra Qo'rg'on ichida 300 ta xonadonda asosan o'zbeklar yashagan. Shaharchada bozor, qo'rg'on, 3 ta masjid, 3 ta maktab, 29 ta do'kon faoliyat yuritgan. Shaharchadagi haftada ikki kun ochiladigan bozorchada asosan turkmanlar bug'doy va chorva bilan savdo qilishgan¹. Demak, aholisi 2.000 atrofida bo'lgan.

Rahmonberdi Biy bozori - bu hudud xonning vazirlariga berilgan mulk yerlari bo'lib, avloddan avlodga o'tib kelgan. Bu yerlarga xayot bag'ishlash uchun uning egalari kanal qazib, suv o'tkazishgan. Kichkina qo'rg'on va bozorcha ko'rib, yashashni istaganlarga ijara yer berishgan. Shu tariqa bu yerga xonlikning turli burchaklaridan o'zbek, qoraqalpoq va turkmanlar kelib joylashgan. Bu yerda 1873 yilda 100 ga yaqin xonadon, 50 ta do'kon mavjud edi¹. Agar xonadonlar soni 6-7 ga ko'paytirilsa, aholi soni taxminan 600-700 kishi atrofida edi. Bu yerga dushanba va juma kunlari o'tkaziladigan bozor kunlarida yaqin atrofdagi aholi savdo qilish uchun kelgan. 1873 yildan bu hudud Amudaryo bo'limining SHO'rxon uchastkasiga o'tkazilgan.

Shovot "Shox-obod" - mazkur qal'aga aholi asosan qishda yoki turkmanlar hujumidan jon saqlash uchun to'plangan. Boshqa paytlarda aholi o'zining ekinzorlariga yaqin bo'lgan qo'rg'onchalarda yashagan. Aholining ko'pchiligi qo'rg'onchalarda yil davomida yashagan, ba'zilari esa qal'ada qishlagan. Asosan o'zbeklardan iborat bo'lgan Shovot aholisi turkmanlarning hujumlari sababli ikki uyli bo'lishga majbur edilar. Qal'aning janubiy tomonida do'konchalar va xonadonlar joylashgan. 1874 yilda qal'ada 100 ga yaqin uy-joy, 4 ta masjid, 1 ta Madrasa mavjud edi. Qal'a tashqarisida ham 30 ta uy-joy, 19 ta do'kon va ustaxonalar joylashgan². Demak, Shovotda taxminan 130 ga hovli-joy mavjud bo'lib, aholisi 900 ga yaqin bo'lgan. Bu yerda seshanba va juma kunlari bozor o'tkazilgan. Shovotning asosiy savdo mollari bug'doy va jo'xoridan iborat edi. 1924 yilda shaharchada 1.315 kishi yashashi qayd etilgan³. Xulosa qilib aytganda Xiva xonligidagi bekklik va noiblik markazlarida jami 25.000 atrofida aholi yashagan.

Endi bevosita Amudaryo bo'limi shaharlariga to'xtalsak. 1873 yilda Rossiya imperiyasi tomonidan Xiva xonligi bosib olingach, 1873 yil 12 avgustda Gandimiyon sulhi shartlariga ko'ra, Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlar Rossiya imperiyasi tasarrufiga o'tdi va ushbu hududda Turkiston general-gubernatorligining Sirdaryo viloyati tarkibida Amudaryo bo'limi tuzildi. Amudaryo bo'limining tashkil topishi asrlar davomida daryoning ikki sohilida yashab kelgan Xiva xonligi aholisini sun'iy ravishda ikkiga bo'lib yubordi. Amudaryo bo'limi shimoli-g'arbda Orol dengizi,

¹ От Чимбая до Рахманберди Бий базара // «Туркестанские ведомости», 1874. №11.

² Материалы для статистики Туркестанского края Выпуск II 1873 С 36.37.

³ От Гурлена до Шавата. // «Туркестанские ведомости», 1874. №12.

Sirdaryo viloyatining Perovsk va Kazalinsk uездlari bilan, sharqda Sirdaryo viloyatining Chimkent uezdi bilan, janubiy g'arbda Amudaryo bo'ylab Xiva xonligi bilan chegaradosh edi. Amudaryo bo'limining hududi 1886 yilda 75.900 kv. verstni tashkil qilar edi⁴. Bo'limning ma'muriy markazi 1873 yilda Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, Xonqa yaqinida barpo etilgan Petro-Aleksandrovska shahri edi. Amudaryo bo'limi 2 qismga - Sho'rxon uchastkasi xududi 54.400 kv. verst., Chimboy uchastkasiga - hududi 21.500 km. Verst bo'lingan. Amudaryo bo'limi hamda uning tarkibidagi Chimboy va Sho'rxon uchastkalarini rossiyalik mansabdorlar va ofitserlar boshqargan. Bu yerda harbiylashtirilgan ma'muriy boshqaruvga mahalliy aholi vakillari yaqinlashtirilmagan. Malumotlarga ko'ra, dastlabki yillarda mahalliy aholidan xattoki, tarjimonlar ham olinmagan. Chimboy uchastkasi tarkibida 12 ta - Nukus, Chimboy, Kegeyli, Ko'kuzek, Beshyop, Ishim, Doukara, Ko'kkul, Naupir, Taldiq, Qo'ng'iro't, Yangibozor volostlari, **SHo'rxon uchastkasi tarkibida esa 7 ta - Sho'rxon, To'rtko'l, Shayx Abbos Vali, Biy bozor, Mingbuloq, Tamdi, Saribiy volostlari mavjud bo'lgan**¹. Volostlarni volost boshqaruvchisi boshqargan. Volostlar ovullarga va qishloq jamoalariga bo'linib, oqsoqollar tomonidan boshqarilgan².

Amudaryo bo'limi boshlig'i harbiy lavozim egasi bo'lib, Sirdaryo viloyati harbiy gubernatoriga bo'ysungan va uezd boshlig'i maqomi va vakolatlariga ega bo'lgan. Uchastka boshliqlari - pristavlar rus ma'murlari edi. Quyi ma'muriyat a'zolari - volost boshlig'i, oqsoqol, mirob, qozi, biy, ariq oqsoqollar maxalliy axoli vakillaridan iborat bo'lib, ularning nomzodlari avvaldan Amudaryo bo'limining boshqaruvchisi tomonidan ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan. Amudaryo bo'limining chegaralari imperiya qo'shinlari tomonidan qo'riqlangan. Nukus va Petro-Aleksandrovska bittadan kazaklar polki, o'qchi polki joylashgan, minoralar qurilib, Amudaryoning Orol dengizigacha bo'lgan qirg'og'i nazorat qilingan³.

Amudaryo bo'limi tashkil etilgan dastlabki yillarda uning hududidagi aholi 133.000 kishini tashkil etgan. Keyingi yillarda uning aholisi jadal o'sib borgan. 1885 yilda bo'limda 149.179 kishi yashar, shundan 2.365 tasi rus harbiylari, 54 tasi iste'fodagi va zaxiradagi harbiylar, 146.147 tasi esa mahalliy aholi vakillari edi.

1893 yilda bo'lim aholisi 179.933 kishiga (176.905 kishi maxalliy axoli vakillari) yetdi⁴. 1873-1897 yillarda, ya'ni dastlabki 23 yil mobaynida aholi soni ancha tez o'sgan va 60.000 ga ko'paygan. Bu jarayonda tabiiy o'sishdan tashqari mexanik o'sish, ya'ni migratsiya omili ham katta rol o'ynagan. Bu davrda Amudaryo bo'limiga rus harbiy kuchlari, iste'fodagi harbiylar, urallik kazaklar, rus savdogarlari, ko'chmanchi qozoqlar kelib joylashganlar. Rossiyadan ko'chib kelganlar Petro-Aleksandrovska, hozirgi To'rtko'l, shaharchasida, Uralsk posyolkasi va Nukus qishlog'ida yashaganlar. Ular imperiya armiyasida yangi Nizom bo'yicha xizmat qilishdan bosh tortganligi uchun 1875 yilda hukumat tomonidan surgun qilingan Ural kazaklari bo'lib, asosan baliqchilik bilan shug'ullanganlar. 1878 yilda ularning soni

⁴ Писно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II. С.56.

¹ От Гурлена до Шавата. // «Туркестанские ведомости», 1874, №12

² Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II. С.56.

³ От Чимбая до Рахманберди Бий базара // «Туркестанские ведомости», 1874, №11.

⁴ Материалы по районированию Средней Азии. Кн. 2. Часть 2. С.64.

3.858 kishiga yetgan. Jami 540 xo'jalikdan iborat bo'lgan bu aholining 1000 ta qayig'i bo'lgan.

1903 yilga kelib Amudaryo bo'limida 32.521 ta xonadon, 194.500 doimiy yashovchi aholi borligi qayd etilgan. 1909-1910 yillarga kelib esa 36.342 ta xonadonda 218.956 kishi yashashi hamda 1897 yildan beri, ya'ni 12 yilda aholi 24.456 kishiga (12,5%) ko'payganligi qayd etilgan. Bu esa aholining yillik o'sishi o'rtaicha 1% (yiliga 2.000 dan ortiq) bo'lganligidan dalolat beradi. Bu davrda, ya'ni 6 yil ichida xonadonlar soni taxminan 4.000 taga ko'paygan¹.

1909-1910 yillar ma'lumotiga ko'ra bo'limda Chimboy uchastkasida 122.933 kishi, Sho'raxon uchastkasida 91.342 kishi³, jami 214.275 kishi yashar edi. Sho'raxon uchastkasida aholi asosan o'zbeklardan iborat edi. O'tgan davrdagi ma'lumotlar bilan solishtirganda SHO'raxon uchastkasida aholi ko'payib, Chimboy uchastkasida nisbatan kamaygan. O'tgan 6 yil mobaynida aholi soni taxminan 20.000 ga ko'paygan. Bu esa yiliga 3.200 kishidan to'g'ri kelgan. Demak, bo'limda aholining yillik o'sish sur'ati ortgan. Bu yuqorida qayd etilganidek, ichki va tashqi migratsiya jarayonlari bilan bog'liq edi. 1902 yilda Amudaryo bo'limi axolisining tarkibida xristianlar 0,3% ni tashkil qilgan bo'lsa⁴, oradan 7-8 yil davomida, ya'ni, 1909-1910 yillarga kelib, ularning umumiy aholi tarkibidagi ulushi 2, 8% ga yetdi⁵.

Musulmonlar bo'lim aholisi tarkibida 1902 yilda 99,6% bo'lgan bo'lsa, 1910 yilga kelib 97,6 % ga tushdi⁶. Jami musulmonlar 213.470 kishi bo'lib, shundan o'zbeklar - 62.095 kishi (28,3%), qoraqalpoqlar - 92.781 kishi (42,2%), qozoqlar - 43.537 (19,8%), turkmanlar - 14.825 (6,7%). eronliklar - 502 kishi (0,2%) bo'lgan⁷. Kelgindi axoli esa 6.216 (2,8%) kishini tashkil qilgan. Shundan 5.189 nafari (2,4 %) xristianlar edi⁸.

Sho'raxon uchastkasida aholining katta qismini o'zbeklar, Chimboy uchastkasida esa, qoraqalpok va qozoqlar tashkil etgan. Xonyob va Qiyot qo'rg'onida qoraqalpoqlar va qozoqlar yashaganlar. Ular dexqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. 1913 yilga kelib bo'lim aholisi 234.291 kishiga yetgan. Bo'limda shahar aholisining nufusi 1917 yilga kelib 10.000 ga yetib qolgan edi.

Mamuriy va iqtisodiy markazlar. Amudaryo bo'limi SHO'raxon va Chimboy uchastkalariga bo'lingan. Bo'lim va SHO'raxon uchastkasining markazi Petro-Aleksandrovsk shaxarchasi, Chimboy uchastka markazi Nukus edi. Amudaryo bo'limi boshlig'i aloxida vakolatlarga ega bo'lib, u Xiva xonligi bilan siyosiy aloqalar olib borar edi. Bo'lim boshlig'i lavozimiga Turkiston general-gubernatorining tavsiyasi bilan shaxsan imperator tomonidan harbiy amaldor tayinlangan va unga keng huquqlar berilgan. Amudaryo bo'limi boshlig'iga berilgan ko'rsatmada xonlikning ichki ishlari haqida Turkiston general gubernatorini habardor qilib borish, uning ishtirokini ta'minlash lozimligi alohida ta'kidlangan edi².

Amudaryo bo'limi boshlig'i o'z hududidagi harbiy qo'shin qo'mondoni bo'lib, harbiy sohada to'g'ridan-to'g'ri Turkiston General-gubernatoriga bo'ysungan, Rossiya imperiyasining Xiva xonligidagi diplomatik vakili hisoblangan³. Xiva xoni Rossiya bilan aloqalarni faqat Amudaryo bo'limi boshlig'i orqali olib borgan. Xiva

¹ Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II. С.67.

² Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II. С.67.

³ Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II. С.67.

xonligining ichki ishlarga oid biron-bir masala Amudaryo bo'limi boshlig'ining ruhsatsiz hal yetilmagan.

Petro-Aleksandrovsk shaharchasi 1873 yilda xonlik xududi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, Amudaryo bo'limining ma'muriy markazi sifatida belgilangan¹. Ushbu shaharcha Xiva xonligiga qarashli sobiq SHO'raxon shaharchasidagi To'rtko'l istehkomida tashkil etilgan rus qo'shinlari qarorgohida yuzaga kelgan. Bu yerda Amudaryo bo'limining boshlig'i joylashgan². Aholining asosiy qismi rus harbiylari va ularning oilalaridan iborat edi. 1910 yilda 2.786 kishidan iborat aholining 1.983 tasi ruslar, 786 tasi musulmonlar, 27 tasi yaxudiylar edi³. 1913 yilga kelib aholi soni 4.622 kishiga yetgan⁴. Shaxarchada dastlabki davrda asosan harbiylar kazarmalari joylashgan bo'lsa, keyinchalik ularning oilalari, tinch aholi vakillari, savdogarlar, sanoatchilar paydo bo'ldi. Xristianlar uchun 2 ta cherkov tashkil etildi. Shaharchada 2 ta boshlang'ich maktab, 1 ta tatarlar va 1 ta qizlar bilim yurti faoliyat yuritgan, 1 ta rus-tuzem maktabi ochilgan. Uylar yevropacha usulda, pishiq va xom g'ishtdan qurilgan. Shaharchada pochta-telegraf kontorasi, transport kontoralari, ambulatoriya tashkil etilgan.

Nukus - 1873 yildan Amudaryo bo'limining Chimboy uchastkasi markazi bo'lgan bu hudud Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan va istiloga qadar Xiva xonligiga qarashli bo'lgan. Xonlik davrida eski Nukus qal'asini suv bosgach, Muhammad Aminxon buyrug'i bilan yangi joy ajratilib, aholi shu yerga ko'chib kelgan. Usha davr manbalarida bu yer Nukus qishlog'i deb yuritilgan. Mazkur hududda 1873 yilda jami 200 ta xonadon bo'lib, mahalliy aholi asosan nukus urug'idan bo'lgan o'zbeklar edi. Ular asosan baliqchilik va don yetishtirish bilan shug'ullangan⁵. Nukus uchastka markaziga aylantirilgach, bu yerga kazaklar polki joylashtirilgan. Nukusda urallik kazaklar va ularning oilasi, rus ma'murlari va aholisi yashagan. Bu yerda ular uchun Yevropacha uylar, cherkov, kazaklar uchun kazarmalar qurilgan.

Amudaryoning o'ng sohilidagi hududda xonlik davrida mamlakatning ma'muriy yoki iqtisodiy markazi bo'lib kelgan, yohud harbiy ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha shaharcha yoki manzilgohlar ham bor edi. Masalan, Chimboy shular jumlasidan bo'lib, Amudaryo bo'limi tuzilgach, ular ma'muriy markaz bo'lmasa-da, shaharcha sifatida iqtisodiy-ijtimoiy hayotdagi nufuzini saqlab qoldi va rivojlanib bordi.

Chimboy Amudaryoning o'ng qirg'og'i va vohasidagi ko'chmanchi qozoqlar va qoraqalpog'lar uchun Xo'jaylidan keyingi ikkinchi markaziy bozor hisoblangan. 1874 yilda Chimboyda 300 ga yaqin uy-joy bo'lgan. Demak, axoli 2.000 ga yaqin bo'lgan. 1897 - yildagi axoli ro'yxatida shaxarcha axolisi 2.600 jon ko'rsatilgan. 1912- yilga kelib esa bu yerda 801 ta xonadonda 4.000 kishi yashashi qayd etilgan. Shaharchada uchta masjid va bitta maktab, 150 ta do'kon faoliyat yuritgan. 1890 yilda Chimboyda rus-tuzem maktabi, tibbiy punkt ochilgan.

¹ Гейер И.И. Весь Русский Туркестан. Ташкент. 1908. С.228.

² Очерки истории Каракалпакской АССР. Т.1. С.237.

³ Гейер И.И. Весь Русский Туркестан. Ташкент. 1908. С.209.

⁴ Кун А.Л. От Чимбая до Рахманберди-бий Базара. // «Туркестанские ведомости». 1874. №. 11.

⁵ Кун А.Л. От Чимбая до Рахманберди-бий Базара. // «Туркестанские ведомости», 1874, №. 11.

⁶ Гейер И.И. Весь Русский Туркестан. Ташкент. 1908. С.228.

Bu davrda Amudaryo bo'limida xom ashyo mahsulotlarini qayta ishlov beruvchi ilk sanoat korxonalari yuzaga kelgan. Xususan, paxtachilikning rivojlanishi bilan paxta tozalash korxonalari vujudga kelib, ularning soni yil sayin ortib borgan. Agar 1880 yilda Petro-Aleksandrovsk shahrida bitga paxta tozalash korxonasi mavjud bo'lsa, 1908 yilga kelib 26 taga yetadi¹. Bundan tashqari, Amudaryo bo'limida mayda ishlab chiqarilgan korxonalari ham faoliyat yuritgan. Xususan, 1907 yilda bo'limda jami 135 ta yog'-moy korxonasi, 84 ta tegirmon, 38 duradgorchilik, 14 ta aravaszlik, 32 ta po'lat quyish va boshqa ustaxonalar mavjud edi. Bo'limdagi hunarmandlar, ustalar ishchilarning umumiy soni 2100 kishidan iborat edi².

1888 yilda Amudaryo flotiliyasining tashkil etilishi bilan Amudaryo orqali paraxodlar jadval bilan Petro-Aleksandrovskdan Chorjo'yga qatmaydigan bo'ldi. Daryoning chap sohili bilan tuproq yo'l Petro-Aleksandrovskdan Chorjo'y stansiyasiga bog'langan³. Amudaryo bo'limining Petro-Aleksandrovsk va Chimboy shaharlari orasida to'g'ri yo'l paydo bo'ldi. Xivadan shimolga - to Kazalinsk va Perovskkacha, g'arbga va Kaspiy dengizigacha, janubga Ashxobod va Buxorogacha, sharqqa Jizzax va Toshkentgacha bo'lgan karvon yo'llarida havf-hatar kamaydi. 1912 yilda Petro-Aleksandrovsk va Chorjo'y orasida telegraf tizimi qurildi. Amudaryo bo'limi shahar bozorlarida katta miqdorda Rossiyada ishlab chiqilgan paxtali va jun matolar, fabrika-zavodlar buyumlari, shakar, kerosin paydo bo'ldi. Chimboy va Petro-Aleksandrovsk shaharlari Amudaryo bo'limining savdo markazlariga aylandi. Bo'limning yillik savdo aylanmasi 4.200.000 rublni tashkil qilar, shundan 2.300.000 rubлга tovar olib kelinsa, 1.900.000 rubl olib ketilar edi⁴.

Mahalliy sarmoyadorlar rus savdogarlari bilan hamkorlik qilib, ularning vositachilariga aylandilar.

Bozorlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari - paxta, beda va chorvachilik mahsulotlari bilan savdo tobora faollashib bordi. Savdo-sotiq har hafta ikki marta faoliyat ko'rsatadigan bozorlarda amalga oshirilardi. Bozorlar bo'limning barcha shaharchalarida - Petro-Aleksandrovsk, Shayx Abbos Vali- hozirda Beruniy, SHo'rayon, Biy Bozor, Sariboy, Chimboy, Nukus, Nazarxon va so'l sohil tumanlari - Xo'jayli, Qo'ng'iro't va Mang'itda mavjud edi.

Savdo-sotiq nafaqat mahalliy aholi - turkman, qozoqlar o'rtasida, balki rus savdogarlari orasida ham amalga oshirilardi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari - paxta, beda, jun gazlama, teri va boshqalar ishlab chiqaruvchilar qo'ldan olib sotarlari qo'lga o'tar va vohadan olib chiqilgach, ulgurji savdo ashyosiga aylanardi. Mahsulotlar asosan rus firmalariga tegishli yirik omborlarda to'planardi.

Yirik savdo-sotiq markazlaridan biri - **Chimboyda** bozor kunlari 2.000 gacha aholi to'planardi. Bozorning chorva mahsulotlari savdo aylanmasi 30 ming rublni tashkil etardi. K.K. Palen ma'lumotlariga ko'ra, Chimboy uchastkasining 3 ta bozor markazi - **Nazarxon, Nukus, Chimboyda** taxminan 470 ta savdo do'konlari mavjud bo'lib, ularning yillik mahsulot aylanmasi 2 mln. rublni tashkil etardi¹. Aholini

¹ Гейер И.И. Весь Русский Туркестан. Ташкент. 1908. С.228.

² Кун А.Л. От Кунграда до Чимбая. // «Туркестанские ведомости», 1874. № 9

³ Кун А.Л. От Кунграда до Чимбая. // «Туркестанские ведомости», 1874. № 9

⁴ Кун А.Л. От Кунграда до Чимбая. // «Туркестанские ведомости», 1874. № 9.

¹ История Каракалпакской АССР. Том. I. С.181.

ko'chirish boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, Chimboyning o'zida 1912- 1913 yillarda yirik g'arb firmalari bilan yaqindan aloqada bo'lgan 600 nafar olib-sotar bo'lganligi qayd etiladi². Do'konlar soni jihatidan Chimboy vohada Urganch va Xivadan keyingi o'rinda turar edi. Shaharni yorib o'tgan **Kegeyli kanali** orqali savdo bozor kunlari, ya'ni chorshanba va dushanba kunlari qayiklarda Xo'jayli, Urganch va boshqa joylardan paxta, baliq olib kelib, sotilgan, bu davrda asosan qizil baliq, jo'xori va don bilan savdo qilingan.

Shayx, Abbos Vali hududida yakshanba va payshanba kunlari bo'ladigan bozorga yaqin atrofdagi shaharlar - **Xonqa, Urganchdan, SHo'raxon Raximberdiy bozoridan** savdogarlar kelishgan. Bozor faoliyati mahalliy iste'molchilarning ehtiyojini qondirish bilan chegaralangan.

Ushbu manzilning iqtisodiy ahamiyati u orqali Rossiyadan Urganch va Xivaga karvonlarning o'tishi bilan bog'liq, edi. Amudaryo bo'limida "Kavkaz va Merkuriy", "Sharq jamiyati", "Rossiya jamiyati" va "Umid kompaniyasi" kabi transport idora jamiyatlari paxta mahsulotini Chorjo'ygacha qayiq va Amudaryo flotiliyasi birjalari vositasida jo'natish bilan shug'ullanishgan. U yerdan temir yo'llar orqali Rossiya markaziga - Moskvaga jo'natilgan.

Amudaryo bo'limi shaharlarida paxta haridi bilan "Katta Yaroslav manufakturas", "Aka-uka Kraft", "Knopp", "Aka-uka Manuilovlar" va "Savdo-sanoat jamiyati" kabi firmalarning vakillari shug'ullanganlar. Ushbu firmalar zavodlari qoshida ombor punktlari bo'lib, u yerda tozalangan paxta tolalari to'plangan.

Paxtadan tashqari, Amudaryo bo'limidan har yili 97.100 pudlik turli xil tovarlar, xususan, beda urug'i, ipak mahsulotlari, ishlanmagan terilar, oshlangan qo'y terilari, sariyog', jun mahsulotlari, qorako'l, gilam va boshqalar eksport qilingan. 1899 yilning o'zida bo'limdan Rossiyaga 95 ming rubllik teri va 65 ming rubllik jun mahsulotlari eksport qilingan. Paxta va teri Moskvaga, jun mahsulotlari Povolje shaharlariga, beda urug'i Gamburg va Shimoliy Amerikaga, gilam Turkiyaga, sariyog' Bokuga, baliq mahsulotlari Orenburgga olib borilgan.

Amudaryo bo'limi shaharchalari qishloq xo'jalik xom ashyosini metropoliyaga jo'natish, hamda u yerdan kelgan choy, shakar, kog'oz, kerosin, metall, temir buyumlari, oshlangan teri, taxta kabi mahsulotlarni sotish markaziga aylangan. Asosiy fabrika va zavod mahsulotlari Moskva sanoat rayonidan mahalliy bozorga olib kelinar edi. Shuningdek, Kiyevdan shakar, Buxoro va Ashxoboddan ko'k choy, Bakudan kerosin, Vladivostokdan un, Orenburgdan teri, Chorjo'ydan qurilish ashyosi bo'lgan yog'och keltirilgan. 1893 yilda Amudaryo bo'limi mahalliy bozorlariga 1112 ming rubllik 285 ming pud mahsulot keltirilgan¹. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olish va qayta sotish ishi bilan Chimboy uchastkasida **Askarboy Axmedov, Yerejep Tojiqulov, Boymuhammad Ustenov, Yerman Xoljonov, Sobir Xonkeldiyev** kabi mahalliy savdogarlar shug'ullanganlar. Rossiya transport va sug'urta jamiyati Petro- Aleksandrovska mahsus idoralar va savdo yuklarini qabul

² Военно статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. С.91.

¹ Сырдарьинская область. Описание, составленное по официальным источникам Е.Смирновым. С.Петербург, 1887. С.24.

qilish va Markaziy Rossiya hududiga jo'natish uchun mo'ljallangan omborlar uchun binolar qurgan.

Amudaryo bo'limi shaharlariga sanoat mahsulotlarini yirik savdo firmalari, xususan, **Salimjonov, Ravilov, Brodskiy, Shirman savdogarlari va "Andre-Kasspian" arman firmasi** hamda bo'limga xom-ashyo uchun kelgan orenburglik va boshqa savdogarlar olib kelishgan².

Savdo aloqalarining rivojlanishida Amudaryo muhim rol o'ynagan. 1908 yilda Chorjo'ydan Petro-Aleksandrovska 220 qayiqlar 250 ming pud yukni Amudaryo orqali olib o'tgan. Amudaryoda 300 dan ortiq katta va kichik qayiqlarda yuk tashilgan.

Petro-Aleksandrovska Chorjo'ygacha qayiqlar 20-30 kunda, daryo oqimi bo'ylab 15 kunda suzib borganlar. Yuklarni olib o'tish faoliyati bilan Orol dengizi va Amudaryo flotiliyalari va "Xiva" aksionerlik jamiyati ham shug'ullanganlar. Amudaryo flotiliyasi harbiy maqsadlarni ko'zlab tuzilgan, shu bois qishloq, xo'jalik mahsulotlari nisbatan kam - 30 ming pud tovar, shundan 15 ming pudi paxta tashilgan. 1910 yildan Amudaryo va Orol dengizi orqali temir yo'lgacha bo'lgan masofada paxta va bedaning katta qismini tashish "Xiva" kema jamiyati tomonidan amalga oshirilgan.

Karvon yo'llari orqali yuklar dastlab faqat tuyalar, masalan, yiliga 85 ming tuya va aravalar- yiliga 20 ming arava vositasida tashilgan. Masalan, 1881 yilda Amudaryo bo'limidan karvon yo'llari orqali 1000 ga yaqin tuyada mahsulot olib ketilgan.

Kaspiy orti temir yo'li qurilib, ishga tushgach, savdo aloqalari kuchayib ketgan. Amudaryo bo'limi temir yo'ldan chetda qolgan bo'lsa-da, ot-arava yordamida Chimboydan Aralsk stansiyasiga, Petro-Aleksandrovska esa Chorjo'y va Kazalinsk temir yo'l stansiyalariga yetib borilgan. Bu esa shaharlarning savdo aloqalarini ancha faollashtirgan. Amudaryo bo'limidagi zavodlarning aksariyati Rossiyadagi markaziy savdo-sanoat firmalari agentlariga tegishli edi. **P.Manuylov, G.Ravilov, S. Aminov, I.I.Pershin, Ballakulov, Z. Rahmanberganov, Salimdjano, Bakalov, Aliyev, Samandarov** kabi mahalliy savdogarlar ushbu firmalar hissadorlari edilar. Ular Rus-Osiyo bankining Urganchdagi bo'limi bilan birgalikda shaharlarda savdo-sotiq operatsiyalarini amalga oshirib, katta daromad ko'rdilar. Mahalliy zavodlar paxta xom ashyosini birinchi qayta ishlash bilan birga boshqa xom-ashyolar uchun ombor vazifasini o'tar, ular qayta ishlanib, yuqori narxda sotilar edi.

Xududda **hunarmandchilik** asrlar davomida uy-ruzg'or va maishiy ehtiyojlarini qondiradigan darajada rivojlanib kelgan edi. Mahalliy aholi o'z ehtiyojlari va kundalik hayotda zarur bo'lgan matolar. Xususan, paxtadan olacha (satin), chit va boshqa matolar to'qishgan, tuya va qo'y junidan gilam, palos, kigiz tayyorlashgan, teriga ishlov berib, ot anjomlari, egar va jabduqlar tayyorlashgan. Qoraqalpog'lar taxta va suyakka naqsh o'yish bo'yicha ham mohir usta bo'lishgan.

Qishloqlarda mahalliy ustalar odatda buyurtmaga ishlaganlar, ularning mehnat haqi natura yoki usta xo'jaligida ishlab berish yo'li bilan to'langan. Shaharlarda esa asosan atrof hududdan keladigan aholiga sotish uchun ham mahsulot tayyorlashgan.

² История Каракалпакской АССР. Том. I. С.181.

Hunarmandchilik mahorati avloddan avlodga meros bo'lib o'tgan, keng ommalashtirilmagan va cheklangan doiradagi kishilargagina o'rgatilgan.

Gilam to'qish, namat tayyorlash, buyra to'qish, kiyim tayyorlash, kashtachilik kabi hunarlar, asosan ayollarning uy mashg'ulotlari darajasida bo'lgan va maxsus ishlab chiqarish tarmoqlariga ajralmagan. Amudaryo bo'limida paloslar, gilamlar, kanoplar paxtadan va yungdan mato tayyorlovchi mahalliy ishlab chiqarish turlari keng tarqalgan bo'lib, bu ishlar bilan asosan ayollar shug'ullangan.

Chimboy, Qo'ng'iro't, Xo'jayli shaharlarida qoraqalpoq xunarmandlari ko'pchilikni tashkil qilgan. **Temirchi, duradgor, kigiz bosuvchilar, zargarlar, bo'yoqchi, kulolchi, to'quvchi** kabi hunarmandchilik ustaxonalarida 3-4 kishi mehnat qilgan.

Shunday qilib, Amudaryo bo'limi hududida dastlab ma'muriy markaz sifatida tashkil etilgan shaharchalar kichik bo'lishiga qaramay, qulay savdo yo'llari va temir yo'l stansiyalarida joylashuvi bois ichki va tashqi savdo aloqalarida muhim o'rin tuta boshladi. Shaharlarda qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosi faollashib, keng rivojlandi. Zavodlar paydo bo'ldi, yangi bozorlar shakllandi, ichki va tashqi savdo o'sdi hamda xom ashyoni qayta ishlovchi sanoat korxonalari tashkil etildi. Natural xo'jalik barham topa boshladi. Shaharlar mahalliy aholi yetishtirgan xom ashyoni metropoliyaga yetkazib berishda, bozorlarda rus sanoati mahsulotlarini realizatsiya qilishda muhim rol o'ynadi.

Amudaryo bo'limida an'anaviy ijtimoiy hayot Xiva xonligi davridagi an'analarda davom etgan. Bo'limda 5 ta masjid, 5 ta Madrasa, 3 ta korixona faoliyat yuritgan¹. Ularning iqtisodiy ta'minoti vaqf mulklari xisobidan amalga oshirilgan. Xususan, madrasalar ta'minoti uchun 32 ta, masjidlar ta'minoti uchun 58 ta, korixonalar uchun 5 ta, qalandarxonalar uchun 4 ta qabriston va maqbaralar ta'minoti uchun 7 ta vaqf mulklari mavjud bo'lgan².

1893 yilda Amudaryo bo'limi xududida 878 ta maktabda 7.801 o'quvchisi, 4 ta madrasada 240 talaba o'qiyotganligi aniqlangan. Oradan 9-10 yil o'tib, 1912 yilda bo'limda 669 ta maktabda 11.298 ta o'quvchi, 2 ta madrasada 70 ta talaba ta'lim olayotganligi qayd etiladi.

Shaharlarda asosan rus aholisi yashaganligi sababli ular uchun cherkov, rus ta'lim maktablari tashkil qilingan, rus tuzem maktablari yuzaga kelgan. Harbiylar uchun ilk ambulatoriyalar qurilgan.

Xulosa qilib aytganda Xiva xonligida shaharlar hayoti an'anaviy yo'nalishda davom etib, mamlakatning ma'muriy boshqaruv tizimi, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotidagi o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Ammo mamlakatning o'z siyosiy va bir oz keyin, iqtisodiy mustaqilligini barham topishi, ko'pgina mamlakatlar bilan o'zaro aloqalarning ta'qiqlanishi, ichki biqlik, xazinadan Rossiya imperiyasiga katta o'lpon to'lab borilishi shaharlar taraqqiyotini sustlashtirdi. Bu bir tomondan, ichki biqlikni kuchaytirib, soliqlarni ortib borishiga shahar qurilishi uchun mablag'larning cheklanishiga ham sabab bo'ldi.

¹ Сырдарьинская область. Описание, составленное по официальным источникам Е.Смирновым. С.Петербург, 1887. С.24.

² Сырдарьинская область. Описание, составленное по официальным источникам Е.Смирновым. С.Петербург, 1887. 25.

Ikkinchi tomondan esa, o'z siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini yuqotgan har ikki mamlakatda iqtisodiy taraqqiyot, savdo munosabatlarining mustamlaka manfaatlariga moslashtirilishi shaharlarni metropoliyaning xom ashyo bazasi va tayyor mahsulotlari bazasiga aylanishida muhim rol o'ynovchi markazlarga aylantirdi. Tashqi aloqalarning cheklanishi hamda imperiya savdo monopoliyasining qaror topishi ham shaharlarning mintaqaviy savdo markazlari sifatidagi nufuzini tushirib yubordi.

Shaharda transport, sanoat, savdo, xizmat ko'rsatish tizimining shakllanishi, chetdan kelgan sarmoyadorlarning ko'payishi iqtisodiy jarayonlarni faollashtirsa-da, ular bu jarayonlarni bir yoqlama - metropoliya manfaatlariga mos ravishda olib borishga xizmat qildi.

Tayanch so'zlar:

Qanqa, Amudaryo, Gandimiyon, Qoraqalpoqlar, Kaspiy, xonlik, xonqa, qo'shko'pir, ioshhovuz, ilyoli, Xo'jayli, qo'ng'iroq, mang'it, biy, otaliq, masjid qavmlari, Ichon qal'a, Dishon qal'a, Xazarasp, chitkarlik, polvon darvoza, aslahaxona, Ko'hna ark, qulfsizlik, taqachilik, xarrotlik, juvoz, kigizchilik, elakchilik, amlokdor.

Test topshiriqlar:

1. "Amudaryoda Xiva va Buxoro kemalarining suzishi taqiqlandi". Bu qaysi sulh shartnomasiga ko'ra amalga oshirildi.

A. Rossiya-Xiva sulh shartnomasiga ko'ra

V. Angliya-Xiva sulh shartnomasiga ko'ra

S. Xiva xoni hoxishiga ko'ra

D. To'g'ri javob yo'q

2. Amudaryoning o'ng sohilidagi yerlar qaysi amirlik ixtiyoriga berildi?

A. Buxora amirligi ixtiyoriga berildi.

V. Qo'qon xonligi ixtiyoriga berildi

S. Xiva xonligi ixtiyoriga berildi

D. Rossiya ixtiyoriga berildi

3. XIX asrning II yarmida Xiva xonligining aholisini katta qismini qaysi millat ko'pchilikni tashkil etgan?

A. O'zbeklar ko'pchilikni tashkil etgan

V. Qoraqalpoqlar ko'pchilikni tashkil etgan

S. Qirg'izlar ko'pchilikni tashkil etgan

D. Qoraqalpoqlar va Qirg'izlar ko'pchilikni tashkil etgan.

4. XIX asrning II yarmida Aholining ko'pchilik qismini tashkil etgan o'zbeklar Xiva xonligining qaysi hududlarida yashaganlar va nima bilan shug'ullanganlar?

A. Janubiy hududlarida o'troq hayot kechirib, duhqonchilik, savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

V. Shimoliy hududlarida yashab, savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

S. G'arbiy hududlarida yashab, duhqonchilik bilan shug'ullanganlar.

D.Sharqiy hududlarida yashab, duhqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

5. XIX asrning II yarmida A.L.Kunning ma'lumotiga ko'ra Xiva xonligida o'zbeklar necha ming xonadonni tashkil etgan?

A.60.000 xonadonni tashkil etgan

V.50.000 xonadonni tashkil etgan

S.40.000 xonadonni tashkil etgan

D.45.000 xonadonni tashkil etgan

6. XIX asrning II yarmida ma'muriy-hududiy jihatdan Xiva xonligi nechchi beklikka bo'lingan?

A.20 ta beklikka bo'lingan

V.25 ta beklikka bo'lingan

S.22 ta beklikka bo'lingan

D.15 ta beklikka bo'lingan

7.Turkmanlar, qozoqlar va qoraqalpoqlar kimlar tomonidan boshqarilgan?

A.O'z urug' yetakchilari tomonidan boshqarilgan

V.Xonlik tomonidan boshqarilgan

S.General-gubernatorlik tomonidan boshqarilgan.

D.To'g'ri javob V varianti

8.Qozoqlar va qoraqalpoqlar urug' sardorlarini qanday atashgan?

A.Otaliq va biy deb atashgan

V.Inoq va otaliq deb atashgan

S.Xo'jayin va biy deb atashgan

D.Oqsoqol va kadxudo deb atashgan.

9.Turkmanlar urug' sardorlarini qanday atashgan?

A.Kadxudo, oqsoqol deb atashgan

V. Otaliq va biy deb atashgan

S. Xo'jayin va biy deb atashgan

D. Inoq va otaliq deb atashgan

10.Xiva xonligidagi mavjud bekliklardagi barcha ma'muriy va siyosiy ishlar kimning qo'lida bo'lgan?

A.Hokimlar qo'lida bo'lgan

V.Biylar qo'lida bo'lgan

S.Otaliq qo'lida bo'lgan

DTo'g'ri javob S varianti

11.Xiva xonligida qanday noibliklar bo'lgan?

A.Beshariq va Qiyot Qo'ng'iro't nomli noibliklar bo'lgan

V.Urgench va Qo'shko'pir nomli noibliklar bo'lgan

S.Shohobod va Shovot nomli noibliklar bo'lgan

D.Xo'jayli va Shumanay nomli noibliklar bo'lgan

12. Xiva xonligida Biylar qanday urug'larga rahbarlik qilgan?

A. Kichik urug'larga rahbarlik qilgan

V. Katta urug'larga rahbarlik qilgan

S. Urug'larga rahbarlik qilish biylarning vakolatiga kirmagan

D. Katta va kichik guruhlariga rahbarlik qilishgan.

13. Xiva xonligida biylar kimga bo'ysungan?

A. Otaliqqa bo'ysungan

V. Biylar biylarga bo'ysungan

S. Ular mustaqil bo'lganlar

D. Ular xonga bo'ysunganlar

14. Xiva xonligida Otaliqlar qanday urug'larga rahbarlik qilganlar?

A. Otaliqlar bir necha kichik urug'larning yirik urug' birlashmasini boshqarganlar

V. Kichik urug'ni boshqarganlar

S. Urug'larni boshqarish otaliqlar vakolatiga kirmagan

D. Katta urug'ni boshqarganlar.

15. Xiva xonligida Otaliqlar kimga bo'ysungan?

A. Otaliqlar beklarbegiga bo'ysungan

V. Otaliqlar mustaqil bo'lganlar

S. Otaliqlar biylarga bo'ysunganlar

D. Otaliqlar otaliqlarga bo'ysunganlar

16. Xiva xonligida beklarbegi kimga bo'ysungan?

A. Rus amaldoriga bo'ysungan

V. Beklarbegi hech kimga bo'ysunmagan, mustaqil bo'lgan

S. Beklarbegi beklarbegiga bo'ysungan

D. Beklarbegi otaliqqa bo'ysungan

8-Mavzu: Qo'qon xonligi shaharlari. Qo'qon shaxrining siyosiy markazga darajasiga ko'tarilishi

Reja:

1. Farg'ona viloyati shaharlari
2. Savdo markazlari va munosabatlari
3. Xunarmandchilik
4. Farg'ona vodiysi shaharlarining savdo aloqalaridagi o'рни

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. М., Восточная литература. 2003. С. 196-197.

2. Кауфман К.П. Проект всеподданнейшего отчета Ген.-Адъютанта К.П. фон Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 1881. СПб., 1885. С.32
3. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань, 1886. С.1.
4. Кун А.Л. Очерк Коканского ханства. (Отдельный оттиск из известий Императорского Русского Географического общества. Том XII). СПб., 1876. С. 6.
5. Вельяминов – Зернов В.В. Исторические известия о Кокандском ханстве // Вестник Императорского Географического Общества. СПб., 1856, Ч. XVIII Кн.5. Отд. 2. С.107-132.

Qo'qon xonligi bosib olingach, uning hududida tashkil qilingan Farg'ona viloyati shaharlari haqida to'xtalishdan avval xonlik davridagi mahalliy aholi va shaharlar holatiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofikdir. Zero bu haqida o'sha davr adabiyotlarida turlicha ma'lumotlar qayd etiladi. Tarixiy adabiyotlarda 1840 yillardayoq mamlakat aholisi 1 200 000 atrofida ekanligi qayd etilgan edi¹.

1860 yillarda O'rta Osiyoga tashrif buyurgan Arminiy Vamperi Qo'qonda 3 mln. dan ortiq aholi borligini qayd etadi².

Ammo 1876 yilga kelib bu haqida bir-biridan ancha uzoq bo'lgan ikki xil ma'lumot qayd etiladi. L.Kun mamlakatda hududida uncha to'liq bo'lmagan ma'lumotlarga aholi 192 000 o'tov va xonadon borligiga asoslanib, ularning sonini 5 ta qo'paytirish orqali umumiy aholi 960 000 deb taxmin qiladi, ammo ayni naytda bu ma'lumot aniq va to'g'ri emasligini ta'kidlaydilar³. Darhaqiqat, agar xonadon va o'tovlar soni taxminan 5ta emas, balki mahalliy xususiyatlardan (aholi o'ta zichligidan) kelib chiqib 7 yoki 8 ga qo'paytirilsa, u holda bu davrda mamlakat aholisini taxminan 1,3 mln. — 1,5 mln. atrofida bo'lgan, deb tahmin qilish mumkin.

Shuni alohida qayd etish lozimki, 1876 yilga oid ushbu ma'lumotlarda bu davrga kelib Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo'lgan Turkiston general gubernatorligi tasarrufiga o'tib ketgan **Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram shaharlari** va ularning atrofidagi qishloqlar qayd etilmagan.

Boshqa muallif - **A.P.Xoroshxin** esa mamlakat aholisi taxminan 2 mln. kishini tashkil etishini qayd etgan¹. Demak, o'shbu muallif L.Kun xisobga olmagan shaharlar aholisi ham ko'shib hisoblagan va xonlik hududidagi barcha aholi 2 million atrofida bo'lgan degan xulosaga kelgan².

A.P.Xoroshxinning xonlik aholisi haqidagi bergan ma'lumoti mamlakatga Rossiya imperiyasi istilolari boshlangandan avvalgi holatga, A.L. Kun qayd etgan ma'lumotlar esa, Qo'qon xonligining tugatilish arafasidagi, ya'ni mamlakatning bir qismi Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga o'tib ketgandan keyingi holatga tegishli, degan xulosaga kelish mumkin.

¹ **Хива**, или географическое и статистическое описание Хивинского ханства. М., 18-10. С.26-27.

² Арминий Вампери. Путешествие по Средней Азии. М., Восточная литература. 2003 С. 196-197.

³ А.Л. Кун. Очерк Коканского ханства. // Отдельный оттиск из известий ИРГО.Т.XII. С.5

⁴ Сборник статей, касающихся до Туркестанского края А.П.Хорошихина СПб., 1876. С.42

⁵ Сборник статей, касающихся до Туркестанского края А.П.Хорошихина СПб., 1876. С.42.

Shu o'rinda shuni alohida qayd etish lozimki, xonlik hududida aholi juda zich joylashgan bo'lib, uning turmush sharoiti nisbatan qulay, tabiiy iqlim sharoiti mu'tadil, dehqonchilik, hunarmandchilik hamda ichki va tashqi savdo aloqalari yaxshi rivojlangan edi. Bu esa, mamlakatda barqaror hayotni ta'minlash va aholining o'sib borishi uchun katta zamin edi.

1876 yilda sobiq Qo'qon xonligi tugatilgach, uning hududida tashkil etilgan Farg'ona viloyati hududiy jihatdan 81 032 kv. verstni tashkil qilar, bu o'lka hududining yettidan bir qismiga teng kelar edi. Viloyat ma'muriy jihatdan 7 ta uездga - Qo'qon, Andijon, Namangan, Marg'ilon, O'sh, Chust, Chimyon (1879 yildan Isfara) uездlariga bo'lingan³. 1881 yilda Isfara uezdi bekor qilinib, uning hududi Qo'qon uezdi tarkibiga kiritiladi. Viloyatda 6 ta uезд qoldirilgan.

1886 yilda tasdiqlangan "Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom" ga ko'ra viloyat 5 ta uезд - **Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan va O'sh uездlariga bo'linadi**⁴. Chust uezdi bekor qilinib, uning hududi boshqa uездlarga qo'shiladi. Barcha uездlar uchun shu nomdagi shaharlar ma'muriy markaz sifatida belgilandi. Faqatgina Marg'ilon shahri bundan istisno bo'lib, Marg'ilon uezdi markazi uchun **Yangi Marg'ilon, ya'ni** 1907 yildan Skobelev, (keyinchalik esa Farg'ona deb nomlangan) shahri barpo etildi. Uездlar tumanlarga bo'linib boshqarilgan. Viloyatda jami 20 ta tuman bor edi.

Viloyatda 7 ta yirik shahar - **Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Andijon, Chust, O'sh, Yangi Marg'ilon** mavjud edi. Bulardan tashqari, **Isfara, Rishton, Shahrixon, Asaka, O'zgan** kabi shaharchalar aholisining soni va hududi bo'yicha boshqa shaharlardan kolishmas edi¹. Istilo arafasida Qo'qon xonligidagi shaharlar aholisining soni haqida rus manbalarida turlicha ma'lumotlar qayd etiladi.

1865-1866 yillarda M.Bekchirin tomonidan aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qon shahri va uning atrofiga 100 000, Namanganda 30 000, Marg'ilonda 20 000, Kosonda 30 000, Chustda 20 000, Konibodomda 15 000, O'shda 5 000, Chimkentda 4 000 aholi yashar edi². Bu ro'yhatda vodiydagi yirik shaharlardan biri Andijon qayd etilmagan. Toshkent shahrida esa 150000-160000 aholi yashar edi.

1876 yilga kelib, ya'ni Qo'qon xonligi tugatilishi arafasida A.L.Kun qayd etgan ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona vodiysidagi **Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan shaxarlarida** hamda **O'zgan va Baliqchi** kabi kichik shaharchalarda jami 26 000 ta uy-joy, 1 170 ta masjid, 390 ta maktab, 68 ta madrasa, 5 200 ta yoyma do'kon bo'lgan³.

1876 yilda, istilo arafasida A.L.Kun tomonidan to'zilgan ushbu jadvalga vodiydagi **Asaka, Shahrixon, Chust, O'sh, Konibodom, Koson** kabi nisbatan kichik shaharchalar kiritilmagan.

³ Кауфман К.П. Проект всеподданнейшего отчета Ген.-Адъютанта К.П. фон Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 1881. СПб., 1885 С.32

⁴ Положение об управлении Туркестанского края. Санкт-Петербург, 1886. С.1; Свод Законов Российской Империи. В пяти книгах. Книга первая. Том 2. СПб., 1912. С. 427-446.

¹ Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань, 1886. С.1.

² Романовский Д.И. Заметки по Средне-Азиатскому вопросу. СПб., 1868. С.281.

³ Кун А.Л. Очерк Коканского ханства. (Отдельный оттиск из известий Императорского Русского Географического общества. Том XII). СПб., 1876. С. 6.

Jami mintaqaga Rossiya imperiyasi tajovuzi boshlanishidan avval Qo'qon xonligi tarkibida Toshkent, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan, Turkiston, Sayram, Chimkent, Koson, Chust, O'sh, Konibodom, Balikchi, O'zgan, Shahrixon, Asaka kabi 15 dan ortiq shahar va shaharchalar bo'lib, ulardagi aholi soni 400 000 dan ortgan. Xonlik 15 ta beklikka bo'linganligi, poytaxt Qo'qondan tashqari 15 ta beklilik markazi, ya'ni ham ma'muriy, ham iqtisodiy markazlar mamlakat hayotida muhim o'rin to'tgan.

Agar Qo'qon xonligi aholisi Rossiya imperiyasi tajovuzidan avval 2 millionga yetganligi nazarda tutilsa, uning tarkibida shahar aholisi 20% ni tashkil qilganligi ma'lum bo'ladi.

Qo'qon xonligining bir qismi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, 1870 yillarda mamlakatdagi shahar aholisi nisbatan kamaydi. Rossiya imperiyasining 1864-1867 yillardagi harbiy tajovuzi natijasida bosib olingan yerlarda avval Turkiston viloyati, keyin esa, Turkiston general-gubernatorligining Sirdaryo viloyati tuzildi. Rasmiy manbalarda qayd etilishicha, Qo'qon xonligining bosib olingan hududlaridagi aholisi Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritildi.

Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufmannning 1885 yilda chop etilgan hisobot loyihasida qayd etilgan statistik ma'lumotlarda qo'rsatilishicha, 1868 yilda Sirdaryo viloyatida o'tkazilgan tashkiliy ro'yhatga olish jarayonida mazkur hududda 159.181 ta xonadon va o'tov borligi aniqlangan⁴. Shundan 141.666 ta xonadon va o'tov Qo'qon xonligidan tortib olingan yerlarda joylashgan edi. Mazkur xonadonlar soni o'rtacha 7 yoki 8 ga qo'paytirilsa, u holda bu yerlarda taxminan 1 million kishi yashaganligi ma'lum bo'ladi. Demak, 1864-1867 yillardagi harbiy tajovuzlar natijasida Qo'qon xonligining 1 millionga yaqin aholisi Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga o'tkazilgan. Ushbu hududdagi aholining 130.000 dan ortig'i shaharlarda yashar edi.

1876 yilga kelib Qo'qon xonligiga qarshi tajovuzning ikkinchi bosqichi boshlandi. Ketma-ket janglar natijasida uning qolgan qismi ham zabt etilib, uning hududida Farg'ona viloyati tashkil qilindi. Ushbu viloyat tarkibiga sobiq xonlikdan yana 700.000 ga yaqin aholi o'tkazildi¹. Mazkur raqamlarni qayd etgan tadqiqotchilar ular eng kam qo'rsatkich ekanligini, xonadonlar soni 5 ga qo'paytirilganligini, aslida har bir xonadonga o'rtacha 7 kishidan to'g'ri kelishini alohida ta'kidlab o'tganlar².

Statistik tadqiqotlar davomida Farg'ona viloyati hududida jami 120.489 ta o'troq aholi xonadonlari va 25.201 ta kuchmanchi aholi o'tovlari borligi aniqlangan. Agar aholi soni o'rtacha 7 ga qo'paytirilsa, umumiy aholi soni 1 milliondan ortiq bo'lganligini taxmin qilish mumkin.

Xullas, Qo'qon xonligiga qarshi Rossiya imperiyasi 1864-1867 yillardagi harbiy yurishlar natijasida taxminan 1 million, 1876 yildagi janglar natijasida esa, yana 1 milliondan ortiq aholi Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga o'tkazilgan.

⁴ Kaufman K.P. Проект отчета по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. С.-Петербург, 1885. С.53.

¹ Kaufman K.P. Проект отчета по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. С.-Петербург, 1885. С.13.

² Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Выпуск 1. СПб., 1872. С.121

Rossiya imperiyasining Qo'qon xonligiga qarshi qaratilgan harbiy hujumlari va ularga qarshi xalq kurashlari jarayonida baland devorlari bilan o'ralgan mudofaa markazi bo'lgan shaharlar va ularning atroflaridagi uy-joylar harobaga aylandi. Farg'ona vodiysi shaharlari istilo jarayonida juda katta talafotlar ko'rdi. Bu talafotlar tufayli qo'plab uy-joylar vayron bo'ldi, harbiy ko'shin va tinch aholidan to'plangan halq lashkari kirilib ketdi.

Har bir shahar mudofaasida bir necha o'n minglab mudofaachilar qirilib ketdi. Bularning bari vodiydagi aholi soni va shahar madaniyatiga katta talofot yetkazdi.

XIX asrning so'nggi choragi - XX asr boshida Farg'ona vodiysidagi shaharlar hayotidagi o'zgarishlar va urbanizatsiya jarayonlarini har bir shahar misolida yanada aniqroq tasavvur qilish mumkin.

Qo'qon xonligining poytaxti, Farg'ona vodiysidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatida asrlar davomida ma'lum va mashhur bo'lib kelgan ushbu shahar Rossiya imperiyasi istilosi arafasida baland devor bilan o'ralgan bo'lib, unga 12 ta darvozzadan kirilgan. Shaharda xon saroyi - O'rda joylashgan.

Shahar hududidan o'tgan Katta soy, Kichik soy va Qorasuv daryolari Qo'qon axlini suv bilan ta'minlagan. Shahar ozodaligi, qo'chalar keng, ikki tomonlama daraxtlar eqilganligi, asrlardan beri yashab kelayotgan kadimiy qayrag'ochlari bilan ajralib turgan. Uylar puxta qurilgan bo'lib, pishiq g'ishtli binolar qo'p bo'lgan. Mamlakat poytaxti va hamda yirik savdo markazi bo'lgan Qo'qon shahri yil sayin kengayib, aholisi ortib borgan. 1820 yilda YE K.Meyendorf shaharda 6.000 uy-joy borligini qayd etgan.

Bu esa shahardagi aholi taxminan 40.000 dan ortiq bo'lganidan dalolat beradi. Shaharga oradan 40 yil o'tib, tashrif buyurgan A.Vamberi esa Qo'qon Xivadan 6 marta, Buxoroda 3 marta, Texrondan ikki marta katta ekanligini qayd etadi.

1866-1867 yillarda Turkiston viloyatining harbiy gubernatori lavozimida ishlagan D.I.Romanovskiy shahar aholisi 100.000 kishi ekanligini qayd etadi¹.

1876 yilga oid tarixiy adabiyotlarda Qo'qon shahridagi uy-joylar haqida bir yilda ikki xil ma'lumot qayd etiladi. Xususan, A.L.Kun Qo'qonda 10.000 xonadon borligini qayd etsa², A.P.Xoroshxin 22.000 xonadonda 80.000 aholi bor deb ko'rsatadi (har bir xonadonga 3,6 kishidan to'g'ri kelgan)³. O'lkaga tashrif buyurgan amerikalik say yoh Yujen Skayler esa Qo'qonda 75.000 aholi yashashini qayd etadi⁴. Shaharda aholining nihoyatda zich joylashgan, tinch aholidan tashqari saroy axli, xizmatchilari, qo'riqchi va harbiy kuchlar, madrasa talabalari ham yashagan.

Bu davrda 20.000 uy-joyga ega bo'lgan Toshkentda 150.000 aholi yashaganligi va yuqorida qayd etilgan holatlarni inobatga olib, xonlik poytaxtida aholi soni 100000 dan ancha qo'p bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin.

¹ Романовский Д.И. Заметки по Средне-Азиатскому вопросу. СПб., 1868. С.281.

² Романовский Д.И. Заметки по Средне-Азиатскому вопросу. СПб., 1868. С.281

³ Сборник статей, касающихся до Туркестанского края А.П.Хорошхина. СПб., 1876, С.40.

⁴ Eugene Schuyler. Turkestan Notes of Journey in Russian Turkestan. Khokand. Bukhara and Kuldja. New York. 1885. Vol. II. P.

XIX asr o'rtalariga oid ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qon shahri 280 ta mahallaga bo'linib⁴, ellikboshilar tomonidan boshqarilgan.

Katta oqsoqolga bo'ysunuvchi daha oqsoqollari mirshablar yordamida aholidan soliq to'plaganlar. Istilo arafasida shaharda 9 ta karvonsaroy, 6 ta hammom, 12 ta Madrasa, 1 ta korixona va 1 ta mirshabxona mavjud bo'lgan.

1876 yilga kelib, Qo'qon shahrida 10 ta karvonsaroy, 15 ta madrasa (ularda 1.500 talaba ta'lim olgan borligi qayd etiladi⁵). Bu davrda shahar 12 kismga, 540 ta maxallaga bo'lingan⁶, Demak, so'nggi 20 yil davomida shahardagi maxallalar soni deyarli 2 marta qo'paygan.

Shahardagi uy-joylar va aholi soni ham mos ravishda qo'paygan va 22.000 xonadonda 100.000 aholi yashaganligi qayd etilgan⁷ (har bir xonadonga 4,5 kishidan xisoblangan).

Rossiya impriyasi tajovuzi natijasida 1876 yil 19 feralda xonlik tugatilgach, Qo'qon shahri Turkiston general-gubernatorligi tarkibida tashkil etilgan Farg'ona viloyatining markazita aylantiriladi⁸. O'sha yili 15 iyulda tuzilgan shahar boshqarmasiga shahar boshlig'i, uning katta va kichik yordamchilari, mirza hamda tarjimon tayinlanadi. Oradan qo'p o'tmay, 1877 yil 27 aprelda viloyat markazi Yangi Marg'ilonga ko'chirilishi munosabati bilan¹ Qo'qon shahri o'sha yili 1 iyundan Farg'ona viloyati tarkibidagi Qo'qon uездining ma'muriy markaziga aylantiriladi². 1917 yilgacha Qo'qon shahri uезд boshlig'i tomonidan boshqariladi.

Uезд boshlig'i qo'lida ma'muriy va xo'jalik boshqaruvchisi bo'lingan bo'lib, ijtimoiy masalalarni hal etishda unga aholining nufuzli vakillaridan 3 yil muddatga saylanadigan 3 ta deputat (shundan 1 tasi mahalliy aholi, 2 tasi rus aholisi vakillari) yordam bergan. Shahar hududi va xo'jaligi kengayib, aholi soni ortib borishi bilan, boshqaruv apparata hamo'sib porti, cheputatlar soni esa, 1907 yildan 6 taga qo'paytirilgan (shundan 4 kishi rusaholisi vakillari edi)³.

Mahalliy vakillar - deputatlarga asosan soliq to'plash, ma'muriyat buyruqlarini xalqqa yetkazish kabi quyi ijrochilik vazifalari topshirilgan. Ma'muriy, xo'jalik masalalari bilan uезд boshlig'i shug'ullangan.

1896 yilda katta oqsoqol o'miga shahar politsiya boshqarmasi joriy etiladi. Ruslardan tayinlangan politsiya boshlig'i shahar boshlig'i funksiyasini bajargan va mahalliy aholi yashagan eski shaharni qattiq nazoratda tutgan. Shahar daromadining 24,1 foizi politsiya xizmati ta'minotiga sarflangan⁴.

O'lkadagi boshqa shaharlar kabi Qo'qonda ham rus ma'murlari uchun alohida uylar qurila boshlagan. Shu maqsadda 1881 yildan rus ma'murlari va harbiylari uchun "yangi shahar" qurilishi boshlangan⁵. Sobiq xon saroyining atrofidagi bog'lar

⁴ Вельямин – Зернов В.В. Исторические известия о Кокандском ханстве. // Вестник Императорского Географического Общества. СПб., 1856, Ч. XVIII Кн.5. Отд. 2. С.107-132.

⁵ Сборник статей, касающихся до Туркестанского края А.П.Хорошхина. СПб., 1876, С.40

⁶ Сборник статей, касающихся до Туркестанского края А.П.Хорошхина. СПб., 1876» С.40.

⁷ Сборник статей, касающихся до Туркестанского края А.П.Хорошхина. СПб., 1876». С.42.

⁸ Истрия Коканда. Ташкент, 1984. С.7.

¹ Обзор Ферганской области за 1898 г. Новый Маргелан., 1900. С.97.

² УзР МДА. 11-1 жамгарма, 20-руйхат, 10663-йигма жилд. 8-11-варак.

³ УзР МДА. 11-17 жамгарма, 1-руйхат, 20308-йигма жилд. 22-варак.

⁴ История Коканда. С. 9.

⁵ Фаргона водийси шаҳарлари. Қўқон. Тошкент.1963. 32-33- бетлар.

buzilib, uning yonida joylashgan qabriston boshqa joyga kuchirilgan va shu yerlarda "yangi shahar" qurilishi uchun joy ajratilgan.

Shahardagi sobiq xon saroyi - O'rdada rus ma'muriyati, harbiy garnizoni joylashtirilgan, cheyinchalik esa, O'rda devori yakson qilinib, uning janubi-g'arbiy qismida harbiy istehkom barpo etilgan.

Qisqa fursatda bu yerda uy-joylar ma'muriy binolar, kazarma, cherkov, bilim yurti va maktab qad ko'taradi, ikki tarafiga qator chinorlar ekilgan yettita qo'cha paydo bo'ladi⁶. Davlat idoralari, uezdning ma'muriy binolari, banklar, yirik savdo shirkatlarining binolari shu ko'chalar bo'ylab joylashtiriladi.

"Yangi qism"ga joylashgan rus ma'murlari va harbiylarining oilasi uchun alohida maktablar, do'konlar va bozorlar tashkil etildi, telegraf, telefon, pochta aloqalari yo'lga qo'yiladi. Kutubxonalar, kinoteatrlar barpo etildi, tipografiya va dorixona ochildi. Qo'qonda rus aholisi uchun 4 yillik o'g'il bolalar gimnaziyasi, ayollar gimnaziyasi, xususiy tijorat maktabi, temir yo'l maktabi tashkil etildi.

Ijtimoiy tarkibi jihatidan "yangi shahar" aholisi dastlab harbiylar, savdogarlar, amaldorlar va xizmatchilardan iborat bo'lgan. Keyinchalik, shaharda sanoat korxonalari paydo bo'lishi, Andijon - Samarqand temir yo'lining ochilishi, 1899 yilda Qo'qon shahriga temir yulning yetkazilishi bilan shahar aholisining nafaqat sonida, balki ijtimoiy va milliy tarkibida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi.

"Yangi shahar"ga ruslar bilan birga yahudiylar, tatarlar, boshqirdlar, beloruslar, ukrainlar va boshqa millat vakillari ham ko'chib kelgan. XX asr boshiga oid ma'lumotlarning qo'rsatishicha, Qo'qon shahri aholisining 94 foizini o'zbeklar, 3,5 foizini ruslar, 0,5 foizini yahudiylar va 2 foizini boshqa millat vakillari tashkil qilgan¹. Shaharning yangi qismidagi uy-joylar soni 1913 yilga kelib 250 taga yetadi.

Bu davrda shaharda 248 ta masjid (shundan 18 tasi jome'masjidi) faoliyat yuritgan. Qo'qon shahridagi aholi soni uning eski va yangi qismini qo'shib hisoblaganda, 1885 yil ma'lumotlariga ko'ra, 54.533 kishini², 1897 yilda 81.357 kishini³, 1905 yilda 104.260 kishini⁴, 1910 yilda 115.600 kishini⁵, 1917 yilda 150.000 kishini tashkil qilgan⁶, Shahardagi uy-joylar soni esa, 1905 yilda 10.796 taga⁷, 1913 yilda 16.250 taga⁸, 1916 yilga kelib esa, 18.400 taga yetadi⁹.

Turli manbalarda qayd etilgan mazkur raqamlarning qiyosiy tahlilidan ma'lum bo'lishicha, 1905 yilda 10.796 ta xonadonga 104 260 kishi yashagan, ya'ni har bir xonadonga 9-10 kishidan to'g'ri kelgan. Keyingi yillarda xonadonlar soni har uch yilda 5000 taga qo'paygani kuzatilgan. 1916 yilda shaharda 18 400 ta xonadon

⁶ Обзор Ферганской области за 1898 г. Новый Маргелан.. 1900. С.97.

¹ Воейков Д. Список населенных мест Ферганской области. Скобелев, 1909.С. 33

² Материалы для статистики Туркестанского края (численность населения). // «Туркестанские ведомости». 1885. № 38.

³ Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 года. (Губернские итоги). Т. Г. 1-89. СПб.: 1903-1905.

⁴ Статистический обзор Ферганской области за 1905 год. Г. Скобелев, 1908. С.5

⁵ Статистический обзор Ферганской области за 1910 год. Г.Скобелев, 1912. С.2.

⁶ Суздальцев А. Туркестан и сопредельные страны. Самара, 1919. С.47.

⁷ Статистический обзор за 1905 год.Г. Скобелев, 1908. Приложение № 5. С.5

⁸ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С.700.

⁹ История Коканда. С. 12.

borligi qayd etilgan, bu esa istilo arafasida qayd etilgan 22 000 xonadondan ancha kam bo'lgan.

Agar shaharda har bir xonadonga 9-10 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, istilodan avval shahardagi 22.000 xonadonda yashagan aholi soni 150 000 dan kam bo'lmaganligini tahmin qilish mumkin.

Qo'qon shahri yirik **savdo markazlaridan** biri bo'lib, XIX asrning 40-yillarida shaharda 6 ta bozor mavjud bo'lgan. Bozorlar usti yopiq bo'lib, bu yog'ingarchilik mavsumi uchun juda qulay bo'lgan. Bu davrda Qo'qon bozori mintakada Buxoro bozoridan so'ng eng yaxshi bozorlardan biri bo'lgan.

Xudoyorxon hukmronligi davrida xonlikning turli hududlarida, xususan, kichik shahar va qishloqlarda ham bozor, do'kon, karvonsaroy va boshqa savdo inshootlari qurilgan. 1856 - 1857 yillarda Qo'qondagi asosiy bozorda katta karvonsaroy va to'qimachilik mollari sotish uchun mo'ljallangan savdo rastalari barpo etiladi. Xonning buyrug'i bilan Karimquli mextar tomonidan qurdirilgan chit rastasi poytaxtdagi eng yirik savdo rastalaridan biri hisoblangan. Xudoyorxon 1867 - 1868 yillarda xazinabon Iso Avliyoga xonlikning hamma hududlarida bozor, yangi do'kon va karvonsaroilar qurdirishni buyuradi. Natijada, Qo'qon bozorida chit sotiladigan savdo rastalari, kanop, katta va kichik — paxta, o'tin va boshqa mahsulotlar saqlanadigan va ular bilan savdo qilinadigan karvonsaroilar barpo qilinadi. Bu davrda Qo'qon bozoridagi chit rastalari soni 250 taga yetgan.

1870 yil Qo'qon markaziy bozorining to'qimachilik rastalari joylashgan qismida yong'in sodir bo'lishi tufayli chit rastasi yonib, kul bo'lgan. Xudoyorxon farmoni bilan qisqa muddatda Qo'qon bozorining chit rastasi qayta qurilgan. Yong'indan bir oz muddat o'tgach, Qo'qonda bo'lgan A.L.Fedchenko, Qo'qon bozori haqiqatdan e'tiborga loyiq, u hamma tomondan o'ziga xos me'morchilik uslubida qurilgan, deb qayd etgan.

Darhaqiqat, bozor usti baland yog'och tom bilan yopilganligi tufayli havo juda yaxshi aylangan. Qo'qonning asosiy bozori O'rta Osiyo shaharlariga xos an'anaga ko'ra, shaharning markazida, turli qo'chalar tutashgan yerda joylashgan va "Katta bozor" deb yuritilgan. 1875 yil ma'lumotlariga ko'ra bu bozordagi do'konlar soni 2.000 atrofida bo'lgan.

Asosiy bozor mahsulot turlariga qarab, alohida savdo rastalariga yoki kichik bozorchalarga bo'lingan.

Dehqonchilik mahsulotlari, galla, ipak va pilla, paxta, o'simlik yog'i quruq mevalar, pichon, yog'och, beda, poxol boyurlari, guruch - hammasi alohida-alohida bozor va rastalarda sotilgan. Kiyim-boshlar rastasi, choy rastasi, zargarlik rastasi va boshqalar ham shular jumlasidan edi.

Chorva mollari bozori O'rta Osiyo shaharsozligi an'alariga xos ravishda shahar chekkasidagi maydonda joylashgan edi.

Qo'qon shaharlari bozorlaridagi do'konlar kimga mansubligiga qarab hukmron sulola vakillari va amaldorlarga, xususiylar, shuningdek, Madrasa va masjidlariga vaqf qilingan do'konlarga bo'lingan.

Arxiv ma'lumotlariga qaraganda, xonlik tugatilishi arafasida Qo'qon shahri bozorlarida 1911 savdo do'kon bo'lgan va ularning 599 tasi hukmdorga qarashli, 1312 tasi hususiy do'konlar hisoblangan.

Xudoyorxon hukmronligi davrida poytaxtdagi karvonsaroy, do'kon, hammom va boshqa savdo inshootlarining aksariyat qismidan solik olinmagan. Chunki, ularning asosiy qismi xonga qarashli bo'lgan yoki vaqf mulklari hisoblangan.

Shahardagi 10 ta karvonsaroyning 5 tasi xonga tegishli bo'lgan. Do'konlar savdogarlarga ijaraga berilgan hamda ulardan belgilangan tartibda ijara xaqi olingan. 1874 yilda Qo'qondagi 575 savdo do'konidan xon xazinasiga 2131 tillo daromad tushib turgan. Yirik savdo ochik bozor maydonlarida, ulgurji va chet el mollari savdosi karvonsaroylarda amalga oshirilgan. Bozor haftada uch kun - chorshanba, payshanba va yakshanba kunlari ertalabdan kechgacha davom etgan. Chorshanba asosiy bozor kuni hisoblanib, shu kuni bozorga xonlikning turli shaharlaridan va qo'shni hududlardan savdogarlar kelganlar.

Qo'qon atrofidagi qishloqlarda ham haftaning turli kunlarida bozorlar tashkil etilgan bo'lib, Konibodomda yakshanba, Beshariq, Yangiqo'g'on va Oltiariqda dushanba, Yaypan, Buvayda va Rishtonda seshanba, Isfarada chorshanba, Chorsuda payshanba kuni bozor bo'lgan.

Shahardagi karvonsaroylardan biri - Zakot saroyda rus savdogarlari, yana birida paxta bilan savdo qiluvchi savdogarlar joylashgan.

Karvonsaroylarning har birida 12 - 35 tagacha do'kon mavjud bo'lgan va ularda asosan ulgurji savdo amalga oshirilgan. Savdogarlar karvonsaroy do'konlarini ijaraga olganlar va ma'lum mikkorda ijara xaqi to'laganlar.

Xususan, XIX asrga oid ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qon va Toshkent karvonsaroylarida yaratilgan sharoit va karvonsaroyning nufuziga qarab savdogarlar boshqaruvchiga do'kon ijarasi uchun yillarda 3 - 5 tillo to'lagan.

Karvonsaroylarda tuya va otlarni saqlash uchun ham maxsus joylar mavjud bo'lgan va ularga oziq-ovqat karvonsaroy hisobidan berilgan, karvonsaroylarda tuya va ot uchun alohida - 5 kopeyek (tiyin) dan joy haqi to'langan.

Qo'qon bozorlarida savdo ahli va oddiy aholi uchun choyxona, hammom, sartaroshxona va boshqa jamoatchilik inshootlari joylashgan. Ayniqsa, hammomlar ozodaligi va xizmat qo'rsatish sifati bilan mashhur bo'lgan. Hammomlarda bir nechta kichik gumbazlarda issiq va sovuq suv, libosxona, dam olish xonasi, quduq, mexmonxona, oshxona va o'rtada yuvinish xonasi bo'lgan.

XIX asr o'rtalarida Qo'qonda 6 ta hammom ishlab turgan. Bozorlar rastalarga bo'lingan bo'lib, har bir rastaning o'z oqsoqoli bo'lgan. Oqsoqol o'z rastasini yordamchisi bilan birgalikda nazorat qilgan va rastadagi har bir do'kondan 2 tanga va undan qo'proq o'z hisobiga pul olgan. Tunlari ham rastalar havfsizligi uchun oqsoqol javobgar bo'lgan va unga xizmat xaqi sifatida har bir do'kon hisobidan har oy pul tulab turilgan.

Shaharda 1913 yilda 5.000 ta do'kon va yoymalar borligi qayd etilgan¹. Qo'qon xonligi bozorlaridagi oldi-sotdi jarayoni bir maromda davom etishi va tozalik, tartib-intizomning joyida bo'lishida davlat amaldori - raislarning o'rni katta bo'lgan.

¹ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С.547.

Rais xonlik shaharlarida ba'zan, qozi rais deb ham atalgan. Bu lavozimga xulq-atvori yaxshi, shariat ilmining chuqur bilimdoni hamda aholi o'rtasida katta hurmatga ega bo'lgan kishilar tayinlangan.

Rais musulmonlarning shariat qoidalariga rioya qilishlarini nazorat kylish bilan birga, do'kon, savdo rastalari va bozorlarda savdo-sotiq jarayonini nazorat qilgan. U bozor kunlari o'zining halfa deb ataladigan 10 dan ortiq yordamchisi bilan bozor aylanib, tartib buzarlklarning oldini olgan, tarozilarning to'g'ri ishlayotganini va xatto, hunarmandlar tomonidan tayyorlangan buyumlar sifatini ham tekshirgan. Shuningdek, spirtli ichimliklar savdosiga qarshi kurashgan.

Rais qo'cha, ariq va bozor maydonlarining tozaligiga ham javobgar bo'lgan. Bozordagi narh-navodan, savdogarlardan va tarozidan norozi haridorlar arizalarini eshitgan hamda aybdorlarni jazolagan. Raisning hukmi xonlikdagi oddiy fuqarolardan tortib, amaldor va xorijliklar uchun ham katiy edi.

Garchi viloyat markazi Yangi Marg'ilonga ko'chirilsa-da, Qo'qon nafaqat Farg'ona viloyatidagi, xatto Turkiston miqyosida ham o'z iqtisodiy ahamiyatini yo'qotmadi. Savdo sohasida Qo'qon Farg'ona viloyatida birinchi o'rinda turar edi¹. Farg'ona viloyatidagi savdo aylanmasining 41,3 foizi Qo'qon shahriga to'g'ri kelar edi².

Shahar paxta, ipak, quruq meva, choy bo'yicha ulgurji savdo markazi bo'lgan. Qo'qonga Samarqanddan choy, chorva mollari va boshqa mahsulotlar, Farg'ona vodiysi shaharlaridan paxta, ipak, teri keltirilgan. 1880 yillar boshida Qo'qonning O'rta Osiyo shaharlari bilan olib borgan savdo aylanmasining o'zi 10 milliondan ortgan³.

Juda qisqa fursatda shahar butun Turkistonda savdo bo'yicha ikkinchi o'ringa chiqib olgan⁴.

Qo'qonda Xitoy bilan savdo mahsulotlari uchun omborlar, bojxona, karvonsaroylar faoliyat yuritgan. Shahar Rossiyaning Xitoy bilan olib borgan choy savdosida ayniqsa katta o'rin tutgan. Bu yerda Rossiyaning choy bilan savdo qiluvchi o'nlab firmalari ish olib borgan. Bundan tashqari, shaharda Rossiyadagi 8 ta yirik banklar filiallari, transport kontoralari, ipak tolasi sotib oluvchi yirik firmalar, ipakchilik jamiyatlari, neft mahsulotlari bo'yicha aksionerlik jamiyatlarning bosh kontoralari va omborxonalari faoliyat yuritgan.

Qo'qon rus tovarlari uchun Eron, Xindiston, Afg'oniston bilan savdo aloqalarida tranzit savdo markaziga aylangan.

Qo'qonda nafaqat Qo'qon bozori, balki hukumat tasarrufida ish yuritgan xususiy savdo punktlari ham faol ishtirok etgan.

XIX asrda O'rta Osiyodagi eng yirik hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lgan Qo'qonda ananaviy hunarmandchilik asrlar davomida rivojlanib kelgan. 1876 yilda shaharda 67 ta teri ustaxonasi, 232 yigiruv ustaxonalari, 276 ta ipak va 1 ta

¹ ЎзР МДА И-276 жамгарма, 1-руйхат. [23-йигмажилд. 25-26-варақлар.

² Материалы к характеристике народного хозяйства Туркестана. С. 299.

³ ЎзР МДА И-1 жамгарма, 16-руйхат. 1791-йигмажилд. 7-варақ.

⁴ ЎзР МДА И-1 жамгарма, 1-руйхат. 1539-йигма жилд. 16-варақ.

g'isht quyish ustaxonasi, faoliyat yuritir edi. 1883 yilda shaharda 1403 ta hunarmandchilik ustaxonasi mavjudligi qayd etilgan⁵.

Ichki ehtiyojlarni qondirgan mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari nafaqat shaharda, balki tashki bozorda ham haridorgir edi. Shahardagi ipak matolar, kulolchilik mahsulotlari, gilamlar, zargarlik va misgarlik buyumlari ko'rgazmalarda sovrinli o'rinlarga sazovor bo'lib, yuqori baholangan⁶.

Bu davrda shaharda hunarmandchilikning zargarlik, tukuvchilik, temirchilik, qog'ozbozlik kabi an'anaviy turlari bilan bir qatorda yangi hunarlar - soatsozlik, suratlashlik, muqovasozlik, tikuvchilik kabi yo'nalishlari ham rivojlanadi⁷.

An'anaviy tikuvchilik, ipakchilik, yog'-moy ustaxonalari yangi texnikalar kirib kelishi bilan takomillashib bordi. Ayni paytda shaharda rus sarmoyadorlari tomonidan vino, aroq, pivo tayyorlash zavodlari, paxta tozalash, yog'-moy zavodlari, tamaki fabrikalari tashkil etildi. Rossiya manufaktura mahsulotlari, zavod-fabrikalar qo'payishi bilan hunarmandchilikning ayrim turlari kasodga uchrab borgan. Masalan, 1892 yilda shaharda 66 ta kunchilik ustaxonasi ish yuritgan bo'lsa, 1895 yilga kelib ularning soni 30 taga qisqaradi. 1912 yilda Qo'qon - Namangan temir yul shahobchasi ishga to'shirilgach, shaharga rus sarmoyadorlarining kirib kelishi yanada kuchayadi.

Ayniqsa, paxta tozalash zavodlari jadal ko'payib, 1914-1915 yillarga kelib ularning soni 37 taga yetgan¹. Shaharda 360 ta masjid, 50 ta Madrasa, 232 ta maktab bor edi², shahar maktablarida XIX asr oxirlarida 36.106 ta bola ta'lim olgan³.

XX asr boshida shaharda jadid taraqqiyparvarlari tomonidan 12 ta yangi usul maktablari tashkil etilgan bo'lib, ularda 600 dan ortiq bola ta'lim olgan. O'sha davr manbalarida shahardagi tibbiy ahvol, sanitariya holati doimo salbiy holatda bo'lganligi qayd etilgan.

XIX asr oxirlarida Qo'qonda ayollar va bolalar uchun ilk ambulatoriya, keyinroq esa, kasalxona, 2 ta dorixona ochilgan. Mahalliy aholiga qo'rsatilgan tibbiy yordam nihoyatda cheklangan bo'lib, aholi o'sib borishi bilan kuchayib borgan talab va ehtiyojlarni mutlaqo qondira olmas, shahar byudjetidan yetarli mablag' ajratilmas edi.

Andijon shahri - Farg'ona vodiysining kadimiy shaharlaridan biri bo'lib, Rossiya tajovuzi arafasida Qo'qon xonligidagi Andijon bekligining markazi edi. Bu yerdan Farg'onaning turli qismlariga, Yettisuv, Qashqarga olib boradigan yo'llar o'tgan. 1868 yil ma'lumotlariga ko'ra shahar aholisi taxminan 35.000 kishini tashkil etgan⁴. 1876 yilda xonlik tugatilgach, beklilik Andijon uezdiga aylantirildi va shahar Andijon uezdi markazi makomini oldi.

Uezd markazi bo'lgan Andijonda uezd ma'muriyati joylashgan bo'lib, shaharda politsiya xizmati, amaldorlar va harbiylir qo'pchilikni tashkil etgan.

⁵ Обзор Ферганской области за 1892 год. Новый Мергелан. 1893. С. 19.

⁶ ЎзР МДА. И-375 жамгарма, 1- руйхат. 5-йигма жилд, 6-варак.

⁷ Статистический обзор Ферганской области за 1908 год. Новый Мергелан. 1909.

¹ История Коканда. Ташкент, 1984. С.18.

² ЎзР МДА. И-19 жамгарма, 1- руйхат, 12206 – йигма жилд, 44-83-варак.

³ История Коканда. С.27.

⁴ Военно-статистический сборник. Выпуск 3, 1868. С.132.

Andijon shahri bu davrda ham xuddi Qo'qon xonligi davridagidek 4 dahaga bo'lingan. Bu dahalarda jami 43 ta mahalla bo'lgan⁵.

Maxallalar oqsoqollar- tomonidan, daxalar esa, volost boshqaruvchilari tomonidan boshqarilgan. Andijon shahrining xo'jalikka oid masalalari ham uezd boshlig'i boshqargan. 1 ta mahalliy, 2 ta rus aholisidan vakillaridan iborat vakillar aholidan soliq to'plash bilan shug'ullanganlar.

1877 yilda Andijonning janubi-shariy tomonida, shahar devori gashkarisidagi Hoqon qishlog'ida rus ma'muriyati va aholisi uchun "yangi shahar" qurilishi boshlandi. Bu yerda yelpig'ich shaklidagi yo'nalishda yangi tosh ko'chalar yotqizilib, daraxtlar ekildi, yo'l bo'ylariga ariqlar qazildi, bozor uchun alohida yer ham ajratiladi.

Juda tez suratlar bilan barpo etilgan yangi shaharchada rus ma'murlari va harbiylari uchun pochta, telegraf, savdo do'konlari va turli kungilochar maskanlar, parklar, yevropacha usuldagi bir qavatli imoratlar qad ko'tardi, kasalxona, dorixonalar, kutubxonalar ochildi, bog'lar barpo etildi.

Shaharni obodonlashtirish ishlari ham keng ko'lamda olib borildi, tekis va ravon qo'chalar ochilib, daraxtlar o'tkazildi. Tungi yoritqichlar - kerosinli fonarlar o'rnatildi.

Andijonda rus aholisi uchun 5 ta boshlang'ich (shundan 2 tasi rus-to'zema maktablari edi), 2 ta o'rta, ayollar va erkaklar gimnaziyalari, kechki kurslar tashkil etilgan. 1915 yildan boshlab shaharda rus aholisi uchun "Izvestiya", "Telegramma", "Turkestanskiy golos" gazetalari nashr etila boshlagan. Bundan tashqari, Andijondagi "yangi shaharcha" da pochta, telegraf yo'lga qo'yiladi.

O'lkaning boshqa shaharlari singari Andijonning "yangi qismiaholisi ham dastlab harbiy ma'murlar, rus amaldorlari, savdogarlardan iborat edi. Keyinchalik Andijonda sanoat korxonalarining qo'payishi, temir yo'llar qurilishi bilan shaharga ko'chib keluvchilar soni tobora ortib bordi¹, "Yangi shahar"da dastlab 215 xonadon bo'lgan bo'lsa, 1914 yilga kelib ularning soni 1332 taga yetgan².

Shaharda turli millat vakillari - ruslar, ukrainlar, tatarlar, boshqirdlar, yahudiylar, beloruslar yashagan³.

Andijon shahri Farg'ona vodiysida o'z hunarmandchilik mahsulotlari bilan alohida o'rin egallagan. Xususan, bu yerda tayyorlangan paxta va shoyi matolar XIX asr boshlaridayoq, nafaqat mintqada, balki, Sharqiy Turkiston, Eron, Xindiston kabi mamlakatlar bilan savdo-sotiqda muhim o'rin tutgan. XIX asr oxirida shaharda 39 ta shoyi to'qish korxonalari, 50 ta ko'ncilik, 70 ta temirchilik, 25 ta sopol quvur yasovchi ustaxona, 177 ta tegirmon, 182 ta yog'-juvoz, 18 ta cho'yan quyuvchi korxonalar faoliyat yuritgan⁴. Rossiya bosib olishi bilan 1876 yilda shaharda jami 2.000 ga yaqin hunarmandchilik ustaxonalari hisobga olingan⁵.

⁵ЪЗР МДА. И-276 жамгарма. 1-руйхат. 117 - йигма жилд. 8-варак.

¹ Обзор Ферганской области за 1892 год. Обзор Ферганской области за 1897 год, Обзор Ферганской области за 1901 год.

² Жалилов С. Андийон Тошкент, 1989. 38-бет.

³ Обзор Ферганской области за 1892 год. Обзор Ферганской области за 1897 год, Обзор Ферганской области за 1901 год.

⁴ Жалилов С. Андийон Тошкент, 1989. 16-бет.

⁵ЪЗР МДП. 11-276 жамгарма. 1-руйхат. 117 - йигмажилд. 10-11 варак.

Shaharda 148 ta tikuvchi, o'nlab quruvchilar, zargarlar, misgarlar, bo'yoqchilar, etikdo'zlar faoliyat yuritgan⁶.

1882 yilda shaharda 1.044 ta hunarmandchilik korxonasida 1760 ta hunarmand ish olib borganligi aniqlangan. Ular ichki ehtiyojlarni qondirish bilan birga ayrim mahsulotlar, masalan poyabzal, egarlarni ko'shni viloyatlar hamda Qashqarga jo'natganlar.

Ammo o'lkaga metropoliyadan zavod-fabrika mahsulotlarining kirib kelishi tufayli hunarmandchilikning ayrim turlari qisqarib, qo'pgina hunarmandlar kasodga uchradi. Masalan, Andijon uездidagi 52 ta ko'nchilik korxonasi 9 taga, 40 ta kulolchilik ustaxonasi 16 taga, 34 ta sovun tayyorlovchi korxona 10 taga tushib qolgan⁷.

Ayni paytda hunarmandchilikning ayrim turlari zamon talablariga moslashib, rivoj topgan. Masalan, matoga ishlov berish, ipak matolar tayyorlash korxonalari qo'payib borgan.

Shu bilan birga yangi hunarlar – tikuvchilik, suratkashlik, muqovasozlik, soatsozlik, yangi korxonalar – bosmaxonalar paydo bo'lgan, meva sharbati, vino tayyorlash, paxta tozalash va boshqa xomashyoni birlamchi qayta ishlash sohalari rivojlana boshladi.

Shaharda ayniqsa, ipakchilik sohasi muhim ahamiyat kasb etib, yil sayin rivojlanib borgan. Ipakchilik mahsulotlari nafaqat Rossiyaga, balki xorijga ham katta miqdorda olib ketilgan.

Andijon shahri Farg'ona viloyatidagi savdo munosabatlarida katta o'rin to'rtgan. Shaharda XIX asr oxirida 22 ta karvonsaroy va 1.646 ta yoyma do'kon¹, 20 ta yirik savdo markazi bo'lgan. Ammo xukumat savdo muassasalariga yetarli e'tibor qaratmagan. Shunga qaramay, savdo bilan shug'ullanuvchilar soni yil sayin ortib borgan. 1911 yilda ma'muriyat shaharda soliq to'lovchi 3.000 ta savdogami ro'yhatga olgan, ammo soliqqa tortilmagan mayda savdogarlar ulardan ham ko'p edi².

Viloyatda paxtachilikning rivojlanishi shaharda paxta savdosi bilan shug'ullanuvchi firmalar, sarmoyadorlarning keskin qo'payishiga olib keldi. Ayniqsa, 1898 yilda Toshkent-Andijon temir yo'li ishga tushgach, bu jarayon avj olib, Andijondagi stansiya paxta jo'natishda viloyatdagi eng yirik punktga aylandi.

1885 yilda Andijonda shahrida 28.628 kishi yashayotganligi qayd etilgan³, 1897 yilda tuzilgan Rossiya imperiyasini umumiy aholi ro'yhatida shaharda 47.627 kishi yashayotganligi qayd etilgan⁴.

1902 yilda 3 dekabrda Andijonda sodir bo'lgan zilzila shahami honavayron kildi. Zilzilaga qadar shaharning yangi qismida 123 ta eski qismida 10.000 ta xususiy

⁶ ЎЗР МДЛ, 11-276 жамгарма, 1-руйхат, 117 - йигмажилд, 10-11 варак.

⁷ ЎЗР МДА, И-25 жамгарма, 1-руйхат, 20-йигма жилд, 225-варак, Обзор Ферганской области за 1900 г. С.42-43. Новый Маргелан, 1901.

¹ ЎЗР МДА, И-19 жамгарма, 1-руйхат, 5211- йигма жилд, 8-варак.

² ЎЗР МДА, И-2322 жамгарма, 25-руйхат, 1322- йигма жилд, 452-варак.

³ Материалы для статистики Туркестанского края (численность населения). // «Туркестанские ведомости». 1885. № 38.

⁴ Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 года. (Губернские итоги). Т.Т.1-89. СПб.: 1903-1905.

uylarda 50.000 aholi yashayotganligi qayd etilgan⁵, (har bir xonadonga 5 kishidan xisoblangan). Zilzila natijasida eski shahar qismida 9.622 ta, yangi shahar qismida 123 ta uy vayron bo'ldi⁶. 1.021 kishi halok bo'ladi, shundan 433 tasi bolalar edi.

Zilziladan so'ng tiklash ishlari jarayonida shaharning "yangi qismi"da yashovchi aholi uchun o'lka ma'muriyati tomonidan jami 77.667 rubl yordam puli ajratiladi⁷. Tiklash bilan bir qatorda yangi qurilishlar olib borilib, ma'muriy binolar, uy-joylar, sanoat ob'ektlari, bank, jamoat joylari, hiyobonlar, bozorlar va do'konlar barpo etiladi. Eski shaharda esa tiklanish ishlari juda sust olib boriladi.

1910 yilda shaharda 7.795 ta xonadon mavjudligi qayd etiladi, shundan 150 tasi ruslarga tegishli edi¹.

Shahar aholisi esa 79.496 kishini tashkil etgan (har bir xonadonga 10 kishidan to'g'ri kelgan)².

1913 yilga kelib Andijon shahrida aholisining soni 119.612 kishiga yetgan³. Bunga shaharda sanoat ob'ektlarining qo'payishi, temir yo'llar faoliyati, kelgindi aholi nufuzining ortishi, mehnat migratsiyasi kabi omillar sabab bo'lgan. Shahar aholisi tobora zichlashib borar, bir xonadonga o'rtacha 10 kishidan to'g'ri kelar edi.

Andijon shahri nafaqat paxta savdosida, balki paxtani tozalash sanoatida ham muxim o'rin tutar edi. XX asr boshida Andijon uezdida faoliyat yuritgan 32 ta paxta zavodining 27 tasi Andijon shahrida joylashgan edi.

Umuman, shahar sanoat ishlab chiqarishi sohasida viloyatda birinchi o'rinda turar, 1915 yilga kelib, Andijonda sanoat korxonalarisoni 62 tagayetgan edi⁴. Shaharning "yangi qismi"dan metropoliyaga juda katta miqdorda Andijon uezdida yetishtirilgan qishloq, xo'jalik xomashyolari (paxta, paxta yog'i, urug'i, chorva terisi va x.k.) jo'natilar edi. Hususan, bu yerdagi temir yo'l stansiyalaridan 1909 yilda 4.304.562 pud yuk jo'natilganligi (shundan 1.877.500 pudi paxta xomashyosi) buni yaqqol namoyish etar edi⁵.

Shaharda sanoat va savdo rivojlanishi bilan bank-kredit va transport tizimi ham kengayib boradi. Andijonda 1915 yilda 6 ta bank filiallari, bir necha transport kontoralari faolyatini yuritgan. Bu davrga kelib shahardagi sanoat korxonalarining soni 62 taga yetgan bo'lib, Andijon sanoat shahri sifatida vodiya birinchi o'rinda turgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Andijonda qadimdan hunarmandchilikning yaxshi rivojlanganligi keyinchalik sanoatining ham tez kengayishiga zamin bo'ldi. Andijon shahri savdoda ham muhim ro'l o'ynagan. Asosan paxta va paxta yog'i savdosi, quruq meva, teri, jun bilan savdo qilgan.

⁵ Ежегодник Ферганской области. Том 2. Выпуск 1903 года. Новый Маргелан, 1903. С. 175

⁶ Ежегодник Ферганской области. Том 2. Выпуск 1903 года. Новый Маргелан, 1903. С. 222.

⁷ Ежегодник Ферганской области. Том 2. Выпуск 1903 года. Новый Маргелан, 1903. С. 229.

¹ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С. 709.

² Статистический обзор Ферганской области за 1910 год. 1912. С. 2.

³ Приложение Ха 2. Ведомость о населении Ферганской области области за 1913 год. В книге: Азиатская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. С.-Петербург. 1914.

⁴ История Андиждана. С. 26.

⁵ Путеводитель по Туркестану и железным дорогам Среднеазиатской и Ташкентской. 1912. С. 314.

Savdoning kengayishida temir yo'lining o'tkazilishi katta rol o'ynagan. Shaharda 1909 yilda 236 ta masjid, yangi qismida 2 ta cherkov, 80 dan ortiq o'quv muassasalari bor edi.

XX asr boshida shaharda 60 ta maktab, 17 ta madrasa, 58 ta yangi usul maktabi bo'lgan. Andijonda bu davrda ilk bor yevropacha tibbiy xizmat yo'lga qo'yiladi, lekin bu juda cheklangan darajada bo'lib, bir yilda qo'pi bilan 2.000 kishiga tibbiy xizmat qo'rsatilgan, xolos.

Bu davrda temir yo'llar orqali arzon qurilish materiallarining kirib kelishi shahar qurilishiga yevropacha uslublar kirib kelishiga imkoniyat yaratdi. Shahar qiyofasi uning faqatgina yangi qismi timsolida yangilanib bordi. Eski shahar esa, o'tgan asr qiyofasida qolib ketaverdi.

Namangan shahrida 1871 yilda 5.000 ta xonadon¹, kamida 25.000 aholi borligi qo'rsatilgan². Bunda har bir xonadonga o'rtacha 5 kishidan hisoblangan va bu real holatga nisbatan ancha kam bo'lgan. O'rta hisobda shahara holisi 30.000 dan kam bo'lmagan. 1885 yilda Namanganda 31.803 kishi³.

1897 yilda tuzilgan Rossiya imperiyasining umumiy aholi ro'yhatida esa 62.017 kishi yashayotganligi qayd etilgan⁴. Ammo xorijiy sayyox Xenri Lansdell shaharholisi 50.000 ekanligini qayd etadi⁵. Bu davrda Namangan shahri to'rt qismga - Sardoba, Labbaytoga, Chuqur qo'cha, Degrezlik dahalariga bo'lingan⁶.

Namanganda shahar markazida joylashgan eng katta va gavjum Chorsu bozori 500 ta yoyma do'konga ega edi. Qo'qon xoni tomonidan barpo etilgan bu yangi bozor haftaning do'shanba, payshanba, shanba va yakshanba kunlari faoliyat yuritgan. Juma kungi bozorlar yirik jome' masjidlari, madrasalar atroflarida bo'lgan, chunki juma namozini o'qish uchun jome' masjidlarga uzoq qishloqlardan ham musulmonlar kelardi.

1876 yilda Qo'qon xonligi tugatilib, shahar Farg'ona viloyati tarkibidagi Namangan uyezdi markaziga aylantirildi. General-gubernator K.P.Fon Kaufman shaharni kengaytirib, uni ikki qismga bo'lish, uезд ma'muriyati va harbiylari uchun alohida joy ajratish, yangi shahar barpo etish haqidagi loyihani tasdiqladi⁷, loyihaga ko'ra, Namangan o'lkaning boshqa shaharlari singari "eski shahar" va "yangi shaharga bo'linadigan bo'ldi⁸.

Loyixaga ko'ra, "yangi shahar" to'g'ri va keng ko'chalar, tosh terilgan yullardan iborat bo'lishi lozim edi. Bu yerda asosan uездning ma'muriy binolari, rus harbiylari va savdogarlari yashashi uchun uy-joylar qurish rejalashtirilgan. Shu maqsadda shahardagi bek qo'rg'oni devorining tashki tomonidan alohida yer ajratiladi va markazi shu yerdan boshlangan 6 ta qo'chaga asos solinadi. Ko'chalar

¹ «Туркестанские ведомости». 1871, 16 август. № 29.

² Материалы для статистики Туркестанского края. Выпуск 2. 1873. С.139.

³ Материалы для статистики Туркестанского края (численность населения). // «Туркестанские ведомости». 1885. № 38.

⁴ Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 года. (Губернские итоги). Т.Т.1-89. СПб.: 1903-1905.

⁵ Russian Central Asia including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv by Henry Lansdell. D.D.M.R.A.S. F.R.G.S. with frontispiece, maps and illustration, in two volume London. 1885. P.490-502.

⁶ И б р а т. Фаргона гаризи. "Мерос" туркуми. Ташкент. 1994. 326-бет.

⁷ Обзор Ферганской области за 1899 г. - Новый Маргелан., 1901 С.13.

⁸ «Туркестанские ведомости» от 13 марта. 1876. №13.

keng, ikki tomoniga tol va qayrag'ochlar o'tkazilgan, yo'llarga tosh yotqizilgan, tunda kerosinli yoritqichlar (fonarlar) yoritib turgan.

"Yangi shahar" hududida harbiy mashqlar o'tkaziladigan katta maydon, shahar bog'i va bu yerda yashovchilar uchun bozor tashkil etildi, uezd ma'muriyati uchun boshqarma binosi, amaldorlar va harbiylar oilasi uchun uy-joylar barpo etildi, harbiy qo'rg'onni o'z ichiga olgan yangi rus harbiy qal'asi qurildi.

"Yangi shahar" aholisi 1877 yilda shaharda jami 34 ta xonadon mavjud edi. Eski va yangi shahar chegarasida ikki qavatli yevropacha usuldagi uylar qad ko'taradi. "Yangi shahar"da rus aholisi uchun kutubxona⁹, o'g'il bola va qizlar uchun alohida ikki sinfli bilim yurti, 50 ta o'ringa mo'ljallashgan harbiy lazaret va 20 ta o'ringa mo'ljallangan kasalxona ochiladi.

1912 yilda Namanganga Qo'qon shahri tomonidan qurilgan temir yo'l shohobchasining ulanishi va ishga to'shishi bilan shahar hududi temir yo'l tomonga qarab kengayib bordi. 1913 yilga kelib Namangandagi xonadonlar soni 12.100 taga yetadi. Tarixiy adabiyotlarda shaharda 75.346 kishi yashayotganligi qayd etilgan (har bir xonadonga 6 kishidan xisoblangan)¹.

Shahar vodiydagi sanoat-savdo markazlaridan biri hisoblangan. 1913 yilga kelib shaharda 38 ta paxta tozalash zavodlari, 3 ta yog'-moy korxonasi faoliyat yuritir edi², bundan tashqari, 3 ta pilla quritish, 1 ta pivo tayyorlash, 3 ta gisht zavodi faoliyat yuritir edi³.

Sanoat korxonalari shahardan chetda barpo etilishi natijasida ekologik ahol ancha yaxshilangan.

Shahar hunarmandlari asosan paxta va ipak tolasi yig'rish, og'oz tayyorlash, metall idishlar, kulolchilik, zargarlik, temirchilik, tunukasozlik, chilangarlik, kosibchilik, duradgorlik, atlas to'qish, pichoqchilik kabi hunarlari bilan mashhur edilar. Namanganda 20 ta Madrasa, 100 dan ortiq boshlang'ich maktab, 331 ta masjid faoliyat yuritgan⁴.

Marg'ilon nafaqat Fag'ona vodiysidagi, balki butun Turkiston o'lkasidagi yirik shaharlardan biri edi. Shahar baland paxsa devorlar bilan o'ralgan bo'lib, juda qulay, go'zal yerda joylashgan edi.

Shahar hududi geografik jihatdan qulay va tabiati go'zal yerda joylashganligini bu yerga XIX asr oxiri XX asr boshida tashrif buyurgan xorijlik sayyoxlar ham alohida ta'kidlab o'tganlar⁵. 1840 yillarda rus tadqiqotlarida Marg'ilon shahri kattaligi jihatidan Qo'qon shahriga yaqinligi va juda kadimiy ekanligi qayd etilgan edi⁶.

Shahar atrofida va ichki qismida katta-kichik bog'lar, hovuzlar qo'p edi. Ayniqsa sobiq Marg'ilon bekiga qarashli eng katta nihoyatda go'zal bo'lib, bodomzor, uzumzor, o'rikzor, shaftolizor kabi bog'lardan iborat edi. Ilgari Marg'ilon

⁹ Абдуллаев О. Наманган вилояти. Наманган. 1995. 436.

¹ Приложение № 2. Ведомость о населении Ферганской области за 1913 год. В книге: В книге: Азиатская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. С.-Петербург, 1914.

² Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С. 703.

³ Обзор Ферганской области за 1892 г. Новый Маргелан 1895. С. 11

⁴ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С. 704.

⁵ Мурахина Л. По Средней Азии и Тибету Путешествие Свена Хедина. Вокруг света. 1899. № 3, С. 38-42.

⁶ Хива, или географическое и статистическое описание Хивинского ханства. Москва, 1840. С.25-26.

bekligining markazi bo'lgan ushbu shahar Qo'qon xonligidagi eng katta shaharlardan biri edi. Shahar aholisi savdo va hunarmandchilik sohasidagi katta tajribasi va ishbilarmonligi bilan mashhur edi⁷. Muhammad Aziz Marg'iloniyning qayd etishicha, Chimyon va Oltiariq oralig'idagi dashtlikda topilgan neft quduqining yer ostida archadan qilingan yog'och zinalari saqlanib qolgan bo'lib, bu hol juda qadim vaqtlardan bu yerlik aholi yer osti moylaridan ham foydalana olganligidan dalolat berar edi.

Qo'qon xonligining so'nggi yillarida Marg'ilon muzofotida 15 ta neft buloqlari, vodiya esa, jami 200 ta neft buloqlari mavjud bo'lib, aholi undan turli maqsadlarda foydalanar edi.

1860 yilda Marg'ilon viloyati hokimi Sulton Murodbek farmoyishi bilan neft buloqlari boshida ariqlar, hovuzlar qazildi, ularni muhofaza qilish uchun atrofi devorlar bilan o'ralidi. Hovuzlarda to'plangan neft teridan tikilgan meshlarga qo'yilib, Marg'ilon shahriga keltirilgan va cho'yan qozonlarda qaynatilib, kerosin olingan. Kerosin juda haridorgir bo'lib, undan arzon yorug'lik manbai sifatida, keyinchalik esa, temir yo'llar faoliyatida keng foydalanilgan.

1876 yilda xonlik tugatilgach, Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Farg'ona viloyatining Marg'ilon uezdi tarkibiga kiritildi. Shu davrdan boshlab Marg'ilon shahri o'zining ma'muriy markaz sifatidagi ahamiyatini yuqotdi. Garchi Marg'ilon shahri uezddagi eng yirik shahar bo'lsa-da, uezd markazi Marg'ilondan 12 km chetda joylashgan hududda tashkil etildi. Bu yerda rus shaxarchasi tashkil etilib, uni **Yangi Marg'ilon** deb yurita boshladilar. Aynan shu paytdan Marg'ilon shahri **Eski Marg'ilon** deb atala boshlandi.

Marg'ilonda vodiyning boshqa shaharlaridan farq qilib, rus aholisi deyarli yo'q bo'lganligi tufayli uezd ma'muriyati shahar obodonchiligi va qurilishiga umuman e'tibor bermagan. Ammo azaldan savdo, hunarmandchilik va madaniyat markazi bo'lib kelgan **Eski Marg'ilon shahri** o'z ma'muriy ahamiyatini yuqotishiga karamay, ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini saqlab qolgan.

Savdo va hunarmandchilik bobida katta tajribaga ega bo'lgan Marg'ilon aholisi bu davrda ham ipakchilik, polizchilik, bog'dorchilik, kulolchilik, do'ppido'zlik, misgarlik kabi hunarlarini va savdo-sotiq ishlarini faol davom ettirgan.

Marg'ilon shahridagi bozor Farg'ona viloyatida Qo'qon bozoridan keyin ikkinchi o'rinda turgan yirik bozorlardan biri bo'lib, ma'murchilik va arzonligi bilan shuhrat qozongan.

Yaqin atrofdagi aholi, xatto Marg'ilon uezdi markazi bo'lgan yangi Marg'ilon aholisi ham bir necha chaqirim masofani bosib o'tib, aynan shu bozordan harid qilganlar. Marg'ilon shahri o'tgan asrlarda bo'lganidek, bu davrda ham Qashqar bilan savdo munosabatlarida muhim o'rin tutgan, Qashqardan olib kelingan mollar Farg'ona viloyatida asosan Qo'qon va Marg'ilon bozorlariga kelib tushgan va shu yerdan butun Turkistonga tarqalgan¹.

⁷ УЗР МДА. 47-жамғрма, 7-руйхт. 94-йигма жилд171-варак.

¹ Ежегодник Ферганской области. Том I. В ы п у с к 1902. Новый Маргалан, 1902. С.45-48

Savdo soxasida esa, Marg'ilon shahri viloyat bo'yicha Qo'qondan keyin ikkinchi o'rinda turardi. Shahar bozori nisbatan arzonligi bilan atrof hududdagi haridorlarni jalb etgan. Bozorda 1.980 ta yoyma do'kon faoliyat yuritgan².

Marg'ilon shahrida an'anaviy mashhur hunarlardan bo'lgan ipakchilik bu davrda ham mahorat bilan davom ettirilgan. Marg'ilon ipagini yanada ko'paytirish va undan katta daromad qilish maqsadida hukumat yangi Marg'ilon shahrida ipak qurti laboratoriyasini tashkil etadi. Ipakchilikni rivojlanishida uning sifatini yaxshilash bo'yicha izlanishlar bilan bir qatorda mahalliy an'analardan ham keng foydalanilgan.

Ipak yetishtirish va uning sifati bo'yicha Farg'ona vodiysida Marg'ilon birinchi o'rinda turardi. Marg'ilon ipak matolari Marselga (Fransiya), Konstantinopolga va Rossiyaning Yevropa qismiga olib ketilgan³. Shuningdek, Marg'ilon ipakchilik mahsulotlariga Hindiston, Eron kabi mamlakatlarda ham talab katta edi. Ipak tolasi va matolari Rossiya bilan savdo aloqalarida katta o'rin tutgan. Ipakka talab yil sayin ortib borgan. Masalan, 1884 yilda Marg'ilondan 1.400 rub. ipak mahsulotlari olib ketilgan bo'lsa, 1885 yilda 228.000 rub. ipak mahsuloti olib ketilgan².

Bundan tashqari, Marg'ilondan Rossiyaga mo'ynalar, turli gazlamalar, teri, do'ppi junatilgan. Rossiyadan esa, Marg'ilonga temir, bo'yoq, qand, shakar, sanoat mahsulotlari keltirilgan.

Ammo butun Turkiston kabi, Marg'ilon ham metropoliya uchun asosan xomashyo manbai edi. Statistik ma'lumotlarning qo'rsatishicha, 1895 yilda Rossiyadan Marg'ilonga 332.800 so'mlik mahsulot keltirilgan bo'lsa, Marg'ilondan Rossiyaga 911.000 so'mlik, ya'ni 3 barobar qo'p mahsulot jo'natilgan.

Imperiya hukumati Marg'ilonda ipakchilikni kengaytirish va rivojlantirish uchun shaharda ipak qurti va ipak tolasini quritish korxonalari, ipakchilik stansiyasi tashkil etib, aholini sifatli ipak qurti bilan ta'minlab turgan³. Natijada, ipak yetishtirish va mahsulot sifati yaxshilanib, uni tobora qo'proq olib ketish imkoni tug'ilgan⁴.

1901 yilda Marg'ilonda 911 ta ipak to'qish korxonalari bor edi. Shaharda juda mashhur va tajribalari ipakchilar ish olib borganlar. Bu sohada asosan ayollar mehnatidan foydalanilgan.

Masalan, 1901 yilda Marg'ilonda 9669 uy bekasidan 1638 tasi (16 foiz) ipakchilik bilan shug'ullangan⁵. Ipakchilik nafaqat shahara holisiga, balki rus sarmoyadorlari va hukumatga ham katta daromad keltirgan. Marg'ilon aholisi nafaqat ipak, ipak tolasi va atlas matolar, balki jun va ip matolar, sifatli shoyi gazlamalar ishlab chiqarish ham keng rivojlangan bo'lib, ayniqsa xonAtlas, sakkiz tepkili atlas kabi matolar juda mashhur bo'lgan. XIX asr oxiri - XX asr boshida shaharda 2.000 kishi shoyi mato to'qish bilan shug'ullanar edi⁶. Bundan tashqari, shaharda adras, kiseya kabi boshqa turdagi matolar to'qish ham keng rivojlangan.

² Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С.547.

¹ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С.190-191.

² ЎзР МДА. И-23 жамгарма, 470-йигмажилд, 188-190, 115-146-вараклар.

³ Кустарные промыслы в быту народов Узбекистана в конце XIX-начале XX вв. Ташкент, 1986. С.47.

⁴ ЎзР МДА. И-19 жамгарма. 1- руйхат, 1170 йигма жилд, 430-варак

⁵ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С.181

⁶ Курбаналиева Р. Быть и культура рабочих узбеков шелковой промышленности города Маргелана. Ташкент, 1966. С.37.

Masalan, XIX asrning 80 yillarida Marg'ilonda 61 ta adras to'qiydigan ustaxona, 12 ta kiseya to'qish ustaxonasi, 33 ta shoyi rumol tayyorlovchi ustaxona, 154 ta pillakashlik ustaxonasi faoliyat qo'rsatgan⁷.

Shahar va uning atrofida jami 13 ta uncha katta bo'lmagan paxta tozalash korxonalari faoliyat qo'rsatardi¹. Shaharda keng tarqalgan ishlab chiqarish turlaridan biri yog' tayyorlash bo'lib, Marg'ilon uezdida faoliyat qo'rsatgan mahalliy moyjuvozlari soni XX asr boshiga kelib, ikki barobarga qo'paygan².

Rus sarmoyadorlari barpo etgan yog' zavodlarida chiqarilgan yog'dan ko'ra, moyjuvozlarda ishlab chiqarilgan yog'-moy mahalliy aholiga ko'proq ma'qul bo'lib, ularning ichki ehtiyojini bimalol qondirgan.

Farg'ona vodiysidagi **Qo'qon, Andijon, Namangan** shaharlaridagi yirik savdo-sanoat korxonalari egalariining asosiy qismini eng avvalo Moskva firmalari vakillari, ulardan keyin esa, mahalliy yahudiylar tashkil etsa, Marg'ilonda ularning qo'pchiligi asosan mahalliy aholi vakillaridan iborat edi³.

Shaharda XX asr boshida 25 ta Madrasa, 56 ta o'g'il bolalar va 25 ta qizlar uchun boshlang'ich maktab faoliyat yuritgan⁴. Maktablarda 1.245 ta o'g'il bola, 330 ta qiz ta'lim olgan⁵. Bu maktab va madrasalar mahalliy sarmoyadorlar xomiyligi, vaqf mulklaridan kelgan daromad hisobidan ta'minlanib, ta'mirlab turilgan.

Shahar byudjetidan 1913 yilda 53 kishidan iborat politsiya xizmatchilariga 28.271 sum sarflangani holda, ta'lim tizimiga, u ham bo'lsa rus-tuzem maktabiga atigi 480 sum sarflangan. Chunki shahar daromadining qolgan katta qismi **Yangi Marg'ilon** obodonchiligiga sarflanar edi.

Nafaqat ta'lim tizimi, balki obodonchilik, qurilish masalalari, shahardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda ham mahalliy tadbirkor va nufuzli sarmoyadorlarning sahovati muhim rol o'ynagan. O'sha davrda Marg'ilon uezdi boshqarmasida xizmat qilgan Muhammad Aziz Marg'iloniyning qayd etishicha, Marg'ilondagi yirik sarmoyador boylar shahardagi qarovsiz qolgan ijtimoiy ahvolni imkon qadar tartibga solish uchun o'z mablag'larini ayamaganlar.

Muhammad Aziz Marg'iloniy o'z asarida 15 ta tujvor va nufuzli kishilarning ism-shariflarini keltirib, ularning hayrli ishlarini qo'rsatib o'tadi⁶.

Mahalliy sarmoyadorlar o'z hisoblaridan hammom, korixona, yangi masjid, maktablar barpo etib, eskilarini ta'mirlaganlar, bozorlarni ta'mirlab, yangi rastalar qurdirdganlar. Marg'ilonda jami 254 ta masjid faoliyat yuritgan.

XX asr boshvda O'rta Osiyoga kino kirib kela boshlashi bilan Marg'ilonda mahalliy boylar o'z mablag'lari hisobidan kinoteatr tashkil qiladilar. Marg'ilon shahridagi san'atsevar aholi adabiyot va she'riyatga ham katta qiziqish bilan qaragan. Shaharda mahalliy aholi vakili bo'lgan Xoji Muhammad Azimjon

⁷ ЎзР МДА, И-19 жамгарма, 1-руйхат, 1170-йигма жилд, 233-варак.

¹ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С. 705.

² Статистический обзор Ферганской области за 1910 год. г. Скобелев 1912. С. 174.

³ Статистический обзор Ферганской области за 1905 год. г. Скобелев 1908. С. 67.

⁴ ЎзР МДА, И-2412 жамгарма, 1-йигма жилд, 31-варак.

⁵ ЎзР МДА, И-2412 жамгарма, 1-йигма жилд, 31-варак.

⁶ Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихий Азизий (Фарғона чор мустамлакаси даврияда). Нашрга тайёрловчилар, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, Д. Сангирова. 1999. 66-67, 87-90 бетлар.

Marg'iloniy tomonidan xususiy bosmaxona ochilib, adabiyot, she'riyat va dinga oid kitoblar chop etiladi.

Bundan tashqari, Marg'ilonida 16 ta mahalliy kitob rastalari muntazam ishlab turgan. Shahar aholisi yil sayin o'sib borgan. 1876 yil ma'lumotlariga ko'ra, shaharda istilo arafasida 6.000 xonadon mavjud edi¹. Demak, o'rta xisobda 36.000 aholi yashagan². Rasmiy malumotlarda 1885 yilda Marg'ilonida aholi soni 22.737 kishi deb qo'rsatiladi³. Ammo xorijiy sayyoh Genri Lansdell shaharda 40.000 aholi yashashini qayd etadi⁴.

1897 yilda, ya'ni oradan 12 yil o'tgach, rasmiy ma'lumotlarda shahar aholisi 36.490 kishi ekanligi qo'rsatilgan⁵, 1910 yilda shaharda 47.152 kishi⁶, 1913 yilda esa, 49.406 kishi yashayotganligi qayd etilgan⁷. Bu davrga kelib shahardagi uy-joylar soni 13.388 taga yetgan edi⁸.

Bu hisoblarda har bir xonadonga 3,6 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa real holatdan ancha kam bo'lgan, albatta. Agar har bir xonadonga o'rtacha 6-7 kishidan xisoblansa, shaharda kamida 80000-90000 kishi yashaganligi taxmin qilish mumkin.

XIX asrning so'nggi choragi - XX asr boshlarida Marg'ilon shahrida asosan mahalliy aholi yashaganligi va rus aholisi deyarli yo'qligi sababli ma'muriyat shaharga na moddiy, na ijtimoiy yordam qo'rsatgan.

Aksincha, Marg'ilon shahridan olingan daromad muntazam ravishda Yangi Marg'ilon shahri (keyinchalik Skobelev) ning obodonchiligi va qurilishi uchun sarflanib kelgan.

Bu davrda shaharda 2 ta dorishunos, 1 ta vrach, 20 kishilik 1 ta kasalxona va 10 o'rinlik ayollar hamda bolalar shifoxonasining ochilishi tibbiy sohada yangilik bo'lsa-da⁹, aholining yil sayin kuchayib borgan ehtiyojlarini qoplay olmas edi.

Tibbiy xizmat muassasalarining cheklanganligiga qaramay, Marg'ilon shahrida ob-havo vodiy bo'yicha eng sof va qulay iqlim bo'lganligi tufayli bu yerda kasallanish darajasi nisbatan kam edi. Atrof hududlardagi aholi betob bo'lsa, Marg'ilon shahriga kelib, davolanib ketar edilar.

Yangi Marg'ilon (Skobelev) - 1876 yilda Farg'ona viloyati tashkil etilgach, uning markazi sifatida Qo'qon shahri belgilansada, ma'muriyat bundan qoniqmay yangi markaz ko'rish uchun joy tanlashga kirishadi. Shu maqsadda 1877 yilda Turkiston general-gubernatori Marg'ilon uezdi boshqaruvchisiga harbiy injenerlar,

¹Материалы для статистики медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. (В.И.Күшелевского). Том II, Издание Ферганского областного статистического комитета. Новый Маргелан. 1891. С.55.

² Материалы для статистики Туркестанского края (численность населения).//»Туркестанские ведомости». 1885. № 38.

³ Материалы для статистики Туркестанского края (численность населения).//»Туркестанские ведомости». 1885. № 38.

⁴ Russian Central Asia including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv by Henry Lansdell. D.D.M.R.A.S., F.R.G.S. with frontispiece, maps and illustration, in two volume London. 1885. P.490-502.

⁵ Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 года. (Губернские итоги). Т.Т.1-89. СПб.: 1903-1905.

⁶ Статистический обзор Ферганской области за 1910 год. г.Скобелев. 1912. С. 170.

⁷ Приложение № 2. Ведомость о населении Ферганской области за 1913 год. В книге: В книге: Азиатская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. С.-Петербург, 1914.

⁸ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С.705

⁹ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С. 171.

malakali vrachlar va yer tuzuvchi mutaxassislardan iborat maxsus komissiya bilan belgilangan hududni o'rganib chiqishni topshiradi. Tekshiruvlardan so'ng Marg'ilon shahridan 10-12 km. Janubda¹ joylashgan, Yormozor va Chim qishlog'i aholisiga qarashli hudud tanlab olinadi².

Belgilangan rejaga ko'ra, katta maydonni qurshab olgan kal'a ichida 1.000 ta uy-joy, harbiylar uchun bino, xristianlar ibodatxonasi (cherkov), bozor, harbiy kazarma, omborxona qurish mo'ljallanadi³.

Qisqa fursatda bularning bari tartib va puxtalik bilan qurib, bitkaziladi⁴. Shaharchaga "Yangi Marg'ilon" deb nom berilib, Farg'ona viloyatining markazi shu yerga ko'chiriladi.

"Yangi Marg'ilon" dastlab Marg'ilon uezdi boshlig'i tomonidan, keyinchalik esa, viloyat gubernatori tomonidan boshqariladi⁵.

1907 yildan boshlab "Yangi Marg'ilon" shaharchasining nomi o'zgartirilib, o'lkani zabt etishda jonbozlik qo'rsatgan eng shavqatsiz general Skobelev nomi bilan yuritila boshlandi⁶. 1917 yildan keyin esa, shaharcha Farg'ona deb ataladigan bo'ldi.

Yangi Marg'ilonning asosiy qismi Marg'ilonsoyning chap kirg'og'ida joylashgan bo'lib, soyning o'ng qirg'og'i bozor uchun ajratiladi. Shaharning janubiy qismida harbiy binolar, g'arbiy qismida harbiy lager barpo etiladi.

Shahar qo'chalari keng bo'lib, har ikki chetidan ariqlar qazilib, daraxtlar o'tkazilgan. Shaharda 10 mingdan qo'p daraxt qo'chatlari o'tkazilgan bo'lib, ularning 60-70 foizini chinorlar tashkil qilar edi⁷. Shahar atrofidagi botqoqliklar bir necha yillar davomida ariqlar qazilib, quritilgan.

Yangi Marg'ilon ma'muriy-harbiy markaz bo'lib, dastlabki paytida sanoat korxonalari deyarli bo'lmagan, ularni qurish ham rejalashtirilmagan. Shahar aholisi asosan amaldorlar va harbiylaridan iborat bo'lib, ularga uy-joy qurishdan tashqari alohida yer uchastkalari ham berilgan.

Yangi Marg'ilon shahri barpo etilgan dastlabki un yil ichida unda 196 ta xonadon bo'lsa, 1913 yilga kelib ularning soni 998 taga yetadi, shahar aholisining soni 1897 yilda 8.928 kishiga, 1913 yilda esa 13.218 kishiga yetgan. Qizig'i shundaki, bu o'rinda rus aholisi har bir xonadonga o'rtacha 13 kishidan xisoblanadi.

Aholi tarkibida amaldorlar va harbiylardan tashqari savdo-sanoat vakillari ham paydo bo'lgan. Ammo shaharda savdo va sanoat ishlab chiqarishi boshqa shaharlarga nisbatan ancha sust rivojlangan edi. 7 ta sanoat korxonasi asosan paxta tozalash, yog'-moy ishlab chiqarish, pivo tayyorlovchi va spirt tozalovchi zavodlardan iborat edi.

¹ Приложение № 2. Ведомость о населении Ферганской области за 1913 год. В книге: В книге: Азиатская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. С.-Петербург, 1914.

² Чабров Г.Н. Из истории города Ферганы – Труд. САГУ, новая серия. Вып. 45, Гуманитарные науки, книга 5. – Ташкент. 1953 С.56.

³ Тиллаходжаев С., Юлдашев Т., Гафуров А. Фергана. Ташкент, 1977. С.9.

⁴ Тиллаходжаев С., Юлдашев Т., Гафуров А. Фергана. Ташкент, 1977. С.9.

⁵ Обзор Ферганской области за 1899 г. С.30.

⁶ Обзор Ферганской области за 1907 г. С.14.

⁷ Фергана водийсидаги шахарлар. Тошкент, 1963. 104-105-бетлар.

XX asr boshida shaharda sanoat korxonalari qurilib, qo'paya boshladi. 1914 yilga kadar shaharda 21 ta korxona barpo etildi va shahar aholisi tarkibida yollanma ishchilar paydo bo'ldi.

XX asr boshiga kelib shahar hududi harbiy gamizonlar qurilishi xisobiga janub tomonga kengayib borgan. 1882 yilda o'lkada taftish ishlarini olib borgan F.Girsning qayd etishicha, Yangi Marg'ilon shahridagi harajatlar majburan eski Marg'ilon shahriga yuklatib qo'yilgan, buning uchun eski Marg'ilon shahar daromadlaridan har yili 9.260 rubl Yangi Marg'ilonga o'tkazib tutilgan.

F.Girs bunday holat mahalliy aholining haqli noroziligiga sabab bo'layotganligini qayd etgan.

Rossiya imperiyasi istilosiga qadar **Chust shahri** shu nomdagi beklik markazi bo'lib, unga atrof hududdagi 18 ta qishloq kirar edi. Shahar 4 kismga – **Mavlonolutfullo, Ko'ncilik, Xonmasjid, Yangi yo'l dahalariga** bo'lingan. Har bir daha jami 40 ga yaqin mahallalarga bo'lingan. Mahallalar oqsoqollar yoki ellikboshilar tomonidan boshqarilgan. Har bir daxada 1 tadan katta masjid va Madrasa bo'lgan.

Qo'qon xonligi tugatilgach, Chust shahri 1876 yildan Farg'ona viloyati tarkibidagi Chust uezdi markazi maqomini oladi. Sobiq bek qal'asiga uezd ma'muriyati va harbiylar joylashtiriladi. Ilgari bekka tegishli bo'lgan yerlar, bog'lar ham uezd boshlig'i ixtiyoriga o'tkaziladi.

Chust shahridagi markaziy bozordan 2 km.masofada rus aholisi uchun yangi shaharchaga asos solinib, ma'muriy binolar, uy-joyla, shifoxona qurilishi boshlanadi.

1886 yildagi "Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom" ga ko'ra Chust uezdi Namangan uezdi bilan qo'shiladi. Endilikda Namangan uezdi tarkibida Chust oqsoqolligi tashkil etiladi. Chust oqsoqolligiga Chust shahridan tashqari Xisoroksoy va SHo'rkent qishloq jamoalari ham qaragan.

Chust uezdi Namangan uezdi bilan qo'shilib, shahar markaz maqomini yo'qolgach, yangi shahar qurilishi ham sustlashadi.

1878 yilda shaharda 2.116 xonadonda 10.580 kishi yashashi (har bir xonadonga o'rtacha 5 kishidan xisoblangan), 1897 yilda o'tkazilgan aholi ro'yhatida esa shaharda 13.785 kishi¹, 1913 yilda Chustda 19.814 kishi yashayotganligi qayd etilgan², bu davrda Chustda 2.700 ta uy-joy, 84 ta masjid (shundan 12 tasi jome' masjidi), 50 ta maktab bor edi³.

Chust hunarmandchilik markazi sifatida vodiyan tashqarida ham mashhur edi. Shaharda hunarmandchilik ota kasb sifatida avloddan avlodga o'tib kelgan. Hunarmandlarning o'z uyida ustaxonasi, shaharda esa, do'koni bo'lgan.

XIX asr oxiri - XX-asr boshida to'quvchilik, pichoqchilik, cho'yan kuyish, kosibchilik, charmgarlik, matoga naqsh bosish, zargarlik, duradgorlik, kulolchilik kabi hunarlar keng rivoj topgan.

Shaharda 2,5 mingdan ortiq kishi hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Ularning deyarli yarmi ip yigirish va mato to'qish bilan band bo'lgan. Bundan

¹ Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 года. (Губернские итоги). Т.Т.1-89. СПб.: 1903-1905.

² Приложение Ха 2. Ведомость о населении Ферганской области за 1913 год. В книге: Азиатская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. С.-Петербург, 1914.

³ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С.702.

tashqari, shahar aholisi do'ppi, so'zana, belbog' tikish, gilam to'qish kabi uy hunarmandchiligi bilan ham shug'ullangan. Chust hunarmandlari mintaqada oq ipakdan o'ziga xos nozik did bilan tikilgan do'ppilari va pichoqlari bilan juda mashhur edilar. Shuningdek, Chustda ko'ncilik, kulolchilik, metallga ishlov berishning o'nlab turlari rivojlangan. Shaharda ko'ncilik bilan shug'ullanadigan 300 ta ustaxonada ot va eshak terisidan poyafzal, kamar, maxsi, kavush va boshqalar tayyorlangan. Chust shahri aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida savdo katta o'rin egallagan. Shahar markazi – Chorsudagi bozor maydonidan uning darvozalariga olib chiqadigan yo'llar orqali har payshanba va dushanba kunlari butun vodiya haridor va sotuvchi kirib kelar edi. Qolgan kunlari ham bozor davom etgan. Shahar aholisining 10 foizi savdo bilan shug'ullanar edi. 1875 yil ma'lumotlariga ko'ra, shahar bozorida 500 ta do'kon faoliyat yuritgan. Keyinchalik do'konlar soni qo'payib, bozor kengayib borgan. Guzarlar, shaharlarda ham kundalik ehtiyoj mahsulotlari va quruq mevalar bilan savdo qiluvchi savdo yoymalari faoliyat yuritgan.

1912 yilda Qo'qon-Namangan temir yo'lining Chust shahobchasi qurib bitkaziladi. Shundan keyin shahar temir yo'l tomonga kengayib boradi. Shaharda paxta tozalash zavodlari qo'payadi.

1916 yilda bitkazilib ishga tushirilgan Farg'ona temir yo'li shahardan 12 km masofadan narida o'tsada, iqtisodiy hayotni yanada jonlantirdi. Shaharda ilk sanoat korxonalari yuzaga keldi. Ular asosan xom ashyoni qayta ishlashga ixtisoslashgan paxta, ko'ncilik va yog'-moy korxonalari bo'lib, yil sayin qo'payib borgan. Ular rus va mahalliy sarmoyadorlarga tegishli edi.

O'sh shahri - Sobiq Qo'qon xonligi davrida shu nomdagi beklik markazi bo'lgan ushbu shaharda XIX asming 70 yillarida shaharda 1000 ta uy-joy mavjud edi. Shahar nisbatan kichik va aholisi kam bo'lishiga qaramay, strategik ahamiyatga molikligi sababli 1876 yilda Farg'ona viloyati tarkibidagi O'sh uezdi markazi sifatida belgilanadi va bu yerga harbiy kuchlar joylashtirildi. Shaharning janubida rus aholisi uchun yangi manzilgohga shaharga asos solingan.

Vaqt o'tishi bilan shahar aholisining soni o'sib bordi va 1913 yilga kelib, uy joylar soni 6.253 taga yetdi¹. Aholi soni 1885 yilda 12.976 kishi bo'lsa², 1897 yilda 34.157 taga yetadi³, 1913 yilga kelib esa. 47.401 kishini tashkil qiladi⁴. Shahar aholisi atrofda qishloq va shaharlardan kelganlar va ruslar xisobiga qo'payib borgan.

Shahar aholisi asosan dehqonchilik va qisman chorvachilik bilan shug'ullangan. Dehqonchilikda asosan bug'doy, jo'xori, keyinchalik esa, paxta yetishtirilgan.

Chorvachilik qisqarib, yordamchi xo'jalikka aylanib borgan va asosan ishchi xayvonlar - xo'kiz va ot katta ahamiat kasb etgan.

Hunarmandchilik ichki ehtiyojlarni qondiruvchi eng zarur kasblar - kiyim-kechak: bosh kiyim, chopon, poyabzal, tegirmonchilik kabi sohalar misolida

¹ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С.712.

² Материалы для статистики Туркестанского края. // «Туркестанские ведомости». 1885. №38.

³ Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 года. (Губернские итоги). Т.Т.1-89. СПб.: 1903-1905

⁴ Приложение № 2. Ведомость о населении Ферганской области за 1913 год. В книге: Азиатская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. С.-Петербург, 1914.

rivojlangan. 1884 yilda shaharda 75 ta hunarmandchilik ustaxonasi bo'lsa, aholi o'sib borishi bilan 1914 yil arafasida bir necha yuzga yetgan. Ishlab chiqarishda asosan tegirmonchilik, yog'-moy korxonalari ustivor o'rin egallagan.

Bozorlarda mahalliy mahsulotlardan asosan bug'doy, meva, ot, kuy, teri va boshqa chorva mahsulotlari, poyabzal, chopon sotilgan. O'sh shahri Xitoy bilan aloqalarda muhim ahamiyat kasb etgan. Shahardagi yopiq bozor doimo savdogarlar bilan gavjum bo'lgan. Farg'ona vodiysidan Xitoyga kamaydigan savdogarlar bu bozorda o'z yoymalariga ega bo'lganlar. Shaharda 1913 yilda 100 ta masjid, 1 ta cherkov, 56 ta o'quv muassasasi bor edi¹.

Konibodom - uzoq tarixga ega bo'lgan ushbu shahar Farg'ona vodiysiga tashqaridan kirib keluvchilar uchun guyo bir darvoza yoki ostonadagi shahar edi. Shaharcha atrofida tabiiy boyliklar - ko'mir, neft borligi sababli o'lka hukumati bu yerga rus tadqiqotchilari na sarmoyadorlarini taklif qiladi. Konibodomda ko'mir shaxtasi, SANTO neft ishlab chiqarish korxonasi, paxta tozalash zavodi, yog'-moy zavodi ishga tushiriladi.

1899 yilda Samrqand va Farg'ona o'rtasidagi temir yo'l qurilib, ishga to'shgach, bu yerdan Rossiyaga paxta, ko'mir, quruq mevalar jo'natila boshlandi. Shaharchada 30.000 aholi yashar edi.

Farg'ona viloyati qadimdan Sharqiy Turkiston, Xitoy bilan olib borilgan savdo munosabatlarida muhim o'rin tutib kelgan. Bu munosabatlar vodiydagi Qizilsuv daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan Erkashtom orqali Sharqiy Turkistonga olib boradigan katta karvon yo'li orqali amalga oshirilgan.

Rossiya imperiyasi vodiyni bosib olishi bilanoq, Erkashtomga kazak garnizoni joylashtiriladi. 1880 yilda bu yerda chegara komissiyasi ish olib borib, savdo yo'llarini o'rganib chiqadi.

1881 yilda Peterburgda Xitoy bilan Farg'ona vodiysi chegaralari orqali savdo qilish haqida shartnoma imzolanadi². Erkashtom o'tish yo'li sifatida belgilanadi. 1889 yilda esa, o'tish bojxonasi va bojxona qo'riqxonasi tashkil etiladi. Shu davrdan boshlab Rossiya hukumati Erkashtom orqali olib borilgan savdo aloqalaridan tushgan mo'may daromad, ya'ni boj to'lovlarini o'z qo'liga oladi. Qashqar bilan savdo aloqalari yil sayin kengayib, undan tushadigan boj to'lovlari ham shunga mos ravishda o'sib boradi. Masalan, 1888 yilda ikki tomonlama savdo kiymati 559.473 rublni tashkil etgan bo'lsa, 1891 yilda 1.179.082 rublni tashkil qilgan¹. Imperiya boj tizimining daromadi ham shunga yarasha bo'lgan.

Qashqardan olib kelingan mahsulotlar asosan Qo'qon va Marg'ilon shaharlari bozorlarida sotilgan va bu yerlardan Toshkent, Samarqand va Buxoroga tarqatilgan. Qashqardan asosan Xitoy qora choyi va chinnisi, ingliz-xind ko'k choyi, teri, jun, ichak, bo'yoq, kumush, ipak, gilam, poyafzal, paxta xomashyosi olib kelingan. Bu mahsulotlarni Farg'ona savdogarlari sog'ib olganlar yoki rus mahsulotlariga almashtirilgan. Paxta, teri, jun, ipak Rossiyaga olib ketilgan.

Farg'ona shaharlaridan Qashqaga quruq meva, mis buyumlar, ipak mato, shakar qand, sham, chinni idish, oyna, shisha, bo'yoq va kerosin olib ketilgan. Bu

¹ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. С.712.

² Ежегодник Ферганской области. Выпуск 1902 года. Новый Маргелан. С.41.

¹ Ежегодник Ферганской области. Выпуск 1902 года. Новый Маргелан. С.41.

mahsulotlar Qashqar orqali Yorkent, Oqsuv, Xutan bozorlariga olib ketilgan. Shuningdek, Farg'ona savdogarlari Rossiya mahsulotlarini Qashqarga jo'natishda ham muhim rol o'ynaganlar. Ular Rossiya manufakturasining kerosin, gugurt, qand kabi mahsulotlarini 6-8 oyga kreditga olganlar va Qashqarga olib borib, sotib kelganlar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Farg'ona savdogarlari Rossiya mahsulotlari ustiga katta foyda qo'yaganlar. Shu sababli ular olib borgan mahsulotlar xuddi Turkistondagi kabi narxda bo'lgan. Bu esa, Sharqiy Turkistonga kirib kelganga nisbatan ancha qimmat xind-ingliz mahsulotlari bilan raqobatlashib, ularga bo'lgan talabga ta'sir etgan. Imperiya hukumati Farg'ona orqali Xitoyga o'z manufaktura va sanoati mahsulotlarini jo'natishdan nihoyatda manfaatdor bo'lib, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalangan.

Qashqarda Rossiya konsulxonasi, mustaqil bojxona tashkil etilgan bo'lib, bu bojxona rus hukumatiga katta daromad keltirgan. Qashqar bilan savdo munosabatlari yil sayin o'sib borib, 1912 yilda 4 mln ga yetadi².

Farg'ona vodiysi shaharlarida eng katta paxta bozorlari, savdo markazlari joylashgan edi. Vodiy aholisining to'lov qobiliyati qanday darajada bo'lganligini baholash uchun Davlat Bankining birgina Qo'qon bo'limida yiliga 100 millionlab pul aylanganligi haqidagi ma'lumot yetarlidir³.

Farg'ona viloyatining 1902 yil uchun holatini aks ettirgan statistik to'plamda vodiydagi iqtisodiy salohiyatga baho berilib, uning "oltin quduq" sifatida ta'riflanishi bejiz emas edi⁴.

Farg'ona vodiysida savdo ishlari bilan 36 ta firma shug'ullangan. Ularning qo'pchiligi manufaktura va paxta firmalari bo'lib, yiliga millionlab pul aylantirgan. Bu firmalar Qo'qonda joylashgan bo'lib, Farg'ona viloyati shaharlarida ularning filiallari bo'lgan. Shaharlarda sanoat korxonalari egalariining aksariyati rus bo'lsa ham, savdogarlarning aksariyati mahalliy aholi vakillari edi⁵.

Viloyatdagi savdo-sanoat korxonalarining soni yil sayin o'sib borgan. 1898 yilda viloyatda savdo va sanoat vakillari 443 tani tashkil etgan⁶. 1912 yilga kelib, ya'ni oradan 14 yil o'tgach, Farg'ona viloyatida savdo xuquqiga ega bo'lgan kishilar soni 28.058 taga yetgan. Demak, 14 yil ichida ularning soni 63 barobarga qo'paygan va bunda Qo'qon shahri va uezdi yetakchi o'rinda bo'lgan. Viloyatdagi savdo markazlari bo'lmish bozorlar savdo turiga qarab 6 guruhga bo'lingan. Ularning soni va turlari qarab, ulgurji savdo (48 ta), chakana savdo (747 ta), mayda savdo (5995 ta), ma'lum tovarlar bilan savdo qiluvchi (19.742 ta), tashib yetkazib beruvchi bozorlar va tarqatuvchi bozorlar (20 ta) bozorlarga bo'lingan.

Eng muhim savdo markazlarida ulgurji savdo olib borilgan. Bu borada birinchi o'rinda Qo'qon turgan. Viloyatdagi boshqa shaharlar bu borada deyarli bir darajada bo'lib, faqatgina O'sh oxirgi o'rinda turgan. (O'sh shahri Rossiya sanoat mahsulotlarini Qashqarga olib chiqishda muhim rol o'ynagan).

² Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Ферганский район. Ташкент, 1912. С.111.

³ Ежегодник Ферганской области. Выпуск 1902. С.64.

⁴ Ежегодник Ферганской области. Выпуск 1902. С.64.

⁵ Промышленность и торговля Туркестана. Ташкент, 1914 75-76.

⁶ Туркестанский Адрес-Календарь. 1898. С.40-61.

Farg'ona viloyatidan olib ketiladigan mahsulotlarning katta qismini paxta, bog'dorchilik va ipak mahsulotlari tashkil kilsa, vodiydagi mahalliy aholi ehtiyojlari uchun keltiriladigan mahsulotlarning 40 foizi un-don mahsulotlari tashkil qilgan¹.

Viloyatda paxtachilikning zo'r berib kengaytirilishi tufayli vodiya aholisi chetdan keladigan un-don mahsulotlariga karam bo'lib qolgan edi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar Farg'ona viloyatining iqtisodiy salohiyati, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi va savdo munosabatlari imperiya manfaatlariga bo'sundirilganligini yaqqol namoyon etardi. Ammo shunga qaramay, azaldan tadbirkorlik, savdo va hunarmandchilik markazi bo'lib kelgan Farg'ona vodiysi shaharlarida an'anaviy hunarmandchilik ishlab chiqarishining juda qo'p turlari saqlab qolindi va zamon talablariga moslashib bordi.

Chunonchi, XX asr boshiga kelib viloyat shaharlarida 3.830 ta to'qunchilik, 297 ta kulolchilik, 80 ta qo'ndchilik, 771 ta ipak yigirish, 3.516 ta yog'moy, 122 ta sovun tayyorlovchi, 567 ta sholi yanchuvchi korxona, 2.174 ta un tegirmoni, 297 ta bo'yoqchilik, o'nlab poyafzal tayyorlovchi ustaxonalar faoliyat yuritardi². Jami viloyatda 12.345 ta mahalliy hunarmandchilik ustaxonalari faoliyat yuritardi³.

Ayni paytda shaharlarda sanoat korxonalari - 120 ta paxta tozalash zavodlari, yog'moy, mineral suv, pivo, vino, ohak chiqaruvchi korxonalar paydo bo'ldi. Sanoat korxonalari asosan xom ashyoni kayta ishlash uchun mo'ljallangan edi. Shaharlar orasida Andijon sanoat korxonalarining qo'pligi bilan, Qo'qon yirik savdo operatsiyalari bilan, Marg'ilon ipak va ipak mahsulotlarining sifati bilan ajralib turar edi.

Xullas, mustamlaka sharoitida vodiy shaharlari viloyatdagi xom ashyo resurslarini metropoliyaga yo'naltiruvchi yirik markazlarga aylangan edi. Aholi soni ko'pligi bilan ajralib turgan Qo'qon, Andijon, Namangan va Marg'ilon shaharlari viloyatda bu davrda nafaqat yirik savdo va hunarmandchilik markazlari, balki urbanizatsiya jarayonlarining eng faol o'choqlari ham edi.

Viloyat aholisining soni bu davrda nafaqat tabiiy tug'ilish, balki kelgindi aholi hisobiga ham ortib bordi.

1897 yilda viloyatda rus aholisi 12.000 kishini tashkil etgan bo'lsa⁴, 1913 yilga kelib, ularning soni 50.000 dan ortdi⁵. 1881 yilda viloyatdagi umumiy aholi 690.000 kishini tashkil etgan bo'lsa⁶, 1897 yildagi Rossiya imperiyasining umumiy aholi ro'yhatida 1.572.214 kishi yashayotganligi qo'rsatiladi⁴, 1902 yilda aholi soni 1.760.519 ga⁵, 1909 yilda 2 millionga³, 1913 yilga kelib esa, 2.127.460 kishiga yetadi⁶.

¹ Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Ферганский район. Ташкент, 1912. С.111.

² Ежегодник Ферганской области. Том III. Выпуск 1904 года. Новый Маргелан, 1904. С.31.

³ Ежегодник Ферганской области. Том III. Выпуск 1904 года. Новый Маргелан, 1904. С.31.

⁴ Первая Всеобщая перепись населения Российской Империи 1897 г. Под ред. Н.А.Тройницкого. т. I. Общий свод по Империи результатов разработки данных Первой Всеобщей переписи населения, произведенной 28 января 1897 года. С.Петербург, 1905. Таблица XII. Распределение населения по вероисповеданиям

⁵ Приложение № 3. Ведомость о населении Ферганской области за 1913 год. В книге: Азиатская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. С.-Петербург, 1914.

⁶ Кауфман К.П. Проект всеподданнейшего отчета Ген.-Адъютанта К.П.Фон- Кауфмана..., С.13.

⁷ Первая Всеобщая перепись населения Российской Империи 1897 г. Под ред. Н.А.Тройницкого. т.1. Общий свод по Империи результатов разработки данных Первой Всеобщей переписи населения, произведенной 28 января 1897 года. С.- Петербург, 1905.

⁸ Ежегодник Ферганской области. Том 2. Выпуск 1903 года. Новый Маргелан, 1903. С.1.

Shaharlar aholisining soni ham shunga mos ravishda ortib bordi. 1882 yilda viloyatdagi shaharlarda 124.850 kishi⁷, 1897 yilga kelib esa, 284.358 kishi yashar edi. 15 yil mobaynida shahar aholisining bu qadar keskin qo'payishi dastlabki ro'yhatlar haqiqiy ahvolni aks ettirmaganligidan dalolat beradi.

1897 yildagi aholi ro'yhatida Farg'ona viloyati shahar aholisining soni bo'yicha Rossiya imperiyasi tarkibi va tasarrufiga kiritilgan 89 ta viloyat va guberniyalar orasida 13 o'rinda butun Turkiston bo'yicha esa birinchi o'rinda turar edi. Viloyatdagi shahar aholisi 1897 yilda umumiy aholining 18% ni tashkil qilardi.

XX asr boshiga kelib shaharlarning o'sishi ancha jadallashdi. Viloyat aholisining o'sib borishiga tabiiy omillar bilan bir qatorda Samarkand-Andijon temir yo'lining ishga tushishi natijasida savdo va boshqa aloqalarning yanada faollashuvi katta ta'sir qildi. 1899 yilda ko'rib bitkazilgan bu yul Qo'qon, Yangi Marg'ilon orqali o'tib, Andijonga yetib keldi⁸.

Temir yo'llar qurilishi bilan vodiy shaharlari aholisi jadal qo'paya boshladi. Chunki savdo aloqalari rivojlanib, sanoat korxonalari nisbatan ko'paydi, vodiydagi xom ashyoni shaharlardan tashib ketish hamda rus sanoat maxsulotlarini keltirish yil sayin ortib bordi. Bu jarayonda yuzlab sarmoyadorlar, ishbilarmon va vositachilar, minglab ishchilar, unlab firma va banklar, transport kontoralari, savdogarlar band edi, bu esa shaharlarning iqtisodiy va bu bilan bog'liq ravishda ijtimoiy jarayonlarni faollashtirdi. Ayni paytda shaharlarda statistik tadqiqotlar ham rivojlanib, aholi ro'yhatlarini tuzishda ancha batafsil ma'lumotlar olinib, har bir xonadonda kamida 7 ta oila a'zosi borligini (ro'yhatlarda 5 tadan hisoblangan) anglab yetdilar va shunga amal qila boshladilar.

1902 yilda viloyatdagi shahar aholisining soni 310.849 kishi¹, 1913 yilda 404.206 kishi ekanligini qayd etildi². Bu davrda aholi soni Qo'qonda 120.000, Andijonda 79.407, Marg'ilonda 49.406, Namanganda 75.346, Chustda 19.814, O'shda esa, 47.401, Yangi Marg'ilon - Skobelevda 13.218 kishini tashkil kildi³, Viloyatdagi Qo'qon, Andijon, Marg'ilon va Asaka shaharlari eng yirik savdo markazlari edi⁴. Ammo Asaka va boshqa kichik shaharchalar ma'muriy markaz maqomida bo'lmaganligi bois, ulardagi aholi soni ko'rsatilmagan. 1914 yilga kelib Farg'ona viloyatidagi umumiy aholining soni 2.134.000 kishiga, uezd markazlari maqomidagi 6 ta shahar va Chust shahridagi aholining soni jami 421.100 taga yetdi⁵.

Shaharliklar umumiy aholi tarkibida 19,7 foizini tashkil etgan. Agar bunga **Asaka, Shahrixon, O'zgan, Balikchi, Konibodom** kabi shaharchalar ham qo'shilsa, bu ko'rsatkich 20% ga yetgan. Bu esa mintaqa miqyosidagi eng yuqori ko'rsatkich

³ Военно статистическое описание Туркестанского военного округа. Ферганский район. Ташкент, 1912. С.76

⁶ Приложение № 2. Ведомость о населении Ферганской области за 1913 год. В книге: Азиатская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. С.-Петербург, 1914.

⁷ Кауфман К.П. Проект всеподданнейшего отчета Ген.-Адъютанта К.П.Фон-Кауфмана... С.32.

⁸ Самарканд-Андижанская железная дорога. // "Нива". 1900, №11, с. 216-220.

¹ Ежегодник Ферганской области. Том 2. Выпуск 1903 года. Новый Маргелан, 1993. С1.

² Приложение № 2. Ведомость о населении Ферганской области за 1913 год Андижанская Россия. Том

2. Земля и хозяйство. С.-Петербург, 1914.

³ Статистический обзор Ферганской области за 1913 год. Скобелев, 1916. С.9.

⁴ Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа Ферганский район. С.72.

⁵ Статистический ежегодник России. 1914 г. Пг., 1915. Отд. I. С. 33-57

bo'lib, istilodan avvalgi holatga teng edi. Ammo bu davrga kelib ilgari Qo'qon xonligi tarkibida bo'lgan, endilikda Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritilgan Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram shaharlaridagi aholi soni 300.000 ga yetib qolgan edi.

Shahar aholisi tarkibida kelgindi, ya'ni rus aholisi 30.000 atrofida bo'lib, umumiy shaharliklarning 7,5% ni tashkil qilgan. Viloyat tarkibida rus aholisining umumiy soni 50.769 kishi bo'lib, ularning 60 % shaharlarda yashagan⁶.

Farg'ona viloyatining umumiy yer maydoni ham kengayib bordi. Uning maydoni 1910 yilga kelib, 812.429 kv. verstga yetdi⁷. Viloyatda mustamlaka sharoitida sodir bo'lgan jadal o'zgarishlar shaharlar hayotiga ziddiyatli ta'sir qo'rsatdi. Bu jarayonlar Farg'ona vodiysidagi yirik va kadimiy shaharlar - **Marg'ilon, Andijon, Qo'qon va Namangan** kabi shaharlar hayotida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ldi. Viloyat va uezd markazi maqomidagi shaharlarda kelgindi aholi uchun yangi shaharchalar qurilib, ularning soni yil sayin ko'payib bordi.

1913 yilga kelib viloyat shaharlarida 29.972 nafar rus aholisi, 1.571 ta boshqa millatga mansub (yevropalik) Rossiya fuqarolari, 200 dan ortiq G'arbiy Yevropa fuqarolari yashar edilar⁸. Viloyatdagi 50.000 dan ortiq rus aholisining 60 % shaharlarga joylashgan edi. Buni hisobidan shaharlar hududi kengayib, rus ma'muriyati va aholisi yashaydigan yangi qismlari obod bo'ldi. Ilk sanoat korxonalari paydo bo'lib, kommunikatsiya vositalari ishga tushdi.

Farg'ona viloyati shaharlarida 281 ta sanoat korxonalari bo'lib, ularda 10.000 dan ortiq ishchi ishlar edi. Shulardan 167 tasi paxta tozalash, 18 tasi yog'-moy, 4 tasi ichak tozalovchi, 8 tasi vino va pivo tayyorlovchi, 11 tasi teri tayyorlovchi korxonalar edi. YA'ni 208 ta korxona xom ashyoni qayta ishlashga ixtisoslashgan va ularning mahsuloti metropoliyaga olib ketilgan. Qolgan korxonalardan 17 tasi g'isht, 1 tasi kerosin, 20 tasi ipak to'quvchi, 10 tasi meva suvlari, 3 ta choy qadoqlovchi korxonalar bo'lib, mahalliy ehtiyojlarga ham xizmat qilgan.

Mahalliy aholi ehtiyojlarini asosan an'anaviy usuldagi hunarmanchilik ustaxonalarida tayyorlangan mahsulotlar qondirgan. XX asr boshida viloyatda 10.600 ta hunarmandchilik usta xonalari faoliyat yuritardi⁹.

Metropoliya sarmoyadorlari sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda faqatgina o'zlariga daromad keltiruvchi sohalarni rivojlantirishga intildilar. Natijada Farg'ona shaharlari viloyatda va qo'shni hududlarda yetishtirilgan mahalliy xom ashyoni, ayniqsa, paxta va ipak tolasini metropoliya yetkazib beruvchi hamda rus sanoati mahsulotlarini nafaqat mintaqaga, balki qo'shni hududlarga ham eksport qilishda vositachilik vazifasini bajaruvchi markazlarga aylanib qoldi. Viloyatdagi Erkashtom bojxona posti orqali orqali 1913 yilda 4.204.847 rubl miqdorida mahsulot olib kelinib, 4.276.526 rubl miqdorida mahsulot olib ketilganligi buning yaqqol dalili edi. Shu tariqa Farg'ona vodiysi shaharlarining ichki va tashqi savdo aloqalaridagi roli yil sayin ortib bordi, ularga xorijiy sarmoyadorlar va ishbilarmonlarning kelishi

⁶ Статистический ежегодник России. 1914 г. Пг., 1915. Отд. I. С. 33-57.

⁷ Статистический обзор Ферганской области за 1910 год. Скобелев, 1912. С.1-3.

⁸ Приложения № 2. Ведомость о населении Ферганской области за 1913 год книге: Андижанская Россия. Том 2. Земля и хозяйство. С.-Петербург, 1914.

⁹ Ферганская область в 1902 году у.П Ежегодник Ферганской области. Том 2. Выпуск 1903. Новый Маргелан, 1903. С.VII

qo'paydi. ayniqsa temir yo'llar qurilishi va ishga to'shishi bunga katta ta'sir qo'rsatdi.

Tayanch so'zlar:

O'tov, Xo'qand, Katta soy, Qoradaryo, daha, ulgurji, oqsoqol, rais, ko'nychilik, uezd, mahalla, quvur yasovchi, juvoz, dastgoh, muqovasozlik, yoyma do'kon, chorva terisi, pud, cherkov, sardoba, namakkon, degrezlik, Marg'inon, gazlama, sarmoyador, homiy, vaqf, tujjor, dallol, so'zana, verst, ma'muriy markaz, metropoliY.

Test topshiriqlar:

1. XIX asming II yarmida Yangi Marg'ilon nima deb nomlandi?

A. Yangi Marg'ilon – Skobelev deb nomlandi

V. Chernyayevka - deb nomlandi

S. Yangi Marg'ilon - Marg'inon deb nomlandi

D. Yormozor deb nomlandi.

2. 1886 yilda Farg'ona viloyatida nechta yirik shahar bor edi?

A. 7 ta yirik shahar bor edi

V. 8 ta yirik shahar bor edi

S. 9 ta yirik shahar bor edi

D. 6 ta yirik shahar bor edi

3. 1886 yilda Farg'ona viloyatida nechta uezd bor edi?

A. 5 ta uezd bor edi

V. 6 ta uezd bor edi

S. 7 ta uezd bor edi

D. 4 ta uezd bor edi

4. 1886 yilda Farg'ona viloyatida 7 ta yirik shahar bor edi – quyidagilardan to'g'ri javobni belgilang.

A. Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Andijon, Chust, O'sh, Yangi Marg'ilon

V. Qo'qon, Yangi Bozor, Urgench, Kot, Sherobod, Kitob, Shaxrisabz

S. Namangan, Chiroqchi, Xo'jand, Kitob, Shaxrisabz, Qo'qon, Yangi Bozor

D. Chiroqchi, Xo'jand, Marg'ilon, Andijon, Sherobod, Urgench, Kot

5. 1886 yilda Farg'ona viloyatida 5 uezd bor edi - quyidagilardan to'g'ri javobni belgilang.

A. Qo'qon, Andijon, O'sh, Namangan, Marg'ilon

V. Qo'qon, Kot, Sherobod, Kitob, Shaxrisabz

S. Chiroqchi, Xo'jand, Kitob, Shaxrisabz, Qo'qon

D. Xo'jand, Marg'ilon, Andijon, Sherobod, Urgench

6. Farg'ona viloyatida shaharlar qayday idora qilingan?

A. dahalarga bo'linib idora qilingan

V. mahallalarga bo'linib idora qilingan

S. jamoalarga bo'linib idora qilingan

- D. ular mustaqil bo'lganlar, idora qilinmagan.
- 7. Farg'ona viloyatida dahalar qanday idora qilingan?
- A. mahalla va jamoalarga bo'linib idora qilingan
- V. dahalar idora qilinmagan, ular mustaqil bo'lgan
- S. dahalarni dahalar orqali ibora qilganlar
- D. dahalar shaharlar orqali idora qilingan

- 8. 1881 yili Qo'qon shahridagi sobiq xon saroyi - O'rdada nima joylashtirilgan?
- A. rus ma'muriyati va harbiy gornizoln joylashtirilgan
- V. mahalliy zodagonlar joylashtirilgan
- S. qurol aslahalar joylashtirilgan
- D. mahalliy zodagonlar va ularning oilalari joylashtirilgan.

- 9. Qo'qon shahriga nechanchi yil temir yo'l qurilgan?
- A. Qo'qon shahriga 1899 yil temir yo'l qurilgan
- 2. Qo'qon shahriga 1890 yil temir yo'l qurilgan
- 3. Qo'qon shahriga 1889 yil temir yo'l qurilgan
- 4. Qo'qon shahriga 1897 yil temir yo'l qurilgan

- 10. Xudoyorxon nechanchi yillar Iso Avliyoga xonlikning hamma hududlarida bozor, do'konlar va karvonsaroy qurishni buyuradi?
- A. 1867-1868 yillar Iso Avliyoga xonlikning hamma hududlarida bozor, do'konlar va karvonsaroy qurishni buyuradi
- V. 1869-1870 yillar Iso Avliyoga xonlikning hamma hududlarida bozor, do'konlar va karvonsaroy qurishni buyuradi
- S. 1865-1866 yillar Iso Avliyoga xonlikning hamma hududlarida bozor, do'konlar va karvonsaroy qurishni buyuradi
- D. 1860-1862 yillar Iso Avliyoga xonlikning hamma hududlarida bozor, do'konlar va karvonsaroy qurishni buyuradi

9-Mavzu: Toshkent shaxri tarixiy qiyofasi, siyosiy va iqtisodiy markazga aylanishi

Reja:

- 1. Toshkentning iqtisodiy markaz sifatidagi o'zmi. Savdo markazlari.
- 2. Xunarmandchilik va kosibchilik ustaxonalari.
- 3. Savdo korxonalarining vujudga kelishi.
- 4. Toshkent aholisining ijtimoiy, milliy, diniy tarkibi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1. Зиёев Д. Ўзбекистон шаҳарлари. (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlari). Toshkent. 2017. 626.
- 2. Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. Туркестанский край. СПб., 1913. С. 614.

3. Герентьев М.А. Статистические очерки Среднеазиатской России. Записки Русского Географического общества. Отдел статистики. Т 4. СПб., 1874. С. 51.
4. Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошида Тошкентнинг "янги шаҳар" қисми тарихи. Тошкент, 2004.
5. Вексельман М.И. Российский монополистический и иностранный капитал Средней Азии. Конец XIX-начало XX вв. Ташкент. 1987, С. 11.

An'anaviy savdo va xunarmandchlik markazlari joylashgan eski shaharlarda bozorlar shaharning eng gavjum joylari bo'lgan. Bozorlarning eng yiriklari **Eski Jo'va, Chorsu, Registon va Kappon** bozorlari edi. Eski shahar markazida joylashgan Registon bozori shaharning barcha darvozalari bilan ko'chalar orqali boglangan bo'lib, ichki va tashki savdoning o'zaro aloqadorligini ta'minlashga xizmat qilgan. Bozor darvozasi oldida karvonsaroy bo'lib u yerda chetdan kelgan savdogarlar, ularning mollari uchun omborxonalar joylashgan¹.

Shaharda Chorsu bozorida tashqari **Yakkabozor**, uning janubida esa, **Qashqar va Urda** bozorlari bo'lgan. Yakkabozor 3 qismdan: **otbozor, molbozor, qaymoq bozordan** iborat bo'lgan. Bozorlar ikki yoklama: **1. savdo rastalari, 2. do'konlar** joylashgan ko'chalardan iborat edi. Shaharga tashrif buyurgan sayyohlarning qayd etishicha, an'anaga ko'ra Toshkentdagi savdogarlar **32 ta kasabaga** uyushgan, ishlab chiqarish tarmoqlari ham 32 turga bo'lingan. Masalan, poyabzalchilar ipak to'quvchilar va boshqalar. Toshkent bozorida shu 32 turdagi sanoat va savdoning hammasini ko'rish mumkin edi. Bozordagi har bir rasta ayni bir tarmoqqa ixtisoslashgan. Bir ko'chada **ipakchilar do'koni**, ikkinchi ko'chada **zargar maxalla**, uchinchi ko'chada **misgarlar** joylashgan¹.

Ayni paytda ma'lum tarmoq ishlab chiqaruvchilarining o'zi ham bir maxsulot yoki buyumni ishlab chiqarishni bir necha bosqichga bo'lib, ixtisoslashganlar. Masalan, ko'zachilar rastasida bir ustaxonada ko'zaning tagi ishlansa, keyingisida bandi tayyorlangan, undan keyingisida qopqog'i tayyorlangan, yana boshqasida ustiga naqsh va gul o'yib, tushirilgan, keyingisida esa ko'zalar sotilgan.

Savdo rastalarining har biri o'z oqsoqoliga ega edi. Oqsoqol tartibni, ozodalikni, soliq to'plashni nazorat qilib turgan².

Toshkent shahri mintaqadagi qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarida katta o'rin tutgan. Xususan, Toshkent orqali Buxoro amirligi va Xiva xonligi, Xitoy, Afg'oniston, Xindiston va Rossiya bilan qizg'in savdo-sotiq olib borilgan. Shaharning Samarqand darvozasi janubi-g'arbida atrofdan kelgan mollarni tekshiradigan katta boj punkti bor edi. Janubdan kelgan mollar shu yerda ko'rikdan o'tkazilgan³. Bog'bon va Qorasaroy ko'chalari orqali shahar bozoriga o'tgan karvonlar Qorqamishda boj nazoratidan o'tgan.

Shaharning savdo aylanmasi o'lka bo'ylab eng yuqori ko'rsatkichlarga ega edi. Eksport miqdori 25 000 000 rubl, import miqdori 15 000 000 rublni tashkil etgan⁴.

¹Eugene Schuyler.Turkestan. Notes of a Journey in Russian Turkestan.Khokand, Bukhara and Kuldja. Vol .I.P.173-174.

² Зиёев Д. Ўзбекистон шаҳарлари. (XIX асрнинг иккинчи ярми XX асрнинг бошлари). Ташкент. 2017. 626.

³ Зиёев Д. Ўзбекистон шаҳарлари. (XIX асрнинг иккинчи ярми XX асрнинг бошлари). Ташкент. 2017. 626.

⁴ Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. Туркестанский край. СПб., 1913. С.614.

Istilo arafasida Toshkent shahrida 4500 dan ortiq savdo do'konlari bor edi. 1868 yilda aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, shahardagi eng katta bozorning o'zida 3400 ga yaqin savdo do'konlari bo'lib, ularning 400 ga yaqini bo'shab qolgan edi⁵.

1870 yillarda shaharda 29 ta karvonsaroy faoliyat yuritgan. 1913 yilga kelib esa shaharda 4500 ta savdo do'konlari va yoymalar faoliyat yuritardi⁶.

Toshkent shahrida hunarmandchilik asrlar davomida rivojlanib, mahalliy xomashyo asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar ichki ehtiyojlarni qondirish bilan birga qo'shni hududlarda yashovchi aholi, xususan, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi uchun ham juda haridorgir bo'lgan. Shaharning har bir dahasida ishlab chiqarishning ma'lum turlari markazlashgan edi. Masalan, Beshyog'ochda **g'isht quyish** ustaxonalari, Shayxontohurda **degrezlik**, Sebzorda **etikdo'zlik** ustaxonalari ko'p edi.

1870 yillar boshida shaharda 775 ta to'quvchilik ustaxonalari, 95 ta gazlamaga gul bosib, bo'yash ustaxonalari faoliyat yuritardi¹. Shaharning birgina Shayxontohur qismimiig o'zida 567 ta to'qimachilik ustaxonasi bor edi².

Hunarmandlar bo'z, olacha, kalava, bosma, beqasam kabi matolar tayyorlashgan. Kosiblar ko'proq astarbop matolar tayyorlaganlar. Hunarmandlar tayyorlagan matolar to'n va ko'rpalar tikishda mahalliy talablarga juda mos bo'lib, rus sanoati mahsulotlaridan arzonligi, qalin bo'lsada, ancha ixcham yigirilgan ipdan to'qilganligi bois issiqni yaxshi saqlaganligi bilan ajralib turgan. Toshkent to'quvchilarining ishlab chiqarish aylanmasi yiliga 1 248 000 bo'lak yoki 8 736 000 arshinga yetgan³. Astarbop matolarga qishloqlarda, shuningdek, Yettisuv viloyatida talab katta bo'lgan.

XX asr boshiga kelib to'quvchilik bir oz ahamiyatini yuqotsa-da, ularning mahsulotlar arzon va pishiqligi mahalliy ehtiyojlarni qondirganligi bois rus tadqiqotchilari ularni Yevropa bozorlarida sotish mumkinligi, buning uchun sohani rivojlantirish, to'quvchilarga texnik yordam va mablag' berilishi zarurligini qayd etganlar⁴.

Shaharda ko'ncilik va etikdo'zlik keng rivojlangan hunarlardan edi. 1871 yilda birgina Ko'kcha dahasida 341 ta ko'ncilik va 218 ta etikdo'zlik ustaxonalari faoliyat yuritgan⁵.

Ayni paytda Toshkent hunarmandlari mis va sopol ishlab chiqarishda yuqori mahorat sohibi, ishlov berishda ishbilarmon va iste'dodli bo'lishgan. Kosiblar **ipak, paxta matolar, jez, mis va sopol** ishlab chiqarishda mohir bo'lganlar. Zargarlik taqinchoqlari o'zining nafisligi bilan ajralib turardi. Ushbu zargarlik buyumlari o'zining mahalliy sharoitidan kelib chiqib shu hududga xoslikni o'zida aks ettirgan⁶.

⁵ Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Выпуск 1. Часть 3. СПб. 1872. С.12.

⁶ «Туркестанские ведомости». 1873. 20 мая. №21.

¹ Зиёев Д. Ўзбекистон шаҳарлари. (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlari). Toshkent. 2017. 656.

² Герсентьев М.А. Статистические очерки Среднеазиатской России. Записки Русского Географического общества. Отдел статистики. Т.4. СПб., 1874. С.51.

³ История Ташкента. (с древнейших времен до победы февральской буржуазно- демократической революции). Ташкент. 1988. С. 163.

⁴ Обзор Сыр-Даринской области за 1909 год. Ташкент. 1911. С.120.

⁵ Маев Н. А. Азиатский Ташкент.//Материалы для статистики Туркестанского края. Выпуск IV. С.265.

⁶ История Ташкента (с древнейших времен до победы февральской буржуазно- демократической революции). Ташкент, 1988. С. 160.

XX asr boshiga kelib, 1911 yilda 3 764 ta kosibchilik ustaxonasida 9 120 kosib faoliyat yuritir edi⁷.

O'rganilayotgan davrda hunarmandlar qishloq xo'jaligi bilan aloqani butunlay uzmagani edilar. 1872 yilga oid Toshkent shahri boshqaruvining hisobiga ko'ra, Shayxontohur dahasidagi 117 ta hunarmanddan 42 tasining 2 tanobgacha yeri bo'lgan⁸.

XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib o'zining yollanma ishchilariga ega bo'lgan ustaxonalar paydo bo'ldi. Hunarmandlarni bitta mutaxassislikka birlashtiradigan sex birlashmalari vujudga keldi. Sex boshida **bosh usta** turib, sanoat texnikasini nazorat qilgan va bozorga **раста оқсоқоли** sifatida borib, mahsulot sotilishi bilan bog'liq masalalarni hal qilgan. Hunarmandlarning har bir harakati kat'iy belgilangan nizom bilan nazorat qilingan, intizom bo'zilgan xollarda aybdorlar qattiq jazolangan.

Toshkent shahrining Turkiston o'lkasi ma'muriy-siyosiy markaziga aylanishi rus sarmoyadorlarining shahardagi iqtisodiy salohiyat va arzon ishchi kuchidan unumli foydalanishlari uchun katta imkoniyat tug'dirdi. Bu davrda Rossiya imperiyasi markaziy shaharlarida sanoat ishlab chiqarishining rivojlanganligi sababli tajribaga ega bo'lgan sarmoyadorlar o'lka zabt etilishi bilan bu yerga suvdek oqib kela boshladilar¹. Ayniqsa, ma'muriyat tomonidan uyushtirilgan ko'rgazmalarda namoyish etilgan xomashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bunga katta ta'sir o'tkazdi.

Natijada, XIX asrning 60 yillar oxiri - 70 yillarda o'lkada xomashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat usulida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga kirishgan rus sanoatchilari yil sayin ko'payib bordi. Bunga qadar nisbatan juda sodda va xonaki usuldagi mayda ishlab chiqarishga asoslangan mahalliy hunarlar va kosibchilik zamon talablaridan texnika jihatidan ortda qolgan, mehnat unumdorligi ham ancha past edi.

Sanoat korxonalari asosan **paxta tozalovchi zavodlar, to'quv fabrikalari, ipak yigiruv fabrikalari, charm zavodlari, ipak zavodi, g'isht zavodi, chuyan quyish zavodi, tamaki ishlab chiqarish fabrikalaridan** iborat edi.

Shuningdek, shaharda **oziq-ovqat sanoati, ya'ni qandolatchilik, aroq, vino, pivo, ma'danli suv, sharbat ishlab chiqarunchi korxonalar** ham paydo bo'ldi. Ularning soni yil sayin ortib, ishlab chiqarish kengayib bordi. Chunki, shaharda ishchi kuchi nihoyatda arzon, salohiyat esa yetarli edi. Shu sababli korxonalar ishlab chiqarishdan katta daromad ko'rdilar.

Sanoat korxonalari asosan xomashyoni qayta ishlashga moslashgan bo'lib, o'lka ma'muriyati bu yerda to'qimachilik sanoatini yoki boshqa ishlab chiqarish turlarini yo'lga qo'yishdan manfaatdor emas edi. Chunki, o'lka bozorlarida faqatgina metropoliya sanoat mahsulotlari sotilishi lozim bo'lib, ularga mahalliy raqobat kerak emas edi.

Toshkentning yangi qismida sanoat korxonalaridan tashqari turli 30 ga yaqin kasb-hunar egalari yakka tartibda faoliyat yuritgan. Bular asosan **soatsozlar,**

⁷ Обзор Сыр-Дарьинской области за 1911 год. Ташкент, 1913. С.132.

⁸ ЎзР МДА. И-36 жамгарма, 1-руйхат, 859-йифма жилд, 2-17-варақлар.

¹ Обзор Сыр-Дарьинской области за 1893 год. Ташкент. 1897. С.152-153.

etikdo'zlar, novvoylar, duradgor, chilangar, aravosoz, bo'yoqchi, oynasoz, muqovasoz, kulollar kabi turmushda zarur kasb egalari bo'lib, bu soha vakillari 1886 yilda 677 kishini tashkil etgan. XIX asr oxiriga kelib shaharda **g'isht, aroq, pivo, vino, tamaki, konfet, mineral suv, ichak, gugurt, teri va paxta tozalash zavodi** kabi jami 75 ta yangi, mayda korxonalar ishga tushgan bo'lib, ularda 614 ta ishchi faoliyat yuritgan².

XX asr boshiga kelib, Toshkentning yangi qismida sanoat korxonalarining turlari ko'payib, ishlab chiqarish kengayib bordi. Ayniqsa temir yo'llarning qurilishi bunga katta turtki bo'ldi. Toshkentning boy vohada joylashganligi, tabiiy boyliklari, iqtisodiy salohiyati tufayli sanoat taraqqiyoti uchun imkoniyatlar katta edi. Ayniqsa, rus sarmoyadorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, **savdo firmalari, bank-kredit tizimi, transport xizmatlari, kommunikatsiya** va boshqa infratuzilmalarning rivojlanishi, **arzon ishchi kuchining mavjudligi, mahsulotlar haridorligi**, eng muhimi – ishlab **chiqarishdan kelayotgan katta daromad** metropoliyadan kelayotgan ishbilarmonlar ishtaxasini tobora oshirar edi¹.

Shu omillar ta'sirida XIX asr oxiri - XX asr boshiga kelib Toshkentda **sement, yog'ochni kayta ishlash, gugurt zavodi, sovun va sham ishlab chiqarish korxonalari, spirtni tozalash, bo'yoq ishlab chiqarish, ohak tayyorlash zavodlari, kiyim-kechak, va poyafzal fabrikalari, oziq-ovqat sanoatida esa makaron, pishloq, kolbasa ishlab chiqarish, muz va konserva zavodlari, suv va bug' tegirmonlari** paydo bo'ldi. 1913 yilga kelib, Toshkentda 53 ta zavod va fabrikalar faoliyat yuritir edi². Shulardan 10 tasi paxta tozalash zavodlari bo'lib, qolganlari pivo, mineral suv, kunchlik, tamaki, chuyan quyuvchi korxonalar edi.

Sanoat korxonalarining egalari dastlab faqat rus sarmoyadorlaridan iborat edi. Lekin keyinchalik shaharning eski qismida ham mahalliy sarmoyadorlar bir qancha **paxta tozalash zavodlari, g'isht zavodi va korxonalar** tashkil etdilar. Ammo ularning soni juda kamchilikni tashkil etar edi.

Sanoat korxonalarining ko'payishi va kengayishi bilan ularda mehnat qiluvchi ishchilar soni ham ortib borgan. Ishchilar asosan ruslar va o'zbeklardan iborat bo'lsada, **qozoq, dungan, tojik** kabi boshqa millat vakillari ham bor edi. Shahardagi hunarmandchilik ustaxonalarida ham yollanma ishchilar bor edi.

1910 yilga kelib shaharda jami 6 mingga yaqin ishchi mehnat qilgan. Ularning yarmi yollanma ishchilar³, qolganlari sanoat korxonalaridagi doimiy ishchilar edi. O'lkada sanoat korxonalarini tashkil etgan rus sarmoyadorlari qisqa fursatda katta daromad olib, katta boylik orttirdilar. Ular orasida **L.D.Ryadov, X.Jemchujinov, I.I. Pervushin, M.A.Xludov, I.I.Ko'znetsov, A.YE.Gromov, D.N.Zaxo** kabi ishbilarmon sanoatchilar alohida ajralib turar edilar.

Shaharda sanoat korxonalari rivojida savdo-sanoat firmalarining roli katta bo'lgan. Nafaqat Toshkentda, balki o'lkaning boshqa shaharlarida ham faol va keng

²История Ташкента (с древнейших времен до победы февральской буржуазно- демократической революции). Ташкент, 1988. С. 161.

¹ Исмоилова Ж. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshida Toshkentning "yangi shahar" qismi tarixi. Toshkent, 2004.

² Зиёев Д. Ўзбекистон шаҳарлари. (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlari). Tashkent. 2017. 696.

³ Исмоилова Ж. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshida Toshkentning "yangi shahar" qismi tarixi. Toshkent, 2004.

ish olib borgan "Aka- uka Shlosberglar shirkati", "Moskva savdo va sanoat jamiyati", "Aka-uka Kamenskiylar savdo uyi", "Katta Yaroslavl Manufakturasini", "Y.Davidov savdo uyi", "Aka-uka Krafftlar shirkati", "Treugolnik shirkati" kabi o'nlab yirik savdo-sanoat kompaniyalari, transport kontoralari faoliyat yuritganlar.

Savdo firmalari rus va xorij sarmoyasiga yoki faqatgina rus banklari mablag'lari evaziga ishlagan. Paxta savdosida Rossiya va chet el sarmoyasi bilan bog'liq bo'lgan mahalliy firma va sherikchilik shirkatlari ham faol ishtirok etganlar. Mahalliy yaxudiylarga tegishli "Aka-uka Yaushevlar" savdo uyi, "Aka-uka Vadyayevlar" savdo uyiga qarashli "Vadyayev savdo-sanoat shirkati" shular jumlasidan edi.

Savdo firmalarining aksariyati nafaqat paxta, balki bir paytning o'zida boshqa turdagi xomashyo mahsulotlari savdosi bilan ham shug'ullanganlar. Masalan, nemis baroni Lev Gerasimovich Knop (Rossiya fukaroligini qabul qilgan) tomonidan asos solingan "L.Knop" savdo uyi nafaqat paxta, balki qog'oz ipi, shakar va turli asbob-uskunalar savdosi bilan ham shug'ullangan¹.

"Aka-uka Krafftlar" savdo uyi nafaqat paxta savdosi, balki ipakchilik mahsulotlari savdosi bilan ham shug'ullanganlar². Potelyaxov savdo-sanoat shirkati paxta xomashyosi bilan bir katorda chigit urug'i savdosi bilan shug'ullangan. N.I.Ivanov, D.L.Filatov, I.I.Pervushin kabi ishbilarmonlar aroq-vino ishlab chiqarish buyicha keng faoliyat yuritgan.

Sanoat ishlab chiqarishi taraqqiyotida bank tizimining shakllanishi kata o'rin tutgan. Metropoliya sarmoyadorlariga sahiylik bilan kredit beruvchi o'nlab banklar ham katta daromad ko'rganlar.

1875 yilda Toshkentda Rossiya Davlat banki bo'limining ochilishi kredit siyosatini amalga oshirishda muhim vosita bo'lgan. Uning Toshkentdagi bo'limi foizli qog'ozlar, qimmatbaho qog'ozlar, kredit siyosatini amalga oshirishda muhim vosita bo'lgan. Uning Toshkentdagi sarmoyadorlariga kredit beruvchi o'nlab banklar ham katta daromad ko'rganlar.

1881 yil Toshkentda amaliyot doirasi cheklangan, katta sarmoyaga ega bo'lmagan birinchi xususiy bank - O'rta Osiyo tijorat banki faoliyat qo'rsata boshlagan. 1909 yilga qadar uning asosiy sarmoyasi 500 ming rublni tashkil etgan³.

Turkistonda yirik aholi punktlarida o'z bo'limlari ochgan "Sibir Savdo banki" asosan chorvachilik mahsulotlariga etibor qaratgan. 1915 yilga kelib, "Sibir Savdo banki" - "Turkiston savdo-sanoat shirkati"ning butun faoliyatini o'z ta'sir doirasiga tortgan.

Rus-Osiyo banki o'lkadan metropoliyaga qorako'l jo'natishda katta rol o'ynagan. Birinchi jahon urushi davrida o'lkada nemis va fransuz firmalari boshqa shifobaxsh o'simliklar sotib olish bilan shug'ullanganlar. Ayni paytda o'nlab firma, savdo uylari o'lkaga metropoliya sanoati mahsulotlarini olib kelish bilan shug'ullangan. Toshkent va boshqa shaharlarda Rossiyadagi yirik to'qimachilik

¹ ЎзР МДА, И-1 жамгарма, 17- рўйхат, 884- йиғма жилд, 28, 29-варақлар.

² ЎзР МДА, И-91 жамгарма, 1- рўйхат, 9- йиғма жилд, 399-варақ.

³ Вексельман М.И. Российский монополистический и иностранный капитал Средней Азии. Конец XIX-начало XX вв. Ташкент. 1987, С. 11.

fabrikalari o'z kontoralarini ochganlar⁴. Metropoliyadan manufaktura mahsulotlarini keltirishda katta rol o'ynagan **firmalar, sindikatlar** Toshkentda va boshqa yirik shaharlarda o'z omborlarini tashkil etganlar.

Tikuv mashinalari bilan savdo qilgan **"Zinger" nomli Rossiya-Amerika aksionerlik jamiyati** (unga Buyuk Britaniya va Amerika fuqarolari egalik qilgan) Toshkent va Samarkandda o'z bulumlari va ustaxonalarini tashkil etgan¹. Rus va amerikalik sarmoyadorlarga tegishli **"Treugolnik"** firmasi Toshkentga va butun Turkistonga **rezina mahsulotlari, kalishlar, shinalar** olib kelgan.

O'lkadagi savdo munosabatlarida metropoliya vakillari sarmoyasi va manfaatlarining ustivorligi, mahalliy sarmoyadorlar imkoniyatining cheklanganligi olingan foydani chetga oqib ketishiga, mahalliy resurslar hamda ishchi kuchining beayyov ishlatilishiga, mamlakat moddiy salohiyatining sustlashishiga olib kelgan.

Chetdan kelgan va mahalliy savdogarlar hamda tadbirkorlar bu yerda **oziq-ovqat do'konlari, sanoat korxonalari**, eng avvalo, **vino va pivo zavodlari, makaron, tamaki va gugurt fabrikalari, yirik tegirmonlar, sovun ishlab chiqaradigan va g'isht zavodlarini** ocha boshladilar. Qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash korxonalari vujudga keltirila boshladi, ularning mahsuloti metropoliyaga olib ketilardi. Bu asosan teri, paxta tozalash va yog'-moy zavodlari edi.

Rossiya imperiyasi uchun ayniqsa, paxta tozalash korxonalari alhida ahamiyatga ega edi. 1880 yillarda **sanoatchi Laxtin** tomonidan Toshkentda birinchi **paxta tozalash zavodi** ochildi. Qisqa fursatda, ya'ni XIX asr oxiriga kelib Toshkentda 7 ta paxta zavodi ochildi. Paxtachilikning o'sishi bilan chigitni qayta ishlaydigan yog'-moy zavodlari ham vujudga keldi. Birinchi yirik yog'-moy zavodi 1884 yil paydo bo'lib, uning yillik mahsuloti 30 ming pudni tashkil etardi².

1885 yil shaharda 27 ta sanoat korxonasida 365 kishi mehnat qilgan, ular bir yilda 680,6 ming rubllik mahsulot tayyorlagan. Korxonalarning 25 tasi rus sarmoyadorlariga tegishli edi. 1893 yilga kelib shahardagi korxonalar soni 75 taga³, 1909 yilga kelib esa, 90 taga yetadi⁴. 1893 yillarda ularda 615 ishchi ishlagan bo'lsa, 1909 yilga kelib 1.335 ishchi ishlab, 1840,9 ming rubllik mahsulot tayyorlangan. Chorak asr mobaynida, ya'ni 1885 yildan 1909 yilgacha Toshkentdagi sanoat korxonalarning soni 3,2 marotabaga, ishchilarning soni 3,5 marotabaga, ishlab chiqargan mahsuloti esa, 2,7 marotabaga ortgan.

Istilo arafasida Toshkent shahar aholisining ijtimoiy tarkibini mintaqadagi barcha shaharlar kabi, **hunarmandlar, savdogarlar, diniy ulamolar, amaldorlar** katta o'rin egallagan. Ayni paytda bog'dorchilik yoki poliz hamda boshqa ekin turlari ekilgan dalalarga ega bo'lgan dehqonlar ham bo'lib, ular bahor va yozda shahar chetida, kech kuz va qishda shahar ichida yashar edilar.

⁴ Вексельман М.И. Российский монополистический и иностранный капитал Средней Азии. Конец XIX-начало XX вв. Ташкент. 1987. С. 121.

¹ Вексельман М.И. Российский монополистический и иностранный капитал Средней Азии. Конец XIX-начало XX вв. Ташкент. 1987. С. 128.

² Обзор Сыр-Дарьинской области за 1909. Ташкент. 1911. С.119.

³ Обзор Сыр-Дарьинской области за 1893. Ташкент. 1897. С. 152-153.

⁴ Обзор Сыр-Дарьинской области за 1909. Ташкент. 1911. С.119.

Shaharda ilgari mahalliy amaldorlar juda ko'pchilikni tashkil etgan. Ma'muriyat vakillarining eng quyidan yuqoriga qarab bo'ysunib boruvchi har bir pog'onasida o'nlab **lavozim, mansab va vazifalar** bor edi. Ma'muriyatni boshqaruv, ijro va nazorat tizimi vakillari, sud tizimi, soliq tizimi, qo'riqlash tizimi vakillari sifatida bir necha **pog'ona va guruhlar**ga bo'lish mumkin edi. Har bir **pog'ona** va **yo'nalishda** o'nlab **yordamchi va xizmatchilar**: - mirshab, jarchi, xabarchi, yasovul, aloqachi kabi vazifalarni bajaruvchilar ham bor edi.

Hunarmandlar kasbi-kori va ishlab chiqargan mahsulot turiga qarab **bir necha o'nlab turlarga bo'lingan**, ular: kasabalarga uyushib, faoliyat yuritgan. Hunarmandlar darajasiga qarab, **katta usta, mohir usta, oqsoqol, rasta boshi, oddiy hunarmand, shogird, yollanma ishchilardan** iborat edi.

Shuningdek, shaharda **kosibchilik (uy hunarmandchiligi), novvoylik, baqqollik, xizmatchilik**, turli ustaxonalarda **yordamchilik qiluvchi, dalalarda yollanib ishlaydigan koranda yoki mardikorlar, aravakashlar, dallollar, yuk tushirish, suv tashish, sartarosh, jarchi, mirshab, oshpaz, choyxonachi** kabi xizmatlarni bajaradigan yana o'nlab xizmatchilar bor edi.

Savdo ahli ham bir necha toifaga bo'linar edi. Tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi **yirik savdogarlar**, ichki bozorlarda **ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchilar, ko'chmanchilar vaqishloqlarga mol olib boruvchi ko'chma savdogarlar, chakana, tarqatma, mayda savdo qiluvchilar, hunarmandlar mahsulotlarini sotib beruvchilar, baqqollar, boj to'plovchi, zakotchi** va boshqalar majud bo'lgan. Karvonsaroylar va bozorlarda ham juda ko'plab xizmat turlari mavjud edi.

Shahar aholisi tarkibida ijtimoiy qatlam sifatida: **ta'lim tizimi va diniy ulamolar vakillari** ham bor edi. **Mudarris, muftiy, a'lam, madrasada talabalari, maktab o'quvchilarni, maktabdor** kabi o'nlab lavozim va vazifalarni sanash mumkin edi.

Shuningdek, shaharlarda **ilm-fan, madaniyat va san'at vakillari hamo'ziga yarasha ziyolilar, san'atkorlar** qatlamini namoyon etar edi. Xususan, **shoirilar, hattotlar, olimlar, san'at ahli, mashshoq, xonanda, sozanda, qiziqchi, dorboz, masharaboz** kabi o'nlab turdagi **ijod ahli va san'at egalari** bor edi.

Shahar aholisining **milliy tarkibida** mahalliy millat vakillari, asosan **o'zbeklar** katta o'rin egallaganlar. Keyingi o'rinda **tojiklar**, qisman chetdan kelgan: **arablar, hindlar, eronliklar, afg'onlar** bor edi.

O'lkada mustamlaka tuzumi qaror topib, rus va boshqa yevropaliklarning, **harbiylar va ma'murlarning** kirib kelishi bilan shahar aholisining tarkibida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Endilikda ma'muriyat vakillari asosan **harbiylardan** iborat **o'lk, viloyat, uezd ma'muriyati boshliqlari, ularning yordamchi va xizmatchilari, tarjimon va mirzalari, aloqachi va ijrochilari** bor edi.

Toshkent o'lkaniing ma'muriy markazi bo'lganligi sababli shaharda o'nlab davlat idoralarining rahbar va xizmatchilari, soliq tizimi, politsiya, dunyoviy (rus) sud tizimi vakillari, harbiy idoralar xizmatchilari, harbiylar va ularga xizmat qiluvchi idoralar (Turkiston harbiy okrugi xizmatchilari) faoliyat yuritir edi.

Shuningdek, shaharda **sanoat va savdo muassasalari, bank-kredit xizmatchilari, birja, transport, telegraf, telefon, pochta, umuman, aloqa tizimi xizmatchilari,**

matbuotchilar, reklama xizmati, zamonaviy do'konlar, turli kontoralar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularda yuzlab kishilar xizmat qilar edi.

San'at ahli orasida **aktyorlar, artistlar, san'atkorlar, teatr, musiqa, kino, sirk ustalari, klub, to'g'arak va jamiyat a'zolari** hamda xizmatchilari, **madaniy sohanining turli yunalishlari: ta'lim muassasalari vakillari, ilmiy jamiyatlar, tibbiyot jamiyatlari, laboratoriyalar, kutubxona, mo'zey xizmatchilari** paydo bo'ldi.

Shuningdek, shaharda **yollanma ishchilar, zavod va fabrika, temir yo'l ishchilari** shakllandi.

Shaharda yangi kasb egalari: **soatsoz, qulfsolz, tikuv mashinasi ustalari, oynasoz, slesar** kabi o'nlab **yangi mayda ustalar** paydo bo'ldi. Dastlab bunday kasb egalari Toshkent shahrining yangi qismida yashagan bo'lsa, keyinchalik eski shahar aholisi ham bunday hunarlarni egallay boshladi. Masalan, eski shaharlik Shorasul farangi **soat, kulf, "Zinger" tikuv mashinalari** kabi zamonaviy texnika jihozlarini tuzatishga mohir usta bo'lib, xalq orasida uning bu hunarlari uchun "farangi", ya'ni ko'chma ma'noda "**yevropalik hunar ustasi**" deb atashgan.

Shaharda tibbiy muassasalar: **ambulatoriya, dorixona, kasalxonalar paydo bulishi bilan feldsher, doya, vrach, shifoxona xizmatchilari, sanitarlar** paydo bo'ldi.

Shaharda harbiylar alohida qatlam bo'lib, ularning orasida ham **turli daraja va unvon vakillari, mansabdorlar va oddiy askarlar, harbiy bulinmalarga xizmat qiluvchilar, harbiy klub va lazaretlar, kazarmalar xizmatchilari** bor edi. Shahara holisining ijtimoiy tarkibi bilan bir paytda, uning **milliy va diniy tarkibi** ham yil sayin o'zgarib borgan. Shaharda rus aholisi va boshqa kelgindi aholi nufuzi ortib borgan. Ayni paytda mahalliy aholi son jihatdan ko'paysada, uning umumiy aholi tarkibidagi salmog'i nisbatan kamayib, kelgindi aholi soni ortib borgan.

Toshkent eski shahar aholisining 1872 va 1897 yildagi ijtimoiy tarkibiga oid ma'lumotlar 15 yil davomida bu sohada bo'lgan o'zgarishlarni yaqqol namoyon etadi.

1872 yilga oid ma'lumotlarga ko'ra Toshkent shahrida turli **korxona va hunarmandchilik ishlab chiqarishi vakillari** 5 340 ta bo'lib, ular aholining 28 %ini tashkil etgan bo'lsa, 1897 yilga kelib ularning soni 15 455 taga yetgan va mustaqil kasb egalari orasida ular 37,0 %ni tashkil qilgan. Savdogarlar soni 1872 yilda 3 147 ta bo'lsa, 1897 yilga kelib 8 047 taga yetgan. Ularning umumiy aholi tarkibidagi ulushi 16 %dan 19 %ga ko'tarilgan¹.

Toshkentda eski shaharda yashab, shahar hududi va atrofida **bog'dorchilik, poliz va dala ekinlari** yetishtirish bilan shug'ullanuvchi dexqonlar soni 1872 yilda 6 640 ta bo'lsa, 1897 yilga kelib 4 137 taga tushgan, ya'ni 35 %dan 10 %ga kamaygan.

Bu davrga kelib, eski shahar aholisining ijtimoiy tarkibida **hunarmandlar va ishlab chiqaruvchi korxona vakillari, kosiblar** son jihatidan aholi tarkibida birinchi o'rinda, ishchi, xizmatchi, xususiy ish bilan shug'ullanuvchi shaxslar ikkinchi o'rinda, savdo axdi uchinchi o'rinda, dexqonchilik bilan shug'ullanuvchilar turtinchi o'rinda turgan.

¹ Заисов Д. Ўзбекистон шаҳарлари. (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlari). Toshkent. 2017. 776.

Toshkentning yangi qismidagi aholi tarkibi ham o'ziga xos tarzda shakllangan. Masalan, 1871 yilga oid ma'lumotlarga ko'ra, 2073 kishidan iborat yangi shahar aholisining tarkibi quyidagicha bo'lgan: **zobitlar va harbiy amaldorlar** - 547 kishi, **fuqarolik xizmatidagilar** - 464 kishi, **uy ishlari bilan shug'ullanuvchilar** - 567 kishi (uy bekalari), **savdogarlar** - 80 kishi, **xizmatkorlar** - 121 kishi, **turli kasb egalari** - 150 dan ortiq edi¹. Demak, shahara aholisining chorak qismini **harbiy amaldorlar, chorak qismini turli idoralar xizmatchilari, chorak qismini uy ishlari bilan shug'ullanuvchilar (bular ayollar bo'lishi mumkin), qolgan chorak qismini turli kasb egalari** tashkil etgan². Toshkent va boshqa shaharlarga 1890 yillargacha harbiylar, ma'muriyat oilalari, turli kasb egalari qo'chib kelgan bo'lsa, Rossiya imperiyasi 1891-1892 yillarda sodir bo'lgan ocharchilik oqibatida shaharlarga aholining eng kambag'al qismi oqib kela boshladi³. Ularning orasida kasb-kori yo'qligi bois, ish topa olmay, bekor yuruvchilar soni ko'payib ketgan.

Rus ma'muriyati Toshkentga tobora ko'proq oqib kelayotgan odamlarni ish bilan ta'minlay olmagan. Barchani ish bilan ta'minlash uchun shahar sanoati u qadar rivojlanmagan edi. 1875 yilga oid shahar aholisi ro'yhatida 1208 nafar kishi "tayinli ishi yo'q" sifatida qayd etilgan, lekin amalda ularning soni bunga nisbatan ancha ko'p edi. Aholining milliy tarkibi ham yil sayin o'zgarib bordi. Shahar aholisining **milliy va diniy tarkibiga** oid ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, 1871 yilda Toshkentning yangi qismida 2 073 kishidan iborat aholining 1 453 tasi **xristian**, 442 tasi **islom dini**, 178 gasi **yaxudiylik dini** vakillari edi. Xristianlarning 1 289 tasi ruslar, 162 tasi yevropalik boshqa millat vakillari edilar.

1877 yilda shahardagi rus millatiga oid bo'lganlar soni 4 000 taga yetdi. 1886 yilda Toshkent shahridagi 125 980 kishilik aholining 11 186 tasi rus millatiga oidlar, 113 912 tasi mahalliy aholi edi⁴.

Rus millatiga mansublar shahar aholisining taxminan 8,8 foizini tashkil qilar edi. 1910 yilga kelib, Toshkent shahrining yangi qismidagi 69 565 kishilik aholining 46 463 tasi rus millatiga mansub, 3 946 tasi polyak, 3 245 tasi nemis, 107 tasi kavkazliklar, 2 732 tasi yahudiy, 1 376 tasi tatarlar, 8 232 tasi mahalliy va 1 512 tasi boshqa xorijiy millat vakillaridan tashkil topganligi manbalarda aks ettiriladi.

Bu davrda eski shahardagi 164 724 kishilik aholi tarkibida 160 539 tasi mahalliy, 1 002 tasi rus, 164 tasi polyak, 861 tasi yahudiy, 485 tasi tatar, 454 tasi boshqa xorijiy millat vakillari bor edi⁵. Foizlar bilan ifodalansa, shaharning eski va yangi qismidagi jami 234 289 kishilik aholining 20 %ini rus millatiga mansublar, 72 %ini mahalliy aholini qolgan 8 %ini boshqa millat vakillari tashkil qilar edi.

Aholining **diniy tarkibi uning milliy tarkibiga** mos ravishda o'zgarib borgan. Asrlar davomida islom dini davlat dini sifatida hukm surib kelgan mintaqada aholining tarkibi asosan musulmonlardan iborat edi. O'lkada yevropaliklar paydo bo'lishi bilan **xristian va iudaizm dini vakillari** ham ko'payib bordi.

¹ Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник Вып.1. СПб., 1872. С.8.

² Гинзбург А.И. Русское население в Туркестане. Ташкент, 1991. С.31.

³ Гинзбург А.И. Русское население в Туркестане. Ташкент, 1991. С.32.

⁴ Обзор Сыр-Дарьинской области за 1886 год. Ташкент 1887. С. 18.

⁵ Обзор Сыр-Дарьинской области за 1910. Ташкент, 1912. С.18.

Rossiya imperiyasida **xristian dinining pravoslav mazhabi** hukmron bo'lganligi bois Turkistonga ko'chib kelish uchun xristianlarning faqatgina pravoslav mazhabiga mansub vakillari uchungina ruhsat berildi va ular uchun ko'plab imtiyozlar yaratildi.

Turkistonga 1865 yilda rus qo'shinlari kirib kelishi bilan oq ilk **pravoslav ruhoniylari** paydo bo'ldilar. Shaharda **rus harbiylari** uchun vaqtinchalik **ibodat uylari** tashkil etildi. Dastlabki yillarda pravoslav jamoalari **Orenburg va Tomsk yeparxiyalari** tarkibida edilar. Rus aholisi ko'payib borishi bilan muntazam faoliyat ko'rsatuvchi ibodatxonalar va ruhoniylarga ehtiyoj kuchayib, 1871 yilda Toshkent va Turkiston Yeparxiyasi tashkil etildi. Pravoslav cherkovlari deyarli barcha yirik shaharlarda tashkil etildi.

1913 yilga kelib yangi shaharchada **13 ta pravoslavlar cherkovi, katoliklar, lyuteranlar va arman-grigoryanlar uchun 1 tadan ibodatxona** faoliyag yuritgan¹.

1916 yildan boshlab **"Turkiston yeparxiyasi xabarlari"** (**"Turkestarskiye yeparxialniye vedomosti"**) nomli oylik jurnal chiqarila boshlandi. 1909 yilda xristian dini ulamolarining Turkiston syezdi ham bo'lib o'tadi. 1916 yilga kelib, yeparxiya kafedrası **Verniy (Verniy) shahridan Toshkentga** ko'chirildi.

Turkistonda xristian dinining boshqa mazxablari, xususan, katoliklar va protestantlar ham paydo bo'ldilar. Ammo ularning soni pravoslavlariga nisbatan juda oz edi. Xususan, 1883- yilda Toshkent shahrida xristian dinining pravoslav mazxabi vakillarining soni 6 697 kishini, katoliklar 334 kishini, protestantlar esa, 342 kishini tashkil etganlar².

Imperiya hukumatining **katolik mazhabiga** nisbatan chiqishtiruv siyosati tufayli katoliklar XX asr boshiga qadar o'z ibodatxonalariga ega bo'la olmadilar. **1902 yilda** Turkiston o'lkasida rim-katolik cherkovlari uchun kurat shtati ajratilib, bu lavozimga **Yustinas Bonaventura Pranaytis** tayinlanadi va shu davrdan boshlab **rim-katolik cherkoviga asos solinadi**. Lekin unga ibodatni lotin tilida olib borish sharti qo'yildi. Chunki katoliklar ichida surgun qilingan polyaklar ko'p bo'lib, imperiya hukumati ularning muloqoti va birlashuvidan juda xavotirda edi.

1914-1915 yillarga kelib Turkistonga Birinchi jahon urushida Rossiya tomonidan asir olingan **Avstriya, Polsha va Vengriya fuqarolari** jo'natilishi munosabati bilan Toshkentning yangi qismida katoliklar soni ko'paydi. Asirlar ichidagi **malakali arxitektorlar, xaykaltarosh va qurilish mutaxassislari kostel loyihasini** qayta ishlab chiqadilar va qurilish ishlari boshlanadi. Toshkent shahrida nihoyatda mahobatli, 25 m. balandlikda katoliklar ibodatxonasi qurilishi boshlandi.

Bu davrda Toshkentda yahudiylar ham yil sayin ko'payib boradilar. XIX asr o'rtalarida, ya'ni istilo arafasida Toshkentda **buxoro yaxudiylarining** kichik jamoasi bo'lib, ularning soni 100 kishi atrofida edi, xalos. Rossiya imperiyasi XIX o'rtalarida O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo aloqalari olib borishda **Buxoro yaxudiylariga** katta imkoniyatlar yaratib, ularga imperiya hududida o'mashib, savdo yarmarkalarda savdo qilish xuquqlarini berdi. Bu esa yahudiylarning O'rta Osiyoning Rossiya bilan aloqalarida faol ishtirok etishiga imkon berdi.

¹Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Ташкент. 1912. С.312-322.

²УР МДА, И-36 жамғарма. 1-руйхат. 2336-йигма жилд, 34-варак.

Imperiya xukumati o'lkani egallab olgach, Turkiston hududida Buxoro yaxudiylari savdo gildiyalariga a'zo bo'lish orqali Rossiya imperiyasi fuqaroligini qabul qilish huquqiga ega bo'ldilar, soliq tizimidagi ilgari cheklashlardan ozod bo'ldilar. Bunday imtiyozlar tufayli Turkistonga, xususan Toshkentga Buxoro amirligidan ko'plab **yaxudiylar** qo'chib keldilar.

Toshkentda yaxudiylarning turli guruhleri – **ashkenazlar, buxorolik yahudiylar, Mashhaddan kelgan yahudiylar avlodlari, rus fuqaroligidagi yahudiylarni** uchratish mumkin edi.

1883 yilda Toshkentning yangi qismida 569 ta rus yahudiylari va 397 ta mahalliy yahudiylar¹, eski qismida esa, 293 ta yahudiylar istiqomat qilar edi². Butun Turkiston bo'ylab esa ularning soni 1897 yilda 11 444 kishi bo'lsa, 1911 yilga kelib, 25 974 kishiga yetdi³.

Imperiya hukumati Turkiston bozorlarini egallashda mahalliy yahudiylardan juda unumli foydalandi. Chunki, ular **mahalliy sharoitni, tilni, ehtiyojlar va talablarni** yaxshi bilardilar. Dastlabki yillarda mahalliy aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri til topisha olmagan rus savdogarlari uchun ham yahudiylar xizmatidan foydalanish qulay edi. Shu tariqa, yahudiylar o'lka iqtisodiy hayoti va savdo aloqalarida katta o'rin egallab, yirik mulklar va sarmoya orttiradilar, zavod-fabrikalar, savdo kompaniyalariga ega bo'ldilar.

Bu davrda Toshkentdagi yahudiylar orasidan yirik sarmoyadorlar yetishib chiqdi. Ular nafaqat Toshkent shahridagi, balki butun o'lkadagi savdo va sanoat ishlab chiqarishi sohalarida juda katta o'rin egallab, mahalliy xomashyoni Rossiya imperiyasiga chiqarishda va paxta xomashyosini qayta ishlashda katta o'rin egallaganlar.

Shuningdek, Toshkentdagi yahudiylar orasida **oliy ma'lumotli dorishunoslar, shifokorlar, tabiblar, noshirlar** bilan bir qatorda **mohir suratkashlar, tikuvchilar** bor edi. Toshkentning yangi qismidagi nashriyotlarning yarmi yahudiylarga tegishli edi. Yahudiylar shaharda **kitob do'konlari, kutubxonalar, noshirchilik uylariga** ega edilar. Ayni paytda, mahalliy yaxudiylarning ko'pchiligi **an'anaviy kasb-hunarlarini davom ettirib, zargarlik, etikdo'zlik, bo'yoqchilik** bilan shug'ullanar edilar.

Hukumat 1880 yillardan boshlab mahalliy yahudiylarni ikkiga – **1. o'lkada azaldan yashab kelganlar hamda 2. Buxoro yaxudiylariga** ajratib, Toshkent shahriga **buxorolik yahudiylarining** qo'chib kelishini cheklashga harakat qilgan. Buxoro yahudiylari **amirlik fuqaro sifatida qaralib**, ularni xorijliklar qatorida imkon qadar siqib chiqarish choralari ko'rilgan.

1898 yilda Rossiya imperatori Nikolay II ning xorijiy va yaxudiy sarmoyadorlarga bog'lanib qolgan sanoat korxonalarini cheklash haqidagi ko'rsatmalaridan so'ng, Toshkentda ham **ashkenaz yaxudiylarga** ko'chmas mulk sotishni cheklash harakati boshlangan.

Buxoro yahudiylarining ma'lum qismi rus fuqaroligiga o'tib, shaharda o'z huquqlarini saqlab qolganlar. 1910 yildan boshlab buxoro yahudiylarini Toshkentdan

¹ ЦР МДА. И-36 жамгарма, 1-руйхат, 3619 йигма жилд, 44-варақ.

² ЦР МДА. И-36 жамгарма, 1-руйхат, 3619 йигма жилд., 41-варақ.

³ Любимов П.П. «Религия и вероисповедный состав Азиатской России. Петроград 1914 г. С.44 - 45.

chiqarib yuborish tadbirlari ko'rilgan. Turli cheklashlarga qaramay, Toshkentdagi yahudiylar soni ortib borgan. 1910 yilga kelib Toshkent shahrida 3 600 nafar yahudiy hisobga olingan.

Yahudiylar moddiy mablag'lar va vaqtinchalik imkoniyatlardan foydalanib, o'z ibodatxonalari va diniy maktablarini tashkil etadilar. Bunda sarmoyador yahudiylarning yordami katta bo'lgan. Xatto yirik sarmoyadorlar o'z oilalari uchun alohida ibodat uylari tashkil qildilar.

Bu davrda Toshkentning yangi qismida 3 ta yahudiylar sinagogi, eski qismida 1 ta ibodatxonasi faoliyat yuritir edi¹. Shahardagi buxoro yahudiylarining o'z diniy ulamosi, diniy o'quv maskani - **"xomlo"** faoliyat ko'rsatgan. 1883 yilda Toshkentda yahudiylarning rus tilida ish olib boruvchi xususiy maktabi ochilgan, lekin u oradan 5 yil o'tgach, hukumat tomonidan yopib qo'yilgan. Keyinchalik shaharda yahudiylarning rus tilida ish yurituvchi bilim yurti tashkil etilgan. Lekin uning o'quvchilari ko'p bo'lmagan. **Ashkenaz va buxorolik yaxudiylarning bolalari asosan rus gimnaziyalari, tijorat bilim yurtlarida ta'lim olganlar.**

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri - XX asr boshida Toshkent shahrida kechgan o'zgarishlar o'ta ziddiyatli bo'lib, shaharni sun'iy ravishda ikki qismga bo'linishiga, ular orasida keskin tafovutlar paydo bo'lishiga olib keldi. Bu tafovutlar o'lka ma'muriyatining shaharsozlik siyosati o'ta shovinistik va mustamlakachilik manfaatlari asosiga qurilganligi bilan izohlanar edi.

Mablag'ning noteng taqsimoti sababli "yangi shahar" eski shaharni XIX asr darajasida saqlab turish hisobiga rivojlandi. Xattoki shahar ijtimoiy xo'jalik boshqaruvining o'sha davr uchun yangi va ilg'or shakli bo'lgan, saylov asosida shakllantirilgan va shahar xo'jaligini mustaqil boshqarish uchun tuzilgan **Toshkent Dumasi** ham shovinistik va mustamlakachilik siyosati sharoitida ish olib borib, bu tafovutlarni bartaraf eta olmadi. Duma tarkibida **"toshkentlik janoblar"** deb nom chiqargan imtiyozli millat vakillari katta mavqega ega bo'lib, shahar byudjetini nafakat "yangi shahar", balki shaxsiy extiyojlari uchun ham bemalol sarflaganlari o'sha davrdayoq metropoliya matbuotida keskin tanqidga uchragan edi.

Shu tariqa, Toshkentda bu davrda amalga oshirilgan shaharsozlik madaniyati mustamlakachilik manfaatlari asosiga qurilganligi tufayli ruslar yashaydigan "yangi" qismi obodlashib borgan sari, mahalliy aholi yashaydigan "eski shahar" yanada qoloqlashib, qashshoqlashib bordi. Shahar daromadining katta qismini tashkil etuvchi mablag'lar eski shahardagi **bozorlar, do'konlar va ko'chmas mulklardan** kelsada, shahar harajatlari taksimotida eski shaharga nisbatan qoldiq tamoyili asosida yondoshuv shundan natijalarga olib keldi.

Bu davrda eski shaharda amalga oshirilgan o'zgarishlar asosan uning markaziy bozori hamda bozor atrofidagi asosiy ko'chalarda tungi **yoritqichlar, ko'chalarga tosh yotqizish, ariqlarga ko'priklar ko'yish, telefon, telegraf va pochta xizmalari paydo bo'lishida** namoyon bo'ldi. Bu o'zgarishlar mahalliy aholiga qulaylik yaratish maksadida emas, balki metropoliya sarmoyadorlarining bozor bilan aloqalari, o'lka ma'muriyatining eski shahar hududini boshqarishdagi faoliyatini yengillashtirish, muammolarni bartaraf etish maqsadlarida amalga oshirilgan edi.

¹ Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Ташкент. 1912. С.321.

Eski shaharda tashkil etilgan **ilk dorixona, ambulatoriya va kasalxona faoliyati** ham ma'muriyat tashabbusi bilan emas, balki shahar Dumasi a'zolari bo'lgan mahalliy aholi vakillarining talablari bilan, eski shahardan kelgan tushumlar hisobidan amalga oshirildi, ammo bu aholisi muassasalar faoliyati tufayli jadal ko'payib borgan eski shahar uchun dengizdan tomchi bo'lib, aholi ehtiyojlarini mutlaqo qoplamas edi. "Yangi shahar"dagi shart-sharoitlar bilan solishtirganda bu ishlar mutlaqo arzimas darajada edi. "Yangi shahar" XX asr boshidagi zamonaviy shaharga aylanib ulgurani holda, "eski shahar" XIX asr darajasida qolib ketgan edi.

"Yangi shahar"da ma'muriyat, harbiylar, rus sarmoyadorlari, ularning oilalari uchun **restoranlar, sartareshxonalar, hammomlar, do'konlar, cherkov, dorixona, xiyobonlar, aloqa, transport, kommunikatsiya tizimining** barpo etilishi bilan Toshkentning bu qismida o'sha davr uchun zamonaviy ijtimoiy infratuzilmalar paydo bo'lib, shaharsozlik madaniyati rivojlanib bordi.

Bu yerda **kutubxonalar, mo'zey, rus ta'lim muassasalari, teatr, turli jamiyatlar, olimlar uyushmalari, hayriya jamiyatlari** faoliyat yuritir, ko'ngilochar tomoshalar, konsertlar, sirk va san'at ustalarining gastrollari uyushtirilir, **kitob rastalari, bosmaxonalar, gazetalar, reklama, aholiga xizmat ko'rsatish muassasalarining** keng tarmog'i shakllangan edi. Yangi shahar markazidagi yevropacha usulda qurilgan **yangi ma'muriy binolar, keng va ravon, tunda yoritilgan, tekis ariqlar** tortilib, ikki chetiga kator daraxtlar ekilgan ko'chalar, **hiyobon va bog'lar, transport va kommunikatsiya vositalari** shahar qiyofasini butkul o'zgartirib yuborgan edi.

Xulosa qilib aytganda, ayni paytda yozda chang va tuproq, qishda loy va sirpanchiq, egri-bugri ko'chalar, to'kilib, harobalashgan masjid va madrasalar, yoyma do'konlar, betartib ko'payib, kengayib borgan bozorlar, bir-biriga yo'l bera olmay, tikilishib o'tadigan ot-aravayu, piyoda aholining yo'l azoblari, ketma-ket va tartibsiz qurilgan pastkam uy-joylar, tunda bir necha ko'chani hisobga olmaganda, umuman yoritilmay, zulmat qa'riga g'arq bo'ladigan eski shahar qiyofasini namoyon etib turar edi. Bir-biridan qariyb 100 yilga farq qiladigan bunday qarama-qarshi manzarani o'lkadagi har bir yirik shahar misolida ko'zatish mumkin edi.

Tayanch so'zlar:

Registon, kappon, eski shahar, chorsu, beshyog'och, kosib, manfaktura, attorlik, jarchi, baqqol, muftiy, a'lam, maktabdor, mashshoq, xattot, dorboz, klub, doya, chorakor, provaslav, yeparxiya, noshirchilik, shakarpazlik, xomlo, yaxudiy, Shi, baqqol, mirza, kotib, pul, tilla, chaqa, fonus.

Test topshiriqlar:

1. XIX asrning II yarmida Toshkentdagi savdogarlar necha kasabaga uyushganlar?

A.32 kasabaga uyushganlar

V.30 kasabaga uyushganlar

S.33 kasabaga uyushganlar

D.29 kasabaga uyushganlar

2. XIX asrning II yarmida Toshkent shahrida Chorsu bozoridan tashqari yana nechta bozor bo'lgan

- A. 3 ta bozor bo'lgan
- V. 4 ta bozor bo'lgan
- S. 5 ta bozor bo'lgan
- D. 2 ta bozor bo'lgan

3. XIX asrning II yarmida Toshkent shahrida Savdo rastalarining har biri nimaga ega edi?

- A. Savdo rastalarining har biri o'z oqsoqoliga ega edi.
- V. Savdo rastalarining har biri bozor boshqaruvchisiga ega edi
- S. Savdo rastalarining har biri pattachisiga ega edi
- D. Savdo rastalarining har biri mustaqil edilar

4. Oqsoqollar qanday vazifalarni bajarganlar?

- A. oqsoqollar tartibni, ozodalikni, soliq yig'ish vazifasini bajarganlar
- V. oqsoqollar narx-navoni nazorat qilish vazifasini bajarganlar
- S. oqsoqollar chayqovchilikning oldini olishgan
- D. oqsoqollar narx-navoni va chayqovchilikning oldini olishgan

5. 1870 yilda Toshkent shahrida nechta karvonsaroy faoliyat yuritgan?

- A. 29 ta karvonsaroy faoliyat yuritgan
- V. 30 ta karvonsaroy faoliyat yuritgan
- S. 25 ta karvonsaroy faoliyat yuritgan
- D. 35 ta karvonsaroy faoliyat yuritgan

6. Toshkent shahrida 1870 yilda hunarmandlar qanda matolar tayyorlashgan?

- A. bo'z, olacha, qalama, bosma, beqasam kabi matolarni tayyorlashgan
- V. beqasam, namat, atlas, adras kabi matolarni tayyorlashgan
- S. olacha, doka, surp, namat kabi matolarni tayyorlashgan
- D. bo'z, namat, atlas, adras kabi matolarni tayyorlashgan

7. XIX asrning 60-70 yillarida Toshkent shahrida qanday sanoat korxonalari mavjud edi?

- A. paxta tozalash zavodlari, to'quv fabrikalari, chirm zavodlari, g'isht zavodi, cho'yan quyish zavodi, tamaki ishlab chiqarish fabrikasi mavjud edi
- V. to'quv fabrikalari, chirm zavodlari, chigitni qayta ishlash zavodi
- S. g'isht zavodi, cho'yan quyish zavodi, yerga solish uchun kimyoviy moddalar ishlab chiqarish zavodi
- D. paxta tozalash zavodlari, sovun ishlab chiqarish zavodi

8. Nechi yili Toshkentda Rossiya Davlat banki bo'limining ochilishi kredit siyosatini amalga oshirishga muhim omil bo'ldi?

- A. 1875 yilda Toshkentda Rossiya Davlat banki bo'limining ochilishi kredit siyosatini amalga oshirishga muhim omil bo'ldi

V.1874 yilda Toshkentda Rossiya Davlat banki bo'limining ochilishi kredit siyosatini amalga oshirishga muhim omil bo'ldi
 S.1873 yilda Toshkentda Rossiya Davlat banki bo'limining ochilishi kredit siyosatini amalga oshirishga muhim omil bo'ldi
 D.1872 yilda Toshkentda Rossiya Davlat banki bo'limining ochilishi kredit siyosatini amalga oshirishga muhim omil bo'ldi

9. "Treugolnik" firmasi qaysi davlat sarmoyadorlariga tegishli bo'lgan?

A. Rus va amerikalik sarmoyadorlarga tegishli bo'lgan

V. Rus va inglizlik sarmoyadorlarga tegishli bo'lgan

S. Rus va mahalliy O'rta Osiyolik sarmoyadorlarga tegishli bo'lgan

D. Fransuz zodagon sarmoyadorlariga tegishli bo'lgan

10. 1885 yili Toshkent shahrida nechta sanoat korxonasi bor edi?

A. 27 ta sanoat korxonasi bor edi

V. 72 ta sanoat korxonasi bor edi

S. 28 ta sanoat korxonasi bor edi

D. 30 ta sanoat korxonasi bor edi

10-Mavzu: XVI-XIX asrlarda iqtisodiy va siyosiy markazlar sifatida yangi shaharlarning shakllanishi

Reja:

1. "Yangi shahar" infratuzilmasi va ijtimoiy muassasalari
2. Aloqa tizimi
3. Yo'l qurilishi, transport va yoritish tizimi
4. Tibbiy muassasalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зиёев Д. Ўзбекистон шаҳарлари. (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlari). Toshkent. 2017. 626.
2. Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. Туркестанский край. СПб., 1913. С.614.
3. Герентьев М.А. Статистические очерки Среднеазиатской России. Записки Русского Географического общества. Отдел статистики. Т.4. СПб., 1874. С.51.
4. Исмоилова Ж. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshida Toshkentning "yangi shahar" kismi tarixi. Toshkent, 2004.
5. Вексельман М.И. Российский монополистический и иностранный капитал Средней Азии. Конец XIX-начало XX вв. Toshkent. 1987, С. 11.

Toshkent o'lkada shahar Dumasi va mahkamaga ega bo'lgan yagona shahar edi. Shahar xo'jaligini boshqarishda ularning roli katta edi. Shahar daromadi o'lka bo'yicha olib qaraganda eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan. Shaharning eski va yangi qismida katta bozorlar, karvonsaroylar, ko'chmas mulklar, sanoat korxonalari,

do'kon va boshqalardan katta mablag' to'plangan. Hususan, 1908 yilda shahar daromadi 679 545 rublni, harajatlari esa, 631 567 rublni tashkil qilgan¹.

Shahar daromadining katta qismi politsiya xizmati va shahar ma'muriyatini maosh bilan ta'minlash, shahar turmasini isitish, ko'chalami yoritish tizimiga yo'naltirilgan. O'lkada boshqa shaharlarda ma'muriyat davlat g'aznasi hisobidan ta'minlanar edi. Toshkentda esa, amaldorlar va politsiyaning maoshi shahar daromadi hisobidan to'langanligi bois, obodonlashtirish, shahar infratuzilmalarni rivojlantirish va boshqa ijtimoiy, maishiy muammolarni hal etish uchun mablag' doimo yetishmas edi.

Toshkent shahrining o'lka markaziga aylantirilishi va unda harbiy-ma'muriy apparat, rus savdo-sanoatchilarining joylashuvi bilan shaharda ular uchun zamonaviy qulayliklar yaratishga ehtiyoj kuchayib ketdi. Eng avvalo kommunikatsiya va transport tizimini shakllantirishga kirishildi. Bu mustamlaka ma'muriyat apparatining o'lka bo'ylab va metropoliya bilan tezkor hamda muntazam aloqalari uchun zarur edi. Aloqa vositalari asosan viloyat va uezd ma'muriyati joylashgan shaharlarning yangi qismida rivojlantirildi.

Toshkent shahri bosib olinishi bilan atrof shaharlar oralig'ida otliq pochta xizmati yo'lga qo'yildi. 1868 yildan xhr bir viloyat va uezd markazlarida hamda Buxoro amirligi shaharlari va Xivada pochta kontoralari tashkil etilib, Toshkentda ularning markazlashgan boshqarmasi tuzildi. Mazkur boshqarma Rossiya ichki ishlar vazirligi qoshidagi pochta va telegraf bosh boshqarmasiga bo'ysunar edi. Shaxarlarda pochta qutilari paydo bo'ldi.

1873 yildan Toshkent va Orenburgni bog'lovchi xalqaro telegraf aloqa liniyasi ishga tushdi. 1876 yilda o'lkada elektr telegrafi ishga tushib, nafaqat Turkiston, balki Buxoro va Xiva shaharlariga ham yetib bordi. 1886 yilda Turkiston pochta-telegraf okrugi Boshqarmasi tuziladi va uning qoshida 5 ta viloyat aloqa kontoralari tashkil etiladi. Pochta yo'llari, telegraf liniyalari shahardan shimol, g'arb va janubga tarqalib, Toshkentni janubi-sharqiy Rossiya, G'arbiy Sibir, guberniya shaharlari va Turkiston o'lkasining janubiy viloyatlari bilan bog'lagan.

1892 yildan yangi shaharda ilk telefon tarmoqlari ishga tushirildi. Ulardan dastlab faqatgina harbiy muassasalar, shahar boshlig'i va politsiya boshqarmasi foydalanar edi. 1904 yilda shahar telefon stansiyasi ishga tushirilgach, uning xizmat doirasi kengaya boshladi. Telefon xizmatidan xususiy shaxslar - yirik sarmoyador ishbilarmonlar ham foydalana boshladilar. XX asr boshida xususiy tadbirkorlarga shahar telefon tarmog'ini qurish va undan foydalanishga ruhsat berilishi, shaharda davlat va xususiy telefon stansiyalarining ishga tushishi Toshkentda telefon aloqasini ancha jonlantirdi. 1914 yilda Toshkentda telefondan foydalanuvchi abonentlar soni 942 taga yetadi. Shahardagi aholi gavjum yerlar - temir yo'l vokzali, bozorlarda 5 ta avtomat telefonlar o'rnatiladi. Shu tariqa, nafaqat Toshkentda, balki boshqa shaharlarda ham telefon, pochta, telegraf aloqalari kengayib boradi va ular asosan "yangi shahar" larni qamrab oladi.

Toshkentda ma'muriyat va rus aholisi uchun barpo etilayotgan yangi shaharchada yo'l qurilishi masalalariga qurilish ishlari loyihalaridayoq katta e'tibor

¹ Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Ташкент. 1912. С.321.

qaratilgan. Eng avvalo markaziy qismdagi bosh ko'chalardagi yo'llar keng va tekis qilinib, tosh yotqizilgan, ikki chetida daraxtlar o'tkazilib, yomg'ir suvlari uchun ariqlar tortildi. Yangi shaharda tosh yotqizilgan ko'chalarning umumiy maydoni 1914 yilga kelib, 168 000 kv.sajenni tashkil etgan.

Eski shaharda Chorsu bozoriga olib boruvchi va ikki qismni bog'lovchi, temir yo'l stansiyalariga olib chiquvchi yo'llar tekislandi. Shaharning "yangi qismi"da bog'lar yaratishga alohida ahamiyat berildi. Shu maqsadda 1882 yilda maydoni 17 600 kv.sajenni egallagan katta bog barpo etildi. Shaharning boshqa ko'chalarida ham arlining (ruslar) madaniy dam olib, sayr qilishi uchun bog'lar, bir nechta yirik hiyobonlar barpo etiladi va ularga o'lkani zabt etishga bosh bo'lgan harbiy qo'mondonlar nomi berildi. Yangi shahar ko'chalarida tungi yoritqichlar o'rnatish masalasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, ma'muriyat va politsiya mahkamalari, amaldorlar va harbiylar manzillari, yirik rus sarmoyadorlarining uy-joy va kontorlari tungi yoritqichlar bilan to'la ta'minlangan. 1905 yilgi Duma qaroriga binoan sharning yangi qismidagi markaziy ko'chalar kerosinli fonuslar bilan yoritiladi. Keyinchalik shaharning barcha ko'chalari shunday yoritqichlar bilan ta'minlanadi.

Birgina yoritqichlar uchun bir yilda 30-40 ming rubl sarflangan¹. 1908 yilga kelib, shaharda birinchi elektrostansiya qurildi. Elektrostansiya "yangi shahar"ning markaziy ko'chalari - Kaufman, Romanov, Samarqand, Voronsov ko'chalarini, o'lka ma'muriyati vakillari xonadonini yoritishga xizmat qilgan². Yangi shaharchadagi yoritish vositalari asta-sekin elektr tarmog'i bilan almashtirila boshlang'ich, kerosinli yoritqichlar eski shaharga berilgan.

XX asr boshida yangi shaharda transport tizimi shakllana boshladi. Yangi shaharda dastlab otga qo'shilgan vagonli, temir izda yuruvchi "ko'nka" ("konka"), 1912 yildan esa, ilk elektr tramvay paydo bo'ldi. Bu yerdagi "Voskresenskiy" "Yakshanbalik" bozorida turli tomonlarga umumiy uzunligi 20 verst bo'lgan yettita tramvay liniyasi qurilib, ishga tushirildi.

Orenburg-Toshkent temir yo'li qurilib, ishga tushgach, shaharning tashqi aloqalari, xususan metropoliya bilan aloqalari faollashib, Toshkent o'lkani eng gavjum maskanlaridan biriga aylandi.

Toshkentning "yangi" qismida o'lkada rus aholisi paydo bo'lishi bilanoq, 1868 yilda harbiy lazaret tashkil etildi. Gospital 415 o'ringa mo'ljallangan³, keyinchalik bu yerda fuqarolarga ham xizmat ko'rsatila boshlangan.

Zamonaviy tibbiy muassasalar dastlab yangi shaharchada, keyinchalik esa, eski shaharda ham paydo bo'la boshlagan. 1891 yilda yangi shaharda yuqumli kasalliklar shifoxonasi⁴, 1892 yilda ko'z kasalliklari shifoxonasi⁵, 1896 yilda esa, Qizil Xoch muruvvat jamiyatining kasalxonasi, 1899 yilda shaharning yangi qismida O'rta Osiyo temir yo'llariga qarashli kasalxona va ambulatoriya ochildi. 1901 yildan esa, ilk

¹ ЎЗР МДА. И-37 жамғарма, 1-руйхат, 541-йғма жилд. 11-варақ.

² ЎЗР МДА. И-17 жамғарма, 1-руйхат, 22828-йғма жилд. 33-35-варақлар.

³ Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. С. 186-187.

⁴ ЎЗР МДА. И-2231 жамғарма, 1-руйхат. 272-йғма жилд. 3-варақ.

⁵ ЎЗРМДА. И-37 жамғарма, 1-руйхат. 451-йғма жилд. 15-варақ.

⁶ ЎЗРМДА. И-2231 жамғарма, 1-руйхат. 272-йғма жилд. 15-варақ.

⁷ ЎЗР МДА. И-37 жамғарма, 1-руйхат. 349-йғма жилд. 29-варақ.

umumiy kasalliklar kasalxonasi ishga tushirildi. Ushbu kasalxona xarajatlari shaxar Dumasi tomonidan ta'minlanar edi.

Shaharda ambulatoriyalar faoliyati nisbatan samarali bo'lib, 1910 yilda ularning soni 5 taga yetdi.

Shaharda ayrim shifokorlar xususiy shifoxonalar ham tashkil etganlar. Masalan, M.I.Slonimning 1909 yilda ochilgan 12 o'rinli xususiy shifoxonasida yiliga 1000 ga yaqin kishi davolangan.

Bunday shifoxona va ambulatoriyalarda tibbiy yordam uchun albatta pul to'lash kerak edi. XX asr boshida xususiy shifoxonalar soni 8 taga yetadi. Bu orada shaharda ayollar uchun 12 o'rinli tug'ruqxona ham ochildi.

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish maqsadida shahar Dumasi qoshida vrachlar, dorixona mudiri va sanitar nazoratchilaridan iborat Sanitar Kengashi tuziladi³. Shaharning yangi qismida sanitar nazoratchisi lavozimi ta'sis qilingan. Sanitar nazoratchisiga rus ma'murlari, harbiylari yashaydigan, jamoatchilik to'planadigan joylarda ko'chalar, maydonlar va hovlilar, savdo-sanoat muassasalari, ommaviy joylarni nazorat qilib borish vazifasi yuklatilgan.

Eski shaharda ham ilk tibbiy muassasalar paydo bo'la boshladi. 1874 yilda eski shaharda yashovchi mahalliy aholi mablag'i hisobidan ilk dorixona ochildi. Bu dorixona shahar Dumasi ixtiyoriga o'tkazilib, eski shahardan to'plangan tushumlar hisobidan mablag' bilan ta'minlab turilgan. Dorixonada kambag'al bemorlarga dorilar bepul berilgan⁴. Keyinchalik Toshkentning yangi va eski ismlarida xususiy dorixonalar ham yuzaga keldi. XX asr boshlariga kelib, xususiy dorixonalar soni 12 taga yetdi.

1880 yillarda eski shaharda erkaklar va o'g'il bolalar uchun ilk ambulatoriya ochildi. 1886 yilda ushbu ambulatoriyaga 1666 kishi murojaat qilgan⁵. 1895 yildan boshlab ushbu ambulatoriya ta'minoti shaxar Dumasi xisobidan amalga oshiriladigan bo'ldi.

1900 yilda A.N.Predtechenskaya tashabbusi bilan shaharning eski qismida ayollar uchun ilk ambulatoriya ochildi.

Shu tarifa, yangi shaxar Dumasiga mahalliy aholidan tushadigan tushumlar, mahalliy boylar, xususiy shifokorlar hisobidan ilk zamonaviy tibbiy xizmat yo'lga qo'yila boshlandi.

Toshkentda tashkil etilgan sanoqli tibbiy muassasalar shahar hayotidagi ijobiy voqealik bo'lsa-da, ularning soni va xizmat ko'rsatish darajasi aholiniing ehtiyojlari uchun mutlaqo yetarli emas edi. Ularda bemorlarni qabul qilish uchun ajratilgan o'rinlar soni ko'pi bilan 15-20 ta, shart-sharoitlari esa, juda og'ir edi. Fuqarolar uchun tibbiy xizmat zamon talablari va darajasidan juda orqada bo'lib, yil sayin ko'payib borgan aholi ehtiyojlari uchun mutlaqo yetarli emas edi.

1881 yilda shaharning yangi qismida 1 ta vrach va 2 ta feldsher xizmat qilgan bo'lsa, 1893 yilda 8 ta vrach, 4 ta ayollar shifokori, 5 ta feldsher, 7 doya faoliyat yuritir edi¹.

¹ Обзор Сыр.-Дарьинской области за 1893 г. Ташкент, 1897. С.121.

² Обзор (Сыр.-Дарьинской области за 1908 г. Ташкент, 1909. С.63.

³ Ушаев. 1-бст.

⁴ Eugene Schuyler Turkestan. Notes of a Journey in Russian Turkestan Khokand, Bukhara and Kuldja 1. P.173-174.

XX asr boshiga kelib ularning soni ancha ko'paydi. Xususan, 1908 yilga kelib Toshkentda 26 ta shifokor (20 tasi erkak va 6 tasi ayol), 28 ta feldsher (26 tasi erkak va 2 tasi ayol), 9 ta doya, 12 ta tish va 5 ta kuz shifokorlari, 21 ta dorishunoslar faoliyat yuritardi². Jami 100 kishini tashkil qilgan tibbiy xodimlar bu davrga kelib, 189 748 kishiga yetgan³. Toshkent aholisi uchun mutlaqo yetarli emas edi.

Shifokor va feldsherlarning aksariyati xususiy kasalxona va ambulatoriyalarda faoliyat yuritganlar. Aholiga tibbiy xizmat pullik bo'lib, to'lov haqi nisbatan arzonligidan harajatlar doimo qoplanmas, shahar Dumasi ajratgan mablag'lar yetishmas edi. Shunga qaramay, zamonaviy tibbiy muassasalarga murojaat qiluvchilar soni yil sayin ortib borgan.

Shaharda tibbiy xizmatni tashkil etish va yo'lga qo'yishda vrachlar jamiyati, xususiy shifokorlar tashabbusi, hayriya va muruvvat tashkilotlari (Qizil xoch jamiyati) katta rol o'ynadilar. Biroq, o'lka ma'muriyatining e'tiborsizligi tufayli tibbiy muassasalar faoliyati keng quloch yoymadi, aksincha, aholining katta qismi zamonaviy tibbiy xizmatdan foydalana olmay, mahalliy tabiblarga murojaat etishda davom etdi.

An'anaviy savdo va hunarmandchilik markazlari joylashgan eski shaharlarda bozorlar shaharning eng gavjum joylari bo'lgan. Bozorlarning eng yiriklari **Eski Jo'va, Chorsu, Registon va Kappon** bozorlari edi. Eski shahar markazida joylashgan Registon bozori shaharning barcha darvozalari bilan ko'chalar orqali bog'langan bo'lib, ichki va tashqi savdoning o'zaro aloqadorligini ta'minlashga xizmat qilgan. Bozor darvozasi oldida karvonsaroy bo'lib u yerda chetdan kelgan savdogarlar, ularning mollari uchun omborxonalar joylashgan⁴.

Shaharda Chorsu bozoridan tashqari Yakka bozor, uning janubida esa, Qashqar va O'rda bozorlari bo'lgan. Yakka bozor 3 qismdan ot bozor, mol bozor, qaymoq bozordan iborat bo'lgan. Bozorlar ikki yoqlama savdo rastalari, do'konlar joylashgan ko'chalardan iborat edi.

Shaharga tashrif buyurgan sayyohlarning qayd etishicha, an'anaga ko'ra Toshkentdagi savdogarlar 32 ta kasabaga uyushgan, ishlab chiqarish tarmoqlari ham 32 turga bo'lingan. Masalan, poyabzalchilar, ipak to'quvchilar va boshqalar. Toshkent (bozorida shu 32 turdagi sanoat va savdoning hammasini ko'rish mumkin edi. Bozordagi har bir rasta ayni bir tarmoqqa ixtisoslashgan. Bir ko'chada ipakchilar do'koni, keyingisida zargar mahalla, boshqasida misgarlar joylashgan.

Ayni paytda ma'lum tarmoq ishlab chiqaruvchilarining o'zi ham bir mahsulot yoki buyumni ishlab chiqarishni bir necha bosqichga bo'lib, ixtisoslashganlar. Masalan, ko'zachilar rastasida bir ustaxonada ko'zaning tagi ishlansa, keyingisida bandi tayorlangan, undan keyingisida qopqog'i tayorlangan, yana boshqasida ustiga naqsh va gul o'yib, tushirilgan, keyingisida esa ko'zalar sotilgan.

Savdo rastalarining har biri o'z oqsoqoliga ega edi. Oqsoqol tartibni, ozodalikni, soliq to'plashni nazorat qilib turgan¹. Toshkent shahri mintaqadagi qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalari katta o'rin tutgan. Xususan, Toshkent orqali Buxoro amirligi va Xiva xonligi, Xitoy, Afg'oniston, Xindiston va Rossiya bilan qizg'in savdo-sotiq olib borilgan. Shaharning Samarqand darvozasi janubi-g'arbida

¹ Зияев Х. Ташкент. Часть II. С. 5.

atrofdan kelgan mollarni tekshiradigan katta boj punkti bor edi. Janubdan kelgan mollar shu yerda ko'rikdan o'tgan. Sog'bon va Qorasaroy ko'chalari orqali shahar bozoriga o'tgan karvonlar Qoraqamishda boj nazoratidan o'tgan.

Shaharning savdo aylanmasi o'lka bo'ylab eng yuqori ko'rsatkichlarga ega edi. Eksport miqdori 25 000 000 rubl, import miqdori 15 000 000 rublni tashkil etgan.

Istilo arafasida Toshkent shahrida 4500 dan ortiq savdo do'konlari bor edi. 1868 yilda aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, shahardagi eng katta bozorning o'zida 3 400 ga yaqin savdo do'konlari bo'lib, ularning 400 ga yaqini bo'shab qolgan edi.

1870 yillarda shaharda 29 ta karvonsaroy faoliyat yuritgan. 1913 yilga kelib esa shaharda 4 500 ta savdo do'konlari va yoymalar faoliyat yuritardi.

Toshkent shahrida **hunarmandchilik** asrlar davomida rivojlanib, mahalliy xomashyo asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar ichki ehtiyojlarni qondirish bilan birga qo'shni hududlarda yashovchi aholi, xususan, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi uchun ham juda haridorgir bo'lgan. Shaharning har bir dahasida ishlab chiqarishning ma'lum turlari markazlashgan edi. Masalan. Beshyog'ochda g'isht quyish ustaxonalari, Shayxontohurda degrezlik, Sebzorda etikdo'zlik ustaxonalari ko'p edi.

1870 yillar boshida shaharda 775 ta to'quvchilik ustaxonalari, 95 ta gazlamaga gul bosib, bo'yash ustaxonalari faoliyat yuritardi. Shaharning birgina Shayhontoxur qismining uchida 567 ta to'qimachilik ustaxonasi bor edi. Hunarmandlar bo'z, olacha, qalama, bosma, beqasam kabi matolar tayyorlashgan. Kosiblar ko'proq astarbop matolar tayyorlaganlar. Hunarmandlar tayyorlagan matolar to'n va ko'rpalar tikishda mahalliy talablarga juda mos bo'lib, rus sanoati mahsulotlaridan arzonligi, qalin bo'lsa-da, ancha ixcham yigirilgan ipdan to'qilganligi bois issiqni yaxshi saqlaganligi bilan ajralib turgan. Toshkent to'quvchilarining ishlab chiqarish aylanmasi yiliga 1 248 000 bo'lak yoki 8 736 000 arshinga yetgan. Astarbop matolarga qishloqlarda, shuningdek, Yettisuv viloyatida talab katta bo'lgan.

XX asr boshiga kelib to'quvchilik bir oz ahamiyatini yo'qotsa-da, ularning mahsulotlar arzon va pishiqligi mahalliy ehtiyojlarni qondirganligi bois rus tadqiqotchilari ularni Yevropa bozorlarida sotish mumkinligi, buning uchun sohani rivojlantirish, to'quvchilarga texnik yordam va mablag' berilishi zarurligini qayd etganlar¹. Shaharda ko'pchilik va etikdo'zlik keng rivojlangan xunarlardan edi. 1871 yilda birgina Ko'kcha dahasida 341 ta ko'pchilik va 218 ta etikdo'zlik ustaxonalari faoliyat yuritgan². Ayni paytda Toshkent xunarmandlari mis va sopol ishlab chiqarishda yuqori maxorat sohibi, ishlov berishda ishbilarmon va iste'dodli bo'lishgan. Kosiblar ipak, paxta matolar, jez, mis va sopol ishlab chiqarishda moxir bo'lganlar. Zargarlik taqinchoqlari o'zining nafisligi bilan ajralib turardi. Ushbu zargarlik buyumlari o'zining mahalliy sharoitidan kelib chiqib shu hududga xoslikni o'zida aks ettirgan³.

XX asr boshiga kelib, aniqrog'i, 1911 yilda 3 764 ta kosibchilik ustaxonasida 9 120 kosib faoliyat yuritardi⁴. O'rganilayotgan davrda hunarmandlar qishloq

¹ Обзор Сыр-Дарьинской области за 1911 год. Ташкент, 1913. С. 132

² Обзор Сыр-Дарьинской области за 1911 год. Ташкент, 1913. С. 132

³ Обзор Сыр-Дарьинской области за 1911 год. Ташкент, 1913. С. 132.

⁴ Обзор Сыр-Дарьинской области за 1911 год. Ташкент, 1913. С. 132.

xo'jaligi bilan aloqani butunlay uzmagani edilar. 1872 yilga oid Toshkent shahri boshqaruvining hisobiga ko'ra, Shayxontohur daxasidagi 117 ta hunarmanddan 42 tasining 2 tanobgacha yeri bo'lgan.

XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib o'zining yollanma ishchilariga ega bo'lgan ustaxonalar paydo bo'ldi. Hunarmandlarni bitta mutaxassislikka birlashtiradigan sex birlashmalari vujudga keldi. Sex boshida bosh usta turib, sanoat texnikasini nazorat qilgan va bozorga rasta oqsoqoli sifatida borib, mahsulot sotilishi bilan bog'liq masalalarni hal qilgan. Xunarmandlarning har bir harakati qat'iy belgilangan nizom bilan nazorat qilingan, intizom buzilgan hollarda aybdorlar qattiq jazolangan.

Toshkent shaxrining Turkiston o'lkasi ma'muriy-siyosiy markaziga aylanishi rus sarmoyadorlarining shahardagi iqtisodiy salohiyat va arzon ishchi kuchidan unumli foydalanishlari uchun katta imkoniyat tug'dirdi. Bu davrda Rossiya imperiyasi markaziy shaharlarida sanoat ishlab chiqarishining rivojlanganligi sababli tajribaga ega bo'lgan sarmoyadorlar o'lka zabt etilishi bilan bu yerga suvdek oqib kela boshladilar. Ayniqsa, ma'muriyat tomonidan uyushtirilgan ko'rgazmalarda namoyish etilgan xomashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bunga katta ta'sir o'tkazdi.

Natijada, XIX asrning 60 yillar oxiri - 70 yillar davomida o'lkada xom ashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat usulida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga kirishgan rus sanoatchilari yil sayin ko'payib bordi. Bunga qadar nisbatan juda sodda va xonaki usuldagi mayda ishlab chiqarishga asoslangan mahalliy hunarlar va kosibchilik zamon talablaridan texnika jihatidan ortda qolgan, mehnat unumdorligi ham ancha past edi.

Sanoat korxonalari asosan paxta tozalovchi zavodlar, to'quv fabrikalari, ipak yigiruv fabrikalari, charm zavodlari, ipak zavodi, g'isht zavodi, cho'yan quyish zavodi, tamaki ishlab chiqarish fabrikalaridan iborat edi.

Shuningdek, shaharda oziq-ovqat sanoati, ya'ni qandolatchilik, aroq, vino, pivo, ma'danli suv, sharbat ishlab siqaruvchi korxonalar ham paydo bo'ldi.

Ularning soni yil sayin ortib, ishlab chiqarish kengayib bordi. Chunki shaharda ishchi kuchi nixoyatda arzon, salohiyat esa yetarli edi. Shu sababli korxona yegallari ishlab chiqarishdan katta daromad ko'r'dilar.

Sanoat korxonalari asosan xom ashyoni qayta ishlashga moslashgan bo'lib, o'lka ma'muriyati bu yerda to'qimachilik sanoatini yoki boshqa ishlab chiqarish turlarini yo'lga qo'yishdan manfaatdor emas edi. Chunki o'lka bozorlarida faqatgina metropoliya sanoat mahsulotlari sotilishi lozim bo'lib, ularga mahalliy raqobat kerak emas edi.

Toshkentning yangi qismida sanoat korxonalaridan tashqari turli 30 ga yaqin kasb-hunar egalari yakka tartibda faoliyat yuritgan. Bular asosan soatsozlar, etikdo'zlar, novvoylar, duradgor, chilangar, aravosoz, bo'yoqchi, oynasoz, muqovasoz, kulollar kabi turmushda zarur kasb egalari bo'lib, bu soha vakillari 1886 yilda 677 kishini tashkil etgan.

XIX asr oxiriga kelib shaharda g'isht, aroq, pivo, vino, tamaki, konfet, mineral suv, ichak, gugurt, teri va paxta tozalash zavodi kabi jami 75 ta yangi, mayda korxonalar ishga tushgan bo'lib, ularda 614 ta ishchi faoliyat yuritgan.

XX asr boshiga kelib, Toshkentning yangi qismida sanoat korxonalarining turlari ko'payib, ishlab chiqarish kengayib bordi. Ayniqsa temir yo'llarning qurilishi bunga katta turtki bo'ldi. Toshkentning boy vohada joylashganligi, tabiiy boyliklari, iqtisodiy salohiyati tufayli sanoat taraqqiyoti uchun imkoniyatlar katta edi. Ayniqsa, rus sarmoyadorlariga yaratilayotgan imkoniyatlar, savdo firmalari, bank-kredit tizimi, transport xizmatlari, kommunikatsiya va boshqa infratuzilmalarning rivojlanishi, arzon ishchi kuchining mavjudligi, mahsulotlar haridorligi, eng muhimi - ishlab chiqarishdan kelayotgan katta daromad metropoliyadan kelayotgan ishbilarmonlar ishtaxasini tobora oshirar edi.

Shu omillar ta'sirida XIX asr oxiri - XX asr boshiga kelib Toshkentda sement, yog'ochni qayta ishlash, gugurt zavodi, sovun va sham ishlab chiqarish korxonalari, spirtni tozalash, bo'yoq ishlab chiqarish, ohak tayyorlash zavodlari, kiyim-kechak va poyafzal fabrikalari, oziq-ovqat sanoatida esa makaron, pishloq, kolbasa ishlab chiqarish, muz va konserva zavodlari, sholi oshlash korxonalari, suv va bug' tegirmonlari paydo bo'ldi. 1913 yilga kelib, Toshkentda 53 ta zavod va fabrikalar faoliyat yuritir edi¹.

Shulardan 10 tasi paxta tozalash zavodlari bo'lib, qolganlari pivo, mineral suv, ko'ncilik, tamaki, cho'yan quyuvchi korxonalar edi.

Sanoat korxonalarining egalari dastlab faqat rus sarmoyadorlaridan iborat edi. Lekin keyinchalik shaharning eski qismida ham mahalliy sarmoyadorlar bir qancha paxta tozalash zavodlari, g'isht zavodi va korxonalar tashkil etdilar. Ammo ularning soni juda kamchilikni tashkil etar edi.

Sanoat korxonalarining ko'payishi va kengayishi bilan ularda mehnat qiluvchi ishchilar soni ham ortib borgan. Ishchilar asosan ruslar va o'zbeklardan iborat bo'lsa-da, qozoq, dungan, tojik kabi boshqa millat vakillari ham bor edi. Shahardagi hunarmandchilik ustaxonalarida ham yollanma ishchilar bor edi.

1910 yilga kelib shaharda jami 6 mingga yaqin ishchi mehnat qilgan. Ularning yarmi yollanma ishchilar², qolganlari sanoat korxonalaridagi doimiy ishchilar edi. O'lkada sanoat korxonalarini tashkil etgan rus sarmoyadorlari qisqa fursatda katta daromad olib, katta boylik orttirdilar. Ular orasida L.D Ryadov, X. Jemchujinov, I.I.Pervushin, M.A.Xludov, I.I.Kuznetsov, A.YE.Gromov, D.N.Zaxo kabi ishbilarmon sanoatchilar alohida ajralib turar edilar³.

Shaharda sanoat korxonalari rivojida savdo-sanoat firmalarining roli katta bo'lgan. Nafaqat Toshkentda, balki o'lkaning boshqa shaharlarida ham faol va keng ish olib borgan "Aka- uka Shlosberglar shirkati", "Moskva savdo va sanoat jamiyati", "Aka-uka Kamenskiylar savdo uyi", "Katta Yaroslavl Manufakturasi", "Y. Davidov

¹ Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошида Тошкентнинг "янги шаҳар" қисми тарихи. Тошкент, 2004.

² Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошида Тошкентнинг "янги шаҳар" қисми тарихи. Тошкент, 2004.

³ Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошида Тошкентнинг "янги шаҳар" қисми тарихи. Тошкент, 2004.

savdo uyi", "Aka-uka Kraftlar shirkati", "Triugolnik shirkati" kabi o'nlab yirik savdo- sanoat kompaniyalari, transport kontoralari faoliyat yuritganlar.

Savdo firmalari rus va xorij sarmoyasiga yoki faqatgina rus banklari mablag'lari evaziga ishlagan. Paxta savdosida Rossiya va chet el sarmoyasi bilan bog'liq bo'lgan mahalliy firma va sherikchilik shirkatlari ham faol ishtirok etganlar. Mahalliy yahudiylarga tegishli "Aka-uka Yaushevlar" savdo uyi, "Aka-uka Vadyayevlar" savdo uyiga qarashli "Vadyayev savdo-sanoat shirkati" shular jumlasidan edi.

Savdo firmalarining aksariyati nafaqat paxta, balki bir paytning o'zida boshqa turdagi xom ashyo mahsulotlari savdosi bilan ham shug'ullanganlar.

Masalan, nemis baroni Lev Gerasimovich Knop (Rossiya fuqaroligini qabul qilgan) tomonidan asos solingan "L. Knop" savdo uyi nafaqat paxta, balki ko'roz ipi, shakar va turli asbob-uskunalar savdosi bilan ham shug'ullangan¹.

"Aka-uka Kraftlar" savdo uyi nafaqat paxta savdosi, balki ipakchilik mahsulotlari savdosi bilan xam shug'ullanganlar². Potelyaxov savdo-sanoat shirkati paxta xom ashyosi bilan bir qatorda chigit urug'i savdosi bilan shug'ullangan. **N.I.Ivanov, D.L.Filatov, I.I.Pervushin** kabi ishbilarmonlar aroq-vino ishlab chiqarish bo'yicha keng faoliyat yuritgan.

Sanoat ishlab chiqarishi taraqqiyotida bank tizimining shakllanishi katta o'rin tutgan. Metropoliya sarmoyadorlariga sahiylik bilan kredit beruvchi o'nlab banklar xam katta daromad ko'rganlar.

1875 yilda Toshkentda Rossiya Davlat banki bo'limining ochilishi kredit siyosatini amalga oshirishda muhim vosita bo'lgan. Uning Toshkentdagi bo'limi foizli kog'ozlar, qimmatbaho qog'ozlar, kredit siyosatini amalga oshirishda muhim vosita bo'lgan. Uning Toshkentdagi sarmoyadorlariga kredit beruvchi o'nlab banklar ham katta daromad ko'rganlar.

1881 yil Toshkentda amaliyot doirasi cheklangan, katta sarmoyaga ega bo'lmagan birinchi xususiy bank - O'rta Osiyo tijorat banki faoliyat ko'rsata boshlagan. 1909 yilga qadar uning asosiy sarmoyasi 500 ming rublni tashkil etgan³.

Turkistonda yirik aholi punktlarida o'z bo'limlari ochgan Sibir "Savdo banki"⁴ asosan chorvachilik mahsulotlariga etibor qaratgan. 1915 yilga kelib, Sibir Savdo banki "Turkiston savdo-sanoat shirkati"ning butun faoliyatini o'z ta'sir doirasiga tortgan.

Rus-Osiyo banki o'lkadan metropoliyaga qorako'l jo'natishda katta rol o'ynagan. Birinchi jahon urushi davrida o'lkada nemis va fransuz firmalari boshqa shifobaxsh o'simliklar sotib olish bilan shug'ullanganlar. Ayni paytda o'nlab firma, savdo uylari o'lkaga metropoliya sanoati mahsulotlarini olib kelish bilan shug'ullangan. Toshkent va boshqa shaharlarda Rossiyadagi yirik to'qimachilik fabrikalari o'z kontoralarini ochganlar⁵.

¹ ЎЗР МДА, И-1 жамгарма, 17- рўйхат, 884- йиғма жилд, 28, 29-варақлар.

² ЎЗР МДА, И-91 жамгарма, 1- рўйхат, 9- йиғма жилд, 399-варақ

³ Мексельман М.И. Российский монополистический и иностранный капитал Средней А. чип. Конец X IX - начало XX вв. Ташкент. 1987, С. 11.

⁴ ЎЗР МДА «1» МДЦ. И-117 жамгарма, 1- рўйхат. 1- йиғма жилд. 4-варақ.

⁵ Вексельман М.И. Қўрсатилган асар. 121-бет.

⁶ Вексельман М.И. Қўрсатилган асар. 121-бет.

Metropoliyadan manufaktura mahsulotlarini keltirishda katta rol o'ynagan firmalar, sindikatlar Toshkentda va boshqa yirik shaharlarda o'z omborlarini tashkil etganlar. Tikuv mashinalari bilan savdo qilgan "Zinger" nomli Rossiya-Amerika aksionerlik jamiyati (unga Buyuk Britaniya va Amerika fuqarolari egalik qilgan) Toshkent va Samarqandda o'z bo'limlari va ustaxonalarini tashkil etgan⁷. Rus va amerikalik sarmoyadorlarga tegishli "Treugolnik" firmasi Toshkentga va butun Turkistonga rezina maxsulotlari, kalishlar, shinalar olib kelgan.

O'lkadagi savdo munosabatlarida metropoliya vakillari sarmoyasi va manfaatlarining ustivorligi, mahalliy sarmoyadorlar imkoniyatining cheklanganligi olingan foydani chetga oqib ketishiga, mahalliy resurslar hamda ishchi kuchining beayov ishlatilishiga, mamlakat moddiy salohiyatining susayishiga olib kelgan. Chetdan kelgan va mahalliy savdogarlar hamda tadbirkorlar bu yerda oziq-ovqat va attorlik do'konlari, sanoat korxonalari, eng avvalo, vino va pivo zavodlari, makaron, tamaki va gugurt fabrikalari, yirik tegirmonlar, sovun ishlab chiqaradigan va g'isht zavodlarini ocha boshladilar. Qishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlash korxonalari vujudga keltirila boshladi, ularning mahsuloti metropoliyaga olib ketilardi. Bu asosan teri, paxta tozalash va yog'-moy zavodlari edi. Rossiya imperiyasi uchun ayniqsa, paxta tozalash korxonalari alohida ahamiyatga ega edi. 1880 yillarda sanoatchi Laxtin tomonidan Toshkentda birinchi paxta tozalash zavodi ochildi. Qisqa fursatda, ya'ni XIX asr oxiriga kelib Toshkentda 7 ta paxta zavodi ochildi. Paxtachilikning o'sishi bilan chigitni qayta ishlaydigan yog'-moy zavodlari ham vujudga keldi. Birinchi yirik yog'-moy zavodi 1884 yil paydo bo'lib, uning yillik mahsuloti 30 ming pudni tashkil etardi.

1885 yil shaharda 27 ta sanoat korxonasida 365 kishi mehnat qilgan, ular bir yilda 680,6 ming rubllik mahsulot tayyorlagan. Korxonalarning 25 tasi rus sarmoyadorlariga tegishli edi. 1893 yilga kelib shahardagi korxonalar soni 75 taga³, 1909 yilga kelib esa, 90 taga yetadi. 1893 yillarda ularda 615 ishchi ishlagan bo'lsa, 1909 yilga kelib 1.335 ishchi ishlab. 1840,9 ming rubllik mahsulot tayyorlangan. Chorak asr mobaynida, ya'ni 1885 yildan 1909 yilgacha Toshkentdagi sanoat korxonalarining soni 3,2 marotabaga, ishchilarning soni 3.5 marotabaga ishlab chiqargan mahsuloti esa, 2,7 marotabaga ortgan.

Tayanch so'zlar:

Stansiya, boshqarma, telegraf, duma, konka, hospital, sanitar, feldsher, qizil xoch, sog'bon, etikdo'zlik, kontora, ma'muriy apparat, deyatina, gektar, knyaz, posyolka, kadet korpusi, kridit, otaliq, karvonsaroy, darveshona, xonaqoh, daha, jome' masjidi, chervon, rubl, ssuda, moy shimdirilgan qog'oz, rohib, voskrisenskiy, vokzal, gimnaziya.

Test topshiriqlar:

1. Toshkent shahrida XX asr boshlarida nechta daha mavjud edi?

A. Toshkent shahrida XX asr boshlarida 4 ta daha mavjud edi

⁷ Обзор Сыр-Дарьинской области за 1909. Ташкент, 1911. С. 128.

³ Обзор Сыр-Дарьинской области за 1909. Ташкент, 1911. С. 119.

- V. Toshkent shahrida XX asr boshlarida 5 ta daha mavjud edi
- S. Toshkent shahrida XX asr boshlarida 3 ta daha mavjud edi
- D. Toshkent shahrida XX asr boshlarida 6 ta daha mavjud edi

2. XX asr boshlarida Shayxontahur daxasida nechta masjid faoliyat yuritgan?

- A. XX asr boshlarida Shayxontahur daxasida 96 ta masjid faoliyat yuritgan
- V. XX asr boshlarida Shayxontahur daxasida 97 ta masjid faoliyat yuritgan
- S. XX asr boshlarida Shayxontahur daxasida 95 ta masjid faoliyat yuritgan
- D. XX asr boshlarida Shayxontahur daxasida 92 ta masjid faoliyat yuritgan

3. XX asr boshlarida Toshkent shahri bozorida 6 ta hammom faoliyat yuritgan. Quyidan bu hammomlarning kimlarga tegishli ekanligi to'g'risidagi to'g'ri javobni belgilang.

- A. Muhammad Karim Xalfa, Normuhammad Qo'shbegi, Muhammad Saidboy, Bo'rixo'ja, Yusufbeklarga tegishli bo'lgan
- V. Ali dasturxonchi, Shermamat qo'shbegi, Shayx Xovand Toxur, Karim Xalfalarga tegishli bo'lgan
- S. Muhammad Saidboy, Ali dasturxonchi, Shermamat qo'shbegiga tegishli bo'lgan
- D. Yusufbek, Muhammad Saidboy, Ali dasturxonchi, Shermamat qo'shbegiga tegishli bo'lgan

4. 1866 yili kim tomonidan Toshkent shahrining "yangi qismi" loyihasi ishlab chiqilgan?

- A. M.N. Kolesnikov tomonidan Toshkent shahrining "yangi qismi" loyihasi ishlab chiqilgan
- V. A.I. Dobromislov tomonidan Toshkent shahrining "yangi qismi" loyihasi ishlab chiqilgan
- S. N.G. Mallitskiy tomonidan Toshkent shahrining "yangi qismi" loyihasi ishlab chiqilgan
- D. A. Kun tomonidan Toshkent shahrining "yangi qismi" loyihasi ishlab chiqilgan

5. 1868-1869 yillarda nechchi mirng rublgacha ssuda ajratilgan va nechchi yil muddatga berilgan?

- A. 100 ming rublgacha ssuda ajratilgan va 10 yil muddatga berilgan
- V. 200 ming rublgacha ssuda ajratilgan va 15 yil muddatga berilgan
- S. 80 ming rublgacha ssuda ajratilgan va 7 yil muddatga berilgan
- D. 110 ming rublgacha ssuda ajratilgan va 9 yil muddatga berilgan

6. 1870 yillarda Toshkent shahrining yangi qismini qurish uchun necha gektar yer ajratish mo'ljallangan va qaysi shaharga o'xshatib qurish rejalashtirilgan?

- A. 180 gektar yer ajratish mo'ljallangan va "Peterburgga o'xshagan" kichkinagina shaxarcha qurish rejalashtirilgan
- V. 200 gektar yer ajratish mo'ljallangan "Peterburgga o'xshagan" kichkinagina shaxarcha qurish rejalashtirilgan

S.190 gektar yer ajratish mo'ljallangan va "Peterburgga o'xshagan" kichkinagina shaxarcha qurish rejalashtirilgan

D.175 gektar yer ajratish mo'ljallangan va "Peterburgga o'xshagan" kichkinagina shaxarcha qurish rejalashtirilgan

7.1888 yilari atrofida Toshkent shahri jamoatchilik maydonidan Sharqqa qaratib 2 ta asosiy ko'cha qurilgan. Bu ko'chalar qanday nomlangan?

A. "Moskva" va "Peterburg" deb nom berilgan

V. "Moskva" va "Sibir" deb nom berilgan

S. "Peterburg" va "Sibir" deb nom berilgan

D. "Chorsu" va "Soveskaya" deb nom berilgan

8.Toshkent shahrining Yangi qismida ma'muriy idoralar qad ko'targan. Quyidan to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

A.Davlat banki, ayollar gimnaziyasi, Toshkent erkaklar gimnaziyasi, Kadetlar korpusi, Knyaz Nikolay Konstantinovich saroyi, Real bilim yurti, Kaplan dorixonasi, Toshkent vokzali

V.Chorsu mehmonxonasi, Chorsu karvonsaroyi, Knyaz Nikolay Konstantinovich saroyi, Real bilim yurti, Kaplan dorixonasi, Toshkent vokzali

S.Xadra sayyor kinoteatri, Eski jo'va bozori, Real bilim yurti, Kaplan dorixonasi

D.Samarqand darvoza timi, Abdullaxon toqi, Davlat banki, ayollar gimnaziyasi, Toshkent erkaklar gimnaziyasi

9.Markazdagi uylar qanday usulda barpo etilgan?

A.Yevropacha usulda barpo etilgan

V.Mahalliy usulda barpo etilgan

S.Shunchaki oddiy qurilgan

D.Sharqona usulda barpo etilgan

10.O'lka ma'muriyati shahar qurilishida asosiy e'tiborni nimaga qaratganlar?

A.Ma'muriy binolar, kazarmalar, gimnaziyalar, bank va moliya idoralari, teatr binolari qurishga qaratganlar

V.Katta-kichik bozorlar, kazarmalar, gimnaziyalar qurishga qaratganlar

S.Oynavand turar joylar bank va moliya idoralari, teatr binolari qurishga qaratganlar

D.Yo'llar, karvonsaroilar, bank va moliya idoralari, teatr binolari qurishga qaratganlar

11-Mavzu: O'rta Osiyo shaharlaridagi boshqaruv tizimi: an'anaviylik va o'ziga xoslik jihatlari

Reja:

1. O'rta Osiyo shaharlarida an'anaviy, madaniy muassasalar.
2. Rus madaniy-ma'rifiy markazlarining paydo bo'lishi.
3. Shahar madaniyatidagi yangiliklar va ziddiyatli holatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зиёев Д. Ўзбекистон шаҳарлари. (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlari). Toshkent. 2017. 626.
2. Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19. Туркестанский край. СПб., 1913. С.614.
3. Герентьев М.А. Статистические очерки Среднеазиатской России. Записки Русского Географического общества. Отдел статистики. Т.4. СПб., 1874. С.51.
4. Исмоилова Ж. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshida Toshkentning "yangi shahar" kismi tarixi. Toshkent, 2004.
5. Вексельман М.И. Российский монополистический и иностранный капитал Средней Азии. Конец XIX-начало XX вв. Ташкент. 1987, С. 11.

O'zbekiston shaharlari mintaqada asrlar davomida ilm-fan va madaniyat markazi bo'lib keldi. Shaharlarda an'anaviy madaniy hayotning barcha asosiy yunalishlari - **ta'lim, san'at, adabiyot, ilm-fan** kabi yo'nalishlari davr bilan hamohang ravishda rivojlanib kelgan. Mamlakat tarixida chuqur iz qoldirgan tarixiy taraqqiyot bosqichlarida, masalan, Temur va temuriylar davrida gurkirab rivojlangan madaniy hayot an'analari so'nggi asrlarda ham davom etib, sayqal topdi. O'rganilayotgan davrga kelib esa, mamlakat hayotida sodir bo'lgan siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlar ta'sirida madaniy hayotda ham, qadim an'analari saqlangan holda, ayrim o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Bu o'zgarishlarni madaniy markazlar bo'lgan shaharlarda yaqqol kuzatish mumkin edi. Shaharlarda madaniy hayotning barcha yunalishlarida tarixiy an'analari saqlangan xolda, ma'lum darajada yangiliklar kirib keldi. Xususan, an'anaviy talim tizimi bu davrda ham - maktablar: boshlang'ich talim hamda madrasalar: o'rta va oliy ta'limdan iborat bo'lib o'larning asosiy qismi shaharlarda joylashgan edi.

Maktablar faoliyati arab alifbosida savod chiqarish, hisob-kitobni ya'ni boshlang'ich arifmetikani o'zlashtirish, axloq-odob qoidalari hamda islom dini asoslarini o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lib, asosai ilmiy, o'ziga to'q shaxslar tomonidan: hususiy maktab yoki bir manzilda yashagan mahalla jamoasi tomonidan: umumiy maktab tashkil etilgan¹.

Deyarli har bir masjid, madrasa qoshida, har bir mahalla, ovul va qishloqda boshlang'ich maktablar mavjud edi. Qishloq maktablarida o'quvchilar soni o'rtacha 10-20 nafar shaharlarda esa 50-60 nafarga yetar edi. Maktablar o'g'il va qizlar uchun alohida tashkil etilgan.

¹ "Туркестанские ведомости". 1898. № 32.

O'g'il bolalar uchun maktablar masjidlar, madrasalar, korxonalar qoshida, qizlar maktabi esa xususiy xonadonlarda, o'qimishli ayollar - **otinbibi, otinoyi** tomonidan tashkil etilgan¹.

Boshlang'ich maktablarning katta qismi shaharlarda joylashgan edi. Kichik shaharchalarda kamida 10-15 ta, yirik shaharlarda esa yuzlab maktablar faoliyat yuritgan. Masalan, XIX asrning 60-yillarida birgina Toshkent shahrida 118 ta boshlang'ich maktab bo'lib, ularda 12.000 o'quvchi ta'lim olgan, shulardan 8.000 nafari o'g'il bola, 4.000 nafari qizlar edi.

1876 yilda Qo'qon xonligi tugatilish arafasida Farg'ona vodiysidagi **Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan** shaharlarida hamda **O'zgan va Baliqchi** kabi kichik shaharchalarida jami 390 ta maktab bor edi².

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr 80-yillarida Turkiston o'lkasining Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida 5 mingdan kam bo'lmagan musulmon maktablari faoliyat yuritgan bo'lib, ularda 46 ming atrofida o'quvchilar tahsil olgan.

XX asr boshiga kelib esa, Turkistonda 7.047 ta³, Xiva xonligida 1.500 ta⁴, Buxoro amirligidagi birgina Buxoro shahariga o'zida esa 350 ta⁵ boshlang'ich maktab faoliyat yuritgan.

Maktablar davlat tomonidan mablag'lashtirilmagan, ular xususiy maktabdor va jamoa ahli tomonidan tashkil etilgan. Xususiy maktablar ularda ta'lim oluvchi o'quvchilarning ota-onalarining moddiy yordami, masjid va madrasalar qoshidagi maktablar esa, vaqf mulklari daromadi hisobidan ta'minlangan.

Boshlang'ich maktabda 5 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar eng avvalo arab imlosida o'qish va yozishni o'zlashtirishganlar. O'quv dasturi Xiva va Buxoro xonliklari, Turkiston general-gubernatorligi hududidagi barcha maktablar uchun umumiy bo'lgan. Uning asosini arab alifbosi va yozuvi, boshlang'ich arifmetikani o'zlashtirish, islom dini asoslarini o'zlashtirish, diniy ahloqiy tarbiya tashkil etgan. Shuningdek, maktabda o'quvchilar savodi chiqqach, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mashrab kabi mumtoz adabiyot vakillarining ijodini o'rganish asosida badiiy adabiyot bilan tanishgan, ulardan namunalar yod olganlar.

Maktablardagi shart-sharoit bu davrga kelib zamon talablaridan ancha ortda qolgan edi. Shunday maktablarda tahsil olgan Sadriddin Ayniy qayd etganidek, maktab xonalari tor, zax, yaxshi yoritilmagan va isitilmagan bo'lib, o'quvchi uchun qulaylik yaratilmagan, ular yerda, bo'yra ustida chordana qurib o'tirishgan. O'qish jarayonida o'quvchining yoshi, iqtidoriga alohida e'tibor qaratilmagan¹. O'quv dasturi va qo'llanmalar asrlar davomida takomillashtirilmaganligi uni o'zlashtirish muddati qat'iy belgilanmaganligi, bilim darajasi nazorat qilinmaganligi, dunyoviy

¹ Грамелицкий С. Положение инородческого образования в Сырь-Дарьинской области. Ташкент, 1916. С. 26-27; Фитрат А. Хиндистонда бир фираши ила бухоролик мударриснинг жадид мактаблари хуусида килган мунозараси // Танланган асарлар. Тошкент, 2000. 1-жилд. 255б.

² Кун А.Л. Очерк Коканского ханства. (Отдельный оттиск из известий Императорского Русского Географического общества. Т XII). СПб., 1876.

³ ЁЗР МДА, И-1 жамгарма. 27-руйхат, 1207-йигма жилд, 1-13-варақлар.

⁴ Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. Тошкент. 1912. С.68.

⁵ "Ойина". 1914. № 38.

¹ Фитрат А. Мунозара // Шарк Юлдузи. 1997. №1. 149б.

bilimlarga e'tiborsizlik va shart-sharoitlar o'rtasidagi darajasida saqlanganligi eng katta muammolardan edi².

Boshlang'ich maktabda ta'lim usuli va darajasi zamon talablaridan ortda qolganligini o'sha davrning ilg'or fikrli kishilari o'z vaqtida anglab yetganlar. Maktablarda ta'lim usuli va dasturi, shart-sharoit va moddiy ta'minot masalalarini takomillashtirish va isloh qilish masalasi XX asr boshida ijtimoiy-ma'naviy xayotning eng dolzarb muammosiga aylangan edi. Zero, bu davrga kelib Yevropada jadal kechayotgan ijtimoiy-madaniy taraqqiyot musulmon olamida ham o'z aks-sadosini bera boshlagan edi.

1884 yilda Qrimda Bog'chasaroyda I. Gaspirinskiy tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktabi tez orada shuhrat qozondi. Bu maktabda tovush usuli, ya'ni harflarni sadosi bilan o'rganish "usuli savtiya" orqali qisqa fursatda, tez va oson savod chiqarish ijobiy natija berdi. Bu maktablarda mashg'ulotlarni o'quv jadvali asosida, parta va boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlangan yorug' xonalarda olib borish yo'lga qo'yildi. "Hojai sibyon" deb atalgan yangi darslik yaratdi.

1892 yilda I. Gaspirinskiyning Turkiston general gubernatoriga maktub yo'llab, unda yangi maktablar eski maktablardan farq qilib, 6-7 yilda emas, 1,5-2 yilda savod chiqarishga imkon berishini bayon qilib, o'lkada shunday maktablar tashkil qilishda yordam so'raydi.

Ammo bu maktubdagi takliflar "mustamlakachilik manfaatlariga zid" deb topilib, e'tiborsiz qoldiriladi³. 1893 yilda Turkistonga tashrif buyurgan I. Gaspirinskiy bu yerdagi do'stlari bilan Samarqand va Buxoro shaharlarida ilk yangi usul maktablarini tashkil etadi. Ijobiy natijalar bilan maxalliy aholi e'tiborini qozongan bunday maktablar "usuli jadid", ya'ni yangi usul maktablari deb nom oladi. Dastlab Turkistonda soni ko'payib borayotgan tatar oilalarining bolalari uchun tashkil etilgan bunday yangi maktablar tez orada mahalliy aholi bolalarini va ziyolilarining ham e'tiborini tortadi.

1893 yilda Qo'qonda va Samarqandda, keyinchalik esa Toshkent va Andijonda ilk yangi usul maktablari tashkil etiladi. XX asr boshiga kelib yangi usul maktablarini tashkil etish ta'lim tizimini isloh qilishning eng dolzarb muammosiga aylandi va bunday maktablar butun o'lka bo'ylab ko'paya boshladi.

Farg'ona vodiysi shaharlarida unlab yangi usul maktablari faoliyat olib borar edi. Andijondagi eng yirik yangi usul maktabida 100 dan ortiq o'quvchi ta'lim olar edi. Qo'qon shahrida undan ortiq yangi usul maktablari faoliyat yuritardi 1913 yilga kelib Farg'ona viloyatidagi bunday maktablar soni 20 taga yetadi. Samarqandda ochilgan yangi usul maktabi esa nafaqat 4 yillik boshlang'ich, balki yana 4 yillik o'rta ta'limga ham moslanitirilgan bo'lib, bu xol o'sha davr uchun muhim yangilik edi. Samarqandda yangi usul maktablarining rivojlanishida Abdulqodir Shakuriyning roli katta bo'lgan⁴.

Toshkent shahrida ham undan ortiq yangi usul maktablari tashkil etilgan. Birinchi maktab Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan Toshkentda 1901 yilda

² Фитрат А. Мунозара // Шарк Юлдузи. 1997. №1. 149б.

³ Косимов Б. Миллий уйғониш. Тошкент, 2002. 23б.

⁴ Косимов Б. Туркистонда жаъид мактаблари. Тошкент. 2006. 14.

ochiladi². Uning maktabida ta'lim jarayoni arab alifbosini usuli savtiya, ya'ni tovush usulida o'qib o'rganish, o'qish bilan bir qatorda yozishni ham o'zlashtirish, arifmetikaning to'rt amalini o'rganish, dunyoviy: tarix, geografiya, tabiatshunoslik fanlari va diniy ta'lim asoslari haqida dastlabki bilimlarni berish yo'lga qo'yilgan edi. Bu maktab tezda shuhrat qozonib, ommalasha bordi. Qisqa fursatda Toshkentda va Turkiston general-gubernatorligining turli viloyatlarida tashkil etilgan bunday maktablar soni 30 taga yetdi. Munavvarqori Abudrashidxonov, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulqodir Shakuriy tomonidan mazkur maktablar uchun yangi darsliklar yaratildi.

Yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy fanlarning o'qitilishi, islom dini asoslarining o'rgatilishi, ahloqiy tarbiyaga e'tibor, arab-fors tillari qatorida ona tiliga katta o'rin berilishi, tabiatshunoslik, geografik bilimlarning berilishi, o'quv dasturiga arifmetika amallari 100 gacha hisob hamda rus mualliflarining masalalar to'plamlarining kiritilganligi, globus, xarita, zamonaviy sinf jihozlarining partalar qo'yilganligi, eng muhimi o'quvchilarning ijobiy natijalari ularni nufuzini ko'tarib yubordi. 1917 yilga kelib o'lkada 100 ga yaqin yangi usul maktablari faoliyat yuritgan.

1912-1913 yillarga kelib **Buxoro, Karki, Shaxrisabz, G'ijduvon** shaharlarida ham yangi maktablar ochiladi. Xiva shahrida birinchi yangi usul maktabi 1904-yilda ochilgan². Mazkur maktabda o'quvchilar partalarda o'tirib, qiroat usulida o'qitilgan, ular yozishni a'lo darajada o'zlashtirganlar.

1905-1907 yillar davomida Xiva xonligi shaharlarida, xususan, Yangi Urganchda, Xivada, keyinchalik Qo'ng'iro't va Gurlanda ham yangi usul maktablari tashkil etildi. 1906-1907 o'quv yilida esa Xusayn Kushayev Urganchda qizlar maktabini tashkil etadi. Qizlar maktabi ochilishidan xursand bo'lgan xon Said Muhammad Rahimxon Urganchga borib, mazkur ta'lim - tarbiya ishlari bilan o'zi tanishadi va Xusayn Ko'shayevning boshlagan foydali tadbiri uchun uni qo'llab-quvvatlab, bosh-oyoq sarpo kiygizadi, hazina hisobidan maktabga yordam berib turishga qaror qiladi. Mazkur maktabda Xusayn Ko'shayevning turmush o'rtog'i Komila Ko'shayeva dars berar edi.

Xiva xonligida bosh vazir, taraqqiyparvar davlat arbobi Said Islomxo'ja tashabbusi bilan Xiva shahrida yangi usul maktabi ochilib, mazkur maktab uchun shaxar markazida kushkavatli, yevropacha usulda bino quriladi. 1912 yilga kelib To'rtko'l, Shovot, Xo'jaylida ham yangi usul maktablari ochiladi.

Tez orada Turkiston shaharlarida "yangi usul" maktablarining soni 100 dan ortib ketadi, ularda 10.343 nafar o'quvchi ta'lim olar edi. Yangi usul maktablarini milliy madaniyatni o'sishiga yordam berishidan cho'chib, ularni "xatarli" deb baholagan imperiya ma'muriyati bunday maktablar faoliyatini imkon qadar cheklash va nazoratni kuchaytirishga harakat qildi. Yangi usul maktablari hukumatni qattiq tashvishga soldi. O'lka ma'muriyati vakillari o'sha davr matbuotida yangi usul maktablarini tuliq ma'muriy nazoratostiga olish taklifini oshkora surar edilar. Xususan, N.P.Ostroumov jadid maktablari xalq orasida obru topib borayotganligidai tashvishlanib, "qo'qqisdan paydo bo'lgan bu maktablar mahalliy xalqning

² Хоразм тарихи. Урганч, 1997. 374б.

ehtiyotlarini to'liq qondirayotganligini, bu jarayonga befarq qarab bo'lmashligini¹ alohida ta'kidlab, yangi usul maktablarini yopib tashlash masalasini qo'yadi.

1911 yilda o'lka ma'muriyati tomonidan boshlang'ich maktablarda ta'lim berayotgan tatar muallimlarini ishdan bo'shatish bahonasida o'nlab yangi usul maktablarini yopib qo'yadi. O'lka ma'muriyati yangi usul maktablarining o'quv dasturi va darsliklarini nazoratga oladi, shu bahonada 1910-1911 o'quv yili davomida 50 dan ortiq yangi usul maktablari faoliyatiga chek qo'yiladi.

Ta'lim tizimining keyingi bosqichi -madrasalar bo'lib, ular o'rta va oliy ta'lim maskani hisoblangan. Madrasalar asosan shaharlarda joylashgan. Masalan, 1876 yilda Farg'ona vodiysidagi Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan shaharlarida hamda O'zgan va Baliqchi kabi kichik shaharchalarida jami 68 ta Madrasa bor edi, shundan 40 tasi Qo'qonda, 10 tasi Marg'ilonda, 6 tasi Andijonda, 5 tasi Namanganda joylashgan edi. 1890-1893 yillarda Turkiston o'lkasining Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida jami 214 ta madrasa bo'lib, ulardan 155 tasi shaharlarda va 59 tasi uezdlarda joylashgan¹. Masalan, Toshkent shahrida 22 ta, Samarqand shahrida 19 ta, Qo'qonda 37-39 ta, Namanganda 20 ta madrasa faoliyat yuritgan.

XX asr boshiga kelib esa, Turkiston general-gubernatorligida 336 ta Madrasa², Buxoro amirligida 350 ta Madrasa³, Xiva xonligida 130 ta nafakat mintakada, balki musulmon olamida xam juda mashhur bo'lib, ularda tahsil olish uchun Kavkaz, Qrim, Qozon, Sibir, Gulja, Arabiston, madrasa faoliyat yuritgan⁴. Buxoro, Toshkent, Samarqand madrasalari Eron, Afg'oniston, Hindiston, Qashg'ar kabi mamlakatlardan musulmon yoshlari tashrif buyurganlar⁵.

XIX asr o'rtalarida Buxoroda bo'lgan A.Xanikov ma'lumotlariga ko'ra, shahardagi madrasalarda o'qiydigan talabalarning umumiy soni 10 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa⁶, 1860 yillarda kelgan Arminiy Vamberining qayd etishicha, talabalar soni 5.000 nafargacha bo'lgan, ular orasida xorijdan kelgan talabalar ham bor edi. 1909 -yilda kayd etilishcha, Xiva xonligidagi Madrasa talabalarining soni 6.500 kishini tashkil qilgan¹.

Madrasalar katta-kichikligiga, moddiy ta'minoti, vaqf mulklaridan olinadigan daromadiga ko'ra uch toifaga: kichik, o'rta va yirik madrasalarga bo'lingan. Masalan, Buxoro shahrida 1914-yilda jami 200 ga yaqin madrasalar bo'lib, shulardan 33 tasi yirik, 39 tasi o'rta va qolganlari kichik madrasalar bo'lgan⁶.

Madrasalar o'qish bosqichlariga qarab "adno" boshlang'ich, "avsat" o'rta va "a'lo" yuqoriga ham bo'lingan. Har bir bosqich uchun odatda 3 yil va undan ko'proq vaqt sarflangan. Kelajakda **mudarris, qozi, muftiy, olim bo'lishni istagan o'quvchilargina** uchchala bosqichni to'liq tugallagan.

O'rta Osiyo madrasalarining o'quv dasturlari asosan o'rta asrlarda shakllangan edi. O'qish jarayonida to'liq o'quv kursini tamomlash uchun talaba ko'plab darslik,

¹ Исмаилов Ш.Ш. Народное образование в Узбекистане в конце XIX – начале XX века. Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1981. С. 15.

² ЎзР МДА, И-1-жамгарма, 27-рўйхат, 1207-йифма жилд, 1-13-варақлар.

³ ЎзР МДА, И-461-жамгарма, 1-рўйхат, 1720-йифма жилд, 76-варақ

⁴ Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. Ташкент. 1912. С.68.

⁵ Пославский П. Бухара. // Военный сборник. Ташкент. 1891. № 12.

⁶ Ханыков А. Описание Бухарского ханства. Ташкент. 1848. СПб. С. 88.

¹ Пославский П. Бухара. // Военный сборник. Ташкент. 1891. № 12.

qo'llanma va sharhlar to'plamlarini yillar davomida o'qib, o'zlashtirishi lozim edi. O'sha davr zamondoshlari Abdurauf Fitrat va Sadriddin Ayniying qayd etishlaricha, Buxoro madrasalarida Amir Muzaffar hukmronligi davriga kelib, o'quv jarayonida sharh va hoshiyalarga ko'p e'tibor qaratilganligi sababli asosiy fanlar, xususan Qur'on tafsiri va Hadis ilmiga e'tibor susaygan.

Ta'lim tizimida o'quv soatlarining katta qismini diniy adabiyotlar va ularga hoshiyalar, sharhlar egallagani holda dunyoviy fanlarga e'tibor berilmay, arab tiliga katta o'rin ajratilgani xolda, ona tili grammatikasi umuman o'rgatilmagan, asosiy fanlar arab va fors tillarida, lug'at orqali o'zlashtirilishi eng katta muammolardan biri edi.

Madrasalar o'sha davrda nafaqat ta'lim maskani, balki shaharlardagi ilm o'rganish mumkin bo'lgan yagona maskan edi. Deyarli har bir madrasa o'z kutubxonasiga ega edi.

Madrasalar nafaqat ta'lim va ilm maskani, balki diniy ulamolar, olim va shoirlar to'planib, muloqotga kirishadigan o'ziga xos adabiy-madaniy markaz ham edi. Madrasalarda o'sha davr qalam ahli uchrashib, mushoiralar ham o'tkazib turganlar. Masalan, Toshkent shahridagi "Ko'kaldosh", "Beklarbegi", "Baroqxon", "Hoja Axror" madrasalarida shunday holatni kuzatish mumkin edi.

"Ko'kaldosh" madrasasida ijod ahli va she'riyat muhlislari hamisha gavjum edi. O'lkadagi ijod axlining o'zaro muloqot maskani bo'lgan bu madrasada 1890 yilda Furqat, 1899 yilda Muqimiy kabi shoirlar ma'lum muddat yashab, shahardagi qalam ahli bilan ijodiy muloqotda bo'lganlar. Eski Jo'vadagi ikki qavatli "Beklarbegi" madrasasida esa muntazam ravishda mushoira va musohabalar o'tkazib turilgan.

Masjidlar musulmon jamiyatining diniy ibodat uyi bo'lish bilan birga, ahli jamoa hayotiga oid muhim masalalar muhokama qilinadigan, namozdan so'ng kundalik turmush bilan bog'liq yangiliklar e'lon qilinadigan muloqot markazi ham edi. Shuningdek, masjidlar bir hududda yashaydigan jamoani birlashtirib turuvchi, turli ijtimoiy masalalarni hal etish uchun maslahatlashuvchi o'ziga xos jamoatchilik markazi ham edi.

Deyarli har bir katta mahalla yoki bir necha mahalla, yoki guzarlar o'z masjidiga ega edi. O'troq o'zbeklar istiqomat qiluvchi tumanlarda har 50 ta xonadonga, Xorazm va Angren vohasida esa, har bir 60-70 xonadonga bittadan masjid to'g'ri kelgan¹. Shaharlarda yirik jome' masjidlari faoliyat yuritgan.

Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, Turkiston o'lkasi, Buxoro va Xiva xonliklaridagi masjidlar soni aholii soniga monand ravishda ko'payib borgan. 1876 yilda Qo'qon xonligi tugatilish arafasida Farg'ona vodiysidagi Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan shaharlarida hamda O'zgan va Baliqchi kabi kichik shaharchalarda jami 1.070 ta masjid bor edi².

Masjidlarning ta'minoti xususiy mablag' yoki mulk asosida masjid va madrasalarga berilgan vaqf mulklari hisobidan amalga oshirilgan.

¹ ЎзР МДА, Р-2282 жамгарма. 1-руйхат, 73-йигма жилиц. 59-варақ.

² Куш А.Л. Очерк Коканского ханства (Отдельный оттыск из известий Императорского Русского Географического общества. Т XII). СПб., 1876.

Buxoro va Xiva xonliklarida madaniy hayotda saroy muhiti ham katta rol o'ynagan. Xukumdor saroyida san'atkorlar guruhi faoliyat yuritgan.

Shaharlarda an'anaviy musiqa san'ati asrlar davomida rivojlanib, avloddan avlodga ijrochilar orqali o'tib kelgan. Ko'lami, ijro yo'llari, shakllari, murakkabligiga qarab an'anaviy musiqa san'ati professional musiqa asarlari: maqom, katta ashula, dostonchilik va xalq kuylariga: lapar, yalla, qo'shiq,, ashula bo'lingan.

Professional musiqa asarlari yakkaxon tartibda yoki bir necha san'atkorlar va sozandalar jo'rligida, mumtoz adabiyot namunalari asosida yuksak mahoratli hofizlar tomonidan ijro etilgan.

Mamlakatning turli shaharlarida professional musiqa san'ati maktablari va markazlari shakllanib, mashhur hofizlar yetishib chiqqan, ular san'at ixlosmandlaridan shogirdlar yetishtirib, yillar davomida kuylash va soz chalishni o'rshitib borganlar³.

An'anaviy musiqa san'atida maqomchilik muhim va asosiy o'rinni egallagan⁴. "Shashmaqom" O'rta Osiyoning barcha yirik shaharlarida mashhur bo'lib sozanda, hofizlar tomonidan maroq bilan kuylanar edi⁵.

XIX asr davomida an'anaviy musiqa san'atining maqomchilik yo'nalishi Buxoro-Samarqand, Toshkent-Farg'ona hamda Xorazmda keng rivoj topib, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib bordi. Xususan, Buxoro va Samarqandda "Shashmaqom" maqomlari, Toshkent va Farg'onada katta ashula va o'ziga xos maqom turkumlari, Xiva va Urganchda Xorazm maqomlari va suvorarlari keng yoyilgan.

Buxoro va Xiva shaharlarida mamlakat hukmdorlari yetuk san'atkorlarni saroyga to'plab, ularga alohida e'tibor qaratganlar. Masalan, Buxoro amirligi saroyida "Shashmaqom"ni yaxshi o'zlashtirgan yetuk xofizlar – Ota G'iyosiddin Abdug'aniyev va Ota Jaloliddin Nosirovlar yashab, ijod qilganlar. Yigirma yoshida "Shashmaqom" ni mukammal o'rganib olgan Ota Jaloliddin Nosirov Buxoro amirligidagi saroy hofizi qilib tayinlangan. U saroy musiqachilariga raxbarlik qilib, yosh shogirdlarga san'at sirlarini o'rgatib borgan. Ota Jaloliddin Nosirov maqomchilar ustози, "Shashmaqom" ning donishmand bilimdoni, murakkab ustasi, ajoyib tanburchi va xushovoz xonanda edi. U maqom kuylashda "ustoyi kulliy" (arabchada "Ustozul-kulliy", ya'ni hamma kuylarni mukammal va to'kis-tugal biluvchi) darajasiga erishgan.

Ota Jaloliddin Nazirov, Ota G'iyosiddin Abdug'aniyev kabi maqomchilar nafaqat saroy ahli, balki keng xalq doirasida ham tan olingan mashhur hofizlar edi. Ular yaratgan maqomchilik maktabidan Levi Boboxonov, Domla Halim Ibodov, Usta Shodi Azizov, Samarqanddan Hoji Abdulaziz Abdurasulov kabi taniqli maqomchilar yetishib chiqqanlar¹.

Buxoro maqomlari Samarqandda ham sevib ijro etilgan bu yerda Buxoro maqomchilik maktabi an'analarini o'zlashtirgan maqomchi hofizlar yetishib chiqqan.

³ Олимбоева Қ., Ахмедов М. Ўзбекистан хшц созаддаларк. I Китоб. Тошкент, 1959. 86.

⁴ Ражабов И. Макомлар. Тошкент, 2006. 3196.

⁵ Ражабов И. Макомлар. Тошкент, 2006. 3196.

¹ Олимбоева Қ., Йулдошева Т., Ахмедов М., Мирзаева Т. Ўзбекистан хшк созаддалари. II Китоб. Тошкент, 1974. 336.

Xiva shahrida Muhammad Rahimxon Feruz sa'nat va adabiyot rivojlanishiga katta e'tibor qaratadi. Aynan shu davrda Xiva xoni Muhammad Raximxon Feruz topshirig'i bilan yevropacha notalarni o'rgangan xorazmlik shoir, olim, mashhur bastakor Paxlavoy Niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy) Xorazm tanbur nota chizig'ini ixtiro qiladi. Maqomlarni notalashtirish maqsadida yaratilgan ushbu nota yozuv usuli maxsus tanbur uchun mo'ljallangan bo'lib, uning 18 pardasiga moslashtirilgan edi. Komil Xorazmiy ishini bastakoming o'g'li, shoir Muhammad Rasul Mirzo davom ettirib, qolgan hamma maqomlarni nota chizig'iga yozib qoldirishga muvaffaq buladi².

Bu nota usuli Xorazm maqomlarini XIX asr holatida o'rganishda o'z zamonasi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Xiva xoni Muhammad Raximxon Feruzning g'azallarni buzib ijro etishni rasman ta'qiqlab qo'yishi mamlakatda maqomchilikni asl xolida saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etdi³. "Shashmaqom" yaratilgandan keyingi davrlarda Toshkent va Farg'ona vodiysida bir necha musiqa asarlari turkumi, yuzlab kuy va ashulalar - maqom variantlari tarzida yuzaga keladi⁴. Toshkent shahrida mahalliy ijrochilik an'analari chuqur egallagan Mulla To'ychi Toshmuhamedov (1868-1943)⁵, Shorahim Shoumarov (1876-1969) o'z davrining mashhur va yetuk hofizlari edilar. Ular nafaqat Toshkent, balki Farg'ona vodiysiga xos xonandalik uslublari, murakkab ashula va maqom yo'llarini xam puxta o'zlashtirgan edilar. Mulla To'ychi hofiz Navoiy, Mashrab, Bedil, Fuzuliy kabi mumtoz shoirlarning ijodi bilan yaqindan tanishib, chuqur o'rgangan va ularning g'azallarini kuyga solib kuylagan. Mulla To'ychi Xofiz Eron, Turkiya, Italiya, Misr, Hindistonda va Sharqiy Turkiston shaharlarida bo'lib, o'z ijrochilik mahoratini namoyish qilgan¹.

Toshkent shahrida Mulla To'ychi hofiz tomonidan o'sha davrning taniqli hofizlari - Abduqaxxor, Saidaxmad, Nazirxonlar bilan hamnafislikda "Qo'shiq bazmi" kechalarini tashkil etilgan. Mulla To'ychi hofiz nafaqat Toshkentda, balki Farg'ona vodiysi shaharlarida ham ko'plab shogirdlar yetishtirib, o'zbek mumtoz musiqa merosining saqal topishiga, keyinchalik yangi avlod vakillariga yetkazib berishga katta hissa qo'shgan. Farg'ona vodiysi shaharlari lirik she'rlar asosida, cholg'u asboblari jo'rligisiz: ba'zan patnis va likopcha bilan, erkin mavzuda katta ashulalar aytilgan². Marg'ilon, Qo'qon, Baliqchi shaharlarida katta ashula maktablari shakllangan.

Bu davrga kelib Marg'ilon shahri san'atkorlar markaziga aylangan. Shahar xunarmandlar kundalik mehnatdan so'ng choyxonlarda to'planib, san'atkorlar bahslashuvlarini tomosha qilganlar. Marg'ilonning "Chor chinor" mavzeida ashulachilar bahslashuvlari o'tkazilgan³. Farg'ona vodiysi shaharlarida katta ashula

² Ражабов И. Макомлар. 40-бет.

³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12-жилд. 2006. 566-бет.

⁴ Ражабов И. Макомлар. 28 56.

⁵ Олимбоева К., Йўлдошева Т., Ахмедов М., Мирзаева Т. Ўзбекистан халқ созандалари. II Китоб. Тошкент, 1974. 296.

¹ Ўзбекистан миллий энциклопедияси. 9-жилд. Тошкент, 2005. 56.

² Олимбоева К., Йўлдошева Т., Ахмедов М., Мирзаева Т. Ўзбекистан халқ созандалари. II Китоб. Тошкент, 1974. 106.

³ Олимбоева К., Йўлдошева Т., Ахмедов М., Мирзаева Т. Ўзбекистан халқ созандалари. II Китоб. Тошкент, 1974. 396.

aytuvchilardan Erkaqori, Maqsud hofiz, Makayli ashulachi, Mamadbobo Sattorov, Boltaboy Rajabov, G'anijon Mirzayev, Jo'raxon Sultonov kabi Toshkent va farg'onalik ashulachilarning nomlari mashhur bo'lgan⁴.

Shaharlarda bastakorlik sohasi ham rivojlanib, Buxoro-Samarqand musiqa uslublari yuzaga kelgan. Samarqandlik Hoji Abdulaziz Abdurasulov kabi yetuk san'atkorlar xonandalik, sozandalik (tanbur, dutor) hamda bastakorlik sohalarida nafaqat O'rta Osiyo, balki Afg'onistan, Eron, Hindiston va qator arab mamlakatlarida xam keng tanilgan edilar.

Farg'ona vodiysi va Toshkent shaharlarida g'ijjakchilik, dutorchilik va sumaychilik maktablari yuzaga kelib, ravnaq topgan. Mashhur sumaychilar Yusufali Mehtar va Rustam Mextar, naychi Abduqodir Ismoilov, sumaychi va qo'shnaychi Axmadjon Umirzoqovlar mashhur edilar⁵. Ular "Shashmaqom" dagi Navo, Dugoh va Iroq maqom yo'llarini sumaylarda ijro qilib, xalq shodiyonalarida, to'ylarda, bayramlarda ularga zavq bag'ishlaganlar. Doira chalishda esa farg'onalik doirachi Usta Olim Komilov, andijonlik nog'orachi va doirachi Hojimat mehtar o'z mahoratlari bilan nom chiqargan edilar.

Bu davrda Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Zangiota, Chinoz kabi katta-kichik shaharlarda o'zbek xalq kuylari va ommabop qo'shiqlari Avgust Eyxgorn, R. Pfening, Frantishek Leysek tomonidan yevropacha notaga tushira boshlandi⁶. Ayrim kompozitorlar xususan, mashhur rus kompozitori P.I.Chaykovskiynish ilk shogirdi N.Klenovskiy (1853-1915) bir kancha "sharqona" asarlari qatori - "Qaraybersam ko'rinmaydi" nomli o'zbek xalq ko'shig'ini ovoz "soprano" va simfonik orkester uchun qayta ishlab, 1893 yili Moskvada uyushtirilgan yetnografik konsertda ijro ettirdi. Turkistonga tashrif buyurgan taniqli harbiy orkestr kapelmeystri va folklorshunosi N.N. Mironov (1870-1952) Marg'ilon, Qo'qon, Toshkent, Samarqand shaharlarida bo'lib, o'zbek xalq kuylarini. keyinchalik esa Hamza Hakimzoda Niyozlining qo'shiqlarini notaga soldi¹.

Ikki teatrlar. XX asr boshiga kelib, Turkistonga rus, tatar va ozarbayjon teatri kirib keldi². Ularning tili va urf-odatlari mahalliy aholiga yaqinligi tufayli juda yaxshi kutib olindi. 1908 yildan boshlab o'lka shaharlarida tatar havaskorlariniig spektakllari xususan, "Ishq balosi" pyesasi qo'yila boshladi³.

1910 yilda Toshkentda tatar havaskorlarining doimiy truppassi⁴, 1911 yildan ozarbayjon teatrining gastrollari boshlanadi. Xalqqa ayniqsa, Ozarbayjon musiqiy teatri nihoyatda ma'qul bo'ladi va ularning spektakllaridagi epizodik rollarga o'zbek

⁴ Олимбосова К., Йўлдошева Т., Ахмедов М., Мирзаева Т. Ўзбекистон халқ созандалари. II Китоб. Тошкент, 1974. 106.

⁵ Илхомов З. Мулладжанова Р. Ўзбекистон халқлари маданияти тарихи. Тошкент. 2014. 2506.

⁶ Ўзбекистан миллий энциклопедияси. 12-жилд. Тошкент, 2006. 5676.

¹ Ризаев Ш. Жадид драмеси. Тошкент. 1997.21-346.

² Ризаев Ш. Жадид драмеси. Тошкент. 1997.21-346.

³ Рахмонов М. Ўзбек театри тарихи (XVIII асрдан XX аср аввалигача ўзбек театр маданиятининг гаврадиёт йуллари). Тошкент, 1966. 264-бет.

⁴ Рахмонов М. Ўзбек театри тарихи (XVIII асрдан XX аср аввалигача ўзбек театр маданиятининг тараққиёт йуллари). Тошкент 1966. 2656.

havaskorlari ham jalb etiladi. Keyinchalik o'zbek havaskorlari ular yordamida "Layli va Majnun" operasini o'zbek tilida sahnalashtiradilar⁵.

1916 yildan boshlab ozarbayjon tilidan o'nlab asarlar o'zbekchaga tarjima qilinib, o'zbek truppalari tomonidan namoyish etiladi⁶. Tatar va ozarbayjon teatr truppalarining o'lka shahrlari bo'ylab gastrollarida namoyish etilgan dramatik asarlari ta'sirida milliy taraqqiyparvarlar ham ilk milliy dramatik asarlar yaratib, sahnalashtira boshladilar. 1914 yilda Abdulla Avloniy tomonidan Toshkent shahrida "Turon" nomli ilk milliy teatr truppasi tashkil etiladi. Mazkur teatrdan Maxmudxo'ja Bexbudiyning 1913 yilda yozilgan "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" nomli dramasi sahnalashtirilib, namoyish etiladi "Turon" truppasi Farg'ona vodiysi shaharlari bo'ylab safarlar uyushtirib, mazkur dramani namoyish etadi. Mahalliy aholi uni katta qiziqish bilan kutib oladi. "Turon" teatrida nafaqat milliy, balki tarjima asarlari, musiqali dramalar ham sahnalashtirib, namoyish qilingan. "Turon" truppasida o'ttizga yaqin muhim aktyorlar guruhi, Nizomiddin Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Badriddin A'lamov kabi ilk milliy rejissyorlar faoliyat ko'rsatishgan.

Toshkentning eski shahar qismida qishloq va yozlik sahnaga ega bo'lgan "Turon" teatri repertuarida jahon asarlaridan namunalari ham o'rin olgan edi¹.

Tez orada Farg'ona vodiysi shaharlarida ham yangi teatr truppalari tuzila boshlanadi. Xususan, Qo'qon, Andijon, Namangan shaharlarida havaskorlar truppalari tashkil topib, ular ham Mahmudxo'ja Bexbudiyning "Padarkush" asari sahnalashtirib, namoyish etdilar.

1914-yil Samarqand shahrida ham M.Bexbudiy boshchiligidagi o'zbek havaskorlik teatri tashkil etilib, unda ham "Padarkush" spektakli namoyish etiladi. Bu teatr truppasida Mannon Uyg'ur² va o'zbek teatrining birinchi aktrisasi Ma'suma Qoriyeva (Sa'diya) o'z faoliyatlarini boshladilar.

"Padarkush" spektakli Qo'qon, Kattaqurg'on, Buxoro, Andijon va Namangan shaharlarida ham sahnalashtiriladi va bunda mahalliy taraqqiyparvar yoshlar tashabbus ko'rsatadilar. Samarqandlik va toshkentlik xavaskorlar ularga yaqindan yordam berdilar. Hamma joyda "Padarkush" namoyishi katta qiziqish va o'ta mas'uliyat bilan tomosha qilinardi, bu xol o'zbek tomoshabini yevropa uslubidagi yangi teatrga qabul qilishganligidan dalolat berardi³.

Qo'qon shahrida teatr truppalari faoliyatini yo'lga qo'yishda Hamza Hakimzoda Niyoziy katta rol o'ynadi⁴. U 1915 yil Qo'qon shahrida havaskorlik teatriga asos soladi. Qo'qon truppasi "Zaxarli xayot yoxud Ishq qurbonlari" (1916) spektaklini sahnalashtiradi.

Ma'rifatparvarlik va xayriya jamiyatlari paydo bo'la boshladi. XX asr boshida Turkistonda jadidchilik, Buxoroda yosh buxoroliklar va Xivada yosh xivaliklar harakatining yuzaga kelishi Turkiston ijtimoiy hayotida muhim voqelik bo'ldi.

⁵ Рахмонов М. Ўзбек театри тарихи (XVIII асрдан XX аср аввалигача Ўзбек театр маданиятининг тараккиёт йўллари). Тошкент 1966. 270б.

⁶ Рахмонов М. Ўзбек театри тарихи (XVIII асрдан XX аср аввалигача Ўзбек театр маданиятининг тараккиёт йўллари). Тошкент 1966. 272б.

¹ Рязев Ш. Жадид драмси Тошкент. 1997. 70-71б.

² Қодирова С. Комедия санъати тарихи. Тошкент, 2008. 22б.

³ Қодирова С. Комедия санъати тарихи. Тошкент, 2008.

⁴ Рязев Ш. Жадид драмси Тошкент. 1997. 71-83б.

Ta'lim tizimini isloh qilish bilan boshlangan bu harakatlar maqsadi va faoliyati tobora kengayib bordi. Yangi usul maktablarini tashkil etish orqali boshlang'ich ta'limni isloh qilish, milliy matbuot tashkil etish orqali jamiyatda ma'rifat tarqatish istagida bo'lgan ma'rifatparvarlar shaharlarda ilk jamiyatlar tashkil etish boshladilar. Xususan, Xiva shahrida 1904 yilda "Jamiyati hayriya" tuziladi. Mazkur jamiyat ko'magi bilan Xiva shahrida o'sha yilining o'zidayoq ilk yangi usul maktabi ochiladi. 1909 yilda, Toshkent shahrida Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonovlar tashabbusi bilan "Jamiyati hayriya" tashkil etiladi. Jamiyatning asosiy maqsadi yangi usul maktablariga iqtisodiy yordam berish, iqtidorli bolalarni chet ellarga o'qishga yuborish edi.

1909 yilda Buxoro shahrida yosh buxoroliklar tomonidan "Tarbiyai atfol" ya'ni, "Bolalar tarbiyasi" nomli jamiyat tashkil etiladi⁵. Bu jamiyat o'z oldiga bolalar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, ularni xorijda o'qitish, shahar aholisini musulmon olamida chop etilayotgan davriy nashrlar bilan tanishtirib borish, milliy matbuotga asos solish, ma'rifatni targ'ib etish hamda yangi usul maktablarini qullab-quvvatlash maqsadlarini qo'ygan edi⁶. "Tarbiyai atfol" jamiyati qoshida Buxoroda ilk milliy matbuot - "Turon" va "Buxoroi sharif" gazetalariining nashri yo'lga qo'yiladi.

1913 yilda Toshkentda Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonovlar "Jamiyati xayriya" zaminida "Turon" nomli madaniy-ma'rifiy jamiyat tashkil qiladilar. Bu o'z nizom va dasturlariga ega bo'lib, uning qoshida "Turon" xavaskorlar teatr truppasi, "Turkiston kutubxonasi" nashriyoti kutubxona va qiroatxona hamda "Turon" gazetasi tashkil etiladi. "Turon" jamiyati Toshkent ziyolilari, xususan, jadidlar to'planadigan madaniy-ma'rifiy markazga aylanadi. Jamiyat atrofida nafaqat ziyolilar, balki ma'rifatparvar boylar ham to'planadi. Uning a'zolari ko'payib, 44 kishiga yetadi. Jamiyat a'zolarining ko'pchiligi maktab va madrasa muallimlari edi, 1916 yil oxirida Toshkent shahrida "Muallimlar jamiyati" tuziladi.

Andijon shahrida bu davrda "Taraqqiyparvar" nomli jamiyat yashirin faoliyat ko'rsatar edi¹.

Yirik shaharlar ijtimoiy-madaniy hayotida muhim yangilik bo'lgan ushbu jamiyatlar o'sha davr jamiyatining eng ilg'or vakillarining yangi shakldagi va ulug' maqsadlar yo'lidagi ixtiyoriy uyushmalari bo'lib, ma'rifatparvarlik ta'lim va tarbiya masalalarini zamon talablari darajasida tashkil etish yo'lidagi muhim voqea bo'ldi.

O'zbekistonning barcha shaharlarida kutubxonalar, noshirchilik va matbuot. O'zbekiston shaharlari azaldan ilm-fan markazi sifatida mashhur bo'lib, bunda kutubxonalar katta rol o'ynagan. Ayniqsa IX-XII asrlarda va Amir Temur va Temuriylar davrida mamlakatda ulkan kutubxonalar tashkil etilgan va faoliyat yuritgan. Kutubxonalarni bir necha guruhlariga bo'lish mumkin edi – bu avvalo hukmdorlar saroyi qoshida to'plangan kutubxonalar yirik olim, amaldor va ulamolarga tegishli xususiy kutubxonalar, madrasalar qoshidagi kutubxonalar va XX asr boshida ma'rifatparvar ziyolilar tomonidan xalq, uchun tashkil etilgan,

⁵ Долимов У. Туркстонда жадид мактаблари. Тошкент. 2006. 70б.

⁶ Долимов У. Туркстонда жадид мактаблари. Тошкент. 2006. 70-бет

¹ УЗР МДА. И-461 жамағарма. 1-ууйхат. 1968-йигма жидд 3-10-варақлар.

zamonaviy adabiyot, yangi darsliklar va matbuot nashrlari jamlangan ilk ommaviy kutubxonalar edi.

Bundan tashqari saroy kutubxonalari mavjud bo'lgan. Saroy kutubxonalari asosan mamlakatdagi poytaxt shaharlarda, xususan, Samarqand, keyinchalik esa Buxoro, Xiva, Qo'qon shaharlarida hukmdorlar saroylarida yirik kutubxonalar mavjud edi.

Sadri Ziyo ma'lumotlariga qaraganda XX asrning boshida birgina Buxoro shahrida 13 ta kutubxona, 96 ta qiroatxona bor edi.

Bu davrda Buxoro shahrdagi hukmdor saroyidagi kutubxonada xitoy, uyg'ur, pushtu, fors, arab va boshqa tillardagi qo'lyozmalar saqlangan. Kutubxonada **kitobdor, mushrif, risolachi va mirzolar** xizmat qilganlar. Saroy kutubxonasida amirlarning shaxsiy kolleksiyalari bilan birga 47.500 jild turli tillardagi qo'lyozma va toshbosma kitoblar saqlangan. 1915 yili professor A. A.Semenov amirlik kutubxonasi bilan tanishib chiqib, uni tartibga keltirish va qisman tavsif qilishga erishadi. **A.A.Semenov** "amirning kutubxonasi miniatyurali qo'lyozmalar bilan to'la" ekanligini qayd etgan edi¹.

Xiva shahrida ham xon saroyida juda boy kutubxona mavjud edi. Bu yerdagi qimmatli qo'lyozmalar asrlar mobaynida to'planib kelgan. Ayniqsa, Xiva xonligining ma'rifatparvar hukmdori Muhammad Rahimxon Feruz davrida kutubxonaga katta e'tibor berildi. Juda ko'p asarlar qayta ko'chirildi, tarjima qilindi, toshbosma usulda chop etildi, yangi-yangi asarlar yaratildi.

Shaharlarda madrasa kutubxonalari ham faoliyat yuritib boshladi. Deyarli har bir madrasa o'z kutubxonasiga ega bo'lib, ularda talim jarayonida qo'llaniladigan turli **darslik, qo'llanma va adabiyotlar islom dini, tarix, tibbiyot, geografiyaga oid qo'lyozmalar** saqlangan. Xususan, Buxoro amirligida XX asr boshlarida yirik madrasalar qoshidagi kutubxonalarda bir necha minglab qo'lyozmalar saqlangan. Kutubxonalar masjidlar nomi bilan yuritilgan. Masalan, Ja'farxo'ja kutubxonasida 40 ming jild, Govkushon kutubxonasida 35 ming jild, Xo'ja Nihol kutubxonasida 30 ming jild, Ko'kaldosh kutubxonasida 32 ming jild, Abdulaziz kutubxonasida 25 ming jild, Badalbek kutubxonasida 15 ming jild, Dorul-shifo kutubxonasida 10 ming jild, Juybor kutubxonasida 3 ming jild kitoblar saqlangan².

Ularning orasida Dorush shifo madrasasining kutubxonasi tibbiy soxaga oid maxsus asarlarga boyligi bilan aloxida ajralib turar edi³. Ayniqsa Abdullaxon madrasalari ixtiyorida juda boy kutubxona mavjud bo'lgan.

Kutubxonalarda kitobdor kutubxonachi vazifasini bajargan. Uning zimmasiga madrasaga vaqf qilingan kitoblar, kog'oz, ularning saqlanishini nazorat qilish vazifalari yuklangan. Kutubxonalar uchun alohida vaqf mulklari ajratilgan. Kutubxonalar kitoblarni saqlashdan tashqari yangi kitob bilan boyitib borish uchun ham vaqflar ta'sis etilgan. Kutubxonalarda musulmon davlatlaridan kelgan ko'plab adabiyotlar bor edi. Kutubxonalar nodir kitoblarni to'plash, ulardan hech bo'lmaganda nusxa ko'chirish orqali ham to'ldirib borilgan.

¹ Кормилищын А.И. Кўрсатилган асар. 306.

² Турсунов С. Шеробод тарихи. Денов. 1993. 136.

³ Аъний С. Асарлар. 1-том. Тошкент: 1963 1906.

Madrasalar kutubxonalarida xizmat kitobdor kitoblarning soni, sifati uchun javob bergan. Buxoro madrasalarida kutubxonalar maxsus binolarda joylashgan, ularda harorat va havo namligi kuzatib borilgan, kitoblar a'lo sifatli qog'ozlarga yozilib, charm muqovalar bilan muhofaza qilingan hamda maxsus charm sandiqlarda saqlangan⁴.

Madrasa kutubxonalaridagi kitobdor kitoblar sonini ko'paytirish, tarkibini kengaytirish, ularni asrash, eskirganlarini ta'mirlash kabi vazifalar yuklatilgan⁵.

Xususiy kutubxonalar vujudga kela boshladi. Buxoroda o'z davrining taniqli ulamolari, xususan, qozilarga, hamda amaldorlar, ya'ni beklarga tegishli xususiy kutubxonalar ham mavjud edi. Buxoro shahrida eng boy shaxsiy kutubxona amirzoda Xashmatniki bo'lgan. Amirzoda Muhammad Siddiq Buxoro amiri Muzaffarning o'g'li bo'lib, o'zidan bir necha asarlar ham qoldirgan. Mamlakatda yana bir nechta yirik shaxsiy kutubxonalar bo'lgan. Ular orasida **qoziul-quzzot Abduvoxid Sadr Balxiy, Muhammad Sharif Sadri Ziyoga** tegishli kutubxonalar shular jumlasidan edi. Buxoroning adabiy, madaniy va siyosiy ahvoriga oid qimmatli ma'lumotlar beruvchi ilmiy asarlar yaratgan Muhammad Sharif Sadri Ziyo kutubxonasiga tegishli qo'lyozmalarning 300 taga yaqini hozirda Sharq qo'lyozmalar jamg'armasida saqlanmoqda.

Bundan tashqari, Buxoro amirligidagi yirik beklilar markazlari bo'lgan. Xususan, Kitob, Shaxrisabz shaharlarda ham bek huzurida kutubxonalar mavjud edi. Kutubxonalar Rossiya imperiyasi tajovuzi davrida talon-taroj qilinib qimmatli qo'lyozmalar Peterburg kutubxonalarga jo'natilgan edi.

Ilk nashriyotlar, noshirchilik va ommaviy kutubxonalardan iborat bo'lgan. Yangi usul maktablari uchun ham darslik va adabiyotlar nashri katta muammo edi. Shu sababli ma'rifatparvarlik harakatining yetakchilari yirik shaharlarda xususiy bosmaxona, matbaa va nashriyotlar tashkil etib, ushbu muammolarni hal etishga kirishdilar, xalqqa zarur va yangi adabiyot, matbuotni yetkazib turish maqsadida noshirchilikka katta e'tibor berdilar.

1908 yilda Namangan uezdining To'raqo'rg'on qishlog'ida Ishoqxon o'g'li Ibrat tomonidan "**Matbaai Isxoqiya**" nomli ilk nashriyot tashkil etiladi. Matbaaga Orenburgdan katta mashaqatlar bilan litografiya olib kelinadi. Bu yerda asosan yangi usul maktablari uchun darsliklar chop etiladi. Ibratning o'z asarlari nashr etiladi.

Matbaa 1910 yilda Namanganga ko'chiriladi. O'sha yili uning qoshida "**Kutubxonai Ishoqiya**" nomli kutubxona tashkil etiladi. Kutubxonada o'zbek, fors-tojik, rus, tatar va turk tillaridagi adabiyotlar, darslik va qo'llanmalar, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq adabiyotlar jamlanadi. O'sha yillari chop etilgan rus va musulmon matbuoti namunalari to'planadi. Ibrat kutubxona faoliyatini yo'lga qo'yar ekan, undan tartib ton bilan foydalanish yoshlarni keng jalb qilishga katta e'tibor qaratadi. Kutubxonaga mudir tayinlab, kitoblarni va ulardan foydalangan o'quvchilarni tartib bilan yozib boradi.

Yosh buxoroliklar tomonidan Buxoro shahrida "Ma'rifat" kutubxonasi va "**Barakat**" shirkati tuziladi. "**Ma'rifat**" kutubxonasida mamlakatda va xorijda

⁴ Айний С. Бухара. Душанбе. 1985. С.135.

⁵ Козоков Б. Бухоро эски мадрасаларида таълим ва тарбия. // Бухороини Шариф. 2008. 28 июнь.

chiqarilgan yangi adabiyotlar, gazeta va jurnallar jamlangan. Kutubxonada Istanbulda chop etilgan **“Xikmat”**, **“Sirotil mustaqim”**, **“Ta’rifi muslimin”** jurnallari, Rossiyada chop etilgan **“Tarjimon”**, **“Irshod”**, **“Vaqt”** gazetolari va **“SHo’ro”** jurnali, Turkistonda chop etilgan jadid matbuoti namunalari jamlanib, ziyolilar ular bilan muntazam tanishib borishlari uchun imkoniyat yaratilgan.

“Barakat” shirkati esa yangi kitoblar, darsliklar chop etish bilan shug’ullangan.

1913 yilda Samarqandda Mahmudxo’ja Behbudiy tomonidan **“Nashriyoti Behbudiya”** tashkil etiladi. Bu nashriyot ham yangi usul maktablari uchun darsliklar chop etish bilan birga maxalliy matbuotni rivojlantirishga katta xissa qo’shadi. Uning qoshida ochilgan kutubxonada zamonaviy adabiyotlar bilan bir qatorda o’sha davr matbuot namunalari, diniy, tarixiy adabiyotlar ham jamlangan edi.

1914- yilda Toshkentdagi **“Turon”** jamiyati qoshida ham kutubxona ochilgan bo’lib, uning qoshida qiroatxona tashkil etilgan. Jamiyat a’zolari kutubxonaga o’z shaxsiy kitoblarini sovg’a qiladilar, shu tariqa yaxshigina kitob xazinasiga ega bo’lgan kutubxona yuzaga keladi. **“Turon”** kutubxonasi keyinchalik Toshkent viloyati kutubxonasiga aylantiriladi.

1914 yilda **“Turon”** jamiyati qoshida **“Maktab kutubxonasi”** nashriyoti tashkil etiladi. Nashriyotda chop etilgan kitoblarga **“Turkiston kutubxonasi”** deb muhr bosiladi. Nashriyotda asosan yangi usul maktablari uchun **darsliklar**, **qo’llanmalarni nashr qilinganligi** sababli **“Maktab kutubxonasi”** deb ham yuritilgan.

1915 yilda Qo’qon shahrida ham Xamza Hakimzoda tomonidan **“G’ayrat”** kutubxonasi tashkil etiladi. Kutubxonaga Toshkentda chop etilgan yangi darslik va qo’llanmalar, tarbiyaga oid adabiyotlar olib ketiladi. **“G’ayrat”** kutubxonasi maktab o’qituvchilarini va o’quvchilarini darslik va adabiyotlar bilan ta’minlashga katta yodam beradi.

Mazkur kutubxonalarda asosan zamonaviy adabiyotlar yangi usul maktablari uchun yaratilgan darsliklar, musulmon davlatlari va Turkistonda chop etilgan matbuot namunalari taraqqiyparvarlar ijodiga mansub adabiyotlar jamlangan. Kutubxonalarni tashkil etishdan asosiy maqsad eng avvalo yoshlar, maktab o’qituvchilari, madrasa talabalari, ziyolilarni yangi adabiyotlar, darsliklar, matbuot bilan muntazam tanishtirib borish edi. Chunki bu adabiyotlar va gazetalarni boshqa biror joydan topish amri mahol edi.

Shaharlarda Milliy matbuot vujudga keldi. Turkiston shaharlarida ijtimoiy madaniy hayotda sodir bo’lgan eng muhim voqaliklardan biri - milliy matbuotga asos solinishi bo’ldi. 1905 yil 17- oktabr Manifesta bergan imkoniyatlardan so’z va matbuot erkinligi xuquqidan unumli foydalangan mahalliy taraqqiyparvarlar o’lka shaharlarida ilk davriy matbuot namunalarini tashkil etdilar.

1906 yilda Toshkentda ilk milliy matbuot namunasi **“Taraqqiy”** gazetasi chop etildi. Ammo uning mazmuni va yo’nalishi o’lka ma’muriyatiga ma’qul kelmay, tezda yopildi. Shundan keyin Toshkentda ketma-ket (ya’ni biri yopilgach, keyingisi) jadid taraqqiyparvarlari Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo’ja

Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy tomonidan "Xurshid" (1906), "Tujjor" (1907-1908), "Shuhrat" (1907) "Osiy" (1908) kabi gazetalar chop etiladi¹.

Juda katta qiziqish bilan kutib olingan milliy matbuot xalqni ma'rifatga o'z taqdiri va muammolari ustida o'ylashga chorlashda katta rol o'ynadi. Ammo 1908 yildan Rossiyada inqilobiy harakatlarga qarshi reaksiyaning kuchayishi Turkistonda ham yangi usul maktablar va matbuotni tazyiqqa soldi. Keyingi yillarda bu harakatlar susayib, ularga umuman yo'l berilmadi.

1913 yildan o'lkada milliy matbuot yana yangi to'lqin bilan faoliyat boshladi. Hukumat tazyiqlari va moddiy muammolarga qaramay, 1913 yilda Samarqand shahrida ilk milliy matbuot "Samarqand" gazetasi chop etila boshlandi. Mahmudxo'ja Behbudiyning muharrirligida chiqqan bu gazeta 400-600 nushada, o'zbekcha, forscha va rus tillarida chop etildi.

Toshkentda Ubaydulla Xo'ja Asadullaxo'jayev tomonidan "Sadoi Turkiston" (1914-1915) gazetasi, Qo'qonda Obidjon Maxmudov tomonidan "Sadoi Farg'ona" (1914-1915) gazetalarning nashri yo'lga qo'yiladi. Samarqandda 1913-1915 yillarda Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan ilk jurnal - "Oyina" chop etildi. 400-600 nushada, tosh bosmada bosilgan ushbu jurnal nafaqat Turkistonning turli viloyatlariga balki Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyaga ham tarqalar edi.

Milliy matbuot sahifalarida Turkistondagi ijtimoiy - iqtisodiy muammolar, ta'limni isloh etish masalalari, yoshlar tarbiyasi, madaniyatda taraqqiyot muammolari muhokama qilingan. Ularning sahifalarida ilgari surilgan milliy manfaatlar va taraqqiyparvarlik g'oyalari, mustamlaka tuzumiga qarshi kayfiyat doimiy ravishda hukumat tomonidan ta'qib va tazyiqqa uchragan.

Shaharlarda an'anaviy madaniy hayotning eng ommabop ko'rinishi **xalq tomoshalari** edi. Bayramlar va dam olish kunlarida mahalliy aholi uchun katta tomoshalar uyushtirilardi. Shahar bozorlarida va xalq sayllarida qo'yiladigan tomoshalarda **qo'g'irchoqbozlik, qiziqchilik, dorbozlik va masharobozlik** kabi tomoshalar xalq tomonidai sevib tomosha qilingan.

Xalq orasida ayniqsa, qo'g'irchoqbozlik tomoshalari ham mashhur bo'lib, turli yoshdagi tomoshabinlarni birdek qamrab olgan qo'g'irchoqbozlar dam olish kunlari bozorlarda, **chodir tikib**, uning ortida **yog'och qo'g'irchoqlar** yordamida tomosha ko'rsatganlar. Ular qo'g'irchoqlar yordamida turli kasb egalari, xalq kahramonlari va hayvonlar obrazlarini yaratganlar. Qo'g'irchoqbozlar tomoshalarida xalq ertaklari bilan birga hayotiy voqealar va turli xajviyali chiqishlar ham namoyish etilgan.

An'anaviy qo'g'irchoq teatrlarining ikki turi — "**chodir jamol**" va "**chodir hayol**" tomoshalari mavjud edi. Qo'l yordamida harakatga keltiriladigan qo'g'irchoqlar tomoshasi "**chodir xayol**" deb atalgan. Uni "**ip qo'g'irchoq**" deb ham atashgan, chunki sahnadagi qo'g'irchoqlar chodir ortida iplar bilan harakatga keltirilgan. Iplar qora parda ortiga berkitilgan va yog'och taxtachaga bog'langan bo'lib, qo'g'irchoqboz ularni tomoshabinlarga ko'rinmay turib boshqargan¹.

¹ Шодмонов С. Туркестон тарихи - матбуот кўзгусида. Тошкент, 2011. 50-58-б.

¹ Гаврилов М. Кукольный театр Узбекистана. Ташкент, 1928. - С. 16.

XX asr boshiga kelib “chodir hayol” tomoshalari yopiq binoda namoyish etila boshlandi².

“Chodir jamol” qo‘g‘irchoq teatrida esa afsonalar emas, balki tomoshabinga tanish hayotiy voqealar qo‘g‘irchoqlar yordamida aks ettirilgan. Qo‘g‘irchoqbozlar rus podsholigining adolatsiz amaldorlarini tanqid ostiga olganlar shu sababli rus mamurlari qo‘g‘irchoqbozlarni har qadamda ta‘qib qilib, nazoratni kuchaytirib³, ma‘muriyatning ruhsatisiz tomosha ko‘rsatishni ta‘qiqlab qo‘yadilar, tanqidchi chiqishlar uchun qo‘g‘irchoqbozlar qattiq jazolanardi¹.

Shunga qaramay, shahar markazlarida o‘tkaziladigan tomoshalarda turmushda tez-tez uchrab turadigan boshqa muammolar xususan, bozorlarda avj olgan tarozidan urib qolish holatlari, tarjimonlarning manfaatparastligi, yangi targ‘ib bo‘yicha boshlangan saylovlardagi adolatsizliklar haqida “Tarjimon”, “Tarozibon”, “Ellikboshi saylovi” kabi yangi hajviy tomoshalar paydo bo‘ldi. Qo‘g‘irchoq teatrlarini xalqning barcha yoshdagi vakillari sevib tomosha qilishgan. O‘lkaga XX asr boshida tashrif buyurgan rus sayyohi Yevgeniy Markovning qayd etishicha, “barcha birdek ko‘ra oladigan bunday teatrnı na Peterburgda, va Parijda uchratish amri mahol edi”².

XIX asr va XX asr boshlarida shaharlarda o‘nlab taniqli qo‘g‘irchoqbozlar yashagan. Zarif misgar, Sharif siyox, Hori xoji, Sharof chala, Arslon zochabozi, Sadriddin eshon, Rajab meshkob (Buxoro), Qahhor mehtar, Aziz bobo (G‘ijduvon), Mahmud mehtar, Karim majid, Hamro (Samarqand), Azim burun, Doniyor, Orifjon Otajonov (Toshkent), Tursunboy Abdujabborov (Marg‘ilon), G‘ofurxolparang (Qo‘qon), Qilich mehtar (Shahrisabz) kabi qo‘g‘irchoqbozlar xalq orasida mashhur edilar.

Nafaqat qo‘g‘irchoqbozlik, balki qiziqchilik sanati ham xalqning sevimli tomoshalaridan edi. Chunki ularda kulgili voqealar, hajviyalar alohida o‘rin tutgan bo‘lib, ularda xalqni kayfiyatini ko‘tarish bilan birga, ijtimoiy muammolar, amaldorlarning adolatsizligi, salbiy odatlar va illatlar ba‘zi yengil kulgu bilan, ba‘zan o‘tkir tanqid ostiga olishganligi sababli ham xalqqa juda manzur bo‘lgan va uning qalbiga yetib borgan. Bu hajviyalarda nafaqat adolatsiz amaldorlar, boylar, qozilar, balki turli kasb egalari, xususan, bilimsiz tabiblar, mudarrislar, ta‘magir miroblar ham hajv yo‘li bilan kulgu va tanqid ostiga olingan³.

Qo‘qon xonligida qiziqchilar otaxoni hisoblangan Zokir eshon vafot etganidan keyin, uning guruhi asosida Farg‘ona vodiysi shaharlarida yangi guruhlar tashkil qilingan. Xususan, Qo‘qon shahrida Normat qiziq, Andijonda Matxoliq qiziq Marg‘ilonda Sa‘di qiziq truppalari tashkil etilib, faoliyat olib borgan⁴.

Qiziqchi san‘atkorlar xalqning kayfiyatini ko‘tarish bilan birga ijtimoiy muammolarga ham e‘tibor karatib, ularni o‘tkir kulgu bilan tanqid ostiga olib, o‘sha

² Кадиров М.Х. Труды по истории зрелищных искусств Узбекистана. Т. II. Тошкент. 2011. С.68.

³ ЎзР МДА. 19-жамгарма, 1-руйхат, 3388-ийгма жилд, 3-варак.

¹ Галялов М. Кукольный театр Узбекистана. Ташкент. 1928. С. 16.

² Марков Е. Россия в Средней Азии. Очерки путешествия по Закавказью, Туркмени, Бухаре, Самаркандской, Ташкентской и Ферганской областям, Каспийскому морю и Волге Евгения Маркова. в 2-х томах. т. 2. СПб. 1901. - С.486.

³ Рахимов М. Ўзбек театри тарихи. Тошкент. 1998.168б.

⁴ Кадиров М.Х. Труды по истории зрелищных искусств Узбекистана. Тошкент. 2011. С.264.

zamon illatlarini fosh qilganlar Chunonchi, "Yana uylanaman" nomli chiqishda mahalla imomining axloqiy buzqliklari, "Ashulachi mingboshi"da mingboshining saylov oldi qilmishlari, "Xitoy tabib", "Toqijon kasal" kabi chiqishlarida sohta tabiblar, "Shayton" pyesasida diniy mutaassiblik tanqid ostiga olinadi.

Qo'qon xonligidagi qiziqchilik maktabining yetakchi vakillari **Zokir eshon va Sa'di Mahsumning qiziqchilik maktabida yetishib chiqqan Yusufjon Shakarjonov (xalq orasida Yusufjon Qiziq) boshchiligidagi qiziqchilar, dorbozlar, masharabozlar guruhi** nafaqat Turkiston shaharlarida, Xiva, Buxoro shaharlarda, G'ulja, Qashg'ar, Afg'oniston kabi qo'shni mamlakatlarda ham tomoshalar ko'rsatadilar.

Bu davrga kelib, Marg'ilon shahri Turkistondagi qiziqchilik markaziga, **Yusufjon qiziq esa o'zbek xalq qiziqchilik san'atining otaxoniga** aylandi. U o'zining noyob va beqiyos iste'dodi bilan xalq san'atkorlari o'rtasida juda katta obro'ga ega edi. O'lkaning turli shaharlarida ijod qilgan qiziqchi, hofiz va sozandalar, raqqos va askiyabozlar, dorbozlar, muqallidchilar Marg'ilonga kelib, Yusufjon qiziq tajribasini o'rganganlar¹.

Shaharlarda namoyish etilgan xalq tomoshalarida **qiziqchilar, masxarabozlar, dorbozlar, tosh ko'taruvchi polvonlar, qo'g'irchoqbozlar bilan birga karnaychi va doirachilardan iborat sozandalar, askiyabozlar, muallakchilar ("besuyak" - akrobat), nayrangbozlar, chinni o'yinchilar (lagan va ko'za) ham qatnashganlar.** Ularning dasturida qatnashgan olov purkovchilar, hayvon o'rgatuvchilar (ilon, maymun, ayiq), **mushakbozlar** bu tomoshalarga yanada qizg'in tus berib tomoshabinlarni hayratga solishgan.

Dorbozlik san'ati xalq tomoshalarida eng muhim va katta tajriba talab qiladigan hunar edi. Dorbozlar kurilmasi, ya'ni doming balandligi bir necha o'n metrgacha yetgan. Buxoro dorbozlari Peterburg, Moskva, Qozon va boshqa shaharlarda bo'lib, o'z mahoratlarini namoyish etib kelganlar.

Dorbozlik san'atining o'choqlari sanalmish **Asaka** hamda **Quva** shaharlaridan yetishib chiqqan dorbozlarning dovrug'i Hindiston, Eron, Afg'onistongacha yetib borgan. Toshkent, Andijon, Shahrisabz dorbozlar guruhi ham o'z san'atlari bilan mashhur edi.

Termiz shahridagi dorbozlar guruhi o'z chiqishlarida **olov purkovchilar, tayoq o'ynatuvchilar, yog'och oyoq o'yini va yoga usulidagi o'ta murakkab jismoniy mashg'ulotlarni** namoyish etishlari bilan ajralib turgan.

Masharabozlar o'zbek xalqining qadimgi an'anaviy tomosha sanati turlaridan biri sifatida qiziqchilar, dorbozlar bilan yonma - yon, hamroh bo'lgan. **Qiziqchilik san'ati** kundalik hayotdagi voqealarni qiziq hangomalar orqali bayon etsa, masharabozlikda turli obraz va holatlar so'z o'yini bilan, yuz ifodasini kulgili tarzga keltirib, gavda harakatlarini mavzuga mos ravishda o'zgartirgan holda aks ettirilgan. Masharaboz zukko, hozirjavob, qochirimlarga usta bo'lgan, u butun vujudi va gavdasini erkin, egiluvchanlik bilan boshqargan. Bu esa undan katta mahorat talab qilgan. Masharabozlar ko'pincha dorbozlar ijodiy guruhi tarkibida ishtirok etgan va

¹ Рахимов М. Ўзбек театри тарихи. Тошкент. 1998.1626.

dastur mavzusi doirasida tomosha repertuarining ajralmas tarkibiy qismini tashkil etganlar.

Turkiston shaharlarida **Yusuf qiziq, Shakarjonov, Orif garmon Toshmatov, Komil qori Kulijonov, Hoji tam - tam, Usmon qori** kabi o'nlab masharaboz va qiziqchilar xizmat qilib kelganlar.

Turkiston shaharlariga turli mamlakatlardan kelgan sirk ustalarining gastrollari, xususan, xitoy, yapon, xind san'atkorlari tez-tez kelib turgan. Shaharlarda Xitoydan akrobatlar **aka-uka Pan-Xu, "Shuy"** va **"Sharq afsuni"** kabi truppalar, ayiq o'ynatuvchi Su YU-ku, Yaponiyadan dorboz Okitaro va Siotarlar Hindistondan nayrangboz Saloman, Saadi Jebarilarning reperturlari katta qiziqish bilan kutib olingan¹.

Toshkentga 1893 yilda Italiyadan Marketti rahbarligida kelgan sirk tomoshalarida ot va boshqa hayvonlarning o'yinlari, masharabozlarining chiqishlari xalqda katta taassurot uyg'otadi. Zero, sirkning o'ynalish usulining ba'zi jihatlari o'zbek xalq tomoshalariga yaqin edi². Keyinchalik o'lka shaharlariga Rossiya va Yevropa mamlakatlaridan ham sirk ustalari tashrif buyuradilar. Turli mamlakatlardan Rossiya orqali Turkiston shaharlariga gastrolga kelgan sirklar maxsus ko'chma "shapito"lar qurib tomoshalar ko'rsatganlar.

Yevropa sirkining kirib kelishi an'anaviy qiziqchilik san'atiga ham ta'sir etdi. 1902 yilda qo'qonlik **Baratboy va toshkentlik Mullaboy Mansurov** tashabbusi bilan Toshkentning eski shahar qismidagi karvonsaroy sirk binosiga moslashtirilib, mahalliy sirk tomoshalari ilk bor yopiq binoda namoyish etila boshlandi³. O'zbek qiziqchilari rus sirk masharabozlari bilan ijodiy hamkorlik qila boshladilar.

Tomoshalarga tomoshabinni ko'proq tortish maqsadida rus sirkiga mahalliy muallaqchi, masharaboz, dorboz va nayrangbozlar jalb qilina boshlandi. Shu yo'sinda rus sirk artistlari bilan an'anaviy o'zbek tomosha san'ati ustalarining ijodiy aloqalari yo'lga qo'yiladi⁴.

1910 yilda Toshkent shahrida sirk va teatr tomoshalari uchun mo'ljallangan "Kolizey" teatri quriladi⁵. Toshkentda faqatgina sirk tomoshalari uchun mo'ljallangan bino 1912 yil F.A.Yupatov tomonidan qurdiriladi. "Yupatov sirk" deb nom olgan mashhur sirk "Kolizey" dan farqli o'laroq, elektr energiyasi bilan yoritilgan, hattoki qish kunlari isitish imkoniyatlariga ham ega bo'lgan. **F.Yupatov** nafaqat tashkilotchi, balki talantli aktyor ham bo'lib, ot o'ynatishda, kuldirishda, akrobatikada mashq bajarishda juda mahoratli edi. O'zbek tilini yaxshi bilgani uchun mahalliy xalq ko'ngliga yo'l topa olgan. Uning truppasi yoz oylarida Turkistonning turli shaharlarida, qishda esa Toshkentda tomosha ko'rsatgan.

¹ Тошкенбоев П.И. Цирковое искусство в Узбекистане во второй половине XIX -X X вв. автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 1993. 14-15-б.

² Рахмонов М. Ўзбек театри тарихи. 163-бет.

³ Тошкенбоев П.И. Цирковое искусство в Узбекистане во второй половине XIX -X X вв. автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 1993. 19б.

⁴ Рахмонов М. Ўзбек театри тарихи. 164б.

⁵ Тошкенбоев П.И. Цирковое искусство в Узбекистане во второй половине XIX -X X вв. автореф. дисс.... канд. ист. наук. Ташкент, 1993. 15б.

Ilgari faqat xalq sayillari va bayramlarda tomosha ko'rsatgan masharaboz, dorboz, muallaqchilar endilikda rus sirkalarida ham o'z dasturlarini namoyish qila boshladi⁵. Ularga birinchi bo'lib, Yusufjon qiziq trupпасi jalb etildi.

Ilgari tarqoq holda faoliyat yuritayotgan an'anaviy xalq tomoshalari guruxdori orasida ham yirikroq guruhlarga uyushish harakati boshlanib, asta-sekin dastlabki milliy professional sirk guruhlari tashkil etila boshlandi. Xususan, Toshkentning eski shahar qismida 1910-1914 yillarga kelib toshkentlik Mullaboy Mansurov va qiziqchi Baratboy tashabbusi bilan o'zbek milliy sirki tashkil etiladi. Mullaboy Mansurov boshchilik qilgan birinchi milliy sirk trupпасida **Yusuf qiziq Shakarjonov, Baratboy, Komil qiziq, Odil simdorch, Isoq barina, Muhammadjon Rahmonov, Parzin Abduxalilov, Maksud qori, Sharof, Muhammad (Chaqqon) Xo'jayev, Majid garang, Karim Zaripov, Qodir, Muxsin, Ortiq qiziq** kabi qiziqchilik san'ati ustalari va milliy sozandalar guruhi faoliyat yuritgan.

Bu sirk XX asr boshida Turkistonning turli shaharlarida va Xorazm, Buxoro xonliklarida, shuningdek Gulja, Koshgar, Yorkent shaharlarida gastrollar o'tkazgan. Uning repertuariga rus sirki ustalarining chiqishlari ham kiritilgan edi. O'zbek sirk artistlari Chaqqon Xo'jayev, Karim Zaripov, Toshkanboy aka kabi ot o'ynatuvchi, muallaqchi, dorbozlar shu sirkdan yetishib chiqqan edilar. Ular keyinchalik, o'zbek sirki san'atining tashkilotchilari bo'ldilar. Shu tariqa, mahalliy an'analar zahirida va rus sirk san'ati ta'sirida milliy sirk san'atiga asos solindi.

Tayanch so'zlar:

Maktabdor, otinbibi, otinoyi, eski maktab, dutor, sayqal, nota chizig'i, ustoyi kulliy, tanbur, hofiz, duvozamaqom, shashmaqom, mumtoz, Lapar, yalla, maqom, sharh, sahih, hadis, tavsir, hoshiyalar, a'lo, avsat, adno, nujum, xandasa, tolibi ilm, madrasa, yangi usul, gubernator, guberniya, Xojai sibyon, imlo, chodir hayol.

Test topshiriqlar:

1. Maktablar nima hisobidan va kim tomonidan hisobidan ta'mirlangan?

A. xususiy maktabdor va jamoa ahli tomonidan ta'mirlangan

V. davlat tomonidan mablag'lashtirilgan

S. vaqf mulklaridan ta'mirlangan

D. zodagonlar tomonidan ta'mirlangan

2. Boshlang'ich maktablarga necha yoshdan o'qishga qabul qilingan?

A. 5 yoshdan 12 yoshgacha o'qishga qabul qilingan

V. 9 yoshdan 15 yoshgacha o'qishga qabul qilingan

S. 15 yoshdan 17 yoshgacha o'qishga qabul qilingan

D. 6 yoshdan 11 yoshgacha o'qishga qabul qilingan

3. Masjid va madrasalar qoshidagi maktablar nima hisobidan va kim tomonidan hisobidan ta'mirlangan?

A. vaqf mulklari daromadi hisobidan ta'mirlangan

V. davlat tomonidan mablag'lashtirilgan

⁵ Ўзбекистан миллий энциклопедияси. 12-жилд. Тошкент. 2006. 585 б.

- S. zodagonlar tomonidan ta'mirlangan
D. xususiy maktabdor va jamoa ahli tomonidan ta'mirlangan

4. 1893 yilda O'rta Osiyoning qaysi shaharlarda yangi usul maktablari tashkil etildi?
A. Qo'qon va Samarqand, Toshkent va Andijonda yangi usul maktablari tashkil etildi
V. Angren, Ohangaron va Urgench, Yangibozorda yangi usul maktablari tashkil etildi
S. Ohangaron va Yangi yo'l, Beshbuloq va Baliqchida yangi usul maktablari tashkil etildi
D. Yangi yo'l, Beshbuloq, Toshkent va Andijonda yangi usul maktablari tashkil etildi

5. 1913 yilga kelib, Farg'ona viloyatida yangi usul maktablari soni nechtaga yetdi?
A. 1913 yilga kelib, Farg'ona viloyatida yangi usul maktablari soni 20 ga yetdi
V. 1913 yilga kelib, Farg'ona viloyatida yangi usul maktablari soni 22 ga yetdi
S. 1913 yilga kelib, Farg'ona viloyatida yangi usul maktablari soni 10 ga yetdi
D. 1913 yilga kelib, Farg'ona viloyatida yangi usul maktablari soni 25 ga yetdi

6. Boshlang'ich maktabda bolalar necha yil o'qitilgan?
A. Boshlang'ich maktabda bolalar 4 yil o'qitilgan
V. Boshlang'ich maktabda bolalar 5 yil o'qitilgan
S. Boshlang'ich maktabda bolalar 6 yil o'qitilgan
D. Boshlang'ich maktabda bolalar 3 yil o'qitilgan

7. Toshkent shahrida 1901 yili birinchi maktab kim tomonidan ochilgan?
A. Toshkent shahrida 1901 yili birinchi maktab Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan ochilgan
V. Toshkent shahrida 1901 yili birinchi maktab Said Olimov tomonidan ochilgan
S. Toshkent shahrida 1901 yili birinchi maktab Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan ochilgan
D. Toshkent shahrida 1901 yili birinchi maktab Ismoil G'aspirali tomonidan ochilgan

8. 1911 yili o'lka ma'muriyati qanday siyosatni amalga oshirdi?
A. boshlang'ich maktabda ta'lim berayotgan tatar muallimlarini ishdan bo'shatish bahonasida o'nlab yangi usul maktablarini yopib qo'ydi
V. rus - tuzim maktablarini yopib qo'ydi
S. yuqori bosqich maktablarini yopib qo'ydi
D. rus - tuzim maktablari va yuqori bosqich maktablarini yopib qo'ydi

9. 1890-1893 yillari Toshkent shahrida nechta madrasa faoliyat yuritgan?
A. 1890-1893 yillari Toshkent shahrida 20 ta madrasa faoliyat yuritgan
V. 1890-1893 yillari Toshkent shahrida 22 ta madrasa faoliyat yuritgan
S. 1890-1893 yillari Toshkent shahrida 24 ta madrasa faoliyat yuritgan
D. 1890-1893 yillari Toshkent shahrida 19 ta madrasa faoliyat yuritgan

10. 1909 yilda Xiva xonligidagi madrasa talabalarning soni necha ming kishini tashkil etgan?

- A. 1909 yilda Xiva xonligidagi madrasa talabalarning soni 6 500 kishini tashkil etgan tashkil etgan
- V. 1909 yilda Xiva xonligidagi madrasa talabalarning soni 7000 kishini tashkil etgan
- S. 1909 yilda Xiva xonligidagi madrasa talabalarning soni 5000 kishini tashkil etgan
- D. 1909 yilda Xiva xonligidagi madrasa talabalarning soni 6000 kishini tashkil etgan.

12-Mavzu: O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va uning ixtisoslashuvi

Reja:

1. Hunarmandchilik - iqtisodiy hayotning asosi ekanligi.
2. XVI-XIX asrning ortalarida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari shaharlarida turli-tuman hunarmandchilik sohalarning rivojlanishi: to'qimachilik, bo'yoqchilik, ustaxonalarining vujudga kelishi, tikuvchilik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik, duradgorlik, kemasozlik, qandolatchilik, qog'oz ishlab chiqarishning vujudga kelishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Поездка Поспелова и Бурнашева в Ташкент в 1800 году // Туркестанский сборник. Спб., 1883. Т. 343. С. 40.
2. Казийские документы XVI в. / Текст, перевод, указатель юридических терминов и примечания. Р.Р. Фитрата, Б.С.Сергеева. Т., 1937. С. 75-76.
3. Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. Тошкент. 2017. 75 б.
4. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. М.: Наука, 1968. С. 51.
5. Краузе И.И. Заметки о красильном искусстве туземцев // Русский Туркестан. М., 1872. С. 210.

XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'zbekiston shaharlari turli hunarmandchilik sohalari mavjud bo'lgan, ularning ayrimlari taraqqiy etgan, boshqatari esa o'z boshidan inqirozli bosqichlarini kechirayotgan yirik markazlar edi. Ularda turli hunar sohiblari yashab, o'z mehnatlari bilan shahar iqtisodiy hayotining rivojlanishiga muhim xissa qo'shganlar. Hunarmandlar did bilan, o'z mamlakatining talab va an'alaridan kelib chiqqan xolda o'zlarining betakror mahsulotlarini yaratganlar.

Mahalliy manbalar va hujjatlarda ko'plab hunar turlari hamda hunarmandlar haqida bir qancha ma'lumotlar uchraydi. Ularning ayrimlari Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklariga tashrif buyurgan shaxslar tomonidan qoldirilgan. Jumladan, Buxoro va Xivada bo'lgan F.Skibinning (1697) Buxoro haqida "odamlari xunarmand, savdogardirlar", Xiva haqida esa "odamlari jangari emas, hunarmanddirlar"¹, - deb qayd qilishi bejiz emas edi. Toshkentda bo'lgan M.Pospelov va T.Burnashevlar

¹ Поездка Поспелова и Бурнашева в Ташкент в 1800 году // Туркестанский сборник. Спб., 1883. Т. 343. С. 40.

(1800), uning xalqi hunarmandchilik turlari bilan shug'ullanishga" ham moyil ekanligini ko'rsatib o'tganlar².

Darxaqiqat, bu qadim o'lkada turli hunarmandchilik sohaları keng rivojlangan edi. Xususan, XVI asrga oid Samarqandda tuzilgan qozilik hujjatlarida 60 dan ortiq hunar turi qayd etilib, ular bilan mashg'ul bo'lgan shaxslar - kulollar - kulolgaron, bo'yochilar - sabbog'on, qog'oz ishlab chiqaruvchilar - **kog'azgaron, tikuvchilar - darzion, to'quvchilar - bofendegon, nayza yasovchilar - tirgaron, duradgorlar - xarroton, namad bosuvchilar - namadmolon** va boshqa ko'plab hunarmandchilik sohaları bilan shug'ullanuvchilar nomi keltiriladi³. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari shaharlarida hunarmandchilikning turli sohaları har xil darajada rivoj topgan edi. Ayrim shaharlarda biror-bir hunarmandchilik sohasining ancha rivojlanganligi ko'zga tashlansa, boshqa birida esa o'zga sohaning rivoji kuzatiladi.

Shaharlar hunarmandchiligini atroflicha tahlil etish ularga xos bir qator umumiy holatlar va yakka xususiyatlarni ajratib olishga, ular taraqqiyotining mohiyatini to'g'ri anglashga katta yordam beradi. Hunarmandchilikning eng rivojlangan asosiy sohalaridan biri to'qimachilik edi. Shahar to'quvchilari yaratgan ko'pdan-ko'p mahsulot turlariga nafaqat ushbu shahar, balki qo'shni qishloqlar, boshqa shaharlar, mamlakatlar, dasht ahli orasida talab katta edi. Muarrix Fazlullox ibn Ro'zboxonning XVI asr boshlarida yozishicha, dasht ahliga "kiyim va kafan", "ko'ylak va kiyim zarur bo'lib, ularning asosiy qismini karbas tashkil qilib", bu mahsulotlar Movaraunnahr shaharlaridan yetkazilar edi.

To'quvchilik taraqqiy etgan markazlardan biri Buxoro edi. Bu shaharda ko'plab gazlama turlari ishlab chiqarilgan. 1671 yilda Buxoro elchisi Mulla Farrux rus dyaki yordamchisi Ivan Astafyevning "Buxoro davlatida qanday mollar bor", - degan savoliga "kindyak (qildak) va zandana" asosiy mollar bo'lib, "kimxoblar va atlaslar" ham bor, - deb javob bergan edi.

Buxoroda va xonlikning boshqa markazlarida to'qiladigan gazlamalarning katta qismini ip gazlamalar - bo'z (karbas), olacha, zandanachi, chit va boshqalar tashkil etar edi. Ularning katta qismi chet mamlaktlarga ham olib borilgan. 1639-1672 yilda Tara va Tobolskka keltirilgan mollar ro'yhatida nomi zikr etilgan gazlamalarning turli xillarini uchratish mumkin. Xususan, unda "zandana semendi, zandana dyumendi, qora zandana, ishlov berilgan bo'z, ensiz bo'z, ishlov berilgan ensiz bo'z, keng olacha, rangli olacha" nomlari qayd etib o'tiladi³.

Bu gazlamalar o'zining to'kilishi, eni, rangi bilan bir-biridan farq qilib, turli ko'rinish kasb etgan. Birgina bo'zning o'zi, R.G.Mukminovanning ko'rsatishicha, 8 rangda - qora, ko'k, sariq, barg rang, cho'moli, gunafsha va boshqa ranglarda bo'lishi mumkin edi⁴.

Xiva va Qo'qon xonligi shaharlarida xam "**bo'z (karbas)**" ko'plab miqdorda to'qilgan. Xususan, Xivada ip gazlamalar ichida eng ko'p to'qiladigan mato bo'z

² Поездка Поспелова и Бурнашева в Ташкент в 1800 году // Туркестанский сборник. Спб., 1883. Т. 343. С. 40.

³ Казийские документы XVI в. / Текст, перевод, указатель юридических терминов и примечания. Фитрата, Б.С.Сергеева. Т., 1937. С. 75-76.

bo'lib, "uning ko'k rangga bo'yalgani – bo'yoq deb atalgan". Toshkentda esa bo'zning "ko'k bo'z, oddiy bo'z" xillari keng ishlab chiqarilgan¹

Shaharlarda to'qilgan ip gazlamalarning bir qismini olacha tashkil etgan. XVII asrda Buxoroda bu mato turini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunarmandlar - Olachaboflar kvartali bo'lgan.

Shaharda bo'lgan A Vamberi, bu yerda "ikki rangli yo'l-yo'l va yupqa ... olacha deb ataluvchi ip gazlamalar" to'qilganidan xabar beradi. Bu matoni XIX asrning boshqa bir muallifi "... turli ranglar qatoridan tashkil topgan gazlama" sifatida ta'riflab, uni to'qish bu yerda keng rasm bo'lganligini ko'rsatadi. Xivada ham bu gazlama keng ishlab chiqarilgan. Shohidlardan biri "Men ko'rgan Xiva gazlamalari yoki yo'l-yo'l yoki bir xil rangda edi", - deb yozadi. Olacha Qo'qon xonligi shaharlarida, xususan, Namangan va Toshkentda ko'plab ishlab chiqarilgan. Namangan xaqida yozgan F.Nazarov, unda "ip matolar fabrikalari" mavjudligini qayd etadi².

Olacha doimo ham ipdan to'qilmagan. Uning ikki xili - oddiy ip olacha va ipaklik olacha bo'lgan. Oddiy olachaning eng yaxshi navi **zibak** deb atalar edi. Ipaklik olacha esa juda cheklangan miqdorda va ko'proq Buxoroda ishlab chiqarilgan. Olachaning turli xillari - "oddiy 2460 o'ram olacha va 26 o'ram keng rangdor olacha" 1640 yilda Tobolskka Imomqulixon elchilari olib kelgan mollar orasida eslatib o'tiladi. XIX asr ma'lumotlariga ko'ra bu mato Buxoro xonligida Urgut, Samarqand va ozroq miqdorda Kattaqo'rg'onda ishlab chiqarilgan³. Ip gazlamalar ichida chit alohida o'rin tutgan. Bu gazlamani ishlab chiqarish bilan shug'ullangan hunarmandlar chitgarlar deb atalgan. Ular bo'zga turli ranglardagi gullarni bosganlar

Qoliplar yordamida bo'zga gul bosish ancha murakkab ish jarayoni bo'lib, u xunarmanddan katta maxorat talab etgan. Buni Toshkent chitgarlari misolida kuzatish mumkin. XIX asr mualliflarining qayd etishicha, Toshkent bo'zga gul bosishning yirik markazlaridan binga aylangan. Qo'qon shaharlari va Qashg'ardan Toshkentga juda katta hajmda oq bo'z keltirilib, chitgarlarga topshirilardi. Bu hunarmandlarning ustaxonalari shahar va uning atroflarida joylashar va "**Chitgarxona**" deb atalar edi.

Matoga gul bosuvchi chitgarlar o'simliklardan olinadigan mahalliy bo'yoklar - ko'k, safsar, mosh va qizil ranglardan foydalanganlar. Chitgarlar ko'proq oila a'zolari, ba'zi hollarda yollanma ishchilar mehnatidan foydalanganlar. Bu ma'lumotlardan shu narsa ayon bo'ladiki, XIX asrning birinchi yarmida chitga talabning oshishi natijasida yarim tayyor maxsulot - bo'z chitgarlik keng rivojlangan markazlarga boshqa shaharlardan ham keltirilgan bo'lib, bu ishni savdogarlar o'z zimmlariga olganlar. Ular bu ishni buyurtma asosida amalga oshirganlar. Bu holat shaharlar o'rtasida hunarmandchilik sohasida o'ziga xos mehnat taqsimoti mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Buni XIX asrga oid "Qo'qonlik savdogarlar Buxoroga bo'yash uchun oq mato keltiradilar", - deb qayd etilgan ma'lumot ham tasdiqlaydi.

¹ Агамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. Тошкент. 2017. 76 б.

² Агамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. Тошкент. 2017. 76 б.

³ Агамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. Тошкент. 2017. 76 б.

Chitning enli, ensiz xillari va ishlab chiqarilgan joyiga qarab nomlanadigan turlari ham bo'lgan. Rus manblarida "viboyka" nomi bilan mashhur chit ko'plab mamlakatlarga olib ketilgan. 1639-1672 yillarda Tobolsk bo'xonasida **"keng chitlar"**, **"tor chitlar"**, **"o'rtacha chitlar"** va **"buxoro chitlari"** qayd etiladi. Chit ishlab chiqarish bilan Xiva xonligida ham shug'ullanganlar. Xiva davlat hujjatlaridan birida "Xusayn binni Eshniyoz chitgar"ning nomi eslatib o'tilishi buni tasdiqlaydi¹.

Shaharlarda har xil ipak gazlamalar ham to'qilgan. Xususan, XVIII asrning 70-yillarida Buxoroda bo'lgan F.Yefremov shaharda turli gazlamalar, jumladan, ipakdan oltin va kumush bezakli yo'l-yo'l parchalar, baxmallar to'qilganini qayd etgan edi. Xiva shaharlarida ham turli ipak gazlamalar ishlab chiqarilgan.

XIX asrning 20-yillarida xonlikda bo'lgan N.Muravyevning ko'rsatishicha, xivaliklar o'z ichki ehtiyojlari uchun mahalliy va Buxorodan keltirilgan ipakdan "uncha chiroyli bo'lmagan, lekin o'zining pishiqligi bilan ajralib turadigan" turli-tuman ipak matolarni to'qiganlar. 1823 yilda Xiva haqida "Ipakchilik yomon emas, lekin paxta kam yetishtiriladi. Fabrikalarda tunlar uchun **ipak, yarim ipak va ip gazlamalar, kanavislar, baxmal, bo'z** va boshqalar ishlab chiqariladi. Ularning mahsuloti, ayniqsa ipak gazlamalarning narxi baland emas", - deb qayd etilgan edi. Xivada ipakchilik bilan, asosan, xonlikning janubiy qismidagi axoli shug'ullangan.

Ipak matolar ishlab chiqarish Qo'qon xonligi shaharlarida keng tarqalgan edi. Xonlikning hunarmandchiligi haqida yozgan tadqiqotchilardan biri "Uning e'tiborga loyiq yagona sohasi Namangan, Qo'qon va Marg'ilon fabrikalarida ipak va yarim ipak gazlamalar ishlab chiqarishdir", - deb yozgan edi.

Shaharlarda ishlab chiqarilgan ipak matolarga ularning o'zida, qo'shni shaharlar va davlatlarda ehtiyoj katta edi. Shunday gazlamalardan biri baxmal bo'lib, u XVI asrda Samarqandda keng ishlab chiqarilgan. Bu xaqida Zahiriddin Muhammad Bobur "Samarqandning yana bir matoi qirmizi maxmaldurkim, atrof va javonibqa eltalar", - deb yozadi. Ushbu markazda ishlab chiqarilgan bu mato xonliklarning boshqa shaharlarida ham to'qilgan va qo'shni mamlakatlar orqali uzoq yerlarga olib borilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Xususan, 1676 yilda Xivadan Rossiyaga kelgan elchi Nodir Baxodir o'zi bilan sovg'a sifatida "9 ta qizil baxmal" keltirgan. Xivada ham baxmal ishlab chiqarish mavjud bo'lganligini XIX asr oid quyidagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Xiva davlat hujjatlaridan ayon bo'ladiki, xonlikda baxmalning "qazma maxmal"- guldor baxmal, "qipchama maxmal" - qizil gulli baxmal turlari ishlab chiqarilgan¹. Bu mato turi Qo'qon xonligi shaharlarida ham to'qilgan. Ulardan biri Marg'ilon bo'lib, XIX asr boshlarida F.Nazarovning ko'rsatishicha, unda to'qimachilik keng rivojlangan edi. "Shaharda turli fabrikalar joylashgan bo'lib, ularda fors parchalari, baxmallar va turli Osiyo gazlamalarini tayyorlaydilar. Ulami Buxoro va Qashg'arga yuboradilar"², - deb qayd etadi u.

To'quvchi - hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan ipak gazlamalardan biri shoyi - kanaus bo'lib, u ko'pgina markazlarda ishlab chiqarilgan. Buxoro xonligi

¹ Агзамова Г. Узбекистон шаҳарлари. Тошкент. 2017. 77 б.

² XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. 93б.

² Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. М.: Наука, 1968. С. 51.

shaharlarida u **“kanaus”** nomi bilan, Qo‘qon xonligi shaharlari, xususan, Qo‘qon va Marg‘ilonda esa **“atlas”** yoki **“jiba-arqoq”** nomlari ostida mashhur edi³.

Marg‘ilondagi an‘anaviy ipak gazlamalar ishlab chiqarish ustaxonasining XIX asr oxirlariga oid quyidagi tavsifiga egamiz. Unga ko‘ra, **“To‘qish joyi shipdan kichik teshiklar orqali yoritiladigan yarim qorong‘i saroyda joylashgan. Yerga qazib o‘atilgan qozonlari bilan buyokxona xam uncha katta qiziqish uyg‘otmaydi, o‘tin yoqishdan chiqqan tutun faqat ochiq eshiklar orqali chiqib ketadi”**⁴.

Toshkentda xam ipak gazlamalar - shoyi va atlas ishlab chiqarilgan. Lekin bu ishlab chiqarish cheklangan miqdorda edi. Bozorlarda bu gazmol turi juda kam uchrar edi. **“Ularni to‘qib berishlarini so‘rab buyurtma berish yoki tasodifan sotib olish mumkin edi. Chunki bu gazlamalar fakat oila a‘zolarining ehtiyojlari uchun tayorlanar edi”**, - deb qayd etadi XIX asr muallifi.

To‘quvchi-hunarmandlar ko‘p miqdorda yarim ipak gazlamalar ishlab chiqarishga ham ixtisoslashgan edilar. Xususan, Buxoro xonligi shaharlarida bu turdagi gazlamalarning **“pasma - qalin yo‘l-yo‘l gazlama”**, shuningdek, **“adras va ol-chimbar”** deb ataluvchi xillari to‘qilgan. Yarim ipak gazlamalar jumlasiga XIX asrda ishlab chiqarilgan **“pari posha”** matosini ham kiritish mumkin. Bu gazlama ayrim hollarda sof ipakdan bo‘lishi ham mumkin edi. Bunday holda bu gazlamani to‘qish uchun oliy navli ipakdan foydalanilar edi. **“Pari posha”** gazlamasi Qo‘qon xonligi shaharlarida ham keng ishlab chiqarilgan edi. Bu yerda **“oq chiziqli ko‘k mato - pari posha”** va shuningdek, **“to‘q chiziqli oq mato - banoras”** ham to‘qilgan. Bu matolarni ishlab chiqarishda jun va ipakdan keng foydalanganlar. Ulardan paranji va o‘ziga to‘q aholi esa chaqmon tiktirgan.

Namangan, Qo‘qon va Marg‘ilonning to‘quvchilik ustaxonalarida adras va beqasam ham to‘qilgan.

Shaharlarda jun gazlamalar ham ishlab chiqarilgan. Jumladan, Buxoro xonligida **«bosma»** nomli gazlama - movut to‘qilgan bo‘lib, u tuya junidan tayorlangan va **“och jigarrang”** hamda **“qora rangda”** bo‘lgan. Xonlikda ishlab chiqarilgan yana bir jun gazlama turi **“bosma-i tibit”** bo‘lib, uni to‘qishda momiqdan foydalanganlar. Bu mato ancha yumshoq va nafis bo‘lgan. Shahar hunarmandlari bilan bir qatorda, ko‘chmanchi aholi tomonidan tuya, echki va qo‘y junidan tayorlangan **“qoqma”** matosi ham ma‘lum edi¹. Junning dag‘al qismidan, Toshkent va boshqa shaharlarda kuzatilgani kabi qoplar ham to‘qilgan. Bunday qoplardan karvon savdosida keng foydalanilgan.

To‘quvchi-hunarmandlar, shuningdek, kiyim-bosh turlarini ham to‘qiganlar. XVI asrga oid qozilik xujjatlarida bunday hunarmandlar jumlasida ro‘mol to‘quvchilar - chaxor-gulbofon, salla uchun mato to‘quvchilar - futabofon nomlari ostida keltiriladi².

To‘quvchilar, sallalar va belbog‘lar uchun ishlatiladigan mayda ko‘k to‘rtburchak shakl tushirilgan ip gazlama - futa ham to‘qiganlar.

³ Гребенкин А. Ремесленная деятельность таджиков. С. 514.

⁴ Шербин-Крамаренко Н. По мусульманским святыням Средней Азии // Справочная книжка Самаркандской области. Вып IV. 1896. С. 54.

¹ Гребенкин А. Ремесленная деятельность таджиков. С. 514.

² Казийские документы XVI в. С. 75-76.

Shahar hunarmandlari **“xosa”** deb atalgan gazmol turini ham ishlab chiqarganlar. Oq rangdagi bu matodan turli maqsadlarda, jumladan, sallalar sifatida foydalanganlar.

Hunarmandlar doka ham to‘qiganlar. Doka ham xosaga o‘xshagan yupqa mato bo‘lib, XIX asr muallifi an‘anaviy bu gazlamalar xaqida **“xosa”** bilan **“doka”**ning farqi **gazlamaning enida** edi, doka xosaga qaraganda yumshoqroq edi”, - deb qayd etadi. Asosan salla uchun ishlatilgan doka **“oq va ko‘k”** xillari mashhur bo‘lgan¹.

Buxoro xonligi shaharlarida **“tibit salla”** deb nomlanadigan yarim jun gazlama ham to‘qilgan. Bu matoning asosi ipdan bo‘lib, unga jun qo‘shib to‘qilar edi. **A.Grebenkin** 1872 yilda bu matoni to‘qishni “bundan 40 yil ilgari O‘ratepadan o‘rganib, Samarqandda ishlab chiqara boshlaganlar” - deb qayd qilgan edi. Bu matodan tayyorlangan salalar, belbog‘lardan keng foydalanganlar.

Shaharlarda rivojlangan hunarmandchilik turlaridan biri bo‘yoqchilik edi. Bu hunar turi to‘qimachilik va boshqa hunarmandchilik sohalari bilan uzviy bog‘langan edi. Bo‘yoqchilik bilan shug‘ullangan hunarmandlar - Buxoro xonligiga oid hujjatlarda **“sabbog‘lar”** nomi ostida eslatib o‘tiladi. Xususan, XVI asrga oid hujjatlarda **“Do‘st Sabbog‘”, “Ibn Ali Sabbog‘”, “Mirek Sabbog‘”, “Sayid Islom Sabbog‘”**lar nomi keltiriladi².

Matolarni bo‘yash, odatda, maxcus ustaxonalar yoki hunarmandlarning uylarida amalga oshirilgan¹. Bo‘yoqchilik ustaxonalari ko‘pgina shaharlarda asosan, bozor yaqinida yoki ular hududida joylashar edi². Bu o‘rinda Juybor shayxlari arxiviga oid quyidagi hujjat xarakterlidir. Unda Qosim ismli Ustodning unga tegishli **“Masjid-i mavlono Raxmatallo ko‘chasida joylashgan Darvozai nou bozoridagi ... bo‘yoqchilik do‘konining”** sotilishi haqida ma‘lumot beriladi³. Bo‘yoqchilik ustaxonalari ko‘p hollarda shahar markazi yoki bozorlarda joylashish an‘anasini keyingi asrlarda ham saqlab qolganini XIX asr ma‘lumotlari orqali ham kuzatish mumkin. Shu asr muallifi Kattaqo‘rg‘on misolida quyidagilarni qayd etgan edi. Uning yozishicha shaharning masjiddan boshlangan va Payshanba darvozasigacha yo‘nalgan ko‘chasining **“O‘ng va chap tomonlarida yahudiy-bo‘yoqchilarning do‘konlari cho‘zilib ketgan, bostirmalar tagida ularning egalari o‘tiradi... Ularning hammasining qo‘li tirsakkacha yorqin ko‘k rangdadir. Terining odatdan tashqari bu rangining sababi - bo‘yoqchilarning ko‘p hollarda indigo (nil -G.A.) bilan boylaganlaridandir”**⁴.

Shu bilan birga bo‘yoqchilar o‘z hunarlari bilan asosan shahar markazi yoki bozorlardan tashqari, uning chekkalaridagi suvlar ariqlar bo‘yida ham shug‘ullanishlari mumkin edi. Xususan, Toshkentga oid ma‘lumotlarda **“ariqlarda endigina bo‘yalgan matolarni chayayotganlarini ko‘rasiz”**⁴ - deb qayd etilgan edi.

¹ Иванов П.П. Хозяйство джуйбарских шейхов. Док. № 84, 90. С. 135,147; Док.№ 93. С. 148; Док. № 216. С. 223.

² Куя А. Культура оазиса низовьев Аму-Дарьи. С. 241.

³ Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла. С. 80-81.

⁴ Кирзиев Н. Рахмед-инак бек заадинский. С. 210

⁵ Корреспонденция из Ташкента // Туркестанский сборник. Спб., 1868. Т. 7. С. 91.

⁶ Маев Н.А. Азиатский Ташкент // Материалы для статистики Туркестанского края. 1876. Вып. V. С. 364.

Ushbu shaharning **Sebzor dahasi** aholisining asosiy hunar turlaridan biri "ip gazlamalarni bo'yashdan iborat bo'lgan"⁵.

Bo'yoqchilar nafaqat tayor mahsulot - gazlama turlari, balki ipakni ham bo'yashga ixtisoslashgan edilar. Ular, asosan, xom ipak va pishitilgan ipakni turli ranglarga bo'yar edilar. Bu soha vakillari ko'p hollarda to'quvchilar yoki ipak bilan savdo olib boruvchi mahalliy savdogarlar buyurtmasi asosida ish olib borar edilar.

Alohida hunarmandchilik turi bo'lgan bo'yoqchilik deyarli hamma shaharlarda keng rivojlangan, ularning ayrimlarida esa yetakchi o'rin tutgan edi. Birgina **Gurlan** haqida XIX asr mualliflaridan biri, shahardagi "ishlab chiqarish sohalari orasida bo'yoqchilik muhim o'rin tutgan", - deb qayd etadi.

Bo'yoqchilar o'rtasida o'ziga xos mehnat taqsimoti mavjud edi. Ushbu sohani tadqiq etgan I.M.Krauzening ko'rsatishicha, ayrim matolarga rang berishda uni avval ko'k rangga bo'yaganlar. Buni muayyan bo'yoqchilar amalga oshirganlar. Matoni o'zga ranglarga bo'yashni esa boshqa bo'yoqchi-hunarmandlar bajarganlar.

Gazlama, ip va ipakni bo'yashda turli ranglardan foydalanganlar. Bunda bo'yoqchilar ishlatadigan qozonlar yerga o'ratilgan bo'lib, "ayrim bo'yoqlar qaynab chiqqan bo'lishi, boshqalari esa faqat isitilgan bo'lishi lozim edi"¹. Bo'yoqlarni tayyorlashda asosan turli ranglarni beruvchi mahalliy tabiiy vositalardan foydalanganlar. Xususan, qizil rang berish uchun **ro'yanni** ishlatganlar. Bu o'rinda Kom-i Abu Muslim tumanidagi "ro'yan unib chiqqan bir yer uchastkasini" Juybor shayxlaridan Xoja Sa'adga ma'lum bir shaxs tomonidan sotilganligi haqidagi ma'lumot diqqatga sazovordir².

Bo'yoqchilar tomonidan sariq rangni **isparakdan**, sarg'imtir barg rang tut daraxtida o'suvchi **po'kakdan**, mahalliy bog'larda o'suvchi daraxtdan barg rang - tuxmaq shoyini qora rangga bo'yashda ishlatiladigan rang **gulgayridan** va boshqalardan olingan³. Guli maxsardan esa **pushti rang** bo'yoq olganlar. Bo'yoqchilar ishlatgan ranglar ichida qirmiz bo'yog'i muhim o'rin tutgan bo'lib, uni topish va tayorlash ancha murakkab hamda mashaqqatli jarayonni tashkil etgan. U "qirmis" deb ataluvchi **hasharotdan** olinar edi. Florio **Beneveni** "cho'lda hasharotlarning biridan qirmiz deb ataluvchi bir qimmatbaxo bo'yoq olinadi, - deb guvohlik berar ekan, - yahudiylar bu hasharotlarni ezib, ushbu bo'yoqni oladilar"⁴, - deb qo'shimcha qiladi.

Xunarmandlar boshqa yurtlardan keltirilgan bo'yoqlardan ham keng foydalanganlar. Buxoroga Qobul orqali Xindistondan shamshid daraxti - "**chub-i sandal**" keltirilgan⁵. Undan mahsulotlarni **ko'k va jigarrangga** bo'yashda foydalanilgan. Chet mamlakatlardan to'q **gunafsha va qizil rang** sifatida foydalanilgan. "**Chub-i bakam**" deb ataluvchi bu xom ashyo Samarqandga oid XVI asr hujjatlarining birida tilga olinib o'tiladi⁶. XIX asrga oid ma'lumotlarga ko'ra "**qizil baqam**" va "**qora baqam**"lar ham keltirilgan⁷. Matolarni bo'yashda pista

¹ Мухоминова Р.Г. Очерки по истории ремесла. С. 89.

² Краузе И.И. Заметки о красильном искусстве туземцев. С. 209-210.

³ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 115.

⁴ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 115.

⁵ Мухоминова Р.Г. Очерки по истории ремесла. С. 89.

⁶ Мухоминова Р.Г. Очерки по истории ремесла. С. 89.

⁷ Краузе И.И. Заметки о красильном искусстве туземцев. С. 209-210.

daraxtdai olinadigan sarg'ish kichkina urug'ar - **buzg'unchni** ham ishlatganlar. Bo'yoqchilar mahalliy buzg'unch bilan birgalikda, uning chetdan olib kelinadigan turidan ham keng foydalanganlar. XIX asrning 20-yillariga oid ma'lumotlariga ko'ra, buzg'unch Buxoroga Mashhaddan keltirilgan⁸

Xorijdan keltirilgan bo'yoq vositalaridan eng ko'p tarqalgani **mil (indigo)** bo'yog'i bo'lib, u ko'plab miqdorda Xindistondan keltiriladi. U bilan, asosan, mato va boshqa narsalami qora yoki to'q ko'k rangga bo'yaganlar. Bu bo'yoq turi xonliklar shaharlariga muntazam ravishda keltirilib turilgan va u bilan savdoni amalga oshirishga ixtisoslashgan muayyan shaxslar bo'lgan. XVI asrga oid hujjatlarining birida "Mir Nilfurush" ismi eslatib o'tiladi. Nil bo'yog'ining **Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari** shaharlariga keltirilishi XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asrning birinchi yarmida juda oshdi. Ayniqsa, XIX asrning birinchi yarmida Qarshi, Shaxrisabz, Buxoro, Toshkent, Xiva va boshqa shaharlar karvon-saroylari bu mol bilan to'la edi.

Matolarni nil bo'yog'i bilan bo'yash va umuman bo'yoqchilik ishida ko'proq yaxudiylar mashg'ul bo'lib, ularni deyarli hamma shaharlarda uchratish mumkin edi. Masalan, Samarqandda nil bo'yog'iga matolarni bo'yash ishi bilan "faqat mahalliy yaxudiylar shug'ullanganlar".

G.I.Danilevskiyning XIX asrning 40-yillarida yozishicha, Xivada "bunday 16 yil burun Buxorodan ko'chib kelgan 8 yahudiy oilasi bo'lib, ular bo'yoqchilik, shu jumladan, nil bo'yog'i bilan matolarni bo'yash hunari bidan shug'ullanganlar"³. Ayrim hollarda nil bo'yog'i xonliklar shaharlaridan boshqa mamlakatlarga ham olib borilgan. Xususan, 1641 yilda Rossiya Xiva elchisi **Muhammad Amin Baxodir** boshqa mollar bilan birga "4 ta idishda nil" bo'yog'ini olib borgan.

Turli usullar bilan tayyorlangan xilma-xil bo'yoqlardan hunarmandchilikning boshqa sohaları - **ko'ncilik, qog'oz ishlab chiqarish, qo'lyozma kitoblarni bezash, siyohlar** tayyorlash va h.k. foydalanilgan. Masalan, terini qizil rangga bo'yashda - **ro'yan**, sariqqa bo'yashda **isparak**, yashil rangga bo'yashda **po'kakdan** foydalanilgan. Xonliklar shaharlarida ishlab chiqarilgan mahalliy bo'yoqlar boshqa yurtlarga ham olib borilgan. Bu holat ularning sifati yuqori bo'lgani va o'zga mamlakatlarda ham bu bo'yoqlarga talab katta bo'lganligidan dalolat beradi. Jumladan, 1585 yilda Abdullaxon II tomonidan Moskvaga yuborilgan elchi **Muhammad Ali** rus podshosi **Fyodor Ivanovich**ga olib kelgan mollari qatorida "40 pud bo'yoq" ham bor edi. Xuddi shu yili Qozonga kelgan **Xiva elchisi Xo'ja Muhammad** ham keltirgan boshqa mollari ichida "10 kal bo'yoq" qayd etib o'tiladi. Buni XIX asrda ham kuzatish mumkin. **P.I.Demezonn**ing ko'rsatishicha, Buxorodan Xirotda buzg'unch olib ketilgan.

Shaharlarda kiyim-bosh ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunarmandchilik sohaları ham keng rivojlangan edi. Hunarmandlar shahar qushni qishloqlar, boshqa shaharlar dasht ahli va ba'zi hollarda ayrim mamlakatlar aholisi extiyojlarini qondiradigan mahsulotlar yaratganlar. Bunday hunarmandlar jumlasiga tikuvchilar, bosh kiyim, xususan, **do'ppi tikuvchilar oyoq kiyim tikuvchi kafshdo'zlar, etikdo'zlar** va boshqalarni kiritish mumkin.

⁸ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 115.

Tikuvchilar tomonidan ko'p ishlab chiqarilgan kiyim-bosh turlaridan biri **to'n** bo'lib, u haqida so'nggi o'rta asr manbalarida ma'lumotlar mavjud. Jumladan, XVI asr muallifi Muhammad Solix Shoxruxiyaga yurish qilgan **Muhammad Shayboniyxon**ning ukasi **Sulton Mahmud** qo'shinining kiyim-boshi jumlasida sovuqqa chidanli "Ichu tosh to'n'lari borcha tukluk", "Qoysining to'ni erdi oltoyi, ul qizir erdi yurugan soyi" kabi tavsiflarni keltiradi¹.

XVII asr muallifi Abulg'azi ham o'z asarida, Urganchni **Arab Muhammadxon** davrida rus kazaklari tomonidan talangani haqida yozar ekan, ular "Bo'z va bo'yoqli va palos va to'n va to'shak-yastug' mundag' nimarsalarning barchasini o'tga yoqdi"², - deb qayd etadi.

Shahar hunarmandlari to'n'larning turli xillarini tikkanlar. Buni XIX asrga oid hujjatli materiallar asosida ham kuzatish mumkin. Xususan, Xiva shahrida tuzilgan hujjatlarda ayrim shaxslarga "**latta to'n, malla to'n, chit to'n, shoyi to'n**lar tiktirib berilgani qayd etiladi³.

Kiyim – boshning muhim turlaridan biri - **ro'mollar, qiyiqalar, dastro'mollar** hisoblangan. Ular ko'p hollarda boshqa markazlar va mamlakatlarga olib ketilgan. 1639-1672 yillarga oid ma'lumotlariga ko'ra xonliklar shaharlaridan **Tara** va **Tobolskka** "**ip va yarim ip belbog'lar**" keltirilganligi qayd etiladi³.

Kiyim-boshning ajralmas qismlaridan biri **bosh kiyimlari** bo'lib, ularni tikish bilan ko'pgina hunarmandlar shug'ullanganlar. Ular "**taqiyado'zlar**" nomi ostida XVI asrda Buxoroga doir hujjatlarda eslatib o'tiladi. Jumladan, ularda "Mir Hoshim Taqiyado'z va ustod Hovand Taqiyado'z", "Darvish Ali Taqiyado'zlar qayd etib o'tiladi⁴. Shuningdek bu hujjatlarning birida "**Taqiyado'zlar timi**" haqida ham so'z yuritiladiki, bu ma'lumot shaharda ushbu hunar turi keng tarqalganligidan dalolat beradi⁵.

Turli matolar – ip va ipakdan tayyorlangan **kiyim-bosh turlari** va **do'ppilarga kashtalar bilan bezak berilgan**. Bu ish bilan ko'proq ayollar mashg'ul bo'lar edilar. "Buxorolik ayollar uchun **yo'rmado'zlik** yaxshi vaqt o'tkazish uchun xizmat qiladi, - deb yozgan, YE.K Meyendorff, - ular shoyi ro'mollarga yo'rmado'zlik bilan Hofiz asarlaridan olingan she'riy parchalarni bitadilar"⁶, - deb qayd etadi.

Shaharlarda turli iqlim sharoitlari, ayniqsa sovuqda kiyish uchun turli **qalpoqlar, movutdan tayyorlangan bosh kiyimlari** ham ishlab chiqarilgan. Bunday bosh kiyimlaridan biri haqida habar bergan **Muhammad Solix Shayboniyxon** askarlaridan biri kiygan qalpoq xususida: "Boshida bor edi keshlik qalpoq, Jumburubon yopurib erdi quloq", - deb yozadi⁷. Shuningdek, **Muhammad Solix**ning sovuq oqibatida qalpoqfurushlar" ishi jonlanib ketganligi haqidagi xabari bu o'rinda diqqatga sazovor ma'lumotdir.

¹ Muhammad Solix. Shayboniynoma. Nashrga tayyorlovchi. Э. Шодиев. - Т.: Адабиёти ва санъат, 1989. - 127-6.

² Абулғазий Шажарайи турк. 159-6.

³ XIX asr Xiva davlat hujjatlari. 166-6.

⁴ Muhammad Solix. Shayboniynoma. Nashrga tayyorlovchi. Э. Шодиев. - Т.: Адабиёти ва санъат, 1989. - 127-6.

⁵ Иванов И.И. Хозяйство джукбарских шейхов. Док № 14. С. 101.

⁶ Muhammad Solix. Shayboniynoma. Nashrga tayyorlovchi. Э. Шодиев. - Т.: Адабиёти ва санъат, 1989. - 127-6.

⁷ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 117

⁸ Muhammad Solix. Shayboniynoma. 128-6.

Xonliklar shaharlarida ishlab chiqarilgan kiyim-bosh ayrim xollarda uzoq o'lkalarga ham olib borilgan. 1639-1672 yillarda Tara bojxonasining hujjatlaridan birida qayd etishicha, bu yerga boshqa kiyim-bosh turlari bilan bir qatorda "ko'ylaklar va ishtonlar keltirilgan"

Kiyim-bosh tikuvchi hunarmandlar orasida **po'stindo'zlar** alohida o'rin tutar edilar. Mahalliy hunarmandlar bu sohada o'z ishining mohir ustalari edilar. Bu o'rinda Abulg'ozining quyidagi ma'lumoti diqqatga sazovordir. Uning yozishicha, **Akatoyxonning o'g'li Temur sultonning** "ustunda, zarbof toshli, oltin tugmali qish po'stini bor" edi¹. Xorazmga yurish qilgan Shayboniyxon qo'shinlarning juda sovuq havoda nochor ahvolga tushib qolganliklari haqida yozar ekan, Muhammad Solix quyidagilarni qayd etadi: "Po'stinsiz kishiga jon yo'q edi. Jon nekim, lazzati imon yo'q edi. Pustin olmoqchun bo'ldi roy. Pustindo'zlar bo'ldilar boy"². Shunday po'stindo'z -ustalardan birining nomi XVI asrga oid hujjatlarning birida "Qorako'llik ustod Aliquli Po'stindo'z" tarzida keltiriladi³.

Hunarmandlar turli po'stin xillarini yaratganlar. Ular o'z navbatida qimmatbaho mo'ynalardan **po'stin tikuvchi ustalar** - mo'ynado'zlar shuningdek, ancha arzon qo'y terisidan po'stin tikuvchi po'stindo'zlarga bo'linar edilar⁴. Po'stindo'zlar ishlab chiqargan mahsulotlarning xilma-xilligini XVI asr muallifi **Zayniddin Vosifiyning** quyidagi xabaridan ham kuzatish mumkin. Muallif XVI asr boshlarida Samarqanddagi sovuq paytida unga "mo'ynali po'stin va to'n", o'n xurosonlik talabaga esa "qo'y pustini, ko'ylak va ishton" taqdim etgan Mirak Shoxiy haqida xabar beradi⁵. Hunarmandlar po'stinlar tikish uchun ko'p xollarda **tulki, suvsar** mo'ynasidan ham foydalanganlar Muhammad Solix Shayboniyxon askarlarining qaysi biri "**tulki**", qaysi biri "**suvsar**" libosga o'ralganni qayd etadi⁶. Shaharlarda tikilgan po'stinlar uzoq yurtlarga ham olib borilgan. Jumladan, 1639-1672 yillarda Toboskka keltirilgan mollar ro'yxatida "tulki terisidan tikilgan po'stin" qayd etilsa⁷, 1637-1698 yillarda Taraga keltirilgan mollar qatorida "**mo'ynali po'stinlar**" va "**oddiy po'stinlar**" qayd etiladi. Po'stindo'zlar XIX asrning birinchi yarmida ham o'z hunarlari bilan faol shug'ullanganlar. Xususan, Buxorodagi Abdullaxon karvon-saroyida po'stin bilan savdo qiluvchilar o'z mollarini saqlaganlar va sovuq boshlanishi bilan bu kiyim turi bilan keng savdoni amalga oshirganlar.

Xiva va Qo'qon xonligining ayrim shaharlarida ham po'stindo'zlik ancha rivojlangan edi. Xususan, Toshkentda qo'shni dasht ahliga sotish uchun katta miqdorda po'stinlar tayyorlangan⁸.

Shaharlarda aholiga nafaqat kiyim-bosh, balki kundalik turmush uchun zarur bo'lgan uy-ro'zg'or anjomlari - **ko'rpacha, ko'rpacha va yostiqlar** yetkazib beruvchi hunar sohalari ham rivojlangan va bu mahsulotlar bilan keng savdo amalga oshiril

¹ Абулғозий Шажарайи турк. 148-6.

² Мухаммад Солих. Шайбонийнома. 278-6.

³ Иванов П.П. Хозяйство джуйбарских шейхов. - Док. № 306 С. 285.

⁴ Казийские документы XVI в. С. 75-76.

⁵ Болдырев А.Н. Мемуары Зайн-ад-дина Васафи, как источник для изучения культурной жизни Средней Азии и Хорасана на рубеже XV-XVI веков // Труды отдела истории культуры и искусства Востока Государственного Эрмитажа. Т.Н. 1940. С. 226.

⁶ Мухаммад Солих. Шайбонийнома. 127-6.

⁷ Мухаммад Солих. Шайбонийнома. 127-6.

⁸ Гейнс А.К. Управление Ташкентом при Кокандском владетельстве. С. 522.

edi. Bunga Xiva xonlari arxiviga oid hujjatlarga asoslangan xolda amin bo'lish mumkin. Ularning biridan ma'lum bo'lishicha, bozordan "xon xazratlariga "kazma maxmal ko'rpacha" olib berilgan edi

Aholi orasida doimo arzon va pishiq **sopol idishlarga** talab katta edi. Bunday talabni qondirishda kulollarning mehnati o'ta muhim edi. Ular ro'zg'or uchun kerakli **turli-tuman idishlar, tandirlar, qurilishda ishlatiladigan koshinli g'ishtlar** va h.k. ishlab chiqarganlar. Ular o'z mahsulotlari bilan nafaqat shahar, balki qishloqlar va qo'shni dasht ahlini ham ta'minlar edilar. Kulollar yaratgan mahsulotlarni XIX asr muallifi Xo'jand shahri misolida uch guruhga bo'ladi. Bular oddiy tuproqdan tayyorlangan mahsulotlar **tandirlar, xumlar, ko'zalar, ko'zachalar, xumchalar va x.k.**, oddiy tuproqdan tayyorlanib, sirlangan mahsulotlar: **sirlangan g'isht-koshinlar, uy-ro'zg'or buyumlari - piyolalar, laganlar** va boshqalar, oq tuproqdan: bunda **gilvatan**dan foydalanilgan yasalgan va **sirlangan fayans**, ya'ni, ganch aralash loy idishlarni kiritish mumkin¹. Kulolchilik mahsulotlarining bunday tarkibida ishlab chiqarilganligini boshqa shaharlar misolida ham kuzatish mumkin. XVI asr hujjatlarida Buxoro kulollari "**kosagar**", sopol kosalar, tovoqlar ishlab chiqaruvchilar "**kosataroshlar**" tarzida keltiriladi. Xususan, ularda Xo'ja Kosataroshning o'g'li Bobo Alining "Mulla Amir bozori yaqinidagi do'koni" va G'ijduvonda paxta tituvchilar darvozasi yaqinida joylashgan kosagarlar kvartali eslatib o'tiladi². Buxoro haqidagi 1823 yilga oid ma'lumotda "**qurol, shisha, kulolchilik va chinni zavodlari bor**"³, - deb qayd etilgan edi.

Buxoro kulollari bilan bir qatorda **Qarshi kulollari** ham mashhur edi. Ular turli shaklga ega juda yupqa idishlar yasashda mohir bo'lganlar. Toshkentda esa, shaharning Ko'kcha qismida XIX asrning 70 yillarida **7 ta kulolchilik ustaxonasi bo'lgan**⁴. XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligining yirik kulolchilik markazlaridan biri **Rishton** edi. "Rishtonda bizning ko'z o'ngimizda sopol idishlarni yasaganlarini va ularni havo rang bilan sirlaganlarini ko'rdik"⁵, - deb yozadilar shoxidlar. Kulolchilik mahsulotlariga sir berishni boshqa shaharlar hunarmandlari ham yaxshi egallagan edilar. Bunday mahoratli ustalar tomonidan yaratilgan "sirlangan va sirlanmagan chirog'donlar" Ko'hna Urganch harobalaridan topilgan edi⁶.

Kulolchilik ham boshqa hunarmandchilik sohalari kabi o'rta asr jamiyatidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holatga bog'liq ravishda rivojlangan yoki inqirozga yuz tutgan. Buning yorqin misolini ko'ra Urganch misolida kuzatish mumkin. Tadqiqotchi N.N. Vakturskayaning ko'rsatishicha, XV-XVII asrlarda Xorazm kulolchiligi chuqur inqirozni o'z boshidan kechirgan bo'lib, bu soha mahsulotlarining sifati ancha pasayganligida ko'rinadi¹.

¹ Кушакевич А.О. О гончарном производстве в Ходжентском уезде // Русский Туркестан. 1872. Вып. 11. С. 194-196.

² Иванов И.И. Хозяйство джуйбарских шейхов. Док. № 83. 283. С. 143, 257.

³ Краткое описание Бухари и Хивы // Сибирский Вестник. 1823. 4.1. С. 6.

⁴ Масв Н. Азватский Ташкент. С. 265.

⁵ Путешествия в Среднюю Азию и Францию в 1878 и 1879 годах (Самарская ученая экспедиция). С. 89.

⁶ Вактурская Н.Н. Раскопки городища Ургенч в 1952 г. // Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1949-1953 гг. М.: 1958. С. 486.

¹ Вактурская Н.Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма (IX-XVII вв.) // Труды Хорезмской археоло-этнографической экспедиции. М., 1959. Т. IV. С. 328.

Ko'plab yirik inshootlar qurilishi amalga oshirilgan shaharlarda hunarmandchilikning g'isht ishlab chiqarish sohasi ham rivojlangan edi. Buni Buxoroga oid ma'lumotlar asosida to'la kuzatish mumkin. Katta qurilishlar olib boriladigan bu shaharda doimo g'ishtga talab katta edi. Odatda, g'isht xumdonlari shahar chetida joylashar edi. Buni XVI asr ma'lumotlaridan kuzatish mumkin. Ularning biridan ayon bo'ladiki, g'isht tayyorlovchi usta Xasan g'ishtpazning yarlari Buxoroning Namozgoh darvozasiga yaqin joylashgan edi". XIX asrda shaharni g'isht bilan ta'minlaydigan bir qancha g'isht xumdonlari bo'lib, ular ham "shahar chetida" - "Janubda va Sharqda... unga juda yaqin masofada joylashgan edi". G'isht ishlab chiqarish Xiva xonligida ham keng rivojlangan edi².

XIX asming birinchi yarmida Qo'qon xonligining yirik kulolchilik markazlaridan biri Rishton edi. "Rishtonda bizning ko'z o'ngimizda sopol idishlarni yasaganlarini va ularni havo rang bilan sirlaganlarini ko'rdik"³, - deb yozadilar shoxidlar. Kulolchilik maxsulotlariga sir berishni boshqa shaharlar hunarmandlari ham yaxshi egallagan edilar. Bunday maxoratli ustalar tomonidan yaratilgan "sirlangan va sirlanmagan chirog'donlar" Ko'na Urganch xarobalaridan topilgan edi⁴.

G'isht ishlab chiqarish Xiva xonligida ham keng rivojlangan edi⁵.

Hunarmandlar koshinlar ham yasaganlar. Bu mahsulotdan hashamatli binolar qurilishida keng foydalanilgan. XIX asming 70 yillarida mualliflardan biri "Qo'qonda hozir bunday koshinlarni Xudoyorxon saroyi uchun yasamoqdalar, shuningdek, aytishlaricha, har kuni 40 ta usta ishlamoqda"⁶, - deb qayd etgan edi.

Xivada ham bunday hunarmandchilik turi keng rivojlangan bo'lib, koshinlar Katta hajmlarda ishlab chiqarilgan. "Xivada tayyorlangan boshqa nafis narsa - bu sirlangan g'ishtlardir"⁷, - deb qayd etgan edi XIX asr mualliflaridan biri.

Kulollar nafaqat turmush uchun kerakli anjomlar, balki bir qator **nafis san'at namunalari**ni ham yaratganlar. Ko'xna Urganch harobalaridan topilgan **"qizil ranga bo'yalgan"** sopoldan yasalgan ot shakli buning yorqin misoli bo'la oladi⁸.

G'ishtpazlar kabi kulollar ham odatda, o'z mahsulotlarini shahar chetlarida yaratar edilar. Ularning ustaxonalari asosan shu yerlarda joylashar edi. Buni quyidagi ma'lumotdan kuzatish mumkin. Kattaqurg'onda Narpay daryosidan o'tgan shoxidning XIX asrga oid ma'lumotiga ko'ra, "Endigina tayyorlangan va qurishga ulgurmagani katta va kichik loy idishlarning ko'p qatorlari quyoshda quritilmoqda" edi. Guvoh bu mahsulotlarning "o'zini pechda kuydirilishini" kutayotganligini yozar ekan, "bu yerda kulolchilik ustaxonasi bor"¹, - deb qayd etadi.

Shaharlarda eng taraqqiy etgan hunarmandchilik sohalaridan biri - **turli metallarga ishlov berish** va ulardan har xil buyumlar ishlab chiqarish edi. O'z kasbining mohir ustalari mavjud bo'lib, ular aqlni hayratga soladigan darajada

² Иванов И.И. Хозяйство джуйбарских шейхов. Док. № 258. С. 244.

³ Путешествия в Среднюю Азию и Францию в 1878 и 1879 годах (Самарская ученая экспедиция). С. 89.

⁴ Вактурская Н.И. Раскопки городища Ургенч в 1952 г. // Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1949-1953 гг. М., 1958. С. 486.

⁵ Иванин М.И. Хива и река Аму-Дарья. СПб.: Обществ. Польза, 1873. С. 61.

⁶ Кушакевич А. О гончарном производстве в Ходжентском уезде. С. 135.

⁷ Калмыков А. Хива // Протоколы заседаний и сообщений членов Туркестанского кружка любителей археологии. Т., 1908. С. 59.

⁸ Вактурская Н.И. Раскопки городища Ургенч в 1952 г. С. 486.

¹ Каразин Н. Рахмед-инак-бек зиадинский. С. 205.

temirchilik mahsulotlarini yaratganlar. Bu o'rinda Hofiz Tanish Buxoriyning Abdullaxon II ning Samarqand hokimiga qarshi "oltin dubulg'a" va "yuzlab ko'zlar ochilib turgan sovt" bilan qurollangan holda jangga kirganligi haqidagi ma'lumoti diqqatga sazovordir. Bu o'sha davr temirchi- ustalarining yuksak mahoratidan darak beradi²

Metallning turli xillari – **temir, mis, bronza, cho'yan, kumush, oltin** kabilardan turli-tuman uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari, binolar qurilishida ishlatiladigan turli temir moslamalar, zebi-ziynat buyumlari va x.k. ishlab chiqarilgan.

Hunarmand ustalarining temirchilik sohasida turli mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi ularning nomlarida ham o'z aksini topgan Jumladan, Samarqandga XVI asrga oid hujjatlarda temurchilar - **oxangarlar, bronzadan turli buyum quyuvchilar - rextagarlar, cho'yan buyumlarni quyuvchilar - cho'yangarlar, mix yasovchi ustalar mexchagarlar** tarzida keltiriladi³.

Temirchilik turli buyumlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan turlarga bo'linib ketar va ustalar biror –bir mahsulot turini ishlab chiqarish bilan mashg'ul edilar. XVI asrga oid hujjatlarda buxorolik Amir So'zangar ya'ni, igna yasovchining o'g'li Mir Kalon, ustod Aziz Mexchagar - mix yasovchi va qorako'lilik Ustod Muhammad Kordgar - pichoqchining nomi qayd etilgan⁴.

XIX asr muallifi birgina Samarqand misolida temirchi ustalami uch guruhga bo'lib ko'rsatgan. Unga ko'ra, birinchi guruh vakillari kichik hajmdagi mahsulotlar - **eshik zanjirlari, taqalar, mixlar, arava g'ildiraklari** uchun xalqalar va x.k yasaganlar; ikkinchi gurux vakillari esa, **toshtaroshlar, duradgorlar, yer qazuvchilar uchun mehnat qurollari**, shuningdek, **o'roqlar** ham yasaganlar. Uchinchi gurux hunarmandlari esa, **pichoq, qaychi, ustara, bigiz** va boshqa narsalarni yasaganlar. Bu hunarmandchilik sohasini kuzatgan mualliflardan biri "U yoki bu guruh mahsulotlarini tayyorlovchi temirchilik ustaxonalarini qurishimga to'g'ri keldi, lekin uchchala gurux mahsulotlarini baravariga tayyorlaydigan temirchilik ustaxonalarini ko'rmadim"¹, - deb qayd etgan edi Bu xolatni boshqa shaharlar misolida ham kuzatish mumkin.

1819-1820 yillarda N.Muravyevning, xivaliklar temir idishlarni "o'zlari kam yasaydilar", - deb qayd qilishiga qaramay, bu hunar turi bu o'lkada ham rivoj topgan edi. Mahalliy ustalar aholining kundalik ehtiyojlari uchun **ustara, pichoq, qaychi, o'roq, arava o'qlari, arra, bolg'a** va x.k. yasalar edilar². Xivalik temirchilar yaratgan mahsulotlar ichida temir va misdan yasalgan panjaralar ham alohida o'rin tutgan. Xususan, 1811 yilda Xivada qurilgan Polvonota masjidiga dafn etilgan Muhammad Rahimxon qabri "mis panjara bilan o'ralgan" edi³.

1835 yilda qurilgan Saidboy masjidining derazalari "oynasiz, lekin temir panjarali edi"⁴.

² Хафиз-и Таниш Бухари. Шарафнама-йи шаҳи Ч. 2. С. 58.

³ Казийские документы XVI в. С. 75-76.

⁴ Иванов И. И. Хозяйство джуйбарских шейхов. Док. № 72.75, 308. С. 135, 138, 286.

¹ Кирпичников Н. А. Краткий очерк некоторых туземных промыслов. С. 126.

² Данилевский Г. И. Описание Хивинского ханства. С. 103.

³ Данилевский Г. И. Описание Хивинского ханства. С. 103.

⁴ Данилевский Г. И. Описание Хивинского ханства. С. 103.

Temirchilik ustaxonalari, asosan, bozorlarda yoki ularning yonida joylashar edi. Qo'qon bozorlarini tahlil etgan V.Nalivkin va M. Nalivkinalar, bu yerdagi do'konlarda "temirchilar, sarroshlar, egarchilar, tikuvchilar, kumush bilan ishlovchi hunarmandlar va misgarlar ishlab", shu yerning o'zida o'z mahsulotlarini sotganliklarini ko'rsatib o'tadilar⁵

Namanganda ham temirchilar ko'p bo'lib, ular ishlab chiqardigan mahsulotlari turiga qarab xilma-xil mutaxassisliklarga bo'linar edi. Mahalliy temirchilar orasida pichoqsoz ustalar mashhur bo'lib, ular yaratgan mahsulotlarga talab katta edi⁶.

Temirchilik keng taraqqiy etgan markazlardan biri – bu **Toshkent shahri** edi. Bu yerda ustalar turli maxsulotlar - **pichoq, kaychi, ustalarlar** yasaganlar. Shu bilan birga, ular po'latdan qimmatbaxo **pichoqlar**, turli hunarmandchilik asboblari, xususan, **duradgorlar va chilangarlarning** ish asboblari, **bolg'a va omoch** singari mehnat qurollarini ham ishlab chiqarganlar⁷.

Ayrim hollarda temirchilar o'z mahsulotlarini nafaqat bozorlardagi ustaxonalarida, balki uylarida ham tayyorlaganlar. Bunday hunarmandlar jumlasiga **taqachi-nag'alchilarni** kiritish mumkin. Toshkentga oid ma'lumotlar ko'rsatishicha, bu hunarmandlar o'z mahsulotlarini uylarida ham yasab, bozorlardagi do'konlariga olib borganlar va shu yerning o'zida buyurtmachilarga nag'al qoqib berganlar⁷. XVI asr hujjatlarida bu hunar egalari "**na'lband**" deb qayd etilgan⁸. Shunday ustalardan biri "Ustod Tursun Na'lband" nomi Jo'ybor shayxlari tomonidan rasmiylashtirilgan hujjatlardan birida eslatib o'tiladi¹.

Shaharlarda cho'yandan turli buyumlar quyib yasovchi ustalar - **degrezlar** ham faoliyat yuritganlar². Ular xo'jalikda kerakli bo'lgan turli buyumlar, chirog'donlar, ko'chma o'choqlar va boshqalami yasaganlar. Bu o'rinda **Tara bo'jxonasida** 1637-1698 yillarda bu yerga xonliklardan keltirilgan "**chugunniye**" qozonlarining eslatib o'tilishi diqqatga sazovordir³. Buxoro haqida yozgan YE.K.Meyendorff: "Taqr-tuquriga qaraganda qozonchilarning ishlari ko'p bo'lsa kerak", deb qayd etgan edi⁴.

Cho'yandan va boshqa metall turlaridan xilma-xil buyumlarni yasashga ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari keng rivojlangan markazlardan biri **Samarkand shahri** bo'lib, bu yerda hunarmandlar **qozon, qozoncha, xovoncha, chiroqdon, choygum, choynak, omoch, arava g'ildiraklari uchun o'qlar** va boshqalami yasaganlar⁵. Cho'yandan omoch va qozonlar Qo'qonda ham quyilgan⁶.

⁵ Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщин оседлого туземного населения Ферганы. Казань, 1886. С. 4.

⁶ Косимов Й. Наманган тарихдан лавҳалар. 18-6.

⁷ О туземном оружии в Туркестанском крае // Русский Туркестан. М., 1872. Вып. II. С. 214.; Папино П.И. О фабричной и торговой деятельности. С. 128.

⁷ Гейер И., Назаров И. Кустарные промыслы в Ташкенте. Тетрадь 1. Т. Изд. В.М. Ильина. 1903. С. 31.

⁸ Казийские документы. XVI в. С. 75-76.

¹ Абдуллаев Т.А. Художественные металлические изделия Самарканда // Из истории искусства великого города (К 2500 летию Самарканда). Т., 1972. С. 252-255.

² Абдуллаев Т.А. Художественные металлические изделия Самарканда / Из истории искусства великого города (К 2500 летию Самарканда). Т., 1972. С. 252-255.

³ Иванов П.П. Хозяйство джуйбарских шейхов. Док. № 57. С. 126.

⁴ Иванов П.П. Хозяйство джуйбарских шейхов. Док. № 57. С. 126.

⁵ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 116.

⁶ Хорошхин А. Очерки Кокана. С. 43.

Marg'ilonda ham **degrezlik ustaxonasi** bo'lgan. N.Sherbin-Kramarenko Marg'ilonda qozon va omoch tishlari quyiladigan ustaxonani ko'rdim"⁷, - deb qayd etadi.

Bunday hunarmandchilik ustaxonalari ko'p hollarda bozorlar va unga yaqin yerlarda mavjud bo'lar edi. Ayrim hollarda ular hunarmandning uyida ham joylashishi mumkin edi⁸.

Temirchilar orasida bronzadan turli buyumlarni quyuvchi ustalarning mahsulotiga talab katta edi. XVI asr hujjatlaridan birida bunday hunar egasi "So'fi Rixtagaming o'g'li Tursun Rixtagar" haqida xabar beriladi⁹. Rixtagarlar badiiy bezakli mahsulotlar - **qozonlar, kosalar, shandonlar, eshiklar uchun dasta, atirlar va yoqimli xid taratuvchi yog'lar, turli bo'yoqlar uchun kichkina idishchalar, qoshiqchalar** va h.k. ishlab chiqarganlar. Bunday mahsulotlarni birgina Samarqand misolida ko'rib chiqqan tadqiqotchilar XVII asrga qadar bu sohada mavjud bo'lgan badiiylik. keyingi ikki yuz yillikda ancha susayganligini qayd etadilar¹⁰.

Shaharlarda rivojlangan hunarmandchilik turlaridan biri **misgarlik** edi. Bu sohada faoliyat ko'rsatgan hunarmandlar turli idish-tovoqlar - **choygumlar, choynaklar, kosalar, laganlar, barkashlar va boshqa uy-ro'zg'or buyumlarini** yaratganlar. Ular tomonidan Xivada yasalgan mahsulotlar ichida mis qumg'onlar - "**tuncha**", choy qaynatish uchun bo'yni uzun, lekin ushlagichi yo'q "**ko'zalar**" va boshqalarni uchratish mumkin edi. Qo'qon xonligi shaharlarida ham misdan, xususan, qizil misdan turli-tuman uy-ro'zg'or buyumlarini yasaganlar.

Metallga ishlov berish bilan bog'liq hunarmandchilik sohalaridan yana biri **zargarlik** edi. Zargarlar mahalliy xomashyo - **oltin, kumush, miss** va boshqalardan turli-tuman **zebi-ziynat buyumlarini** yasaganlar. Xususan, 1823 yilga oid ma'lumotga ko'ra, Buxoro shaharlarida zargarlar o'z mahsulotlarini yaratishda "Amu daryosida, Zarafshon va ayniqsa Badaxshondan topilgan ko'plab oltin kumush va tog'lardan olingan turli qimmatbaxo toshlardan foydalanganlar¹.

Zargarlarning do'konlari, asosan, shaharlarning markaziy qismlarida joylashar edi. Ular tomonidan yaratilgan mahsulotlar jumlasiga **zirakning turli xillari, xususan, Samarqand zirak, Toshkent zirak, soch popuklar, bargak, tillaqosh, tumor, burunbuloq, bilaguzuklarni** kiritish mumkin. Toshkentda, xatto **kumushdan paranji tugmasini** ham yasaganlar². Zargarlar yasagan mahsulotlarga talab katta bo'lib, ular shaharlardan boshqa yerlarga olib ketilgan.

Shahar hunarmandlari aholining kam ta'minlangan qatlamlari va qo'shni dasht ayollari uchun arzonroq metallar - **kumush va misdan zirak, bilaguzuk, tug'nog'ichlar va boshqa zebi-ziynat buyumlarini** ko'plab yasaganlar. Buni XIX asrning 20 yillariga oid quyidagi xabar ham tasdiqlaydi: Buxoroda "Zargarlar pichoq, qilich, uzuklarni kumush bilan qoplaydilar, qirg'iz ayollari uchun zebi-ziynatlarni

⁷ Шербин-Крамаренко Н. По мусульманским святыням Средней Азии. С. 54.

⁸ Кирпичников Н.А. Краткий очерк некоторых туземных промыслов. С. 124-125.

⁹ Иванов И.И. Хозяйство джуйбарских шейхов. Док. № 45. С. 120

¹⁰ Абдуллаев Т.А. Художественные металлические изделия Самарканда // Из истории искусства великого города (К 2500 летию Самарканда). Т. 1972. С. 252-255.

¹ Краткое описание Бухария и Хивы. С. 78.

² Гейер М. Назаров И. Кустарные промыслы в Ташкенте. С. 9-16.

oltin bilan qoplaydilar va shuningdek, ot egar-jabduqlari uchun bezaklar tayyorlaydilar³.

Qimmatbaho metallardan zebi-ziynat buyumlaridan tashqari yuqori tabaqa vakillari uchun turli idish-tovoqlar ham yasalgan, sovg'a uchun tayyorlangan ko'pgina mahsulotlarga oltin va kumush bilan ishlov berilgan Muhammad Solih, xususan, oltin va kumush kadahlarni tilga oladi. Yuqori tabaqa vakillari uchun tayyorlangan "Nafis asbob, **nozik chinnilar, kumush va oltin idish-oyoqlarni** Xofiz Tanish Buxoriy ham qayd etib o'tadi⁴. 1585 yilda rus podshosi Fedor Ivanovichga Abdullaxon tomonidan yuborilgan sovg'alar ichida oltin bilan ishlov berilgan pichoqlar, pichoq qinlari, qadahlar, ikkita egar eslatib o'tilsa, xudi shu yili Xiva xoni Hojimaxon tomonidan rus podshosiga yuborilgan mollar ichida oltin bilan ishlov berilgan **po'lat qilich, qini kumushdan yasalgan po'lat pichoqlar, ikkita oltin bilan ishlov berilgan egar** qayd etib o'tiladi⁵.

Muxammad Yusuf Munshiy esa, Subxonqulixon tomonidan Maxmudbiy otaliqqa tortiq etilgan sovg'alar ichida "qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kamarni eslatib o'tadi⁶.

Shaharlarda harbiy ixtiloflar avj olgan davrlarda ahamiyati ayniqsa kuchli bo'lgan boshqa xunar turlari ham mavjud edi¹. Bu davr tuzumiga xos o'zaro kelishmovchiliklar, nizo, urushlar harbiy qurol-aslahalarga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarar va ularni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalarining rivojlanishini talab qilar edi².

O'rta asr mualliflari turli hukmdorlarning jangovor harakatlarini tasvirlar ekanlar, ayrim hollarda jangchilarning qurol-yarog'larini ham eslatib o'tadilar. Xususan, Muxammad Solih, "Buxoro yoyini" qayd etib o'tadi³. Bu mahsulot turining boshqa Davlatlarda ham mashhur bo'lganligini uning 1639-1672 yillarda **Tobolskka** olib borilgani ham tasdiqlaydi. Bu yerga Buxorodan 1639-1640 yillar davomida 61 ta "**Buxoro yoyi**" keltirilgan edi⁴. Imomqulixonning elchisi esa 1640 yilning 15 iyulida bu shaharga "53 ta Buxoro yoyi"ni olib kelgan edi.

XVI asrga oid hujjatlarda Buxoro yoylarini yasovchi ustalar - **kamongarlar** nomi ostida tilga olib o'tiladi. Xususan, ularda Buxorodagi Masjid-i Mulla Amir bozorida joylashgan uchta do'kon egasi Hasan Ali Kamongar, Ustod Boyazid Kamongarning o'g'li Xo'ja bobo Kamongar, Darvish Muhammad Kamongarlar nomi qayd etilgan⁵.

Kamon tayyorlash hunari Xivada ham keng rivojlangan edi. Bunga 1679 yili Anushaxon tomonidan rus podshosi Fedor Alekseyevichga yuborilgan sovg'alar

³ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 116-117.

⁴ Хофиз Танш Бухорий. Абдуллонома. 2-жид. 232-6.

⁵ Мухаммад Юсуф Мунши. Мукимханская история. С. 126.

⁶ Мухаммад Юсуф Мунши. Мукимханская история. С. 126.

¹ Хасанхожа Нисорий. Музакири ахбоб. 114-6.

² Хафиз-и Танш Бухари. Шарафнаме-йи шахи. Ч. 2. С. 49.

³ Мухаммад Солих. Шайбонийнома 126-6.

⁴ Мухаммад Солих. Шайбонийнома 126-6

⁵ Иванов И.И. Хозяйство джуйбарских шейхов. Док. № 32,43, 139. С. 112,119, 175.

ro'yxatidan amin bo'lish mumkin. Unda 9 ta po'lat qilich, 9 ta po'lat pichoq bilan birgalikda oltin bilan ishlov berilgan 9 ta kamon ham qayd etib o'tiladi⁶.

Hunarmandchilikning **kamon o'qlari tayyorlash sohalari** ham shaharlarda rivojlangan edi. Bu hunar turi bilan mashg'ul hunarmandlar **"tirgar"** deb atalgan. Buxoroga oid XVI asr hujjatlarida **Poyanda Tirgar, Maylono Axmad Tirgarning o'g'li Ustod Tursun Tirgarlar** nomi aks etgan⁷ Tirgarlikni kasb etgan shoirlardan biri haqida XVI asr muallifi Hasanxoja Nisoniy quyidagilarni qayd etadi: "Malono Tole'iy o'zining o'qchilik kasbi bilan el-yurt orasida tanilgan bo'lib, qayerga borsa, baland ma'nolar va dilpisand so'zlarini eltib, ularni to'g'ri ta'bidan o'q uchidek o'tkir bir sur'atda namoyish etarkan". Bu muallif, shuningdek, Darvish Maqsud Tirgar haqida "Kasbi-qori o'qchilik xunari edi", - deb ta'kidlab o'tadi.

Kamon o'qlarini tayyorlashda turli xom-ashyodan foydalanganlar. Bu o'rinda Xofiz Tanish Buxoriy tavsiflagan "oq terakdan yasalgan" kamon o'qlarini eslab o'tish o'rindidir⁸.

Shaharlarda harbiy yurishlar bilan uzviy ravishda rivojlangan hunarmandchilik sohalaridan biri o'qdon – sadoqlar tayyorlash sohasi edi¹. Bu davr askarlarini sadoqlarsiz tasavvur qilish mumkin emas edi². XVI asr muallifi Muxammad Shayboniyxonni "Sadog'i belida, yoyi qo'lida"⁴, - deb ta'riflagan edi. Abulg'ozixon, yovga qarshi navkarlar "Sadoqlarini bog'lab otlandilar"⁵, - deb qayd etadi.

Tarkashdo'zlar deb atalgan **sadoq ustalarining** XVI-XVII asrda Buxorodagi maxsido'zlar bozori yaqinida Timi mavjudligi bu hunar shaharda keng rivojlanganligidan dalolat beradi⁶.

Xiva hukmdori Hojimaxon tomonidan rus podshosi Fedor Ivanovichga 1585 yilda yuborilgan sovg'alar ichida "ipak va oltin bilan tikilgan saqoq"⁷ning⁷ eslatib o'tilishi xonlik shaharlarida ham bu hunarning yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Qurol-yarog' yaratgan ustalar ko'pincha oliy hukmdor buyurtmasi asosida ish yuritganlar. Xofiz Tanish Buxoriy ulardan biri haqida xabar beradi. Uning yozishicha, "Qurol-yarog' ustasi Axmad Qosim Buxorodan ... ko'p qurol va cheksiz yarog'"ni Abdullaxon qarorgohiga keltirgan⁸. Hunarmand keltirgan bu qurollar haqida muarrix: Abdullaxon "... urush maydoniining barcha paxlavonlarini chaqirib, urush quroli, otish va urush asboblari ularning hammasiga bo'lib berdi. Shu jumladan, o'n ming ajdaho savlatli va ilon jizzali nayza, mingta ho'kiz boshli zirex, maxsus urush kiyimi, ko'plab o'q sadog'i, qalqon, temir kulox, gurzi va shamshirlarni dovyurak paxlavonlarga bag'ishladi", - deb qayd etadi.

⁶ Иванов И.И. Хозяйство джуйбарских шейхов. Док. № 32,43, 139. С. 112,119, 175.

⁷ Иванов И.И. Хозяйство джуйбарских шейхов. Док. №208, 316. С.218,290.

⁸ Хафиз-и Таниш Бухари. Шарафнаме-йи шахи. Ч. 2. С. 49.

¹ Мухаммад Солих. Шайбонийнома. 30-6.

² Хафиз-и Таниш Бухари. Абдулла-нома. 2-жилд. - 153-6.

⁴ Мухаммад Солих. Шайбонийнома. 37-6.

⁵ Абулғозий. Шахараия турк. 157-6.

⁶ Иванов И.И. Хозяйство д-жуйбарских шейхов. Док. № 54. С. 115.

⁷ Иванов И.И. Хозяйство д-жуйбарских шейхов. Док. № 54. С. 115.

⁸ Хафиз-и Таниш Бухари. Шарафнаме-йи шахи. 4. 2. С. 253.

Shaharlarda **sovut, dubulg'alar yasashga ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari** ham rivojlangan edi. Asklarning badanini berkitib turuvchi maxsus kiyim - **jiba, javshan, sovut** deb atalgan. Bu o'rinda Muxammad Solih tomonidan Muhammad Shayboniyxonning **jiba** bilan berkinganligi sababli "Hargiz o'qni o'ziga yovutmas" degan so'zlarini keltirish o'rinlidir. Shu bilan birga askarlar o'zlarini yov nayzalaridan qalqonlar bilan ham himoya qilar edilar. Hofiz Tanish Buxoriy Abdullaxon II askarlarining "rang-barang qalqonlar osgan holda qaytishlarini tasvirlaydi. Bu muallif, shuningdek, janglarning birida "Urush va kurash maydoni **qalqon va javshan** kiyganlarning tiqilinchligidan temir qo'rg'on tusini" olganligini qayd etadi. XIX asr boshlaridan zamonaviy o'qotar qurol- aslahalarga bo'lgan talab yanada ortib borganligi oqibatida **kamon, o'q-yoy, hanjar, pichoq, gurzi, shamshir, sadoq, sovut, dubulg'a** ishlab chiqaruvchi hunarmandchilik ahamiyati pasayib bordi.

Bu hunarmandchilik sohalari ishlab chiqargan ayrim qurol turlari umuman muomaladan chiqib ketdi desa ham bo'ladi. Buni P. I. Demezonnmg quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi. U Buxoro askarlari haqida yozar ekan: "Ularning ba'zilari **sovut** va juda kamdan-kam xollarda **temir dubulg'a** kiyadilar yoki kichkina **qalqon** osadilar. Buxoro askarlari kamondan o'q otish mahoratini umuman yo'qotgailar"¹, - deb qayd etadi. XIX asrning 70 yillarida "Osiyo hanjarlari qachonlardir mashhur bo'lgan bo'lib, hozirda o'zining ilgarigi dovrug'ini yo'qotgan"², - deb yozilgan edi.

Shu bilan birga shaharlarda yuqorida fikr yuritilgan qurol- yarog'lar oz bo'lsada, ishlab chiqarilganligini ham ta'kidlab o'tish zarur. XIX asrning 70 yillariga oid ma'lumotlarga ko'ra, Samarqanddagi shahar bozorida 15 ta ochiq do'konda qurol-yarog' tayyorlanib, ularda bu ish bilan mashg'ul "oltita yaxshi usta" mashg'ul edi. Bu davrda Namangan haqida esa "Qurol ishlab chiqarish va hanjarlar yasash bo'yicha Namangan alohida ajralib turadi"³, - deb yozilgan edi.

Shaharlarda qayd etib o'tilgan qurol turlaridan tashqari **zambaraklar, manjaniklar va tufanglar** (miltiqlar) ham ishlab chiqarilgan. Ularni yasagan va ishlata bilgan ustalar juda e'zozlangan. Shunday shaxslardan biri, Hofiz Tanish Buxoriyning ko'rsatishicha, "Hunar ustasi Ustod Ruxiy bo'lib, u qal'alami qo'lga kiritishda keng qo'llanilgan neftli toshni tayyorlovchi "**qozonlar**" qurib, bu moddani tayyorlash va otish ishiga boshchilik qilgan⁴.

Muarrixning qayd etishicha, "Tosh arroda va manjanig bilan Zuxal toqiga shikast yetkazib, to'p shu'lasini bilan ko'kka o't qo'yadigan hunar ustasi Ustod Ruhiiy zambaraksozlikni shunday tartibga soldilarki, Buxoro o'lchovi bilan uning og'ziga bir botmon tosh ketardi. Uning ketma-ket zarbasidan burj va devorlar yer bilan yakson bo'lardi"⁵. Samarqandni qamal etgan Abdullaxon: "Hukmiga binoan, hunarmand Ustod Ruhiiy qurgan va pardozlagan uchta mustahkam qozon shaharning uch tomoniga o'rnatildi", - deb xabar berar ekan, Hofiz Tanish Buxoriy ularning

¹ Записки о Бухарском ханстве. С. 72.

² О туземном оружии в Туркестанском крае. С. 214

³ Пашино П. П. О фабричной и торговой деятельности. С. 128.

⁴ Хофиз Таниш Бухорий. Абдулла-нома. 2-жилд. 82, 203-6.

⁵ Хофиз Таниш Бухорий. Абдулла-нома. 2-жилд. 826.

“Qubbali qozon”, “Jaxongir qozoni” va “Qora baxodir qozoni” nomlarini keltiradi. Bu qozonlar – zambaraklar bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Shahar hunarmandlari ishlab chiqargan bu turdagi qurol-aslahalar bilan bir qatorda, oddiy o‘q otuvchi qurollar ham mavjud edi. Muhammad Solih ular bilan qurollangan “uch ming ot kuchi jo‘ra”ni eslatib o‘tadi⁶. Zaxiriddin Muxammad Bobur esa 1519 yil voqealari bayonida “Ustod Ali quli besh kishini to‘fang bila otib yiqadi”⁷, - deb qayd etadi. Hofiz Tanish Buxoriy “Tez yonib ketuvchi o‘tar otashning yalug‘i kabi shu‘lali nayza” deb ta‘riflagan to‘fang XVI asr multigiining namunasidir⁸.

1697 yilda Buxoroda bo‘lgan **F.Skibin**, bu yerda “mayda o‘qotar qurol ko‘p. Porox va qo‘ig‘oshinni o‘zlari tayyorlaydilar, bir sarjinli jangovor to‘plar esa ellikta”¹, - deb qayd etgan edi.

Shaharlarda multiiqlar ishlab chiqarilganligini **F.Benevenining** Buxoro haqida yozgan quyidagi so‘zlaridan ham anglash mumkin. “Ularning qurollari tatarlarniki kabi, ba‘zmlarida o‘t oldiriladigan piltali qurol bor, boshqalarida esa faqat nayza va kamon bor”², - deb yozgan edi u. 1823 yilda multiiqlarlar, qilichlar, nayzalarni buxoroliklarning o‘zlari yasaganlar va bu buyumlar “yaxshi ishlangan va qimmatbaxo”³, - deb qayd etilgan edi.

XIX asming birinchi yarmida Buxoro xonligida porox va to‘p o‘qi tayyorlanunchi asosiy markaz Samarqand bo‘lib, porox ishlab chiqaruvchi ustaxonalardan biri shahar yaqinida joylashgan edi. Uni qurgan **Ivan Marchenkovning** guvohlik berishicha, porox va to‘p o‘qi asosan, Samarqandda tayyorlangan, ularni tayyorlashga hamma xomashyoni amimring o‘zi bergan⁴.

O‘q otuvchi qurollar ishlab chiqarish Xiva xonligida ham rivojlangan edi. **F.Skibin** Xiva aholisini hunarmandlar deb atab, ular “qurol va poroxni o‘zlari tayyorlaydilar”⁵, - degan. XVIII asming 40 yillarida Xivada bo‘lgan poruchik **D.Gladishev** xivaliklarda “to‘plar va mayda qurollar” bo‘lganligini eslatib o‘tadi⁶.

Xususan, XVIII asming 40-yillarida **I.Muravin** “xivaliklar porox ishlab chiqaradilar, issiq oltingugurtni Buxorodan sotib oladilar”, - deb habar bersa, XIX asming 20-yillarida bu yurtida bo‘lgan boshqa bir muallif ham “xivaliklar poroxni ancha katta hajmlarda o‘zlari tayyorlaydilar”, - deb ko‘rsatadi. Shu asming boshqa bir muallifi **M.Ivanin** esa “Xivaliklar poroxni o‘zlari tayyorlaydilar va uni bozorlarda sotadilar”, - deb qayd etadi. Bu mahsulot turi tayyorlanadigan yerlardan biri Ko‘hna Urganch atroflarida joylashgan edi⁷.

Xivada multiiqlar ham tayyorlangan. **M.Ivaninning** habar berishicha, xonlikda ikkita multiqsoz usta bo‘lib, ularning biri Yangi Urganchda, ikkinchisi Xazoraspeda yashagan.

⁶ Мухаммад Солих. Шайбонийнома. 73-6.

⁷ Бобурнома. 197-6.

⁸ Хофиз Таниш Бухорий. Абдулла-нома. 2-жидд. 152-6.

¹ Хофиз Таниш Бухорий. Абдулла-нома. 2-жидд. 152-6.

² Посланиник Петра I на Востоке. С. 85.

³ Краткое описание Бухарин и Хивы. С. 5.

⁴ Галкин М.Н. Показания русских пленнх. С. 51.

⁵ Галкин М.Н. Показания русских пленнх. С. 51.

⁶ Показания поручика Д. Гладышева. С. 179.

⁷ Агзамова Г. Ўзбекистон шахарлари. Тошкент. 2017. 1016.

Shaharlarda to'plar ham quyilgan. Jumladan, XIX asrning birinchi yarmiga oid ma'lumotlar tasdiqlashicha, Buxoroda to'plar quyish ishida o'zga yurtlik hunarmandlar ham ishtirok etganlar. Ular jumlasiga "qobullik usta Nosirxon" va "Sherikxon va qochoq xind'larni kiritish mumkin.

XIX asrning birinchi yarmida Xivada ham to'p quyish hunari mavjud bo'lgan. Aftidan, to'p quyish uchun xivaliklarning mahalliy mislari yetishmagan bo'lsa kerak, ayrim hollarda bu ish uchun "mis Rossiyadan keltirayogan. N. Muravyev Xivada to'p quyish bo'yicha dastlabki tajribalar Muhammad Raximxon davrida o'tkazilganligi haqida habar beradi.

1800 yilda Toshkentda bo'lgan M. Pospelov va T. Burnashevlarning xabar berishlaricha, bu shaharda ham to'p quyilgan bo'lib, unda "5 ta to'p bor edi". Qo'qon shahrida ham to'plar qo'yilgan edi. Bunday ustaxonalardan biri haqida sibirlik kazaklar Milyushin va Batarishkinlar (1849) guvohlik berib, "bu ish bilan butun o'lkada kelib chiqishi bo'yicha fors bo'lgan faqat bir usta shug'ullangan bo'lib, uning ustaxonasi dastlab Qo'qonda bo'lgan, keyinchalik uni Toshkentga ko'chirdi", - deb yozadilar. Shaharlarda yog'ochdan turli mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunarmandlar ham faoliyat yuritganlar. Mahalliy manbalarda ular shonagarlar, xarrotlar, najjorlar, duradgorlar tarzida keltiriladi.

Shaharlarda yog'ochdan turli mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunarmandlar ham faoliyat yuritganlar. Mahalliy manbalarda ular shonagarlar, xarrotlar, najjorlar, duradgorlar tarzida keltiriladi. Xususan, Juybor shayxlarning turli ko'chmas mulk oldi-sotdisi rasmiylashtirilgan hujjatlarda Ustod Xasan Najjorning o'g'li Ustod Qosim, Xo'ja Kalon Najjor va boshqalarni ismlari keltiriladi. Shu asr muallifi Xasanxoja Nisoriy esa "Kasbi najjorlik bo'lgan, she'riyatda ham mohirona qalam tebratgai Mavlono Qasiriy haqida ma'lumot beradi.

Faoliyati yog'ochga mohirlik bilan ishlov berishga ixtisoslashgan hunarmandlardai biri duradgorlar bo'lib, ularning mahoratini birgina Buxoro misolida yaqqol kuzatish mumkin. Bu shahar haqida yozgan YE. K. Meyendorf "Duradgorlar eshiklar, beshiklar va sandiqlar tayorlaydilar. Ularning eng chiroyilari ipak bilan yo'l-yo'l bezatilgandir"¹, - deb qayd etgan edi.

Odatda, duradgorlarning ustaxonalari shaharlar markazida, bozorlarda joylashar va ularda aholining buyurtmasi asosida ham sandiqdar, eshiklar, beshiklar" va boshqa narsalar yasab berilar edi².

Duradgorlar yog'ochdan turli hunarmandchilik sohalari uchun mehnat qurollari, xususan, turli matolarni to'quvchilar uchun charxlar, matolarga gul bosishda asosiy qurol bo'lgan - qoliplar va shuningdek, zirk daraxtidan to'qimachilikda ishlatiladigan "kudung" asbobini ham yasaganlar³. Xiva davlat hujjatlarida esa yog'och idish- tovoqlar ishlab chiqaruvchi ustalar-taboqchilar nomi ham qayd etilgan⁴.

Shaharlarda yog'ochni ishlash bilan bog'lash hunarmandchilik sohalaridan biri **kemasozlik** edi. Turli daryolar, ularning havzalari va boshqalar yaqinida

¹ Галкин М.Н. Показания русских пленных. С. 64.

² Петровский Н. Моя поездка в Бухару. Путевые наблюдения и заметки. Ч. 2. Т., 1872. С. 227.

³ Фазлаллах Ибн Рудбихан. Михман наме-йи Бухара. С. 162.

⁴ Кун А. Культура оазиса низовьев Аму-Дарьи. С. 245.

joylashgan shaharlarda bu hunar turi keng rivojlangan edi. Odatda u bilan shug'ullanuvchi hunarmandlar ustaxonalari shahar chekkalarida joylashar edi. Xonliklarning turli markazlarida kemasozlik rivojlanganligidan xabar beruvchi ko'pgina ma'lumotlar shu davr manbalarida saqlanib qolgan.

Xususan, Fazlulloh ibn Ro'zbexon Muhammad Shayboniyxonning Marvga yurishi havida yozar ekan, Amudaryo bo'yida xon qo'shini to'xtab turgan chog'da "podsho askarlarining yasavullariga qo'shinni daryodan olib o'tish uchun kema va qayiqlarni yig'ish" topshirilganligini qayd etar ekan, ular "Jahunning yuqori va quyi oqimi bo'yidagi yerlarni tekshirib, topish mumkin bo'lgan hamma kemalarni olib keldilar" - deb ko'rsatib o'tadi. Amudaryo qirg'oqlarida joylashgan markazlardan shu tarzda kemalar to'planganini XVIII asr muarrixi Mir Muhammad Amin Buxoriyniing Balxga yurishga otlangan Ubaydullaxon "kemalar va qayiqlarni tayorlashni" buyurgani haqidagi ma'lumoti ham tasdiqlaydi.

Ko'pincha kemalar daryo bo'yida joylashgan shahar hokimlarining qo'l ostida bo'lgan. Jumladan, XIX asr o'rtalarida Kerkida shahar bekining nazorati ostida ko'plab kemalar bo'lib, ular yordamida Amudaryodan kechuv amalga oshirilgan¹.

Kemalar vositasida turli markazlar atrofida yetishtirilgan bug'doy juda katta hajmlarda Buxoroga yetkazib berilgan.

Xiva xonligidagi suvga yaqin joylashgan shaharlar aholisi ham kemalar va qayiqlarga ega edi. XIX asr muallifining yozishicha, Xiva "Aholisining ancha ko'p qismi o'zining qayiqlariga ega, boylar esa bir va ikkitadan... qayiqlarga ega bo'lgan"². Mahalliy hunarmandlar yasagan qayiqlar bir necha turga bo'lingan. Ular kattaligi va yuk tashish imkoniyatlariga ko'ra bir-biridan farqlangan. Jumladan, katta qayiqlar - "uchoq", ancha kichik qayiqlar - "o'zarcha" va oddiy "qayiqlar" yasagan³. Amudaryo va undan qazib chiqarilgan turli kanatlar tizimi bilan bog'langan shaharlar hayotida qayiqlarning ahamiyati katta edi. Ular turli markazlarni bir-biri bilan bog'lar edi. Buni Abulg'ozining quyidagi so'zlaridan ham kuzatish mumkin. Tarixchi XVI asming birinchi yarmi xususida so'z yuritib, "Kema ul vaqtda Urganch birlan Vaziming orasinda yurur erdi"⁴, - deb qayd etadi Xiva aholisi kemalardan foydalanib, turli "mollar, bug'doy, tuz, yog'och va boshqa" narsalarni bir joydan ikkinchisiga tashigan, savdo karvonlarini Amudaryoning u qirg'og'idan boshqasiga o'tkazib qo'rganlar. Xiva hunarmandlari yasagan qayiqlar bilan keng savdo amalga oshirilgan. Qayiqlarning sotilganligi haqida XIX asrga oid hujjatlarning birida xabar beriladi. Unda "Qutlumurod qayiqlariga qayiq olib berildi", - deb xabar berilar ekan, bu uchun sakkiz tillo pul to'langanligi ta'kidlanadi.

Qo'qon xonligida ham kema va qayiqlar yasash bilan bog'liq hunarmandchilik turlari keng rivojlangan edi. Xonlikning suvga yaqin joylashgan shaharlari va ularning atroflarida kema, qayiqlarga ehtiyoj katta edi. Bu holatni Namangan misolida ham kuzatish mumkin.

¹ XIX asr Xiva davlat hujjatlari. 148-6.

² Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях. С. 36.

³ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 65

⁴ Аристов Н. Наманганский округ Коканского ханства (Из показаний одного выходца в 1871 году) // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник / Под ред. Н.А. Масва. СПб., 1873. Вып. 11. С. 140.

Shahar Sirdaryo yaqinida joylashgan bo'lib. **N.Aristovning** yozishicha, "Sirdaryoning chap qirg'og'i bilan Namangan o'lkasi ahli ko'p sonli kechuvlardagi qayiqalar va paromlar orqali bog'langan edi. **F.Nazarov** Sirdaryodan kechish uchun Kamishqo'rg'on yaqinida "o'ziga 70 ta tuyani sig'dira oladigan" beshta ot yordamida tortilib, yo'lovchilarni u qirg'oqdan bunisiga o'tkazib qo'ygan katta kemaga tushganligini qayd etadi. Shu daryodan o'tgan **YE.K.Meyendorf** esa uni eshkakli qayiqda kechib o'tganligini qayd etadi.

Shaharlarda yog'ochni ishlash bilan bog'liq **hunarlardan biri aravazoslik** edi. Duradgorlar temirchilar bilan birgalikda shaharlar va qishloqlar xo'jaligida muhim o'rin tutgan aravalarni yasaganlar. Ular aholining xo'jalik hayoti bilan bir qatorda harbiy yurishlarda ham keng qo'llanilgan. Xofiz Tanish Buhoriy Abdullaxonga qarshi kurashgan Bobo sulton bilan bo'lgan janglardan biri haqida yozar ekan, unda "Turkiston dashti, Sabron, Toshkent, Andugon, Axsikat va Koson viloyatlaridan keltirilgan ko'plab aravalarni bir-biriga mahkam zanjirlab va mustahkam bandlar bilan bog'lab saf oldiga qo'ydilar"¹ - deb qayd etadi. Buxoro xonligi haqida yozgan mualliflardan biri qishloq xo'jalik ishlarida, xosilni tashishda keng qo'llanilgan mahalliy ustalar yasagan "ikki g'ildirakli aravalarni" alohida ko'rsatib o'tadi.

Shuningdek, u "qo'qonlik savdogarlar ulardan o'z mollarini Buxoroga tashish uchun foydalanganlar"² - deb qayd etadi. Aravazoslik Qo'qon xonligining **Marg'ilon, Namangan, Toshkent va Qo'qon** shaharlarida keng rivojlangan edi. **Xiva shaharlari** ham bundan mustasno emas edi. Bu yerda ham yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari - bug'doy, sholi va boshqalar aravalarda tashilgan. XIX asrda Xivada tuzilgan hujjatlarining birida ko'rsatilishicha, "Gandumkon hovliga to'qquz aroba, qushxovliga to'qquz aroba, Olloyor to'ramizni Qiyot xovlisiga to'rt aroba, arkka bir aroba, Oq masjidga ikki aroba, mazkur yigirma to'rt arobaning aroba tuzuki uchun o'ttiz to'qqiz tilloga nimarsa qaro olib berildi"³. Bu hujjat shaharda arava yasovchi hunarmand-ustalar bo'lganligi va ular ko'pincha mahsus buyurtma asosida ishlaganliklarini ko'rsatadi.

Shaharlarda taraqqiy etgan xunar turlaridan biri terini oshlash edi. Terini oshlovchi xunarmandlar maxalliy manbalarda "charmgar" tarzida keltiriladi. Xususan, XVI asrga oid hujjatlarning birida "Buxoro kanali bo'yida" joylashgan **Mirza Ali Charmgarning** do'koni qayd etib o'tiladi. Terini oshlovchi hunarmandlar tomonidan turli chorva mollari terilariga ishlov berilgan. Asosan "ot, qo'y, ho'kiz, tuya" terisini oshlaganlar va har xil charmlarni yaratganlar. Bunday hunarmandlarning ustaxonalari shahar chetida, suvga yaqin yerlarda joylashar edi.

Terini oshlash shahar aholisining asosiy hunar turlaridan biri edi. Qo'qon xonligi haqida yozgan V.V.Velyaminov-Zernov "Erkaklar, asosan, kulolchilik va terini oshlash bilan shug'ullanadilar", - deb qayd etgan fikri buni tasdiqlaydi.

O'z navbatida, ishlab chiqaradigan mahsulot turlariga qarab charmgarlar ham bir qancha ixtisosliklarga bo'linar edilar. Xususan, 1) poyafzalning tag charmi, 2) qora echki charmi - qayroqi, 3) oq zamsha, 4) eshak terisidan bargrang charm - kemuxtni ishlab chiqarganlar.

¹ Xofiz Taniш Бухорий. Абдулланом. 2-жилд 2276.

² Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 108.

³ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 109.

Charmgarlar ishlab chiqargan terilardan turli mahsulotlarni tayorlaganlar. Jumladan, echki terisi qizil, qora va sariq rangga bo'yalib, undan poyafzal tikishda keng foydalanilgan. Etik va kafshlar tikishda eshak va ayrim xollarda ot terisidan tayorlangan sag'ri teridan foydalanilgan. Poyafzalning tag charmi uchun ishlatiladigan xomashyo tuya va ho'kiz terilaridan tayorlanar edi.

Shahar hunarmandlari tomonidan oshlangan bunday terilar boshqa yurtlarga ham olib ketilgan. Rossiyaga XVII asrda xonliklar shaharlaridan keltirilgan mollar ro'yhatida "zamsha", "saxtiyon", "Buxoro zamshasi", echki va qo'y terilari qayd etib o'tiladi¹.

Terini oshlash va charm ishlab chiqarish juda og'ir mehnat talab hunarmandchilik sohalaridan biri hisoblanar edi. Buni birgina sag'ri terini tayorlashga oid quyidagi ma'lumotdan kuzatish mumkin: "Sag'ri teri" tayorlovchilar tomonidan uni tayorlash uchun 32 kun ketar edi. Uning 12 kuni terini oshlashga, 20 kuni esa bo'yashga sarf qilinardi. Buxoroda juda ajoyib sag'ri teri tayorlanib, bunda hunarmandlar qo'y, echki terilarini ishlatib, ularni turli ranglarga bo'yaganlar².

Shaharlarda oyoq kiyim tikuvchi kosib-ustalar ko'p bo'lgan. Manbalarda ular mo'zado'z, kafshdo'z, etiklarga gul tikuvchi - mo'zapardoz tarzida keltiriladi. Xususan, XVI asrga oid hujjatlarda Buxoroda **Ustod Boqi Mo'zado'z, Xo'ja Yormuhammad Mo'zado'z, Nasim Mo'zapardoz** kabilarning nomlarini uchratish mumkin. XVI asr muarrixi esa shunday kasb egalaridan biri **Mavlono Shuhiy** haqida so'z yuritib, u "kafshdo'zlik kasbida nom qozongan usta o'tgan" - deb qayd etadi.

Xonliklar shaxarlaridagi poyafzal tikuvchi ustalarning maxoratiga baxo bergan **A.Vamberi** "Erkaklar va ayollarning poyafzali ancha yaxshi ishlangan", - deb yozar ekan, ayollarning oyoq kiyimlari "ajoyib ipak iplar bilan bezatilgan"³, - deb qayd etadi.

Buxoro kafshdo'zlarining mahorati haqida yozgan mualliflardan biri "qalin Buxoro kafshlarining tag charmi mayda mixlar bilan ancha mahorat bilan bezatilgandir"⁴, - deb ma'lumot beradi.

Turli oyoq kiyimlar keng ishlab chiqariladigan markazlardan biri Toshkent bo'lib, bu yerda etiklar, maxsilar, kafshlar tayorlangan. Xususan, shahar bozorlarida XIX asrning ikkinchi yarmida bu turdagi mollar bilan savdo amalga oshiriladigan yuzga yaqin do'kon bo'lgan.

Toshkent kafshdo'zlari tomonidan yaratilgan sag'ri teridan tikilgan kafshlar juda mashhur bo'lgan. XX asr boshlarida oldingi davrdagi kabi shaharda "oliftalar ham, kam ta'minlangan odamlar ham o'zlariga tiniq barg rang sag'ridan mahalliy hunarmandlar tikadigan kafshlarga buyurtma berganlar. Bu sag'richilarning oltin asri edi", - deb qayd etiladi.

Poyafzal tayorlovchi ustalarni barcha shaxarlarda ko'plab uchratish mumkin edi. Ular muayyan poyafzal turini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edilar¹. Buni Xivaga oid xujjatlarda yaqqol kuzatish mumkin. Ularga ko'ra, XIX asrda Xiva kafshdo'zlari

¹ Агамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. Тошкент. 2017. 1056.

² Агамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. Тошкент. 2017. 1046.

³ Агамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. Тошкент. 2017. 1056.

⁴ Агамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. Тошкент. 2017. 1016.

¹ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. С. 178.

orasida tatar kafshlarini tikuvchi ustalar, rus charmidan kafsh tikuvchi ustalar, rangdor kafshlar tikuvchi ustalar xam bor edi².

Hunarmandlarning ayrimlari eski poyafzalni ta'mirlash bilan ham shug'ullanganlar. XVI asr manbalarida bunday ustalar "porado'zon" tarzida keltiriladi. XIX asrning 60-70-yillariga oid ma'lumotlariga ko'ra Toshkentda poyafzal ta'mirlovchilarning 10 ta do'koni bor edi³.

Charmdan boshqa kiyim-bosh turlarini ham yaratganlar. Xususan, xunarmandlar charmdan **telpaklar, ov qo'loplari, kamzullar, ishtonlar** ham tikkanlar. Bu o'rinda **Muhammad Yusuf Munshiyning** Mahmud otaliqqa oliy hukmdor Subxanqulixon tomonidan tortiq etilgan "qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kamar" haqidagi ma'lumoti diqqatga sazovordir⁴.

XVI asrda yashagan Hakim Shaxrisabziyning "Gul tikmoq ne darkor bulg'oriy charm qo'loppga" degan she'riy misrasi bu turdagi mahsulot turini yaratuvchi hunarmandlarning yuksak mahoratidan dalolat beradi.

Bu kiyim-bosh turlari ba'zi hollarda savdogarlar tomonidan xorijga ham olib borilgan. Buni XVII asrda xonliklardan Sibirga keltirilgan mollar ichida tilga olingan "echki terisidan tikilgan kiyim" va "charm ishtonlar" haqidagi ma'lumot ham tasdiqlaydi.

Shaharlarda charmdan egar-jubduqlar, meshlar, pichoq, qinlari va boshqa ko'pgina narsalar yasashda ham keng foydalanilgan. Hunarmandlar orasida charm va yog'ochdan egar-jabduq tayyorlovchi ustalar - sarrojlar, to'qimdo'zlar, yugan tikuvchi ustalar - lajamdzlar va boshqalar ham faoliyat yuritganlar.

XVI asrga oid Buxoro hujjatlarida Mir Ali Sarrojning o'g'li Ustod Mahmudning nomi, shuningdek, egarchilar bozori va timchasi eslatib o'tiladi. Ana shunday hunarmandlardan birining mahorati haqida XVI asrga oid manbalardan birida quyidagicha fikr bildirilgan edi: "Mavlono Moiliy Sirroj ustalik kasbida shaharga shuhrati yoyilgan va zamonaning yagonasi bo'lgan kishi ekan... Savdogarlar Mavlono Moiliy yasagan bezak-ziynatli egar-jabduqlarni Bulg'or-u Chingacha eltib, ajoyib namuna sifatida havola etishgan". Bu o'rinda Xiva hukmdori Xojimxon tomonidan 1585 yilda rus podshosi Fyodor Ivanovichga sovg'a sifatida yuborilgan "oltin bilan ishlangan 2 ta egar", elchining o'zi esa tortiq etgan "2 ta oltin va bo'yoqlar bilan bezatilgan pichoq qini" haqidagi xabar diqqatga sazovordir¹. Mir Muhammad Amin Buxoriyning quyidagi ma'lumoti ham shahar sarrojlarining mahoratidan dalolat beradi. Uning yozishicha, Keshga otlangan Ubaydullaxonning oti "oltin va kumush bilan bezatilgan egar bilan" egarlangan edi². Egari-jabduq yasovchi hunarmandlarning mahoratini keyingi davr muallifining quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi. U Samarqand ustalari haqida yozar ekan, shahar bozorlarida "sotish uchun yasalgan mashhur charm mahsulotlar, did bilan ishlangan egarlarni ko'rish

² Мир Muhammad Amin-и Бухари. Убайдуллонаме. С. 104.

³ Дасанхожа Нисорий. Музакири ахбоб. 87-6.

⁴ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. С. 178.

¹ Иванин М. Хива и река Амударья. С. 50.

² Краузе И.И. Туземные и русские маслوبيчные заводы в Ташкенте // Русский Туркестан. Вып. II. 1871. С. 203.

mumkin, ularning bezagi xatto yevropalik ustaga ham shuhrat keltirishi mumkin edi”³, - deb qayd etadi.

Xonliklarning turli markazlarida oziq-ovkat ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari ham keng rivojlangan edi. Bu o'rinda birinchi navbatda un va yog' ishlab chiqarishni ajratib ko'rsatish lozim. Shaharlarda, aniqrog'i, uning suvga yaqin va chekka yerlarida turli tegirmonlar joylashgan bo'lib, ularda shahar va qo'shni yerlar aholisi ehtiyoji uchun bug'doy yanchilib, un tayyorlanar edi. Bu o'rinda XVI asr o'rtalarida Malik Buxoriy ismli kimsaning o'g'li mir Xoshim tomonidan Jo'ybor shayxlariga sotilgan tegirmon haqidagi hujjat diqqatga sazovordir. Ushbu tegirmon uni aylantiruvchi hayvonlar uchun xona, pichanxona, tosh va yog'och asbob-uskunolari bilan sotilgan bo'lib, uning bir tomondagi chegarasi kanalga borib taqalar edi⁴. Bug'doy yanchadigan bunday tegirmonlar “assiya” deb atalgan.

Buxoro yaqinidan XIX asrning 30-yillarida o'tgan I V. Vitkevich, shahardan 3 farsax narida “ariqlarda ko'pgina tegirmonlar qurilganligidan bu yer - tegirmon - Assiya deb ataladi”⁵ - deb yozgan edi.

Suv bo'ylarida joylashgan tegirmonlardan tashqari, qo'l tegirmonlar ham mavjud bo'lgan. Xiva haqida yozgan N. Muravyev, xivaliklar g'allaning serobligiga qaramay na suv, na shamol tegirmonlariga egadirlar. G'allani uncha katta bo'lmagan qo'l tegirmon toshida maydalaydilar”, - deb qayd etadi. Bu malumotni e'tirozsiz tarzda qabul qilmaslik kerak. Chunki, Amudaryodan ko'plab sun'iy sug'orish kanallari qazib chiqarilgan bu mamlakatda suv tegirmonlarining bo'lmasligi mumkin emas edi. XIX asrning boshqa bir muallifi xivaliklar tegirmoni qo'l bilan ishlatilganligi, lekin boylar ot bilan harakatga keltiriladigan tegirmonlarga ega ekanliklarini ta'kidlab o'tgan edi.

Xonliklar shaharlarida juvozlar ham bo'lib, ular yordamida zig'ir va kunjutdan yog' olganlar. Ularni tayorlashda paxta chigiti ham qo'shilgan. Juvozlar hamma shaharlarda bo'lgan. Jumladan, XIX asrning 70-yillarida Toshkentda bunday juvozlardan 500 tasi bor edi.

Shaharlarda nonvoylar, qo'y kalla-pochasini pishiruvchilar¹, baliq qovurib sotuvchilar, go'shtli sho'rva turi - yaxna tayorlovchi yaxnapazlar va boshqalar ham faoliyat yuritganlar². Nonvoylardan biri haqida XVI asr muallifi: “Mavlono Haydar Kuluch kuchli shoirlardan bo'lib, kulchapazlikda ham nom qozongan kishi edi”³, - deb qayd etadi. Xiva davlat hujjatlarida xam pishirilgan qo'y kallasi va qovurilgan baliq tayorlovchilar - kallapaz va baliqchilar, shuningdek, nonvoylar eslatib o'tiladi⁴. Samarqand haqida yozgan Zahiriddin Muhammad Bobur “Xub nonvoyliklari va oshpazliklari bordur”⁵, - deb qayd etgan edi.

³ Записки о Бухарском ханстве. С. 97.

⁴ Хасанхожа Нисорий. Музакири ахбоб. 111-6.

⁵ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. Тошкент. 2017. 1016.

¹ Иванов И.И. Хозяйство джуйбарских шейхов. Док. № 10, 13. С. 97,100.

² Иванов И.И. Хозяйство джуйбарских шейхов. Док. № 10, 13. С. 97,100.

³ Наши соседи в Средней Азии. Хива и Туркмения. С. 122.

⁴ Казийские документы XVI в. С. 75-76.

⁵ XIX аср Хива давлат хужожатлари. 161-6.

Shaharlarda **qandolatchilik** ham keng rivojlangan edi. Qandolatchilar turli xil shirinliklar - holva, novvot, nisholda, pashmak va boshqalarni tayorlaganlar.

Buxoroga oid hujjatlarda (XVI asr) "Ustod Do'st Xolvagarning o'g'li Tursun Muhammad", "Shox Muhammad Xolvagar" larning nomlari keltiriladi⁶. Buxoro, Samarqand qandolatchilari bilan birgalikda Qarshi qandolatchilari ham mashhur edi. F.Beneveni Qarshi yakiniidagi dalada qandga o'xshash "manna"ni to'plashlari va undan shirinliklar tayorlashda shakar sifatida foydalanganliklari haqida yozgan edi. Shahar qandolatchilarining mahoratidan XX asr boshlariga oid quyidagi ma'lumot ham xabar beradi. Unga ko'ra, bu yerda "shakar va qo'y yog'i aralashmasidan o'rik, shaftoli, nok, olma, bexi... shaklidagi mahalliy konfetlar tayorlangan. Bo'yoqlar yordamida qandolatchilar tabiatga taqlid qilishga erishganlar".

Xiva va Qo'qon xonliklari shaharlarida ham qandolatchilar ko'p edi. XIX asrga oid hujjatlarning birida Xivada qandolatchilar tayorlagan "uch put pechak, yarim put bodom mag'zi, o'n bir put qand, ikki put novvot, nisholda, murabbo uchun to'rt put qand" bozordan sotib olingani haqida xabar beriladi.

Ayrim shaharlarda **shishasozlik** hunari ham rivojlangan edi. Buni Urganch misolida kuzatish mumkin. Bu yerda shishasoz ustalar noyob mahsulotlarni yaratganlar. Shaharni arxeologik o'rgatish chog'ida topilgan XVII asrga oid "dastasi shaffof barg rang shishadan yasalgan idishlar" buning yorqin dalilidir. Lekin astasekinlik bilan bu hunar sohasi inqirozga yuz tutib borgan. XIX asrda bu haqida shunday qayd etilgan edi: "Shisha tayorlash haqida Xivada, butun O'rta Osiyoda bo'lgani kabi tushunchaga ega emaslar"⁶.

Shaharlarda **sham ishlab chiqarish** ham keng yo'lga qo'yilgan edi. XVI asr manbalarida bu hunar bilan mashg'ul ustalar - "sham rizon" deb tilga olinadi. XIX asrda Toshkent, Qo'qon, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda sham ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan edi. Xiva davlat hujjatlaridan birida¹ "Otajon to'ra ismli shaxs uchun sham puli sifatida sakkiz tillo" berilgani qayd etilgan edi².

Hunarmandchilik sohalaridan biri **sovun ishlab chiqarish** edi. Sovungarlar mahsulotiga aholi o'rtasida talab katta edi. Shaharlarda sovun ishlab chiqarishga doir ayrim ma'lumotlar Xiva xonligiga taalluqlidir. XIX asr boshlarida N.Muravyev, Xivada "yana shunday hunarmandchilik turi borki, uni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu Xivadan sovun olib ketish.

Xiva sovuni Sharqda o'zining sifati va odatdan tashqari arzonligi bilan mashhurdir"³, - deb qayd etadi. Sovun ishlab chiqarish Qo'qon xonligi shaharlarida ham rivojlangan edi. XIX asr mualliflaridan biri ularda mahalliy aholi ehtiyojlarini qondiruvchi kul rang, qora rangdagi mahalliy sovun ham bor", - deb yozgan edi.

Xonliklar shaharlarida **qog'oz, yozuv anjomlarini ishlab chiqarish va qo'lyozma kitoblarni muqovalash** hunari yuqori saviyada turar edi. Ilm-fan va

⁶ Федоров-Давыдов Г.А. Раскопки торгово-ремесленного квартала XV-XVI вв. на городище Ташкала в Ургенче// Труды Хорезмской археоло-этнографической экспедиции. М., 1958. Т. II. С. 526.

¹ Агзамова Г. Узбекистон шахарлари. Тошкент: 2017. 110б.

² Агзамова Г. Узбекистон шахарлари. Тошкент: 2017. 110б.

³ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. С. 97.

⁴ Захриддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. 46-б.

⁵ Семенов А.А. О среднеазиатской бумаге (сорт среднеазиатской бумаги, её производство и способы окраски) // ИООН АН Тадж. ССР 1963. № 1(32).

madaniyat rivojlangan bu qadim diyorda doimo yozuv kog'oziga ehtiyoj katta edi. Yozuv qog'ozini ishlab chiqarish rivojlangan markazlardan biri Samarqand bo'lib, bu haqida Zaxiriddin Muhammad Bobur: "Olamda yaxshi kog'oz Samarqanddan chiqar, juvozi qog'ozlar suyi tamom Konigildin keladur"⁴, - deb qayd etgan edi. XVI asrga oid Samarqandda tuzilgan qozilik hujjatlarida boshqa hunarmandlar qatorida qog'ozgarlar ham eslatib o'tiladi. Samarqandlik hunarmand qog'ozgarlar turli xil qog'ozlarni tayyorlaganlar. Mutaxassislar ularni ipakdan - **qog'ozni abrishumi**, yarim ipakdan, paxtadan tayyorlanganligini ko'rsatib o'tadilar⁵. Qog'oz tayyorlashda uning asosiy qismini tayyorlovchi ustalar - qog'ozgarlar va unga ishlov beruvchi ustalar - muhrakashlar band bo'lganlar.

Samarqand qog'oz ishlab chiqarishning XVI-XVII asrdagi yirik markazi bo'lsa, XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asrda qog'oz ishlab chiqarishning yirik markazlaridan biriga Qo'qon aylandi. Bu yerda ham qog'oz ishlab chiqarish ustaxonalari Samarqanddagi kabi shahar atrofida joylashgan edi. Shaharga yaqin Qog'ozgar va Chorku qishloqlarida mashhur Qo'qon qog'ozini ishlab chiqarilib, xonliklar shaharlari bozorlarida ular bilan keng savdo amalga oshirilgan. Samarqand va Qo'qon qog'ozgarlari tomonidan yaratilgan bu mahsulot turiga ehtiyoj katta edi. Turli ilmiy, tarixiy, badiiy asarlar, hujjatlar bitishda, "yozuv uchun" madrasalarda ham bu qog'ozlarga talab katta edi.

Qog'ozgar ustalar tayyorlangan qog'ozni "qizil, ko'k, sariq va boshqa ranglarga" bo'yaganlar¹.

Shaharlarda keng rivojlangan **hunarmandchilik sohalaridan yana biri - muqovasoqlik** edi. Usta - "sahhoflar" turli qo'lyozmalarni muqovalash bilan shug'ullanganlar. Ularning ustaxonalari, odatda, shaharlarning gavjum yerlarida joylashar edi. Jumladan, XVI asr boshlarida muqovasoqlikning do'konlaridan biri Samarqanddagi "Bozori Attoron" da faoliyat yuritgan edi². XIX asrda ushbu shahardagi bunday ustaxonalardan biri haqida uning eshiklari "mahalliy aholining hamma ustaxonalariga o'xshab, ko'chaga ochilganligi"³ qayd etiladi.

Muqovasoqlik rivojlangan markazlardan biri Qo'qon edi. Bu haqida XIX asrda "Eng yaxshi muqovasoqlik Qo'qondadir. Bu yerda uncha murakkab bo'lmagan muqovalash asboblari ham tayyorlanadiki, ularni Samarqandda topish qiyin. Yozuv va kitoblar uchun qog'ozni ham mashhur Qo'qon fabrikalari yetkazib beradi"⁴, - deb qayd etiladi.

Qo'lyozmalarni muqovalash hunari keng rivojlangan markazlardan yana biri Namangan bo'lib, bu yerda charm va qog'ozdan yaratilgan muqovalar boshqa xonliklarning yirik markazlari - Samarqand va Xivada tayyorlangan muqovalardan qolishmas edi.

Muqovasoqlik ustaxonalari shaharlarning madaniy hayotida muhim o'rin tutgan. Bu yerda ba'zan shoirlar va ma'rifatli kishilar to'planib turishar edi. Xususan,

¹ Якубовский Ю.О. Переплетное ремесло у туземцев Самарканда. С. 61.

² Болдырев А.Н. Мемуары Зайн-ад-дина Васифи. С. 238

³ Якубовский Ю.О. Переплетное ремесло у туземцев Самарканда. С. 61.

⁴ Якубовский Ю.О. Переплетное ремесло у туземцев Самарканда. С. 61.

⁵ Болдырев А.Н. Мемуары Зайн-ад-дина Васифи. С. 238.

⁶ Абулғозий. Шажаарайи турк. 131-6.

Samarqanddagi "Bozori Attoron"da joylashgan muqovasoz - "mujalladgar" Mullozodaning do'konida Zayniddin Vosifiyning XVI asrda bergan habariga ko'ra "Samarqand shoirlari va ma'rifatli kishilari to'planar" edi³. Muqovasozlik ustaxonasining shahar madaniy hayotida tutgan o'rni hususida bunday ustaxonani XIX asrda Samarqandda kuzatgan Y.O.Yakubovskiy: "Muqovasozlik ustaxonasi, odatda, madrasaning biror-bir tolibi kirib, o'qish uchun kitob oladigan do'kon va xatto kutubxona vazifasini ham o'tagan"⁶, - deb qayd etadi.

Shaharlarda ayrim shaxslar uchun **muhrlar tayorlab beruvchi hunarmandlar - muhrkanlar** ham mavjud edi. XVI asrning birinchi yarmida Xiva xoni Abulg'azi Avaneshxonning o'g'li Dinmuhammad sulton "bozordin bir muhrkanni kelturib otasining otina muhr qazdardi", - deb xabar beradi. Bunday ustalardan birining nomini XVII asr muallifi Mutribiy ham eslatib o'tadi.

Muhrkan ustalar juda mahorat bilan turli muhrlarni yasaganlar. Buni Qo'qon muhrkanlari yaratgan "chiroyli bosma naqsh bilan bezatilgan uchburchak, yulduzcha va boshqa shakldagi" misdan yasalgan muhrlar ham tasdiqlaydi¹.

Shaharlarda ayrim xunar turlari bor ediki, ular bilan mashg'ul shaxslar ba'zi hollarda uyma-uy, qishloqma-qishloq yurib, aholining yakka buyurtmalari asosida mehnat qilganlar.

Joylarda yurib o'z hunari bilan shug'ullanuvchi bunday hunarmandlar jumlasiga temirchilar ham kirar edi. Samarqandga oid XIX asr materiallaridan kuzatilishicha, ayrim temirchilar va taqa qoquvchilar qishloqlarda yurib otlarni taqalaganlar². Joylarda yurib o'z hunari bilan shug'ullanuvchi hunarmandlar jumlasiga kulollarni ham kiritish mumkin edi. "Yoz vaqtlarida kulollarning ayrimlari qishloqlarga jo'nab ketadilar va mahalliy aholi uchun kerakli idish-tovoqlarni yasab beradilar", - deb qayd etilgan edi XIX asrning 70- yillarida³. A.Divayev toshkentlik poyafzal tikuvchi usta Azimxo'ja bilan suhbatlashganda, u "Charmgarlardan ishlov berilgan terini olib, bu yuk bilan dashtga - qirg'izlar oldiga borasan. U yerda qirg'iz cho'ponlari va ularning xotinlariga etik tikib berasan, mukofot tariqasida esa xom teri olasan"⁴, - deb aytgan edi.

Uyma-uy yurib o'z hunari bilan shug'ullanuvchi hunarmandlar jumlasiga **ipakni chuvalatib beradigan ustalarni** ham kiritish mumkin. Samarqandga oid ma'lumotlardan birida "Ular pilla yig'ib bo'linganligidan keyin ipakchilarning uylariga boradilar va alohida haq evaziga uni chuvalatib beradilar"⁵, - deb qayd etiladi. XIX asrning 70-yillariga oid bu ma'lumotga ko'ra, ushbu hunar egalarining shahardagi soni 100 kishidan ortiq bo'lmay, ular "kichikroq artellarga uyushib, uyma-uy yurganlar"⁶.

¹ Кирпичников Н.А. Краткий очерк некоторых туземных. С. 127.

² Кирпичников Н.А. Краткий очерк некоторых туземных. С. 127.

³ Кушакевич А. О гончарном производстве в Ходжентском уезде. С. 196.

⁴ Дивасев А. Предание о возникновении азиатского города Ташкента // Протоколы заседаний и сообщений членов Туркестанского кружка любителей археологии. Т. V. Т. 1900. С. 150.

⁵ Адамолли Ю. Разведение шелковичных червей в Средней Азии / Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. 1. 1872. С. 523.

⁶ Габбин Н. Арбяное производство в Ташкенте (арабакш-уста) // Материалы для статистики Сырдарьинской области. Г., 1900.

Ayrim hunar egalari ba'zi hollarda, ayniqsa, yoz paytida boshqa shaharlarga ish qidirib borar edilar. Ular jumlasiga Qo'qon va Namangandan Toshkentga yozda keluvchi" **arabaso-ustalarni** kiritish mumkin⁶. O'zaro aloqalar tufayli ko'pgina hunar turlari bir xududdan ikkinchisiga o'tib borgan, bir xalqning hunarmandchilik sohasidagi yutuqlari ikkinchisi tomonidan qabul qilingan. Inqirozga yuz tutgan shaharlar ahli turli boshqa markazlarga ko'chib borar ekanlar, ularning iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatganlar. Shunday shaharlardan biri Shoxruxiya bo'lib, N.Aristovning ko'rsatishicha, XVIII asming oxirgi choragida qozoqlarning Chirchiq havzasi, Angrenga kirib kelishi oqibatida ular aholisi kabi Shoxruxiya ahli ham "Toshkent va xatto Sirdaryo ortida najot topdi"¹. Jumladan, Shoxruxiyadan kelgan axoli Xo'jandda Beshkapa guzarida yashaganlar. Ularning ko'pchiligi ip gazlamalar to'qish, charm tayorlash, poyafzal tikish, buyra to'qish bilan mashg'ul bo'lganlar va bu hunarlarning shaharda yanada rivojlanishiga o'z hissararini qo'shganlar².

Shahar aholisining turli vakillari boshqa markazlar va o'zga yurtlarda bo'lib, u yerdagi madaniyat va ishlab chiqarish yangiliklarini olib kelganlar. Shunday shaxslardan biri, A.Vamberining yozishicha, Bosforda bo'lgan vaqtda turli hunarlar, xususan, "sarrojlilik, xattotlik" va boshqalar bilan shug'ullangan xivalik xoja Ismoilning Xivadagi "uyida distillyatsiya uchun uncha katta bo'lmagan ko'plab asboblar bor edi. U barglar, mevalar va boshqalardan yog' olishni bilar edi"³.

Shunday qilib, XVI-XIX asming o'rtalarida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari shaharlarida turli-tuman hunarmandchilik sohalari mavjud edi. Ularning barchasida aholining kundalik turmushi va ehtiyojlariga xizmat qiluvchi hunar turlari - gazlamalar to'qish, kiyim-bosh tikish, uy-ro'zg'or buyumlari - kulolchilik, temirchilik, duradgorlik mahsulotlari, oziq-ovqat turlarini ishlab chiqarish kabilar rivojlangan edi. Turli hunarmandlar o'z faoliyatlari bilan shaharlar iqtisodiy hayotining ravnaqiga o'z hissararini qo'shganlar.

XVI-XIX asming o'rtalarida shaharlardagi hunarmandchilik sohalari o'z boshidan taraqqiyot bosqichlari va inqirozli damlarni kechirdi. Ayrim hunar turlari yanada rivojlanib bordi, ba'zilar umuman unut bo'layozdi. Ular jumlasiga harbiy qurol-aslaha ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunar turlarini kiritish mumkin. Shu bilan birga XIX asming birinchi yarmida Rossiya taylor fabrika mollarinig kirib kelishi ham ayrim hunar turlarini rivojlanish sur'atlari pasayishiga olib keldi.

Tayanch so'zlar:

Kunjut, sedana, tut, xo'jaguzar, dallol, sotuqchi, cho'ptaroq, jarchi, vofurush, kamissyon, fuzulotfurush, belfurush, kafshfurush, abrimushfurush, qog'ozfurush, cho'bfurush, safidfurush, paxta saroy, savdogar, muftiy, toqilar, timlar, kon, darvish, barlos, tarxun, ob bo'zi, azam zandanasi, semendi zandanasi, los shoyi ansir, dasht, mavze, chegara-qo'rg'on.

Test topshiriqlar:

1. XIX asrda A.Xoroshxinning xabar berishicha sarroflarning nechta do'koni bo'lgan?

¹ Аристов Н. Наманганский округ Коканского ханства (Из показаний одного выходца в 1871 году). С. 386-387.

² Турсунов И.О. Развитие городских и сельских поселений северного Таджикистана. С. 110.

³ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. С. 114.

- A. XIX asrda A.Xoroshxinning xabar berishicha sarroflarning 4 ta do'koni bo'lgan
- V. XIX asrda A.Xoroshxinning xabar berishicha sarroflarning 5 ta do'koni bo'lgan
- S. XIX asrda A.Xoroshxinning xabar berishicha sarroflarning 3 ta do'koni bo'lgan
- D. XIX asrda A.Xoroshxinning xabar berishicha sarroflarning 7 ta do'koni bo'lgan

2. XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalfalar nima deb atalgan?

- A. XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalfalar nimkorlar deb atalgan
- V. XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalfalar shogirdlar deb atalgan
- S. XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalfalar dastyorlar deb atalgan
- D. XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalfalar shogird va davtyor deb atalgan

3. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyoda agar shogird imtohondan o'ta olmasa ustoz qanday jazolangan?

- A. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyoda agar shogird imtohondan o'ta olmasa ustoz shogird olish huquqidan mahrum etilgan
- V. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyoda agar shogird imtohondan o'ta olmasa ustoz olgan oyligini qaytarib hukumatga bergan
- S. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyoda agar shogird imtohondan o'ta olmasa ishdan chetlatilgan
- D. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida agar shogird imtohondan o'ta olmasa ishdan chetlatilgan va olgan oyligini qaytarib hukumatga bergan

4. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida Shogird hunar o'rganish davri tugugundan so'ng qanday amalni bajargan?

- A. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida Shogird "belni bog'lash" urf-odatini bajargan.
- V. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida Shogird "sovg'a- salom berish" urf-odatini bajargan
- S. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida Shogird "qo'y so'yib qon chiqargan"
- D. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida Shogird "xudoyi" qilgan

5. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida oqsoqollar gohida qanday vazifani bajargan?

- A. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida oqsoqollar gohida dallollik vazifani bajargan
- V. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida oqsoqollar gohida olib-sotarlik vazifani bajargan
- S. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida oqsoqollar gohida ulgurji savdo vazifani bajargan
- D. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida oqsoqollar gohida ulgurji savdo va olib-sotarlik vazifani bajargan

6. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida Oqsoqollar kimlar tomonidan saylangan?

A. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida Oqsoqollar hunarmandlar tomonidan saylangan

V. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida Oqsoqollar savdogarlar tomonidan saylangan

S. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida Oqsoqollar zodagonlar tomonidan saylangan

D. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida Oqsoqollar xon tomonidan saylangan

7. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida aholining katta qismini kimlar tashkil qilgan?

A. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida aholining katta qismini harbiylar tashkil qilgan

V. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida aholining katta qismini savdogarlar tashkil qilgan

S. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida aholining katta qismini hunarmandlar tashkil qilgan

D. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo shaharlarida aholining katta qismini hunarmand va savdogarlar tashkil qilgan

8. XVII asrning 20-yillarida I.Xoxlovning xabariga ko'ra Buxoro yerida xarbiylar qanchani tashkil etganligini qayd etgan?

A. XVII asrning 20-yillarida I.Xoxlovning xabariga ko'ra Buxoro yerida xarbiylar 10000 tani tashkil etganligini qayd etgan

V. XVII asrning 20-yillarida I.Xoxlovning xabariga ko'ra Buxoro yerida xarbiylar 9000 tani tashkil etganligini qayd etgan

S. XVII asrning 20-yillarida I.Xoxlovning xabariga ko'ra Buxoro yerida xarbiylar 9.500 tani tashkil etganligini qayd etgan

D. XVII asrning 20-yillarida I.Xoxlovning xabariga ko'ra Buxoro yerida xarbiylar 11000 tani tashkil etganligini qayd etgan

9. XIX asrning birinchi yarmida hech narsasi yo'q kishi qanday atalgan?

A. XIX asrning birinchi yarmida hech narsasi yo'q kishi miskin deb atalgan

V. XIX asrning birinchi yarmida hech narsasi yo'q kishi kambag'al deb atalgan

S. XIX asrning birinchi yarmida hech narsasi yo'q kishi gadoy deb atalgan

D. XIX asrning birinchi yarmida hech narsasi yo'q kishi kambag'al va gadoy deb atalgan

10. 1812 yilda Buxorodagi harbiylar kiyimi qanday matodan tikilgan?

A. 1812 yilda Buxorodagi harbiylar kiyimi yarim ipak mato – adrasdan tikilgan

V. 1812 yilda Buxorodagi harbiylar kiyimi chitdan tikilgan

S. 1812 yilda Buxorodagi harbiylar kiyimi banorasdan tikilgan

D. 1812 yilda Buxorodagi harbiylar kiyimi baxmaldan tikilgan

13-Mavzu: Hunarmandchilik va savdoning qishloq xo'jaligi bilan qo'shib olib borilishi

Reja:

1. O'rta Osiyo shaharlarining dehqonchilik va bog'dorchilik sohasidagi faoliyati.
2. O'rta Osiyo shaharlarining hunarmandchilik sohalar, ichki va tashqi hamda tranzit savdodagi faoliyati.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Аристов Н. Наманганский округ Коканского ханства (Из показаний одного выходца в 1871 году). С. 386-387.
2. Турсунов И.О. Развитие городских и сельских поселений северного Таджикистана. С. 110.
3. Ханыков Н. Самарканд. Рассказ очевидца // Туркестанский сборник. Т. 7. С. 201
4. Маев Н. От Шахрисабза до Бухары //Туркестанские ведомости. 1875. №5-6
5. Рассказ торговца Абросимова о его поездке в Хиву // Материалы для статистики Туркестанского края. Спб., 1873. Вып. 11. С. 17.

XVI-XIX asming o'rtalarida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining savdo-iqtisodiy markazlari bo'lmish shaharlar aholisi hunarmandchilik va savdodan iborat mashg'ulot turlaridan tashqari dexqonchilik, bog'dorchilik va ayrim chorva mollarini yetishtirish bilan ham shug'ullangan. Bu jihatdan shaharlar turlicha taraqqiyot pog'onalarida turar edilar. Xususan, ayrim shaharlarda hunarmandchilik va savdo shahar hayotining asosiy iqtisodiy sohalar ekanligi ko'zga tashlansa, ayrimlari esa bu yerdagi aholining dexqonchilik va chorvachilik bilan keng shug'ullanganligi bilan xarakterlanadi. Tarixiy ma'lumotlar tahlili bu borada shaharlar hayotiga xos bir qator umumiy va xususiy tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari xududlarida joylashgan ko'pdan-ko'p katta va kichik shaharlar xo'jaligida iqtisodning boshqa sohalar kabi dexqonchilik ham katta o'rin tutar va shaharlar qishloq xo'jaligidan to'la ajralib ketmagan edi. Tarixiy manbalar dalolat berishicha, shaharlar aholisi ko'p hollarda bu markazlar atrofida dexqonchilik qilish uchun dalalar va bog'larga ega edilar. Ular bunday dalalarga kundalik turmushda zarur bo'lgan **bug'doy, paxta, guruh, beda, poliz ekinlari, mevalar, kunjut va sedana** hamda turli hunarmandchilik sohalarida keng ishlatiladigan xomashyo turlarini ekib, yetishtirar edilar. Odatda, bunday dala va bog'larning atrofini tut daraxti bilan o'rab qo'yardilar Bu yerlarda dexqonchilik qilgan shaharliklar ko'pincha asosiy mashg'ulotlari - **to'kuvchilik, terini ishlash, paxsa urish, kulolchilik, oziq-ovqat ishlab chiqarish** va x.k. bilan keng shug'ullanganlar¹.

Buxoro xonligining yirik savdo-iqtisodiy markazlaridan bo'lmish Samarqandaa bog'lar juda ko'p edi. XIX asming birinchi yarmida Samarqand va Buxoroni ko'rgan, ular o'rtasidagi farqning butun manzarasini his eta olgan N.Xanikov, Samarqandda

¹ Турсунов И.О. Развитие городских и сельских поселений северного Таджикистана. С. 132.

Buxoroga nisbatan “bog‘lar ancha qo‘p”² - deb qayd etgan edi. Shahar ichidagi va uning atrofidagi bog‘larda turli hunarmandchilik sohalari uchun xomashyo vazifasini o‘tovchi ko‘plab daraxtlar ustirilar edi.

Masalan, duradgorlar o‘z mahsulotlarini yaratishda bu bog‘larda yetishtirilgan terakdan keng foydalanar, ancha qimmatbaho mahsulotlar yaratish uchun esa **yong‘oq, chinor, qayrag‘och va tut daraxtiga** ehtiyoj katta edi. Samarqandga oid ma‘lumotlar tasdiqlashicha, ko‘p hollarda hunarmandlar aholining shahar atrofidagi bog‘laridan daraxtlarni kesib, sotib olar edilar. Bu holatni boshqa shaharlar misolida ham kuzatish mumkin.

Hunarmandchilik va savdo keng rivojlangan shaharlar atrofida **pilla** yetishtirish ishida juda kerak bo‘lgan tut daraxtlari o‘stirishga katta zarurat tug‘ilgan. Shu boisdan tut ko‘chatlarini o‘stirishga alohida e‘tibor bilan qaraganlar. XIX asrda Samarqandda turli daraxt ko‘chatlari, xususan, tut daraxti ko‘chatlari bilan savdo qiluvchi bozorning bo‘lganligi bu o‘rinda xarakterlidir.

Dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan aholisi keng shug‘ullangan Buxoro xonligi shaharlaridan yana biri **Qarshi** shahri edi. XIX asrda shaharda bo‘lgan N.Mayev “Qarshi atroflari butunlay ishlov berilgan, bog‘lar, uzumzor va polizlar bilan o‘rab olingan”³, - deb yozgan edi. Shaharda bo‘lgan N.Petrovskiy esa u xaqida yozar ekan, Qarshi Toshkentni eslatishini ko‘rsatib, shahar o‘rtasida **“bog‘lar va polizlar”** borligini kayd etgan edi⁴.

Buxoro xonligi shaharlari aholisining dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanganliklarini etnografik ma‘lumotlar ham tasdiqlaydi. Xususan, O.A.Suxarevaning Shahrisabz misolida ko‘rsatishicha, shaharning **Xo‘jago‘zar va Eshongo‘zarida** istiqomat ilgan xo‘jalar asosan “xunarmandchilik xususan, to‘kuvchilik yoki dexqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Ular shahar atrofidagi qishloqlarda joylashgan o‘z yerlariga shaxsan ishlov berganlar”.

Shu bilan birga Buxoro xonligining ayrim shaharlarida aholi bog‘dorchilik va dexqonchilik bilan shug‘ullanganini tasdiqlovchi ma‘lumotlar tarixiy manbalarda deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Buni Buxoro shahri misolida ko‘z tatish mumkin. Sharqning yirik hunarmandchilik va savdo markazi bo‘lmish bu shahar ahlining asosiy mashg‘uloti juda yuqori darajada taraqqiy etgan turli-tuman hunarmandchilik sohalari va ichki, tashqi hamda tranzit savdodagi faoliyatdan iborat edi. Shahar aholisi dehqonchilik, bog‘dorchilik bilan boshqa markazlarga nisbatan juda kam shug‘ullangan. Buni shaharda bo‘lgan ko‘plab shoxidlar ta’kidlab o‘tgan edilar. Xususan, XIX asrning birinchi yarmida shaharda bo‘lgan ingliz ofitseri A.Byorns, bu markazda “deyarli birorta ham bog‘ yo‘q”. - deb yozgan edi.

Shahar aholisining asosiy mashg‘ulot turlari – xunarmandchilik va savdo bilan bir qatorda, dehqonchilik va bog‘dorchilik, qishloq xo‘jligining ayrim tarmoqlari, shuningdek, chorvachilik bilan keng shug‘ullanganliklarini Xiva shaharlari misolida ham ko‘z tatish mumkin. XIX asrga oid tarixiy asarlar mualliflari Xiva shaharlarini “bog‘lar va dalalar bilan o‘ralgan” markazlar tarzida tavsif etgan edilar.

² Ханыков Н. Самарканд. Рассказ очевидца // Туркестанский сборник. Т. 7. С. 201

³ Маев Н. От Шахрисабза до Бухары // Туркестанские ведомости. 1875. №5-6

⁴ Петровский Н. Моя поездка в Бухару. С. 227.

Xiva xonligi shaharlari aholining asosiy mashg'ulotlar bilan bir qatorda dexqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanganliklari xonlik poytaxtiga oid ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi Xususan, XVII asrda Abulg'ozixon quyidagilarni qayd etgan edi: "Baxor qo'y qo'zilar. Xevaqda o't bo'lmas. Rang chiqar. Xevak turkmani qumga ketar. Sart ekin ekmoq uchun kendli kendina ketar"¹. XVIII asrning 40 yillarida Xivada bo'lgan rus geodezisti N.Muravin ham shaharlar atrofida mavjud bo'lgan shaharliklarning bog'lari haqida xabar berib o'tadi². Uniig bu ma'lumotini XIX asr boshlarida N.Muravyev ham tasdiqlab, "shaharga yetmasdan 5 chaqirim berida bog'lar boshlanadi"³, - deb qayd etgan edi.

Poytaxt shahar bo'lmish Xiva aholisining dehqonchilik, bog'dorchilik bilan keng shug'ullanganliklarini bu markazda bo'lgan boshqa shohidlarning so'zlari ham tasdiqlaydi. XIX asrda yozib qoldirilgan bunday ma'lumotlardan biriga ko'ra "Shaharning deyarli butun g'arbiy qismi qishloq xarakteriga ega: u bog'lar, dalalar va u yerda joylashgan ayrim uylarni o'z ichiga olgan" edi⁴.

Xivaning markaziy qismida esa bog'lar kam edi. Bu shaharni qo'rgan guvohlardan biri, L.Kostenkoning yozishicha, poytaxtda iqlim dim bo'lib, bu "shaharda yoki aniqrog'i, shaharning markaziy va sharqiy qismida bog'larning yo'qligi" oqibati deb tushuntiradi. Bu jihatdan Xiva boshqa shaharlarga o'xshashini qayd etib o'tadi.

Shahar aholisi dehqonchilik bilan bir qatorda, chorvachilik bilan ham shug'ullangan. 1753 yilda Xivada bo'lgan D.Rukavkin: "Chorva uchun aholi qishloqlar yoki shahar atrofidagi uylarga egadirlar", - deb qayd etadi.

Xiva xonligi shaharlarining hoxlisi asosiy mashg'ulotlaridan tashqari dexqonchilik bilan shug'ullanganliklari haqida A.Kun ham yozgan. Bu muallif "chegara qo'rg'onlari" - Kat va Shovot misolida "ularda aholi urushlar xavfi kuchaygan va o'zaro nizolar avj olgan vaqtda yashaydi, tinchlik davrida esa ularning aholisi shahar atrofida joylashgan dalalaridagi uylariga ko'chadilar, deb bizga tushuntiradilar", - deb qayd etadi. Shu bilan birga, bu muallif "Ularning qo'plari butun yil davomida o'z dalalarida yashaydilar, boshqalari esa qishda qo'rg'onlariga qaytadilar", - deb ilova qiladi.

Xiva xonligining boshqa shaharlari aholisi ham bog'dorchilik bilan keng shug'ullangan. Buni qo'pgina tarixiy ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. N.Muravyevning qayd etishicha¹, "Xiva xonligining hamma shaharlari bog'lar bilan o'ralgan edi"². Bu mamlakatda bo'lgan savdogar Abrosimov XIX asrning birinchi yarmida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: "Bu yerda baland va katta uylar kam, buning ustiga-ustak shaharni chiroyli bog'lar va har bir uy oldidagi daraxtlar berkitib turadi"³.

¹ Абулгозий. Шажарайи турк. 172-6.

² Приложения к показаньям Муравина // Журнал описаниям киргиз-кайсакам, каракалпакам, аралыдам и хивинцам. С. 75.

³ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. С. 35

⁴ Костенко Л. Город Хива. С. 323.

¹ Куш А. Культура оазиса Аму-Дарья. С. 246.

² Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. С. 31.

³ Рассказ торговца Абросимова о его поездке в Хиву // Материалы для статистики Туркестанского края. Спб., 1873. Вып. 11. С. 17.

Bog'lar bilan o'ralgan Xorazm shaharlaridan biri **Gurlan** edi. XIX asr muallifining iborasi bilan aytganda, u "bog'larning qalin soyasi" ostida yastanib yotar edi⁴. Xonlikning boshqa bir shahari **Xonqa** ham bog'lar bilan o'ralgan bo'lib, go'zal manzara hosil qilar edi. Xivaning yirik savdo-iqtisodiy markazi bo'lmish **Uruganchning** ham "atrofi bog'lar bilan o'ralgan" edi⁵.

Shaharlar atrofidagi bog'larda turli-tuman mevali daraxtlar o'stirilgan. 1834 yilda **Toshxovuzda** bo'lgan armani tilmochi Turpayev "Toshxovuz ajoyib bog'lar bilan o'ralgandir. Men ulardan birida bo'ldim va 1000 yaqin turli-tuman mevali daraxtlarni qo'rdim"⁶, -deb yozadi.

Xiva xonligi shaharlari atrofi qo'p hollarda ishlov berilgan dalalardan iborat edi. Xonlikda bo'lgan G.I.Danilevskiy "hamma shaharlarning atrofi ishlov berilgan dalalardan iborat"⁷, - deb qayd etadi. N.Muravyev esa "Xatto Germaniyada ham men Xivadagidek yerga tirishqoqlik bilan ishlov berilganligini qo'rmadim"⁸, - deb ta'kidlagan edi. Dala va bog'larga ishlov berish og'ir mehnatni talab qilar va shaharliklarning o'ziga to'q qismi ayrim hollarda aholining yollanib ishlashga majbur qismi vakillarining mehnatidan foydalanar edi.

Turli markazlar atrofidagi yerlarda harbiylar ham mehnat qilganlar. Ular harbiy harakatlar to'xtagan tinchlik paytida o'z yerlarida dexqonchilik bilan shug'ullanganlar.

Shahar aholisi atrofda dalalarida turli qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirganlar. Xususan, xonlik xunarmandlari tomonidan keng ishlatilgan **paxta, kunjut, zigir, kizil rang beruvchi ruyan** ekilib, ulardan katta xosil olingan.

Dexqonchilik va bog'dorchilik bilan Qo'qon xonligi shaxarlari axolisi xam keng mashgul bo'lgan. Bu yerda shaxarlar axolisining dexqonchilikdan ajralib ketmaganligini sibirlik kazaklar Milyushin va Batarishkinlar ham qayd etib, quyidagilarni yozgan edilar: "Butun yo'l davomida biz qirg'izlar va shaharlar aholisi tomonidan ishlanadigan ekin maydonlarini qo'rdik... **G'alla, arpa, tariq va bug'doyning** boshqa turlari va sabzavotlar yetishtiriladi.

Dehqonchilik **Qo'qonda** sug'orish bilan muvaffaqiyatli olib boriladi. Shaharlar aholisi yana pillachilik, uzum va turli mevali daraxtlar yetishtirish bilan shug'ullanadilar".

Shaharliklarning yordamchi mashg'ulotlar bilan shug'ullanganligi, ularning dehqonchilikdan uzil-kesil ajralib ketmaganligini Toshkent misolida ham kuzatish mumkin¹.

Bu shahar aholisi ham Xiva, Marg'ilon, Qo'qon shaharlari ahli singari asosiy mashg'ulotlari - hunarmandchilik va savdodan tashqari dexqonchilik va bog'dorchilik bilan keng shug'ullanganlar.

Toshkentga xos asosiy xususiyatlardan biri shu ediki, shahar ahlining qo'pchilik qismi bu markaz atrofida yerlarda dehqonchilik, bog'dorchilik bilan

⁴ Соболев Л. Обзор доступов к Хивинскому ханству. С. 162.

⁵ Кун А. Культура оазиса Аму-Дарья. С. 240.

⁶ Дневник переводчика армянина Турпаса, посланного в 1834 г. С. 134

⁷ Данилевский Г. И. Описание Хивинского ханства. С. 102.

⁸ Муравьев Н. Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. С. 88.

¹ Показания сибирских казаков Милушина и Батарышкина. С. 25

shug'ullanish imkonini beradigan yer uchastkalariga ega edi. Bunday yer uchastkalari joylashgan hududlar, odatda, "**mavzelar**" deb atalgan.

Aholi shaharlardan ko'chib chiqib bu yerlarda yashagan vaqt - **yozda** ular gavjum bo'lgan.

Asrlar davomida shakllangan bunday mavzelarning XX asr boshlaridagi katta ro'yxatini keltirgan N.G.Mallitskiy ular jumlasida **Oqqo'rg'on, Darxonariq, Yalong'och, Ayrilish, Oqtepa, Yunusobod, Qorasaroy, Unqo'rg'on, Achavot, Beshqayragoch, Qorasuv, Qo'rbaqaobod** va boshqalarning nomlarini keltiradi.

Shu mualifning qo'rsatishicha, shaharning Shayxontohur qismiga 31 ta, Sebzor qismiga 65 ta, Ko'kcha qismiga 45 ta, Beshyog'och qismiga esa 36 ta mavze karagan². Garchi, bu ma'lumotlar ancha keyingi davrga taalluqli bo'lsada, umuman asrlar davomida shakllanib kelgan shahar iqtisodiy hayotining keng ko'lami va aholi mashg'ulotlarining turli-tumanligidan dalolat beradi.

Dexqonchilik ba'zi hollarda shaharlar aholisining asosiy mashg'ulot turi bo'lgan hollar ham ko'zatiladi. Xususan, Toshkentning **Taxtapul, Sebzor, Chuvalachi, Qorasaroy** deb nomlangan joylari aholisining qo'pchiligini, 1868 yil ma'lumotlariga ko'ra, dehqonlar tashqil etgan edi³.

Toshkent atrofi ham qalin "bog'lar bilan o'ralgan edi"⁴. Ularda yetishtirilgan, terilgan va qo'ritilgan mevalar anchagina katta savdo mollarini tashqil etgan⁵. Ular bilan nafaqat shahar bozorlarida savdo qilinib qolmay, bu mollar katta hajmlarda dasht, boshqa shaharlar va o'zga yurtlarga, xususan, Rossiyaga olib ketilgan.

Qo'qon xonligining boshqa shaharlari aholisi ham savdo va hunarmandchilik turlari bilan bir qatorda, dexqonchilik hamda bog'dorchilik bilan keng shug'ullanganlar. Buni nafaqat shaharlar atrofida, balki turli markazlar ichida joylashgan ko'pdan-qo'p bog'larning mavjudligi ham tasdiqlaydi. XIX asrda Namangan haqida quyidagilar qayd etilgan edi: "Namanganda ham bog'lar tez-tez uchrab turadi va ular shunday katta maydonlarni egallaydiki, loydan qurilgan uylar bir-biridan ancha uzoqlikda joylashishiga to'g'ri keladi"⁶.

Shaharlar aholisining asosiy hunarmandchilik turlarini dehqonchilik bilan qo'shib olib borganliklarini XIX asrning boshqa muallifi ham Namangan shahri misolida tasdiqlaydi. Uning yozishicha, shahar "aholisi dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanganlar. Shaxarlar aholisi bularni savdo va bo'z hamda shoyi gazlamalar to'qish bilan birga qo'shib olib borganlar"⁷. Bu markaz atrofida **Koson, Chortoq** kabi kichikroq shaharlar joylashgan edi. Kosonda 400 uy, Chortoqda 500 uy bor edi. "Ularning aholisi dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanadilar.

Shaharlar aholisi bu mashg'ulot bilan savdo va bo'z, ipak gazlamalar ishlab chiqarishni birgalikda olib borganlar"⁸, - deb yozadi N. Aristov.

² Маллицкий Н. Ташкентские махалла и маузе. С. 114-121.

³ Оюдаев Ф. Ташкент тарихидан очерклар. 27-6.

⁴ Хорошхин А.П. Очерки Ташкента. С. 79

⁵ Тетсвревников А.Н. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. С. 38.

⁶ Михайлов М. Наманган. С. 205.

⁷ Наманганский округ Кокандского ханства (Из показаний одного выходца в 1871 году) // Туркестанские ведомости. 1871. №29

⁸ Аристов Н. Наманганский округ. С. 139

Namangan va uning atroflarida ro'yan ham yetishtirilgan⁷. Dehqonchilik, bog'dorchilik va shuningdek, pilla yetishtirish bilan Qo'qon xonligining boshqa shaharlari aholisi ham mashg'ul edi. Ular jumlasiga xonlik poytaxti ham kirar edi. Qo'qon shahri haqida yozar ekan, 1830 yilda bu yerda bo'lgan xorijiy Potanin, shahar va uning atroflarida mevali bog'lar borligini qayd etgan holda, "Aholi bog'dorchilik va savdodan tashqari **pilla qurti boqish, paxta va bug'doy** yetishtirish bilan shug'ullanadilar. Shu boisdan Qo'qon atrofi bug'doy ekilgan dalalar bilan o'ralgan edi, chorva kam, chunki o'tloqlarning katta qismiga ekin ekilar edi"¹, - deb yozgan edi. XIX asr boshlarida atrofi turli mevali daraxtlarga to'da qishloqlar bilan o'ralgan **Andijon shahrining** aholisi ham **ipak qurti yetishtirish, ip gazlamalar to'qish va g'alla yetishtirish** bilan keng shug'ullanganlar².

Qo'qon xonligida tamaki ham yetishtirilgan. Xonlik shaharlari bozorlarida eng yaxshi hisoblangan Buxoro tamakisidan tashqari "Namangan va Toshkent atroflarida yetishtirilgan tamakini ham sotar edilar"³.

Xonlikda yetishtirilgan paxta, zig'ir va boshqa o'simliklardan to'qimachilikda va turli hunarmandchilik sohalarida keng foydalanilgan⁴.

Shunday qilib, Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari shaharlari aholisi hunarmandchilik va savdodan tashqari, ular bilan bog'lik ravishda rivojlangan turli mashg'ulotlar - dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik bilan ham shug'ullanganlar. Qo'rib chiqilgan ma'lumotlar tahlili shaharlar aholisi qishloq xo'jaligi mashg'ulotlaridan uzil-kesil aloqani uzmaganligini qo'rsatadi. Dehqonchilik va bog'dorchilik turli shaharlarda xilma-xil rivojlanib, ularning ayrimlari xo'jaligida umuman o'rin tutmaganligini qo'rsatadi. Bu esa o'z navbatida shaharlarning aynan shu sohada umumiy xususiyatlar va o'ziga xos jihatlarga ega bo'lganligini qo'rsatadi.

Tayanch so'zlar:

Karbas, bofendegon, kulolgaron, sabbog'on, xarroton, namadmolon, qog'azgaron, tirgaron, darzion, zandana semendi, zandana dyumendi, qashshoq, bo'z karbas, olachabof, chitgar, chahor gulbofon, bosma-i tibit, belbog', qoqma, movut, banoras, ol-chimbar, pari poshsha, gazmol, pasma, qazma maxmal, qipchama maxmal, qirmizi, gaz, javonibqa, baxmal, parcha, viboyka, indigo.

Test topshiriqlar:

1. XVI asrda Samarqandda qaysi mato keng tarqalgan edi?

A. XVI asrda Samarqandda baxmal keng tarqalgan edi

V. XVI asrda Samarqandda chit keng tarqalgan edi

S. XVI asrda Samarqandda Atlas keng tarqalgan edi

D. XVI asrda Samarqandda parcha keng tarqalgan edi

2. Ipak matolar asosan qaysi xonlik shaharlarida ishlab chiqarilgan?

⁷ Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве. С. 121.

¹ Записки о Кокандском ханстве хорунжего Потанина. С. 282

² Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях. 50-6.

³ Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве. С. 121

⁴ Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве. С. 121

- A. Ipak matolar asosan Qo'qon xonligi shaharlarida ishlab chiqarilgan
- V. Ipak matolar asosan Buxoro xonligi shaharlarida ishlab chiqarilgan
- S. Ipak matolar asosan Xiva xonligi shaharlarida ishlab chiqarilgan
- D. Ipak matolar asosan Toshkent bekligida ishlab chiqarilgan

3. Matolarni bo'yash qayerlarda amalga oshirilgan?

- A. Maxsus ustaxonalar va hunarmandlarning uylarida amalga oshirilgan
- V. Bozorlarda amalga oshirilgan
- S. Bozorlar va do'konlarda amalga oshirilgan
- D. hunarmandlar uylarida va bozor, do'konlarda amalga oshirilgan

4. Matolarni bo'yash ustaxonalari asosan shaharning qaysi hududida bo'lgan?

- A. Matolarni bo'yash ustaxonalari asosan shaharning bozorlari hududida joylashgan
- V. Matolarni bo'yash ustaxonalari asosan shaharning markazida joylashgan
- S. Matolarni bo'yash ustaxonalari asosan shaharning katta shox yo'li yoqasida joylashgan
- D. Matolarni bo'yash ustaxonalari asosan shaharning markazi va yo'l yoqasida joylashgan

5. Bo'yoqchilar gazlamani bo'yashdan tashqari yana qanday maxsulotlarni bo'yashga ixtisoslashgan?

- A. Bo'yoqchilar gazlamani bo'yashdan tashqari yana ipaklarni bo'yashga ham ixtisoslashgan
- V. Bo'yoqchilar gazlamani bo'yashdan tashqari yana namatlarni bo'yashga ixtisoslashgan
- S. Bo'yoqchilar gazlamani bo'yashdan tashqari yana mislarni bo'yashga ham ixtisoslashgan
- D. Bo'yoqchilar gazlamani bo'yashdan tashqari yana taxtalarni bo'yashga ham ixtisoslashgan

6. Xorijdan keltirilgan bo'yoq vositalaridan qaysi bo'yoq keng tarqalgan va qayerdan olib kelingan?

- A. bo'yoq vositalaridan qaysi bo'yoq keng tarqalgan bo'yoq turi - indigo (nil) bo'yog'i bo'lib, Hindistondan keltirilgan
- V. bo'yoq vositalaridan qaysi bo'yoq keng tarqalgan bo'yoq turi - baqam (to'q gunafsha) bo'yog'i bo'lib, Hindistondan keltirilgan
- S. bo'yoq vositalaridan qaysi bo'yoq keng tarqalgan bo'yoq turi - cho'b-i sandal (ko'k rang) bo'yog'i bo'lib, Xitoydan keltirilgan
- D. bo'yoq vositalaridan qaysi bo'yoq keng tarqalgan bo'yoq turi - qirmis bo'yog'i bo'lib, Yaponiyadan keltirilgan

7. Matolarni nil bilan bo'yash kimlari mashg'ul bo'lganlar?

- A. ko'proq yaxudiyalar mashg'ul bo'lgan
- V. ko'proq o'zbeklar mashg'ul bo'lgan
- S. ko'proq tojiklar mashg'ul bo'lgan

D.ko'proq tojik va o'zbeklar mashg'ul bo'lgan

8. 1639-1672 yillarda qanday kiyim-boshning muhim turlari tarqalgan?

A.ro'mol, qiyiq, dastro'mollar keng tarqalgan

V.chopon, do'ppi, qiqiy keng tarqalgan

S.yaktak, do'ppi, chopon keng tarqalgan

D.yaktak, do'ppi, qiyiq, dastro'mol keng tarqalgan.

9. Aholi orasida qanday idishlarga talab katta edi?

A.arzon va pishiq sopol idishlariga talab katta edi

V.arzon do'ppi va ro'mollarga talab katta edi

S.arzon kiyim-boshlarga talab katta edi

D. arzon kiyim-bosh va ro'mollarga talab katta edi

10. G'isht humdonlar shaharning qaysi qismida bo'lgan?

A. G'isht humdonlar shaharning chetida joylashgan edi

V. G'isht humdonlar shaharning markazida joylashgan edi

S. G'isht humdonlar bozor o'rtasida joylashgan edi

D. G'isht humdonlar xonadonlarda joylashgan edi

14-Mavzu: Ichki va tashqi savdoning shaharlar taraqqiyotidagi roli.

Bozorlar va ularning shahar hayotidagi o'rni

Reja:

1. O'rta Osiyo shaharlarida ichki va tashqi sadoning rivojlanishi.

2. O'rta Osiyo shaharlarida bozorlar va ularning shahar hayotidagi o'mi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Костенко Л. Среднеазиатская торговля // Туркестанские ведомости. № 5. 1871.
2. Озодаев Ф. Тошкент тарихидан очерклар (XIX асрнинг иккинчи ярмида шахдрнинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий тарихи) Г.: Фан, 1960. 27-6.
3. Хива или географическое и статистическое описание Хивинского ханства. М.. 1840. С.44
4. Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. Тошкент. 2017. 1236.

XVI-XIX asrning o'rtalarida Buxoro, Xiva va Ko'qon xonliklari shaharlari iqtisodiy hayotining yetakchi sohalaridan biri bu yerda rivojlangan hunarmandchilik bilan o'zviy bog'langan savdo edi. Fedor Skibin Buxoro aholisi haqida "odamlari jangari emas, hunarmand va savdogardirlar", - deb yozganida haq edi. Ichki savdoning rivojlanishi oqibatida Buxoro, Xiva va keyinchalik Qo'qon xonliklarining Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shahrisabz, Qarshi, Xiva, Urganch, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan kabi shaharlarining iqtisodiy qudrati o'sib bordi. Ularning nafaqat ichki, balki tashqi va tranzit savdo markazlari sifatidagi ahamiyat yanada ortib bordi. XVI asrda Buxoroda bo'lgan Antoni Jenkinson, shaharda har yili

“Hindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa ko‘plab mamlakatlardan keluvchi savdogarlarning yig‘ilishi (syezdi) bo‘ladi”, - deb ko‘rsatgan edi¹.

Savdo, xususan, ichki savdo bilan aholining katta qismi shug‘ullangan. 1669 yilda Xivaga yuborilgan rus elchisi Ivan Fedoteyev o‘z bayonnomasida “Qanxa va Ozarist” shaharlariga savdo qilgani borganini yozar ekan. “u shaharlarda Urganch va Xivaning turli amaldagi kishilari o‘zaro “zandana va chit va paxta va olacha va xom ipak” bilan savdo qilishlarini qayd etadi².

XIX asrning 70 yillarida **L.Kostenkov**: “O‘rta Osiyoda ichki savdo ancha kattadir, lekin u muomaladagi sarmoyalarning hajmi jihatidan emas, balki bozorlar soni va savdo bilan shug‘ullanuvchi shaxslar soni bo‘yicha kattadir”³ - deb ko‘rsatgan edi. Buni ayrim shaharlar misolida ham kuzatish mumkin. Masalan, savdo keng rivojlangan markazlardan biri Toshkent bo‘lib, uning **Oxunguzar, Parchabof va Jangoh** mahallalarining ahli turli hunarlar qatorida savdo bilan ham keng shug‘ullanganlar⁴. Bu holatni boshqa shaharlar misolida ham kuzatish mumkin. Jumladan, Xivada, XIX asrning 40- yillariga oid ma‘lumotlarga ko‘ra, aholining savdo bilan shug‘ullangan qismi asosan shaharlarda yashaganlar⁵.

Savdo birinchi navbatda hunarmandchilik bilan uzviy bog‘langan edi. Hunarmandlar ishlab chiqargan turli-tuman mahsulotlar bilan savdo ko‘pincha muayyan shaxslar tomonidan amalga oshirilgan. Odatda, bunday shaxslar ismiga ular sotadigan mahsulot nomi va “**furush**” so‘zini qo‘shib ishlatganlar. Buni yozma manbalarda mavjud ma‘lumotlardan kuzatish mumkin. Xususan, “**Juybor shayxlari arxivi**” ga oid hujjatlarda ipak sotuvchi “**Xo‘ja Piri Abrishimfurush**”, “**Ali Darvish Ranginfurush**”, “**Mavlono Karbon Kafshfurush**”, “**Mavlono Sulton Ali Qog‘ozfurush**” va boshqalarning ismlarini uchratish mumkin. Savdodagi bu holatni boshqa shaharlarga oid manbalar ma‘lumotlari ham tasdiqlaydi. XIX asrda rasmiylashtirilgan Xiva xonlari arxiviga oid hujjatlarda **kigizfurushlar, ruyanfurushlar, yog‘ochfurushlar** va boshqalarning nomlari aks etgan¹. Qayd etib o‘tish lozimki, savdoning rivojlanishi va undagi ijtimoiy tabaqalanish oqibatida ayrim shaxslarning ma‘lum turdagi mahsulotni sotishga ixtisoslashuvi ham o‘zgara borgan. XIX asrning 70 yillarida **A.Grebenkin** quyidagilarni yozgan edi: “... Uncha katta bo‘lmagan do‘konlarda, masalan, ipak matolar bilan birgalikda sovun va choy... dorilar va shirinliklar sotilgan. Bu holat Samarqand savdo ahlining 6-7 qismini tashkil etuvchi boy bo‘lmagan savdogarlarning do‘konlariga xos bo‘lib, boy savdogarlar esa har bir mol turini alohida sotishga ixtisoslashgan do‘konlarga ega edilar”. Ichki savdo, asosan, aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga karatilgan edi. Bu savdo turida shahar va uning atrofidagi aholi uchun oziq-ovqat, kiyim-bosh, kundalik turmush uchun kerakli buyumlar bilan savdo-sotiq keng amalga oshirilgan va undan holi tarzda shahar hayotini tasavvur etish mumkin emas edi².

¹ Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию. С. 184.

² Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию. С. 184.

³ Костенко Л. Среднеазиатская торговля // Туркестанские ведомости. № 5. 1871.

⁴ Озодаев Ф. Ташкент тарихидан очерклар (XIX asrning ikkinchi yarmla shaxrlarining ijtimoий-iktisodiy va siyosiy tarixi) G.: Fan, 1960. 27-6.

⁵ Хива, или географическое и статистическое описание Хивинского ханства. М., 1840. С. 44.

¹ Иванов И.И. Архив хивинских ханов XIX в.. С. 138-139.

² Кун А. Культура оазиса низовьев Аму-Дарьи. С. 246.

XVIII asr muarrixi Buxoro hukmdori **Ubaydullaxon** o'tkazgan pul islohotining oqibatlarini haqida yozar ekan, "Savdo shirkatlarining a'zolari, hunarmandlar, hunarmandchilik va bozor bilan bog'liq hamma o'z do'konlarini taxta bilan mixlab qo'ydilar, har qanday savdoni to'xtatib, ular bozorlardagi mollari va oziq-ovqatlar sandiqlarini olib ketdilar, aholi va kambag'allar og'ir ahvolga tushib qoldilar, ular hayotdan ko'z yumar ekanlar, o'zlariga kafan uchun gazmol topa olmadilar"³ - deb ta'kidlashi bu o'rinda xarakterlidir.

Oziq-ovqat mollari, xususan, bug'doy va donli o'simliklar, ulardan tayyorlangan turli mahsulotlar - **un, guruch, non** va boshqalar bilan amalga oshiriladigan savdo ichki savdoning asosini tashkil etgan. Ayrim shaharlarda esa aynan mana shu mollarning ba'zilar shahar savdosining asosini belgilar edi. XIX asr muallifi "Shovot savdosining asosiy mahsulotlari bug'doy va jo'xori"⁴, - deb yozgan edi.

Ichki savdo amalga oshiriladigan asosiy mahsulotlar jumlasiga, shuningdek, **turli ip va ipak matolar, ulardan tikilgan kiyim-bosh turlari charm va undan tikilgan kiyimlar, poyafzal xillari, uy-ruzg'or buyumlari, zeb-ziynat turlari, xo'jalikda ishlatiladigan mehnat qurollari** va boshqalar ham kirar edi. Bu savdo turi, asosan, boylik o'ttirish manbai emas, balki kundalik hayot kechirish vositasi vazifasini o'tagan. Shu bilan birga, bu savdo ayrim hollarda aholining boy qismiga qo'shimcha daromad keltirgan.

XIX asming 20 yillarida Xiva haqida yozgan **N.Muravyev**, xivaliklar kundalik ehtiyojlamini qondirishga qaratilgan savdodan "anchagina katta foyda ko'radilar"¹, - deb yozgan edi.

Shaharlardagi ichki savdoda nafaqat hunarmandlar va savdogarlar, balki shahar atrofidagi aholi ham faol ishtirok etgan.

Bozorlarga ular qishloq xo'jalik mahsulotlari hamda o'zlari tomonidan ishlab chiqarilgan - ip kalavalar, ancha qo'pol gazlama turlari, ayrim xo'jalik mollari va boshqalarni keltirar edi. 1830 yilda Qo'qonda bo'lgan xorijlik **Potanin** bozor kunlaridagi savdoda nafaqat shahar ahli - savdogarlar va hunarmandalar, balki "atrofdagi shaharlar va qishloqlardan katta hajmlarda Qo'qon mahsulotlarining turli xillari" ni olib kelgan aholi ham qatnashganligini qayd etadi.

Bozorlarga shahar atrofidagi aholi tomonidan o'tin, ko'mir, tuz, dorivor o'simliklar va ularning ildizlari va h. k. keltirilar edi.

XIX asming 30-yillarida **I.V.Vitkevich** "erta bahorda dorivor va rang beruvchi o'simliklar va ularning ildizlarini yig'ishga boruvchilar ... sumbul ildizini" Buxoroga keltirishlarini qayd etadi². Bozorlarda bu mollari bilan katta savdo amalga oshirilgan. Xususan, XIX asrning 70- yillarida Toshkentda ko'mir sotuvchilarning 10 ta, yog'och sotuvchilarning 40 ta, tuz sotuvchilarning 20 ta do'konlari bor edi³.

Shaharlarda amalga oshirilgan ichki savdoda ishtirok etuvchi qishloq va tevarak - atrof ahli nafaqat ma'lum turdagi maxsulot xilini yetkazib beruvchi, balki

³ Мир Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдуллонаме. С. 156.

⁴ Кун А. Культура оазиса низовьев Аму-Дарьи. С. 246.

¹ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. С. 89.

² Агзамова Г. Узбекистон шаҳарлари Тошкент 2017. С123

³ Хорошхин А.11. Очерки Ташкента. С. 94.

bu markazlarda ishlab chiqarilgan mollarning iste'molchilaridan biri edi. Ular shahar hunarmandlari yaratgan mahsulotlar bilan birga ayrim yarim tayyor xomashyo turlarini ham sotib olganlar. XIX asr boshlarida Marg'ilonda bo'lgan **F.Nazarov** "Sharqiy tog'li forslarning shaharda dumaloqlangan paxta bo'laklarini (ip kalavalar - G.A.) sotib olganliklari va ularni savatlarga solib, piyoda Yormozor orqali Oloyga tog'lar oralab"⁴ ketganlarini ko'rganim yozadi.

Qo'shni dasht ahli va ko'chmanchi xalqlar vakillari bilan ham keng savdo amalga oshiriladigan markazlar sifatida shaharlar katta ahamiyatga ega edi. Tarkib topgan an'anaga ko'ra, ular xonliklarning savdo markazlariga o'zlari yetishtirgan qoramol, ularning terilari va boshqa mahsulotlarni yetkazib berganlar, shaharlardan esa qisman qishloq xo'jalik mahsulotlari, xususan, donli o'simliklar, turli hunarmandchilik mahsulotlari - ip gazlamalar, kiyim - bosh, poyafzal, ot anjomlari, uy-ro'zg'or buyumlarini olib ketganlar. Bu holatni XIX asrga oid Buxoroga doir ushbu ma'lumotdan ham kuzatish mumkin. Unga ko'ra, qozoqlar bu markazda qo'ylarin sotib, to'plangan pullariga esa "ipak to'nlar qo'pol ip gazlamalar, bug'doy, arpa, jo'xon" sotib olganlar va "ularning ortiqchasini dashtda foydasiga"¹ sotganlar. Shu muallifning ko'rsatishicha Buxoroga turkmanlar "arg'umoq" deb ataluvchi otlar va "qo'y meshlarida" yog' ham olib kelar edilar².

Shaharlarning qo'shni dasht bilan muntazam savdo aloqalari mavjud bo'lganligini boshqa markazlar misolida ham kuzatish mumkin. 1763 yilda Xiva taxtiga o'tkazilgan va unda bir yarim yil mobaynida hukmronlik qilgan qozoq xonlaridan bo'lgan Tavkaxon shaharga "savdo ishlari bilan kelib, ... karvon-saroyda" to'xtagan edi³. Bu o'rinda XIX asrning boshqa bir muallifining ham ma'lumoti diqqatga sazovor. Uning yozishicha, "ko'p sonli ko'chmanchilarning ishtiroki tufayli" Xiva xonligidagi savdo juda qizg'in bo'lgan. Ko'chmanchilar xonlik shaharlariga "kundalik turmushga kerakli mollarga ayirboshlash uchun chorva mollarni olib kelar edilar"⁴. Bu savdoda xonlikning turli shaharlari faol ishtirok etgan. Ulardan biri **Shovot va Kat** edi. XIX asrning 20-yillariga oid ma'lumotlarga ko'ra, bu yerda "qirg'izlar (qozoqlar -G.A.) bilan" keng savdo amalga oshirilgan⁵. Ko'manchi xalqlar vakillari bilan qizg'in savdo olib borilganligini boshqa shaharlar misolida ham kuzatish mumkin. XIX asr boshlarida **F.Nazarov** "Andijon aholisi yaqin o'rtada ko'chib yuruvchi qora qirg'izlar bilan savdo qiladilar, ulardan chorva mollarinig turli xillarini oladilar"⁶- deb qayd etgan edi. Shu muallif Namangan haqida yozar ekan, bu yerda ham "Savdo qora qirg'izlar bilan amalga oshiriladi"⁷,- deb ko'rsatadi.

Ba'zi kichik shaharlar ham ko'p hollarda qo'shni hududlar aholisi uchun savdo markazi vazifasini o'tagan. O'z aholisi kam bo'lgan bunday markazlardan biri Sho'raxon bo'lib, u haqida **A.Vamberi** "bu yerda yashash uchun uylar juda kam", -

⁴ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях. С. 49.

¹ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 111.

² Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 111.

³ Фирдавс ал-икбал // МИКХ. С. 472.

⁴ Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства. С. 130.

⁵ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. С. 31.

⁶ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях. С. 50.

⁷ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях. С. 50.

deb ta'kidlar ekan, shahardagi 320 ta do'kon "Atrofdagi ko'chmanchilar va o'troq aholi uchun xaftada ikki marta ochiladi", - deb qayd etgan edi.

Ayrim shaharlar turli hududlar, mamlakatlar va boshqa ijtimoiy – iktisodiy markazlarni bog'lagan tranzit savdo markazlari edi. Ular jumlasiga Buxoro xonligining ko'plab shaharlarini, xususan, poytaxt **Buxoro va Qarshini** kiritish mumkin¹.

XIX asrning 20-yillarida "Buxoro shahri nafaqat Buxoro, balki qushni davlatlar shaharlari orasida ham mashhur savdo shahri sifatida sanalishi mumkin..."², - deb ta'kidlangan edi.

Yirik savdo markazi sifatida Qarshining ham ahamiyati katta edi. Bu shahar XIX asrda savdoning rivojlanishi oqibatida yanada kengayib, o'sib borgan. 1875 yilda N.Mayev "Buxoroga sharqdan va janubi - sharqdan olib boriladigan hamma narsa Qarshini chetlab o'tmaydi. Shu boisdan shahar boshqa Buxoro shaharlaridan farqli ravishda tez o'sayapti. U **Xanikov** davridagi devor chegarasidan ancha o'tib ketdi va endi bu devorning izlari ham yo'q"³, - deb yozgan edi. Xiva xonligidagi yirik tranzit savdo markazi sifatida **Xonqa, Xazorasp, Yangi Urganch, Gurlan** va boshqa shaharlarni ko'rsatish mumkin. Ular, odatda, Amudaryodan kechuv joylari mavjud bo'lgan yerlarda joylashgan bo'lib, daryoning narigi kirg'og'idagi shaharlarga yo'l olgan karvonlar bu markazlarda to'xtab o'tar edilar⁴.

Savdo yo'llari tutashib ketgan shaharlardan biri Toshkent edi. Bu markaz orqali savdogarlar Qozoq dashti, Rossiyaning turli markazlari, Xitoy va ular orqali boshqa o'lkalarga yetib olishlari mumkin edi. Xorijiy savdogarlar esa o'z navbatida Toshkent orqali Qo'qon, Buxoro, Xiva xonliklari shaharlariga borishlari mumkin edi. XIX asr muallifi **V.V.Velyaminov-Zernov** "Qo'qon Toshkent bilan xech ham raqobatlasha olmaydi. Buning sababi oddiy. Xonlik poytaxtida emas, Toshkentda muhim savdo yo'llari tutashib ketgan"⁵, - deb yozgan edi.

XVI-XIX asrning o'rtalarida hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi oqibatida shaharlarning ma'lum bir mahsulot turini ishlab chiqarish, shuningdek, u bilan savdoga ixtisoslashuvi yanada rivojlandi. Aniqrog'i, ichki bozorning shakllanish va rivojlanish jarayoni faollashdi. Buni quydagilardan kuzatish mumkin. Bu davrda ayrim shaharlarning ba'zi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib beruvchi markazlar sifatidagi ahamiyati ortib bordi. Bu jarayon ayniqsa XVIII asrning ikkinchi XIX asrning birinchi yarmida yanada kuchaydi. Xususan, "**Qarshining tamakisi, Shaxrisabz anorlari mashhur**" edi. Ular bu markazlardan boshqa viloyatlar va shaharlarga yetkazib beriladigan eng asosiy mollarni tashkil qilardi. Qarshi tamakisi juda katta hajmlarda **Toshkent, Qo'qon va Xivaga** olib borilgan. Jumladan, 400 savdo do'koni bo'lgan Hazoraspa "tamakisining asosiy savdosi amalga oshirilardi"⁷.

¹ Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. С. 54.

² Русские в Бухаре в 1820 году (Записки очевидца). С. 22.

³ Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. Т. 1875. С. 54.

⁴ Иванин М. Хива и река Аму-Дарья. С. 56.

⁵ Вельяминов-Зернов Н.В. Сведения о Коканском ханстве // Вестник Географического общества. СПб., 1856. Т. 18. С. 129.

⁷ Галкин М.Н. Несколько слов о Самарканде // Туркестанский сборник. Т. 7. СПб., 1868. С. 221.

Ayrim shaharlar boshqa markazlarga paxta va bug'doy yetkazib bergan. XIX asr ma'lumotlariga ko'ra Samarqanddan "tashqariga olib chiqib ketiladigan paxta asosiy mahsulot bo'lgan"¹. **N. Petrovskiy**: "Qashqadaryo orqali juda katta hajmlarda bug'doy Qarshiga suv yo'li orqali olib kelinadi va u yerdan deyarli uzluksiz karvonlar bilan Buxoroga yuboriladi"², - deb qayd qilgan edi. Bug'doy ayrim shaharlardagi asosiy savdo mahsulotlarini tashkil qilar edi. Masalan, Qorako'l bozorida "sotiladigan mollarning asosini bug'doy va qoraqo'l tashkil qilar edi"³.

Ichki savdoda guruch ham muhim o'ringa ega bo'lgan. Ayrim shaharlardan boshqalariga boshqa mollar qatori guruch ham olib borilgan. XIX asr muallifi Buxoro yo'lida "... Samarqanddan guruch olib kelayotgan 164 tuyadan iborat karvonni ko'rdim"⁴, - deb qayd etadi.

Ba'zi shaharlar boshqa markazlarga pilla va xom ipak yetkazib berganlar. Masalan, Shahrisabz o'zining "pushti rang pillasi" bilan mashhur bo'lib, bu xomashyo boshqa shaharlarga, xususan, Samarqandga ham olib borilgan. "Samarqand bozoriga Shahrisabzdan ko'plab sof pushti rang pilla olib kelinadi"⁵, - deb yozgan edi XIX asr muallifining ko'rsatishicha.

"Ipakning bosh bozori Qo'qon hisoblanar" edi. Xonliklar shaharlariga "pushti rang tuz" yetkazib beradigan markaz Qarshi edi.

Turli markazlarda bog'dorchilik mahsulotlari bilan qizg'in savdo amalga oshirilgan. Ayrim shaharlardan boshqa markazlarga bog'dorchilik mahsulotlari ham yetkazib berilgan. Namangan haqida yozgan F. Nazarov, uni mevali daraxtlarning juda mo'l-ko'lligi bilan mashhur shahar sifatida ta'riflar ekan, bu yerda mevali daraxtlarning "hosilini Qo'qonning hamma shaharlariga olib boradilar", - deb yozgan edi.

Shaharlar nafaqat qishloq va tabiiy boyliklar, balki ma'lum turdagi hunarmandchilik mahsulotlarini boshqa shaharlarga yetkazib berishga ham ixtisoslashgan edi. Shunday shaharlardan biri Samarqand bo'lib, "bu yerda, - A. Vamberining ko'rsatishicha, - xonlikdagi eng yaxshi etiklar tayyorlangan". Shu bilan birga "Samarqand o'zining egarchilari, Hisor o'zining nayzador pichoqlari... bilan mashhur edi"⁶. Qarshi aholisi ham ma'lum turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi. **N. Xanikovning** ko'rsatishicha, bu shahar aholisining "asosiy mashg'uloti tamaki yetishtirish va olacha tayyorlash" dan iborat edi. Shuningdek, Qarshi jun va chorva sotiladigan markazlardan biri edi. XIX asr mualliflaridan birining ko'rsatishicha, shahar bozorining jun sotiladigan rastasiing uzunligi 250 sarjingga yetar, bundan tashqari bu yerda kuzning oxiri - qish boshida chorva bilan katta savdo amalga oshirilgan.

Paxta, kalava va ip gazlamalar bilan boshqa markazlarni ta'minlagan shaharlardan biri Shahrisabz edi. 1826 yilda "Buxoroliklar tomonidan Rossiya

¹ Галкин М.Н. Несколько слов о Самарканде // Туркестанский сборник. Т. 7. СПб., 1868. С. 221.

² Петровский Н. Моя поездка в Бухару. С. 227.

³ Военная рекогносцировка равнинной части Бухарского ханства, произведенная в 1883 г. капитаном Архиповым // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. СПб., 1884. С. 218.

⁴ Петровский Н. Моя поездка в Бухару. С. 227.

⁵ Адамолли Ю. Разведение шелководных червей в Средней Азии // Туркестанские ведомости. №36. 1871.

⁶ Хорошхин А. Очерки Кокана. С. 43.

keltiriladigan paxta, asosan, Sarsabdan (Shahrisabzdan - G.A.) keltiriladi", - deb qayd etilgan edi.

Xiva xonligi shaharlari ham ayrim hunarmandchilik mahsulotini ishlab chiqarish va boshqa shaharlarga yetkazib berishga ixtisoslashgan edi. Ulardan biri to'n va ko'rpalar yetkazib beriladigan Gurlan shahri edi¹. Manbalarda qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, bu markaz "to'n va ko'rpalar sotiladigan asosiy bozor bo'lib, bu mahsulot nafaqat xonlik ehtiyojlarini qondirish, balki boshqa yerlarga xususan, Rossiyaga olib borish uchun" ham ishlab chiqarilgan².

Qo'qon xonligiga qarashli Marg'ilon ham ma'lum turdagi hunarmandchilik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan markazlardan biri edi. XIX asr boshlarida Mir Izzatulla "Bu yerda katta hajmda ipak, shuningdek, forsha kurk, turkcha - tibit deb ataladigan shol ro'mollar to'qishda ishlatiladigan jun ishlab chiqariladi. Bu yerda kashmir shol ro'mollaridan sifati past shol ro'mollar ham to'qiladi"³, - deb qayd etgan edi.

Shaharlar nafaqat ichki va tranzit, balki turli karvon yo'llari tutashib ketgan, qo'shni dasht, uzoq va yaqin mamlakatlar ahli tez-tez qatnab turadigan tashqi savdo markazlari ham edi. Ularga xorijiy Sharq mamlakatlari savdogarlari bilan birgalikda G'arb savdo ahli vakillari ham tashrif buyurib turgan. Buning yorqqin misoli sifatida "Moskva savdo kompaniyasi" ning vakili Antoni Jenkinson tomonidan xonliklarning yirik shaharlari savdo imkoniyatlarini o'rganilishimi ko'rsatish mumkin. Bu o'rinda XVI asr muarixi Hofiz Tanish Buxoriyning quyidagi ma'lumoti diqqatga sazovordir⁴. Uning yozishicha, Abdullaxonning o'g'li Abdulmo'minni sunnat qilinishi munosabati bilan o'tkazilgan bayramda bog' atrofi "farang gazlamasi va turli xil rangdagi ipak gazlamalar" bilan bezatilgan⁵. "Farang gazlamasi" bu yerga albatta savdogarlar tomonidan keltirilgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Xususan, Antoni Jenkinson ham Buxoro xukmdoriga "19 bo'lak karazeya" sotgani haqida xabar berib o'tadi³. Bu o'rinda qayd etib o'tish lozimki, bu gazlamalar xonliklar shaharlariga Rossiya orqali ham kirib kelishi mumkin edi.

Buxoro, Xiva Qo'qon xonliklari Sharq mamlakatlari bilan ham faol tashqi savdo aloqalarini o'rnatgan edi. Xonliklar shaharlaridan Hindiston, Eron, Turkiya, Xitoy va boshqa davlatlarga katta-katta savdo karvonlari qatnar edi. Xususan, bu davrda mustahkam savdo aloqalari o'rnatilgan mamlakatlardan biri Hindiston edi. Hind savdogarlari xonliklar shaharlariga o'z mamlakatlarining asl mollarini keltirishga xarakat qilganlar.

1671 yilda Rossiyada bo'lgan Buxoro elchisi mulla Farrux Buxoroga Hindistondan ko'p mollar, xususan, qimmatbaxo toshlar, marvarid va turli noyob matolar olib kelinishi va ular o'rtasida "savdogarlar muntazam qatnashlari"ni qayd etib o'tadi. XIX asrning 30-yillarida **P.I.Demez**ning ko'rsatishicha, Buxoroga turli mollar keltirilgan bo'lib, birgina Qobul orqali Xindistondan novshadil, kimxob,

¹ Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. С. 109.

² О нынешнем состоянии некоторых областей и городов Средней Азии //Азиатский вестник. Спб., 1826. С. 175.

³ Путешествие Мир Иззет Уллы. С. 48.

⁴ Записки о Бухарском ханстве. С. 77-79.

⁵ Хафиз-и Таниш Бухари. Шарафнама-йи шахи. 4.2. С. 183.

³ Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию. С. 183.

doka, chubi sandal, shakar, novvot, xina, sano, o'sma, zarchuba, haqiq va h.k keltirilgan. Kashmirdan esa shol ro'mollar: bir xil rangdagi shol - rizoi, yo'l-yo'l shol - raxdor, butador palma tasviri tushirilgan shol, shuningdek, belbog'lar uchun mato, alvon, yarim etik-jo'roblar, ko'lqoplar, qalamdonlar, qo'lyozmalar va boshqalar olib kelingan.

Hindistonlik savdogarlar katta hajmlarda keltiradigan asosiy mollardan biri indigo (nil) bo'yog'i edi. Unga xonliklar shaharlarida talab katta edi. "Hindlar Buxoroga asosan indigo olib kelganlar", - deb qayd etgan edi Mir Izzatulla. Nomi qayd etilgan P.I.Demezoning ko'rsatishicha, Panjobdan ko'p miqdorda indigo keltirilib, bu mol turi bilan Buxoro va Xivaning karvonsaroylari to'lib yotgan edi.

Xonliklarga Peshavordan guruch, lungi, tamaki, tuya terisidan tikilgan tarozular, qand va boshqa narsalar olib kelingan. Shu bilan birga "Buxoroga Peshavor, Qobul va Shikorpurdan jun gazlamalar, salla, oq ip gazlama, chit, ... shakar, sariq anbar, murch hamda islom asoslari¹ va huquqlari bo'yicha kitoblar keltirilgan"²

Hindiston va Afg'onistondan bo'yoq, va dori - darmonlardan tashqari katta hajmlarda ip gazlamalarning turli xillari, shol ro'mollar, idishlar, bosma kitoblar bilan bir qatorda "ko'k choyni un olti xil navi" ham olib kelingan³. Bu o'rinda 1868 yilda Toshkent karvon - saroylaridan birida Hindistondan keltirilgan "60 qop ko'k choy" topilgani haqidagi ma'lumot ham diqqatga sazovordir⁴.

Qobuldan ham turli mollar keltirilgan. Birgina XIX asrga oid ma'lumotlardan ayon bo'ladi, bu markazdan Buxoroga "o'sma, zarchuba, ayrim afg'on qurollari, nayzalar, pichoqlar, kamonlar, guruch va qisman tulki terilari keltirilgan. Erondan esa turli bo'yoqlar, chit, simob, murch, qurol-yarog', kumush, juda katta hajmda qo'lyozma va bosma kitoblar olib kelinar edi. Hirotidan esa "quruq mevalar, qo'y terilari..., Marvdan turkman otlari va qurol" keltirilgan.

XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro, Xiva, keyinchalik Qo'qon xonliklarining Rossiya bilan munosabatlari rivojlana bordi. Bu jarayonda Qozon, Samara, Astraxan, Nijniy Novgorod, Tara, Tyumen, keyinchalik Orenburg va boshlariga olib boruvchi Karvon yo'llari katta ahamiyat kasb etdi. Ular xonliklarni Rossiyaning juda ko'p markazlari bilan bog'lar va bu yo'llar orqali turli-tuman mollar olib o'tilar edi. Jumladan, XVI-XVII asrlarda Rossiyadan Buxoro va Xiva xonliklari shaharlariga asosan "bulg'oriy teri", mo'ynalar, movut, yog'och idish-tovoqlar va boshqalar keltirilgan. Bu davrga oid hujjati materiallardan ayon bo'ladi, 1678 yilda Astraxandan Qarag'an pristaniga yo'l olgan ikki xivalik savdogar "55 arshin qizil movut, 105 yuft, 2000 yog'och idish, 5000 igna, 15 ta oyna va boshqalarni" olib kelganlar. Buxorolik savdogarlarning "ishonchli odamlari" esa 1681 yilda Astraxandan Qarag'an pristaniga "100 ta qizil yuft, 8 arshin movut, baliq tishi va boshqalarni keltirganlar. Yoki Rossiyalik "posad kishisi va strelets esa" Astraxandan Qarag'an pristaniga "150 qizil yuft, 20 ta oq mo'yna, 22 ta qalpoq, 1200 yog'och idish, 2 yog'och quti, 1000 ta igna" (1681) olib o'tganligi hujjatlarda qayd

¹ Петровский Н. Моя поездка в Бухару. С. 236.

² Путешествие Мир Иззет Уллы. С. 207.

³ Петровский Н. Моя поездка в Бухару. С. 236.

⁴ Корреспонденция из Ташкента // "Москва". 22 июня. 1868. № 105.

etilgan. Rossiyadan xonliklar shaharlariga keltirilgan mollarning hillari ham davrlar o'tishi bilan o'zgara borgan.

Xususan, XIX asr boshlarida Rossiyadan Buxoroga matolar¹, fabrika mahsulotlari, mis, jez, temir, cho'yan, simob, qizil bo'yoq, shakar va boshqa mollar keltirilgan².

Shaharlarga, jumladan, Buxoroga Qashg'ar va Qo'qon orqali Xitoydan tuqtachoy (g'isht choy), oqquyruq (ko'k choy), chinni, kumush yombilar va x.k. olib kelingan³.

Qo'shni mamlakatlarga Buxoro xonligi shaharlaridan ip, ipak va jun gazlamalar, tayyor kiyim-bosh yetkazib berilgan. A.Vamperi "Mahalliy mahsulotlarning hammasi juda arzonidir va shuning uchun Buxoroning ko'ylak bozori serhasham kiyim bilan Xitoy Tatariyasiga qadar barcha musulmonlarni ta'minlaydi"⁴, - deb qayd etgan edi. Bundan tashqari, Buxorodan Qobulga otlar, mis, simlar, feruza ipak, choy, xitoy mollari qatorida to'nlar, shoyi ro'mollar, adras, yupqa mato ham olib borilgan. Xonlikdan Afg'onistonga boshqa mollar bilan birgalikda "ot va eshaklar va xatto... bulbullar ham" jo'natilar edi⁵. 1823 yilda Buxoro "Rossiya, Eron, Turkiya, Hindiston, Xitoy, Xiva bilan savdo olib boradi. Buxoroda juda yaxshi bo'lgan qorako'l bilan savdo ancha kattadir", - deb qayd etilgan edi.

Buxorodan Xitoyga ham turli mollarni olib borganlar. XIX asr boshlarida Mir Izzatulla "O'zbek va tojik savdogarlari Buxorodan Yorkendga marjonlar, feruza, qorako'l terilari va tulki mo'ynasini olib boradilar", - deb ko'rsatgan edi.

Xonlik shaharlarida to'qilgan turli matolar, kiyim-bosh Rossiyaga ham olib borilgan. Xususan, Orenburgga 1769 yilda "ko'plab oddiy va to'qilish sifati turlicha bo'lgan ip gazlamalar... to'nlar" keltirilgan. Shuningdek, bu shaharga "qimmat narhda sotib olinadigan kul rang va jingalaksimon Buxoro qorako'llari", feruza va boshqa qimmatbaho toshlar, hamda "quritilgan o'riklar, shaftoli va juda yoqimli mayda uzum, kishmish... yong'oqlar" olib borilgan. Xiva xonligi shaharlari ham faol tashqi savdo olib borganlar XVII asrda Abulg'azi Xurosonga jo'nagan karvon, hamda "o'rusg'a savdoga" ketgan "o'n yetti kishi" haqida xabar beradi. 1804 yilda "xorazmlik ikki yuz savdo kishisi ko'pgina qimmatbaho mollar bilan katta karvonni tayyorladilar", - deb yozgan tarixchi bu karvon Marvdan Mashhadga yo'l olganini qayd etadi. Xivaning faol tashqi savdo olib borganligini boshqa ma'lumotlar, xususan, Rossiya bilan savdo aloqalariga oid ko'pdan-ko'p hujjatli materiallar ham tasdiqlaydi. Xorazm shaharlari yirik savdo markazlari sifatida ko'plab mamlakatlarga bilan keng savdo aloqalarini olib borganlar¹.

Xususan, Ko'hna Urganch harobalaridan Xitoy chinni idishlari qoldiqlarining topilishi buning yorqin dalilidir. Shuningdek, bu yerdan XVI-XVII asrga oid Balh va Buxoro tangalarining topilishi ham shaharning qizg'in savdo aloqalaridan dalolat beradi.

¹ Абулгъзий. Шажаарайи турк. 147-6.

² Путешествие Мир Иззет Удлы. С. 207.

³ Записки о Бухарском ханстве. С. 81.

⁴ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. С. 145.

⁵ Петровский Н. Моя поездка в Бухару. С. 236.

¹ Петровский Н. Моя поездка в Бухару. С. 236.

Xiva shaharlariga Gurgan va Astraboddan ham savdogarlar kelganlar. XIX asrga oid hujjatda ko'rsatilishicha. Xivaga Astraboddan meshlar, farangi doka, shakar, mitqol, tekin kigizlari, qora mum, norbut daraxtidan tayyorlangan taroqlar, temir, cho'yan qozonlar, mis va boshqalar keltirilgan².

Qo'shni mamlakatlarga esa Xiva shaharlaridan turli-tuman mahsulotlar, hususan, "paxta to'nlar, qisman ipak va quritilgan mevalar" olib borilgan. Arxiv hujjatlaridan ayon bo'ladiki, Xorazm shaharlaridan qo'shni davlatlarga paxta va matodan tashqari qo'y terilari, uzum mayizi, guruch, meshlar, tozalangan paxta, ipak va boshqa narsalar olib borilgan.

Savdo Xiva shaharlarining rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ular yirik savdo markazlariga aylanib borganlar. Bunday shaharlar - Shovot va Kat bo'lib, ular "qirg'izlar bilan savdo" aloqalarini amalga oshirgan asosiy markazlar sifatida taraqqiy etganlar.

Xonlikning asosiy ichki va tashqi savdosi markazlashgan shaharlardan biri **Yangi Urganch** edi. Bu shaharning mavqei XIX asming birinchi yarmida yanada oshdi. Urganchlik savdogarlarni nafaqat Buxoro va boshqa shaharlar, balki ayrim xorijiy davlatlar markazlarida, jumladan, **Orenburg, Nijniy Novgorod va Moskvada** ham uchratish mumkin edi. Xivalik savdogarlar xonlik tashqarisidagi shaharlarda "urganji" nomi ostida mashhur edi. Bu o'rinda XIX asming 30-yillarida Buxoroda "uchta urganji" karvonsaroyi bo'lganligi haqidagi m'lumot xarakterlidir.

Xiva shaharlari Buxoro bilan faol tashqi savdo olib borgan. Qayd etib o'tish lozimki, buxorolik savdogarlar Xivaga kam qatnaganlar. Bu savdoda asosiy faollikni xivalik savdogarlar ko'rsatganlar. Ular Buxoroga "tayyor po'stinlar, zig'ir yog'i, dumba yog'i, bug'doy, guruch, olma, qo'y, ko'knor, tutiyo va rus mollari, shakar, cho'yan qozonlar ... va boshqalarni" keltirar edilar. Shu bilan birga xivalik savdogarlar bu yerga ko'plab miqdorda ot, ho'kiz va tuya terilari, Buxoroning yupqa gazlamalaridan keskin farq qiluvchi, qirg'izlar va xitoyliklar sotib oluvchi ancha qalin va chidamli¹ yarim ipak yo'l-yo'l matolar, olmalarni olib kelardilar².

N.Muravyevning ko'rsatishicha, xivalik savdogarlar mol olish uchun Buxoroga borib, u yerdan "turli xildagi chitlar, ko'k buz, paxta kalavasi, ipak va yarim ipak gazlamalarning turli xillari, kashmir shol ro'mollari, xitoy chinnisi, choy, ipak belbog'lar, jun mahsulotlar - butun Sharqda eng yaxshisi hisoblanadigan, Buxoro qorako'li, tamaki va boshqa turli mollar"ni olib ketganlar³. Bu ma'lumotni G.I.Danilevskiy ham tasdiqlaydi. U Buxoro shaharlaridan Xivaga ko'k choy, tamaki, Xitoy chinnisi, ipak va ip gazlamalarning ayrim turlari keltirilganligi haqida guvohlik beradi.

Xiva xonligiga Buxorodan keltiriladigan mollar "**buxorochi**" deb atalar edi. XIX asrga oid hujjatlardan birida "**buxorochi**" mollar - **choy, tamaki, kishmish, temir, po'lat, ishlov berilgan teri, ip va ipak gazlamalarning turli xillari, kalava, ko'rpalar, chinni idishlar, indigo, kog'oz, oyna, zira, buzg'unch, ruyan urug'i** kabilar qayd etiladi.

² Иванов И.И. Архив хивинских ханов XIX в. С. 136.

¹ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. С. 92.

² Записки о Бухарском ханстве. С. 81.

³ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. С. 92.

Xivalik savdogarlar Qo'qon xonligi shaharlariga ham qatnar edilar. Albatta, bu savdoni Xiva-Buxoro savdo aloqalariga tenglashtirib bo'lmaydi. XIX asr muallifi **V.V.Velyaminov-Zernov**ning ko'rsatishicha, savdo karvonlari har yili bo'lmasada, kichik partiyalarda Qo'qondan Xivaga qatnar edilar Qo'qon mollari bilan Buxoro mollari kabi Xiva bozorlarida qizg'in savdo amalga oshirilgan. Bu o'rinda Xiva davlat hujjatlarida "Besh kiyimlik qo'qon shoyisi", "Bir Qo'qon shoyi to'ni" sotib olingani haqidagi habar diqqatga sazovordir⁴.

Qo'qon xonligi shaharlari ham faol tashqi savdo olib borganlar. Birgina Qo'qon shahrini olib qaraladigan bo'lsa bu markaz Buxoro, shuningdek, "Xitoy, Xiva, Eron va Rossiya bilan ham savdo olib borgan".

Xonlikning butun tashqi savdosi markazlashgan shaharlardan **biri Toshkent** edi. Bu yerga Qo'qonning boshqa shaharlaridan "paxta, ipak, mevalar, tuz, qurilish yog'ochlari, bo'z, jun mahsulotlar, charm, bo'yoqlar va boshqalar keltirilar edi". Jumladan, bu markazga **Qo'qon va Marg'ilon** hunarmandlari yetishtirgan va to'qigan ipak gazlamalar olib kelinar edi. Qo'qonga esa Toshkentdan rus manufaktura mollari, **shakar, temir** va boshqalar, Buxorodan esa **choy, indigo, doka, mahalliy hunarmandlar to'qigan ipak gazlamalar** olib borilar edi.

Qo'qon xonligining Buxoro bilan tashqi savdo aloqalarida ham Toshkent muhim o'rin egallagan. Toshkentdan Buxoroga mahalliy hunarmandlarning mahsulotlari, shuningdek, ruslarning temir, cho'yan va po'latdan yasalgan buyumlari, tamaki, ipak, ba'zi xitoy ipak gazlamalari, choy va chinni piyolalar olib borilgan. Buxorodan esa bu yerga o'simliklar bo'yog'i, paxta va boshqalar keltirilgan¹.

Qo'qon Toshkent va Buxoro orqali **Rossiya, Eron va Hindistondan** keltiriladigan mollarni ham olar edi. Jumladan, Buxoro orqali Qo'qonga "Xindlarning baqqollik mollari, Qobul belbog'lari va sallalari" keltirilgan. Toshkentliklarning "uncha katta bo'lmagan karvonlari vaqti-vaqti bilan dashtga - qirg'iz-qaysoqlarga, ba'zan Rossiyaga qatnaydilar"², - deb yozgan edilar 1800 yilda **M.Pospelov** va **T.Burnashevlar**.

Toshkentda ham, boshqa shaharlar misolida kuzatilgani kabi, siyosiy notinchlik yillarida ishlab chiqarish va savdoning rivojlanishi orqaga ketar edi. "Toshkentda o'z mollari bilan savdo uncha keng emas", - deb yozgan **M.Pospelov** va **T.Burnashevlar**, - buning sababi "ichki va tashqi nifoqlar oqibatida "mahalliy ishlab chiqarishning pasayganligida", - deb ta'kidlaganlar.

Xitoy bilan xonliklar markazlarini bog'lagan karvon yo'llari o'tgan Andijon va Marg'ilon ham faol tashqi savdo aloqalarini olib borar edi. Xususan, XIX asr boshlarida Marg'ilonda ishlab chiqarilgan turli-tuman matolar Qashg'ar va Buxoroga jo'natilib, Qashg'ardan "**choy, chinni idishlar, kumush yombilari... bo'yoqlar va eng yaxshi Xitoy gazlamalari** olinar edi"³.

Shaharlardagi savdo u amalga oshiriladigan joyga qarab bir necha turga bo'linishi mumkin edi. Bunga birgina Xiva misolida amin bo'lish mumkin. Bu shahardagi savdoni tahlil etgan **L.Kostenko** uni uchga bo'lib ko'rsatadi. Bu - shahar

⁴ XIX asr Хива давлат ҳужжатлари. 183-6.

¹ Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве. С. 131.

² Поездка Пospelова и Бурнашева в Ташкент в 1800 году. С. 131.

³ Назаров Ф. Записка о некоторых землях и народах. С. 49

maydonlaridagi savdo, bozorlardagi savdo va karvonsaroylardagi savdo. Xususan, **birinchi turdagi savdo** shaharning "Xazorasp darvozasidan dor o'atilgan qabristonga qadar bo'lgan" maydonda olib borilgan. Bu yerda savdo dushanba va payshanba kunlari shahar va uning atrofidagi aholi tomonidan amalga oshirilgan. Maydondagi savdoda mollar ancha arzon narhlarda sotilgan. "Siz bu yerda eng arzon, lekin shu bilan birga eng kerakli mollarni: **sabzavotlar, guruch, bug'doy, jo'xori, beda, mol go'shti, qo'y gushti, kiyim-bosh** va nihoyat chorvani uchratasiz", - deb qayd etgan edi muallif. Shuni alohida takidlab joizki, bu yerdagi savdo qo'ldan-qo'lga, xatto aravalardan turib ham amalga oshirilgan. **Ikkinchi tur** savdo esa bozorlarda - usti yopiq do'konlar va timda olib borilgan. Bu yerdagi mollar ancha injiq haridorlar" ehtiyojini qondirishga qaratilgan va birmuncha qimmat sotilar edi. **Uchinchi tur** savdo qarib saroylarda amalga oshirilib, bunda "eng qimmatbaho va eng yaxshi chet el mollarini" harid qilish mumkin edi¹. Savdodagi ushbu holat boshqa shaharlarga ham xos edi.

Shaharlar bozorlari va maydonlarida, asosan, chakana savdo amalga oshirilgan. Ayrim shaharlarda yirik sarmoyalarning yo'qligi tufayli, ularda savdoning chakana turi keng rivojlangan edi. Bu **Qo'qon va Xiva shaharlari** misolida o'zining tasdig'ini topadi, xususan, XIX asr o'rtalarida **V.V.Velyaminov-Zernov** "Qo'qonning ichki savdosi butunlay chakana savdodir. Ulgurji savdo umuman yo'qdir", - deb yozgan edi.

Yirik sarmoyalar va savdoning mavjud emasligi ko'p hollarda shaharlarda joylashgan ishlab chiqarishning keng rivojlanmaganligi oqibati edi. Chakana savdo rivoj topgan Xiva shaharlari buning yorqin misolidir. Xonlik shaharlarida bo'lgan xorijiy mualliflar ularda ishlab chiqarish va savdoning hajmi deyarli katta bo'lmaganligini qayd etadilar. Ulardan biri, jumladan, "Xonlik aholisi bu bozorlardagi savdoga o'z mahsulotlarining ortiqchasini olib boradilar, - deb yozar ekan, bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotlar "boshqa mamlakatlarga olib ketilmagan va Xivaning o'zida tarqatilgan, xivaliklarning boyligi hashamat va daromadda emas, balki o'z ichki ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan mahsulotlarning mo'l-ko'lligida edi"², - deb ilova qiladi.

Shaharlarda chakana savdo kundalik ehtiyoj mollari, kiyim-bosh, ro'zg'orda va xo'jalikda ko'plab ishlatiladigan mollar bilan amalga oshirilgan. Buni 1834 yilda Toshhovuzda bo'lgan arman tarjimoni **Turpayevning** quyidagi so'zlaridan ham kuzatish mumkin: "Men Toshhovuzga kelgan kunim bozor bo'ldi va men unga bordim, to'nlar, bo'z, chit, kumoch, Xivaning ipak gazlamalari, yog'och, chorva va bug'doy sotilishini ko'rdim. Savdogarlarning hammasi xivaliklardir"³, -deb qayd etgan edi u.

Xiva shaharlarida **harbiy qurol-aslaha, dehqonchilik qurollari, ikki g'ildirakli aravalar, egarlar, ot-anjomlari, kemalar, yog'och, ko'mir, tuz, porox** va boshqalar bilan ham chakana savdo amalga oshirilgan".

XVI-XIX asming o'rtalarida ayrim shaharlarning ulgurji savdo amalga oshiriladigan markazlar sifatidagi ahamiyati ortib bordi. Ular jumlasiga turli karvon

¹ Костенко Л. Город Хива в 1873 г. С. 334.

² Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. С. 89, 91.

³ Дневник переводчика армянина Турпаява посланного в 1834 г. С. 131.

yo'llari tutashib ketgan yerlarda joylashgan, tranzit va tashqi savdo keng rivojlangan markazlarni kiritish mumkin. So'nggi o'rta asrlarda savdo imkoniyatlari juda kengayib borgan **Buxoro, Yangi Urganch, Toshkent, Qarshi** kabilar shular jumlasiga kiradi. Birgina Yangi Urganch misolida bunga amin bo'lish mumkin. XIX asr mualliflaridan biri "Bu shahar Xiva shahridan ancha kattadir va butun Xiva savdosini o'zida mujassamlashtirgandir. Bu katta va ser aholi shaharning ko'plab do'konlarida sharqning serhasham qimmatbaho mahsulotlarini ko'rish mumkin"¹. deb yozgan edi. Shaharning ulgurji savdo markazi bo'lganini **G.I.Danilevskiy** ham tasdiqlab: "Bozor kunlarida bu yerga ulgurji savdo uchun **paxta, ro'yan, to'nlar va bo'z** keltiriladi", - deb yozgan edi. Shuningdek, u "Chet ellik savdogarlar bu yerda asosan mollarni harid qilish bilan shug'ullanganlar va karvon bilan orqaga qaytganlar"², - deb qayd etgan edi. Shaharda ulgurji savdoning asosini tashkil etgan tashqi savdo operatsiyalari va shartnomalar tuzish, boshqa shaharlardan farqli o'laroq, mashhur savdogarlarning uylarida amalga oshirilgan. "Bunday sirlikka mahalliy aholining ertaga sog' va talon-taroj etilmagan holda uyg'onishiga ishonchi yo'qligi sababli rioya qilinadi"³, - deb qayd etgan edi mualliflardan biri.

Shaharlarda turli hunarmandchilik sohalarining tayyor mahsulotlari, ba'zan juda mayda buyumlar bilan ham ulgurji savdo amalga oshirilgan. Xususan, temirchilar yasagan pichoqlar, bigiz kabilar shular jumlasiga kiradi. Savdogarlar, asosan, mayda olib-sotarlar, mahsulotlarni "katta xajmlarda bozor narhiga nisbatan ancha arzon harid kilib", shu soha samaradorligining o'sishiga xizmat qilganlar⁴.

Xonliklar shaharlarida chakana va ulgurji savdoni amalga oshirishda turli pul birliklari, uzunlik va og'irlik o'lchovlaridan foydalanilgan. Shu bilan birga, savdo nafaqat pulga sotish, balki tovarlarni ayirboshlash yo'li bilan ham amalga oshirilgan. Tayyor mahsulotlar ko'p hollarda **ip, ipak, jun kalavalarga, teri va metallga** ayirboshlangan⁵. Bu holatning ichki savdoda keng o'rin olganligini Buxoroga oid XIX asr ma'lumotlaridan kuzatish mumkin. Ulardan ayon bo'ladiki, mayda savdo bilan shug'ullanuvchi shaxslar atrofda qishloqlar bozorlarida o'z mollarini sotganlar yoki uni turli mahalliy mahsulotlar, jumladan, **tovuq, tuxum, yog'och qoshiq, ip** va boshqa narsalarga almashtirganlar. Xiva xonligi shaharlarida ham ichki savdo qisman naqd pulga sotish yo'li bilan amalga oshirilsada, bu borada asosan mol ayirboshlash an'analari ustun edi. Buni, xatto XIX asr ikkinchi yarmiga oid ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Ularga ko'ra, xonlik shaharlaridagi ichki savdo aniq bozor kunlarida amalga oshirilgan va ko'p hollarda xomashyo hunarmandchilik mahsulotlariga ayirboshlangan⁶. XIX asrning 20- yillarida **N.Muravyev**, xonlikdagi ichki savdoda tovar ayirboshlash ustunligining sababini izohlab, "Xiva hukmdori... xonlikdan oltin va kumushni olib chiqib ketilishini qat'iy ta'qiqlab qo'ygan", savdogarlar "odatda, o'z savdolarini tovar ayirboshlash bilan amalga oshiradilar", -

¹ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. С. 32.

² Данилевский Т.П. Описание Хивинского ханства. С. 103.

³ Куп А. Культура оазиса низовьев Аму-Дарьи. С. 249.

⁴ Кирпичников Н.А. Краткий очерк некоторых туземных промыслов. С. 131.

⁵ Турсунов И.О. Развитие городских и сельских поселений северного Таджикистана. С. 90.

⁶ Корреспонденция из Ташкента/У Туркестанский сборник. Т. 7. С. 91.

deb qayd etgan edi. Qo'qon shaharlari misolida esa, XIX asr muallifi: "tanga pulning taqchilligi bois savdo ayirboshlash yo'li bilan amalga oshiriladi", - deb yozgan edi².

Turli shaharlar va xonliklar o'rtasidagi savdoda ham tovar ayirboshlashdan keng foydalanilgan. XIX asming 20-yillanda bu xususda berilgan ma'lumotga ko'ra, Qo'qonda ishlab chiqarilgan "matolar buxoroliklar tomonidan Rossiya mollariga ayirboshlangan".

Shaharlar ahlining ko'chmanchi halqlar vakillari bilan amalga oshirgan savdosi ham ko'p hollarda mol ayirboshlash yo'li bilan amalga oshirilgan. Ular shaharlarga chorva mollarini yetkazib beruvchi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar edi. "Ayirboshlov savdosida" shartli almashtirish vositasi sifatida ular ikki yoshlik qo'ydan foydalanganlar. Qo'qon xonligi shaharlarida uning puldagi qiymati bir tillaga teng bo'lgan³.

Savdoda mollarni nasiyaga berish ham keng rivojlangan edi. Masalan, shaharlardagi **qassoblar, alloflar to'nfurushlar, do'ppifurushlar, zargarlar mollarini** qarzga berishlari mumki edi.

Shaharlarda pulni qarzga berish ham qisman mavjud edi. Bu, ayniqsa Buxoro xonligida ancha taraqqiy etgan bo'lib, tarixiy ma'lumotlar ko'rsatishicha, bu ish bilan asosan **xindlar** shug'ullanar edilar.

Ichki savdoda bir qator an'anaviy tartib-qoidalar o'rnatilgan edi. Xususan, Buxoroda savdo qilishga kirishishdan oldin shahar savdogarlari, qishloqliq savdo ahli va shu bilan birga hunarmandlar albatta masjidga kirib chiqishlari lozim edi. Bunga amal qilinishi mansabdor shaxs - rais tomonidan qattiq nazorat qilib turilgan⁴.

Shaharlar bozorlarida o'ziga xos sharqona ahloq qoidalari shakllangan bo'lib, buni yevropaliklar quyidagicha ta'riflaydi: "Bozorda Sizni Peterburg va Moskva do'konlaridagi kabi o'z oldilariga chaqirib olmaydilar. Siz ko'ngilingizga siqqanicha molni ko'rishingiz va savdolashishingiz mumkin. Lekin sotuvchi bu davr mobaynida birorta ham so'z aytmaydi".

Sotib olingan mollar xaridorga yoqmasa, uni sotuvchiga qaytarib berishi mumkin edi. Ruhoniy Budrin, agar sotib olingan mol egasiga yoqmasa "xatto bir hafta va undan ortiqroq vaqt mobaynida uni sotuvchiga kaytarish xuquqiga ega va sotuvchi uni qaytarib olib, pulni egasiga qaytarib beradi", - deb qayd etgan edi¹. Bu ma'lumotni Toshkentga oid quyidagi ma'lumot ham tasdiqlaydi. Uni qayd etgan XIX asr muallifi, shahar bozorlarida sotib olingan molni "almashtirmoqchi, xatto orqaga qaytarmoqchi bo'lsangiz bu qiyinchiliksiz amalga oshiriladi", - deb yozgan edi².

Turli markazlardagi savdoni soliqlar va to'lovlarsiz tasavvur qilish mumkin emas edi. Savdo, xususan, ichki savdo shaharlarda bir qancha soliq turlarini keltirib chiqargan edi. Buni barcha xonliklar misolida kuzatish mumkin. Xususan, Qo'qon xonligiga oid ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, uning shaharlarida boshqa

² Наши соседи в Средней Азии. Хива и Туркмения. С. 122.

³ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. С. 96.

⁴ Ремпель Л.И. Далекое и близкое. Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства старой Бухары. Бухарские записки. Т.: Изд. лит. искусства. 1982 С. 43.

¹ Петровский Н. Моя поездка в Бухару. С. 227.

² Русские в Бухаре в 1820 году (Записки очевидца). С. 62.

xonliklardagi kabi **zakot**, bozorda savdo qilish xuquqini beruvchi - **bozor solig'i**, **tarozi puli**, **daryolardan kechuv puli**, **tuz puli** va x k. mavjud edi. Shuningdek, savdodan oliy hukmdor katta foyda ko'rar edi. Jumladan, Xivada xon tomonidan "savdo va yarmarkalar joylari ham ayrim xususiy shaxslarga ijaraga beriladi".

Shaharlarda savdo ahli asosiy soliqlardan tashqari boshqa majburiyatlarni ham o'tashlari lozim edi³. Xususan, Xiva shaharlaridagi savdo ahli boshqa soliqlardan tashqari - boy puli to'lar edilar. Uni oliy hukmdor boy savdogarlar zimmasiga yuklar edi. Bunda xon shaharlarga yorliqlar yuborar va unda to'lanadigan "boy puli" miqdori ko'rsatilar edi. Savdo ahli bu pulni o'rtada to'plab to'laganlar. Bunday soliqlar yiliga ikki yoki uch marta undirilishi mumkin edi⁴.

Tashqi savdo yuritilishi ham asrlar davomida shakllangan qonun-qoidalariga ega edi. Masalan, turli mamlakatlardan Buxoroga yo'l olgan savdo karvonlarining mollarini poytaxtga qadar ochib tekshirmaganlar. Hindiston va Afg'onistondan Qarshiga boruvchi karvonlar o'z mollarini bu yerda ochmaganlar. Savdogarlar to'g'ri Buxoroga o'tib ketib, bu markazda zakot to'laganlar va shundan so'nggina u yerdan mollarning ayrimlarini, jumladan, hind choyini sotish uchun yana Qarshiga olib kelganlar.

XVI-XIX o'rtalarida xonliklarning savdo-iqtisodiyot markazlariga yo'l olgan savdogarlar boj to'laganlar. Boj undirishning o'ziga xos usullaridan biri uni mol bilan to'lash edi.

A.Byorns savdogarlar, "odatda, gazlamalar o'ramini ko'rsatadilar, uning har birining qirqdan bir qismi xazinaga boj tarzida tushadi", - deb qayd etgan edi. **N.Muravyevning** ko'rsatishicha esa, Xivada xonlik shaharlariga "keltiriladigan mollarning o'ttizdan bir qismi" boj tariqasida to'langan.

Turli xorijiy davlatlar bilan xonliklar markazlarini ko'pdan-ko'p karvon yo'llari bog'lagan edi¹. Savdogarlarning qaysi yo'ldan yurishlariga qarab bojxonalar qurilgan edi². Xususan, XIX asrning 20-yillariga oid ma'lumotlarga ko'ra Buxoroda "o'ndan ortiq bojxona bor" edi. Xiva xonligida ham bojxonalar ko'p edi³. Shahar aholisining ayrim vakillari savdo karvonlaridan boj undirish faoliyati bilan shug'ullanganlar. **A.Vamberi** bunday shaxslar - "bojgir va voqeanavislar" haqida yozar ekan, ularni karvonini tekshirgani kelgan "amaldorlar" deb ataydi.

Xorijiy savdo ahli xonliklar shaharlariga keltirilgan mollari bilan karvonsaroylarda ulgurji savdoni amalga oshirganlar. Bu yerda musulmonlardan 2,5%, ruslar va o'zga din vakillaridan 5% zakot undirilgan⁴.

Shaharlardagi bojxonalar tepasida oliy hukmdorga yaqin amaldorlar turgan. Buxoroda bu ish boshida **qushbegi**, Qo'qon xonligida **mingboshi** turgan bo'lsa, Xiva

³ Корреспонденция из Ташкента // Туркестанский сборник. Т. 7. С. 91.

⁴ Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине. С. 439.

¹ Кун А. Очерки Кокандского ханства // Известия Императорского Русского Географического общества. Спб., 1876. Т. XII. С. 68.

² Борне А. Путешествие в Бухару: рассказ о плавании по Инду от моря с подарками Великобританского короля и отчет о путешествии из Индии в Кабул, Татарию и Персию. предпринятом ... в 1831, 1832 и 1833 годах лейтенантом ост-индской компанейской службы Александром Борисом. М.: Университ. тип., 1848-1849. Ч. 2. С. 413.

³ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. С. 82.

⁴ Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару Русской миссии в 1870 г. Спб., 1871. С. 87.

xonligida esa bu vazifani **xonning birinchi mahrami** bajargan. Karvonsaroyda karvonlar ko'zdan kechirilib, mollar tekshirilib, undan boj undirilgan.

Xivada bo'lgan **A.Vamberi** "Bu mamlakat odatiga ko'ra, bojxona vazifasini o'tagan karvonsaroy oldida" to'xtagani haqida yozgan edi. Ayrim shaharlar hududidan olib o'tilgan chorva mollari uchun ham zakot to'langan. Xususan, Toshkent xududidan olib o'tilgan qo'y yoki boshqa mollar uchun zakot to'langanligini XIX asr mualliflarining ma'lumotlari ham tasdiqlaydi⁵.

O'zga yurtlardan xonliklar markazlariga yo'l olgan karvonlardan boj va zakot undirishning o'z tartib-qoidalari mavjud edi. Turli shaharlarga yaqinlashgan karvonlar "zakot saroylar" da hisobga olingan. Xususan, Qashg'ardan kelgan karvonlar O'shdagi "zakot saroyda" hisobga olingan. Karvon mollari Andijonda umumiy ko'zdan kechirilgan va "Qo'qon tayinlagan alohida" zakotchilari tomonidan zakot undirilgan. Poytaxt shaharga yo'l olgan karvonlardan zakot shaharning o'zida olingan.

Shaharlarga yaqinlashgan karvon shu yerda to'xtab o'zi haqida xabar berishi lozim edi. Masalan Toshkentga Qo'qon va Buxoro shaharlaridan keladigan karvonlar, XIX asr muallifi **A.K.Geyns**ning ko'rsatishicha, **Qoplonbek, Chinoz va Chirchiq** yonida yashagan zakotchilar tomonidan tekshirilgan va karvon haqida shaharga habar yetkazilgan. Savdo va boj undirishdagi bu holatni boshqa shaharlar misolida ham kuzatish mumkin.

Shaharlarning yirik savdo markazlari sifatidagi ahamiyatini oshirishni ta'minlagan omillardan biri - ularda mavjud bo'lgan va ko'rilayotgan davr mobaynida, ayniqsa, XIX asrning birinchi yarmida soni muttasil o'sib borgan karvonsaroylar edi. Xorijiy savdogarlarning shaharlarda to'xtashi, muntazam yashab turishi va o'z mollarini saqlashi uchun zarur bo'lgan bu inshootlar oldingi asrlarda bo'lgani kabi xonlar, amirlar, amaldorlar, jamiyat hayotida roli nihoyatda kuchli bo'lgan musulmon dini peshvolari, yirik savdogarlar va sarmoyadorlarning shaxsiy mulki bo'lgan. Buni mavjud manbalardagi ayrim hujjatli ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Masalan, Jo'ybor shayxlari tomonidan XVI asrda rasmiylashtirilgan hujjatlardan ma'lum bo'ladiki, Buxoro shahrida mavjud bo'lgan karvonsaroylar yirik xukmdorlar va oliy nasab shaxslarga tegishli edi. Xususan, shahardagi karvon-saroylardan biri Shayboniy hukmdorlardan Ubaydullaxonning safdoshi amir Latif Mirakka tegishli bo'lgan bo'lsa, yana bir karvonsaroy esa amirzoda Mirza Tursun Muhammadga qarashli bo'lib, u "**Sarroflar karvonsaroyi**" nomi bilan ham mashhur edi.

XIX asrning 30-yillarida Buxoroga kelgan rus praporshchigi **I.V.Vitkevich**ning ma'lumotlariga ko'ra shahar karvonsaroylaridan ikkitasi oliy hukmdor - Amirga, bittasi - qushbegiga, yana biri - Rajabbek devonbegiga tegishli bo'lgan.

Shahar karvonsaroylari ko'p hollarda ilgari davrlarda bo'lgani kabi egalari tomonidan ma'lum masjid va madrasalar foydasiga vaqf etilgan edi. Buni XIX asr o'rtalaridagi Toshkent karvonsaroylariga oid ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Ularga binoan Toshkentning **Nurmuhammad qushbegi, Isabek, Mahram boshi, Dasturxonchi, Abdurasul** nomi bilan yuritiluvchi karvonsaroylari masjid va

⁵ Гейнс А.К. Управление Ташкентом при Кокандском владичестве. С. 489.

madrasalar foydasiga vaqf etilgan edi. Ba'zi hollarda karvonsaroylarning vaqf etilishi qisman amalga oshirilishi ham mumkin edi. Xususan, **Said Azim** nomi bilan mashhur Toshkent karvonsaroyi foydasining 1/10 qismigina vaqf etilgan edi¹. Shuningdek, shu shahardagi Shohbek karvonsaroyidan keladigan daromadning faqat yarmigina vaqf etilgan edi, xolos.

Karvonsaroylar ba'zan egalari tomonidan ijaraga ham berilgan. Uni ijaraga olgan shaxs bu inshoot egasiga ma'lum miqdorda ijara haqi to'lagan va uni boshqargan. **I.V.Vitkevichning** ko'rsatishicha Buxorodagi Rajabbek devonbegi karvonsaroyi o'z egasiga ijaradan 300 Buxoro oltin tangasi miqdorida foyda keltirgan².

Odatda, karvonsaroylar pishiq g'ishtdan qurilar edi. Buni yozma manbalarda uchraydigan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Jumladan, XIX asming birinchi yarmida Xiva karvonsaroylaridan biri shaharning **Abdulbobo darvozasiga** yaqin yerda to'g'ri to'rtburchak shaklida g'ishtdan qurilgan edi. Shuningdek, Buxorodagi Gaukushon karvonsaroyining "hujralari pishiq g'ishtdan" ekanligi haqida XVI asrga oid ma'lumot ham mavjud. Bu inshootlar qurilishida yog'och va paxsadan ham keng foydalanilgan. Manbalarda, ayrim hollarda, "yog'och karvonsaroylar" eslatib o'tiladi.

Karvonsaroylar bir va ikki qavatli bo'lishi mumkin edi. Ko'pincha, ular ikki qavatdan iborat bo'lar edi. Bu haqida XIX asming birinchi yarmiga oid manbalarda quyidagi ma'lumotlar qayd etilgan: "Buxoro karvonsaroylarining ko'pchiligi yagona reja asosida qurilgandir. Bular katta kvadrat shaklidagi ikki qavatli binolar bo'lib, ularning tashqi devorlari shahardagi ko'pgina boshqa binolar kabi derazalarga ega emas, birinchi qavat chuqur omborlar bilan band bo'lib, ularning eshigi hovliga qaragan; ikkinchi qavatda esa xorijiy savdogarlar ... yashaydilar"¹. Tevarak-atrofi o'ralgan bu inshootlarga bir tomondan qurilgan. Ularning ba'zilarida tashqi tomondan devorlariga o'yib ishlangan va turli mahsulotlarni sotishga mo'ljallangan do'konlar ham mavjud edi. Ba'zan bunday do'konlar karvonsaroylarning ichida ham joylashgan bo'lishi mumkin edi. XVI asrga oid hujjatlarning birida Buxorodagi "sarroflar karvonsaroyi" nomi bilan mashhur saroy binosi ichida joylashgan "do'konlar" eslatib o'tiladi. Toshkentdagi karvonsaroylarning ko'pchiligi ham ular ichida joylashgan do'konlarga ega bo'lgan. To'rtburchak shaklidagi, ikki qavatli karvonsaroylar shaharlarning ko'plariga xos edi. Masalan, Xiva karvon-saroylaridan biri shaharning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, u to'g'ri to'rtburchak shaklida g'ishtdan qurilgan edi. Uning har tomoni "30 sarjindan" iborat bo'lib, faqatgina janub tomonda bitta darvozasi bor edi. Ikki qavatdan iborat bu karvonsaroyning pastki qavatida 100 ta do'kon bo'lib, ikkinchi qavati esa savdogarlarning yashashi uchun mo'ljallangan edi.

Savdogarlarning otlarini saqlash uchun karvon-saroylarda otxonalar ham mavjud bo'lgan. Buxorodagi Sarroflar bozorida joylashgan va shu nom bilan mashhur bo'lgan karvonsaroyning sotilishi munosabati bilan XVI asrda tuzilgan hujjatda uning "ko'pgina hujralar, ular bilan bog'langan ayvon va otxonadan" iborat ekanligi eslatib o'tiladi. XIX asr ma'lumotlariga ko'ra Toshkent karvonsaroylarida

¹ Тетевревников А.Н. Очерк внутренней торговли киргизской степи. Спб., 1867. С. 307.

² Записки о Бухарском ханстве. С. 100.

³ Записки о Бухарском ханстве. С. 99.

xam "ot va tuyalarni saqlash uchun xonalar" mavjud edi. Buxoro shahrida esa karvonlarga tegishli tuyalar shahar tashqarisida, xususan, Samarqand darvozasi ortidagi maxsus karvonsaroylarda saqlangan.

Shaharlarning tashqi iktisodiy aloqalari yanada kengayib borishi natijasida XIX asming birinchi yarmida karvonsaroylarning soni muttasil o'sib borgan. Buni birgina Buxoro shahri misolida yaqqol kuzatish mumkin. XIX asming birinchi yarmiga oid ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarixan qisqa bu davrda shahar karvon-saroylarining soni tez o'sib bordi. XIX asming 20-yillarida Rossiyadan Buxoroga kelgan **YE.K. Meyendorf** shahar karvon-saroylarini 14 tadan iborat deb ko'rsatsa, shu asming 30-yillarida bu yerga tashrif buyurgan **P.I. Demezov va I.V. Vitkevichlar** ularning sonini 25 ta atrofidaligini qayd etadilar. Shu asming 40-yillarida **N.V. Xanikov** "Buxoro xonligining tavsifi" nomli asarida yozishicha, shahar karvon-saroylari 38 atrofida bo'lib, ularning 24 tasi g'ishtdan, 14 tasi esa yog'ochdan qurilgan edi¹.

Turli markazlarga kelgan xorijiy savdogarlar, odatda, qaysi mamlakatdan kelganliklariga qarab ma'lum karvon-saroylarda yashaganlar. Ularning katta qismini xindlar tashkil qilar edi. Birgina Buxoro shahrida, ingliz **A. Byornsn**ing yozishicha, 300 atrofidagi xindlar yashaganlar. Ular Buxorodagi **Xindi, Badriddin, Qushbegi, Mirzacho'l, Xo'ja Jo'ybor, Toshkentdagi Shirin Xoja Rais saroyida** to'xtaganlar. Samarqand karvonsaroylaridan biri ham xindlarga tegishli edi. Rus va tatarlarning savdo vakillari ham shaharlarda alohida karvonsaroylarda yashaganlar. Ular Buxorodagi **Ayoz, No'g'oy, Filxona, Kulyuta, Qo'qonda** esa "**Zakot saroyi**"da qo'nim topganlar.

Ba'zi shaharlardagi karvonsaroylarning ayrimlarida yahudiylar yashaganlar. XIX asr ma'lumotlariga binoan Toshkent karvonsaroylaridan biri "**Yahudiylar karvonsaroyi**" nomi bilan ma'lum edi. Shu davr muallifi **N.V. Xanikovning** ma'lumotlariga ko'ra, Qarshidagi uchta karvonsaroydan biri yahudiylarga tegishli bo'lib, bu haqida muallif shunday yozadi: "Shaharda karvonsaroylar uchtdir, lekin ularning ikkitasigina shaharga keladigan karvonlarga xizmat qiladi, uchinchisi esa yahudiylar tomonidan sotib olingan va egallangandir".

Shahar karvonsaroylari xorijiy savdo ahli ehtiyojlariga xizmat qilibgina qolmay, balki mahalliy savdogarlarning faoliyatida ham muhim ahamiyatga ega edi. Bu yerda mahalliy savdogarlar o'z mollarini saqlar va ular bilan ulgurji savdoni amalga oshirar edilar. Xususan, XIX asrda Toshkentdagi **Isabek, Shoxbek, Dasturxonchi, Abdurasul va Mulla Omonboy rais** nomi bilan mashhur saroylarda ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi toshkentlik boy savdogarlar o'z mollarini saqlaganlar. 1823 yilda Xiva xoni **Muhammad Raxim** tomonidan poytaxt shaharda qurilgan karvonsaroyda ham shaharlik boy savdogarlarning mollari saqlangan. Buxoro karvonsaroylari misolida ham bu holat o'z tasdig'ini topadi. **V. Vitkevichning** quyidagi so'zlari orqali amin bo'lish mumkin: "Karvonsaroylar haqida so'z ketganida ko'rsatib o'tish joizdirki, har bir buxorolik savdogar sar oyda xonaga egadir, chunki o'z molini qo'yish va saqlash uchun boshqa joy yo'qdir".

¹ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 100; Записки о Бухарском ханстве. С. 58, 99; Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. С. 101.

Karvonsaroylarning hammasi ham ikki qavatli bo'lib qolmay ularning ba'zilari bir qavatli, yog'och va paxsadan qurilgan, hajm jihatidan birmuncha kichikroq bo'lib, ular ko'pincha ma'lum mahsulot yoki xomashyo turini saqlash uchun omborxona vazifasini o'tagan. Jumladan, XIX asrda Qo'qondagi karvonsaroylardan biri paxtani saqlashga mo'ljallangan edi. Shu davrdagi Toshkentning "Mayiz saroyi"ida esa faqatgina quruq mevalar saqlangan va ular bilan ulgurji savdo amalga oshirilgan. Ularda savdogarlarning yashashi uchun sharoit yo'q edi. Bir qavatli, xovlisi va atigi uchtagina xonasi bo'lgan Buxorodagi "Paxta saroyi" xonlik qishloqlaridan keltiriladigan paxtani to'plash uchun, "Tamaki" saroyi esa boshqa shaharlar va qishloqlardan keltiriladigan tamakini saqlash uchun mo'ljallangan edi. Shuningdek, shahardagi **Eski Amir saroyi** paxtani, **Yangi Amir saroyi** qorako'l terilarni, **eski Barra saroyi** esa nil bo'yog'ini saqlashga ixtisoslashgan edi.

Karvonsaroylarning yana shunday bir turi ham mavjud bo'lib, ular, odatda, boshqa saroylardan hajm jihatidan kichikligi bilan ajralib turar edi. Ularda, asosan, kambag'al yo'lovchilar, yuksiz savdogarlar, o'z tuyalarida yuk tashuvchilar to'xtar edilar. Jumladan, Toshkentda mavjud bo'lgan bunday saroylarda ko'pincha o'z tuyalarini cho'lda saqlagan Rossiyaga yuk tashuvchilar to'xtar edilar¹.

Qayd etib o'tish lozimki, karvonsaroylarda faqatgina turli mahsulotlar saqlanib qolmay, bu yerda ular bilan ulgurji savdo ham amalga oshirilgan.

Saroylarda muayyan amaldorlar va xizmatchilar ham bo'lib, ular bu yerdagi iqtisodiy hayotni muvofiqlashtirib turishga harakat qilganlar. Masalan, Buxorodagi **Yangi Amir saroyida** shaharga olib kelingan barcha qoraqo'l terilar to'planar va bu xomashyo turini navlarga ajratishga ixtisoslashgan xizmatchilar tomonidan xillarga ajratilar, o'rovchi xizmatchilar esa ularni o'ramlab bog'lar edilar. Bundan tashqari, saroyda boshqa xizmatchilar ham bo'lib, ularning boshida turgan amaldor esa alohida xonada o'tirib keltirilgan mollardan zakot yig'ar edi.

Karvonsaroylar nafaqat savdogarlar to'xtaydigan va o'z mollarini saqlaydigan joygina bo'lib qolmay, ularda ba'zan ma'lum mahsulot turini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunarmandlar ham yashaganlar. XIX asrning 30-yillarida **I.V.Vitkevichning** ko'rsatishicha, Buxorodagi **No'g'oy saroyida** rossiyalik tatarlar yashaganlar va "ko'p vaqtlarini ochiq havoda" poyafzal tikish bilan o'tkazganlar. Shahardagi **Filxona saroyida** ham tatar hunarmandlari - kafshdo'zlar yashaganlar va mahsulot ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lganlar. Shahar karvon-saroylarining eng kichigi bo'lgan Shona saroyida esa, **P.I.Demezoning** ko'rsatishicha, taroq ishlab chiqarishga ixtisoslashgan buxorolik hunarmandlar mehnat qilganlar.

Shaharlardagi karvonsaroylarni manbalar ma'lumotiga asoslangan holda tahlil etish shuni ko'rsatadiki, ularning butun so'nggi o'rta asrlar mobaynida mavjudligi va sonining muttasil o'sib borishi shaharlarning xudud iqtisodiy hayotidagi ahamiyati yanada ortib borganligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, XVI-XIX asrning o'rtalarida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari shaharlari hayotida savdoning o'rni beqiyos edi. Savdoning ichki, tranzit va tashqi shakllari turli markazlarning iqtisodiy hayotida katta o'rin egallagan. Siyosiy barqarorlik yillarida shaharlarda savdo turlari keng rivoj topdi va iqtisodiy

¹ Тетевревников А.Н. Очерки внутренней торговли киргизской степи. С. 311.

hayotning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi, Aksincha, siyosiy nomutanosibliklar mavjud bo'lgan davrarda esa savdo izdan chiqqan. Buning yorqin misoli sifatida XVIII asming birinchi yarmida xonliklarda kuzatilgan siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy hayotning notekis rivojlanishi oqibatida savdo munosabatlarining izdan chiqishini ko'rsatib o'tish mumkin.

Savdoning rivojlanishi natijasida ayrim shaharlar Sharq tijorat dunyosining yirik markazlariga aylandilar va ularning iqtisodiy imkoniyatlari kengayib bordi. Ular boshqa markazlarning taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdilar. Ichki, tranzit va tashqi savdoning rivojlanishi ayrim shaharlarning ma'lum bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashuv jarayoni tezlashdi. Bu esa **Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari** shaharlari iqtisodiy aloqalarining rivojlanib, mavjud yagona iqtisodiy makon doirasida shaharlararo o'zaro mehnat taqsimoti ravnaq topib borganligidan dalolat beradi.

Tayanch so'zlar:

Karvonsaroy, tranzit, No'g'oy, qorako'l, filxona, Xo'ja Jo'ybor, Qo'shbegi, nil, sarjin, tanga, yamoq, pul, rubl, tiyn, kopeyek, vaqf, zakot, bojxona, boj, bojgir, voqeanavis, ulgurchi, urganjilar, xonning birinchi marhami, kechuv puli, ruhoniylar, baqqol, amlokdor.

Test topshiriqlar:

1. XVI-XIX asr o'rtalarida Buxoro, Xiva va qo'qon xonliklari shaharlari iqtisodiy hayotining yetikchi sohasi bu.... quyida to'g'ri jabni ko'rsating.

A. XVI-XIX asr o'rtalarida Buxoro, Xiva va qo'qon xonliklari shaharlari iqtisodiy hayotining yetikchi sohasi bu Hunarmandchilik bilan bog'liq savdo edi

V. XVI-XIX asr o'rtalarida Buxoro, Xiva va qo'qon xonliklari shaharlari iqtisodiy hayotining yetikchi sohasi bu Bog'dorchilik bilan bog'liq savdo edi

S. XVI-XIX asr o'rtalarida Buxoro, Xiva va qo'qon xonliklari shaharlari iqtisodiy hayotining yetikchi sohasi bu Tog'-kon ishlari bilan bog'liq savdo edi

D. XVI-XIX asr o'rtalarida Buxoro, Xiva va qo'qon xonliklari shaharlari iqtisodiy hayotining yetikchi sohasi bu Irrigatsiya sohasi bilan bog'liq savdo edi.

2. 1669 yilda Urganch va Xivada qaysi mahsulotlar bilan savdo qilingan?

A. 1669 yilda Urganch va Xivada zandana, chit, paxta, ollacha va xom ipak bilan savdo qilingan

V. 1669 yilda Urganch va Xivada xom ipak, choy, ziravorlar bilan savdo qilingan

S. 1669 yilda Urganch va Xivada zandana, uzum, guruch, noxat bilan savdo qilingan

D. 1669 yilda Urganch va Xivada pilla, uzum, guruch, choy bilan savdo qilingan.

3. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo shaharlarda qanday mahsulotlar ichki savdoning asosini tashkil etgan?

A. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo shaharlarda Bug'doy va donli o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlar: un, guruch, non ichki savdoning asosini tashkil etgan

V. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo shaharlarda Poliz ekinlaridan tayyorlangan mahsulotlar: qovun, torvuz ichki savdoning asosini tashkil etgan

S. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo shaharlarda Bog' dorchilik ekinlari va mahsulotlari: olma, uzum, nok ichki savdoning asosini tashkil etgan

D. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo shaharlarda Sabzavot mahsulotlari: kartoshka, sabzi, piyoz ichki savdoning asosini tashkil etgan

4. Shaharlarda ichki savdo asosan nima qaratilgan edi?

A. Ichki savdo asosan aholining kundalik ehtiyojini qondirishga qaratilgan edi

V. Ichki savdo asosan bozorni mahsulotlar bilan ta'minlashga qaratilgan edi

S. Ichki savdo asosan do'konlar ochishga qaratilgan edi

D. Ichki savdo asosan ulgurchi savdo-sotiqni amalga oshirishga qaratilgan edi.

5. XVIII asr II yarmi - XIX asrning I yarmida O'rta Osiyoning boshqa shaharlariga qanday qishloq xo'jalik mahsulotlari tekazilgan?

A. Qarshining tamakisi, Shahrisabzning anori yetkazilgan

V. Buxoroning movuti, Qo'qonning qorako'li yetkazilgan.

S. Toshkentning lochira noni, Samarqand pashmakisi yetkazilgan

D. Marg'ilon atlası, ko'chmanchilar namati yetkazilgan

6. XIX asr boshlarida ipakning asosiy savdo-sotiq bozori qaysi shahar bo'lgan?

A. XIX asr boshlarida ipakning asosiy savdo-sotiq bozori Qo'qon hisoblangan

V. XIX asr boshlarida ipakning asosiy savdo-sotiq bozori Qarshi hisoblangan

S. XIX asr boshlarida ipakning asosiy savdo-sotiq bozori Toshkent hisoblangan

D. XIX asr boshlarida ipakning asosiy savdo-sotiq bozori Buxoro hisoblangan.

7. 1826 yilda Buxoroliklar tomonidan Rossiyaga keltiriladigan paxta, asosan qaysi shahardan keltirilgan?

A. 1826 yilda Buxoroliklar tomonidan Rossiyaga keltiriladigan paxta, asosan Sarsabdan, ya'ni Shahrisabzdan

V. 1826 yilda Buxoroliklar tomonidan Rossiyaga keltiriladigan paxta, asosan Shoshdan, ya'ni Toshkentdan

S. 1826 yilda Buxoroliklar tomonidan Rossiyaga keltiriladigan paxta, asosan Numujkatdan, ya'ni Buxorodan

D. 1826 yilda Buxoroliklar tomonidan Rossiyaga keltiriladigan paxta, asosan Samarakansadan, ya'ni Samarqanddan

8. XIX asr boshlarida Qo'qon xonligiga tegishli Marg'ilon shahrida qanday mahsulot yetishtirilgan?

A. Ipak, jun ishlab chiqarilgan

V. Kalava ip, g'altak ishlab chiqarilgan

S. Mato to'qilgan

D. Namat bosilgan.

9. XIX asrning 30- yillarida Xonliklar shaharlaridan qaysi Sharq mamlakatlarga savdo karvonlari qatnagan?

A.Hindiston, Eron, Turkiya.

V.Rossiya, Angliya, Fransiya

S.Hindiston, Rossiya, Yaponiya

D.Turkiya, Yaponiya, Rossiya.

10. XIX asrning 30- yillarida Buxoroga Qobul orqali Hindistondan qanday mollar olib kelingan?

A.Navshadil, kimxob, doka, cho'bi sandal, shakar, novvot, xina, sano, o'sma, haqiq.

V.Xina, spirt, dori, namat, guruch.

S.Doka, sari, sano, guruch.

D.kimxob, o'sma, novvot, non.

15-Mavzu: Shaharliklar ijtimoiy tarkibining asosiy xususiyatlari. Shahar madaniy hayoti va unda aholining ishtiroki

Reja:

1.Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari shaharlari.

2.Shaharliklarning ijtimoiy tarkibining asosiy xususiyatlari.

3.Shahar madaniy hayoti va unda aholining ishtiroki

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. XVI-XIX асрнинг ўрталарида. 2017. 173б.

2. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560 гг.//Английские путешественники в Московском государстве в XVI в./ Пер. с англ. Ю.В. Готье. М., 1938. С. 182.

3. Хасанхожа Нисорий. Музакири ахбоб (Дўстлар ёдномаси) Форс тилидан Исмоил Бекжон тарж. Т.: Мерос, 1993. 27-6. 86б.

4. Заметки о Хивинском ханстве, записанные со слов Мат-Мурата, бывшего диван-беги ханства в 1873 г.// Спб. вед. 1874. №115. С. 63

5. Мукминова Р.Г. Социальная дифференциация населения городов Узбекистана (конец XV-XVI в.). Т.: Фан, 1985. С. 38.

6. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Наука, 1975. С. 90.

7.Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. XVI-XIX асрнинг ўрталарида. 2017. 177б.

8.Навоий Алишер. Махбуб ул-кулуб. Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. 31-6.

Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari shaharlari oldingi davrlarda bo'lganidek, nafaqat siyosiy, iqtisodiy, balki jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari vakillari - oliy hukmdor - xon, hukmron sulola namoyandalari, turli toifadagi amaldorlar, harbiylar, yer egalari va ruhoniylar, hunarmandlar va savdo ahli, shahar kambag'allari, qullar va boshqalar istiqomat qilgan va faoliyat ko'rsatgan markazlar edi. Ular o'rta asr jamiyatida tutgan o'mi, moddiy imkoniyatlari, faoliyat turlariga ko'ra shahar aholisining turli ijtimoiy qatlamlarni tashkil etganlar.

So'nggi o'rta asrlar mobaynida hunarmandchilikning ekstensiv rivoji, savdoning taraqqiy etib borishi, shaharlarning boshqa markazlar, qo'shni dasht va

uzoq mamlakatlar bilan o'zaro aloqalarining kengayib borishi natijasida jamiyatning turli qatlamlari, xususan, yuqori tabaqa vakillarining shahar hayotidagi ishtiroki o'sib bordi. Buxoroliklarning savdo faoliyati haqida yozgan XIX asr muallifi **A.Grebenkin** "Savdo bilan boshqa shaxslar orqali mullalar, mudarrislar, oqsoqollar, bir so'z bilan aytganda, ma'lum hajmdagi erkin pulga ega hamma shug'ullanadi"¹, - deb yozgandi. Darhaqiqat, savdo bilan shug'ullanuvchi va ko'plab savdo-iqtisodiy inshootlariga ega shaxslar orasida jamiyatning turli qatlamlari vakillarini uchratish mumkin edi. Ular orasida hukmron sulola vakillari alohida ajralib turardi. Yirik yer egalari, turli ko'chmas mulk va pul zahiralarning sohiblari sifatida ko'pincha o'zlarining jamg'armalarini savdo sohasiga safarbar qilar edilar. Shaharlarda ishlab chiqarilgan mollar ortilgan karvonlar ular tomonidan xorijiy davlatlarga tez-tez jo'natilib turilgan. Buning yorqin misoli sifatida Imomqulixon tomonidan Xo'ja Navro'z boshchiligidagi Moskvaga savdo maqsadida jo'natilgan elchilik karvoniga oid ma'lumotlar xizmat qilishi mumkin. Ularga ko'ra, 300 kishidan iborat bu karvon Samarada mahalliy hokimiyat vakillari tomonidan tixtilangan. Xo'ja Navro'z 1614 yilda podsho Mixail Fedorovichga: Qozonga kelganimizda mening hukmdorim Buxoro podshosi molidan va bor hamma narsadan soliq va pul olindi", - deb arz qiladi.

Hukmron doira vakillarining xalqaro savdodagi ishtirokini quyidagi hujjat orqali ham kuzatish mumkin. Buxoro elchisi Muhammad Alining podsho Fedor Ivanovichga 1585 yilning 11 noyabrida bitilgan ushbu murojaatnomasida podsho uchun sovgalar bilan bir qatorda "bizning hukmdorimiz Abdulla sening davlatingga men bilan mollar - 2000 turli rangdagi zandana, ... 100 keng zandana, ... , 150 ip qiyiq, 40 pud bo'yoq yubordi"¹, - deb qayd etiladi.

Yaroslavlga kelgan buxorolik savdogar Xo'ja Otaqulining podsho Mixail Fedorovichga o'zi bilan olib kelgan Buxoro hukmdorining mollarini soliqlardan ozod qilishni so'rab 1634 yil 9 martda yozgan so'rovnomasida esa quyidagilar bayon etilgan edi: "Hukmdor, men bilan Yaroslavlga podshoning mollari: 2626 guldor zandana, shuningdek, 2000 chiroyli turli rangdagi zandana, 1530 rangdor semendi zandanasi, 737 los shoyi ansir, 325 olacha, 664 Balxning ob bo'zi, 30 azam zandanasi, 200 o'ram bo'z, 70 chit keltirildi"². Bunday misollar ko'rilayotgan davr manbalarida ko'plab uchraydi. Jumladan, Xiva hukmdori Xojimxon tomonidan Rus podshosiga yuborilgan sovg'alar bilan bir qatorda, 1585 yilda u tomonidan sotish uchun jo'natilgan mollar, xususan, "turli rangdagi 200 doka, 200 malla, 200 qizil zandana, 2000 turli rangdagi zandana, 10 kal bo'yoq" eslatib o'tiladi.

XVI-XIX asrning o'rtalarida ham, oldingi davrlarda bo'lgani kabi, ko'plab davlat amaldorlarining shaharlar savdo-iqtisodiy hayotida faol qatnashuvi ko'zga tashlanadi XIX asrning 20-yillarida Buxoroda bo'lganlardan biri bu yerda savdo faoliyati bilan "ayniqsa davlat amaldorlari" keng shug'ullanganliklarini ko'rsatib o'tadi. Ko'p hollarda ularning bu faoliyati shaharlar va davlatlar chegarasidan chiqar edi. Bunday amaldorlardai biri qushbegi edi. Xonlikning bosh vaziri bo'lgan bu shaxs, ichki savdodagi ishtirokidani tashqari, xalqaro savdoda ham faol qatnashgan.

¹ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. XVI-XIX асрнинг ўрталарида. 2017. 1736.

² Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. XVI-XIX асрнинг ўрталарида. 2017. 1736.

² Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. XVI-XIX асрнинг ўрталарида. 2017. 1736.

Uning rahnamoligida ayrim savdogarlar uzoq mamlakatlarga yo'l olgan karvonlarga boshliq etib tayinlanganlar. Buning evaziga esa ular Qushbegining ayrim topshiriqlarini bajarishlari lozim edi. XIX asrning birinchi yarmiga oid manbada Buxorodan oxirgi karvonni olib kelgan Rahimboy ismli karvonboshi haqida habar beriladi. Asar muallifining so'zlariga ko'ra, u bu yil Rossiya qolishga majbur bo'lgan. Qushbegiga tegishli shol ro'mollarning narhi Nijniy Novgorodda pastligi bois, ularni sotish uchun u Moskvaga jo'nagan. "Ularni foydasiga sotmasdan oldin Buxoroga qaytishdan Rahimboy qo'rqr edi"³, - deb qayd etadi ushbu muallif. Shuningdek, u "karvon egasi" Niyoz Muhammad haqida yozib: "Qalbsiz, hudbin va qahrli bu qariya (u 65 yoshdan katta) hamma tomonidan ta'qib qilinardi. O'z o'mini u qushbegining qo'llab-quvvatlashi orqali egallagan bo'lib, Niyoz Muhammad bilan kurashmoqchi bo'lganning og'zi birinchi ministr oldidagi qo'rquv sababli yopilib qolar edi"⁴, - deb ta'kidlagan.

Savdo, ayniqsa, tashqi savdo bilan xonlikdagi ko'plab boshqa amaldorlar ham faol shug'ullanganlar. Shunday shaxslardan biri, XIX asrning 30-yillariga oid ma'lumotlarga ko'ra, qirq yoshlar atrofidagi "qushbegining singlisiga uylanib, qarindosh bo'lganligidan mag'rurlanib ketgan" "Gadigarbek" - Yodgorbek edi. Uning savdodagi, xususan, tashqi savdodagi faoliyati haqida shu davr muallifi quyidagilarni qayd qiladi: "Gadigarbek savdo bilan shug'ullanar, mollarini Rossiya va Turkistonning turli burchaklariga yetkazuvchi prikazchiklariga ega edi".

Hukmron sulola vakillari savdo bilan shug'ullanish jarayonida, ko'p hollarda yirik savdogarlarning moliyaviy ko'magiga tayanar edilar. Boy savdogarlarning bu turdagi ko'magi mamlakatda kuzatilgan iqtisodiy turg'unlik va inqiroz yillarida ayniqsa faollashar edi. Shunday hollardan biri haqida XVI asr muallifi Xasanxoja Nisoriy habar berib, quyidagilarni qayd etadi: "Xusayn Alouddin Buxoroning e'tiborli savdogarlaridir. Savdo-sotiq ishlari bo'yicha sultonlar bilan ham muomalalar qilgan". Bu ma'lumotning diqqatga sazovor tomoni shundaki, uning "ming tanga mablag'i xonlik bilan oldi-sotdi ishlarida" Ubaydullaxon tomonida qolib ketgan edi.

Hukmron sulola va yuqori tabaqa vakillarining shahar iqtisodidagi o'rni ularning savdodagi faoliyati bilangina chegaralanmas edi. Ular katta daromad keltiruvchi manbalar - ichki va tashqi savdodan soliqlar - zakot va boj undirish huquqini ijaraga olar, yirik hududlarni egallagan yer uchastkalari bilan birgalikda ko'plab savdo-hunarmandchilik inshootlari, karvonsaroylar, bozorlar va boshqalarga egalik qilar edilar. Shu munosabat bilan **P.I.Demezov** va **I.V.Vitkevichlar** tomonidan qoldirilgan Buxoro karvon-saroylariga oid quyidagi ma'lumot diqqatga sazovordir. Ularning ko'rsatishicha, XIX asrning 30-yillarida shahardagi boshqa karvonsaroylar bilan bir qatorda Amirga tegishli - "Yangi Amir saroyi" va "Eski Amir saroyi" mavjud bo'lgan. Ularning dastlabkisi, "Devonbegi hovuzi yonida joylashgan bo'lib, u yerdan faqat qorako'l terilarini topish mumkin bo'lgan, Amirming Eski saroyi esa Buxoro savdogarlarining paxta saqlaydigan omborxonasi vazifasini o'tagan, xolos"¹.

³ Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560 гг. // Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. / Пер. с англ. Ю.В. Готье. М., 1938. С. 182.

⁴ Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560 гг. // Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. / Пер. с англ. Ю.В. Готье. М., 1938. С. 416.

¹ Бартольд В.В. Бухара. Соч. Т. 3. М., 1965. С. 389.

Amaldorlar, ko'plab yuqori tabaqa vakillari va aslzodalar shaharlardagi boshqa savdo-iqtisodiy inshootlariga egalik qilganlar. Bu o'rinda Xoja Muhammad Islom Juyboriy tomonidan Buxorodagi ko'ylak sotuvchilar timida joylashgan do'konning sotib olinishi munosabati bilan XVI asrda tuzilgan hujjat diqqatga sazovordir. Unda XVI asr boshlaridagi mashhur tarixiy shaxslar - Buxoro hukmdori Boqi tarxon va Ubaydullaxonning yaqin amirlaridan biri Latif Mirekning nomi keltiriladi. Hujjatda, hususan, "Latif Mirek karvonsaroyi" va "Amir Abd-al-Ali Tarxon o'g'li amir Boqi tarxon o'limidan keyin qolgan do'kon-xona"² - eslatib o'tiladi.

Keyingi yuz yilliklar mobaynida ham ko'plab amaldor va aslzoda shaxslar yirik savdo-iqtisodiy inshootlariga egalik qilganlar³. Hususan, XIX asrning birinchi yarmida Buxoro karvonsaroylari ichida amirga yaqin shaxslar - Rajabbek devonbegi va u yerdagi "alohida xonada ko'p vaqtini o'tkazuvchi" qushbegi karvonsaroylari eslatib o'tiladi. Bundan tashqari, bu shaxslar shaxar savdo-iqtisodiy hayotining boshqa jabhalarida ham faol ishtirok etganlar. Jumladan, qushbegi Buxoro yaqinidagi Qatag'omda joylashgan bojxonaga ijaradorlik asosida egalik qilgan. Guvohlardan birining ko'rsatishicha, "Bu yerda qushbegining soliq yig'iladigan uyi - bojxona bordir. Bu yerda, Qatag'omning o'zida, qushbegining o'zi... soliq yig'ish huquqini ijaraga olgan, aytishlaricha, xonga 80 ming buxoro chervoni to'laydi". Bunday holatni Xiva xonligi shaharlari misolida ham kuzatish mumkin. Hususan, daryolar yaqinida joylashgan shaharlardagi kechuvlardan o'tgan savdo karvonlari va kemalardan turli soliqlarni undirish huquqi ham hususiy shaxslarga "ijaraga berilgan" edi.

Shahar aholisining ajralmas qismini - ruhoniylar tashkil etar edi. Ular jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynaganlar. Ayrim hukmdorlar ularga pir sifatida qaraganlar va ularning ko'nglini olishga harakat qilganlar. XVI asr muallifining qayd etishicha, shayboniy hukmdorlardan biri - Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon "darvishlar muhlisi bo'lib, ularga zo'r e'tiqod qo'ygan edi. Sidq bilan iroda qaydida yetuk ustod shayx Jalolga murid ham edi". Shunday shaxslardan yana biri, XVI asr boshlarida Zayniddin Vosifiyning ko'rsatishicha, Shamsiddin Muhammad Xurosoniy bo'lib, Navro'z Axmadxon tomonidan unga Toshkent viloyatidagi "feruza temir va boshqalar qazib olinayotgan konlardan tashqari" barcha konlar suyurg'ol etib berilgan edi. Shuningdek, bu sayidga viloyatdagi barcha ishlanmagan yerlar ham taqdim etilgan edi¹.

Nafaqat yuqori tabaqa vakillari orasida, balki shahar ahlining boshqa ijtimoiy qatlamlari orasida ham ruhoniylarning muridlari ko'p edi. Ulardan biri, XVIII asr muarrixining yozishicha, So'fi Dehqon bo'lib, uning murid va izdoshlari shaharlarda ko'p edi. Ular ichida Buxoro hunarmandlarining katta qismi ham bo'lib, shayx ko'pincha "shahar va bozorni o'z muridlari va izdoshlari hamrohligida" aylanib o'tar edi².

² Иванов И.И. Хозяйство джуйбарских шейхов. Док. №264. С. 247.

³ Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560 гг.//Английские путешественники в Московском государстве в XVI в./ Пер. с англ. Ю.В. Готье. М., 1938. С. 415.

¹ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари XVI-XIX асрнинг ўрталарида. 2017. 177б.

² Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. XVI-XIX асрнинг ўрталарида. 2017. 178б.

Ular shaharlardagi katta ko'chmas mulk egalari ham edilar. Buni XVI-XVIII asr Buxoro xonligida mavqei nihoyatda kuchli bo'lgan Jo'ybor shayxlari misolida ham kuzatish mumkin. Nufuzi juda yuqori bo'lgan bu shayxlarning ko'plab ko'chmas mulk turlari - yer maydonlari, hovli-joylar, karvon-saroylar, bozorlar, timlar, toqlar, savdo rastalari, do'konlar, tegirmonlar va h.k. sotib olib egalik qilganliklarini XVI-XVII asrga oid hujjatlarda takroran kuzatish mumkin. Jumladan, yirik Jo'ybor shayxlaridan biri bo'lgan Xoja Islom 1544-1563 yillar mobaynida kambag'allashib qolgan mulk egalariidan jami 104 ta do'kon va hunarmandchilik ustaxonasini sotib olgan³. Uning vorisi - Xoja Sa'd davrida ham Jo'ybor shayxlarining savdo-iqtisodiy siyosatidan bu yo'nalish davom ettirildi. Shu bilan birga Jo'ybor shayxlari yangi savdo-iqtisodiy inshootlari qurilishi bilan ham shug'ullanganlar. Ular tomonidan ko'plab do'konlar, savdo rastalari, usti yopiq bozorlar, karvonsaroylar, hammomlar barpo etilgan⁴.

Buxoroda Jo'ybor shayxlari bilan birgalikda ruhoniylarning boshqa vakillari ham ayrim ko'chmas mulk turlariga egalik qilganlar. XVI asrga oid hujjatlarning birida "muftiylarning eng a'losi Mavlono Muhammad Amin do'koni" kabi ta'riflar ham uchraydi.

Xalqaro savdoda ham ruhoniylarning yirik vakillari faol ishtirok etganlar. Ular uzoq o'lkalarga katta karvonlarni ham jo'natar edilar. Hususan, Jo'ybor shayxi Xoja Sa'dning savdo karvonlari xatto Moskvaga ham qatnagan. 1620-1621 yillarda Buxoro xonligida bo'lgan Ivan Xoxlovning vataniga qaytishida unga "Abiz" (Hafiz) ismli Jo'ybor shayxlaridan Xasan xojaning elchisi xamrox bo'lganligi eslatib o'tuladi.

Ruhoniylarining ayrim vakillari xalqaro savdoda bevosita ishtirok etib, savdo karvonlarini boshqa yurtlarga boshlab borganlar. Jumladan, 1633 yilda Imomqulixon tomonidan Kamoliddin Xoja Otaquliga berilgan yorliqda quyidagilar qayd etilgan edi: "... ikki muqaddas shahar xojisi Kamoliddin Xoja Otaquli xalif uyi martabasiga teng uyning qullaridan biridir. ... u Xind va Iroq va Tara va Qozon va Moskva va boshqa mamlakatlarning qimmatbaho mollari va gazmollarini harakat qilib topib kelgan"². Savdoda ruhoniylarning ishtiroki haqida A.Byoms xam guvohlik beradi. Karvondagi choy savdosi bilan mashg'ul savdogarlardan biri bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishga muvaffaq bo'lgan ingliz ofitseri: "U xo'ja edi... shu bilan birga u savdogar va ruhoniyy edi"³, - deb qayd etadi.

Ruhoniylar ko'p hollarda uzoq yurtlarga karvonlar bilan birga borar ekanlar, ularning turli yurtlardan eson-omon o'tib olishlariga baholi qudrat hissa qo'shganlar. Shunday holatlardan biri haqida Antoni Jenkinson habar beradi. Uning yozishicha, ularning karvoniga nisbatan tajovuzkorlik harakatlari vujudga kelganida karvondagi ruhoniyy "tatar Azi" yordamga kelib, yo'l-tusarlar bilan muzokaralar olib borgan⁴.

³ Бартольд В.В. Бухара // Соч. Т. 3. М., 1965. С. 94.

⁴ Заметки о Хивинском ханстве, записанные со слов Мат-Мурата, бывшего диван-беги ханства в 1873 г. // Спб. вед. 1874. №115. С. 63

² Агзамова Г. Ўзбекистон шахарлари. XVI-XIX асрнинг ўрталарида. 2017. 1776.

³ Агзамова Г. Ўзбекистон шахарлари. XVI-XIX асрнинг ўрталарида. 2017. 1796.

⁴ Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. Спб.: Тип. Акад. Наук. 1843. С. 105.

A.Vamperi esa, ular karvonidagi ruhoniylar namoz paytida oldinga chiqib, imomlik qilgani va karvon a'zolari namoz o'qiganligini eslatib o'tadi⁵.

Yuqori tabaqa vakillarining ijtimoiy tabaqalanishi ularning shaharlarda joylashishida ham o'z aksini topgan. Oliy tabaqa vakillari va hukmron doiraga mansub shaxslarning uylari, odatda, shaharlarning markaziy qismida joylashar edi. Ba'zan yuqori tabaqa va hukmron doira vakillarining ayrim yerlarda yashashi shaharlarning bu qismidagi joy nomida ham o'z aksini topar edi. Toshkentdagi Devonbegi, Qozi ko'cha, Xo'ja ko'cha, Rais ko'cha, Boy ko'cha, Xoji mahalla va boshqalar shular jumlasidandir⁶.

Aholining katta qismini savdogarlar tashkil etar edi. Ularning shahar hayoti va iqtisodiyotidagi o'rni beqiyos edi. Ular nafaqat yirik shaharlar, balki biroz kichikroq markazlarda ham aholining katta qismini tashkil etar edi.

Savdogarlar jamiyatdagi mavqei, moddiy imkoniyatlariga ko'ra bir necha guruhlariga bo'linar edilar. Bu holat savdo ahli orasida ham o'ziga xos ichki ijtimoiy tabaqalanishni namoyon etuvchi ko'rsatkich edi. Shahar savdo ahlini bir necha toifaga bo'lish mumkin. Birinchi toifani tujjorlar tashkil etib, ular asosan karvon savdosi bilan shug'ullanganlar⁷. Alisher Navoiy bu savdogarlar o'z hunarlari orqasida turli mamlakatlar va shaharlar haqida tushunchaga ega bo'lib, ular haqida so'zlab bera olishlarini alohida ta'kidlab o'tgan edi.

Shahar savdo ahli orasida ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi boy savdogarlar ham bo'lib, ularni "savdogarlar" deb ataganlar. Bu toifadagi savdogarlar, odatda, katta shaharlarda yashaganlar. Masalan, XIX asr muallifining ko'rsatishicha, Xiva xonligining Yangi Urganch shahrida "xonlikning Rossiya, Eron va Buxoro bilan ulgurji savdo olib boruvchi boy savdogarlari" yashagan⁸. Boy savdogarlar chakana savdo bilan shug'ullanmaganlar. Ular shahar karvon-saroylarida mollarini saqlaganlar va ularni katta qismlarda sotganlar⁹.

Yirik savdogarlar ayrim hollarda hukmron tabaqa vakillariga qarz berib, ularni pul bilan ta'minlab turganlar. Bu holat, ayniqsa, mamlakatda o'zaro qarama-qarshilik avj olgan yillarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Urushlar va hokimiyat uchun kurashlar qizigan paytlarda ayrim hukmdorlar markaziy hokimiyatni tiklashdan manfaatdor bo'lgan savdo ahlining moliyaviy yordamiga tayangan. Shunday hollardan biri haqida XVII asr muallifi Malexo habar beradi. Uning yozishicha, "hazina bo'shab qolgan edi va Subhonqulixon o'z qo'shinini ta'minlash uchun savdogarlardan qarz olishga majbur" bo'lgan³.

XVIII asr muallifi Mir Muxammad Amin Buhoriyning quyidagi guvohligi ham hukmron sulola vakillari tomonidan boy shaxslar va savdogarlardan qarzga pul olinganligini ko'rsatuvchi dalildir: "Osmono'par saroyning moliya amaldorlari shaharning boy kishilari va savdo ahlidan hazinaning kerakli va keraksiz sarf-harajatlari uchun qarzga ko'p pul" olganliklarini eslatib o'tadi, u⁴. Bu va shunga

⁵ Мухоминова Р.Г. Социальная дифференциация населения городов Узбекистана (конец XV-XVI в.). Т.: Фан, 1985. С. 38.

⁶ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Наука, 1975. С. 90.

⁷ Костенко Л. Город Хива в 1873 г. С. 333; Давилевский Г.И. Описание Хивинского ханства. С. 103.

⁸ Гребенкин А.Д. Таджики. С. 26.

⁹ Карант: Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература. С. 177

⁴ Мир Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдуллонаме. С. 156.

o'xshash holatlar Xiva va Qo'qon xonliklarida ham tez-tez sodir bo'lib turar edi. Bunday holat ko'pincha ayrim savdogarlar tomonidan turli ehtiyoj choralari qo'llanishiga olib kelar edi. Savdogarlar o'z boyliklarining hajmini sir tutar edilar. F.Beneveni. XVIII asrning 20-yillarida Buxoro xonligida siyosiy, iqtisodiy hayotdagi tartibsizlik avj olgan bir paytda bo'lib, quyidagilarni qayd etgan edi: "Bu yerda biror joydan kelgan savdogar o'z molini darrov sota olmaydi. Chunki bu yerda uni sotib oluvchi boy kishi yo'q.

Faqatgina olib sotarlar uni qarzga oladilar va faqat sotganlaridan so'nggina qarzni to'laydilar. Puldor odam topilsada, qo'rkuvdan... o'zini bildirmaydi". Rus elchisi tomonidan ko'rsatib o'tilgan bu holat keyingi asrda ham davom etdi. XIX asrning ikkinchi yarmida shunday yozilgan edi: "O'rta Osiyoda katta kapitallar va boy savdogarlar yo'q. Savdo ko'p hollarda qarzga amalga oshiriladi. Mol yirik savdogarlardan kichik partiyalarda qarzga olinadi", - deb yozilgan edi. Yirik savdogarlarning o'z sarmoyalarini yashirishga majbur etgan sabablar haqida XIX asr muallifi L.Kostenko, jumladan, quyidagilarni qayd etgan edi: "Xonga pul kerak bo'lib qolsa, u sarmoyasi bor deb gumon qilingan biror-bir savdogar yoki amaldorning oldiga boradi. Ba'zan esa savdogarlardan soliq to'plash buyuriladi. Urush oldidan esa turli takalluflar chetga surilib, boy kishilarga o'z hisoblaridan ma'lum sonli lashkarni qurollantirish va jang maydoniga yuborish buyuriladi. Shu boisdan, - deb davom etadi bu muallif, - o'zgina bo'lsada sarmoya to'plashga ulgurgan shaxsning o'z mablag'ini yashirishi, kambag'al bo'lib ko'rinishga urinishi tushunarlidir"¹.

Albatta, ushbu fikmi mutlaqo to'g'ri fikr sifatida qabul qilmaslik lozim. Bu muallif o'zga yurtlik kishi sifatida "boy savdogarlar" tushunchasi ostida Rossiyada mavjud boshqa toifadagi savdogarlarni nazarda tutgan. Shubhasiz, Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari shaharlarida Sharq tijorat dunyosida shakllangan an'ana va tajribaga ega yirik savdogarlar mavjud edi. Ular o'z sarmoyalari bilan ichki va tashqi savdoda faol ishtirok etganlar. XIX asrning birinchi yarmida ularning ulguri savdodagi roli ancha o'sdi. O'zlarining ko'plab yordamchilari orqali ular boshqa shaharlar va qishloqlardan paxta, qorako'l terilari, ipak va boshqalarni yetishtiruvchilardan bevosita sotib olganlar. XIX asrning 30-yillariga oid manba mullifining guvohlik berishicha, savdo ahlining bu toifasi ma'lum bozor kunlarida qishloqma-qishloq yurib, turli-tuman xomashyo xillarini sotib olganlar. Bu mol ular tomonidan shaharlardagi maxsus joylarga to'plangan. Shu yerda ushbu xomashyoning keyingi oldi- sotdisi amalga oshirilgan. Bunday yerlardan biri Buxorodagi "Paxta" karvonsaroyi bo'lib, bu haqida I V. Vitkevich shunday yozadi: "Paxta saroy - paxta olib kelib qo'yiladigan joy... Qishloqlardan bu molni qishloqliklarning o'zlari emas, bozor kunlari qishloqlarga borgan olib-sotarlar sotib oladilar va bu yerga to'kadilar"².

Shaharlarda savdo ishlari bilan bu yerlarga kelib qolgan o'zga yurtliklar - hindlar, afg'onlar, ruslar, tatarlar va boshqalarni uchratish mumkin edi. Buxoro haqida yozgan ruhoniylar Budrin "Hammasi deyarli savdogar bo'lgan o'z aholisidan

¹ Костенко Л. Среднеазиатская торговля / Туркестанские ведомости. № 5 1871.

² Записки о Бухарском ханстве. С. 101.

tashqari bu yerda qo'shni davlatlardan kelgan savdogarlar juda ko'pdir. Bozorlarda, rastalarda va ko'chalarda doimo, ayniqsa ertalablari juda tiqilinch bo'ladi", - deb qayd etgan edi.

1840 yilda inglizlar Abbot va Shekspirlarni Dirotidan Xivaga kuzatib kelgan afg'on Mirzo Abdu Samad Mamed Aliyev, bozorda turli narsalarni sotayotgan "Yurtdoshlarimni, xirotliliklarni ko'rdim", - deb guvohlik beradi. Xorijlik yirik savdogarlar xonliklar shaharlarida o'z ish boshqaruvchilariga ega edilar. Shunday shaxslardan biri haqida sibirlik kazaklar Milyushin va Batarishkinlar habar beradilar. Ularning ma'lumotiga ko'ra. Toshkentda rus savdogari Zubovning ish boshqaruvchisi Semen Klyucharev bo'lib, u bu yerda "Semenboy" nomi ostida mashhur va hurmat qozongan" edi¹.

Ayrim yirik savdogarlarning boshqa shaharlarda ham uy-joylari bo'lgan. Shundaylardan biri haqida Mir Izzatulla xabar beradi. U Buxoroga kelgach, men "toshkentlik savdogar Qorabosh boynikida to'xtadim, - deb yozar ekan, - uning ukasi Shox Muhammad boy bilan Qoshg'arda tanishgan edim"², - deb qayd etadi.

Shaxarlarda istiqomat qilgan savdo ahlining katta qismini ma'lum bir turdagi mahsulot va xomashyo xilini sotishga ixtisoslashgan shaxslar tashkil etgan. Odatda bunday shaxslar ismiga "furush" qo'shimchasi qo'shib aytilar edi. Jumladan, XVI asrga oid Buxoro hujjatlarida savdo bilan shug'ullangan shaxslar- Mir Belfurush, Xo'ja Pir Abrishumfurush, Mavlono Qurbon Kafshfurush, Mavlono Sulton Ali Qog'azfurush, Xusayn Chubfurush, Muhammad quli Safidfurush va boshqalarning nomlari eslatib o'tiladi³.

Savdo munosabatlarining rivojlanib borishi oqibatida savdogarlar orasida ayrim turdagi mollarning ulgurji savdosi bilan shug'ullanishni o'ziga kasb qilib olgan shaxslar ham paydo bo'lganlar. Ular jumlasiga Buxoro va Qo'qon xonligi shaharlarida XIX asrda matolar va to'quv xomashyolari bilan shug'ullanuvchi - kamissiyonlar, metall buyumlar bilan ulgurji savdoni amalga oshiruvchi - fuzulotfurushlar, poyafzal va kulolchilik mahsulotlarining ulgurji savdosini amalga oshiruvchi - vofurushlarni kiritish mumkin⁴.

Shahar savdo ahlining ajralmas qismlaridan biri tarxonlar bo'lib, ular turli davlat soliqlaridan ozod etilgan va bir qancha imtiyozlarga ega shaxslar edi. Tarxon yorlig'ini oliy hukmdor tomonidan berilishi savdogarga turli imtiyozlardan foydalanish huquqini berar edi. R.G.Mukminovanning ko'rsatishicha, bunday savdogarlar shaharlarda unchalik ko'p bo'lmaz edi⁵.

XIX asr ma'lumotlariga ko'ra, shaharlarda o'z do'koniga ega mustaqil savdo qilgan - do'kondorlar, ancha boyroq savdogarlarning do'konini ijaraga olib faoliyat ko'rsatgan - do'konnishinlar, kundalik ehtiyojni qondirishga qaratilgan mollarni sotuvchilar - baqqollar, narsalarni qo'lda ko'tarib yurib sotuvchi - ko'tarmachilar ham mavjud edi.

¹ Показания сибирских казаков Милошина и Батарышкина. С. 28.

² Путешествие Мир Иззет Уллы. С. 198.

³ Иванов И.И. Хозяйство джуйбарских шейхов. Док. № 3, 5, 10, 30, 65, 75. С. 92, 94, 98, 111, 131, 139

⁴ Турсунов Н.О. Развитие городских и сельских поселений северного Таджикистана. С. 126

⁵ Мукминова Р.Г. Социальная дифференциация населения. С. 115.

XIX asrning birinchi yarmida xonliklar savdo ahlining bir qismini ma'lum bozor kunlarida shahar atroflaridagi qishloqlar va mayda shaharlarni aylanib yuradigan shaxslar tashkil qilgan. Ular qishloq bozorlarida ayrim mahsulotlar va xomashyo xillarini naqd pulga yoki mol ayirboshlash yo'li bilan sotib olar edilar. Bu mahsulotlarni ular shahar bozorlarida sotar edilar. Ma'lum hajmdagi sarmoya to'plaganlaridan so'ng esa ular biror-bir do'konni sotib olar yoki ijaraga olar edilar. Endi ular yangi maqom - "jallolsattorosh"ga ega bo'lib, shahardagi boy savdogarlarning mollari nasiyaga olib-sotar edilar¹. Xiva xonligida "jarchilar" deb atalgan savdogarlar ham mavjud bo'lib, odatda, bozor kunlaridan tashqari shaharlar va qishloqlarda ip, igna, arzon bo'yoqlar, taroqlar va x.k. ko'tarib yurib, ular bilan savdo qilganlar². Qo'qon xonligi shaharlarida ham bunday savdogarlar mavjud bo'lib, ular "sotuqchi" deb atalgan va o'zlarining mayda-chuyda mollari hurjun hamda eshaklarga ortib, qishloqma-qishloq olib yurganlar³.

Shahar savdo ahlida dallollarning o'mi o'zgacha edi. "Osiyo bozorida dallol ancha muhim rol o'ynaydi. Har bir bozorda ular juda ko'p edi", - deb yozgan edi XIX asr muallifi⁴. Ruhoniy Budrin esa "Turli narsalar va mollarni sotib olishda doimo dallollar vositachilik qiladilar... Buxoroda ular juda ko'pdir va har qanday narsani, nafaqat qimmatbaho, balki mayda narsalarni ham ularsiz sotib olib bo'lmaydi"⁵, - deb yozgan edi.

Dallollarning shahar bozorlarida amalga oshiriladigan savdo jarayonlaridagi roli beqiyos edi. Ayniqsa, ular shaharlarda amalga oshirilgan chakana savdoda faol ishtirok etganlar. Xususan, ularni chorva mollari oldi-sotdisida doimo uchratish mumkin edi. Samarqandga oid ma'lumotlarning tasdiqlashicha, XIX asrda ular pilla oldi-sotdisida ham faol qatnashganlar. Dallollar haridor va sotuvchini sotilayotgan mol narhida o'zaro kelishtirishga harakat qilganlar va bu ish uchun ma'lum miqdorda haq olganlar⁶.

Shahar bozorlarida amalga oshirilgan nafaqat chakana savdo, balki ulgurji savdoda ham dallollar faol qatnashib, haridorni sotuvchi bilan bog'lovchilik rolini o'ynaganlar⁷. Buni Toshkentga oid quyidagi ma'lumot ham tasdiqlaydi. Unga ko'ra shahardagi "har bir karvonsaroyda o'zining imtiyozli dalloli bo'lib, u karvonboshi bilan yaqin bo'lgan holda u yerda yashovchi har bir savdogar oldiga kira olar edi".

Savdo ahli jumlasiga sarroflar ham kirar edi. Ularning shahar hayotidagi roli juda katta edi. Chunki turli mamlakatlardan savdogarlar kelib to'xtaydigan savdo-iqtisodiy markazlar bo'lgan shaharlarda turli pul birliklarini uchratish mumkin edi. Aynan mana shu pul birliklarini almashtirib berish bilan sarroflar shug'ullanganlar. Sarroflarning moddiy jihatdan kuchli bo'lganligi va shahar hayotida muhim o'rin tutganliklarini Buxoroga oid ma'lumotlar orqali yaqqol kuzatish mumkin. So'nggi

¹ Гребенкин А.Д. Таджики. С. 25.

² Иванов П.П. Архив хивинских ханов. Док. № 76. С. 139; Сазонова М.В.

Традиционное хозяйство узбеков Южного Хорезма. С. 91.

³ Наливкин В., Наливкин В.А. Очерк быта женщин оседлого туземного населения Ферганы. С. 30.

⁴ Тетеревников А.Н. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. С. 122.

⁵ Русские в Бухаре в 1820 году (Записки очевидца). С. 27.

⁶ Гребенкин А.Д. Таджики. С. 27.

⁷ Тетеревников А.Н. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. С. 22.

o'rta asrlar Sharqining eng yirik va taraqqiy etgan savdo markazi bo'lgan Buxoroda sarroflar juda ko'p bo'lib, ular shahar iqtisodida muhim o'rin tutganlar. Xususan, XVI asrga oid hujjatlardan ayon bo'ladiki, shaharda Sarroflar karvon-saroyi, Sarroflar ko'prigi - Puli Sarrofon, Sarroflar masjidi ko'chasi va Sarroflar hammomi mavjud bo'lib, ular tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, shaharning Toqi Zargarondan uzoq bo'lmagan qismida jamlangan edi. Bu yerda Sarroflarning kvartali ham mavjud bo'lib, ularning o'zlari bu yerda yashaganlar¹.

Sarroflarning keyingi davrda ham shaharlar hayotida muhim o'rin tutganligini boshqa ma'lumotlardan kuzatish mumkin. P.I. Demezoning ko'rsatishicha, Buxoroda XIX asrning birinchi yarmida "Chorsui Sarrofon" mavjud bo'lgan². Boshqa muallif I.V. Vitkevichning ko'rsatishicha esa, bu yerda savdo ham amalga oshirilgan. XIX asrning birinchi yarmidagi ma'lumotlarga ko'ra, bu yerda pul almashtirib berish bilan shug'ullangan va asosan sudxo'rlik qilgan hindlar o'tirar edilar. Sarroflar boshqa shaharlarda ham bo'lganlar. Xususan, Toshkentda XIX asrda A. Xoroshxinning ko'rsatishicha, sarroflarning 4 do'koni bo'lgan.

Shahar aholisining katta qismini asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bo'lgan hunarmandlar tashkil kilar edi. Ular shahar hayotida muhim o'rin tutganlar. Hunarmandlar tomonidan turli-tuman mahsulotlar-kundalik turmushda ishlatiladigan ikir-chikirlardan tortib inij qurilish materiallari, qimmatbaho metallar, qimmatbaho mahsulotlar va uzoq yurtlarga olib ketiladigan mollargacha ishlab chiqarilar edi.

Hunarmandlarning nafaqat ishlab chiqarishda, balki jamiyat hayotidagi o'rni ham beqiyos edi. Ularning faoliyatiga doimo ehtiyoj katta bo'lgan. Hunarmandlar xatto harbiy harakatlar vaqtida turli hukmdorlarning yurishlarida ham qatnashganlar. 1858 yilda Buxorodagi asirlikdan qaytgan Ivan Marchenkov "bu yilgi yurishlarga... Buxorodan nonvoylar, qassoblar va boshqalar ham jalb etildi. Ular qo'shin bilan yurib, unga turli-tuman mahsulotlarni yetkazib berdilar"³ - deb guvohlik bergan edi.

Shaharlarning madaniy hayotida ham hunarmandlar faol ishtirok etganlar. Xususan, ular turli harbiy g'alabalar, hukmdorlarning taxtga o'tkazish munosabati bilan tashkil etilgan tantanalarda ishtirok etib, o'z mahoratlarini namoish qilganlar. Mir Muhammad Amin Buxoriy Ubaydullaxonning Buxoro taxtiga o'tirishi munosabati bilan tashkil etilgan bayramda "Hunarmandlarning hammasi o'zining mahorati va didiga ko'ra turli mahsulotlar va yangi narsalar yaratib, oliy dargohga olib keldilar", - deb ko'rsatib o'tadi.

Hunarmandlar ichidagi mulkiy tabaqalanish haqida so'z borar ekan, ular orasidan bir qancha guruhlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Qayd etib o'tish lozimki, shaharlarda yashagan hunarmandlarning asosiy qismini mayda ishlab chiqaruvchilar tashkil etgan. Ko'pincha, ular turli mahsulotlarni o'z uyida ishlab chiqarar edilar. Buni ayniqsa to'qimachilik sohasida yaqqol kuzatish mumkin. XIX asrning 40-yillarida Xiva haqida yozgan M. Ivanin "Xivaliklarning har biri o'z uyida, yakka holda paxta, ipak va boshqalarni faqat o'zi uchun va mayda sotuv uchun" ishlaganliklarini ko'rsatib o'tadi¹. Bunga qo'shimcha ravishda, Urganchning

¹ Мухоминова Р.Г. Социальная дифференциация населения городов. С. 119-120

² Записки о Бухарском ханстве. С. 58

³ Мир Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдуллонамас. С. 195.

¹ Иванин М. Хива и река Амударья. С. 60

“...deyarli har bir uyda hunarmandchilik ustaxonasini yoki qandaydir zavodni topish mumkin”², - deb yozgan edi A.Kun. 1830 yilda Qo‘qon haqida yozgan Potanin esa “Ipak va ip gazlamalarni bu yerda uylarda tayyorlaydilar”³, - deb qayd etgan edi. Bunday holatni Toshkent misolida ham kuzatish mumkin. Bu markaz va uning viloyatida “deyarli har bir uyda ip va yarim ipak gazlamalar ishlab chiqarishni ko‘rish mumkin”⁴, - deb yozgan edi. A.N.Teterevnikov. Bunday hunarmandlar, odatda, o‘z mahsulotlarini olib-sotarlariga sotar edilar. Shu bilan birga shaharlarda mulkiy, jihatdan ancha baquvvat tukuvchi-hunarmandlar ham bor bo‘lib, ular o‘z ustaxonalariga ega edilar. Ba’zi hollarda bunday ayrim ustaxona egalari ularni kam ta’minlangan hunarmandlarga ijaraga berar edilar ham. Hunarmandlar o‘rtasidagi mulkiy tabaqalanish yana shunda ko‘rinadiki, ayrim o‘o‘ziga to‘q hunarmandlar ancha kambag‘al hunarmandlardan ular yasagan mollarni sotib olib, uni shahar bozorlaridagi o‘z do‘konlarida sotganlar. Bu holda ular ishlab chiqarishdan ancha uzilib qolar va asosan, olib-sotarlar vazifasini o‘tar edilar. Ular jumlasiga Samarqandda egarlarni yalpisiga sotib olib, ularni o‘z do‘konlarida sotgan hunarmandlarni kiritish mumkin⁵.

O‘z mahsulotlarini yaratishda hunarmandlar, asosan, oila a’zolarining mehnatidan keng foydalanganlar.

Hunarmandlarning markaziy figuralaridan biri ustod va shogird edi Ustodlar - o‘z hunarini mohir egallagan ustalar bo‘lib, ular o‘z ustaxonalariga ega shaxslar sifatida tadqiq etilayotgan davr manbalarida eslatib o‘tiladi. Ulardan biri Ustod Mahmud Xeymaduzning o‘g‘li Xasan Ali XVI asr hujjatlaridan birida Jo‘ybor shayxi Xoja Muhammad Islomga o‘ziga tegishli do‘konni sotgan shaxs sifatida gavydalanadi. Yuqori saviyali va o‘z hunarining sir-asrorlarini to‘laligicha egallagan ustalar ularni shogirdlariga o‘rgatganlar. Ma’lum miqdordagi haq evaziga ustod shogirdiga o‘z hunarini o‘rgatgan. Bu turdagi kelishuvlar, odatda, qozixonada tasdiklangan xujjatlarda o‘z aksini toptan. Shunday hujjatlardan biri 1589 yilda Samarqandda Ustod Jon Ali o‘g‘li Ustod Kuchak va unga shogird tushayotgan Qurbon o‘g‘li Tursun Muhammad o‘rtasida tuzilgan bo‘lib, unga ko‘ra shogird ustodga uch ming mis dinori berishini va “pulning ming dinoriga nomi zikr etilgan ustodni ijaraga oldimki, u ko‘rsatilgan davr mobaynida meni olacha to‘qish san’atiga o‘rgatsinki, bu soha ustalari o‘zining ijobiy bahosini bersinlar”, - deb habar qilar ekan, pulning qolgan qismini ustod shogirdining kiyim-kechagi va yeyish-ichishiga ishlatishi lozimligi ta’kidlanadi. Qayd etib o‘tish lozimki, shogirdlar turli ustalarning qo‘llariga tushishlari mumkin edi. Ba’zi nopok ustalar o‘z shogirdlarining hunar sirlarini o‘rganish va mahoratni egallash davrini sun’iy ravishda cho‘zib, ular mehnatidan foydalanib kelganlar.

Shogirdlar turli muddat davomida ustalar qo‘lida hunar o‘rganishlari mumkin edi. Hunar o‘rgatishdan oldin ustod shogirdiga din va urf-odatlardan saboq berishi lozim edi¹. Shogirdlikka turli yoshda berganlar. Jumladan, to‘quvchilik hunariga

² Кун А. Культура низовьев Аму-Дарьи. С. 250

³ Записки о Кокандском ханстве хорунжего Потанина. С. 282

⁴ Тетеревников А.Н. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. С. 38

⁵ Кирпичников Н.А. Краткий очерк некоторых туземных промыслов. С. 151

¹ Казийские документы XVI в. Док. № 34. С. 56

o'rgatish uchun o'g'il bolalarni, to'quvchilar risolasida yozilishicha, yetti yoshdan o'n yetti yoshgacha berganlar². Shogird, hunar o'rganish davri tugaganidan so'ng ustodining fотиhasini olishi, keyin "arvoh pir" rasmını, ya'ni hunar sohasidagi dustlarini mehmon qilib, o'z hunarlarining marhum pir va ustalarini eslashi, ustodlariga sovg'alar qilishi, so'ngra "belni bog'lash" kabi urf-odatlarini bajarishi lozim edi³. Bu hunarmandlar risolasida ko'zda tutilgan bo'o'lib, ular doimo hayotda o'z tasdig'ini topmas edi. Shogird mustaqil hunarmand sifatida ish boshlashi uchun bu sohaning yirik ustalari oldida imtihondan o'tishi lozim edi. Agar u imtihondan o'ta olmasa, uning ustozı shogird olish huquqidan mahrum etilar edi⁴.

Fotixa olgan shogirdlar ancha vaqtgacha halfa bo'lib, ustalar qo'lida ma'lum miqdordagi maosh evaziga ishlab kelganlar. YE.M. Pesherevaning XIX asr oxiri - XX asr boshlariga oid tadqiqotlari halfalar, odatda, kelgindi shogirdlardan iborat bo'lishini ko'rsatib, ular "korgar" deb atalganligini qayd etib o'tadi⁵. Qo'qon xonligida halfalar "nimkorlar" deb atalib, ular hunarmandlarga turli shartlar asosida yollanganlar. Ko'pincha, bu yollanish haftabay, bozordan-bozorgacha yoki oybay tarzda amalga oshirilgan⁶.

Ustodlar o'z hunarlarini birinchi navbatda oila a'zolari - farzandlari va ukalariga o'rgatishga harakat qilganlar. Hunar turlari shu tarifa avloddan-avlodga o'tib turgan. Buni XVI asrga oid Buxoro xujjatlaridan kuzatish mumkin. Ularda "Muhammad Darzining o'g'li Mast Ali Darzi", "Xo'ja Sayid Axmad kassob va uning nabirasi Mir Do'st kassob" kabilarning nomlarini keltirilishi ular egallagan hunar turlari avloddan-avlodga o'tib kelganligini ko'rsatadi.

Xunarmandlar o'z mutaxassisliklari va ishlab chiqarishning xarakteriga ko'ra ma'lum birlashmalar - sexlarga uyushganlar. Bunday uyushmalarining o'z boshliklari bo'lgan. Ular, odatda, ma'lum hunarmandchilik sohasi vakillarini birlashtirgan bo'lib, unga nafaqat shahar, balki uning atroflaridagi bu soha hunarmandlari ham bo'ysunganlar. Bu shaxslar oqsoqollar deb atalib, ular yoshi ulug', mohir usta - hunarmandlardan tayinlanar edi. Oqsoqollar zimmasiga yuklatilgan vazifalar xilma-xil edi. Ular sex ichidagi ishlab chiqarish bilan bog'liq masalalar, hususan, biror mahsulotni ishlab chiqarishga talab oshganida, uni sex a'zolari orasida to'g'ri taqsimlanishga, shuningdek, turli buyurtmalarni uz vaktida bajarilishiga aloxida e'tibor qaratganlar. Mahsulotlarning sifatini ham tekshirib borish ularning vazifalari doirasiga kirar edi. Ba'zan oqsoqollar savdogarlar va hunarmandlar o'rtasidagi dallol vazifasini ham o'taganlar. Oqsoqollarga turli kishilar xam iltimos bilan murojaat q ilganlar, Bunday hollardan biri - XVI asr boshlarida Samarqandda bir necha kun davomida sham sotib olish mumkin bo'lmaganligi uchun uni yuborishni so'rab shamchilar oqsoqoliga yuborilgan xat haqida Zayniddin Vosify habar beradi.

² Гаврилов М.Ф. О ремесленных цехах в Средней Азии и их статусах - рисоля // Известия Среднеазиатского музея. Г., 1928. Вып. 3. С. 227.

³ Гаврилов М.Ф. О ремесленных цехах в Средней Азии и их статусах - рисоля // Известия Среднеазиатского музея. Г., 1928. Вып. 3. С. 227.

⁴ Мухоминова Р.Г. Очерки по истории ремесла Самарканда и Бухары. С. 161.

⁵ Пешерева Е.М. О ремесленных организациях Средней Азии в конце XIX-начале XX в. // Краткие сообщения Института этнографии им. Миклухо-Маклая. М., 1960. Т. XXXIII. - С.

⁶ Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщин оседлого туземного населения Ферганы. С. 27.

Oqsoqollar, Buxoro xonligiga oid ma'lumotlardan kuzatilishicha, XVI asrda viloyat hokimi tomonidan tayinlangan. Ulardan biri - Shoxruhiyadagi tikuvchilar oqsoqolini tayinlash xususidagi buyruq haqidagi Zayniddin Vosifiyning habari diqqatga sazovordir. Bu o'rinda shuni qayd etmoq lozimki, aftidan, oqsoqollar ularni yaxshi bilgan hunarmandlar tomonidan saylangan va buni viloyat yoki shahar hokimi tasdiqlagan bo'lsa kerak. YE.M.Pesherevaning yozishicha, bir qator hunarmandchilik uyushmalarining oqsoqollari Buxoroning qozikalonidan oliy hukmdorning maxsus shahodatnomasini olganidan so'nggina rasmiy shaxs maqomini olganlar¹.

Aholining katta qismini harbiylar tashkil kilar edilar. Ular ko'p hollarda shahar hayotining turli sohalarida faoliyat ko'rsatishni ham davom ettirganlar. Masalan, Qo'qon xonligi shaharlarida harbiy xizmatga kirish ixtiyoriy bo'lib, uni tanlaganlar, tinchlik davrlarida qo'shni shahar va qishloqlardagi uylarida yashaganlar, turli ishlar hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar².

Xonliklardagi harbiylar soni turlicha edi. 1669-yilda Xivada bulgan Ivan Fedotyev, bu yerda 15000 harbiylar borligini ko'rsatib o'tadi. XVII asrning 20-yillarida Ivan Xoxlov esa, "Buxoro yerida harbiylar 10000, Urganchda esa 12000 atrofida to'planadi"³, deyidilar", - deb yozgan edi. Qo'qon xonligida XIX asr boshlarida bo'lgan F.Nazarov, aholining bir qismini doimiy askarlar tashkil etib, ularning soni Namanganda 1500 kishidan iborat bo'lganligi, Andijon qal'asida esa "10000 askar xotini" bilan yashaganligiga e'tibor qaratadi⁴.

XIX asrning 20-yillariga oid ma'lumotlarga ko'ra, "Buxoro xoni maosh to'lanadigan to'rt mingga yaqin gvardiyaga ega edi. Ularning ba'zilar maoshini pul bilan, boshqalari esa oziq-ovqatlar bilan olar edilar". Buxorodagi asirlikdan qaytgan Ivan Marchenkovning (1858) ko'rsatishicha, "Buxoroda sarbozlarning hammasi bir joyda - O'g'lon darvozasidan tashqaridagi uylarda oilalari bilan" yashagan edilar⁵.

Harbiylarning va harbiy ish bilan bog'lik aholining turli toifalari mavjud edi. Buni birgina Qo'qonga oid quyidagi ma'lumotlardan ham kuzatish mumkin. Jumladan, bu yerda nayzadorlar, merganlar, qilich bilan qurollangan - botirlar bor edi. Bu askarlar "oyiga bir tilla maosh olgan, harbiy yurishlar davrida esa ularga yana ot va qurol ham berganlar. Qo'qon harbiylari orasida ham ichki tabaqalanish mavjud bo'lib, unga ko'ra askarlar boshliqlari - **ponsad boshi** (besh yuz), **yuz boshi**, **panja boshi** (ellik) va **dah boshi** (o'nlik) deb atashib, ular aniq bir maoshga ega emas edilar.

Xiva va Buxoro xonliklari shaharlarida harbiylar - sipohlar deb atalar edi. Xususan, Xiva xonligida A.Vamberining ko'rsatishicha, sipohlar xon va unga yaqin amaldorlar boshchiligida 12 toifaga bo'linar edi. Sipohlarning quyi tabaqasini yuzboshi va o'nbooshi tashkil etar edi.

Shaharlarda harbiylarning turli nom bilan ataluvchi boshqa toifalari ham mavjud edi. Buni birgina Toshkent misolida yaqqol kuzatish mumkin. XIX asr

¹ Гаврилов М.Ф. О ремесленных цехах в Средней Азии и их статусах - рисоля // Изв. Средазкомстрариса. Т. 1928. Б. т. 3. С. 229.

² Записки о Кокандском ханстве хорунжего Потанина. С. 277

³ Сборник князя Хилкова. С. 424

⁴ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях. С. 50.

⁵ Галкин М.Н. Показания русских пленных. С. 46.

boshlariga oid ma'lumotlarga ko'ra, shahar aholisining bir qismini "qora qozonlar" tashkil etib, XIX asr boshida ularning "soni 6 mingdan oshmas edi".

Hukmdorlarning yurishlarida shahar va qishloq ahli faol ishtirok etgan. Bunday xalq lashkari "qora cherik" deb atalar edi. Odatda bu lashkar doimiy qo'shinni mustahkamlash maqsadida harbiy harakatlar avj olgan davrda, asosan, biror-bir yordamchi ishni bajarish uchun chaqirilar edi. Buni XIX asr muallifining quyidagi ma'lumotidan ham kuzatish mumkin. Unga ko'ra, Muhammad Niyoz mirob va Xonqa shahrining hokimi Ollanazar boy "qora cherik kuchi va sipohlar qo'mondonligida Xonqada sarqub qurishlari kerak edi".

XIX asr Buxoro xonligida ham qora cherik atamasi uchraydi, Qo'qon xonligida esa u "qil quyruq" deb atalar edi.

Harbiylar safiga shahar aholisining kam ta'minlangan qismi o'z xohishi bilan yozilardi. Bu shaxslar va ularning oilalari soliqlar to'lashdan ozod etilardi. Xivada oddiy askarlarga har bir yurishdan keyin 5 tilla, amaldorlarga esa xizmatlariga qarab 10, 20, 50, 100 va undan ortiq tilla berilgan. Qo'qon xonligida esa harbiylar pul bilan doimiy maosh olmasalarda, xazinadan yiliga ikkitadan to'n, un, juhuri, ot va uning yemishini olganlar.

Shaharlar aholisining katta qismini kambag'allar, faqirlar va moddiy jihatdan umuman ta'minlanmagan kishilar tashkil qilar edi. Shunday aholi haqida yozgan Xafiz Tanish Buxoriy "(Abdullaxon) oldin mutabar mozorlarni ziyorat qilishga intildi va kambag'allar hamda muxtojlariga ko'p sadaqa berdi", - deb qayd etadi.

Aholining quyi tabaqa vakillari turlicha atalgan. Xususan, Buxoroda, N.Xanikovning ko'rsatishicha, XIX asrning birinchi yarmida, "200 misqol kumush yoki 20 misqol oltinga" ega kishi faqir deb, hech narsasi yo'q kishi esa "miskin" deb atalgan. Shaharlarda hech nimasi yo'q sadaqa bilan kun ko'rgan kishilar - gadoylar ham bo'lib, Abulg'oz "gadoylik, sakolik" bilan shug'ullangan kimsalarni o'z asarda eslatib o'tadi.

Turli markazlar aholisining quyi qatlamlari vakillari jumlasiga qullarni ham kiritish mumkin. Qullarning jamiyat hayotida o'z o'ni bor edi. Ular mehnatidan dunyoviy va diniy hukmdorlar xo'jaliklarida keng foydalanilgan. Jumladan, Jo'ybor shayxlaridan Xoja Sa'dning "qalmoq, o'rus va xindistonlik mingta quli bor edi"¹. 1589 yilda Samarqandda tuzilgan bir hujjat matnidan esa Mullaboqi ismli kishining qizi Og'ado'st ismli ayol o'ziga tegishli 39 yoshlar atrofidagi xind qulini sotganligi ayon bo'ladi².

Qullar shahar hayotida o'ziga xos o'rin tutgan. Shahar xo'jaligida og'ir ishlarni bajarishda ularning mehnatidan keng foydalanilgan. Jumladan, Xiva xonligida "asosan ular bilan yerlarning katta qismiga ishlov berishadi", - deb qayd etgan edi N. Muravyev. Poruchik D.Gladishevning ko'rsatishicha, XVIII asrning 40-yillarida Xivada 3 mingga yaqin "rus, qalmiq va boshka millat vakillari tutqunlikda saqlanib, ularni "baxorda Xiva atrofidagi kanalni tozalashga olib chiqar edilar"³. Bunday shaxslardan biri, ingliz savdogari Gokkning ko'rsatishicha, **A.Bekovich-**

¹ Абулаббос. Маглаб-ут Толибин. № 61 кўлёзма. 22-а-бет // Иброҳимов А. XVI аср Ўзбек адабиётининг асосий хусусиятлари. 25-б.

² Казийские документы XVI века. С. 43

³ Показание поручика Д. Гладышева. С. 181

Cherkasskiy bilan Xivaga kelgan va asir etilgan, oqibatda xivaliklar tomonidan qoraqalpoqlarga sotilgan edi. Kelib chiqishi dvoryan bo'lgan bu shaxs- "Gagarin o'g'li Ivan Mixaylov" knyaz "Fyodor Gagarinning jiyani edi"⁴. Tarixchining yozishicha, Xiva xonligiga bostirib kirgan Eron shoxi Nodir xonlikdan hammasi bo'lib 12 ming, poytaxt shaharning o'zidan 4 ming qulni ozod etib, ularning hammasini Xurosonga olib ketgan va "Abiverddan 4 farsax naridagi Xivaobodda" joylashtirgan Ushbu muallifning habar berishicha, Eron hukmdori "Shu bilan birga qalmiq va rus qullarining ayrimlarini o'zi bilan olib" ketgan. 1840 yilga oid ma'lumotlarga ko'ra Xivada uch mingga yaqin ruslar, o'ttiz mingga yaqin forslar va ko'plab kurdlardan iborat qullar bor edi⁵.

Xivadan so'ng shahar jamiyatida qullar ko'p bo'lgan mamlakat Buxoro edi. Xonlik poytaxtida qul savdosi amalga oshiriladigan bozor va "**Poyostona**" **karvonsaroyi** mavjud edi. A.Vamberi Buxoro xonligida qo'l savdosida birinchilikni "Qorako'l, undan keyin esa Qarshi egallaydi", - deb ko'rsatgan edi.

Qo'qon xonligida Buxoro va Xivadan farqli o'laroq qullar nisbatan kamroq edi. Qul savdosi haqida yozar ekan, A.Vamberi, "Diqqatga sazovor tomoni shundaki, Samarqanddan sharqda bu jirkanch savdo yana va yana kuchsizlanib boradi. Qo'qon xonligida bu ish bilan shug'ullanuvchi birorta ham savdogar yo'q, qullarning katta qismi Buxoro mulklaridan sotib olinadi", - deb qayd etgan edi. Shunga qaramasdan, Qo'qon shaharlarida ham qul savdosi mavjud edi. "Biz Qo'qonda bo'lganimizda shaharda qullar bilan savdo mavjud edi. Yosh qul 30 tilla va yosh cho'ri 40 tilla turar edi", - deb yozadi A.Xoroshxin. XIX asr o'rtalariga oid ma'lumotga ko'ra, Toshkentda 167 qul bo'lib, ularning 98 nafari erkaklar, 57 nafari ayollar va 17 nafari bolalar edi. Ular qozoq, qalmiq va eronliklardan iborat edi⁶.

Qullarning shaharlarda yashaganligi ayrim hollarda ulardagi ba'zi joy nomlarida ham o'z aksini topgan. Jumladan, Toshkentda Qulko'cha mavjud bo'lgan¹.

Shaharlar iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda o'rta asr jamiyatining turli vakillari baholi qudrat ishtirok etganlar. Bu borada shahar hayotining rivojiga o'z faoliyati bilan bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatgan ayollarning o'mi va roli katta edi.

Tarixiy manbalarda juda kamdan-kam holatlarda, ayollar haqida uchraydigan ba'zi faktik materiallarga suyanagan holda, ularning shahar hayotida tutgan o'mi hususida ayrim fikrlarni bildirish mumkin.

Hujjatli manbalarda mavjud ba'zi ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, o'rta asr jamiyati hayotida ayollar o'ziga xos xuquq va mavqega ega edilar. Bu hol ayniqsa zodagon va boy ayollar timsolida yaqqol namoyon bo'ldi. Shahar ayollarining bu qatlami o'rta asr jamiyatining ayrim boshqa vakillari kabi yirik ko'chmas mulk egalari edilar. Ular katta yer maydonlari, savdo-hunarmandchilik inshootlari - do'konlar, savdo rastalari va boshqa mulk turlarining egalari sifatida shahar iqtisodiy

⁴ Запись показаний английского купца Гока о его поездке в Каракалпакию через Казахские степи // Казахско-русские отношения в XVI-XVIII веках (Сборник материалов и документов). Алма-ата. Изд. АН Каз. ССР, 1961. С. 209.

⁵ Хива. Или географическое и статистическое описание. С. 103

⁶ Озодаев Ф. Ташкент тарихидан очерклар. С. 27.

¹ Малицкий Н.Г. Ташкентские махаллы и маузе. С. 119.

hayotida mavqeli o'rinlardan birini egallagan edilar. Bunga Buxoro xonligida Jo'ybor shayxlar tomonidan XVI asrning 50-70-yillarida ko'chmas mulk turlarining sotib olinishi munosabati bilan tuzilgan rasmiy hujjatlar orqali amin bo'lish mumkin. Ulardan ayon bo'ladiki, bir qism zodagon ayollar o'zlariga tegishli yerlar, uy-joylar, do'konlar va boshqa mulk turlarini ayrim siyosiy va iqtisodiy sabablarga ko'ra Jo'ybor shayxlariga sotishga majbur bo'lganlar. Ular jumlasiga Jo'ybor shayxi Muhammad Islomga Buxorodagi Masjidi mulla Amir ko'chasida joylashgan bozordagi bir do'konini sotgan Xojixotunni, shu shahardagi To'qumduzlar bozoridagi do'konini sotgan Zuhra ismli ayolni, Masjidi mulla Amir ko'chasida joylashgan bozordagi ikki do'konini sotgan Mamonsulton nomli ayolni, Masjidi Hofizi Mohanin ko'chasida joylashgan bir do'konini sotgan Sultonbeka ismli ayolni kiritish mumkin.

Hujjatlardan ayon bo'ladiki, o'rta asr shaharlaridagi ko'pgina boy ayollar ma'lum turdagi mahsulotni ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashgan mulk turi - do'konlar egasi bo'lgan. Ulardan biri - Nusratbeka XVI asr ikkinchi yarmida Buxorodagi Masjidi mulla Amir ko'chasida joylashgan bozordagi taxta do'konining egasi bo'lgan. Shu davrning boshqa bir vakili - Bichaxotun esa Buxorodagi Safidfurushlar bozorida joylashgan ikki oq mato do'koni egasi sifatida hujjatlarda namoyon bo'ladi. Ularning zamondoshi To'tiyobeka ismli ayol esa Buxorodagi ko'ylak bozorida ikki do'kon egasi bo'lgan. Boshqa - qorako'llik bir guruh shaxslar tomonidan ko'chmas mulk turlarining oldi-sotdisi munosabati bilan tuzilgan hujjat matnidan ma'lum bo'lishicha, ular sotib olgan mulkning g'arbiy chegarasi Mavlono Sarvining Kibak ismli qiziga tegishli qo'y kalla-pochalarini pishirib sotuvchi do'kon bilan chegaradosh edi. Shu davrga oid manbalarda ko'rsatilishicha, XVI asrning boshqa bir vakilasi Og'ajon degan bir ayol esa duradgorlik do'konining egasi bo'lgan.

Mulk egalari bo'lgan ayollar, odatda, shaharlardagi ishlab chiqarish jarayonida shaxsan ishtirok etmasalarda, savdo-hunarmandchilik muassasalari bo'lmish do'konlarda hunarmandlar va o'z ishining mohir ustalari mehnatidan keng foydalanar edilar. Do'konlardagi ishlab chiqarish jarayoni va savdo-sotiq ishlari ustalar va ishonchli ish boshqaruvchilar tomonidan nazorat qilingan va amalga oshirilgan. Bu holni XIX asr ma'lumotlari asosida kuzatish mumkin. Shu asr mualliflari V.Nalivkin va M.Nalivkinalar Farg'ona o'troq aholisi ayollari turmushini tadqiq etar ekanlar, "Biz bir boy ayolni bilamiz. U beva qolganidan so'ng o'zi ishongan uddaburon xizmatkorlaridan biriga turmushga chiqib, uning qo'liga o'zining butun savdo va boshqa ishlarini topshirib qo'ydi"¹, - deb yozadilar.

Shaharlar iqtisodiy hayotida o'rta asr jamiyatining boshqa katlamlariga mansub ayollarning roli katta edi. Ayniqsa, bu borada turli hunarmandchilik sohalarida mehnat qilgan ayollar faoliyati diqqatga sazovordir. Odatda, o'rta asr hunarmandustalari o'zlarining va oila a'zolarining mehnatlariga suyanagan holda mahsulot yaratganlar. Bunday ishlab chiqarish jarayonida oiladagi ayol mehnatining ham o'ziga xos o'rni bo'lgan. Bu holat yaratilgan mahsulotda ayol mehnati ko'p talab qilingan sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, mahsulotning ko'rkamligi va nafisligini oshirish maqsadida ayollar ularga ishlov berishda qatnashganlar. Turli

¹ Наливкин В. и Наливкина М. Очерк быта женщин оседлого туземного населения Ферганы. С. 110.

kiyim-boshqalarga kashta tikib, bezak berishda ular mehnatidan keng foydalanilgan. YE.K. Meyendorf Buxoro haqida yozar ekan, kashta tikuvchi ayollar tomonidan "xattoki charm yoqalar, kamarlar, astarlar va boshqa narsalar" bezatilganligini eslatib o'tadi.

O'rta asrlarda ishlab chiqarilgan mato turlarining ko'plari ayol mehnatining samarasi edi. Ayollar, asosan, ip va ipakdan turli-tuman gazlamalar to'qish jarayonida ishtirok etar edilar. XVIII asrning ikkinchi yarmiga oid manbalardan birida "Buxorodagi ip matolarni to'qishda hamma ayollar ishtirok etishadi", - deb ko'rsatib o'tiladi. 1812 yilda Qo'qon xonligiga kelgan Mir Izzatulla o'z yodnomalarida buxorolik harbiylar kiyimi haqida yozar ekan, "ularning ba'zilar kashta tikilgan matodan yoki Buxoro ayollari tomonidan to'qilgan yarim ipak mato - adrasdan" tikilganligini alohida qayd etadi². Zahiriddin Muhammad Bobur ta'rificha, hamma o'lkalar va mamlakatlarga elitilgan "Samarqandning yana bir matoi qirmizi bahmal"da ham ayollarning mehnati singgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Mustaqil ravishda ayollar shug'ullangan hunarmandchilik sohalaridan yana biri - **kiyim-bosh tikish sohasi** edi. Shaharlardagi kiyim-bosh bilan savdo qiluvchi ko'pgina bozorlarda ayollar mehnati bilan yaratilgan mahsulot turlari - yaktak, ko'yak, nimcha, to'n, do'ppi, belbog' va boshqa kiyimlar bilan keng savdo amalga oshirilgan. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari shaharlarida yaratilgan bu mollarga ko'pincha yuqori did bilan **kashtalar** tikilgan. Shuningdek, ular yuksak badiiy san'at namunalari bo'lgan va o'rta asr jamiyatida talab katta bo'lgan so'zana va gulko'rpa kabilarni **tikkanlar, sholcha va gilamlar** to'qishda mohir xunar egalari bo'lganlar.

Ayollar to'qimachilik ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan xomashyoni yetishtirish va qayta ishlash bilan ham shug'ullanganlar. Jumladan, ular ipak qurti boqishda asosiy kuch edilar. Ular erlari va farzandlari tomonidan yetkazib berilgan tut barglari bilan ipak qurti boqib, to'qimachilikning ipak matolar to'qish sohasi uchun zaruriy xomashyoni yetkazib berganlar. Asosan, ayollar mehnati bilan xonliklar qishloq va shaharlarida yetishtirilgan ipak xomashyo sifatida - **Xindiston, Eron, Qobul** va boshqa mamlakatlarga ko'p miqdorda olib ketilgan.

Shahar ayollari qishloq ayollari kabi paxta tozalash va undan ip yigirib, kalava tayyorlash bilan ham keng shug'ullanganlar. Ayollar tomonidan yigirilgan ip kalavalari bilan shahar bozorlarida keng savdo amalga oshirilgan. Masalan, XIX asrning 60-yillarida "Xiva xonlarining arxivi"ga oid hujjatlarning birida keltirilishicha, bozorlarda ip kalava sotuvchi - "**ipchilar**" bo'lgan. Ayollarning iqtisodiy hayotdagi o'rni ularning hunarmandchilikning boshqa sohalaridagi faoliyati bilan ham belgilanadi. Bunday sohalar jumlasida terini oshlash, unga rang berish, po'stin tikish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Iqtisodiy hayotning muhim jabhalaridan biri - savdo bo'lib, unda ham shahar ayollarining bevosita yoki bilvosita ishtiroki yaqqol ko'zga tashlanadi. XVI-XIX asr o'rtalarida xonliklar shaharlariga tashrif buyurgan ayrim shohidlarning guvohligiga ko'ra, shahar bozorlarida umuman ayollarni va xususan, savdo-sotiq ishlarida bevosita ishtirok etgan ayollarni uchratish qiyin edi. Lekin, shunga qaramasdan, ayrim shahar bozorlarida iqtisodiy jihatdan nochorligi tufayli o'zi yoki yaqinlari

² Путешествие Мир Иззет Уллы. С. 206.

yaratgan mahsulotlar - **qiyiq, do'ppi, yaktak** kabilarni sotib yurishga majbur bo'lgan paranji yopingan ayollarni ba'zi mualliflar eslatib o'tadilar. Odatda, ularning yoshi o'tgan qariya ayollar bo'lganlar¹. 1813-1814 yillarda Toshkentga kelgan F.Nazarov, "Men ayollarni faqat bozorlarda, yopinchiq ostida ko'rdim - deb eslatib o'tadi"². V.Nalivkin va M. Nalivkinalar Farg'ona vodiysi ayollari haqida yozar ekanlar, ulardan biri - eski paranjiga o'ralgan "kichkinagina bukri kampir" haqida to'xtalib, u bozorning bir burchagida "qizil dasturxon yopilgan savatdagi nonlarni sotish uchun tizzasiga qo'yib o'tirganini", eski paranjiga o'ralgan boshqa ayollar esa qo'llarida ip kalava, ro'mol va qiyiqlarni sotish uchun ko'tarib yurganliklari haqida guvohlik beradilar³.

O'rta asr shahar ayollarining iqtisodiy hayotdagi mavqei haqida fikr yuritilar ekan, ularni ma'lum darajadagi xat-savodga, ba'zilari esa o'z davriga nisbatan munosib ma'lumotga ega ayollar ekanligini alohida ta'kidlab o'tmoq darkor. Ular o'z hayotlari davomida faol ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko'rsatib, shahar taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar⁴. Bu hol, asosan, zodagon ayollar qatlamiga xos edi. Bunday ayollardan biri Muhammad Shayboniyxonning kelini Mehr Sultonxonim bo'lib, u boy-zodagon va ma'rifatlilar bir ayol sifatida o'ziga tegishli mulkning katta qismini ma'lum siyosiy, iqtisodiy sabablarga ko'ra masjid va madrasalar foydasiga vaqf etganligi R.G.Muqminova tomonidan atroflicha tadqiq etilgan"⁵. XVI asr oxiriga oid hujjatlar to'plami - "Majmua-yi vasoiq"da keltirilgan bir hujjatda ham shunday ayollardan biri - Bibi Og'a Jon haqida so'z boradi. Samarqandlik bu ayol Ustod Latifning qizi bo'lib, u o'ziga tegishli omborxona, bir xona va ellik gaz mulk yerini Samarqanddagi masjidlarining biri foydasiga vaqf etganligi ushbu hujjatda o'z aksini topgan.

Shaharlik ayollar ma'lum huquq va majburiyatlar egasi ham edilar. Ijtimoiy hayotda ularning o'ziga xos o'imi mavjud edi. Ular qozixonalarda turli huquqiy masalalar bo'yicha va oldi-sotdini rasmiylashtirish jarayonlarida ishtirok etganlar. XVI asr o'talariga oid hujjatlardan birida ta'kidlanishicha, Jo'ybor shayxlaridan Muhammad Islomga Buxoroda joylashgan o'nta uy, uch daxliz va ayvondan iborat timchani sotgan Bibixonning qozixonadagi oldi-sotdi jarayonida ishtirok etishi buning yorqin dalilidir. Ba'zan o'z ishonchli vakillari orqali oldi-sotdi ishlarini qozixonalarda rasmiylashtirgan ayollar o'z aka- ukalarining ham ishonchli vakili sifatida turli huquqiy jarayonlarda qatnashganlar. Masalan, XVI asrda Kutlug'sulton ismli bir ayol ukasi Arabning uyi sotilishi munosabati bilan uning ishonchli vakili sifatida qozixonadagi huquqiy jarayonda ishtirok etgan.

Tarixiy manbalarda ayollarning ba'zi huquqiy masalalar bo'yicha hukmdorlarga murojaat qilganliklari haqidagi ma'lumotlar ham mavjuddir. Xususan, Zayniddin Vosifiyning ko'rsatishicha, 1524 yilda Pskent yaqinidagi Lag'lag'on degan joyda dam olayotgan Keldi Muhammadxon oldiga ohangaronlik bir ayol o'z

¹ Наливкин В. и Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого тучемного населения Ферганской долины. С. 110.

² Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях. С. 34.

³ Наливкин В. и Наливкина М. Очерк быта женщины тучемной Ферганы. С. 107

⁴ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. С. 92.

⁵ Мукминова Р.Г. Социальная дифференциация населения городов. С. 94, 95, 97.

eri ustidan shikoyat qilib keladi. Tomonlarni eshitgan hukmdor masalani ayol foydasiga hal qiladi.

O'rta asr jamiyati madaniy hayotida ayollarning o'rni o'zgacha bo'lgan. Ularning ma'rifatliligi qismi ba'zi xollarda xotin-qizlarga xat-savod o'rgatganlar, she'rilar bitish, nazmning turli janrlarida asarlar yaratish borasida erkak shoirlardan qolishmas edilar. XVI asr muallifi Hasanxoja Nisoriy shunday ayollardan biri - hisorlik "Ulouj otli nazmga ta'bi bor" bir juvon Mavloni Qabuliy Buxoriy ismli shoir bilan mushoirada ishtirok etganligini qayd etib o'tadi³.

Ayollar haqida so'nggi o'rta asr manbalarida juda kam uchraydigan ba'zi ma'lumotlar asosida amin bo'lish mumkinki, shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida ayollarning mavqei sezilarli darajada bo'lib, ular o'zlarining faoliyati bilan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar.

Shunday qilib, shahar jamiyati turli ijtimoiy qatlamlari vakillaridan iborat bo'lib, ular o'zlarining ijtimoiy holati, moddiy ta'minlanganligi va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turganlar. Shahar aholisining turli ijtimoiy qatlamlari o'z faoliyatlari bilan so'nggi o'rta asr shaharlari taraqqiyotiga muhim xissa qo'shgan.

Tayanch so'zlar:

Xo'jaguzar, Eshonguzar, xevak, sart, Shovvot, chegara qo'rg'onlari, Gurlang, mavzu, bo'z, gaz, Chuvalachi, Koson, xalq lashkari, qora cherik, sarqub, qil quyruq, qalmoq, qarorgoh, miskin, gadolik, saqolik, sadaqa, farsax, cho'ri, Qulko'cha, rasta, mullavachcha, safidfurush, astar, so'zana, gulko'rpa, sholcha, qiyiq, kalava, mo'ysafid.

Test topshiriqlar:

1. Aholining quyi tabaqa vakillari nima deb atalgan?
 - A. Aholining quyi tabaqa vakillari faqir, miskin deb atalgan
 - V. Aholining quyi tabaqa vakillari o'rtahol, kambag'al deb atalgan
 - S. Aholining quyi tabaqa vakillari boy, miskin deb atalgan
 - D. Aholining quyi tabaqa vakillari faqir, o'rtahol deb atalgan.
2. Shaharlarda hech narsasi yo'q faqirning hunari nima deb atalgan?
 - A. Shaharlarda hech narsasi yo'q faqirning hunari Gadoylik, saqolik deb atalgan
 - V. Shaharlarda hech narsasi yo'q faqirning hunari Tilamchilik, bekorchilik deb atalgan
 - S. Shaharlarda hech narsasi yo'q faqirning hunari Yollanma ishchilik deb atalgan
 - D. Shaharlarda hech narsasi yo'q faqirning hunari Yollanma ishchilik, uy xizmatchisi deb atalgan.
3. XVIII asrning 40 yillarida Xivada qancha ruslar va forslar bo'lgan?
 - A. XVIII asrning 40 yillarida Xivada 3 ming rus, 30 ming fors bo'lgan
 - V. XVIII asrning 40 yillarida Xivada 4 ming rus, 31 ming fors bo'lgan

³ Дасанхожа Нисорий. Музакири ахбоб. 82-6.

- S. XVIII asming 40 yillarida Xivada 2 ming rus, 29 ming fors bo'lgan
D. XVIII asming 40 yillarida Xivada 3,5ming rus 30,5 ming fors bo'lgan.

4. XVIII asming 40 yillarida Qo'qonda yosh qul va yosh cho'ri qancha tilla turgan?
A. XVIII asming 40 yillarida Qo'qonda yosh qul 30 tilla, yosh cho'ri 40 tilla turgan
V. XVIII asming 40 yillarida Qo'qonda yosh qul 25 tilla, yosh cho'ri 35 tilla turgan
S. XVIII asming 40 yillarida Qo'qonda yosh qul 20 tilla, yosh cho'ri 30 tilla turgan
D. XVIII asming 40 yillarida Qo'qonda yosh qul 10 tilla, yosh cho'ri 20 tilla turgan.

5. A. Xoroshxin ma'lumotiga ko'ra XIX asr o'rtalarida Toshkentda qancha qul bo'lgan?

- A. A. Xoroshxin ma'lumotiga ko'ra XIX asr o'rtalarida Toshkentda 167 ta qul bo'lgan
V. A. Xoroshxin ma'lumotiga ko'ra XIX asr o'rtalarida Toshkentda 200 ta qul bo'lgan
S. A. Xoroshxin ma'lumotiga ko'ra XIX asr o'rtalarida Toshkentda 298 ta qul bo'lgan
D. A. Xoroshxin ma'lumotiga ko'ra XIX asr o'rtalarida Toshkentda 300 ta qul bo'lgan.

6. A. Xoroshxin ma'lumotiga ko'ra XIX asr o'rtalarida Toshkentda 167 ta qul bo'lib, ulardan qanchasi erkaklar, ayollar va qanchasi bolalar bo'lganligi xaqida xabar beradi?

- A. A. Xoroshxin ma'lumotiga ko'ra XIX asr o'rtalarida Toshkentda 167 ta qul bo'lib, ulardan 98 nafari erkaklar, 57 nafari ayollar, 17 nafari bolalar bo'lganligi xaqida xabar beradi
V. A. Xoroshxin ma'lumotiga ko'ra XIX asr o'rtalarida Toshkentda 167 ta qul bo'lib, ulardan 97 nafari erkaklar, 56 nafari ayollar, 19 nafari bolalar bo'lganligi xaqida xabar beradi
S. A. Xoroshxin ma'lumotiga ko'ra XIX asr o'rtalarida Toshkentda 167 ta qul bo'lib, ulardan 98 nafari erkaklar, 55 nafari ayollar, 19 nafari bolalar bo'lganligi xaqida xabar beradi
D. A. Xoroshxin ma'lumotiga ko'ra XIX asr o'rtalarida Toshkentda 167 ta qul bo'lib, ulardan 92 nafari erkaklar, 57 nafari ayollar, 23 nafari bolalar bo'lganligi xaqida xabar beradi.

QO'SHIMCHA MA'LUMOT: O'rta Osiyoning qadimiy shaharlari tarixi.

Qadimgi davrda ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotida tub o'zgarishlar sodir bo'lgan. Bunda, birinchi navbatda ishlab chiqarish usuli va mulkchilik shakllari tubdan o'zgargan. Bu temir davri jamiyatining rivojlanishi asosida vujudga kelgan bo'lib, jamiyatda shaharlar, davlatlar va jahon imperiyalari tarkib topgan. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida mamlakatimiz tarixiga oid eng qadimgi davrdan boshlab yaratilgan manbalarni chuqur o'rganib, asl tariximizni yaratishni dolzarb masalalari qatoriga ko'targan.

SHAXARNING VUJUDGA KELISH OMILLARI: Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi, sun'iy sug'orishni tashkil qilish, hunarmandchilik sohalarining rivojlanishi.

- Xunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi
- Ijtimoiy tengsizlikning kelib chiqishi
- Yemi sug'orish bilan bog'liq muammolarni birgalikda hal qilish
- Yemi xaydashda hayvon kuchidan foydalanish
- Aholining bir xudoga e'tiqod qilishi


O'rta Osiyoning janubiy hududlarida bronza davrida (mil avv. 2 ming yillik) dehqonchilik madaniyati ravnaq topib, ilk shahar madaniyati tarkib topdi.

O'zbekistonning janubiy—sharqiy, markaziy va shimoliy hududlarida, ya'ni Samarqand, Farg'ona, Qarshi vohasi hududlarida ilk shahar madaniyati izlari ilk temir davriga kelganda (mil avv. 1 ming yillik) vujudga keldi.

O'zbekiston xududida tashkil topgan **ilk shahar Jarqo'ton** hisoblanadi.

U bugungi kunda Surxondaryo xududida joylashgan bo'lib, 4 ming yillik tarixga ega. U bronza davrida vujudga kelgan. 1973 yilda A.Asqarov tomonidan topib o'rganilgan. Shaharning umumiy maydoni 100 gektarga teng bo'lib, uch qismdan iborat bo'lgan. Jarqo'tondan ark, ibodatxona, ko'plab kulolchilik ustaxonalari, metallurgiya pechlari ochib o'rganilgan.

Jarqo'ton ibodatxonasi:



Tosh yo'lak. Jarqo'ton:



Qadimgi davrda O'zbekiston hududida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan katta o'zgarishlar sodir bo'ldi.


Bu davrda O'zbekistonning moddiy madaniyati rivojiga ahamoniylar, yunon-makedonlar, kushonlar madaniyati sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Qadimgi Xorazm yodgorliklari va ularning o'rganilishi: Qadimgi Xorazm xududidan **Ko'zaliqir, Kal'aliqir, Oybuyirqal'a va Dingilji** qo'rg'onlari topib o'rganilgan.

Oybuyirqal'adan eng qadimgi yozuv namunasi topilgan. U xum sirtiga yozilgan bo'lib, unda xumning sig'imi ko'rsatilgan.

Ko'zaliqir qal'asi: Mil.avv. VI-IV asrlarga oid. Amudaryoning chap sohilida qadimgi Xorazm xududida joylashgan. 1938 yilda S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan topilgan. Umumiy maydoni 25 ga dan ortiq. Yo'laksimon, burj va shinaklari bo'lgan mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan. Ko'zaliqirda stasionar arxeologik tadqiqotlar 1953 yilda boshlanib, XX asrning 80-yillarigacha davom etgan.

Ko'zaliqir qal'asi.Tarhi.



Oybuyirqal'a: Qoraqalpog'istondagi Shumanay qishlog'idan 41 km shimoli-g'arbda joylashgan. Halq uni Djampikqal'a deb ataydi. Yodgorlik dastlab 1946 yilda royxatga olingan. XX asrning 70-80 yillarida arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. mil.avv.V asrlarga oid madaniy qatlamlari topildi. Qal'aning umumiy maydoni 10 ga. Burjlar bilan mustahkamlangan mudofaa devoriga ega bo'lgan. Yodgorlikning quyi qatlamidan bir metr balandlikdagi 3 ta xum topildi. Xumlarning har birida yozuv bor, ularni sug'dshunos olim V.A.Livshis o'qigan. Oramiy yozuvi asosida shakllangan ilk Xorazm yozuvi ekanligini aniqladi.

Qal'aliqir: Qo'zaliqirdan janub tomonda Tashxouz viloyati xududida joylashgan. Uning tarhi kvadrat shaklida bo'lib, 1000x700 m. Qal'a devorlarida minoralar bor va uning 4 ta darvozasi murakkab tuzilishdagi labirint bilan himoyalangan. Yodgorlik dastlab 1938 yilda royxatga olingan. 2 ta qurilish bosqichi aniqlangan, 1- qurilish bosqichi arxaiik davrning oxirlari bo'lib, bu davrda qal'a bunyod etilgan. Lekin qurilish oxiriga yetkazilmay tashlab ketilgan, yong'in izlari uchraydi. 2- Qurilish

bosq'chi antik davrga tegishli bo'lib, bu davrda qal'a zardushtiylarning qabristoni vazifasini bajargan.

Kapitel. Qal'aliqir



Antik davrda O'zbekiston:

Xorazmda Yonboshqal'a, Ayozaqal'a, Bozoraqal'a, Tuproqqaqal'a, Qoyqirilganqala;
Farg'onada Axsikent, Koson, Marhamat kabi yodgorliklar, yuzlab qishloqlar shakllandi.

Baqtriyada Dalvarzintepa, Eski Termiz, Jondavlattepa;

Sug'da Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Poykent;

Chochda Qanqa, Shoshtepa, Qovunchitepa;


Axsikent:

Axsikentning eng pastki madaniy qatlami mil.avv. III –II asrlarga oid. Qal'a paxsa va xom g'ishtdan qurilgan mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan. Devor balandligi 20 metrga yaqin bo'lib, qalinligi 10 metr bo'lgan, 5 ta darvozasi bo'lib, uning atrofi chuqur xandaklar bilan o'ralgan. Shahriston 35 ga maydonni egallagan. Hozirda uning 25 ga xududi saqlanib qolgan. Shahriston ikki qism- ichki va tashqi qismdan iborat bo'lgan. Ichki shaxaristondan 2 ta minora, tashqi shahriston devoridan 20 ga yaqin minora qoldiqlari topilgan. Milodning V-VII asrlarida shaharda aholi uylar 5-6 xonali qilib qurilgan. VII-IX asming boshlaridagi arab yilnomalarida Axsikent "Fraganik" deb beriladi.


Qoyqirilgan qala:

Mil.avv. IV–III asrlarga oid. Qala aylana shaklda qurilgan. Uning markaziy qismida ark joylashgan. Arkning atrofi 2 qator mudofaa devori bilan himoyalangan. Tashqi mudofaa devorda har 18–26 metrdan burjlar joylashgan. Bu devor xom g'isht va paxsadan qurilgan bo'lib, qalinligi 1 metr, balandligi 7 metr bo'lgan. Bu qala ibodatxona va rasadxona sifatida ham foydalanilgan. Bu yerdan oramiy xatiga asoslangan qadimgi Xorazm yozuvi topilgan. Yozuv xumning tepa qismiga "aspabarak", ya'ni "otda ketayotgan", yoki "ot minib turgan" ma'noni anglatadi.

Qoyqirilgan qala



Qoyqirilgan qala



Tuproqqal'a:

To'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, qudratli mudofaa devoriga ega. Devor burchaklarida burjlar bor. U 17,5 gektar maydonni (500 x 350) egallaydi. XX asming 40 – 50 yillarda S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Shahar markazidan katta ko'cha o'tgan bo'lib u shaharni ikki qismga bo'lib turibdi. Markaziy maydonda qasr va ibodatxonalar joylashgan. Ushbu yodgorlikdagi devorlar rasm va haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan. 138 ta haykallar, saroy ayonlari, jangchilar, ohular, sozanda ayollar tasvirlangan rasmlar topilgan.

1948-1949 yillarda teri va yog'ochga yozilgan 140 ta hujjat chiqib, ulardan 26 tasi yaxshi saqlangan. Xorazm hududidan 60 ga yaqin Kushon tangalari topilib, ular Kadir II, Kanishka, Xuvishka, Vasudevalar davrida zarb qilingan. Qadimgi davrda Xorazm haykaltaroshlik maktabida mintqa aholisining tipi aniq mahorat bilan aks ettirilgan. Haykallarda mahalliy aholining kiyim –kechagi va turmush tarzi ham aniq ifoda etilgan. Haykallari asosan **Qoyqirilgan qal'a, Oq qal'a, Tuproq qal'alardan** topilgan.

To'proq qal'a:




Qadimgi Xorazm poytaxti- Oqchaxonqal'a:

Qoraqalpog'istonning Beruniy tumani xududida, Sul-tonvays tog' tizmalaridan 15 km janubda joylashgan. Dastlab 1956 yilda B.V.Andrianov tomonidan o'rganilgan. 1982-85 yillarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida qal'aning asosiy hududi, qurilgan davri aniqlandi. 1995 yildan «Qoraqalpogiston-Avstraliya» xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi u yerda o'z ishini boshladi va ularning faoliyati bugungi kungacha davom etib kelmoqda.

Maydoni 47ga. Teng. Ichki va tashqi qal'adan iborat. Ichki qal'a va tashqi qal'a har biri alohida devorlar bilan o'ralgan bo'lib, ular orasida darvozalar bor. Tashqi qal'a ikki qator devorlar bilan o'ralgan bo'lib, ular orasidan o'qchilar yo'lagi mavjud. Tashqi devorlariga yaqin to'pxonalar o'rnatilgan. Qal'a handaq bilan ham himoyalangan.

Mudofaa devorlari uch qavat qilib qurilgan. Ichki qal'aning markazida saroy-ibodatxona joylashgan. U juda baland fundament ustiga qurilgan bo'lib, unga pandus orqali chiqilgan. Bu bino otashkada bo'lib, u juda olisdan ham ko'rinib turgan. Tepada otashkada joylashgan. Unda quyosh xudosisiga bag'ishlangan mangu olov turgan. Bu inshootni markaziy ibodatxona bo'lgan deb hisoblashadi. Ibadatxona atrofida ikki qator yo'laklar bor. 2005-2008 yillardagi arxeologik tadqiqotlar natijasida, bu yo'laklardan hayvonlar, odamlarning portretlari topilgan.

Oqshaxon qal'a. Tiklangan:



Oqshaxon qal'adagi noyob topilma:



- ▣ **Oadimgi Farg'ona** hududida **Davan davlati**,
- ▣ **Sug'd hududlari Qang'** davlati tarkibida bo'lgan.
- ▣ Mil.av II-mil. I asrlarda **Qang' davlati** yanada rivojlandi.
- ▣ **Qang'ning markazi Choch** bo'lib, bu yerda poytaxt shahar Qanqa (**Kangdiz**) joylashgan edi.
- ▣ **Oadimgi Choch** hududida antik davrga mansub 97 ta yodgorlik topilgan bo'lib, shulardan 23 tasi shahar harobasidir.

Davan davlati:




Shoshtepa:

Toshkent shahrining janubiy qismida, Jo'n kanali qirg'og'ida joylashgan. Bugungi kunda bu hudud Sergeli tumanining Shoshtepa mahallasiga qarashlidir. Yodgorlik dastlab qishloq tarzida shakllanib, mil.avv. II asrga kelib shahar qiyofasini olib boshlagan. Saqlanib qolgan qismining umumiy maydoni 300-250m² ilgari u 25 ga maydonni egallagan.

Shoshtepa:



Shoshtepa. Tashqi devor:



Shoshtepa:




Qanqa:

Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani hududida Ohangaron daryo hududida joylashgan. Mil.avv. III- mil. XII asrlarga oid. Qanqa xitoy yozma manbalarida Bityan, o'rta asrlarda Harashkent nomi bilan atalgan. Dastlab 1898 yilda Turkiston arxeologiya havaskorlar to'garagi a'zolari tomonidan topilgan. XX asming 60-70 yilllarida tadqiqot ishi olib borildi. Qanqa to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilib, umumiy maydoni 200 ga. Bir necha qator mudofaa devori va xandaqlar bilan o'ralgan. Shahar ark, uchta shahriston va rabotdan iborat. Mil. XII asrda Ohangaron daryosi o'zanining o'zgarishi tufayli suvsiz qolib harobaga aylangan.

ГОРОДИЩЕ КАНКА

Аэрофотоснимок с юго-запада. Видны стены, башни и внутренние укрепления.



Qanqa- III-VIII asrlarga oid temirchilar mahallasi:



Qanqa:



Mustaqil ta'lim mavzulari

- 1 Sivilizatsiya va shahar tushunchalarining mohiyati va mazmuni.
- 2 Ilk shaharlarlar paydo bo'lishining shart -sharoitlari va omillari
- 3 Qadimgi Sharq shaharsozligi.
- 4 O`rta Osiyodagi dastlabki shahar markazlari
- 5 O`rta Osiyoda bronza davri madaniyatlari va ilk shaharmonand madaniyati
- 6 Janubiy Turkmaniston ilk shaharsozlik madaniyati
- 7 Janubiy O`zbekistondagi va Farg`ona vodiysidagi qadimgi urbanistik jarayonlar
- 8 O`rta Osiyodagi urbanizatsiya jarayonlarining ilk temir davri bosqichi
- 9 O`rta Osiyo hududida qadimgi aholi va shaharlar taraqqiyoti
- 10 Ilk shaharlarning eng qadimgi davlat uyushmalari paydo bo'lishidagi ahamiyati
- 11 Qadimgi So`g`diyona va Xorazm shaharsozligi tarixi
- 12 Qadimgi shaharlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlar sifatida.
- 13 O`rta Osiyoda Ahmoniylar davri shaharsozligi
- 14 O`rta Osiyoda antik davr shaharsozlik an`analari
- 15 Kushon davri Shimoliy Bqqtriya shaharlari.

Ma`ruza va Seminar mashg`ulotlari mavzulari

- 1 Kirish. O`rta Osiyoda shahar va shaharsozlik
- 2 O`rta Osiyo shaharlari tarixiy qiyofasi va shaharlarning tarkibiy tuzilishi
- 3 O`rta Osiyo shaharlarining fortifikatsiyasida o`ziga xosliklar
- 4 V-XV asrlarda Buxoro, Urganch, Samarqand, Farg`ona, Andijon, Shosh, Iloq
- 5 O`zbek xonliklari davrida shaharlar va shaharsozlik

- 6 Buxoro amirligi shaharlari. Buxoro shaxrining siyosiy markazga darajasiga ko'tarilishi
- 7 Xiva xonligi shaharlari. Urganch va Xiva shaharlarining siyosiy markazga darajasiga ko'tarilishi
- 8 Qo'qon xonligi shaharlari. Qo'qon shaxrining siyosiy markazga darajasiga ko'tarilishi
- 9 Toshkent shaxri tarixiy qiyofasi, siyosiy va iqtisodiy markazga aylanishi
- 10 XVI-XIX asrlarda iqtisodiy va siyosiy markazlar sifatida yangi shaharlarning shakllanishi
- 11 O'rta Osiyo shaharlaridagi boshqaruv tizimi: an'anaviylik va o'ziga xoslik jihatlar
- 12 O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va uning ixtisoslashuvi
- 13 Hunarmandchilik va savdoning qishloq xo'jaligi bilan qo'shib olib borilishi
- 14 Ichki va tashqi savdoning shaharlar taraqqiyotidagi roli. Bozorlar va ularning shahar hayotidagi o'rni
- 15 Shaharliklar ijtimoiy tarkibining asosiy xususiyatlari. Shahar madaniy hayoti va unda aholining ishtiroki

FANNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim o'qituvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda **aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar** kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;

- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“Aqliy hujum” metodi

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalami to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining **yozma va og'zaki shakllari** mavjud. **Og'zaki shaklida** ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. **Yozma shaklida** esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda-yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda-mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;

Hamkorlikda o'qitish

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o'qish, o'rganishdir!

Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi:

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko'nikmalar hamkorlikda o'qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari betakror g'oyalarni ko'proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo'lgan har xil o'quv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy qobiliyatlar rivojlanib boradi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har o'quvchi mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko'proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg'ulot o'tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo'lsa, o'quvchilarning o'rganilayotgan masalaga qiziqishi va faolli ortib boradi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o'qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga nisbatan ko'proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy afzalliklari:

hamkorlikda o'qiyotgan o'quvchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko'maklashadi;

yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o'qish to'g'risida emas, balki insoniy, do'stona munosabat to'g'risida ketayapti;

axborot va "moddiy resurslar", ya'ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar bilan almashadi;

o'rtoqlari bergan ma'lumotlarni o'zlashtiradi va qo'llashga harakat qiladilar. Og'zaki tushuntirishlar, axborotni o'ylab ko'rish va umumlashtirish, o'z bilimlari va ko'nikmalarini boshqalarga uzatish – ularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o'zlashtirish va umumiy maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo'shishga olib keladi;

bolalar bir-biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o'rganadi. Intellektual maydondagi ziddiklar qiziquvchanlikni rivojlantiradi, bilimlarni o'zlashtirish va ularni qayta anglash, o'rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko'p foydali sifat va ko'nikmalarni shakllantiradi;

o'quvchilar yaxshiroq o'qishga intilishda bir-biriga ko'maklashadi. O'qishda o'rtoqlariga yordam berayotgan o'quvchi o'zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o'qiydi;

bir-biriga ta'sir etadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari o'rtoqlariga ta'sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar;

aniq ifodolangan motivatsiyaga ega. Bilimlarni o'zlashtirishga intilish umumiy maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi;

o'zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a'zolari o'z o'rtoqlariga ishonadilar va o'zlarini o'rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O'zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Hamkorlikdagi o'qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:
guruhga bitta topshiriq;

bitta rag'bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a'zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig'indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya'ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog'liq;

har birining o'z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a'zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas'uliyati;

hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o'zaro yordam berish kabi o'zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;

muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o'qiyotgan o'z shaxsiy yutug'ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o'qishga berilgan bo'lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

Guruhda ishlash qoidalari:

Har kim o'z o'rtoqlari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;

Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur;

Har kim yordamga muhtoj bo'lganda uni so'rashi zarur;

Har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;

Har kim guruh ishini natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur.

Boshqalarga yordam berib, o'zimiz tushunamiz!

Biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho'kib ketamiz!

- kabi shiorlar ostida harakat qiladilar.

Guruhda topshiriqni bajarish yo'riqnomasi:

Guruh liderini saylang.

Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingizni muhokama qiling.

Topshiriqni bajaring.

Taqdimotga tayyorlaning.

Taqdimot o'tkazing.

Guruh ishini baholang.

1-bosqich

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta'lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsun, har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak, zarur o'quv qo'llanmalar barchaga yetarli bo'lishi kerak.

2-Asosiy bosqich

Ta'lim oluvchilarni guruhlariga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlariga birlashtirish yo'li asosida ta'lim oluvchilarni guruhlariga bo'ladi.

O'quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta'lim oluvchilar bilan birgalikda uni yechish yo'li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

O'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo'yicha ishini bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni bajarishda qanday qo'shimcha materiallaridan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishini bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqatadi. Ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish- Ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishini bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi; hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

Guruhlarda o'quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha ishini boshlanishi haqida e'lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlash, vazifani bajarish bo'yicha yakka tartibda ishlash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiy yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan alohida bo'lib ishlashga, ko'nikmalarni shakllantirishga e'tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq va samimiy tanbeh qiladi.

Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezonini va ko'rsatkichlarini eslatadi.

3-Nazorat –yakuniy bosqichi

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o'tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarfini talab etadi.

“SWOT – tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S	Kuchli tomoni	
W	Ojiz tomoni	
O	Imkoniyatlari	
T	Xavflar	

“Xulosalash” (Rezyume) texnologiyasi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

“Insert” texnologiyasi

Metodning maqsadi: Mazkur metod o'quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod o'quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi: o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;

yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;

ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda o'quvchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“-” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

“Tushunchalar tahlili” texnologiyasi

Metodning maqsadi: mazkur metod o'quvchilar yoki qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

ishtirokchilar mashg'ulot qoidalar bilan tanishtiriladi;

o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;

belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “mavzudagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Shaxarsozlik		
Shaxriston		
Qarorgoh		
Shaxarlar fortifikatsiyasi		
Jabg'ukat		

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

“Konseptual jadval” metodi

Konseptual jadval metodi - turli g'oyalarni, qarashlarni o'zaro taqqoslash va ularni turli toyifalar bo'yicha taqqoslagan holda baho berishga qaratilgan organayzer hisoblanadi. Metod o'quvchilarni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo) ni ikki yoki undan ortiq jihatlar bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda o'quvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg'ulotlar chog'ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:

O'rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
1-jihat			
2-jihat			

“FSMU” texnologiyasi

“FSMU”– (fikir, sabab, misol, umumlashtirish) metodi munozarali masalalarni hal etish hamda o'quv jarayonining bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu metod o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Bu metod yangi mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, o'zlashtirish, umumlashtirish, o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini yozma shaklda, dalil va isbotlar bilan ifodalashga undaydi.

F	S	M	U
FIKRINGIZ	SABABI	MISOL	UMUMLASHTIRING

“Pinbord” metodi

Pinbord (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirish (klassifikatsiya)ni amalga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bo'lmagan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

O'qituvchi bilan birgalikda flipchart (maxsus doska va maxsus qog'oz yopishtirish imkonini beradigan skotch) yordamida fikrlar jamlanadi, klassifikatsiya qilinadi, muhokamada esa optimal yechimlar bo'yicha aniqlanadi.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- 1) yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- 2) bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- 3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydilar;

4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog'oz va varaqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;

5) ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

O'rta Osivo shaxarlari

Choch (Shosh)	Qubo	Nasaf
---------------	------	-------

"T-sxema"

Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyon jihatini bir necha asosiy belgilarga ko'ra batafsil yoritish maqsadida qo'llaniladi. Ko'p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi.

Agar ular yozilgan fikrga qo'shilsalar, birinchi ustunda "+" aks holda uchinchi ustunda "-" belgisini qo'yadilar.

T-sxema ko'rinishida vazifa

Ha	Fikr-mulohazalar	Yo'q

Izoh: O'qituvchi: Yangi mavzuni bayon qiladi va o'quvchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang'ich ma'lumotlarni beradi;

- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so'raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;
- vaqt tugagach o'quvchilardan izohlarsiz o'z fikr – mulohazalarini o'qib eshittirishlarini aytadi;

- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

O'quvchi: - mavzuni diqqat bilan tinglaydi;

o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;

berilgan sxema asosida tushunchaga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi;

yakuniy xulosasi bilan o'tirganlarni tanishtiradi;

reglamentga rioya qiladi.

Kutiladigan natija: O'quvchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, fanning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'ladi

XULOSA

Mazkur qo'llanma bilan tanishish jarayonida guvoh bo'lganingizdek, asosiy qo'yilgan masalalar O'rta Osiyoning o'rta asrlarda mavjud bo'lgan shaharlari tarixiga bag'ishlangan. Unda jumladan, ilk o'rta asrlardagi O'rta Osiyoda shaxar va shaxarsozlik ishlari, shaxarlarning tarixiy qiyofasi va tarkibiy tuzilishi, siyosiy va iqtisodiy jarayonlardagi o'rni va ishtiroki, shaharliklar ijtimoiy tarkibining asosiy jihatlari, shaharlarning madaniy hayoti va unda aholining ishtiroki kabilar haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tildi. O'rta asrlarda yashab ijod qilgan O'rta Osiyo hamda arab tarixchilari va geograflari tomonidan yaratilgan asarlarda mamlakatimiz hududlarida mavjud bo'lgan ko'plab shaharlar, ularning geografik joylashuvi, nomlanishi, aholisi, ularning mashg'ulotlari, shaharlarning savdo yo'llaridagi o'rni va savdo jarayonlaridagi ishtiroki va boshqa jihatlari haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilganki, ularning ilmiy ahamiyati bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda mazkur masalaning ta'limiy jihatlari ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, bo'lajak tarixchilarga bugungi jahon iqtisodiy taraqqiyoti jarayonlarida shaharlarning o'rni va tarixiy ildizlari haqida, O'rta asr O'rta Osiyo shaharlari tarixiy qiyofasi va shaharlarning tarkibiy tuzilishi, shaharlarining fortifikatsiyasida o'ziga xosliklar, ilk o'rta asrlar va o'zbek xonliklari davrida shaharlar va shaharsozlik ishlari, shaharlarda hunarmandchilik va uning ixtisoslashuvi, ichki va tashqi savdoning shaharlar taraqqiyotidagi roli, bozorlar va ularning shahar hayotidagi o'rni kabilar haqida ma'lumot berish va o'zlashtirilgan bilimlaridan o'quv-tarbiya maqsadlarida foydalanish usullarini o'rgatishdan iborat etib belgilangan. O'ylaymizki, mazkur qo'llanma yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarning amalga oshirilishida munosib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

Asosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon. demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. - 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O'zbekiston, 2017 - 48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -Toshkent, O'zbekiston, 2017.
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. «Sharq» 1998 y.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'anviyat – engilmas kuch. T. “Ma'naviyat”, 2008 y.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T. “O'zbekiston”, 2011.
9. Зиёева В. Ўзбекистон шаҳарлари тарихи. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида. Тошкент. 2017.
10. Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари. XVI-XIX аср ўрталари. Тошкент. 2013.
11. Мамадалиев Х. “Ўзбекистон шаҳарлари” (IX-XII асрлар) Тошкент. 2017.
12. Эшов Б. “Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи” 2017.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари. (VI-VIII асрларда). Тошкент. 2017.
2. Эшов Б. Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент. 2006.
3. Массон В.М. От редактора // Древние города. Материалы к Всесоюзной конференции Культура Средней Азии и Казахстана в эпоху раннего средневековья». Пенджикент, октябрь 1977 г. Л., 1977. - С. 3.
4. Беленицкий А.М., Бентович М.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973; Средняя Азия в раннем средневековье. Археология. Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. М., 1999.
5. Бобоёров Г.Б. Ғарбий Турк хоқонлигини давлат тузуми: Тарих фанлари докт. ... дисс-я. Т., 2012.
6. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Т., 2001. - 141-150-б
7. Камалиддинов Ш.С. Книга ал-ансаб Абу Саъда ас Самъани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. Т.: Фан, 1993. С. 114.
8. Абу-л-Фадл ибн Мухаммад Джамал ад-Дин Карши. Мулхакат ас-сурах / Материалы по истории Средней и Центральной Азии. С. 122.
9. Молдабаев И.Б. Манас о городах Бухара и Хива // Тезисы докладов международного (симпозиума посвященного 2500 летию Бухары и Хивы. Г.; Фан, 1997. С. 81.
10. Исхақхон Жунайдуллахожа ўғли Ибрат. Ғарғона тарихи. 285-б.

12. Путешествие Мир Иззет Уллы в Кокандское ханство в 1812 году // Труды САГУ. Новая серия. Вып. LXXVIII. Ист. науки. Кн. 11. Т., 1956. С. 159.
13. Мухаммад Хаким-хан. Мунтахаб ат-таварих // Материалы по истории Средней и Центральной Азии. С. 278.
14. Бейсембиев Т.К. "Тарихи Шахрухи" как исторический источник. Алмата: Наука, 1987. С. 11.
15. Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. — Казань: Типография императорского Университета. 1886. С. 51.
16. Мухаммад Хаким-хан. Мунтахаб ат-таварих // Материалы по истории Средней и Центральной Азии. С. 280.
17. Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства // Записки Императорского Русского Географического общества. Спб., 1851. Кн. 5. С. 102.
18. Костенко Л. Город Хива в 1873 году // Военный сборник. 1879. №12. С. 321-340.
19. Мирза Мехди-хан Астрабадский. Тарих-и Надири. Перевод извлечений под ред. А.Н.Болдырева/МИИТ. С.138.
20. Агзамова Г. Ўзбекистон шахарлари. (XVI-XIX асрнинг ўрталари). Тошкент. 2017. 346.
21. Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине // Военный сборник. Спб., 1876. С.417.
22. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. Т.: Юддузча, 1990. 6-6.
23. Путешествие Мир Иззет Уллы от границы Кокандского ханства до города Самарканда // Труды САГУ. Новая серия. Вып. XC. Ист. Кн. 14. Сер. История. Т., 1957. С. 48.
24. Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине // Военный сборник. Спб., 1876. С.425.
25. Поездка Поспелова и Бурнашева в Ташкент в 1800 году // Туркестанский сборник. Спб., 1833. Т.343. С. 27.
26. Хорошкин А.П. Очерки Коканда // Сборник статей, касающихся Туркестанского края // Туркестанский сборник. 1.116. Спб., 1876. С. 40.
27. Шишкин В.А. Архитектурные памятники Бухары. Т.: УзФан. 1936. С. 77.
28. Хорошкин А.П. Самарканд (Листки из памятной книжки) // Сборник статей, касающихся до Туркестанского края А.П. Хорошкина. Спб., 1876. С. 208.
29. Кун А. Культура оазиса низовьев Аму-Дарьи // Материалы для статистики Туркестанского края. Спб., 1876. Был. IV. С. 240.
30. Маньковская Л.Ю. Типологические основы: зодчества Средней Азии (1X-начало XX в.). Т.: Фан, 1980. С. 67.
31. Галкин М.Н. О Шехри-Себзской области Бухарского ханства // Известия Императорского Русского Географического Общества. 1865. Т.1. С. 134.
32. Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демезона и И.В. Виткевича). М.: Наука, 1983. С. 92.
33. Соболев Л.Н. Обзор доступов к Хивинским ханству и краткие сведения о нем. Военно-статистический очерк // Военный сборник., 1873. Кн. 5-6. С. 161.

33. Мухаммаджонов А.Р. Қадимги Тошкент. Тарихий ва археологик лавҳалар. Т., Фан, 1988. 57-6.
34. Мирза Шемс Бухари. О некоторых событиях в Бухаре и Кашгаре. Записки Мирзы-Шемса Бухари / Пер. и прим. В.В. Григорьева. Казань, 1861. С. 8.
35. Бабаяров Г. Чач в период Тюркского каганата // Археология и история Центральной Азии. К 70 летию Ю.Ф. Бурякова. Самарканд, 2004. - С. 28-36;
36. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса VI - VIII вв. Т., 2007.
37. Бабаяров Г. Чоч тарихидан лавҳалар. Т., 2010.
38. История Бухары с древнейших времен до наших дней. Под редакцией академика АН Узбекской ССР И.М. Муминова. -Ташкент: Фан, 1976. -С. 84.
38. Филанович М.И. Ташкент: зарождение и развитие города и городской культуры. Ташкент, 1983.
39. Страбон. География в 17 книгах // Пер. и коммент. Г.А. Стратановского. М., 1964. XI. 8.8.
40. Древние авторы о Средней Азии (VI в. до н.э. – VI в. н.э.). Ташкент, 1940. С. 23.
41. Дуке Х. Туябугузские поселения Бургулюкской культуры. Ташкент, 1982.
42. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент, 1982. С.103-106.
43. Мукминова Р.Г., Филанович М.И. Ташкент на перекрестке истории. Ташкент: Фан, 2001. С.13.
44. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрания сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. 2. М.-Л., 1950. С.184.
45. Массон М.Е. Прошлое Ташкента. Ташкент, 1954. С. 107; Филанович М.И. Зарождение и развитие города и городской культуры Ташкента. Ташкент, 1983. С. 35, 174-176.
46. Буряков Ю.Ф. Чач в свете новых письменных и археологических источников // Қадимги Ўрта Осиё тарихидан лавҳалар. Тошкент, 2008. 104-бет.
47. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрания сведений о народах.... Т. 2. С. 184.
48. Буряков Ю.Ф., Касымов М.Р., Ростовцев О.Р. Археологические памятники Ташкентского оазиса. Ташкент: Фан, 1992. С. 49.
49. Давидович Е.А. О загадочных дирхамах Мусейяби и Титрифи. Из истории монетного дела в Средней Азии IX-X вв. // Труды XXV Международного конгресса востоковедов. М.: Наука, 1960. С.90.
50. Истахри. Китаб масалик ал-мамалик. Материалы по истории кыргызов и Кыргызстана. Бишкек, 2002. С. 24, 33-35.
51. Бетгер Е.К. Извлечение из книги «Пути и страны» Абул-Касыма ибн Хаукаля // Труды САГУ. Вып. Ташкент, 1957. С.22-24.
52. Буряков Ю.Ф. К исторической топографии средневекового Илака // СА. 1972. № 2. С. 51-62.
53. М. Махкамов Из истории урбанизации Древнего Чача-Илака В статье рассматривается образование земледельческой культуры оазиса Чач-Илака и влияние этого процесса на развитие городов. Показаны роль и место урбанизации Чач-Илака в древней истории Средней Азии.

54. M. Makhkamov From the history of ancient Choch-Ilak's urbanization In given article is considered formation of early agriculture in the Chach-Ilak oasis and influence of this process on development of the cities. Also is illuminated place of the urbanization processes in Chach-Ilak in ancient history of Central Asia.

Adadi 100 nusxa. Hajmi 23,25 b/t. Bichimi 60x84 ¹/₁₆
«Times New Roman» gamiturasi. Ofset usulida bosildi.
Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida nashr qilindi.
Toshkent, Yusuf Xos Hojib 103.

